

Odilqoriyev X.T.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

DARSLIK

**Toshkent
«Adolat»
2018**

UO‘K: 321.01+340(075.8)

KBK: 67.0

O-29

O-29

Odilqoriyev X.T.

Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b.

ISBN 978-9943-5136-3-1

UO‘K: 321.01+340(075.8)

KBK: 67.0

Taqrizchilar: O.T. XUSANOV,

yuridik fanlar doktori, professor,

I. TULTEEV

yuridik fanlar doktori

Darslik davlat va huquq sohasidagi zamonaviy ilmiy konsepsiyalarni inobatga olgan holda tayyorlangan bo‘lib, uning mavzulari an‘anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi muammolar hamda nuqtayi nazarlar talqini asosida yoritilgan. Unda mamlakatda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati, demokratik davlatchilik va huquqiy tizim xususiyatlariga oid nazariy xulosalar o‘z ifodasini topishi barobarida, davlat va huquqning vujudga kelishi, mohiyati, mexanizmi, funksiyalari, shakllari, ularning jamiyatni modernizatsiyalashdagi roli jonli tarzda bayon etilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv yurtlarining talabalari, o‘qituvchilari, mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar, magistrlar hamda davlat va huquq masalalariga qiziquvchi barcha kitobxonalarga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-5136-3-1

© X.T. Odilqoriyev, 2018-y.

© O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
«Adolat» nashriyoti, 2018-y.

M U N D A R I J A:

| | |
|---|----|
| KIRISH | 8 |
| I bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING PREDMETI VA METODI | 13 |
| 1-§. Davlat va huquq nazariyasi – umumnazariy ijtimoiy fan | 13 |
| 2-§. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti | 16 |
| 3-§. Davlat va huquq nazariyasining metodologiyasi | 20 |
| 4-§. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o‘rni hamda ahamiyati | 28 |
| 5-§. Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari | 33 |
| II bob. DAVLAT VA HUQUQNING VUJUDGA KELISHI | 36 |
| 1-§. Jamiyat tushunchasi, uning tuzilishi va davlat bilan aloqasi | 36 |
| 2-§. Ibtidoiy jamiyat, uning tabiati va xususiyatlari | 39 |
| 3-§. Urug‘chilik tuzumining yemirilishi. Davlat va huquqning kelib chiqishi | 47 |
| 4-§. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning plyuralligi | 52 |
| Birinchi bo‘lim. DAVLAT NAZARIYASI | |
| III bob. DAVLAT HAQIDA UMUMIY TA’LIMOT | 64 |
| 1-§. Davlatning tushunchasi va mohiyati | 64 |
| 2-§. Davlatning mohiyati haqidagi turli nazariyalar | 69 |
| 3-§. Davlatning asosiy belgilari | 73 |
| 4-§. Davlat tipologiyasi | 78 |
| IV bob. DAVLATNING SHAKLLARI | 82 |
| 1-§. Davlat shakli tushunchasi | 82 |
| 2-§. Davlat boshqaruvi shakli | 84 |
| 3-§. Davlatning tuzilish shakli | 91 |
| 4-§. Siyosiy rejim | 96 |

| | |
|---|-----|
| V-bob. DAVLATNING FUNKSIYALARI | 104 |
| 1-§. Davlatning funksiyalari tushunchasi, mazmuni va belgilari | 104 |
| 2-§. Davlat funksiyalarini tasniflash | 107 |
| 3-§. Davlatning ichki funksiyalari..... | 109 |
| 4-§. Davlatning tashqi funksiyalari..... | 113 |
| 5-§. Davlat funksiyalari: muammolar va istiqbol..... | 117 |
| VI bob. DAVLAT MEXANIZMI (APPARATI) | 121 |
| 1-§. Davlat mexanizmi (apparati) tushunchasi va mohiyati..... | 121 |
| 2-§. Davlat mexanizmi (apparati) ning tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari..... | 125 |
| 3-§. Davlat organi tushunchasi va turlari | 130 |
| 4-§. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi | 138 |
| VII bob. JAMIYATNING SIYOSIY TIZIMI VA DAVLAT | 146 |
| 1-§. Siyosiy tizim tushunchasi va turlari | 146 |
| 2-§. Siyosiy tizimning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari | 152 |
| 3-§. Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o'рни | 155 |
| 4-§. Jamoat birlashmalari va davlat organlarining o'zaro munosabatlari | 158 |
| Ikkinchi bo'lim. HUQUQ NAZARIYASI | |
| VIII bob. HUQUQNING MOHIYATI | 165 |
| 1-§. Huquqning tabiatini anglash | 165 |
| 2-§. Huquqning asosiy belgilari..... | 169 |
| 3-§. Huquqning talqiniga oid ta'limotlarning turli-tumanligi..... | 173 |
| IX bob. HUQUQ PRINSIPLARI VA FUNKSIYALARI | 184 |
| 1-§. Huquq prinsiplari tushunchasi va mohiyati..... | 184 |
| 2-§. Huquq prinsiplarining tasnifi..... | 186 |
| 3-§. Huquq funksiyalari tushunchasi va turlari..... | 191 |
| X bob. HUQUQNING SHAKLI (MANBAYI) | 195 |
| 1-§. Huquq shakli (manbayi) tushunchasi..... | 195 |
| 2-§. Huquqiy odat – huquqning tarixiy manbayi | 197 |
| 3-§. Yuridik presedent | 199 |
| 4-§. Normativ-huquqiy hujjat..... | 201 |
| 5-§. Normativ shartnomalar | 208 |
| 6-§. Musulmon huquqining manbalari..... | 210 |

| | |
|---|-----|
| XI bob. HUQUQ IJODKORLIGI | 215 |
| 1-§. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va funksiyalari..... | 215 |
| 2-§. Huquq ijodkorligining prinsiplari | 220 |
| 3-§. Qonun ijodkorligi jarayoni va bosqichlari..... | 224 |
| 4-§. Normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi | 235 |
| 5-§. Qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy siyosat | 240 |
| XII bob. HUQUQ NORMASI | 248 |
| 1-§. Huquq normasi tushunchasi va mohiyati | 248 |
| 2-§. Huquq normasining tuzilishi | 256 |
| 3-§. Huquq normalarining turlari | 262 |
| XIII bob. HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT | 271 |
| 1-§. Huquqiy ong, huquqiy tafakkur va ma'naviyat olami | 271 |
| 2-§. Huquqiy ongning tabiati va strukturasi | 276 |
| 3-§. Huquqiy tarbiya va uni amalga oshirish usullari | 282 |
| 4-§. Huquqiy madaniyat va uning tuzilishi | 285 |
| XIV bob. HUQUQIY MUNOSABATLAR | 292 |
| 1-§. Huquqiy munosabatlarning tushunchasi, tuzilishi va turlari..... | 292 |
| 2-§. Huquqiy munosabatlarning subyektlari..... | 297 |
| 3-§. Huquqiy munosabatlarning obyekti | 301 |
| 4-§. Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar | 302 |
| 5-§. Yuridik faktlar..... | 304 |
| XV bob. HUQUQ TIZIMI VA QONUNCHILIK TIZIMI. QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISH | 310 |
| 1-§. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari | 310 |
| 2-§. Huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi – huquqni tarmoq va institutlarga ajratish mezonini | 316 |
| 3-§. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tafsifi | 318 |
| 4-§. Qonunchilik tizimi | 323 |
| 5-§. Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish tushunchasi va turlari | 327 |
| 6-§. Normativ-huquqiy hujjatning tili va uslubi | 331 |
| 7-§. Qonunlarni tizimlashtirishda yuridik texnikaning ahamiyati..... | 335 |

| | |
|--|-----|
| XVI bob. HUQUQIY TIZIM VA HUQUQIY ISLOHOT | 340 |
| 1-§. Huquqiy tizim tushunchasi va mohiyati..... | 340 |
| 2-§. Huquqiy tizimning tarkibiy elementlari | 344 |
| 3-§. Huquqiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlari | 349 |
| XVII bob. HUQUQNING HARAKATLANISHI VA UNI AMALGA OSHIRISH | 362 |
| 1-§. Huquqning harakatlanishi va uni amalga oshirish tushunchasi hamda bosqichlari..... | 362 |
| 2-§. Huquqni amalga oshirish usullari va shakllari..... | 366 |
| 3-§. Huquqni qo‘llash – huquqni amalga oshirish shakli sifatida..... | 370 |
| 4-§. Huquqni qo‘llash jarayoni va subyektlari | 372 |
| 5-§. Huquqni qo‘llash hujjatlari..... | 377 |
| 6-§. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi..... | 378 |
| XVIII bob. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH | 381 |
| 1-§. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va mohiyati..... | 381 |
| 2-§. Huquq normalarini sharhlash usullari..... | 383 |
| 3-§. Huquqni sharhlashning turlari..... | 389 |
| XIX bob. HOZIRGI DUNYO HUQUQIY TIZIMLARI | 393 |
| 1-§. Dunyoning huquqiy xaritasi: asosiy tushunchalar | 393 |
| 2-§. Dunyo huquqiy tizimlarining tasniflanishi | 397 |
| 3-§. Hozirgi zamon huquq oilalarining umumiy tavsifi | 400 |
| XX bob. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI | 411 |
| 1-§. Huquqiy tartibga solish tushunchasi..... | 411 |
| 2-§. Huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning tarkibiy qismlari | 416 |
| 3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish..... | 419 |
| 4-§. Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy va ruhiy mexanizmi..... | 424 |
| XXI bob. QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT. INTIZOM | 427 |
| 1-§. Qonuniylik tushunchasi, mohiyati va vazifalari..... | 427 |
| 2-§. Qonuniylik prinsiplari va kafolatlari..... | 434 |
| 3-§. Qonuniylikni ta‘minlashda Konstitutsiyaning ahamiyati | 438 |
| 4-§. Huquqiy tartibot va jamoat tartiboti. Intizom..... | 439 |
| XXII bob. YURIDIK IXTILOF (KOLLIZIYA) | 444 |
| 1-§. Yuridik ixtiloflarning tushunchasi, sabablari va oqibatlari | 444 |
| 2-§. Yuridik ixtiloflarning turlari | 450 |
| 3-§. Yuridik ixtiloflarni hal etish tartibi va usullari..... | 453 |

| | |
|---|------------|
| XXIII bob. HUQUQIY XULQ-ATVOR, HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK | 460 |
| 1-§. Huquqiy xulq-atvor tushunchasi, belgilari va tasnifi | 460 |
| 2-§. Huquqbuzarlik tushunchasi va mohiyati | 464 |
| 3-§. Yuridik javobgarlik tushunchasi, belgilari va turlari..... | 470 |
| 4-§. Aybsizlik prezumpsiyasi. Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar | 477 |
| XXIV bob. FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT | 480 |
| 1-§. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyati | 480 |
| 2-§. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy tuzilishi va asosiy prinsiplari | 488 |
| 3-§. Davlat va fuqarolik jamiyati | 491 |
| 4-§. Huquqiy davlat haqidagi ta'limot | 492 |
| 5-§. O'zbekiston – huquqiy ijtimoiy davlat | 498 |
| 6-§. Huquqiy davlat ta'limotining tarixiy-nazariy manbalari..... | 505 |
| 7-§. Huquqiy davlat va uning belgilari | 510 |
| XXV bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA MILLIY HUQUQSHUNOSLIKNING USTUVOR VAZIFALARI | 513 |
| 1-§. Davlat va huquq nazariyasining zamonaviy holati tahlili | 513 |
| 2-§. Davlat va huquq nazariyasining metodologik muammolari | 518 |
| 3-§. Davlat va huquq nazariyasining umumnazariy muammolari..... | 521 |
| 4-§. Davlat va huquq nazariyasining xususiy-nazariy muammolari | 524 |

Mazkur ijod mahsulimni yoshlarga tibbiy bilim va tarbiya berishda umri davomida mehnat qilgan volidayi muhtaramam – Qosimova Nasibaxon Yunusjon qizining yorqin xotirasiga bag‘ishlayman.

KIRISH

Moziydan ma'lumki, davlat va huquq kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichida vujudga kelgan va uning hayotida hozirga qadar muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Davlat ham, huquq ham – o'ta murakkab, ayni vaqtda, serjilo, sirli va ko'p qirrali ijtimoiy hodisalardir. Ular insonlar ongu shuuri va aqlini ohangrabodek o'ziga tortib keladi. Shu bois, insoniyat azal-azaldan ushbu sirli voqeliklarning ma'no-mazmunini anglashga intilib, ularga tinimsiz jiddiy qiziqish bildirib keladi. Tafakkur va aql daholarining sa'y-harakatlari tufayli qadim zamonlardan buyon davlat va huquq haqida teran nazariy ta'limot yaratildi. Ushbu ta'limot bugungi kunda «Davlat va huquq nazariyasi» deb nomlanadi. Bunday ta'limot dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo'lib, fan sifatida o'rganiladi. Davlat va huquq nazariyasi umumbashariy xususiyatga ega, uning universal qoidalari, xulosa va ta'riflari mintaqaviy joylashuvi, milliy mansubligidan qat'iy nazar, har qanday davlatga va huquqiy tizimga umumiy qonuniyatlar nuqtayi nazaridan birdek taalluqlidir.

O'zbekistonda mustaqillik tufayli qaror topayotgan davlatchilik hamda huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining umumiy qonuniyatlari, nazariy andozalari, tamoyil va mezonlariga bo'ysunadi. Boshqacha aytganda, yangi demokratik huquqiy davlatchilik, fuqarolik jamiyati va adolatli huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining ilmiy nuqtayi nazardan asoslantirilgan xulosa, tavsiya va bashoratlari asosida barpo etilishi mumkin va lozim.

Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda shakllanayotgan davlat, huquqiy va qonunchilik tizimlarining mohiyati, ijtimoiy vazifasi fanimiz doirasida keng mushohadaga, nazariy tahlilga muhtojdir. Zero, ularga hali «davlat va huquq nazariyasi» tomonidan munosib ilmiy-nazariy baho berilgani yo'q. Qolaversa, davlat va jamiyat qurilishida ro'y berayotgan islohotlar hamda modernizatsiyalash sharoitida davlat va huquqning namoyon bo'lishi, o'zgarishi, takomillashuvi o'z xususiyatlariga ega bo'lishi tabiiy. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yangi qonunlari, xalqimizning tarixiy huquqiy

merosi, huquqiy qadriyatlari va an'analari, shuningdek, jamiyatimiz maqsadi sifatida ilgari surilgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, demokratiya va inson huquqlari tamoyillarini hayotga joriy qilishga yo'naltirilgan g'oyalar asosida davlat va huquq nazariyasiga oid zamonaviy darsliklar yozish o'zbek huquqshunosligi oldida turgan dolzarb vazifadir.

Bugungi o'zbek jamiyati o'zi uchun «huquqiy davlat», «inson huquqlari» va «shaxs erkinligi», «demokratik fuqarolik jamiyati», «siyosiy hurfiylik» (plyuralizm), «hokimiyatlar taqsimlanishi», «qonun ustuvorligi», «mustaqil sud hokimiyati» kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Ayonki, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotini zamonaviy ma'rifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o'ynaydi. Shu bois, davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tizimning mavjud bo'lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko'p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institutlarning faoliyatiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning saylovoldi Dasturida, shuningdek lavozimga kirishish chog'idagi qasamyodida, Prezident sifatidagi faoliyatining dastlabki yuz kunida e'lon qilgan farmonlarida, ayniqsa, «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da ilgari surilgan yangi g'oyalari huquqshunoslik nazariyasining tahlil doirasini yanada kengaytirishga ijodiy turtki berdi. Bular: – inson manfaatlari va qonun ustuvorligi, hokimiyatning xalq bilan bevosita muloqoti, «davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi», davlat boshqaruvi tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish, adolatli sud tizimini yaratish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, ta'sirchan jamoat nazorati mexanizmlarini vujudga keltirish va boshqalar.

Respublika Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida quyidagilar ta'kidlangan: «Mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, ... globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda»¹.

Davlat va jamiyatni jadal rivojlantirish, modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish maqsadida ushbu Strategiyada davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.

Davlat va huquqni tavsiflashdagi asosiy mezon – ularning jamiyat hayotida o'ynaydigan rolidir. Davlat – jamiyatni uyushtirish, boshqarish vositasi bo'lsa, huquq ijtimoiy munosabatlarni jamiyat va inson manfaatlaridan kelib chiqib tartibga solish vositasidir. Davlat va huquq o'zaro uzviy hodisalar bo'lganligi bois davlatning mohiyatida va faoliyatida qanday o'zgarishlar ro'y bersa, huquqning mohiyati va tabiatida ham shunday o'zgarishlar ro'y beradi. Bu jamiyat hayotining umumiy qonuniyatidir.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida doimo yetakchi o'rinni egallaydi. Uning nazariy umumlashmalari, ta'rif hamda xulosalari yurisprudensiyaning sohaviy fanlari uchun poydevor, metodologik asos vazifasini o'taydi. Chunki, davlat va huquq nazariyasi davlat hamda huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, tarixiy takomillashuv bosqichlari va amal qilishining eng umumiy qonuniyatlarini ochadi, ularni ilmiy-nazariy talqin etadi, ichki mantig'i, mohiyati va salohiyatiga oid ilmiy ta'rifi va tavsifini yaratadi.

Davlat va huquq to'g'risida nazariy bilimga ega bo'lish ushbu ikki hodisaning mohiyati va mazmunini, rivojlanish qonuniyatlarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri talqin qila bilish yuqori malakali yurist mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy, moliya, mehnat huquqi kabi huquq sohalarining maqsadi, mazmunini anglash uchun davlat va huquq nazariyasi fani fundamental asos bo'lib xizmat qiladi, u davlat va huquqning tushunchasi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatish tamoyillariga oid nazariy bilimlarni hosil qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslikning nihoyatda boy, serqirra, shu bilan birga, murakkab, mislsiz olamiga kirishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tafakkur, siyosiy va huquqiy dunyoqarash, huquqiy ong hamda yuridik madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi davlat – huquqiy voqeliklar xususida muntazam tizimli bilimlar hosil qilish – bu fanning asosiy vazifasidir. Bahs mavzusi va tadqiqot doirasiga «davlat», «huquq», «qonun», «demokratiya», «hokimiyat», «siyosat» kabi jozibali, murakkab hodisalarni qamrab oluvchi ushbu fan huquqshunoslikning o'ziga xos qomusi sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqqa tegishli hodisa va jarayonlarning muhim, zaruriy va eng umumiy tomonlarini o'rganish orqali jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini ochish va tushuntirib berish, ijtimoiy hayot maqsadlarini aniqlash va ijtimoiy munosabatlarni davlat va huquq vositasida tartibga solish mexanizmlarini yaratish, ularning rivojlanish istiqbollarini ko'rsatib berish bilan shug'ullanadi.

Mazkur darslikni yozishda nafaqat mustaqillik yillarida to'plangan davlat-huquqiy tajriba, konstitutsiyaviy tamoyillar va nazariy bilimlarga, balki xorijiy tajriba, umuminsoniy, milliy-ma'naviy hamda huquqiy qadriyatlarga, hozirgi

zamonda dunyodagi mavjud davlatchilik va huquqshunoslik konsepsiyalariga, shuningdek xalqimizning asrlar osha shakllanib kelayotgan boy huquqiy merosiga qat'iy tayanildi.

Davlat va huquq nazariyasi milliy istiqlol mafkurasi mohiyatidan kelib chiqqan holda aholining huquqiy ongi va yuksak huquqiy madaniyatini shakllantirishga, ular faoliyatida qonun ustuvorligi, qonunga hurmat va unga itoatgo'ylik ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi. Darslikni yozish jarayonida, ya'ni fanning turli mavzularini yoritishda huquqshunoslik va davlatshunoslikda an'anaviy bo'lib qolgan mumtoz qarashlar, qoidalar bilan mustaqillik yillarida paydo bo'lgan yangi zamonaviy g'oyalar (qarashlar) o'rtasidagi afzallikni aniqlashga doir muhim bir masala ko'ndalang edi. Bu boradagi yechim – an'anaviy va zamonaviy ta'limotlar o'rtasida oqilona muvozanatni topishdan iborat bo'ldi.

Mamlakatimizda davlat va huquq nazariyasi bo'yicha oxirgi fundamental darsliklar chop etilganiga 8-10 yildan ko'p vaqt o'tdi. Shu davr mobaynida jamiyatimiz hayotida qator tub islohiy o'zgarishlar, demokratik yangilanishlar yuz berdi. Yangi darslikni tayyorlash va nashr etishni taqozo qilayotgan bir qancha obyektiv sabab va omillar mavjud. *Birinchidan*, hozir yuridik oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan Davlat va huquq nazariyasi darsliklarida parlamentimiz palatalarining qo'shma majlisida ma'qullangan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ifoda etilgan g'oya va tamoyillar o'z aksini topmagan. *Ikkinchidan*, Konstitutsiyamizga davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga oid o'ndan ziyod o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. *Uchinchidan*, qonunchilik tizimi va qonun ijodkorlik faoliyati jo'shqin rivojlanmoqda. So'nggi yillarda yuzdan ortiq yangi qonunlar qabul qilindi, amaldagi qonunlar davr ruhiga mos tarzda takomillashtirildi. Ularning aksariyati hali davlat va huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan talqin etilgani yo'q. *To'rtinchidan*, mamlakatda parlamentga va prezidentlikka bir necha saylovlar o'tkazildi, saylov jarayoni, amaliyoti va saylov qonunchiligi takomillashtirildi. *Beshinchidan*, huquqni qo'llash amaliyoti, qonunlarni hayotga joriy etish mexanizmlari mukammallashtirilib hamda rivojlanib bormoqda. *Oltinchidan*, inson huquqlarini muhofazalash sohasida yangi milliy institutlar, qonunchilik mexanizmlari va xalqaro tajriba rivoj topdi. *Yettinchidan*, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish borasida muayyan tajriba to'plandi. Fuqarolik jamiyati institutlari ko'lami kengayib, ularning faolligi oshib, ahamiyati ortib bormoqda. Bu vaziyatda davlat va huquqning faoliyat yuritish prinsiplari hamda funksiyalari, hatto tabiati o'zgarimoqda. *Sakkizinchidan*, davlat va huquqqa aksiologik yondashuv tendensiyasi kuchaymoqda, ularga ijtimoiy qadriyat sifatida qaralib, ushbu institutlar-

ning boshqa xususiyatlari qatorida bunyodkorlik jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. *To'qqizinchidan*, huquqiy tafakkurda davlat va huquq borasidagi azaliy, an'anaviy qadriyatlarni, nazariy konstruksiyalarni zamonaviy huquqiy qadriyatlar va yangi konseptual xulosalar bilan uyg'unlashtirish, qiyosiy tahlil etish vazifasi kun tartibiga chiqdi. Va nihoyat, *o'ninchidan*, «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» qabul qilinishi bilan o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Davlat qurilishida va jamiyatni boshqarishda yangi yo'nalishlar belgilandi. Sud tizimi tubdan isloh etilib, yangi mazmundagi sud tuzilmalari (iqtisodiy va ma'muriy sudlar) joriy etildi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalar davlat va huquq nazariyasining tahlil mavzusini jiddiy tarzda kengaytiradi, uning o'rganish doirasiga ko'plab yangi ilmiy kategoriyalar kiritilishini taqozo qiladi. Masalan, sotsial davlat, huquqiy makon, huquqiy siyosat, huquqiy tafakkur, yuridik jarayon, huquqiy prezumpsiyalar, huquqiy nigilizm, ijobiy-huquqiy sanksiya, yuridik mas'uliyat, huquqiy rag'bat va boshqalar.

Darslikda mavzular fan bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturi asosida, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan bo'lib, unda o'rganiladigan masalalar ixtisoslikni hisobga olgan holda yoritilgan. Bu talabalar davlat va huquq nazariyasi fani bo'yicha bayon etiladigan zarur bilimlarni o'zlashtirishini osonlashtiradi. Darslikdan barcha yuridik yo'nalishdagi oliy o'quv muassasalarida tahsil oluvchilar foydalanishlari mumkin.

I bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING PREDMETI VA METODI

1-§. Davlat va huquq nazariyasi – umumnazariy ijtimoiy fan

Dunyo jadal rivojlanayotgan, global-
lashuv jarayonlari mamlakatlar hayotini to-
bora qamrab olayotgan bugungi sharoitda
insonlarda barcha ijtimoiy voqelik va hodisa-
larga qiziqish ortmoqda. Bu, o'z navbatida,

mazkur voqeliklarni o'rganishni, chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Insonlarni qiziqtirib kelayotgan shunday muhim ijtimoiy masalalar qatorida davlat va huquq alohida o'rinni egallaydi.

Jamiyatning har bir komil a'zosi o'zi tug'ilgan zaminning, o'z mamlakati-
ning xususiyatlarini, dunyo davlatlari o'rtasidagi mavqeyini anglashga hara-
kat qiladi. Binobarin, davlat va huquq masalasi doimo ijtimoiy ongning diqqat
markazida turadi va har qanday ijtimoiy hodisani tadqiq etish ma'lum ilmiy
yo'nalish, biron-bir fan tomonidan amalga oshiriladi. Davlat va huquq hodisalari
«*Davlat va huquq nazariyasi*» fani yordamida o'rganiladi.

Tahlilimiz avvalida «nazariya» so'zining ma'nosi nimadan iborat ekanligi-
ni oydinlashtirib olish lozim. «Nazariya» iborasi «ko'rib chiqmoq», «tadqiq et-
moq», «tahlil qilmoq» degan ma'nolarni anglatadi. «Nazariya» – keng ma'noda
voqea-hodisalarning o'zaro aloqasi va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil
qiluvchi ilmiy bilim shaklidir. Tor ma'noda esa – u yoki bu sohadagi bilimning
asosiy g'oyalari, tushunchalari va qonunlari tizimidir. Nazariya ilmiy bilimning
voqea va hodisalarning jiddiy aloqalari hamda qonuniyatlari haqida mukammal
tafakkur asosidagi hosilasidir. Nihoyat, nazariya – g'oya, fikr va bilimlarning
tafakkur vositasida tizimli ifodalanishidir. «Nazariy ta'limot» va «konsepsiya»
iboralari aynan bir ma'noni anglatadi.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida fundamental mavqe
va nufuzga ega. U, bir tomondan, ijtimoiy yo'nalish va mazmunga, ikkinchi
tomondan, yuridik voqelikni, davlat va huquq hodisalarini ilmiy, nazariy jihat-
dan tahlil etish xususiyatiga ega. Fanimiz o'z tadqiqotlari natijasida yaratadi-
gan nazariy bilimlar, xulosa va tavsiyalar barcha sohaviy yuridik fanlar uchun
umumnazariy, metodologik ahamiyat kasb etadi. Yuridik voqelikni aks ettiruv-
chi umumiy tushuncha va kategoriyalarni bilmay turib, yurisprudensiyaning
biron-bir masalasini, sohaviy yuridik fanlarning mavzularini o'rganib bo'lmaydi.

Masalan, «davlat», «davlat apparati», «davlat organi», «huquq», «huquq tizimi», «huquqiy munosabat», «normativ-huquqiy hujjat», «huquqbuzarlik», «yuridik javobgarlik» degan tushunchalarning ta'rifini anglamay turib, maxsus fanlarning predmetini o'zlashtirib bo'lmaydi.

Davlat va huquq nazariyasi asosiy, yetakchi yuridik o'quv fani sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

birinchidan, o'zining aniq predmetiga, o'rganadigan mavzulari doirasiga ega;

ikkinchidan, davlat va huquq haqida yaxlit umumiy nazariy bilim beradi, davlat va huquqning mohiyati, taraqqiyot bosqichlari va qonuniyatlarini ochib beradi;

uchinchidan, davlat va huquq sohasida to'plangan bilimlarni «davlat», «huquq», «qonun», «hokimiyat», «demokratiya» va boshqa kategoriyalarda (tushunchalarda) ifoda etadi;

to'rtinchidan, davlat va huquqning ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishidagi obyektiv jarayonlarni, dialektikasi va taraqqiyot qonuniyatlarini aks ettiradi.

Xullas, davlat va huquq nazariyasi yuridik ta'lim tizimidagi o'quv fanlari orasida asosiy o'rinni egallaydi. Bu fan bo'lajak huquqshunoslarda huquqiy tafakkur va dunyoqarashni, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Davlat va huquq nazariyasini huquqshunoslikning alifbosi deyish mumkin. U umumiyuridik fan sifatida sohaviy huquq fanlari uchun poydevor bo'luvchi ilmiy kategoriyalar tavsifini shakllantirib beradi.

Davlat va huquq nazariyasining quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim:

– davlat va huquq nazariyasi jamiyatdagi muhim ijtimoiy hodisalar – davlat va huquqni o'rganadi;

– davlat va huquq inson hayotining asosiy hamrohi va tartibga soluvchi mezon hisoblanadi;

– davlat va huquq bir necha asrlik tarixiy davrni bosib o'tgan va bugungi qiyofaga erishguncha umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar hamda tajribani o'z mazmuniga jo etgan;

– inson o'zi istiqomat qilayotgan zaminga, davlatga hamisha qiziqish bilan qaraydi, uni anglash va mushohada etishga intiladi;

– inson o'z faoliyati davomida muayyan qoida, norma, ya'ni huquqqa amal qilish barobarida uning mohiyatini anglashga ehtiyoj sezadi;

– davlat va huquq jamiyat taraqqiyoti bilan aloqadorlikda hamda uyg'unlikda rivojlanib boradi, shu bois, ijtimoiy tamaddun qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Davlat va huquq nazariyasi – davlat va huquqning vujudga kelishi, mohiyati, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi to'g'risidagi umumiy qonuniyatlarni ifodalovchi fundamental bilimlar tizimi. Shuningdek, bu fan davlat va huquq haqidagi qarashlar, g'oyalar, fikrlar va bilimlarning mantiqiy tarzda umumlashtirilgan sistemasi hisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida, ya'ni muayyan zamon va makonda istiqomat qilgan insonlar o'sha davrning siyosiy tuzumi, mafkuraviy-g'oyaviy jihatlari, boshqaruv tartibi, ijtimoiy ongi va madaniy taraqqiyotidan kelib chiqqan holda davlat va huquqqa munosabat bildiradilar, ularga baho beradilar. Har bir tarixiy davrda davlat va huquqning mohiyati o'ziga xos, davrga mos tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi davlat va huquqqa ham yangicha qarash, yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Davlat va huquqning mohiyatida tub o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimiz sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan vaqtda davlatga iqtisodiy hukmron sinflarning tashkiloti, huquqqa esa, ijtimoiy tartibga solishning zo'ravonlik (sinfiy hukmronlik) quroli sifatida munosabat bildirilgan edi. Bugungi kunga kelib, ya'ni demokratiya sharoitida davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanmoqda. Zamonaviy huquqqa esa, ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashilmoqda¹.

Davlat va huquq nazariyasi ham o'z mazmun-mohiyati jihatidan tadrijiy taraqqiy etmoqda. Unga yangicha zamonaviy qarash, yondashuv shakllanmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdek buyuk maqsadni qo'yganligi bois davlat va huquqqa, uni o'rganishga, tadqiq etishga alohida ehtiyoj sezila boshladi. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi eng asosiy tamoyil sifatida e'tirof etilsa, fuqarolik jamiyatining zaruriy sharti – fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va madaniyati, qonunlardan xabardorlik darajasi hamda huquqqa nisbatan chuqur hurmatidir. Bu tushunchalar, albatta, davlat va huquq nazariyasining obyektini hisoblanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, davlat va huquq nazariyasi zamonaviy dunyo taraqqiyoti, sivilizatsiya bilan hamohang harakatlanuvchi muhim ijtimoiy fan sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi nafaqat mamlakatimizda, balki jahon hamjamiyatida yuz berayotgan yangilanish va yuksalishlar ta'sirida rivojlanmoqda.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: «O'zbekiston», 1996. – 20-bet.

Davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishidagi umumiylik, o'zaro aloqadorlik davlat bilan bir qatorda huquq ham jadal takomillashib borayotganligidan dalolat beradi. Huquqqa liberal yondashuv, uning insonlar hayotiga yanada yaqinlashayotganida, adolat va erkinlik g'oyalari izchil ifodalayotganligida, fuqarolar manfaatlarini yanada mukammal aks ettirayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Insoniyat ongi va tafakkurining yuksalishi barcha ijtimoiy hodisalar kabi davlat va huquqni ham yangicha talqin etmoqda. Davlatning ham, huquqning ham inson uchun, uning manfaati uchun faoliyat olib borishini fuqarolar tobora chuqur anglab yetishmoqda. Turli tarixiy davrlarda davlat va huquqdan turli guruhlar, tabaqalar yoki alohida shaxslar manfaatining himoyachisi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bostirish quroli sifatida foydalanilgan bo'lsa, bugunga kelib ular inson uchun farovon hayotni ta'minlash vositasiga aylanmoqda.

Davlatning mohiyatini anglash, huquqqa zamonaviy yondashuv, huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini ochish, fuqarolik jamiyati barpo etish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish aynan davlat va huquq nazariyasining vazifasidir. Bu, o'z navbatida, fanning xususiyatlarini ochib berish bilan bir qatorda, uning ijtimoiy ahamiyatini, dolzarbligini isbotlaydi.

2-§. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti

Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi dunyoning sir-sinoatlarini anglab yetishda ilm-fanning o'рни beqiyosdir. Olamshumul kashfiyotlar, misli ko'rilmagan ixtirolar – turli fanlarning yutug'i. Bugungi sivilizatsiya sharoitida fanning yangi-yangi tarmoqlari paydo bo'lishi bilan bir qatorda avval mavjud bo'lgan fanlar takomillashib bormoqda. Davlat va huquq nazariyasi fani ham mumtoz fan sifatida zamonaviy davlatchilik va huquqiy amaliyot ta'sirida rivojlanib, yangilanib va boyib bormoqda. Shu o'rinda «fan» iborasi xususida to'xtalib o'tish joiz. Fan – bu ilmning muayyan soha bo'yicha tizimli bilimlar berishga ixtisoslashtirilgan yo'nalishi hisoblanadi. Yanada aniqroq aytganda, fan – tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisi bo'lib, u o'z navbatida, ilmning nazariya, qonuniyat, tushunchalar (kategoriyalar) kabi turkumlarida ifodalanadi. «Fan – tabiat, jamiyat va inson tafakkuri to'g'risidagi tushunchalarda, kategoriyalarda, qonunlarda aks ettirilgan, haqqoniyligi amaliyotda tasdiqlangan bilimlar tizimidir. Har bir fan o'ziga xos obyekti va unga mos keluvchi predmeti bilan ajralib turadi»¹. Fan tabiat va jamiyatni, umuman, borliqni anglashning kalitidir.

¹ Davlat va huquq nazariyasi. Ikki jildli. 1-jild. – T., 2001. – 8-bet.

Mazkur tavsifdan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquqni jamiyatning, ijtimoiy hayotning bir bo'lagi, ya'ni ijtimoiy mazmundagi muhim hodisalar sifatida o'rganadi. Bu fan go'yoki, **davlat** va **huquqni** butun jamiyat hodisalari tizimidan abstrakt tarzda ajratib olib, ularning mazmun-mohiyatini, ichki qonuniyatlarini, amal qilish xususiyatlarini tahlil qiladi. Shu bilan birga, davlat va huquq iqtisod, siyosat, axloq, madaniyat kabi ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadorlikda o'rganiladi. Bunda fanimiz davlat va huquqning nafaqat iqtisod tomonidan belgilanishiga, balki davlat-huquqiy hodisalarning iqtisodiyotga, ijtimoiy va ma'naviy hayotga faol ta'sir etishga qodir omil ekanligiga ham e'tibor qaratadi.

Davlat va huquq nazariyasining predmetini ushbu fan o'rganadigan ijtimoiy masalalar tashkil etadi. Bunday masalalar jumlasiga – davlatning jamiyat bilan bo'ladigan serqirra va murakkab aloqalari, davlat va huquqning jamiyat siyosiy tizimidagi roli va o'rni, shuningdek ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid masalalar kiradi. Davlat va huquq nazariyasi nafaqat davlat-huquqiy mazmundagi voqea, hodisa va jarayonlarni, balki insonlarning davlat va huquq haqidagi tasavvurlarini, ya'ni huquqiy ong, huquqiy mafkura, huquqiy madaniyatni ham o'rganadi. Demak, davlat va huquq nazariyasi o'rganadigan masalalar qatoriga aholining ijtimoiy, jamoaviy va individual huquqiy hamda siyosiy ongi, siyosiy-huquqiy madaniyati ham kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat va huquq nazariyasining predmetini davlat va huquq mavjud bo'lishi va rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganish tashkil etadi. **«Qonuniyat»** deganda voqea, hodisa va jarayonlarning mohiyatini ifodalovchi qat'iy, real aloqalar tushuniladi. Demak, davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquqning mohiyati, amal qilishi hamda namoyon bo'lishini ifodalovchi eng qat'iy aloqalarni, xususiyat va omillarni o'rganadi. Shu tarzda fanimiz davlat va huquqning mohiyatini anglab yetishga ko'maklashadigan ilmiy ta'riflar va kategoriyalarni shakllantiradi, davlat va huquq rivojlanishining qonuniyatlarini ochadi.

Ma'lumki, davlat va huquqqa doir masalalar barcha sohaviy yuridik fanlar, jumladan, boshqa ijtimoiy fanlar (tarix, falsafa, siyosatshunoslik va h.k.) tomonidan ham o'rganiladi. Ularning barchasidan farqli o'laroq, davlat va huquq nazariyasi jamiyatda davlat va huquq amal qilishi va rivojlanishining **eng umumiy qonuniyatlarini** o'rganadi.

Davlat va huquq o'zaro bog'liqlikda hamda alohida holda o'rganiladi. Chunki, ular yuridik hayotning bir-biri bilan chambarchas bog'liq qismlaridir. Buni quyidagi misol bilan tushuntiramiz. Ma'lumki, davlat organlari huquq normalarini yaratadi va ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydi; o'z navbatida, huquq davlat organlarining maqomini, vakolatlarini belgilaydi, ya'ni

davlat organlarining faoliyati huquqiy mezonlar, shakllar doirasida amalga oshadi.

Shunday bo'lsa-da, fanda davlatni alohida, huquqni alohida ajratib o'rganish an'anasi mavjud. Fanimiz bo'yicha nashr etilgan ko'pchilik darsliklarda ikki yirik bo'lim: – davlat nazariyasi va huquq nazariyasi bo'limlari mavjud. **Davlat nazariyasi** qismida «davlatning tushunchasi», «davlatning kelib chiqishi», «davlatning mohiyati», «davlat hokimiyati», «davlat funksiyasi», «davlatning shakli», «davlat apparati», «davlatning siyosiy tizimidagi o'rni», davlatning «demokratiya» bilan nisbati kabi hodisalar (kategoriyalar) tahlil etiladi. **Huquq nazariyasi** qismida esa, «huquqning umumiy tushunchasi», «huquqning vujudga kelishi», «huquqning mohiyati», «huquqning shakli», «huquqning funksiyalari va prinsiplari», «huquq ijodkorligi», «huquq normalari», «huquqiy munosabatlar», «huquqni amalga oshirish», «huquqiy tizim va qonunchilik tizimi», «qonun ustuvorligi va qonuniylik», «huquq buzilishi va yuridik javobgarlik» va boshqa muammolar o'rganiladi.

Shunday qilib, **davlat va huquq nazariyasi** predmetini ijtimoiy hayotning muhim qismi hisoblangan davlat va huquq, ular vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, ularning mohiyati, ijtimoiy vazifasi, funksiyalari, shuningdek siyosiy va huquqiy ongning namoyon bo'lishi va huquqiy tartibga solishning xususiyatlari tashkil etadi.

Har bir fan o'z predmetidan tashqari, muayyan o'rganish obyektiga ega. Fan qaysi narsalar (hodisalar) haqida bilim yaratib, uni tizimga solsa, shu uning obyektini tashkil etadi. Yuridik bilimlar davlat va huquq xususida yaratiladi. Demak, yurisprudensiyaning obyektini davlat va huquq tashkil qiladi. Biroq, fanning obyektini uning predmetidan farq qiladi. Aynan bir obyekt turli fanlar tomonidan o'rganilishi mumkin. Masalan, davlat va huquq turli sohaviy yuridik fanlar (konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, yer huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi va h.k.) tomonidan o'rganiladi. Ammo ularning har biri davlat va huquqni o'z predmeti va metodi nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Fanning obyektini deganda, muayyan fan doirasida bilishning vosita va usullari yordamida ilmiy o'rganish (tahlil) qamroviga olinadigan voqea va hodisalar tushuniladi. Ilmiy bilish jarayonida voqea va hodisalarning fikriy modeli (obrazi) hosil qilinadi, mohiyat – belgilari haqida tushunchalar tizimi vujudga keltiriladi. Xuddi mana shu mohiyatga oid xususiyatlarni ochish fanning predmetini tashkil etadi. Ushbu mulohazalar yuridik fanga ham taalluqli. Eng umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, yuridik fanlarning obyektini davlat va huquq, predmetini esa davlat va huquqning turli xususiyatlari,

mohiyatiga oid belgilari tashkil etadi¹. Boshqacha aytganda, davlat va huquq nazariyasining predmeti davlat va huquqning mohiyatini, xususiyat – belgilarini ochish, ular namoyon bo‘lishining eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Davlat va huquq nazariyasining predmetidan kelib chiqib, uning tabiatini tavsiflash mumkin. Fanimizning tabiati serqirra va nihoyatda boy mazmunlidir. U ijtimoiy, yuridik, siyosiy, nazariy-metodologik, fundamental fan hisoblanadi. Davlat va huquq nazariyasi avvalo *ijtimoiy fan* sifatida maydonga chiqadi. Chunki, u ijtimoiy tuzumni, jamiyat hayotida davlat va huquqning o‘rni, ahamiyati va vazifalarini tahlil etadi. Eng asosiysi, davlat ham, huquq ham ijtimoiy hodisalardir.

Boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o‘laroq, davlat va huquq nazariyasi *yuridik fandır*. Ushbu fan davlat va huquqning mohiyatini, davlat boshqaruvining mazmunini, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barcha jarayonlarini, qonuniylik, huquq buzilishi va yuridik javobgarlik masalalarini umumnazariy jihatdan o‘rganadi.

Davlat va huquq nazariyasini *siyosiy fan* deb hisoblashga barcha asoslar bor. Sababi, davlat va huquq siyosat bilan chambarchas bog‘liq. Ya‘ni, siyosatni davlat yaratadi, huquq yordamida siyosat mustahkamlanadi, ifodalanadi va amalga oshiriladi. Fanimiz «siyosat», «siyosiy hokimiyat», «siyosiy tizim», «siyosiy demokratiya» kabi hodisalarni bevosita tahlil etadi, ushbu tushunchalar bilan ish yuritadi.

Davlat va huquq nazariyasi boshqa yuridik fanlarga nisbatan *umumnazariy, umummetodologik, falsafiy fan* sifatida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, falsafiy bilim eng yuqori darajadagi nazariy bilimdir. Falsafa barcha ijtimoiy va tabiiy fanlarning poydevorini tashkil etib, ularni ilmiy metodologiyaning umumiy prinsiplari bilan qurollantiradi. Davlat va huquq nazariyasi falsafiy mazmundagi fan bo‘lib, davlat va huquq mavjud bo‘lishining eng umumiy qonuniyatlarini ochadi. Uning umummetodologik fan ekanligi shundaki, mazkur fan yurisprudensiyaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) ni, umumiy yondashuvlari va metodlarini ishlab chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi – *fundamental* ahamiyatga molik fan. Faning fundamentalligi – u tomonidan o‘rganiladigan hodisa(obyekt) lar haqidagi bilimlarning chuqur nazariyligi, ilmiy umumlantirilganligi hamda asoslantirilganligida namoyon bo‘ladi. Davlat va huquq nazariyasi yaratadigan ta‘riflar, qoidalar, uning ochadigan qonuniyatlari boshqa yuridik fanlar uchun poydevor, umumiy asos, rahbariy yo‘naltiruvchi g‘oya, tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Qarang: Проблемы общей теории права и государства. Под общ.ред. академика В.С. Нерсесянца. – М.: «Норма», 2008. – 3-4-betlar; Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2007. – 14-bet.

3-§. Davlat va huquq nazariyasining metodologiyasi

Davlat va huquq nazariyasi o'z mavzusiga kiruvchi masalalarni tegishli yondashish usullari, ma'lum metodlar yordamida o'rganadi. «*Metod*» iborasini fanga qadimgi yunonlar olib kirganlar. Metod (yunoncha «metodos» so'zidan olingan bo'lib) – biror narsaga erishish yo'li, bilish usuli ma'nosini anglatadi. Metod tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini o'rganish, bilish, tadqiq etish usulidir. Qadimdan olimlar ilmiy izlanish metodlariga katta e'tibor qaratib kelganlar. Masalan, F. Bekon metodni fonus chiroqqa qiyoslagan, zero, u olimning «yo'lini» yoritadi, degan edi. Ilmiy izlanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan foydalaniladigan usullarning samaradorligiga bog'liq. Tadqiqot olib borishning usullari, vositalari, metodlarini doimo takomillashtirib borish yangi bilimlarga erishishning, taraqqiyot qonuniyatlarini ochishning ishonchli garovidir.

Davlat va huquq nazariyasi o'z predmetini, tadqiqot mavzularini o'rganish va tahlil etishda qo'llanadigan metodlar yig'indisi, hosil qilinadigan bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash tamoyillari fanning metodologiyasini tashkil etadi. Ba'zi adabiyotlarda fanning metodologiyasini metodlarning oddiy yig'indisi tarzida izohlashga urinish mavjud. Masalaga bunday yuzaki yondashishni ma'qullab bo'lmaydi. Fikrimizcha, davlat va huquqning *metodologiyasi* deganda, davlat-huquqiy voqeliklarning (institutlarning) vujudga kelishi, barqarorlashuvi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini ochish, ularni mohiyat nuqtayi nazaridan izohlashning maxsus metodlari, tamoyillari, yondashuvlari va vositalarining ilmiy tizimi tushuniladi. Davlat va huquq nazariyasi bir yoki ikki metod bilan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni ado etolmaydi. Buning uchun barcha metod va uslubiy yondashuvlarning bir butun tizimiga tayanadi. Davlat va huquq nazariyasi metodologiyasining tub mohiyatini anglashda mazkur fan davlat va huquq voqeliklarini tadqiq etishda tahlil tamoyillarining ilmiyligiga va yondashuvlarning falsafiyiligiga tayanish lozim. Falsafaning kategoriya va qonunlari davlat va huquq nazariya metodologiyasining poydevorini tashkil etadi. Aynan falsafiy poydevor tadqiq etilayotgan voqeliklar haqidagi bilimlarning ilmiy asoslantirilganligi, obyektivligi, to'laqonliligi hamda kompleksliligini ta'minlaydi.

Davlat va huquq nazariyasining metodi deganda, davlat va huquq masalalarini o'rganish, ularga ilmiy yondashishning usuli, yo'llari, tamoyillari tushuniladi. Fanning metodi amaliyotni, hayotni o'rganuvchi nazariyadir. O'z navbatida, har qanday nazariya, shu jumladan yuridik (huquqiy) nazariya davlat va huquqni talqin etuvchi tegishli yuridik metodning tizimli va tarkibiy ifodasidir; shuningdek nazariya metodning bilim hosil qiluvchi va yaratuvchan-

lik funksiyasining hosilasidir. Shu bois, har qanday huquqiy nazariya metod funksiyasiga ega va shunday vazifani bevosita yoki bilvosita bajaradi.

Yuridik fanning metodi – davlat va huquqiy voqeliklarni anglash, yuridik bilimlar hosil qiluvchi va ularni jamlovchi usullardan iborat yuridik metod. Yuridik metod huquqning tushunchasidan, tabiatidan kelib chiquvchi voqeliklarni yuridik anglash hamda ifodalash usuli hisoblanadi. Yuridik metodning xususiyati shundaki, u o'zining bilish mantig'i va tabiatiga ko'ra, tushunchalarni ifodalovchi huquqiy metod, voqelik haqidagi bilimlarni huquqiy modellashtirish usuli, voqelikni davlat va huquq tushunchalari doirasida hamda nuqtayi nazaridan anglash usuli, voqelikning belgi, xususiyat, jihatlarini aynan huquqiy belgi, xususiyat, jihat sifatida tushunish usuli bo'lib, bunda voqelik huquqiy ta'riflar, huquqiy ifodalalar va huquqiy mezonlar tarzida bayon etiladi¹.

Boshqa fanlarning metodi kabi davlat va huquq nazariyasining metodlari ham **umumiy ilmiy, maxsus** va **xususiyl ilmiy** usullarga bo'linadi. **Umumiy ilmiy metodlar** – tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini o'rganishda qo'llaniladigan eng umumiy yondashuvlar, usullar, bilishning umumiy prinsiplaridir. Barcha fanlar uchun eng umumiy universal metod **dialektikadir**. Dialektika nazariyasi – voqeliklarning umumiy aloqadorligi va doimiy rivojlanish holatida bo'lishi to'g'risidagi ta'limot. Dialektik metod davlat va huquqni o'zaro aloqada, doimiy rivojlanishda, o'zgarishda, bir tipdan ikkinchi tipga hamda bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish, mazmunan boyish va takomillashishda, deb tushuntiradi.

Dialektik metod davlat va huquq hodisalarini tadqiq qilishda obyektiv haqiqatga erishishning asosiy omilidir. Bu metod davlat va huquqning mohiyatini jamiyatning iqtisodiy tuzumi siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalar bilan uzviy bog'liq, deb qaraydi. Bordi-yu, davlat va huquqni iqtisodiy asosdan ajratib, tegishli tarixiy shart-sharoitdan uzilgan holda talqin etilsa, ularning mohiyatini ham, rivojlanish qonuniyatlarini ham to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Dialektik metodning asosiy talablaridan biri davlat va huquqni *tarixiy* voqealar bilan bog'lab o'rganishdir.

Davlat va huquqni o'rganishda dialektik yondashuv talablaridan yana biri *ilmiy obyektivlikdir*. Ilmiy obyektivlik o'rganilayotgan mavzuning, ya'ni davlat va huquqning jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida obyektiv zaruriyat tarzida vujudga kelganligi, uning rivojlanishi jamiyatning boshqa sohalar bilan o'zaro bog'liq va aloqadorlikda ekanligi, o'z qonuniyatlari asosida rivojlanishini inobatga olishni talab etadi.

¹ Qarang: Проблемы общей теории права и государства. – М., 2008. – 11-bet.

Davlat va huquq nazariyasi ish ko'radigan umumiy metodlardan yana biri **metafizikadir**. «Metafizika» yunoncha so'z bo'lib, ma'nosi – «fizika ketidan keladigan narsa» degani. U hozirgi paytda fanda «qotib qolgan fikr yuritish usuli» ma'nosida ishlatiladi. Ushbu metoddan foydalanib ilmiy izlanish olib boruvchilar davlat va huquq ilgaridan mavjud bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi, ular abadiy va o'zgarmasdir, hech qanday boshqa ijtimoiy hodisalar bilan ichki aloqadorlikda emas, ular rivojlanishda emas, qanday bo'lsa shundayligicha saqlanib qoladi, deb fikrlaydilar¹. Metafizika sof ilmiy, ijodiy metod emas, u davlat va huquq hodisalarining tub mohiyatini ilmiy ravishda ochib berolmaydi.

Davlat va huquq nazariyasining umumiy metodlari bilan bir qatorda uning mavzusini yoritishga yordam beruvchi maxsus va xususiy ilmiy metodlari ham mavjud. Bu metodlar quyidagilardan iborat: mantiqiy metod, tarixiy metod, sistemali – strukturali o'rganish metodi, qiyosiy-huquqiy metod, aniq-sotsiologik metod, statistik-matematik metod, kibernetika metodi, ijtimoiy-tajriba metodi va boshqalar.

Mantiqiy metod – davlat va huquq hodisalarining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy shaklda, mavhumlashtirilgan tarzda, mantiq qonunlari asosida o'rganish usulidir. U oqilona, asoslantirilgan (isbotlangan) va izchil xulosa chiqarishni nazarda tutadi.

Mantiq (logika) eng umumiy tarzda ta'riflaganda, to'g'ri, haqqoniy ilmiy fikr yuritish, fikr yuritishdagi ichki uyg'unlik va o'zaro mutanosiblikdir. Mantiq fikrning tuzilishini, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni, haqiqat bilimiga erishishning shart-sharoitlari va qonun-qoidalarini o'rganadi. Dialektik mantiq tafakkurning umumiy qonuniyatlarini tahlil etadi. U inson tafakkurining «charxlanishi»ga ko'maklashadi, uning izchil, ziddiyatlardan xoli va asos-e'tiborli bo'lishini ta'minlaydi². Demak, asosiy mantiqiy talablar – fikrni aniq, izchil, ziddiyatsiz, asosli, isbotli ifodalashdan iborat.

Mantiqiy metod davlat va huquq voqeliklari haqida to'g'ri (haqqoniy) bilimlar hosil qilish, ularni yoqlab chiqish va asoslashda mantiq qonun-qoidalaridan foydalana bilishni o'rgatadi. Shuningdek, mazkur metod turli fikrlarni mantiqiy tahlil qila olish, o'z fikrini ixcham, lo'nda va eng muhimi, ishonarli, asosli qilib bayon etish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ilmni mantiqiy usul va vositasida o'rganishda avvalgi bilim (xulosa) keyingi bilim (xulosa) uchun asos bo'ladi. Ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirishda *mantiq sillogizmlariga* tayanish lozim bo'ladi.

¹ Qarang: Davlat va huquq nazariyasi // professorlar H. Boboyev va H. Odilqoriyevlarning umumiy tahriri ostida. – T., 2000. 12–13-betlar.

² Falsafa: qomusiy lug'at (mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T., 2004. 220–221-betlar.

Masalan, «ikki tasdiq fikrdan uchinchi yangi tasdiq fikr (xulosa) chiqadi». «Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi». Mantiq sillogizmlarining eng oddiylaridan birini davlat masalasiga qo'llab, xulosa chiqarib ko'raylik:

a) demokratik davlatlarda vakillik hokimiyat idoralari saylov asosida shakllantiriladi;

b) O'zbekiston Respublikasida davlat vakillik idoralari saylov asosida shakllantiriladi;

v) demak, O'zbekiston Respublikasi demokratik davlatdir.

Bunday tarzda chiqarilgan xulosa mantiqiy jihatdan ziddiyatsizdir.

Tarixiy metod – davlat va huquqni tarixiy rivojlanish shart-sharoitlariga bog'lab o'rganish usuli bo'lib, unda davlat va huquqning tavsifi va rivojlanish bosqichlari tarixiy xronologik izchillikda, ketma-ketlikda o'rganiladi.

Ushbu o'rinda davlat va huquqning tarixan vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanishi, o'zgarishi va shakllanishiga ta'sir etgan omillarni ko'rsatib berish, shu asosda davlat va huquqning bugungi holatiga baho berish hamda istiqboldagi evolyutsiyasini bashorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy metod vositasida davlat – huquqiy hodisalarga ikki nuqtayi nazardan yondashish mumkin: *birinchidan*, bu hodisalarning «vaqt o'lchovida harakatlanish, o'zgarish jarayoni»ni kuzatish, *ikkinchidan*, bu jarayonni «nazariy jihatdan anglash». Tarixiy yondashuv asosida tahlil yuritish umuman abstrakt davlat va huquqni emas, balki konkret, aniq muayyan davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi va mohiyatini, tabiatini o'rganish imkoniyatini beradi.

Va nihoyat, davlat va huquqning nazariy jihatlarini tarixiy voqealar hamda faktlar bilan bog'lab o'rganish puxta bilim olish garovidir. Davlat va huquq haqidagi turli-tuman fikrlar ichida o'ralashib qolmaslik uchun ularning asosiy tarixiy bog'lanishlarini unutmaslik lozim. Shu bois har bir masalaga tarixdagi ma'lum hodisa qanday paydo bo'lganligi, bu hodisa o'z rivojlanishida qanday asosiy bosqichlardan o'tganligi nuqtayi nazaridan qarab, bu hodisa hozirgi paytda qanday bo'lib qolganligiga baho berish lozim. Bu metodologik talab davlat va huquq hodisalariga ham bevosita taalluqlidir.

Sistemali-strukturali o'rganish metodi – davlat va huquq nazariyasi, uning predmetini mustaqil ijtimoiy tizim (sistema) tarzida o'rganish usuli. Bunda davlat va huquqni jamiyat hayotining boshqa hodisalari tizimida o'rganish, ularning tuzilishini (strukturasini), davlat va huquq hodisalarini tashkil etuvchi tarkibiy elementlarini o'rganish amalga oshiriladi. Bu metod tadqiq etilayotgan obyekt haqida to'la va atroflicha bilim hosil qilishga yordam beradi.

Sistemali-strukturali metod davlat qurilishi va huquq amal qilishini tizimli tahlil etishning metodologik yondashuvlari, usullari va prinsiplarini o'z ichiga oladi. Davlat va huquqni tizimli tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi: 1) sistema qismlarning bir butun kompleks o'zaro aloqadorligi ekanligi; 2) sistemaning tashqi muhit bilan uzviy birligi; 3) tahlil etilayotgan har qanday sistemaga o'zidan yuqoriroq va kattaroq boshqa sistemaning tarkibiy elementi deb qaralishi; 4) o'rganilayotgan sistemaning elementlari, odatda, quyi turuvchi, kichik sistemani hosil qilishi¹.

Tarkibiy qismlarning (elementlarning) o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi fanimiz predmetini tashkil etuvchi «davlat apparati», «huquqiy tizim», «huquq normasi», «huquqiy munosabatlar», «huquq buzilishining yuridik tarkibi» kabi voqeliklar (institutlar) ning tarkibiy tuzilishi (strukturasi) misolida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, mazkur institutlarni sistemali-strukturali tahlil etish mumkin va lozim. Mazkur metoddan barcha davlat-huquqiy hodisalarni tadqiq etishda foydalanish mumkin.

Qiyosiy-huquqiy metod – qiyoslash, taqqoslash, solishtirish orqali davlat va huquq voqeliklarini o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini aniqlab olish usuli. Masalan, O'zbekistondagi ikki palatali parlamentning mohiyati, vakolatlari ko'lami, xususiyatlarini aniqlash uchun dunyodagi boshqa davlatlar ikki palatali parlamentlarining huquqiy maqomi va vakolatlari bilan qiyoslanadi. Yoki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos jihatlari tushunib olish uchun uni boshqa davlatlarning konstitutsiyalari bilan solishtirib o'rganiladi va hokazo. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida davlat va huquqning nafaqat boshqa mamlakatlardagi analoglari (o'xshash hodisalar) bilan farqi aniqlandi, balki ularning o'tmishdagi, avvalgi bosqichdagi holati bilan hozirgi kundagi holati qiyoslanib, qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

Ushbu metod turli davlatlar va huquqiy tizimlarning umumiy va o'ziga xos tomonlarini bilish hamda ana shu asosda davlat va huquq taraqqiyotining qonuniyatlarini ochishga, davlat va huquq sohasidagi hodisalar va jarayonlarni o'zaro solishtirish asosida ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi².

Aniq-sotsiologik metod – davlat va huquq masalalarini davlat idoralari faoliyati, davlat va jamiyat boshqaruvini huquqiy tartibga solish yo'llarini real hayot bilan bog'lab o'rganish usulidir. Aniq – sotsiologik metodda quyidagi ilmiy-amaliy usullardan foydalaniladi: yozma yoki og'zaki so'rov (anketa)

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. Н.И. Матузова и А.В. Малько. – М.: Юрист, 2000. – 26-бет.

² Qarang: Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 1-jild. Davlat nazariyasi. – T., 2001. 27-бет.

o'tkazish, jamoatchilik fikrini aniqlash va tahlil qilish, statistik ma'lumotlar va hujjatlarni (arxiv materiallarini) tahlil etish, kuzatuv olib borish, suhbat, tajriba o'tkazish va boshqalar.

Aniq-sotsiologik metodning ma'nosi shundaki, ilmiy tahlilning bu usulida yuridik amaliyot, huquqiy hayotning muhim jihatlari, davlat va huquq institutlarining amal qilishi haqida haqqoniy ma'lumotlar (axborot) to'plash, tahlil etish va qayta ishlash amalga oshiriladi. Olingan natijalar asosida davlat-huquqiy voqelik xususida nazariy umumlasmalar, xulosalar chiqariladi va tegishli amaliyotni takomillashtirishga oid qarorlar qabul qilinadi. Masalan, sud-huquqiy tizimda o'tkazilayotgan islohotlarning samarasini aniqlash uchun aniq-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish mumkin. Bunda sud amaliyoti, prokuror nazorati hamda tergov amaliyoti bo'yicha statistik ma'lumotlar va arxiv materiallari o'rganiladi, anketa so'rovlari o'tkaziladi, jamoatchilik fikri o'rganiladi hamda ular matematik va kompyuter ishlovidan o'tkazilib, hosil bo'lgan axborot asosida ilmiy asoslantirilgan xulosalar chiqariladi, zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Statistik-matematik metod – yuqoridagi aniq-sotsiologik metod bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sud amaliyoti, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga oid amaliyot, boshqa davlat idoralari faoliyatidan kelib chiqadigan statistik ma'lumotlarni umumlashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotning hayotiy jarayonlarini xolis aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Huquqiy hodisalarni, muayyan tarixiy davrdagi matematik va geometrik holatlarni o'rganish, tahlil etish ham ushbu metod doirasiga kiradi.


Statistika – bu raqamli hisob-kitob yuritish asosida ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil etish, baholash va mantiqiy-ilmiy xulosa chiqarish ilmidir. Bunda miqdoriy ko'rsatkichlar ilmiy tahlilning obyektini hisoblanadi. Miqdoriy ma'lumotlar davlat va huquq hodisalari taraqqiyotining nisbiy barqaror tendensiyalarini o'zida ifoda qilgani holda, ularning taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash va baholashga, strategik va taktik ahamiyatga molik jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Raqamli ma'lumotlar davlat va huquqning holati, dinamikasi hamda rivojlanish tendensiyalarini obyektiv ifodalaydi. Qator holatlarda statistik –matematik tadqiqotlar natijalari so'z bilan anglashiladigan har qanday matn –ifodalardan ishonchliroq chiqadi. Bunday tadqiqotlar statistik kuzatuv, statistik ma'lumotlarni matematik usullar yordamida erkin ishlovdan o'tkazish va ularni tahlil etish bosqichlari orqali amalga oshadi.

Statistik – matematik metod o'zining ommaviyligi va takroriyliigi bilan tavsiflanadigan davlat-huquqiy voqeliklarni, masalan, vakillik va bevosita demokratiya shakllari: saylov hamda referendumlar natijasini hisoblash; huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonlarini, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning

boshqa turlarini aniqlash hamda baholashda nihoyatda keng qo'llaniladi. Davlat va huquq institutlarining holati va rivojlanishi haqidagi miqdoriy ko'rsatkichlar tegishli sotsiologik tahlillar o'tkazishda qo'l keladi.

Kibernetik metod – davlat va huquq hodisalarini o'rganishda hozirgi zamon texnikaviy vositalarini qo'llab, huquqiy ma'lumotlar to'plash, ularga ishlov berish va umumlashtirish usuli. Masalan, bu usul yordamida elektron hisoblash mashinalari, kompyuter, multimedia va boshqa texnika vositalarini qo'llab, davlat va huquq funksiyalarining istalgan birontasini modellashtirish hamda shu asosda kelgusida ularning rivojlanishini bashorat qilish mumkin. «Kibernetika» yunoncha «boshqarish san'ati» demakdir. Davlat va huquqni o'rganishda modellashtirish metodi bu voqeliklarning oqilona modelini yaratishga, davlat va huquqning harakatlanish mexanizmlari tuzilishiga mo'ljallangan modelni joriy etishga, demokratik va huquqiy tartibga solish jarayonlarini zarur yo'nalishda modellashtirishga ko'maklashadi. Bu metod davlat va huquq nazariyasi arsenalidagi tushuncha va kategoriyalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Davlat va huquq nazariyasining metodlari



Ijtimoiy tajriba metodi – davlat va huquqqa oid biron-bir institutni, organi, normani hayotga joriy etishdan avval ularni tajriba o'tkazish yo'li bilan sinab ko'rish usuli. Masalan, O'zbekiston Respublikasida mahalliy darajadagi ma'muriy hududiy birliklarda (viloyat, shahar, tumanlarda) hokimlik lavozimini joriy etishdan avval 1991-yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining qarori bilan Toshkent shahar hokimi lavozimi ta'sis etilib, bir yil mobaynida *ijtimoiy-huquqiy tajriba* – sinov o'tkazildi. Toshkent shahar hokimi muvaqqat Nizom asosida faoliyat yuritdi. Tajriba natijalari umumlashtirilib, 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati organlarini isloh etish to'g'risida» gi qonun bilan respublikamizning barcha tuman, shahar va viloyatlarida hokim lavozimi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 20-martdagi «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi sinovi bo'yicha huquqiy eksperiment o'tkazish haqidagi Farmoyishi asosida shu yilning mart-dekabr oylarida Samarqand va Buxoro viloyatlarida huquqiy eksperiment o'tkazildi.

Bunday eksperiment o'tkazishdan maqsad: – qonun loyihasining davlat organlari faoliyatining ochiqligini, shaffoqligini, ular faoliyati to'g'risidagi axborotdan ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari, aholi keng foydalanishini ta'minlashga qaratilgan qoidalari samaradorligini aniqlashdan iborat edi.

Huquqiy eksperiment – huquqiy normalar samaradorligini oldindan (ularning loyihasini amaliyotda tekshirib ko'rish asosida) baholashning eng maqbul vositasidir. Huquqiy eksperiment davomida qonun loyihasi dastlabki sinovdan o'tkaziladi, uning tartibga solish ta'siri, ishlash mexanizmlari va samaradorligi tekshirib ko'riladi, loyihaning yutug'i va nuqsonlari aniqlanadi. Shu asosda uni yanada takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy eksperiment deganda – huquq (qonun)ni ijod etishga vakolatli bo'lgan organ tomonidan qonunchilikka kiritish mo'ljallanayotgan bo'lg'usi yangi normalarni cheklangan masshtabda sinab ko'rish asosida ularning samaradorligini, foydaliligini va iqtisodiy tejamliligini aniqlash, hamda o'rnatiladigan huquqiy mezonlar (huquq ijodkorligi qarorlari) ning oqilona variantini ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv tadbiridir¹.

Shunday qilib, *davlat va huquq nazariyasining metodlari* davlat va huquq hodisalarini, ular bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishga, bu muhim ijtimoiy-siyosiy institutlarning rivojlanish qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan ilmiy usullar, yo'llar, tamoyillar va vositalar majmuidir.

¹ Qarang: Правовой эксперимент и совершенствование законодательства. – М., 1988. – 26-бет.

4-§. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rnini hamda ahamiyati

Davlat va huquq nazariyasi fanini har tomonlama va mufassal tavsiflashda uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ochish muhim ahamiyatga ega. Bu fan barcha ijtimoiy va yuridik fanlar bilan chambarchas bog'liq. Davlat va huquq masalalarini faqat yuridik fanlar emas, balki boshqa ijtimoiy

fanlar ham o'rganadi. Chunki insonlarning faoliyati serqirra va turli-tuman bo'lib, ular huquq vositasida tartibga solinadi, davlat-siyosiy munosabatlarning obyekt sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq hamisha ijtimoiy hayotning muhim masalasidir. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarini tadqiq va tahlil qilishda boshqa fanlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi, ularning yutuqlari, ilmiy xulosa va tavsiyalaridan foydalanadi. Davlat va huquq nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlar: falsafa, iqtisod, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tarix kabi fanlar bilan mustahkam aloqada bo'ladi.

Falsafa hamda davlat va huquq nazariyasi. Falsafa tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Ijtimoiy falsafa davlat va huquqni jamiyatning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Shu bois, u davlat va huquq masalalarini umumiy tarzda, ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi.

Davlat va huquq nazariyasi fani falsafadan ijtimoiy, shu jumladan davlat-huquqiy hodisalarni bilishning metodologiyasi sifatida foydalanadi, falsafaning qoidalari va xulosalariga tayangan holda, davlat va huquq muammolarini aniqlashtiradi hamda ularning nazariy jihatlarini o'rganadi. Bunda falsafa bilan davlat va huquq nazariyasi bir-birini takrorlamaydi, aksincha to'ldiradi.

Falsafa borliqning ongga, insonning uni o'rab turgan atrof-muhitga munosabatining umumiy qonuniyatlari haqidagi bilimlar tizimidir. Falsafa davlat va huquqning mohiyati, tabiati, uning ijtimoiy hodisalar tizimidagi o'rnini aniqlaydi. Davlat va huquq nazariyasi fani esa, davlat va huquqning barcha ko'rinishlari va belgilari bilan bir butun holda batafsil o'rganadi. Agar falsafa davlat va huquqning mohiyatini aniqlash imkonini bersa, davlat va huquq nazariyasi falsafani ijtimoiy taraqqiyot, davlat va huquqning umumiy tamoyillari, ijtimoiy vazifasi va funksiyalarini ifodalash usullari bilan boyitadi.

Falsafaning umumiy qonun va kategoriyalaridan davlat va huquqqa tegishli voqea-hodisalar va jarayonlarni o'rganishda amaliy foydalanish, *bir tomondan*, davlat va huquq sohasida to'plangan barcha bilimlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib, bu bilimlarni davlat va huquq nazariyasining kategoriyasi sifatida bayon qilish imkonini beradi; *ikkinchi tomondan*, davlat va huquq nazari-

yasi fani to'plagan bilimlar, ma'lumotlar falsafaning obyektiv qonunlarni ochishi va umumiy kategoriyalarni ishlab chiqishi uchun amaliy ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Davlat va huquq nazariyasi o'z mavzusini tahlil etish chog'ida falsafaning «munosabat», «erkinlik», «jarayon», «funksiya», «butun va qism», «sistema», «evolyutsiya», «taraqqiyot», «aloqadorlik», «mohiyat», «shakl» kabi tushuncha va kategoriyalaridan keng foydalanadi¹. Mazkur fanlar yaratadigan bilimlar o'zaro bir-biriga singib ketadi.

Davlat va huquq zohir bo'lishining falsafiy talqini hozirgi davrda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Huquqshunoslik bilan falsafa hamkorligi zamirida «huquq falsafasi» degan yangi ilmiy yo'nalish shakllanmoqda. Davlat va huquq hodisalarini falsafa kategoriyalari va qonuniyatlari nuqtayi nazaridan talqin etish huquqshunoslik fani rivojida yangi ufq va marralar ochishi shubhasizdir². Tabiiyki, davlat va huquq nazariyasi huquq falsafasi fani bilan ham o'zaro uzviy hamkorlik qiladi.

Shunday qilib, falsafa fani davlat va huquq nazariyasi uchun poydevor bo'lib, metodologik asos vazifasini bajaradi, davlat va huquq nazariyasi esa, falsafa shu jumladan, huquq falsafasi uchun aniq hayotiy ma'lumotlar manbayi vazifasini bajaradi.

Iqtisodiy fanlar hamda davlat va huquq nazariyasi. Iqtisodiy fanlar ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo'jalik hayotini tashkil etish, tadbirkorlik, mehnat, moliya, kredit kabi masalalarni o'rganadi. Davlat va huquq nazariyasi esa, davlat va huquqni o'zining asosiy predmeti deb hisoblaydi va ularning iqtisodiy funksiyalarini tahlil etadi. Iqtisodiy fanlar hamda davlat va huquq nazariyasining o'zaro aloqasi davlat va huquqning iqtisodiyotga qanchalik bog'liq ekanligi va ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yillarida barpo etilayotgan yangi jamiyat asoslangan tamoyillardan biri «iqtisodning siyosatdan ustunligidir». Bu tamoyil davlat va huquq sohasiga ham taalluqlidir. Ya'ni, davlat va huquqning mazmuni hamda mohiyati iqtisodiy munosabatlar tizimi, jamiyatning iqtisodiy tuzimi tomonidan belgilanadi. Bir tomondan, davlat va huquq iqtisodiy islohotlar amalga oshishini ta'minlaydi, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning rivoj topishi davlat hokimiyati va huquqning moddiy asosini mustahkamlab, ularning mazmun-mohiyatini o'zgartiradi, boyitadi. Jamiyat taraqqiyotining ko'p asrlik tajribasi shundan guvohlik beradiki, iqtisodiyotning muayyan shakli(tipi)ga davlat va huquqiy tizimning shunga xos ma'lum shakli (tipi) (davlat va huquqning quldorlik, feodal, burjua yoki boshqa tipi) muvofiq keladi.

¹ Qarang: Марченко М.Н. Теория государства и права. – М., 2008. – 28-bet.

² Odilqoriyev X.T. Yuridik fanlarning ijtimoiy vazifasi va rivojlanish istiqbollari // Yuridik fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. – T., 2006. – 110-bet.

Moddiy – iqtisodiy hayot va iqtisodiyot fani davlat va huquq nazariyasi o‘z predmetini o‘rganishda samarali ma‘lumotlar va zaruriy bilimlar beradi. Ayni vaqtda, davlat va huquq nazariyasining davlatning iqtisodiy funksiyasi, huquqning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish haqidagi ilmiy xulosalari iqtisodiyot fanini boyitishga ko‘maklashadi.

Sotsiologiya hamda davlat va huquq nazariyasi. Davlat va huquq nazariyasi sotsiologiya fani bilan ham o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Zero, sotsiologiya fani ham jamiyatni yaxlit, uyushgan tizim sifatida tadqiq etib, jamiyat a‘zolarining, xususan, turli jamoalar, aholi barcha qatlamlarining davlat, huquq, demokratiya va qonunga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishini, ularning davlat va huquq to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarini mavjud hayotni tahlil etish asosida o‘rganadi. Shunga ko‘ra, sotsiologiya fani davlat va huquq nazariyasi fani uchun dastlabki amaliy (empirik) ma‘lumotlarni to‘plab berish vazifasini bajaradi. Davlat va huquq nazariyasi esa, o‘z navbatida, sotsiologiya fani bergan ma‘lumotlarni umumlashtirib, ulardan o‘ziga tegishli nazariy xulosalar chiqarishda foydalanadi.

Sotsiologiya yagona tizim bo‘lmish jamiyat hamda u bilan aloqadorlikda o‘rganiladigan alohida ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy jarayonlar haqidagi fandır. Sotsiologiya jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Sotsiologiya o‘zining xulosalarida aniq hayotiy ma‘lumotlarga, ijtimoiy tajribaga tayanadi. Barcha ijtimoiy hodisalar, jumladan, davlat va huquq ham sotsiologik tadqiqotlarning obyektini hisoblanadi. Sotsiologiya ham falsafa singari, davlat va huquqni bilishning umumiy ilmiy vositadir. U davlat va huquqni o‘rganish asosida o‘zining predmetini chuqurlashtiradi va oydinlashtiradi. Bu borada sotsiologiya davlat va huquq nazariyasining qoida va xulosalaridan foydalanadi.

Ma‘lumki, davlat va huquq ijtimoiy muhitda mavjud, ularning mohiyati sotsium hayot-sharoitida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu bois davlat va huquqqa sotsiologik yondashuvga qiziqish ortmoqda. Qolaversa, sotsiologiya bilan davlat va huquq nazariyasining hamkorligida *huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, davlat sotsiologiyasi* nomli alohida fan tarmoqlari shakllanib ajralib chiqmoqda va rivojlanmoqda.

Siyosatshunoslik hamda davlat va huquq nazariyasi. Siyosatshunoslik fani siyosat, uning shakllari, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalar, jumladan, siyosiy partiyalar, siyosiy hokimiyatga va davlat hokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyati, davlat va shaxsning o‘zaro munosabati kabi hodisalarni o‘rganadi. Siyosatshunoslik inson siyosiy madaniyatini ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi, ya‘ni fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishi orqali o‘rganadi.

Davlat va huquq nazariyasining siyosatshunoslik fani bilan bog‘liqligi har ikkala fanning ham bir obyektini, ya‘ni jamiyat siyosiy tizimining muhim elementi bo‘lmish davlat va huquqni ilmiy jihatdan tadqiq etishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, amaliy faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o‘rgansa, siyosatshunoslik fani davlat va huquqiy siyosatni, aniqrog‘i, jamiyatda yuz berayotgan siyosiy hodisalar va jarayonlarni, ya‘ni siyosat nazariyasi va amaliyotini o‘rganadi. Ularning har ikkalasi bir predmet – davlat va huquqni, davlatning ichki va tashqi siyosatini har tomonlama, ayni vaqtda turli jihatlarini o‘rganadi, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan bilimlar bilan bir-birini to‘ldiradi. Pirovardida, siyosatshunoslik fani o‘zining keng qamrov-liligiga ko‘ra, davlat va huquq nazariyasi fani uchun muhim asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

O‘z navbatida, siyosatshunoslik fani ham davlat va huquq nazariyasi to‘playdigan bilimlardan foydalanadi. Masalan, fanimizning «davlat», «davlat mexanizmi», «siyosiy hokimiyat», «siyosiy va davlat rejimlari», «siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish» tushunchalariga bergan ta‘riflaridan siyosatshunoslik fani ham keng bahramand bo‘ladi.

Davlat va huquq nazariyasi tarix fani bilan ham uzviy aloqador. Tarix jamiyatshunoslikka oid ijtimoiy fan hisoblanadi. U insoniyat madaniy va ma‘naviy taraqqiyotining har xil tiplari va davrlarini, jamiyatning rivojlanish yo‘nalishlari va tiklanish bosqichlarini, insoniyatning o‘tmishdan kelajak tomon yuksalib borish sabablari va mohiyatini tadqiq etadi. Muayyan xalqlar, davlatlarning turli davrlardagi hayotining aniq shakllari va tajribasini, shuningdek huquqiy merosi va yodgorliklarini ham o‘rganadi. Lekin tarix fani uchun vaqt chegaralari muhimdir. U umumlashma xulosalar chiqarmaydi, qonuniyatlarni ochmaydi, ayni shu jihatlari bilan davlat va huquq nazariyasidan farq qiladi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar tizimida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar jumlasiga kiruvchi huquqshunoslikning tarkibiy qismidir. U huquqshunoslikka nisbatan xususiylik, boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan esa, alohidalik kasb etadi;

ikkinchidan, davlat va huquq nazariyasi ham boshqa ijtimoiy fanlar sin-gari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlarining mahsuli sifatida paydo bo‘lgan. U boshqa ijtimoiy fanlar bilan birgalikda davlat va huquqqa tegishli voqea-hodisalar va ja-rayonlarni har tomonlama o‘rganadi, boshqa fanlarning metodlaridan, to‘plagan bilimlaridan foydalanadi. O‘z navbatida, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlarni davlat va huquqqa oid aniq ma‘lumotlar bilan ta‘minlab, ularni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantiradi;

uchinchidan, davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fani orqali davlat va huquq bilan shug'ullanayotgan har qanday ijtimoiy fan sohasining ilmiy tadqiqot mavzuidan munosib o'rin egallaydi.

Davlat va huquq nazariyasining barcha ijtimoiy fanlar bilan aloqasi ikki tomonlama manfaatli xususiyat kasb etadi. Davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlarning xulosalariga asoslangan holda xilma-xil falsafiy, tarixiy materiallarni umumlashtirib, davlat va huquqning vujudga kelishi sabablari, taraqqiyot bosqichlari, davlat va huquqning mohiyati, mazmuni va shakllarini ochib beradi. Ayni vaqtda, davlat va huquq nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlarni takrorlamaydi, balki to'ldiradi. Bu hol davlat va huquq nazariyasi o'z mustaqil predmetiga va xususiyatlariga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan yana ham keng qamrovli xulosalar chiqarish mumkin. O'zbekistonda davlatchilikning huquqiy asoslari takomillashib borishi, huquqiy madaniyat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, huquqiy ta'lim rivojlanib borgani sayin davlat va huquq nazariyasi hamda barcha ijtimoiy fanlar o'rtasidagi aloqadorlik hamda hamkorlik kuchayib boraveradi.

Davlat va huquq nazariyasining sohaviy huquqiy fanlar bilan nisbati. Yuridik fanlar – ijtimoiy hodisa sifatida davlat va huquqning tushunchasi, mohiyati, tasnifi, kelib chiqishi, rivojlanishi va amal qilinishining umumiy va maxsus qonuniyatlari to'g'risidagi huquqiy bilimlar tizimidir.

Barcha yuridik fanlar diqqat markazida davlat va huquq asosiy o'rin egallaydi. Ayni paytda, har bir yuridik fan davlat va huquqning muayyan tomonlarini, muayyan jihatlarini o'rganadi. Shuning uchun huquqshunoslik fanlarining har bir tarmog'i o'zining mustaqil predmetiga ega. Davlat va huquq nazariyasini barcha huquqiy fanlar bilan birgalikda o'rganish bu fanning predmeti, ahamiyati va rolini yanada oydinlashtiradi. Barcha yuridik fanlarning ham o'rganish sohasi va umumiy obyekti – davlat va huquqdir. Har bir sohaviy huquqshunoslik fani davlat va huquq masalasiga o'ziga xos yondashadi, ularning har biri o'zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega.

Yuridik fanlar quyidagi tarzda klassifikatsiya (tasnif) qilinadi:

a) tarixiy-nazariy-huquqiy fanlar (davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi va hokazo);

b) maxsus yoki tarmoq huquqiy fanlar (masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, mehnat huquqi, ma'muriy huquq, konstitutsiyaviy huquq, moliya huquqi, yer huquqi, jinoyat protsessual huquqi va boshqalar);

d) amaliy yuridik fanlar (masalan, kriminalistika, kriminologiya, sud tibbiyoti, sud statistikasi, sud buxgalteriyasi va hokazo).

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi. Davlat va huquq nazariyasining

boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasi ana shundan kelib chiqadi. Davlat va huquq nazariyasi maxsus va amaliy-huquqiy fanlarning aniq materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi. Umumiy va fundamental fan sifatida huquqshunoslikning asosiy tushunchalari va qoidalarini shakllantiradi.

Davlat va huquq nazariyasi **metodologik fan** sifatida boshqa sohaviy huquqiy fanlar uchun xususiy yuridik metodlarni va rahbariy prinsiplarni ishlab chiqadi. Davlat va huquq nazariyasi bilan davlat va huquq tarixi fani bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Ularning har ikkisi davlat va huquq borasida bahs yuritadi. Davlat va huquq tarixi davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini to'liq, xronologik tarzda o'rganadi.

Tarix va nazariya bir-birisiz bo'lmaydi, biri ikkinchisini taqozo etadi. Davlat va huquq tarixi fani, o'z navbatida, ayrim nazariy xulosalarni chiqaradi, nazariy prinsiplar asosida ish ko'radi. Davlat va huquq nazariyasi fani esa o'z xulosalarini tarixiy materiallar yordamida asoslaydi, bunda u tarixiylik metodidan foydalanadi. Har qanday tarixiy faktni nazariyasiz yoritish, izohlash mumkin emas. Nazariya tarixiy voqealarga yondashish usulini belgilaydi va shu bois tarixni ilmiy o'rganish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Davlat va huquq nazariyasi boshqa huquqiy fanlar bilan ham xuddi shunday ikki yoqlama aloqadadir. Demak, davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy, yo'naltiruvchi, umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, barcha yuridik fanlarning yutuqlarini uyg'unlashtiradi va ularning o'zaro boyishiga ko'maklashadi.

5-§. Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari

Fanning funksiyasi uning e'tibori qanday vazifani bajarishga qaratilganligidan va tabiatidan kelib chiqadi. Davlat va huquq nazariyasi o'z oldiga qo'yilgan vazifani ado etish

uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Nazariy bilish (evristik)' funksiyasi. Davlat va huquqni bilish turli darajada bo'lishi mumkin. Ba'zan u davlat va huquqni izohlash yoki tushuntirishdangina (**ontologik funksiyadan**) iborat bo'ladi. Lekin davlat va huquq nazariyasi bu bilan cheklanmaydi, balki o'rganilayotgan obyektning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali yangi qonuniyatlarni ochadi, yangi bilimlarni hosil qiladi. Masalan, davlat va huquq rivojlanish qonuniyatlarining ochilishi,

¹ «Evrika» – yunoncha so'z bo'lib, «topdim» degan ma'noni anglatadi. Biz uni davlat va huquq nazariyasi tomonidan yangi bilimlarni hosil qilish, yangi xususiyatlarni aniqlash, ilmiy haqiqatni topish ma'nosida qo'llamoqdamiz.

davlatning iqtisodiy rolini izohlash, huquqiy tartibga solishning yangi mexanizmlarini shakllantirish va hokazo.

Nazariy bilish funksiyasini amalga oshirish tufayli davlat va huquq nazariyasi davlat-huquqiy voqeliklarni chuqur va mukammal o'rganish asosida ularning xarakterli belgilari va muhim xususiyatlarini ta'riflab beradi. Davlat va huquqni xuddi shu tarzda tadqiq etish davlat va huquqning kelgusi rivojlanishi haqida ilmiy bashoratlar qilish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mazkur fan ilmiy-huquqiy dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Metodologik funksiya. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fan sohalariga nisbatan *metodologik* funksiyani bajaradi. Chunki, har qanday metod – amaliy izlanishga yo'naltirilgan nazariyadir. Nazariya fani voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirsa, u bilishning metodi sifatida shunchalik samarali bo'ladi. Davlat va huquq nazariyasi davlat, huquq, qonunchilik, huquqiy munosabat, huquqiy javobgarlik kabi tushunchalarni ishlab chiqadi. Mazkur nazariy tushunchalar tizimi davlat va huquqqa oid masalalar haqida yangi ilmiy bilimlarni yaratish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham davlat va huquq nazariyasi ishlab chiqqan ilmiy tushunchalar, kategoriyalar, ta'riflar, prinsiplar va qoidalar huquq sohalarini o'rganuvchi boshqa fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy tajriba funksiyasi. Barcha yuridik fanlarda bo'lgani singari davlat va huquq nazariyasi fanida ham nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy qo'shib olib boriladi. Davlat va huquq nazariyasi fani ham amaliyotga yordam ko'rsatadi. Jumladan, u davlat faoliyatini takomillashtirishga, qonunchilikni rivojlantirish va uni amalda qo'llanish ishini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqadi va hokazo. Yuridik amaliyotni nazariy jihatdan asoslash ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.


Mafkuraviy-tarbiyaviy funksiya. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq to'g'risidagi g'oyalarning ilmiy tizimidan iborat. U kishilarda muhim siyosiy va huquqiy, ya'ni demokratiya, qonunchilik, davlat intizomi, shaxsning huquqi hamda erkinliklari to'g'risida ilmiy tushunchalar, ta'limotlar, konseptual bilimlarni shakllantiradi.

Fanning mafkuraviy funksiyasi davlat va huquq masalalariga dialektik nuqtayi nazardan yondashishga, dunyoqarashning mustahkamlanishiga, shuningdek kishilar ongida yangi huquqiy ong, zamonaviy demokratik huquqiy tafakkur, huquqiy madaniyat va qonunchilikka hurmat hissini tarbiyalashga yordam beradi.

Davlat va huquq nazariyasi yuqoridagi funksiyalardan tashqari, *siyosiy, tashkilotchilik, bashorat qilish* kabi funksiyalarni ham bajaradi. Demak, davlat va huquq nazariyasi quyidagi vazifalarni bajarishga ko'maklashadi:

- 1) davlat va huquqning rivojlanish qonuniyatlarini va yo'llarini ochib berish;
- 2) davlat organlarining faoliyati va tuzilishini takomillashtirish;
- 3) huquqni qo'llash va qonunchilikni takomillashtirish, qonunlarni sistemalashtirish va kodifikatsiyalash;
- 4) huquqni targ'ib qilish, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash va boshqalar.

Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari



II bob. DAVLAT VA HUQUQNING VUJUDGA KELISHI

1-§. Jamiyat tushunchasi, uning tuzilishi va davlat bilan aloqasi Insoniyat o'z ibtidosini anglashga uzluksiz jiddiy qiziqish bildirib keladi. Oqil mutafakkirlar jamiyatning tub mohiyatini bilishga, insonning jamiyatdagi o'rni va rolini belgilashga, taraqqiyot mantig'ini anglashga intilganlar. «Jamiyat» iborasi arabcha so'z bo'lib, jam bo'lish, birlashish, umumiy (ijtimoiy) degan ma'nolarni ifodalaydi.

Yer yuzida odamlar paydo bo'lib, ular jamiyat tarzida birlashgunlarigacha juda uzoq tarixiy davrlar o'tgan. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, Yer sayyorasi bundan to'rt milliard yetti yuz million yil muqaddam Quyosh prototizimida paydo bo'lgan. Materiyaning qonuniyatli o'zgarishi va rivojlanishi natijasida 3-3,5 mlrd. yillar muqaddam Yer yuzida hayot paydo bo'lib, biosfera rivojlana boshlagan. Uzoq tarixiy-tadrijiy rivojlanish oqibatida bundan 2 mln. yilcha avval *inson* (*homo habilis*) paydo bo'ldi; Dastlabki odam tipi – *neoandertal* odam edi. Bugungi kundan qariyb 250 ming yillar muqaddam odamzotning *karamanyon* (kromanon) – yovvoyi odam tipi kelib chiqdi va u hozirdan 35-40 ming avval yillargacha mavjud bo'ldi. 40 ming yillarcha muqaddam hozirgi ko'rinishdagi, fikrlovchi, ya'ni aql ato etilgan inson (*homo sapiens*) paydo bo'lgan. Insonlar birgalashib turmush kechiradigan, jamiyatni hosil qilgan vaziyat (muhit) tarixan ancha keyin yuzaga kelgan. Sayyoramizdagi dastlabki davlat tuzilmalari, ilk davlatlar (masalan, Misopotamiyada Shumerlar davlati 7-8 ming, Qadimgi Misrda – 5-6 ming, Qadimgi Xitoy va Hindistonda 4,5-5 ming yillar avval) 5-8 ming yil ilgari vujudga kelganligini dalillovchi arxeologiya ma'lumotlari mavjud.

Insonlarning onli hilqat ekanligi, mehnat qilishga qobilligi, ruhiy-fiziologik xususiyatlari va yuksak darajadagi uyushqoqligi tufayli jamiyatni hosil qiladi. Jamiyat insonlarning birlashuvi, ittifoqi, uyushmasi sifatida murakkab, serqirra ijtimoiy hodisadir. Jamiyat iborasi bir necha ma'nolarda qo'llanadi: 1) kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsad hamda manfaatlari asosidagi birlashmalari, uyushmalari (mas., kitob sevarlar jamiyat, dehqon-sohibkorlar jamiyati, bilim jamiyati, tabiat himoyachilari jamiyati, xususiy mulkdorlar jamiyati va h.k.); 2) insoniyatning muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichi-

dagi yaxlit uyushmasi (ibtidoiy jamiyat, feodal jamiyat, inson va shaxslarning muayyan mamlakat ko'lamidagi uyushmasi va h.k.); 3) tabiatning bir bo'lagi, borliqning alohida olingan shakli, ijtimoiy turmush kechirishning ifodasi tarzidagi jamiyat.

Jamiyat mohiyatini ilmiy anglash, uning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish insoniyat ma'naviy taraqqiyotining mislsiz yutug'i hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino jamiyatning paydo bo'lishi kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini, ijtimoiy tengsizlik, tabiiy holat, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotining manbayi ekanligini ta'kidladi. Abu Nasr Forobiy ma'rifatli, mas'uliyatli, fozil jamiyat siymosini targ'ib qilgan. Abu Rayhon Beruniy jamiyat hayotida oila, mahalla, til va madaniyatning ahamiyatini ko'rsatdi. Keyinchalik G'arbiy Yevropalik G. Spenser, E. Dyurkgeym, M. Veber, V. Perato singarilar jamiyatni tabiiy – tarixiy jarayon, murakkab ijtimoiy tizim (sistema) sifatida tadqiq etdilar. Jamiyat haqidagi turli tarixiy davrlarda yaratilgan ta'limotlarda davr ruhi, jamiyatning madaniy-ma'naviy salohiyati, rivojlanish qonuniyatlari o'z aksini topadi.

Jamiyat o'ta murakkab, ko'p qatlamli ijtimoiy tuzulma, sistemadir. U kishilarning oddiy jamlamasi emas, balki umumiy ehtiyoj uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, mahsulotlarni taqsimlash va ayirboshlash, iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan turli tuman mulkiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, oilaviy aloqalar, ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Demak, jamiyat – insonlarning oila, tabaqa, guruhlar o'rtasidagi murakkab, jo'shqin aloqalar, ijtimoiy ahamiyatga molik munosabatlar tizimi. Jamiyat odamlarning shunday uyushmasiki, unda irsiy qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar hukmronlik qiladi.

Falsafiy lug'atlar talqiniga ko'ra, jamiyat odamlar o'rtasida vujudga keladigan axloqiy, diniy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning, tarixan qaror topgan oila, axloq, din, davlat va shu kabi ijtimoiy institutlarning majmuasidir. Jamiyat hayotining barcha yuqoridagi sanalgan sohalarini bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqdir. Ularni boshqarish va rivojlantirishda davlat, partiyalar, turli jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqaruv organlari muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning axloqiy-ma'naviy salohiyati, ijtimoiy-huquqiy saviyasiga muvofiq ravishda siyosiy boshqarish usuli shakllanadi va faoliyat yuritadi.

Umume'tirof etilgan ta'rifga ko'ra, *jamiyat* – ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy munosabatlar mahsuli (mujmui). Uni bunday tahlil etish, *birinchidan*, unga tarixiy jihatdan yondashish (jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini farqlash); *ikkinchidan*, ijtimoiy hayot asosiy sohalarining o'ziga xos (iqtisodiy, ma'naviy) xususiyatlarini aniqlash, *uchinchidan*, ijtimoiy munosabatlar subyektlari

(shaxs, oila, millat, davlat, sinflar va boshqalar)ning nomlarini ta'kidlash imkonini beradi¹. Demak, **jamiyat** insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, hamkorlik, ijtimoiy munosabatlar tizimi, umumiy turmush kechirishning muayyan tashkillashgan tarzi bo'lib, uning mohiyati odamlar, ularning uyushmalari, birliklari o'rtasidagi iqtisodiy, axloqiy, siyosiy, madaniy va boshqa turli-tuman munosabatlar mazmunidan iborat.

Davlat jamiyatdan ajralib chiqadigan uning bir bo'lagi bo'lib, jamiyatni boshqarish bilan mashg'ul bo'ladi. «Jamiyat va davlat nisbatini tavsiflagan holda aytish mumkinki, tarixiy ma'noda davlat paydo bo'lishi bilan jamiyat bami-soli ikki qismga – davlat va boshqa, ya'ni nodavlat sohaga ajralgandek bo'ladi, aynan shu ikkinchi qismni fuqarolik jamiyati deb atamoq lozim. Davlatni tarkib toptiruvchi jamiyatda, bir tomondan, davlat, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati ajralib tursa, davlat va jamiyat nisbati masalasi, aslida fuqarolik jamiyati va uning siyosiy hokimiyati nisbati muammosiga aylanadi»².

Jamiyat o'z hayotini turli-tuman ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy institutlar faoliyatisiz tashkil etolmaydi. Bunday tashkilot (institut) va uyushmalarning mavjudligi ijtimoiy munosabatlar turiga va umuman tizimiga barqarorlik baxsh etadi. Masalan, davlat jamiyatning muhim siyosiy instituti bo'lib, asosan, siyosiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi, zarur vaziyatlarda iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida ham maydonga chiqadi. Davlat paydo bo'lgunga qadar, ya'ni ibtidoiy jamiyatda ham o'ziga xos institutlar, tashkiliy tuzilmalar bo'lgan. Xususan, urug', qabila; ular tarkibida boshqaruv funksiyasini bajaruvchi ijtimoiy hokimiyat institutlari bo'lgan (urug' yoki qabila oqsoqoli, jamoaning umumiy yig'ini va h.k.). Jamiyat muayyan hokimiyatsiz boshqarilishi mumkin emas. Ijtimoiy hokimiyat shunday uyushgan (tashkillashgan) kuchki, u o'z irodasiga o'zgalarning, ya'ni urug', ijtimoiy guruh, jamoa ahlining irodasini bo'ysundiradi. Iroda har qanday ijtimoiy hokimiyatning mag'zini, markaziy elementini tashkil etadi. Hokimiyat munosabatlarida bir tomonda – hukmron, ustun iroda, ikkinchi tomonda – bo'ysunuvchi, tobe iroda mavjud bo'ladi.

Jamiyatni faqat iroda kuchi bilan birlashtirib, yo'naltirib bo'lmaydi. Kishilarni bir jamoaga, guruhga, qolaversa, yaxlit bir butun jamiyatga birlashishiga sabab bo'luvchi omil – bu yagona maqsad va manfaatdir. Aynan manfaatlar umumiyligi, ehtiyojlar mushtarakligi kishilarni bir jamiyat bo'lib maydonga chiqishini va birgalikda turmush kechirishini ta'minlaydi.

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова. – М., 1998. – 27–28-бетлар; Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2007, 60-bet.

² Qarang: Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права (юриспруденция). – М., «Право и государство», 2003, – 83-бет.

Davlat va huquq nazariyasi doirasida «jamiyat» fenomenini ilmiy o'rganish va tahlil etishning o'ziga xos ma'nosi va ahamiyati bor. Birinchidan, qadim jamiyatning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi sabablari hamda qonuniyatlarini ochish; ikkinchidan, hozirgi jamiyatning mohiyatini anglash, unda davlat va huquqning o'rnini hamda rolini belgilash, zamonaviy jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlari va tendensiyalarini ochishdan iborat. Masalan, qadimgi jamiyat taraqqiyotida o'zlashtiruvchi iqtisodiyotni va ne'mat yaratuvchi iqtisodiyotni farqlash mumkin. Davlatli uyushgan dastlabki jamiyat va zamonaviy jamiyatlar tahlilini industrial (sanoatlashgan) va postindustrial jamiyatlarga ajratib tahlil etish mumkin. Postindustrial jamiyat – ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichi. U fuqarolik jamiyati, axborotlashgan jamiyat tushunchalari bilan hamoxang. Ushbu ilmiy kategoriyalar mazmuni va xususiyatlarini keyingi boblarda batafsil bayon etamiz.

2-§. Ibtidoiy jamiyat, uning tabiati va xususiyatlari

Davlat va huquqning kelib chiqishi masalasi yurisprudensiyaning o'ta dolzarb, ayni vaqtda, bahs-munozarali mavzusi bo'lib hisoblanadi. Ular paydo bo'lishining yalpi qonuniyatlari borasida olimlar o'rtasida hamfikrlilik va yakdillik yo'q. O'z tabiatiga ko'ra, davlat va huquq ijtimoiy – tarixiy kategoriyalardir. Davlat va huquq aynan jamiyat bag'rida paydo bo'lib, faqat jamiyat miqyosida faoliyat qilishi bois ular – ijtimoiy xususiyatga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, davlat va huquq ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli sifatida jamiyat hayotini boshqarish, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish missiyasini bajaradi.

Davlat va huquqning tarixiyligi shundaki, ular jamiyat evolyutsiyasining muayyan tarixiy bosqichida, ya'ni tegishli shart-sharoitlar yetilgan vaziyatda vujudga keladi. Insoniyat tarixida shunday davrlar bo'lganki, unda davlat ham, huquq ham bo'lmagan. Demak, bundan quyidagi metodologik ahamiyatga molik xulosa chiqariladi: davlat va huquq jamiyatning doimiy mavjud bo'lish hamda yashash sharti emas. Kishilar bir qancha minglab yillar mobaynida davlat hokimiyatisiz va huquqiy tartibotsiz yashab kelganlar. Bu davr ibtidoiy jamoa tuzumi davri bo'lgan.

Davlat va huquqning kelib chiqishi sabablarini chuqur va atroflicha anglab yetish uchun ular shakllangan makon-zaminni, ya'ni ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish, tahlil etish lozim.

Ibtidoiy jamoa tuzumi – insoniyat tarixidagi eng birinchi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdur. Qadimgi jamiyat haqidagi ilmiy asoslantirilgan bilimlarni arxeologiya, etnografiya, tarix va boshqa fanlarning ma'lumotlari asosida olish

mumkin. Ibtidoiy jamiyatni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishonchli manbalardan biri amerikalik qadimshunos, tarixchi va etnograf Luis Morganning 1877-yilda nashr etilgan «Qadimgi jamiyat» asaridir. Olim qariyb qirq yil mobaynida shimoliy amerika hindu qabilalari orasida yashab, ularning ibtidoiy tuzum bosqichidagi hayot tarzini kuzatadi, tadqiq etadi va shu asosda o'z kitobini yaratadi. Morganning mazkur asarini chuqur o'rganish va unga qat'iy tayanish asosida, shuningdek qadimgi grek, german, galliy va boshqa qabilalar tarixiga oid manbalarga suyanib F.Engels «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» (1884-y.) asarini chop etadi. Ushbu va shu kabi boshqa manbalarda yozma tariximizdan burungi jamiyatning turmush tarzi, tabiati, xususiyatlari tiklandi va ochib berildi. Ularda ibtidoiy-jamoa tuzumi, kishilarning dastlabki uyushgan jamiyatining eng quyi bosqichidan yuqori bosqichigacha bo'lgan harakatlanish jarayoni batafsil tahlil etilgan. Shuningdek, moddiy ne'matlarni yaratish, ishlab chiqarish usuli bu jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatganligi bayon qilinadi.

Moddiy noz-ne'matlar va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish har qanday kishilik jamiyati yashashining zaruriy shartidir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va ularni taqsimlash jarayonida vujudga keladigan munosabatlar yig'indisi jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etadi. Iqtisodiy tuzum esa jamiyatning boshqaruv tizimi mazmunini, dastlab ijtimoiy, keyinchalik siyosiy institutlar mohiyatini me'yoriy tartibga solish tabiatini belgilovchi asosiy omil sanaladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining iqtisodiy munosabatlari asosini ishlab chiqarish qurol-vositalariga jamoaviy mulkchilik tashkil etgan. Yaratilgan, undirilgan, qo'lga kiritilgan moddiy mahsulot va boyliklar teng taqsimlangan. Bunda, masalan, hayvon yoki baliq ovida jamoa a'zosining qanchalik shijoat ko'rsatgani, hissa qo'shgani taqsimot chog'ida inobatga olinmagan. Bunday iqtisodiy zaminga qurilgan ibtidoiy jamiyatda kishilarning bir-birini talashi uchun, kamsitishi uchun o'rin bo'lmagan.

Mehnat va ov qurollari nihoyatda oddiy (primitiv) bo'lgan. Odamlar tevarak tabiatni ham, o'zlarining shu tabiatdagi o'rnini ham anglab yetmaganlar. Tabiat injiqliklari, stixiyalari qarshisida ojiz bo'lganlar, ularga qarshi turish, bunday vaziyatda yashab qolish, turmush kechirish qiyinchiliklarini yengish uchun faqat birgalashib hayot kechirish, kuchlarni birlashtirish, uyushgan holda mehnat qilish obyektiv zarurat bo'lgan.

Qadimgi tarixni tadqiq qilgan mutaxassislar ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti jarayonini uch asosiy davrga: yovvoyilik, vahshiylik va sivilizatsiya davrlariga bo'ladilar.

Yovvoyilikning quyi bosqichi. Bu bosqichni «odamzotning go'dakligi», deb ta'riflaydilar. Kishilar hali o'zlarining dastlabki joylarida, tropik yoki subtropik o'rmonlarda yashaganlar. Ularning ovqatlari mevalar, yong'oqlar, o'simlik

ildizlaridan iborat bo'lgan. Bu davrning asosiy yutug'i – ma'noli nutqning paydo bo'lganligidir.

Yovvoyilikning o'rta bosqichida ovqatlar qatoriga baliq qo'shiladi va olovdan foydalanish boshlanadi. Toshdan qurol yasash paydo bo'ladi. Odamlar iqlim va joyga bog'liq bo'lmay qoladilar va yer yuzining ko'pgina qismiga joylasha boshlaydilar.

Yovvoyilikning yuqori bosqichi o'q-yoy ixtiro qilingan vaqtdan boshlanadi. Ularning doimiy ovqati qatoriga parranda va hayvonlar kiradi. Ov esa mehnatning tarmoqlaridan biri bo'lib qoladi. Guruh-guruh bo'lib yashashning ba'zi alomatlari, yog'och idishlar, uy anjomlari paydo bo'la boshlaydi. Keyinchalik olov bilan bolta ro'zg'or ishlarida keng foydalaniladigan bo'ladi.

Vahshiylikning quyi bosqichida kulolchilik paydo bo'ladi, hayvonlarni qo'lga o'rgatish va urchitish hamda o'simliklarni ekib o'stirish vujudga keladi. Jamiyat taraqqiyotiga tabiiy sharoitlar ta'siri kuchayadi.

Vahshiylikning o'rta bosqichi uy hayvonlarini qo'lga o'rgatishdan, g'arbda – ovqat bo'ladigan ekinlarni sug'orish vositasi bilan ekish va imoratlar uchun quritilgan xom g'isht hamda tosh ishlatishdan boshlanadi. Bu bosqich uchun podalar paydo bo'lishi va cho'ponlar qabilalarining shakllanishi xarakterlidir.

Vahshiylikning yuqori bosqichi temir rudasini o'rganishdan boshlanib, harfli yozuvning ixtiro qilinishi va uning og'zaki ijodni yozib olish uchun qo'llanishi natijasida sivilizatsiyaga o'tishga zamin hozirlaydi.

Bu davrlarni umumlashtirib, yovvoyilik – tabiatning tayyor mahsulotlarini ko'plab o'zlashtirish davri, degan xulosaga kelish mumkin. Vahshiylik – chorvachilik va dehqonchilikning joriy etilish davri, insonlarning faol harakati va mehnati vositasida tabiat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish usullarini o'zlashtirish davridir.

Hozirgi kunda davlat paydo bo'lishidan oldingi kishilik taraqqiyoti davrini yangicha talqin etish (davrlash) ilmiy asoslanmoqda. Ya'ni, qadimgi jamiyat taraqqiyotida ikki asosiy bosqich va unga muvofiq keluvchi ishlab chiqarishning ikki usulini: o'zlashtiruvchi iqtisodiyotni (ovchilik, baliqchilik, yig'ib-terish); yaratuvchi, ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni (dehqonchilik, chorvachilik, metallni qayta ishlash, sopol buyumlar ishlab chiqarish) farqlash muhim metodologik ahamiyatga molik¹. Bu tasniflashning birinchi davriga ona urug'ining rivoj topishi, yoyilishi (matriarxat), ikkinchi davri esa otaga bog'langan avlod (patriarxat) mos keladi. Ibtidoiy odamlar o'zlarini tabiatning uzviy bo'lagi deb bilganlar. Ular faqat tabiat bilan uyg'unlikda yashay olishlariga ishonganlar.

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова. – М., 1998. – 34–35-бетлар.

Tabiat ularni issiq va sovuqlardan asragan, tashnalik va ochlikdan qutqargan, turli-tuman ehtiyojlarini qondirgan. O'zlashtiruvchi iqtisodiyot jamiyatida ayollar yetakchi mavqeni egallaganlar. Ayollar oziq-ovqatlarni saqlash, ovqat tayyorlash, oilani zarur maishiy yumushlar bilan ta'minlash, bola tarbiyasi kabi ishlar bilan shug'ullanganlar. Erkaklar mehnat qurollari tayyorlashgan, ovchilik hamda oilaning himoyasi bilan shug'ullanganlar. Turmushda *ekzogamiya* qaror topgan, ya'ni yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasida nikoh taqiqlangan.

Ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot davrida mehnat qurollarining takomillashib borishi, o'q-yoyning kashf etilishi natijasida jamiyatda yirik mehnat taqsimoti yuz bergan. Ovchilikdan dehqonchilik, so'ngra hunarmandchilik ajralib chiqqan.

Qadimgi odamlar jamoa bo'lib, birgalikda yashashga moyil va majbur bo'lganlar. Ularning turmush tarzi va o'zaro munosabatlarini tasvirlab, Afilotun o'zining «Qonunlar» asarida qadimgi odamlarning hayotni Afinalik suhbatdosh nomidan shunday izohlaydi: «Avvalo, u zamon odamlari bir-birlarini yaxshi ko'rganlar va ayriliqlar tufayli bir-birlariga xayrixoh munosabatda bo'lganlar; ovqatni ham bir-birlaridan qizg'anmaganlar, chunki yaylovlar ko'p bo'lgan – ba'zilarida avvaliga kam bo'lishi ehtimol, ularning ko'pchiligi shu (chorvachilik) bilan kun ko'rganlar. Ularda sut va go'sht ham yetarli bo'lgan; bundan tashqari ular ov bilan o'zlariga yegulik topganlar. Ularda kiyim, yotish o'rinlari (choyshab, to'shak), uy-joy, kuydirilgan (kulolchilik buyumlari) va oddiy buyumlar bisyor bo'lgan; ...Juda kambag'allar ham bo'lmagani uchun kambag'allik odamlarni bir-birlariga dushman bo'lishlariga majbur qilmagan. Boshqa tomondan ular boy bo'lib ham ketolmasdilar, chunki u vaqtlarda ularda oltin ham, kumush ham yo'q edi»¹. Ibtidoiy tuzum davri minglab yillar davom etgan. U davrlarda hali ishlab chiqarish, iqtisodiyot rivoji juda sekin va past darajada borishi bilan tavsiflanadi.

Ibtidoiy jamiyatning iqtisodiy holati, xo'jalik yuritish xususiyatlari uning ijtimoiy tuzilishiga (sotsial boshqariluv strukturasi) va ma'naviy hayotiga, ijtimoiy hokimiyatning tabiatiga va sotsial normalarning mohiyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasligining aslo iloji yo'q edi.

Jamiyatning dastlabki quyi bo'g'ini, boshlang'ich yacheykasi, uni boshqarishning birlamchi shakli *urug'* hisoblangan. Urug' – o'zaro qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan yaqin kishilarning shaxsiy ittifoqidir. Urug' kishilari-ning bir-biriga qon jihatdan yaqin jamoasi bo'lib, ular birlashgan tarzda turmush kechirib, hamjihatlikda ov qilganlar, xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanganlar.

Urug'chilik tuzumining hayotida oilaning shakllanishi va evolyutsiyasi alohida rol o'ynaganligini ta'kidlash lozim. Urug' ibtidoiy odam ajdod va av-

¹ Afilotun. Qonunlar. Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2002. – 75–76-betlar.

lodlari o'rtasidagi aloqalarning eng tabiiy va odatiy shakli bo'lganligi bois, bu oilaviy (nikoh) munosabatlarida o'z ifodasi, namoyon bo'lishini topgan. Ilmiy manbalarda ibtidoiy-jamoa tuzumining mavjudlik davri uch bosqichga bo'linadi: ibtidoiy poda, urug' jamoasi va urug'chilikning yemirilishi davri. Bu davrlarning oila evolyutsiyasiga aloqasi bevositadir. Odam ajdodlari uzoq davr mobaynida to'da-to'da bo'lib, ibtidoiy poda shaklida yashaganlar. Yovvoyi odamlarning dastlabki guruhlari daydi ko'chmachilik holatida hayot kechirganlar, ba'zan, g'orlarda, o'rmonlarda yoki qishloq sharoitida umr kechirganlar. Bunday sharoitda oilaviy aloqalar betartib ko'rinishga ega bo'lganligi tabiiy. Demak, insonlarning Yer yuzida tarqalishining dastlabki pallasida oilaning *poligam shakli* hukm surgan. Bu guruhliy oilaviy (nikoh) munosabatlari bo'lib, unda barcha erkaklar va ayollar (shuningdek, ota-onalar va farzandlar) birbirlariga tegishli bo'lganlar. Bunday oilalarda bolaning otasi kimligini bilish va aniqlash mumkin bo'lmagan. Farzandlar butun guruhning, jamoaning umumiy bolasi hisoblangan. Oilaga, urug'ga mansublik ona tomonidan belgilangan. Shu bois Matriarxat – ona hukmronligiga asoslangan urug', oila shakllangan.

Oilaning birinchi shakli guruhliy oila bo'lib, u qon-qarindoshlik asosidagi («*endogam*») oila edi. Bunda ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi nikoh man etildi. Biroq, aka-singillar o'zaro er va xotin bo'lishlari mumkin edi. Uzoq davrlar qon-qarindoshlikka asoslangan oilalarning mavjud bo'lishi bir necha avlod o'tgach, o'zining salbiy qusurlarini ko'rsatadi, avvalo, bu nasl salomatligiga ta'sir etib, uning tobora zaiflashib borishi kuzatiladi, murakkab tabiiy sharoitga moslasha olmay odamlar ko'plab qirilib keta boshlaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning keskin kamayib ketishi va oqibatda moddiy ne'matlar ishlab chiqarilishi sur'atlari pasayib ketishi kabilarga olib keldi. Shu tariqa, guruhliy nikohning (oilaning) yangi shakli – *punalual oila* paydo bo'ladi. Bir onaning farzandlari o'rtasidagi, aka-singillar o'rtasidagi nikohlar ham man etilgan. Bu «*ekzogam*» shakldagi oila – ona urug'ining shakllanishiga asos soladi, unda ayol (ona boshining) qarindoshlari o'rtasida rishta bog'langan. Keyinchalik bir urug' a'zolari o'rtasidagi nikohlar ham taqiqlanadi.

Muayyan tarixiy rivojlanish davrida chorvachilik, omoch bilan yer haydab dehqonchilik qilish keng yoyilishi erkaklarning mehnat jarayonidagi ahamiyatini oshiradi. Bu hol matriarxat o'rniga oilada ota hukmronligi (patriarxat) ni keltirib chiqaradi. Endi qon-qarindoshlik, avlod davomiyligi ota tomondan belgilanadigan bo'ldi. Bu – insoniyat rivojidadagi yangi bosqich. Guruhliy nikoh o'rniga *juft oila* shakli paydo bo'ladi. Bunda tuqqan ona qatorida tug'ishgan ota ham aniq bo'ladi. Navbatdagi bosqichda juft oilaning ota hukmronligi ustun bo'lgan shakli o'rin oladi. Urug'chilik tuzumining yakuniy bosqichida otalar hukmron oilalar, ota urug'i, patriarxal jamoa qaror topadi.

Shunday qilib, qon jihatidan yaqin bir necha oilalarning ittifoqi ibtidoiy urug' jamoasi hisoblanadi. Bunday urug'lar ekzogam oilaviy munosabatlar mavjudligining natijasi edi. Urug'lar tabiiy shart-sharoitlari hayot kechirish uchun qulay bo'lgan hududlarni, masalan, o'rmonlar, daryo va ko'l havzalarining bo'ylarini makon qilib joylashishga (o'troqlashishga) intilganlar. Shunday qulay maskanlar uchun urug'lar o'rtasida urushlar, talashib-tortishishlar bo'lib turgan.

Tabiiy qulay maskanlarga ega bo'lish uchun tez-tez bo'lib turadigan urushlar urug'larning o'zaro ittifoqlar tuzishiga sabab bo'lgan. Hududiy yaqinlik, qon yaqinligi va tillashuv imkoniyatlari asosida urug'lar birlashib, *fratriyalarni*, kuriyalarni (urug' ittifoqlarini), bir necha fratriyalar, kuriyalar birlashib *qabilalarni* tashkil etardi. So'ngra, vaziyat taqozo qilganda qabilalar ittifoqi vujudga kelgan.

Kishilarning bunday katta uyushmalarining, jamoalarining birgalikdagi turmush kechirishini tashkil etish u yerda muayyan boshqaruv mavjud bo'lishini taqozo qilardi. Boshqaruv ehtiyoji esa ma'lum ijtimoiy hokimiyat tizimi shakllanishiga sabab bo'lgan.

Tashqi bosqinchiliklardan himoyalaniish, hududni muhofaza etish, ishlab chiqarish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini unumli tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini olib borish, diniy urf-odatlarini amalga oshirish, jamoa a'zolari o'rtasida vujudga keluvchi nizoli masalalarni hal etish, umuman urug'ni, qabilani boshqarish kabi muhim vazifalarni bajarish jamoa a'zolari orasidan saylab qo'yiladigan oqsoqollarga yuklatilgan.

Qabila va fratriyalar *oqsoqollar kengashi* tomonidan boshqarilardi. Urug' tepasida urug'ning umumiy yig'ilishida katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan va ko'pchilik hurmatini qozongan shaxslardan saylab qo'yiladigan oqsoqollar yoki harbiy boshliqlar turardi.

Urug'chilik tuzumining iqtisodiy munosabatlariga urug' ishlarini boshqarish tizimi va ijtimoiy hokimiyatni tashkil etish tartibi mos kelardi. Bu sharoitda hokimiyat butun jamiyatga tegishli edi. Hokimiyat jamiyatdan ajratilgan emas, balki unga muvofiq edi. Birgalikda hayot kechirishning hamma masalalari: ishlab chiqarish faoliyati, urush olib borish, diniy marosimlar o'tkazish, kishilar o'rtasidagi nizolarni hal qilish va boshqalar urug' a'zolarining umumiy yig'ilishida qarab chiqilar va hal etilardi. Urug' a'zolarining majlisi (umumiy yig'ilishi) uning oliy hokimiyat organi edi. Oqsoqollar va harbiy boshliqlar hech qanday imtiyozlardan foydalanmasdilar, alohida boshqarish yoki majbur etish apparatlariga ega emas edilar va ularning qo'llaridagi hokimiyat birdan-bir shaxsiy ma'naviy obro'lariga hamda barcha urug' a'zolarining ularga bo'lgan hurmati va qo'llab-quvvatlashlariga tayanardi. F. Engels bu haqda shunday deb

yoʻzgan edi: «Sivilizatsiya davridagi politsiyaning eng razil xizmatchisi ham urugʻdoshlik jamiyatining hamma organlarini birga qoʻshib olganda, ulardan koʻra koʻproq «avtoritet» ega boʻladi; lekin sivilizatsiya davrining eng qudratli knyazi va eng buyuk davlat arbobi yoki lashkarboshisi eng kamtarin urugʻ oqsoqoli qozongan obroʻni orzu qilsa boʻladi»¹.

Urugʻ oqsoqollari va harbiy boshliqlari istalgan vaqtda umumiy yigʻilish tomonidan almashtirilishi mumkin boʻlgan, ular oʻz funksiyalarini urugʻning nazorati ostida amalga oshirganlar. Urugʻ yigʻilishining qarori uning hamma aʼzolari uchun majburiy boʻlgan.

Ibtidoiy tuzumdagi ijtimoiy hokimiyat ancha obroʻli, real va samarali boshqarishga qodir boʻlgan. «U vaqtda odatlar hukmron boʻlganini, obroʻ, hurmat, urugʻ oqsoqollarining azm-ixtiyorlari borligini koʻramiz, bunday azm-ixtiyor baʼzan xotinlarda boʻlganini koʻramiz, lekin boshqalarni idora qilmoq uchun va idora qilish maqsadida, idora qilish manfaatlarini koʻzlab majbur qiladigan maʼlum apparatga, zoʻrlaydigan apparatga sistematik va doimiy ravishda ega boʻlib turish uchun ajralib chiqqan alohida turdagi kishilarni hech qayerda koʻrmaymiz»².

Ijtimoiy hokimiyat organlari va vakillarida jamoat fikridan boshqa hech qanday majburlash usuli boʻlmagan. Kishilar jamiyatda amal qiladigan xulq-atvor va yurish-turish qoidalariga soʻzsiz rioya qilganlar. Bordi-yu urf-odat, axloq va din qoidalari buzilsa, bu holatni butun urugʻ, uning yigʻilishi muhokama qilardi. Qoidalarni buzgan kishini izza qilish, unga tanbeh berish, ogohlantirish, urugʻdan quvib yuborish kabi jamoat taʼsir choralari qoʻllanilgan. Adabiyotlarda koʻpchilik qabilalar ichida *tabu* – taqiqlov qoidalari boʻlganligi eʼtirof etiladi. Bu ibtidoiy tuzum uchun alohida ahamiyatli normalar tizimi hisoblangan. Tabu aksariyat holda diniy asosdagi taqiq boʻlib, maʼlum xatti-harakatga, predmetga, soʻzlarga va boshqalarga qoʻyilgan. Uni buzish ruhlar va xudolarning qahrini qoʻzgʻatadi, deb ayovsiz jazo qoʻllanishini nazarda tutgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ijtimoiy hokimiyatning xususiyatlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hokimiyat klassik shaklda boʻlganligini, oʻz-oʻzini boshqarish va ibtidoiy demokratiya koʻrinishida boʻlganligini koʻrsatadi. Ibtidoiy tuzumda amal qilgan xulq-atvor va yurish-turish qoidalari yigʻindisi sotsial normalarni tashkil qilgan. Sotsial normalar turmushdagi, mehnatdagi va oiladagi munosabatlarni tartibga solgan, barcha urugʻ aʼzolarining irodasini ifodalagan. Sotsial normalarga amal qilish odat boʻlgan, ular ixtiyoriy bajarilgan.

¹ Marks K. va Engels F. Ikki tomlik tanlangan asarlar, II tom, Oʻzdamnashr, 1959. – 350-bet.

² Lenin V.I. Toʻla asarlar toʻplami, 39-tom. – 79–80-betlar.

Sotsial normalarga – odat, axloq, din, etika, estetika kabi normalar kirgan. Ibtidoiy davrdagi sotsial normalar o'sha tarixiy davr sharoitining va ishlab chiqarish munosabatlarining mahsuli bo'lgan.

F. Engels insoniyatning «go'daklik» davriga shunday tavsif bergan: «Bu urug'doshlik tuzumi g'oyat sodda bo'lganligiga qaramasdan, qanday g'aroyib tashkilot! Soldatlar, jandarmlar va politsiyalar, dvoryanlar, qirollar, noiblar, hokimlar yoki sudyalalar, turmalar, protsesslar yo'q bo'lsa-da – hamma ishlar belgilangan tartibda boradi. Har qanday janjal va anglashmovchiliklar kimlarga taalluqli bo'lsa – o'shalarning kollektivi tomonidan, ya'ni urug' va qabila tomonidan, yoki ayrim urug'larning o'zi o'rtasida hal qilinadi; kambag'al va muhtoj kishilar bo'lishi mumkin emas, kommunistik xo'jalik va urug' qariganlar, kasallar va urushda mayib bo'lganlarga nisbatan ado qiladigan vazifalarini yaxshi biladi. Hamma shu jumladan, xotin-qizlar ham teng va erkindirlar»¹.

Shunday qilib, ibtidoiy tuzum sharoitidagi ijtimoiy hokimiyat quyidagi o'ziga xususiyatlar bilan ifodalangan:

birinchidan, urug'ning butun jamoasi hokimiyatning birdan-bir manbayi hisoblangan. Barcha jamoa a'zolari hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etganlar, uning to'laqonli sohibi sanalganlar. Urug', qabila jamoasining o'zi o'zi uchun xulq-atvor qoidalarini o'rnatganlar va ularga ixtiyoriy rioya qilganlar;

ikkinchidan, urug'ning barcha katta yoshdagi a'zolari ishtirokidagi majlis (kengash)lar ijtimoiy hokimiyatning yuqori, oliy organi bo'lgan. Umumiy majlis (kengash) urug' jamoasi hayotining, xo'jalik faoliyatining barcha masalalarini hal etgan;

uchinchidan, urug' jamoasining kundalik hayot-faoliyatini boshqarish umumiy majlisda saylab qo'yiladigan oqsoqol zimmasiga yuklatilgan. Boshqaruv ishlari hammaning manfaatini inobatga olib amalga oshirilgan. Oqsoqol o'z shaxsiy manfaatini jamoa a'zolarining umumiy manfaatidan ustun qo'yaolmagan. Muhimi, oqsoqol ham, harbiy yo'lboshchilar ham yalpi ishlab chiqarish faoliyatida boshqalar bilan bab-baravar ishtirok qilganlar;

to'rtinchidan, ibtidoiy tuzumdagi ijtimoiy hokimiyat kuchga emas, balki obro'ga, hurmatga, e'tirofga va odat qoidalariga, diniy talablarga tayangan. Qoidabuzarlar qattiq jazolangan. Majburlov, jazo choralarini qo'llash butun urug' jamoasining amri bilan amalga oshirilgan. Majburlovni qo'llovchi alohida, maxsus organlar bo'lmagan;

beshinchidan, qabila miqyosidagi ijtimoiy hokimiyat ham urug' doirasidagi hokimiyat singari tamoyillar asosida amalga oshgan. Bu davrda «ibtidoiy demokratiya» hukm surgan, deyish mumkin. Qabiladagi ijtimoiy hokimiyat qabila kengashi, umumiy yig'ilishi, qabila boshlig'i timsolida namoyon bo'lgan.

¹ Marks K. va Engels F. Ikki tomlik tanlangan asarlar. «O'zdamnashr», 1959. II tom. – 273–274-betlar.

3-§. Urug'chilik tuzumi- ning yemirilishi. Davlat va huquq- ning kelib chiqishi

Qadimgi kishilik jamiyatining «oltin davri» bo'lmish ibtidoiy tuzum o'z intihosiga yuz tuta boshladi. Bu tuzum o'zining tabiiy yemirilish pallasiga kirdi. O'zlashtiruvchi iqtisodiyotdan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tilishi insoniyat hayotining barcha sohalarida muhim sifat o'zgarishlariga olib keldi. Yangi tosh asri (neolit) davrida moddiy ne'matlar yaratishning yangi manbalari paydo bo'lishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnat qilish qurolvositalarining takomillashuvi, insonlarda tajriba va malakaning ortishi natijasida jamiyatni uyushtirish va boshqarishning urug'-qabiladoshlik shakli o'z ahamiyatini yo'qota bordi.

Bu davrda metal eritish va metal qurol tayyorlash ishlab chiqarish vositalarining takomillashib borishiga sabab bo'ldi. Pirovardida, jamiyatning iqtisodiy negizi o'sib bordi, ijtimoiy va ma'naviy hayot boyib, rang-barang bo'lib o'zgarib bordi. Ibtidoiy jamiyat iqtisodiyoti o'sishiga, ishlab chiqarishning sifat jihatdan yangi jabhalari va hosil olishning yangi usullarining topilishiga mehnatning malakalashuvi, ijtimoiy mehnat taqsimoti hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

Tarixiy va ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, ibtidoiy tuzum davrida jamiyat hayotida *uchta yirik mehnat taqsimoti* sodir bo'lganligi ma'lum. Murakkab tabiiy shart-sharoit, hayvonlarni vahshiyona ovlashning ortib borishi ular biomassasining kamayishiga olib kelib, o'sib borayotgan aholining ehtiyojlarini qondirishga yetishmasligi kelib chiqdi. Oziq-ovqat manbalarini kengaytirishga majbur bo'linadi. Hosil beruvchi ekin ekish sohasi kengaya bordi. Ko'plab qabilalar sug'orishga asoslangan dehqonchilikka ixtisoslashadilar.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti inqilobiy xususiyatga ega bo'ldi. Dastlab odamlar hayvonlarni uy hayvoniga aylantirishni va ko'paytirishni o'rganadilar. Bu ish mehnatning asosiy sohasiga aylanib, yer haydash yoki ov qilishga nisbatan ancha foydali bo'lgan. «Cho'ponlik bilan shug'ullanuvchi qabilalar boshqa varvarlar ommasidan ajralib chiqqanlar: bu – *birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti* edi. Cho'ponlik bilan shug'ullanuvchi qabilalar boshqa varvarlarga qaraganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarar edilar, shu bilan birga ular ishlab chiqaradigan tirikchilik vositalarining xili ham boshqacha edi»¹.

Shunday qilib, mehnatning chorvachilik turi dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu dastlabki mehnat taqsimoti ibtidoiy jamoa tuzumini yirik o'zgarishlarga olib keldi. Shu davrgacha ishlab chiqarilgan mahsulotlar qatoriga sut, go'sht, yog', jun, teri kabi mahsulotlar qo'shildi. Dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham ixtisoslashish kuchayib borishi oqibatida mehnat unumdorligi oshib bor-

¹ Marks K. va Engels F. Ikki tomlik tanlangan asarlar. «O'zdamnashr, 1959, II tom. – 337-bet.

di. Mehnatning samarali va unumli bo'lishi esa, kundalik ehtiyojdan ortiqcha qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilishiga olib keldi. Chorva mollari dastlab ayrim oila va shaxslarning boyligini tashkil etdi. Keyinchalik ayirboshlash vositasiga aylandi. U asta-sekin kollektiv mulkchilikni siqib chiqardi, xususiyo xo'jalik va ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni keltirib chiqardi. Mahsulot ishlab chiqarishning ortishi kundalik mehnat miqdorini ham ko'paytira bordi. Yangi ish kuchini jalb etishga ehtiyoj tug'ildi. Urushda asir olinganlar qulga aylantirila boshlandi. Shunday qilib, xususiy mulk kelib chiqdi va jamiyat sinflarga bo'lindi.

Keyinchalik, metall asboblari quyish va qulolchilik hamda to'qimachilikning rivojlanishi *ijtimoiy mehnatda ikkinchi yirik bo'linishga* – dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishiga olib keladi. Alohida gruppalar kishilar turli xil mehnat qullari va uy anjomlari tayyorlash bilan shug'ullana boshlaydilar. Endi hunarmandchilikda ixtisoslashish avj oladi. Dehqonlar ham, chorvadorlar ham, hunarmandlar ham mahsulotini bevosita ayirboshlash uchun ishlab chiqara boshlaydi, ya'ni tovar xo'jaligi bilan birga savdo-sotiq rivojlanadi.

Kishilik jamiyatining bu tariqa rivojlanishi *uchinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimotiga* olib keladi. Sivilizatsiya ishlab chiqarish bilan shug'ullanmasdan, faqat mahsulotlarni ayirboshlash bilan mashg'ul bo'ladigan toifani – savdogarlar qatlamini vujudga keltiradi. F. Engelsning aytishicha, endilikda birinchi marta shunday bir sinf paydo bo'ldiki, u ishlab chiqarishda hech bir ishtirok etmasa ham, ishlab chiqarishga rahbarlik ishini umuman va butunlay o'z qo'liga oladi va ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy jihatdan o'ziga itoat qildiradi, har ikki ishlab chiqaruvchi o'rtasida yo'qotib bo'lmaydigan vositachiga aylanadi va ularning har ikkisini ekspluatatsiya qiladi.

Bu davrga kelib yer ham xususiy mulkka aylanadi, boylıklar ozchilikni tashkil etgan ekspluatatorlar sinfi qo'lida to'planishi tezlashadi, shu bilan birga kambag'allar soni ham o'sib boradi.

Jamoaviy mulk o'rniga kelgan xususiy mulk pirovard natijada mulkiy tengsizlikni yuzaga chiqarib, jamiyatni antagonistik sinflarga bo'lib yuboradi. Endi jamiyatni boshqarishning urug' – qabiladoshlik formasi bularning hammasini o'z ichiga sig'dira olmasdi. Urug'doshlik tuzumining umri tugadi. Mehnat taqsimoti va uning oqibati – jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida urug'doshlik jamiyati yemirildi. Urug'doshlik tuzumi o'rnini davlat oldi.

Ekspluatatsiyaning, ezishning va sotsial tengsizlikning birinchi klassik formasi – qulchilik vujudga keldi. Oqsoqollar va harbiy boshliqlar hokimiyati quldorlik davlat hokimiyati bilan almashindi (ba'zi xalqlarning ibtidoiy tuzumdan feodal tuzumiga o'tganligini yodda tutish lozim).

Davlat urug'doshlik tuzumidagi ijtimoiy hokimiyatdan quyidagi xarakterli belgilari bilan farq qiladi:

birinchidan, davlat fuqarolarning hududiy bo'linishiga qarab ajralishidan iborat bo'lib, urug'doshlik tuzumida qon-qardoshlik aloqalari tufayli hududga bog'liq bo'lmagan urug'doshlik ittifoqlari bo'lgan. Bu urug'doshlik ittifoqlari buzilgan, grajdanlar o'zlarining ijtimoiy huquq va burchlarini qaysi urug' va qabilaga mansub ekanliklaridan qat'i nazar, yashagan joylariga qarab amalga oshira boshlaydilar;

ikkinchidan, davlat urug'chilik tashkilotidan endi aholi bilan sig'isha olmaydigan ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni¹ ta'sis etish bilan farq qiladi, u aholidan ajralgan bo'lib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan faqat hukmron sinfga xizmat qiladi. Ijtimoiy hokimiyat qurollangan kishilarning maxsus otryadi, armiya, politsiyadan, turma va har xil majbur etish muassasalari singari zo'rlash apparatidan iborat. Bularning hammasi urug'doshlik tuzumiga begona va noma'lum edi.

Ijtimoiy hokimiyat davlat ichida ziddiyat keskinlashgan sari va qo'shni davlat kattalashib, aholi soni jihatidan ko'payib borgan sari kuchayaveradi. Ijtimoiy hokimiyatga ichki omillargina emas, shu bilan birga tashqi siyosiy omillar (bosib olinish xavfi va hokozolar) ham ta'sir etadi;

uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy hokimiyatni saqlash uchun fuqarolarning vzooslari – soliqlar va qarzlar zarur.

Davlat amaldorlari ijtimoiy hokimiyatga va soliqlar undirish huquqiga ega bo'lib, jamiyat organlari sifatida jamiyat ustidan turadilar. Ularning hokimiyati endi obro'-e'tiborga, jamiyat a'zolarining izzat-hurmatiga emas, balki kuchga tayanadi. Maxsus qonunlar ularning manfaatlarini qo'riqlab, muqaddas va daxlsiz darajaga ko'taradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining barbod bo'lishi va davlatning paydo bo'lishi turli xalqlarda ular hayotining ichki va tashqi muayyan sharoitlariga qarab turlicha sodir bo'lgan.

Davlatning kelib chiqish umumiy prinsiplari aniq tarixiy sharoitlarda har xil bo'lgan. Davlat qisman urug'doshlik tuzumini o'zgartirib, qisman u tuzumga yangi organlar kirib, eskisini surib chiqarish, davlat hokimiyatining chinakam organlari bilan to'la almashtirish yo'li bilan vujudga kelgan.

Demak, davlat aslo jamiyatga tashqaridan zo'rlab kiritilgan kuch emas. Davlat – taraqqiyotning ma'lum bosqichiga chiqqan jamiyatning mahsulidir, davlat bu jamiyatning o'ziga o'zi zid kelib, hal qilib bo'lmaydigan ziddiyat-

¹ Ijtimoiy-siyosiy hokimiyat urug'chilik tuzumidagi ijtimoiy hokimiyatdan farq qiladi. F. Engelsning «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» asarining ruscha nashrida ibtidoiy-jamoa tuzumi davridagi ijtimoiy hokimiyat «общественная власть» deb, siyosiy mazmundagi davlat hokimiyati esa «публичная власть» deb yozilgan. Qo'llanmada «ijtimoiy-siyosiy hokimiyat» iborasi davlat hokimiyati, siyosiy hokimiyat ma'nosida ishlatilmoqda.

larga chuvalib qolganligini, murosasiz qarama-qarshiliklarga bo'linganligini, bu qarama-qarshiliklardan qutulishga qodir emasligini e'tirof qilishdir. Ammo bu qarama-qarshiliklarning, ya'ni birining iqtisodiy manfaatlarini ikkinchisining iqtisodiy manfaatlariga zid bo'lgan sinflarning samarasiz kurashda birini biri va jamiyatni yeb qo'ymasligi uchun, aftidan, jamiyat tepasida turadigan, uni «tartib» chegarasidan chiqarmaydigan kuch zarur bo'lib qolgan jamiyatdan kelib chiqqan, lekin o'zini jamiyatdan yuqori qo'yadigan, borgan sari jamiyatdan chetlashib boradigan bu kuch – davlatdir!!!»¹.

Davlatning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda huquq ham vujudga keladi. U davlat singari ekspluatatorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun, sotsial tengsizlikni mustahkamlash uchun, ekspluatatsiya qilinuvchilarni «tartib» doirasida ushlab turish uchun paydo bo'ldi. Kuchli ziddiyatlar sharoitidagi munosabatlarni tartibga solish uchun ibtidoiy odat normalari yaroqsiz bo'lib qoldi. Yangi tarixiy sharoitda faqat hukmron guruh irodasini ifodalovchi normalar zarur edi. Huquq xuddi ana shunday normalar yig'indisi edi. Ko'pgina odat qoidalari hukmron sinf irodasiga moslashtirildi. Masalan, qadimgi Rimdagi XII jadval qonuni, qadimgi Bobildagi «Xammurapi qonunlari» buning misoli bo'la oladi. Davlat organlari va boshliqlarining aktlari, adliya va sud organlarining qarorlari huquq sistemasini yaratishning manbayi edi. Bu huquqiy hujjatlarda xususiy mulk mustahkamlanadi, qullar mehnatidan foydalanish va qullarning huquqsizlik holatini mustahkamlovchi, ularni rasman «gapiruvchi mehnat qurollari» deb hisoblovchi qonun-qoidalar yaratiladi.

Huquq ibtidoiy jamiyatdagi sotsial normalardan farq qiladi:

birinchidan, huquq butun jamiyatning emas, balki hukmron elitaning qonun darajasiga ko'tarilgan erkin bo'lib, uning mazmuni shu qatlamning moddiy hayot sharoiti bilan belgilanadi;

ikkinchidan, huquq faqat davlat organlari tomonidan o'rnatiladi yoki sanksiyalanadi;

uchinchidan, huquq lozim bo'lgan choqda davlatning zo'rlik va majburlash kuchi bilan ta'minlanadi.

Davlat kelib chiqishining shakllari. Yer kurrasida davlatning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bir qator umumiy qonuniyatlarga bo'ysunish asosida yuz bersa-da, davlat turli mintaqalarda, turli xalqlarda har xil shakllarda vujudga kelgan. Qadimgi Sharqda davlatning kelib chiqishiga murakkab tabiiy shart-sharoitlar, ayniqsa suv tanqisligi ta'sir o'tkazgan. Masalan, qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va Hindistonda sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanish ehtiyoji katta va murakkab irrigatsiya tizimlarini

¹ Marks K. va Engels F. Ikki tomlik tanlangan asarlar, «O'znavnashr», 1959. II tom. – 348–349-betlar.

yaratishni taqozo etgan. Bunday qurilish ishlarini tashkil etish, unga aholini safarbar etish zaruriyati o'ziga xos uyushtiruvchi, tashkilotchilik qiluvchi, nazorat va majburlovni amalga oshiruvchi tuzulmalar shakllanishiga turtki bergan.

Yevropa mintaqasidagi davlatlarning paydo bo'lishi shu yerning tabiati va tarixiga mos bo'lgan. Qadimgi greklarda davlat urug'chilik jamoasining tarixiy evolyutsiyasi, ichki ziddiyatlar va kelishmovchiliklar natijasida sof tarzda kelib chiqqan. Rimliklarda patriitsiy (zodagon)lar bilan plebeylar (kambag'allar, fuqarolikka ega bo'lmaganlar) o'rtasidagi kurash davlat kelib chiqishining asosiy sababi bo'lgan. German qabilalarida davlat ularning boshqa hududlarni bosib olishi va uni boshqarish ehtiyoji ta'sirida paydo bo'lgan.

Davlat paydo bo'lishining usullarini ilmiy asoslash va izohlashga urinib, F. Engels davlat kelib chiqishining tipik uchta shaklini ajratib ko'rsatadi: Afinada, Qadimgi Rimda va Germanlarda davlatning kelib chiqishi.

Afinada davlat urug'doshlik tuzumining umri tugab, jamiyat ichki ziddiyatlarga duch kelishi natijasida sof, klassik tarzda, ya'ni tarixiy evolyutsiya-ning qonuniyatli mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Bu yerda davlat tuzilmalarining rasmiylashuvida Tezey, Solon va Klisfenlarning islohotlari asosida bosqichma-bosqich yuz berdi.

Tezey markaziy hokimiyatni ta'sis etadi va aholini urug'larga mansubligidan kelib chiqib, uch sinfga bo'ladi: evpatridlar (yuqori zodagonlar), geomorlar (yer egalari) va demiurglar (hunarmandlar). Zodagonlarga yuqori va o'rta lavozimlarni egallash huquqi berildi.

Solon xususiy mulkni qonuniy rasmiylashtirdi; mulkiy senz (er egaligining hajmi va daromadligi) asosida fuqarolarni to'rt sinfga bo'ladi. Uchta yuqori qatlam vakillari boshqaruv lavozimlarini egallashlari mumkin edi. Eng mas'uliyatli mansablarni birinchi sinf vakillari egallay oladi. To'rtinchi sinf kishilar xalq majlisida ishtirok etadi va ovoz beradi.

Klisfen Attikaning hududini yuzta o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa-okrug (dem)larga bo'ladi, ular tepasida oqsoqol (demarx)lar turadi. Bu islohot natijasida davlat organlari rasmiylashtirildi.

Qadimgi rimliklarda davlat Rimning tub aristokratiyasi bo'lgan patriitsiyalar bilan kelgindi, huquqsiz, jamiyat boshqaruvida ishtirok etishdan mahrum plebeylar o'rtasidagi ayovsiz va murosasiz kurash natijasida vujudga keladi. Rimda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va quldorlik davlatining shakllanishi eramizdan avval 753-yildan (Rim shahriga asos solinishidan) to miloddan avvalgi 509-yillar oxirigacha (Rim podshosi Tarkviniy Superbning badarg'a etilgungacha) bo'lgan davr. Rim davlati tarixan quyidagi davrlarni bosib o'tgan: *respublika* davri (miloddan avvalgi V – I asrlar) va *imperiya* (monarxiya)

davri – miloddan avval 27-yildan milodning 476-yilgacha. Xuddi shu yili Rim davlati germanlar (frank) qabilalari tomonidan bosib olingan.

Qadimgi german qabilalarida davlat o'zining yemirilish pallasiga kirgan Rim imperiyasining ulkan hududlarini bosib olish, istilo qilishdan so'ng uni boshqarish ehtiyoji natijasida kelib chiqdi. Germanlardagi o'sha davrdagi urug'chilik tuzumiga xos hokimiyat organlari Rimni boshqarishga moslashmagan edi. Bu holda ommaviy hokimiyatning boshqacha tuzilmasi, tashkiloti zarur edi. Ya'ni, zabt etilgan jamiyat ustidan turadigan va keng qamrovli boshqaruv apparatidan iborat davlat kerak edi.

Yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish lozim. Agar Afina va Rim – quldorchilik tipidagi davlatlar bo'lgan bo'lsa, Germanlar davlati – feodal tipidagi davlat bo'ldi. Sababi quldorchilik tuzumi Rimda o'z umrini o'tab bo'lgan edi. U yerda feodal ishlab chiqarish munosabatlari kurtak ota boshlagan edi. Bu jamiyatni endi eskicha qulchilikka asoslangan tuzilmalar bilan boshqarib bo'lmasdi.

4-§. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning plyuralligi

Jamiyatni boshqarishning ibtidoiy tashkil etilishi tartibi barham topib, uning o'rnini davlat tashkiloti egallashi insoniyat aqlini qadim zamonlardan to hozirgacha band etib kelmoqda. Turli xalqlarda davlatning har xil shakllarda paydo bo'lganligi fakti ham davlat

va huquqning kelib chiqishiga oid ko'plab nazariyalarning, ta'limotlarning yaratilishiga sabab ekanligini e'tirof etish joiz. Biroq, nazariyotchilar, olimlar davlat kelib chiqishining umumiy qonuniyatlari va xususiyatlarini anglashga intiladilar. Avstriyalik davlatshunos L. Gumplovichning ta'biricha, basharti davlat tushunchasi, ko'pincha siyosiy tendensiyalarni ifodalash, siyosiy dasturlarni tasvirlash va siyosiy maqsadga erishish uchun bayroq sifatida xizmat qilgan bo'lsa, davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi tarixiy masalada ham xuddi shunday buzilishlarga yo'l qo'yilgan. Ko'p hollarda «oliy g'oya»lar yo'lida u buzilgan tarzda talqin etilgan. Davlatning vujudga kelishi to'g'risidagi sof masala muayyan g'oya ustida qurildi, ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqib izohlandi, boshqacha aytganda, muayyan amaliy va axloqiy motivlardan kelib chiqib tushuntirildi. Ularning talqinicha, axloq va inson qadr-qimmatini saqlab turish uchun davlatning haqiqiy, tabiiy kelib chiqishini yashirish, buning o'rniga ko'pchilikka ma'qul bo'lgan biron-bir ochiq-oshkora va gumanitar ta'limotni taqdim etish joiz¹.

¹ Гумплович Л. Общее учение о государстве. СПб., 1910. – 47-бет.

Davlat va huquqning kelib chiqishi jarayonlarini izohlovchi, tushuntiruvchi xilma-xil nazariyalar yaratilgan. Bunda mualliflar davlatning kelib chiqish sababini, manbayini xudolardan, insonlar irodasidan, tabiiy va biologik hodisalardan izlaydilar. Shunday nazariyalarning ba'zi mashhur, e'tiborga molik tur-lariga to'xtalib o'tamiz.

Diniy (teologik) nazariya. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqi-dagi ushbu nazariyaning asoschilaridan biri o'rta asr sxolastikasining yirik namoyondasi Foma Akvinskiy edi. Keyinchalik bu neotomistik nazariyani J. Mariten, F. Lebyuff, D. Eyve, Kost-Flore va boshqalar davom ettirdilar.

Sharq mutafakkirlaridan Al-Mavardi (X–XI asrlar), Ibn Rushd (1126-1198), Ibn Xaldun (1332-1406) va boshqalar ham teologik nazariya tarafdorlari bo'lganlar.

Teologiya – Xudo haqidagi ta'limotdir. Bu ta'limotga ko'ra barcha narsaning, shuningdek davlat va huquqning ibtidosi xudo demakdir. Nazariyotchilar dav-lat va huquq xudoning amri-irodasi bilan paydo bo'lgan, ularning yaratilishini insonlarning ruhiyatiga «taqdiri azal»ning o'zi jo etgan deb da'vo qiladilar. Bu bilan davlat va huquq muqaddaslashtiriladi. Davlat va huquqning ilohiylashtirili-shi hamda daxlsizlashtirilishi hamda ekspluatatorlarning, shu jumladan, bur-juaziyaning manfaatlariga mos tushadi. Davlat hokimiyati hamisha mavjud bo'lgan va hamisha mavjud bo'ladi, uning irodasiga so'zsiz itoat etish, lozim deb targ'ib qilinadi.

Qadimgi Misr mifologiyasiga ko'ra, davlat hokimiyati azaldan odamlar orasida yashagan xudolarga, keyinchalik fir'avnlarga tegishli hisoblangan. Masalan, Ma-at ma'budasi qonunlar, odil sudlov, adolat timsoli deb qaralgan.

Qadimgi Bobilda mashhur bo'lgan Xammurapi qonunlarida xudolar «qoraboshlilar» ustidan hukmdorlik qilish uchun Xammurapini tanlaganligini uqtiriladi. Ushbu manbada quyidagi satrlar bor: Anunnaklar¹ podshosi baland Anum² hamda osmon va yer hukmdori, mamlakat taqdirini belgilovchi Ellil Eaning birinchi o'g'li Marduqqa barcha insonlar ustidan hukmronlikni belgi-laganida, uni igiglar orasida buyuk qildilar. Bobilni uning buyuk nomi bilan atadilar, dunyo qismlari orasida uni qudratli qildilar va unda boqiy podsholikni tasdiqladilar, uning asosini yer va osmon kabi mustahkam qildilar. Shunda meni – g'amxo'r hukmdorni, xudodan qo'rquvchi Xammurapini mamlakatda adolat nur sochishi uchun, jinoyatchilik va yovuzlikni yo'qotish uchun, kuchli zaifni ezmasligi uchun, Shamash singari qora boshlilar ustidan ko'tarilish va

¹ Anunnaklar – barcha xudolarni anglatuvchi so'z, ayrim hollarda yer va yer osti xudolarini anglatadi.

² Anum – osmon xudosi, xudolar «otasi» va boshlig'i, shumer-akkad panteonining maqom jihatidan oliy xudosi.

mamlakatni yoritish uchun, aholiga farovonlik ulashish uchun – Anum va Ellil meni chaqirdilar¹.

Qadimgi Xitoyda imperator osmonning o'g'li deb qabul qilingan.

Xristianlik dinida ham hokimiyatning ilohiy xususiyatga egaligi ta'kidlanadi. Masalan, avliyo Pavelning rimliklarga murojaatida «Har bir ruh Oliy hokimiyatga itoat etadi, zero Xudodan boshqa hokimiyat yo'q, (Yer yuzidagi) mavjud hokimiyatlar Xudo tomonidan o'rnatilgandir», deyiladi.

O'rta asrlar diniy mafkurasi vakili F. Akvinskiy o'zining «Hukmdorlarning hukmdorligi to'g'risida»gi va boshqa asarlarida davlat, siyosat, qonunlar xususida fikr-mulohazalar bildirgan. U davlat hokimiyatining uch unsuri: 1) mohiyati, 2) paydo bo'lish shakli, 3) amalga oshirilishini farqlaydi va ularni sharhlab beradi. Masalan, davlatning mohiyati Alloh nomidan boshqaruvchilar va ularga itoat etuvchilar o'rtasidagi munosabatdan iborat. Yuqori tabaqadagilarning erklari quyi tabaqadagilarni boshqaradi. Bu qoida abadiy, qat'iy, Alloh tomonidan o'rnatilgandir. Uning shakli turlicha, ba'zan yomon bo'lishi mumkin. Davlat hokimiyatining amalga oshirilishida ham mansabni suiiste'mol qilishlar uchrashi mumkin. Bunday hollarda, odamlar xristian dini ta'limotlariga, uning Cherkoviga ergashishlari kerak, kabi mulohazalarni ilgari surgan.

Bizning mamlakatimizda diniy ta'limotlardan islom, islomga qadar zardushtiylik (Avesto) ko'p asrlar davomida odamlarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirgan dinlardir. Qadimgi Turon va Eron zaminida (arablar ularning har ikkalasini Ajam davlati deb hisoblaganlar, ya'ni arabdan tashqari degan ma'noda) eng qadimgi yirik din zardushtiylik dini bo'ldi. Uning ta'limotlari «Avesto» kitobida bayon etilgan. Uning asoschisi Zardusht taxminan miloddan avvalgi 630–553-yillarda yashagan. U turkiy tilda gapiruvchi xalqlar vakili bo'lgan, masalan, Beruniy uni ozarbayjonlik deb hisoblagan. Zardushtiylik qonunlarida haqiqat, adolatlilik uch axloqiy-huquqiy tayanchga asoslanadi: ezgu fikr (g'oya), ezgu kalom (so'z), ezgu amal (ish). «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Axura Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman» («Yasna», 14). «Inson qalbi chirog'ini yoqishda ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana («Ezgu fikr») va Ako Mana («Yovuz fikr») ta'sir ko'rsatadi. Barcha fikr, g'oya, va so'zlar zaminida ezgulik va yovuzlik yotadi» («Yasna», 30). Ezgulikka asoslangan so'z, g'oya, harakat – tinchlik, g'amxo'rlik kabilardir. Va aksincha, hasadgo'ylik, yomonlik, urush va janjallar yovuzlikdan darak beradi. «Avesto»da tinchlik,

¹ Qadimgi huquqiy yodgorliklar. Xammurapi qonunlari. Tarjima asar. Mas'ul muharrir prof. X.T. Odilqoriyev. – T.: «Adolat», 2016. – 21-bet.

do'stlik, yaxshilik, adolat g'oyalari bilan birga jinoyat va jazo, tabiatni muhofaza qilishga tegishli ko'pdan-ko'p, bugun ham ibratli qoida(norma)lar mavjuddir.

Islom ta'limotiga kelganda shuni aytish kerakki, bu din yosh din bo'lganligi sababli uning qonun va qoidalari (Qur'on, Hadis) falsafiy, huquqiy fikrlar ilohiy ta'limotlar asosida inson hayotining turli sohalari va qirralarini tartibga soladi. Insonning paydo bo'lishi va uning yashash, turmush qoidalari; inson va Alloh, inson va payg'ambar, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar; inson bilan inson o'rtasidagi munosabat ibratli tarzda izohlanadi. Jamiyat hayotida davlat tartibining o'rnatilishi, ayniqsa qonunchilikka rioya qilish to'g'risidagi juda ko'p fikr va mulohazalar bitilgan¹.

Bu ta'limotda Oliy hokimiyat egasi Alloh ekanligi ham sunniy va ham shialik mazhabida yakdillik bilan tan olingan. Insonlar orasida hokimiyat kimga topshirilishi to'g'risida mazhablar turlicha yondashadilar. Sunniylik mazhabiga ko'ra, islom davlatida hokimiyat jamoaga berilgan. Yerdan Alloh nomidan oliy hokimiyat jamoa tomonidan amalga oshiriladi va u Allohning Oliy va tanho hukmronligi ifodasi sifatida ro'yobga chiqadi. Jamoaning suveren huquqlari hukmdorni saylab qo'yishida namoyon bo'ladi va hukmdor jamoa nomidan hokimiyatni amalga oshiradi. Shialik mazhabi ta'limotida esa, suverenitet faqat Allohga tegishli ekanligi va uning nomidan imom yakkaboshchilik asosida davlat hokimiyatini amalga oshirishi hamda jamoa irodasi bilan hech qanday bog'liq emasligi ta'kidlanadi. Imom mutloq, ilohiy hokimiyatga ega bo'lib, u jamoadan ustun turadi. Uning shaxsi muqaddas hisoblanadi².

Patriarxal nazariya. Bu nazariya qadimgi Sharqda ham, Yevropada ham o'z targ'ibotchilari va asoschilariga ega edi. Xitoyda – Konfutsiy (er.av. VI–V asrlar), Qadimgi Yunonistonda – Aflotun, Arastu (er.av. 384–322-y.y.) va boshqalar.

Aflotun «Davlat» nomli asarida davlat oiladan o'sib chiqqanini asoslashga urinadi. Arastuning ta'kidlashicha, davlat hokimiyati – ibtidoiy oiladagi ota hukmronligining davomi. Oilalar sonining o'sib borishi natijasida davlat tuzilmasi paydo bo'ladi; ijtimoiy mavjudod bo'lgan odamlar birlashishga intilib, patriarxal oilani tashkil etadi, deydi. Demak, davlat hamda huquq oila hukmdori – otaning irodasi namoyishidir.

O'rta asrlarda Angliyada absolyutizm mustahkamlanishini yoqlab chiqqan R. Filmer o'zining «Patriarxiya, yoki qirollarning tabiiy hukmdorlik huquqini himoyalash» (1642-y.) nomli asarida patriarxal nazariyaga tayanib, dastlab Xudo insoniyat naslining otasi va uning hukmdori – Odam Atoga qirollik hokimi-

¹ Qarang. Davlat va huquq nazariyasi. Professorlar H. Boboyev va X. Odilqoriyevlarning tahriri ostida. – T., 2000. – 60–61-betlar.

² O'sha joyda, 46–47-betlar.

yatini hadya qilganini isbotlashga harakat qiladi. Davlat hokimiyatining sohibi fuqarolar tomonidan tayinlanmaydi, saylanmaydi va taxtdan mahrum etilishi mumkin emas. Zero, barcha fuqarolar hukmdor – otaning farzandlaridir.

Rossiya muhitida ham patriarxal nazariya yaxshi kurtak otdi. Rus sotsiologi N. Mixaylovskiyning ta’kidlashicha, ibtidoiy jamiyatda millatlar va milliy munosabatlar tarkib topib, urug’chilik tuzumini yemirgan hamda davlat va huquqning paydo bo’lishiga sabab bo’lgan. Uning yozishicha, davlat – urug’chilik oilasining rivojlanishi oqibati.

Shu bilan birga, patriarxal nazariya din bilan ham aloqasini uzmaydi. «Ota rozi – Xudo rozi» zaylida ish ko’radi. Monopolistik tuzum mafkurachilari davlatni xalq ommasining «g’amxo’ri» qilib ko’rsatadilar.

Patriarxal nazariyani ko’pchilik tanqid qiladi. Jumladan, J. Lokk shunday deb yozgan edi: bu ta’limot matnlarida ilmiy yondashuv o’rniga «bolalarga cho’pchak»ni uchratamiz. Mazkur ta’limot davlatdek murakkab hodisani g’ayriilmiy biologiyalashtirib, «hikoyalar to’plami»ga aylanib qolgandek tuyuladi.

Shartnoma nazariyasi. Davlatning shartnomali kelib chiqishi nazariyasining namoyandalari Gugo Grotsiy va Spinoza (Gollandiya), Lokk va Gobbs (Angliya), Jan Jak Russo (Fransiya), Radishchev (Rossiya) bo’lgan.

Bu nazariya XVII – XVIII asrlarda paydo bo’ldi va keng tarqaldi. Chunki o’sha vaqtlarda tovar xo’jaligi rivojlanib kelmoqda edi. Tovar egalari bir-birlarining xususiy mulk egasi ekanligini e’tirof etmasdan turib, o’z tovarlarini ayirbosh qila olmas edilar. Kapitalist bilan ishchi rasman ozod va teng shaxs sifatida shartnomaga kirishar edi. Shartnoma kishilar irodasining ifodasi sifatida qabul qilinardi. Bu narsa burjua mafkurasiga ham o’z ta’sirini o’tkazdi.

«Shartnoma nazariyasi»ga muvofiq, davlat hokimiyati kishilarning o’zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganligining ifodasidir. Bu nazariya bir jihatdan progressiv edi, u davlat va huquq kelib chiqishini ilohiy zamindan yulib oldi. Davlatga kishilik jamiyatining mahsuli sifatida qaradi. Ba’zi nazariyotchilarining fikricha, insonlar o’zlarining tabiiy huquqlarini cheklab, bir qismini davlat hokimiyatiga beradilar, shunga ko’ra davlat jamiyat nomidan xususiy mulkni va o’z fuqarolarini himoya qilishga majbur bo’lar emish.

J. Russo o’zining «Ijtimoiy shartnoma» deb atalgan kitobida aytishicha, shartnomali davlat qonuniy hokimiyat asosida vujudga keladi va xususiy shaxslargagina taalluqli bo’lmasdan, balki butun xalqqa taalluqlidir. Xalq, – deydi Russo, – agar hokimlar shartnomani buzsa, ularni ag’darib tashlashi mumkin. Xalqning qo’zg’olonlar qilish huquqini A.N. Radishchev ham isbotlashga uringan.

Tomass Gobbs ijtimoiy shartnomani shunday akt deb tasvirlaydiki, unda odamlar monarxning foydasiga o’z tabiiy erkinliklaridan kechadilar va o’zlari

ustidan cheklanmagan hokimiyatni tan oladilar. Davlat paydo bo'lguncha esa kishi kishiga qarshi (hamma hammaga qarshi urug' holatida) turgan. Bunday qarama-qarshilik holatida uzoq yashash mumkin bo'lmaganligi uchun odamlar ijtimoiy shartnoma tuzganlar va davlatni vujudga keltirganlar. «Shartnoma nazariyasi» burjuaziyanning feodal davlatchiligiga qarshi kurashida mustahkam g'oyaviy qurol bo'ldi.

Zo'ravonlik (bosqinchilik) nazariyasi. Davlat va huquqning kelib chiqishi haqidagi bu nazariyaning namoyandalari K. Kautskiy, L. Gumplovich, E. Dyuring va boshqalardir. Bu nazariyaning asosiy g'oyasi shunday: davlat va huquq va sinflar bir qabilaning ikkinchi qabila tomonidan urushib, zo'rlik ishlatib, bosib olishi natijasida vujudga keladi. Davlat mag'lub bo'lgan qabilani bostirish, majburlash apparatidir. Kuchsizlarni kuchlilarning bosib olishi va bo'ysundirishi tabiat qonuni emish.

Bu nazariya keng tarqatilishining sababi, u davlat abadiy bor, davlatni kuchlilar boshqaradi, degan g'oyani kishilar ongiga singdirishga urinishdir. Shuningdek, bu nazariya mustamlakachilik siyosatini oqlash uchun ham qo'l keladi.

Zo'ravonlik nazariyasi asosiy qoidalarini shakllantirib, uni rivojlantirgan olim L. Gumplovichdir. U «bir sinfning ikkinchi sinf tomonidan bo'ysundirilishi natijasida davlat vujudga keladi, deb xulosa chiqaradi. Uning fikricha, davlat zo'rlik yordamida emas, boshqacha tarzda vujudga kelganligini isbotlovchi birorta ham misolni tarix taqdim eta olmaydi. Bundan tashqari, bu har doim bir qabilaning boshqa qabila ustidan zo'rligi bo'lib, u kuchli qabilalar tomonidan kuchsizroq, o'troq aholini bosib olish va qul qilishda ifodalanadi. Davlat ijtimoiy shartnoma, ilohiy kuch, oliy g'oya asosida emas, balki zo'ravonlik natijasida vujudga keladi.

Jamiyat rivojlanib borgan sari qabila davlat, sinf davlatga o'sib o'tgan. Sinf davlatning asosi bo'lib, mulk egalarining iqtisodiy hukmronligi bo'lgan. L. Gumplovich fikricha, qabilalarning sinf va tabaqalarga aylanish jarayoni bilan shuningdek, davlatning evolyutsiyasi bilan ongning rivojlanishi jarayoni amalga oshadi. «Davlat shakllanishi bilan qabilaviy ongning ma'lum qismi yo'qolib borib, qolgan qismi qabilalarning sinf va tabaqalarga aylanib borishi orqali, sinf va tabaqa ongiga aylanib boradi». Zo'rlik va bosqinchilik davlatning vujudga kelish jarayonini to'xtatish yoki jadallashtirishi mumkin, lekin aslo asosiy va tub sabab bo'lolmaydi. Fan davlat va huquqni keltirib chiqaruvchi bosh sabab ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va bazisi ekanligini rad etib bo'lmas darajada isbotlab berdi.

Davlat kelib chiqishining **psixologik nazariyasi** ham bor. Uning asoschisi sotsiolog Gabriel Garddir. Rus olimi Korkunov, professor Petrajitskiylar

ham shu konsepsiya tarafdorlaridirlar. Mazkur nazariyaning asosiy g'oyasi – insonlar o'z tabiatiga, biologik instinkt xususiyatlariga ko'ra boshqarilish, itoat etishga intilar emishlar. Ulardagi bu ehtiyoj faqat davlat mavjud bo'lgan taqdirdagina qondirilmish. Bu nazariya xalq ommasini avom va passiv qilib tasvir etadi. Xalqni politsiya qamchisi ostiga qo'yishdan boshqa narsa emas, deydi.

Davlat kelib chiqishining psixologik nazariyotchisi o'ng sotsialistik Rudolf Pamperiyen davlat kelib chiqishini kishilardagi hokimiyat instinktining mavjudligi bilan izohlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan davlatning kelib chiqishi haqidagi burjua qarashlari huquqning kelib chiqishiga ham taalluqlidir.

Tabiiy huquq nazariyasi. Uning asosiy g'oyasi – inson tabiati abadiy, o'zgarmas va tarixdan tashqari turadi, deyishdan iborat. Tabiiy huquq nazariyasi tarafdorlari D. Lokk, T. Gobbs, G. Grotsiy, B. Spinoza va boshqalardir.

Tabiiy huquq nazariyasi individni ikki toifaga ajratadi: inson va fuqaro. Shunga muvofiq inson huquqlari va grajdanin huquqlari deb tabiiy huquqni va pozitiv huquqni farqlaydi. Bunday qilish huquqiy dualizm pozitsiyasida turish demakdir.

Organik nazariya. Mazkur ta'limotning asoschilari – ingliz sotsiologi G. Spenser, shveysariyalik huquqshunos I. Blyunchli, fransiyalik jamiyatshunos M. Forms va boshqalar. Bu ta'limot tarafdorlari biologik organizm bilan ijtimoiy (jamiyat) organizmni bir-biriga o'xshatishadi. Shu jumladan, davlatni tirik organizm deb qaraydilar. Ular jamiyat va davlatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga biologik hayot qonuniyatlarini joriy qilishga intiladilar. Davlat insonlarning birlashuvi asosida hosil bo'ladigan organizm. Hukumat davlatning miyasi funksiyasini bajaradi va butun organizmni boshqaradi.

Gerbert Spenserning fikricha, davlat odamlarning paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, u organizm sifatida odamlardan tashkil topadi. Va, davlat ham biologik organizmga o'xshash o'sadi, rivojlanadi, kengayadi, ixtisoslashadi va vaqti kelib o'ladi. Davlat hokimiyati insoniy maqsadlarga erishishning vositasidir¹.

Organik hayot bilan ijtimoiy hayot o'rtasida o'xshashliklar bo'lsa-da, bu ta'limot ilmiylikka da'vo qila olmaydi. Taniqli rus huquqshunosi E.N. Trubekiy ta'kidlaganidek, sotsiologlar insonlarni tirik hujayra bilan qiyoslaydilar, ammo u mustaqil holda yaxlitlikni tashkil etolmaydi, balki bitta organizmning qismi bo'ladi, xolos. Bu bilan u bitta funksiyani bajaradi. Inson esa, jamiyatdan ajrala oladi, bir necha ijtimoiy organizmlar(tashkilotlar)ning a'zosi bo'la oladi va bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni bajara oladi (masalan, oilada – ota,

¹ Qarang: Спенсер Г. Основание социологии. – СПб., 1908. – 17–20-бетлар.

ishxonada – mutaxassis, avval student, keyin professor, advokat, prokuror, sudya va h.k.)¹. Jamiyat, davlat va huquqni o'rganishda biologik qonuniyatlarni ham inobatga olish lozim, lekin ularni mutlaqlashtirish to'g'ri emas.

Tarixiy – materialistik nazariya. Ushbu ta'limotning dastlabki asoschilari L. Morgan, K. Marks, F. Engels va boshqalar. Davlat ibtidoiy jamiyatning tabiiy rivojlanishi, evolyutsiyasi oqibatida kelib chiqishini asoslashga intilish mavjud. Darhaqiqat, davlatchilikning dastlabki kurtaklari, hokimiyatning siyosiy lashuvi asoslari, avvalo, ibtidoiy tuzum qa'rida, uning obyektiv rivojlanishi sharoitida paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatning iqtisodiy o'sishi nafaqat davlat paydo bo'lishining moddiy asosini, balki uning sotsial asoslarini ham ta'minladi.

Mazkur nazariya davlatning kelib chiqishini izohlashda ikki yondashuvni o'zida mujassam etadi:

birinchi yondashuv: – davlat ibtidoiy jamiyat o'zlashtiruvchi jamoadan ishlab chiqaruvchi jamiyatga aylanishi, iqtisodiyotning malakalashuvi va ixtisoslashishi, yirik ijtimoiy mehnat taqsimotining yuz berishi, moddiy ne'matlar to'planib mulkchilik munosabatlarining paydo bo'lishi, taqsimot muomalalarining va jamiyatni boshqarishning murakkablashuvi, oqibatida jamiyat a'zolarining sotsial tabaqalashuvi, jamiyatning «umumiy ishlari»ni boshqarish ehtiyoji va boshqalar bu yondashuvning asosiy nuqtalari hisoblanadi. Sanab o'tilgan omillar davlat shakllanishiga turtki bergan, uni keltirib chiqargan obyektiv sabablardir;

ikkinchi yondashuv: jamiyatda xususiy mulk va uning asosida mulkchilik (egalik) munosabatlarining qaror topishi va mustahkamlanishi mulkdorlar va mulksizlar sinfini vujudga keltiradi. Ularning manfaatlari ziddiyatli bo'lib, o'zaro kelishtirilishi qiyin kechadi, hatto ba'zan murosasiz munosabatlar tizimiga aylanadi. Iqtisodiy hukmronlikka erishgan sinf jamiyatning boshqa qatlamlari ustidan siyosiy hukmronlikni ham qo'lga kiritadi. Davlat shunday hukmronlikning vositasi sifatida paydo bo'ladi. Davlatning shu tarzda paydo bo'lganligiga tarixda isbotlovchi dalillar bor.

Huquqning paydo bo'lishiga oid nazariyalar. Bu boradagi nazariyalarning o'ziga xos alohida xususiyatlari bo'lsa-da, ular davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi konsepsiyalar bilan uzviy bog'liq. Aksariyat hollarda huquqning yaratilishi huquqning tabiati, mohiyati, ijtimoiy vazifasi va huquqiy tartibga solish muammolari bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Huquq kelib chiqishining *teologik talqini*. Bu nazariya huquqning manbayini abadiy bo'lgan xudoda, uning irodasi va oliy ongi, azmu-ixtiyorida deb

¹ Qarang: Трубецкий Е.Н. Лекции по энциклопедии права. – М., 1917. – 212–226-betlar.

hisoblaydi. Ayni vaqtda, huquqda tabiiylik va insoniylikka oid jihatlar ham mavjudligini inkor etmaydi. Din mutafakkirlarining fikricha, huquq – Xudo tomonidan berilgan ezgulik va adolat san'atidir. Teologik ta'limot birinchilardan bo'lib huquqni yaxshilik va adolat bilan bog'ladi. Biroq, bu ta'limot ilmiy dalillarga emas, balki ishonch va e'tiqod mezonlariga tayanib ish ko'radi.

Tabiiy huquq nazariyasi. Mazkur nazariyaning alohida qoidalari miloddan avvalgi V-IV asrlarda Qadimgi Yunonistonda faoliyat yuritgan sofistlar tomonidan rivojlantirilgan. Sofistlarning fikricha, insonlar paydo bo'lishlari bilan hech qanday qoidaga rioya qilmasdan yashaganlar, ammo keyinchalik o'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash, o'zaro birlashib yashash uchun turli xil qoidalarni ishlab chiqishga majbur bo'lganlar.

Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun va Arastularning nuqtayi nazariga ko'ra hamma qonunlar ham insonlar tomonidan qat'iy ravishda yaratilgan emas. Insonlar tomonidan yaratilgan qonunlardan tashqari «insonlar qalbida joylashgan ilohiy qonunlar ham mavjud». Boshqacha qilib aytganda, inson irodasiga bog'liq ravishda yaratilgan qonunlar, ya'ni davlat tomonidan chiqarilgan qonunlardan tashqari, inson xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan qonunlar ham mavjud bo'lib, ular tabiiy huquqdan iboratdir. Bu qonunlar asosida boqiy, ajralmas ilohiy tartib hukmron bo'lib, ular nafaqat insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, balki «butun dunyoni yaratilishini tartibga soladi».

Qadimgi Yunon faylasufi Epikur (er.av. 341-270) tabiiy huquq nazariyasini yoqlab chiqadi. Uning fikricha, tabiat xudoning aralashuvisiz, o'z qonunlariga binoan rivojlanadi. Adolat, tabiatan bo'lib, foyda to'g'risida, bir-biriga zarar yetkazmaslik va zarar ko'rmaslik maqsadida tuzilgan shartnomadir.

Qadimgi rim huquqshunoslari va faylasuflari asarlarida tabiiy huquqiy ta'limotlar o'z aksini topgan. Rim huquqshunoslarining fikricha, rim huquqi ius civil (faqat rim fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, qadimiy rim huquqi), ius gentium (rim fuqarolari bilan boshqa xalqlarning o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq) va ius natural-tabiiy huquqdan iboratdir. Qadimgi yunonlar kabi rimliklar ham huquqni ijobiy huquq, tabiiy huquq, ilohiy huquqqa bo'ladilar.

Rim huquqi rivojlanishining barcha bosqichlarida rim huquqshunoslarining fikricha, tabiiy huquq mohiyati va uning barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan munosabatlarida farq mavjud bo'lgan. Ba'zi rim huquqshunoslari ularni bir-biridan ajratishgan. Ba'zilari ularning teng ko'rishgan. Ammo deyarli barcha rim huquqshunoslari qadimgi yunon huquqshunoslari va faylasuflaridan farqli ravishda, o'z diqqat e'tiborlarini bir qator holatlarda ijobiy huquq tabiiy huquqqa zid kelishiga qaratganlar. Tabiiy huquq bilan ijobiy huquq o'rtasidagi ziddiyatlardan biri shuki, tabiiy huquqda barcha kishilar huquqda tengdirlar,

ular o'rtasida sinfiy va boshqa ijtimoiy belgilariga ko'ra farq bo'lishi kerak emas degan g'oya yotsa, ijobiy huquq esa, aynan o'sha farqlar asosida shakllanadi.

Stoitsizmning asoschisi bo'lgan Zenon (er.av. 336-264) ta'limotiga ko'ra, tabiiy huquq ilohiydir hamda haqiqatni buyuruvchi va nohaqni taqiqlovchi kuchga egadir. Stoiklar fuqarolik hamjamiyati asosida insonlarni bir-biriga nisbatan tabiiy intilishi, ularning o'zaro tabiiy aloqalari yotishini ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, davlat sun'iy, shartli, shartnoma asosida vujudga kelgan uyushma bo'lmasdan, balki tabiiy birlashmadir.

Rim stoiklarining ilohiy va insonlar dunyosining yagonaligi g'oyasidan kelib chiqib, rim faylasufi, davlat arbobi Seneka, insonlarni o'zaro qon-qarindoshligini, yagona tananing qismlari deb hisoblaydi. Uning fikricha, tabiat barcha odamlarni bir xil moddadan bir xil maqsad uchun yaratgan. Oliy ne'mat inson tanasiga joylashtirilgan ilohiy ruh bo'lgan ong hisoblanadi. Onglilik insonni xudoga monand qiladi. Tabiat insonga ongdan tashqari, inson urug'ining yagonaligi asosida yotuvchi hamjamiyatga uyushish layoqatini ham bergan. Ong va o'zaro muloqot tufayli insonlar yashash uchun kurashda hayvonlardan ustun keldilar, tabiat hodisalarini bo'ysundirdilar va yaqin hamjamiyat bo'lib yashay boshladilar.

Koinot, Senekaning fikricha, o'zining tabiiy huquqi bilan tabiiy davlatdir, uni tan olish zaruriy va ongli ish. Tabiat qonuni bo'yicha ushbu davlatning a'zolari bo'lib, uni tan olishi yoki olmasligidan qat'i nazar, barcha insonlar hisoblanadi. Alohida davlat tuzilmalari esa, ular tasodifiy yoki butun insoniyat uchun emas, faqat cheklangan doiradagi insonlar uchun ahamiyatga ega.

Tabiiy huquq nazariyasi o'rta asrlarda bir qator o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Inson tabiatining umrboqiyiligi va o'zgarimasligi haqidagi ta'limot o'zgarimagan holda, endi tabiiy huquqning kelib chiqishi tabiat bilan bog'lanmasdan, ilohiy kuchlarga bog'lab qo'yildi.

Gollandiyada Gugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada Tomas Gobbs va Jon Lokk, Fransiyada Jan Jak Russo, Pol Golbax, Rossiyada Aleksandr Radishev va boshqalar tabiiy huquq nazariyasining rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Tabiiy huquq maktabining asoschilaridan biri Gugo Grotsiyning fikricha, inson tabiati tabiiy huquqning onasi hisoblanadi. Tabiiy huquq, bu insonlarga allaqachon tegishli bo'lgan narsalarni berish va ularga nisbatan yuklatilgan majburiyatlarni bajarish demakdir. Haqiqat (adolat) tabiiy huquq normalariga muvofiqlikdir. Tabiiy huquq hech kimning irodasi mahsuli bo'lmaganligi uchun ham, hech kimga bog'liq emas.

Jan Jak Russo (1712–1778) tabiiy huquq haqidagi ta'limotni mantiqiy nihoyasiga yetkazdi. Russo tabiiy huquq nazariyasini atrof-muhitdagi voqelik bilan solishtirib, o'sha davrdagi tuzumni qattiq qoraladi.

Shunday qilib tabiiy huquq, har qanday huquqning, shu bilan birga, huquqiy tartibotning, ijobiy huquqning, axloqiy huquqning, siyosiy huquqning va shu kabilarning boshlang'ich asosidir¹.

Huquqning tarixiy maktabi. Bu ta'limotning Germaniyadagi asoschilari (G. Gugo, F. Savini, G. Puxta) XVIII–XIX asrlarda huquq til (nutq) kabi tarixan kelib chiqadi va rivojlanadi, aslo qonun chiqaruvchi tomonidan e'lon etilmaydi, deb isbotlashga urindilar. U «milliy» ongdan, «xalq» ongidan kelib chiqadi. Tarixiy maktab vakillari diniy ta'limotga ham yondashib ketadi. Masalan, G. Puxta: «Huquq Xudodan boshlanadi. U millat tabiatiga huquqni yaratish qudratini jo etgan», deb ta'kidladi.

Huquqning normativ nazariyasini yaratuvchilaridan biri Gans Kelzen huquqni huquqning o'zidan keltirib chiqaradi. Uning ta'kidlashicha, huquq sababiy bog'lanish tamoyiliga bo'ysunmaydi, o'z kuchi va harakatini o'zidan oladi. Kelzen uchun huquqni keltirib chiqaruvchi sabablar masalasi kun tartibida turmagan.

Huquqning psixologik (ruhiy) nazariyasi (L. Petrajitskiy va boshqalar). Mazkur ta'limot vakillari huquqning kelib chiqishi sababini insonlarning ruhiyatidan, huquqiy hayajon, ehtiros va kechinmalarning imperativ xususiyatlaridan izlaydilar. Huquq – bu o'ziga xos «murakkab emotsional-aqliy ruhiy jarayon bo'lib, u individning ruhiy sohasida namoyon bo'ladi»².

To'g'ri, huquqning kelib chiqishida ruhiy (psixologik) omilni to'la inkor etish mumkin emas, ammo, ruhiy hayajon va kechinmalarni huquqni yaratuvchi asosiy manba deb hisoblash ham to'g'ri emas.

Huquq kelib chiqishining marksistik konsepsiyasi. Bu nazariya asoschilari huquqning kelib chiqish va amal qilishning bosh manbayi iqtisodiy tuzum (bazis)da ekanligini ishonchli isbotladilar. Shu bois huquq jamiyatning iqtisodiy tuzumidan ustun bo'la olmaydi. Shu bilan birga, marksizm huquqning genezisini sinflar va sinfiy munosabatlar bilan chambarchas bog'laydi. Huquqda iqtisodiy hukmron sinfning irodasini ko'radi. Biroq, huquqning ildizlari anchagina chuqurroq, uning paydo bo'lishiga sinflardan ko'ra, boshqa umumsotzial omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi.


Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, jamiyat kishilarning muayyan aloqalar tizimi bilan o'zaro bog'langan uyushmasi bo'lib, davlat va huquqdan oldin vujudga kelgan. Davlat murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Davlat va huquqning vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiyoti turli yondashuvlar asosida yoritilgan. Bunda u yoki

¹ Qarang: Davlat va huquq nazariyasi Prof. X.T. Odilqoriyev tahriri ostida – T., 2009. – 47–50-betlar.

² Qarang: Петражицкий Л.И. Теория права и государства в связи с теорией нравственности. – СПб. 1909. – 1 tom. – 84-bet.

bu yondashuvni mutlaqlashtirmay, ularning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Davlat va huquqning kelib chiqishi borasidagi ma'lum nazariyalarning hech biri oxirgi haqiqatga da'vo qilolmaydi. Ammo, har bir ta'limot davlat paydo bo'lishi xususidagi ilmiy haqiqatni anglashda bir bosqich bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Davlatning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy nazariyalar



Birinchi bo'lim. DAVLAT NAZARIYASI

III bob. DAVLAT HAQIDA UMUMIY TA'LIMOT

1-§. Davlatning tushunchasi va mohiyati

Davlat va huquq nazariyasida davlatning mohiyati masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Binobarin, fanning boshqa barcha muammolarini hal etish «davlat nima» degan savolga beriladigan javobning ma'nosiga bog'liq. Davlat masalasi eng murakkab, eng qiyin muammo bo'lganligi bois insoniyatning aqlpeshalari bu to'g'rida xilma-xil va serqirra fikrlar bildirganlar.

Davlatshunos olimlardan biri A. Parshin shunday deb yozgan edi: «Davlatning tabiatini va mohiyatini teran va har tomonlama anglamay turib, davlatni oqilona va malakali boshqarib bo'lmaydi»¹. Falsafa kategoriyalaridan biri bo'lmish *mohiyat* – narsa, hodisa, buyum va jarayonlarning muhim, asosiy, zaruriy, barqaror jihatlarini, ichki aloqalarini, o'zaro munosabatlarini, qonuniyatlarini ifodalovchi belgilarining yig'indisidir. Davlatning mohiyati borasida izlanganda, uning muhim belgilarini, barcha jihatlarini tavsiflovchi xususiyatlarini, faoliyati va namoyon bo'lish qonuniyatlarini ochishga intilamiz. Davlatning mohiyati uning ijtimoiy hayotda bajaradigan vazifasini (ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, ularni tartibga solish va boshqa muhim vazifalarini) aniqlashni ham qamrab oladi.

Davlat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lganligi bois, uning mohiyati va ta'rifi xususida qadimdan turli-tuman mulohazalar bildirib kelinadi. Jumladan, davlatning mohiyati haqidagi dastlabki tasavvur va qarashlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – «Avesto»da ham bayon etilgan. «Davlatmi? U nima o'zi?», – deydi Zardusht va o'zi javob beradi: «Sovuq maxluqlar ichida hammadan ham sovuqrog'i davlat deb ataladi. U sovuq yolg'onlar to'qiydi. Uning nomidan «Men davlatman, ya'ni xalqman» degan yolg'on o'rmalab yuradi»². Qadimgi rim faylasufi va siyosiy arbobi Mark Tulliy Sitseron (mil.av. 106–43-y.) «davlat nima» degan savolga javob izlab, shunday deb yozgan: «Davlat – bu umumiy huquqiy tartibotdir; davlat – bu xalq ishi, faoliyati, xalqqa taalluqli ishdir». Alloma olim xalq deganda kishilarning har qanday jamoasini emas,

¹ Qarang: Паршин А. Что такое государство? Научное исследование природы государства. – СПб., 1907. – 17-bet.

² Qarang: Fridrix Nitshe «Zardo'sht tavallosi» / Tarj. I. G'afurov. – T., 2007. – 43-bet.

balki ko'pchilik aholining huquq masalalaridagi o'zaro kelishuvi va manfaatlar umumiyligi asosidagi birlashuvini tushungan¹.

Uyg'onish davrining buyuk donishmandi N. Makiavelli davlat timsolida jamiyatning siyosiy holatini ko'rgan. U o'zining «Hukmdor» nomli asarida «insonlar ustidan hukmronlik qilgan va hukmronlik qiluvchi barcha davlatlar mohiyatan yo respublika, yoki tanho boshqariluvchi tuzilmalar bo'lgan»², – deb yozgan edi. Bu o'rinda davlat hokimiyatni amalga oshirish vositasi ekanligiga urg'u berilgan.

Davlatning mohiyatini anglashda «hokimiyat», aniqrog'i «siyosiy hokimiyat» hodisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, siyosiy yoki davlat hokimiyati ijtimoiy hokimiyatning yagona turi emas. Hokimiyat kishilarning muayyan maqsad yo'lida uyushgan va barqaror xususiyatga ega bo'lgan jamoasiga xosdir.

Hokimiyat – kishilik jamiyati paydo bo'lganidan buyon mavjud va hozirgacha o'zining qudratli «joziba»si bilan insonlar aqlini tortib kelayotgan nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisadir. Bugungi kunda aksariyat olimlar e'tirof etgan nuqtayi nazarga ko'ra, hokimiyat – muayyan shaxs (guruh)ning u yoki bu kishi (guruh) ustidan boshqaruvni amalga oshirish (hukmronlik qilish), u yoki bu narsaning taqdirini hal etish huquq-imkoniyatidir. Hokimiyatning muhim sifati uning kishilar o'rtasidagi irodaviy munosabat ekanligida ifodalangani. Hokimiyat bu shunday ijtimoiy irodaviy munosabatki, bunda hukmron **irodaning ustunligi**, belgilovchi roli ta'minlanadi³. Hokimiyat amalga oshgan joyda muayyan irodaviy akt (munosabat) bor va shuning natijasida ro'y beradigan **boshqaruv** va **boshqarilish** mavjud. Boshqaruv esa o'ziga nisbatan ma'lum bo'ysunishni, tobelikni talab etadi. Demak, hokimiyat bo'ysunish va zarur bo'lganda majburlash elementlari orqali amalga oshiriladi. Ma'lum obro' (avtoritet) va bo'ysunishsiz boshqarish mumkin emas.

Avtoritet (hokimiyat vakolatlari tufayli erishiladigan mavqe) itoat etuvchilarga hukmron irodaning o'tkazilishidir. Ikkinchi tomondan, avtoritet itoat etilishini nazarda tutadi⁴. Hukmronlikka erishishda majburlash, zo'rlik ishlatish, ishontirish, rag'batlantirish, tarbiya kabi turli usul va vositalardan foydalaniladi. Hokimiyatning alohida ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan turi davlat hokimiyatidir. Davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xususiyatga ega bo'lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat.

¹ Qarang: Цицерон М.Т. О государстве // Мухаев Р.Т. Хрестоматия по теории государства и права, политологии, истории политических и правовых учений. – М., 2000. – 74-bet.

² Qarang: Макиавелли Н. Государь. Пер. с англ. – М., 1990. – 29–30-betlar.

³ Qarang: Кейзеров Н.М. Власть и авторитет. – М., 1973. – 38-bet.

⁴ Маркс К., Энгельс Ф. Соч. Т.18. – 302-bet.

U muayyan tashkiliy shakllarda namoyon bo'ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida davlat hokimiyati huquq vositasida, konstitutsiya tarzidagi qonunlarda institutsional ko'rinishda rasmiylashtiriladi.

Hokimiyat har qanday ijtimoiy birlikning faoliyat ko'rsatish sharti (vositasi)dir. Bunda hokimiyat ushbu hamjamiyatga mansub shaxslarning undagi yagona rahbariy irodaga bo'ysinuvi munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Bayon qilingan mulohazalar asosida hokimiyatning quyidagi ta'rifini taklif etish mumkin. **Hokimiyat** – ijtimoiy hayotning tegishli darajasi va tabiatiga mutanosib bo'lgan har qanday ijtimoiy jamoaning faoliyat ko'rsatish usuli (vositasi) bo'lib, u ayrim shaxslar va ular birlashmasining hamjamiyatdagi yagona rahbariy irodaga itoat etishi munosabatlari tarzida ifodalanadi¹.

Adabiyotlarda *siyosiy hokimiyat* bilan *davlat hokimiyatining* bir-biridan farq qilishini isbotlovchi fikrlar mavjud. Ushbu bahsga berilmagan holda quyidagi umumiy ta'rifni bayon etamiz. Demak, *siyosiy yoki davlat hokimiyati* – ijtimoiy hokimiyatning shunday turiki, bunda boshqaruv bevosita davlat tomonidan, yoki u vakolat bergan subyektlar tomonidan, uning nomidan, uning topshirig'iga binoan va uning qo'llab-quvvatlashi asosida amalga oshiriladi.

Ommaviy-siyosiy hokimiyat (ya'ni, davlat hokimiyati) – *birinchidan*, muayyan hududga nisbatan joriy etiladi; *ikkinchidan*, tegishli hududda joylashgan va shu yerda yashaydigan aholiga o'z ta'sirini o'tkazadi; *uchinchidan*, maxsus apparat vositasida amalga oshiriladi; *to'rtinchidan*, davlat hokimiyati suverenitetga ega bo'lib, u jamiyatning boshqa ijtimoiy guruhlari (siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar, uyushmalar va h.k.) dan to'la mustaqildir; *beshinchidan*, butun jamiyat nomidan ish yuritadi va boshqaradi.

Davlat va huquq tarix sahnasiga kelgan davrdan boshlab, davlatning mohiyati haqidagi g'oyalar vujudga keldi.

Xo'sh, davlat nima degani? Maxsus ijtimoiy-gumanitar, siyosiy, falsafiy, yuridik bilimga ega bo'lmagan odam «davlat» deganda alohida davlat organlarining nomini, «parlament», «hukumat», «prezident» kabilarni tasavvur etadi. Yana savol tug'iladi: davlat o'zi nima uchun zarur? Juda ko'p sonli davlat organlari, mansabdor shaxslardan iborat ulkan apparat davlat tuzilmasi bo'lib, nihoyatda murakkab tashkiliy birlik – kishilik jamiyatini boshqarish uchun zarurdir.

Sanoat kapitalizmi davrida «davlat – kishilar ittifoqi, hudud va hokimiyat kabi uch tarkibning uyg'unlashuvi mahsuli», degan ta'riflar keng tarqaldi. Xu-

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. Н.И. Матузова и А.В. Малько. – М.: Юрист, 2000. – 43-бет.

susan, nemis faylasufi va huquqshunosi L. Dyugi davlatni quyidagi to'rtta elementdan iborat deydi. Uning fikricha davlat: 1) insonlar (individlar) jamoasi; 2) muayyan hudud; 3) suveren hokimiyat; 4) hukumatdan tashkil topgan¹. G.F. Shershenevich muayyan hududda o'troq hayot kechiruvchi va yagona hokimiyatga itoat etuvchi kishilar ittifoqini davlat deb ataydi².

«Davlat, – deydi mashhur rus olimi N.M. Korkunov, – erkin kishilarning ijtimoiy ittifoqi bo'lib, muayyan vakolatlar (majburlov) yordamida ta'minlanadigan osoyishta tartibotdir»³. Shunga o'xshash fikr G. Grotsiy asarlarida ham uchraydi. U davlatni «huquqqa rioya etish va umummanfaati yo'lida tuzilgan erkin kishilarning mukammal ittifoqi»⁴, deb ta'riflaydi.

J. Lokkning talqinida: «davlat demokratiya yoki boshqaruvning u yoki bu shakli emas, balki lotincha «civitas» so'zi bilan ifodalanadigan har qanday mustaqil uyushmadir, ushbu so'zga «davlat» («commwealth») so'zi mos keladi»⁵.

Nemis falsafasining yorqin namoyandasi Immanuil Kant ham davlatning mohiyati borasida tahlil yuritib, shunday deb yozadi: «Davlat o'zi joylashgan yerning xuddi o'zidek mulk emas, balki kishilarning o'zi xo'jayinlik qilib, o'zini o'zi boshqaradigan jamiyatdir»⁶. Mutafakkir boshqa bir asarida «Davlat huquqiy qonunlar himoyasida bo'lgan ko'pchilik odamlarning birlashmasidir»⁷, deydi.

Davlatning mohiyatini tushunish bobida fransuz mutafakkir Jan Boden o'z o'tmishdoshlari va zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketdi. U davlatni «suveren hokimiyat orqali ko'plab oilalar va ularga tegishli narsalar ustidan adolatli hukmronlik vositasi» sifatida tushunishni ilgari suradi. Davlat, – deydi J. Boden – suveren hokimiyatning odamlar ustidan amalga oshiradigan rahbarligidir. Uning ta'biricha, *suverenitet* davlatning doimiy va mutlaq hokimiyatidir.

Suverenitet g'oyasini T. Gobbs ham yoqlab chiqadi. Uning talqini quyidagicha: «Odamlarni qo'rquvda ushlab, ular harakatini ezgulikka yo'naltirishga faqat barcha imtiyoz va kuchlarni bir odam yoki bir necha kishilik jamoa izmida jamlash orqaligina erishish mumkin. Agar ko'pchilik odamlarning birlashuvi (va boshqarilishi) shu tariqa ro'y bersa, bu davlat deb ataladi. «Suverenitetning sohibi aynan davlatning o'zidir, uning zimmasiga tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni ta'minlash yuklatiladi»⁸.

¹ Дюги Л. Конституционное право. Общая теория государства. – М., 1908. – 100–101-бетлар.

² Шершеневич Г.Ф. Общее учение о праве и государстве. – М., 1911. – 18-бет.

³ Коркунов Н.М. Русское государственное право. Т.1. – СПб., 1904. – 27-бет.

⁴ Гроций Г. О праве войны и мира. – М., 1956. – 74-бет.

⁵ Локк Дж. Сочинения в 3-х томах. Т.3. – М., 1956. – 388-бет.

⁶ Кант И. Сочинения в 6-ти томах. Т.4. – М., 1965. – 383-бет.

⁷ O'sha joyda, 270-бет.

⁸ Qarang: Гоббс Т. Сочинения Т.2. – М., 1992. – 133-бет.

Rossiyalik davlatshunos olim F. Kokoshkin davlat hokimiyatining majburlovga tayanganligini inkor etib, quyidagi mulohazani bildiradi: «Davlat ma'lum toifa insonlarning jamoasi emas, balki *kishilar o'rtasidagi munosabatdir*, ularning umumiy turmush kechirish shakli, ular o'rtasidagi muayyan ruhiy aloqadorlikdir»¹.

Davlat va uning mohiyati masalasiga Ivan Ilning qarashlari ham g'oyat qiziqarli. «Uzoq tajriba, og'ir mashaqqatlardan aziyat chekkan insoniyat uyushgan majburlov tartibidan tashqaridagi hayotni sinab ko'rib, o'rta asrlarning xususiy huquqiy tizimi va ijtimoiy-huquqiy besaranjomliklarini boshdan kechirib, insoniyat nihoyat endilikda erkin va ixtiyoriy ittifoqqa asoslangan hayotni yakka hukmronlikka, majburlovga tayangan davlatdagi hayot bilan birga qo'shish mumkinligiga ishonch hosil qildi. Davlatning majburlov kuchi va uning serqirra va xilma-xil faoliyati to'g'ri tashkil etilgan taqdirda, insonning erkin ma'naviy hayotiga tazyiq o'tkazmay, balki uning uchun qulay sharoitlar yaratib beriladi»².

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: «**Davlat – huquq asosida uyushgan**, yagona hudud ustidan hukmronlik qilish va yagona hokimiyatga bo'ysunish asosida birlashgan odamlarning umumiy ittifoqidir»³.

«Davlat» iborasining to'la ma'nosi quyidagi ijtimoiy hodisalarning uyg'unligi va bir butunligida namoyon bo'ladi: a) hokimiyat va bo'ysunish munosabatlarining mavjudligi; b) hokimiyat majburlov choralarini qo'llashda tanho (suveren) huquqqa ega bo'lishi; v) yuridik mazmun va tartibning mavjudligi; g) boshqaruv va u tufayli nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi; d) tashkiliy uyushganlik.

Shunday qilib, **davlat** – jamiyatdan alohida mustaqil tuzilma emas, balki muayyan makon va zamonda mavjud huquqiy tartibga solinadigan ijtimoiy xulq-atvorning aniq shakli. Davlat – sezgi organlari yordamida aniqlash mumkin bo'lgan moddiy hodisa emas, balki jamiyat a'zolarining yuridik jihatdan tartibga solingan o'zaro bo'ysunish va boshqarilishini ifodalaydigan aloqalarini nazarda tutuvchi ijtimoiy voqelik. Davlat to'g'risida so'z yuritganda, biz vakolatli organlar tomonidan odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini nazarda tutamiz. Demak, davlat odamlar xulq-atvorini qat'iy huquqiy normalar yordamida majburiy tartibga solishdan iborat funksiyani bajaruvchi murakkab ijtimoiy hodisa(tashkilot)dir.

¹ Кокошкин Ф.Ф. Русское государственное право. – М., 1908. – 3–4-бетлар.

² Ильин И. Собр. соч. в 10-ти томах. – М., 1994. – 111-бет.

³ O'sha joyda.

2-§. Davlatning mohiyati haqidagi turli nazariyalar

Davlatning mohiyatini aniqlash deganda, uning ma'no-mantig'i, ichki tabiati, asl mazmuni, jamiyat hayotida o'ynaydigan roli va ijtimoiy vazifasini ochish, shu xususiyatlarini anglab yetish tushuniladi. «*Davlat*» degan ijtimoiy hodisaning asosiy mantig'ini, o'zagini *hokimiyat* tashkil etadi. Shuningdek, davlat jamiyatga tegishli *siyosiy tashkilotdir*. Boshqacha aytganda, davlatning mohiyati masalasi – davlat hokimiyati kimga tegishli, uni kim va qaysi manfaat yo'lida amalga oshiradi, degan savolga javob berish orqali yoritiladi. Xuddi shu bois bu muammo o'ta munozarali, bahsli nazariy masala hisoblanadi¹.

Davlatning mohiyati – uning eng muhim, barqaror belgi va xususiyatlari, ichki aloqalari yig'indisi. Mohiyat – qonuniyatni, qonuniy munosabatlarni, eng muhim tavsiflovchi jihatlarni anglashdir, ularning namoyon bo'lishidir. Davlatning barcha belgi va xususiyatlari uning ijtimoiy vazifalari, bajaradigan funksiyalarida namoyon bo'ladi. Davlatning asosiy ijtimoiy vazifasi insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatni boshqarishdan iborat. Hokimiyatning alohida tashkiliy shakli bo'lgan davlat jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi. Davlat boshqaruvi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirish maqsadida ularga qat'iy ta'sir o'tkazishdir. Shu orqali davlat ijtimoiy taraqqiyotni yo'naltirib turadi.

Davlat mohiyatida ikki jihatni nazarda tutish lozim. Birinchi holatda davlat boshqaruvi butun jamiyat manfaati yo'lida amalga oshirilishi mumkin; ikkinchi holatda esa, u alohida ijtimoiy guruh yoki alohida shaxs manfaati uchun amalga oshirilishi mumkin. Shunga ko'ra, davlat yoki jamiyat irodasini ifoda etadi yoxud ayrim shaxs (ayrim guruh) irodasini aks ettiradi.

Demokratik yo'nalishda rivojlanayotgan jamiyat o'zining serqirra obyektiv ehtiyojlari davlatning diqqat markazida bo'lishiga muhtojdir. Bu davlatning umumiy ijtimoiy funksiyalari kengayishi va rivojlanishiga olib keladi.

Yuqoridagi mulohazalarga xulosa qilib, davlatning hozirgi zamonaviy ta'rifini ifoda etishga harakat qilamiz. Davlat ommaviy-siyosiy hokimiyatning suveren-siyosiy tarzda hududiy tashkillashtirilganligi bo'lib, u maxsus apparat vositasida o'z azmu irodasini butun mamlakat uchun majburiy e'tirof ettira oladi.

Davlat – jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta'minlaydigan siyosiy tashkilot bo'lib, maxsus mexanizm (apparat) vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi suveren ommaviy-siyosiy hokimiyat sifatida huquqqa umumiy

¹ Bu borada batafsilroq qarang: Odilqoriyev X.T., Chiniboyev X.J. Davlat hokimiyati: mohiyati, funksiyasi va zamonaviy talqini. – T., 2015. – 6–29-betlar.

majburiy xususiyat baxsh etadi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlaydi.

Davlatning mohiyati xususida bir qancha ta'limotlar va yondashuvlar mavjud: elitar nazariya, texnokratik nazariya, markscha nazariya, umum-farovonlik davlati nazariyasi, demokratik (huquqiy) davlat nazariyasi. Ushbu yondashuvlarni alohida ko'rib chiqaylik.

Elitar nazariya. Bu nazariya XX asrda keng tarqaldi. Uning tarafdorlari fikricha, keng xalq ommasi davlat hokimiyatini amalga oshirish va jamiyatni boshqarishga qodir emas, shu bois davlat hokimiyati jamiyatning yuqori qismiga – elitaga tegishli bo'lishi lozim. Va har safar hokimiyat tepasida bir elita ikkinchi elitani almashtirib turadi.

Elitalar turli belgilari (kelib chiqishi, ma'lumoti, tajribasi, qobiliyati kabilar)ga qarab aniqlanadi. Bunda elita saflari xalq ommasi hisobiga, ularning eng qobiliyatli vakillari bilan to'ldirib borilishi mumkinligi ham nazarda tutiladi. Buning ustiga mazkur nazariyaning hozirgi tarafdorlari bir qancha elitalar mavjud bo'lib, ular hokimiyat uchun kurash olib borishi, biroq, xalq o'z saylov huquqidan foydalanib, ular faoliyatini nazorat qilishi mumkin, deb ta'kidlaydilar.

Shubhasiz, ushbu nazariyaning nuqsonlari ham mavjud. Chunonchi, aholini hokimiyat ishlaridan chetlashtirishni targ'ib qiladi, hokimiyatning sinfiy tabiati butunlay inkor etiladi. Lekin ushbu nazariyaning ijobiy tomonlari ham yo'q emas. Haqiqatan ham, hokimiyat ishlarini olib borish amalda kishilarning g'oyat cheklangan doirasi – deputatlar, davlat mahkamasi xodimlari tomonidan bajariladi. Muhimi, mazkur kishilar chindan ham xalq, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini ifoda etishlari kerak. Shu jihatdan xalq saylagan va o'z nomidan vakil qilgan kishilarning elita xarakterini, ular faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash zaruratini tushunish mumkin.

Texnokratik nazariya. Mazkur nazariya XX asrning 20-yillarida vujudga kelib, 60-70-yillarda ancha keng tarqaldi. Uning tarafdorlari orasida T. Veblen, D. Barnxeym, G. Saymon, D. Bell va boshqalar bor edi. Umuman ushbu nazariya elitar nazariyasiga juda o'xshab ketsa-da, zamonaviy voqelikni hisobga olishi bilan ajralib turadi.

Bu nazariyaga ko'ra, jamiyatni mutaxassis-boshqaruvchilar, menejerlar idora etishlari lozim (ko'pincha amalda ham shular boshqaradilar). Aynan ular jamiyatning haqiqiy ehtiyojlarini, uning eng maqbul rivojlanish yo'llarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlashga qodir. Bu boshqarishni ilmiy asosda olib borish imkonini beradi hamda jamiyatning ildam rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur ta'limot g'oyalardan nafaqat davlatning mohiyati balki uning boshqa jihatlariga tegishli bo'lgan boshqa nazariyalarda ham foydalanilmoqda.

Markscha nazariya, aniqrog'i tarixiy – materialistik nazariya davlatning mohiyati masalasiga sinfiy yondashuvni taklif etadi. Uning asosida tarixiy materializm va sinfiy kurash g'oyasi yotadi. Mazkur ta'limot namoyondalarining isbotlashicha, davlat (siyosiy) hokimiyati iqtisodiy jihatdan hukmron bo'lgan sinfga tegishli bo'lib, faqat uning manfaati yo'lida amalga oshiriladi. Shu sababli, davlat mohiyati sinfiy nuqtayi nazardan ta'riflanib, davlat iqtisodiy hukmron sinfningsiyosiy hokimiyatini ta'minlab, mazlum sinf ustidan amalga oshiriladi, uning qarshiligini bostirish quroli (diktatura) hisoblanadi. Diktatura – bu hech qanday qonun bilan cheklanmagan va zo'rvonlikka, majburlashga, kuchga tayanadigan hokimiyatdir.

Sinfiy yondashuv tarixda ro'y bergan, yashab o'tgan quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik davlat tiplarining mohiyatini ta'riflash uchun qo'llanilishi mumkin. Uni hozirgi demokratik yo'nalishdagi davlatlar mohiyatini izohlash uchun qo'llab bo'lmaydi. Demokratik rivojlangan mamlakatlarda davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kelishtiruv asosida hal etish quroli – vositasiga aylanib bormoqda. Zamonaviy davlatlarni ta'riflab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi: «Demokratiya sharoitida davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi»¹.

Umumfarovonlik davlati nazariyasi. Bunday nazariya ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan bo'lib, davlatning ijtimoiy hayotga aralashmasligiga oid oldindan mavjud ta'limotga qarshi chiqadi. Bunda huquqbuzarlik holatlari istisno etiladi («Davlat – tungi qorovul» nazariyasi). Uning mohiyati 30-yillarda D. Keyns tomonidan ta'riflab berilgandi. D. Myurdal, A. Sigu, K. Boulding, V. Mund va boshqalarning asarlarida bu nazariya yanada rivojlantirilgan.

Mazkur nazariyaning bosh g'oyasi shundan iboratki, unda davlat barcha sinflardan ustun turib, aholi barcha qatlamlari manfaatlarini ifodalaydi, umumfarovonlikni ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarning aholi turmush darajasini yuksaltirish, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda yirik davlat dasturlarini amalga oshirishdagi ulkan muvaffaqiyatlari ushbu nazariyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mazkur nazariya davlat faoliyatining asosiga inson manfaatlarini qo'yish bilan har bir shaxsning qadr-qimmatiga e'tiborni jalb etadi.

Bizning nazarimizda, ushbu nazariyaning ijobiy jihatlari umuminsoniy qadriyatlar, inson manfaatlari va huquqlari ustuvorligi uning asosiga qo'yilganligi bilan belgilanadi. Uning kamchiligi esa, nimalar va kimlar evaziga bunga

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: «O'zbekiston», 1996. – 20-bet.

erishish mumkinligini ko'rsatib bera olmaganidadir. Mabodo, ekspluatatsiya markazini yarim mustamlaka va rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish nazarda tutiladigan bo'lsa, bunday «farovonlik» nazariyasining e'tiborni tortishi amri mahol¹.

Davlatning normativistik nazariyasi. Mazkur ta'limotning yorqin namoyondalaridan biri avstriyalik mutafakkir Gans Kelzen (ayni vaqtda legistik yondashuv vakili) davlat tushunchasini quyidagi ma'nolarda tavsiflaydi:

Birinchidan, davlat avvalo sof yuridik yondashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmog'i lozim. U yuridik shaxs, «huquqiy fenomen», o'ziga xos korporatsiya sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Davlat millat miqyosidagi huquqiy tartibdir. Yuridik fenomen sifatidagi davlat bilan huquq o'rtasidagi munosabatga xuddi huquq bilan individum o'rtasidagi munosabat tarzida qaralmog'i kerak. Kelzenning fikricha, davlat huquqni o'rnatishi yoki sanksiyalashdan qati nazar, xuddi individdek bo'lishi, ya'ni o'z xatti-harakatida huquq bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, davlat tushunchasi sotsiologik ma'noda xam ishlatilishi mumkin. Bu tarzda davlatga kandaydir «sotsiologik birlik», huquqiy tartib va huquqiy reallikdan mustaqil mavjud bo'lgan «sotsial reallik» sifatida ham qaralishi mumkin. Sotsiologik nuqtayi nazardan qaraganda davlat uchun xos bo'lgan jihat – uning jamiyatni boshqarish yuzasidan vakolatlarining bir qancha organlarga berilganligi, bir qator organlar qo'lida to'planganligidir. Shu bois jamiyatda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan bir necha tuzilmalar mavjud.

Uchinchidan, davlat tushunchasi jonli, tabiiy organizm sifatida ham belgilanishi mumkin. Bu yondoshuvga asoslangan holda, davlat «sotsial biologik shakl» sifatida namoyon bo'ladi. Kelzenning bu qarashlari davlatning paydo bo'lishi to'g'risidagi organik nazariya tarafdorlari tomonidan qo'llanilgan.

To'rtinchidan, Kelzen va uning tarafdorlari davlatni «normalar tizimi», «normativ tartib», «siyosiy tashkillashgan jamiyat» «davlat-hokimiyat» deb belgilashgan, ta'riflashgan. Kelzenning fikricha, davlat siyosiy xususiyatga ega, va u avvalo siyosiy tashkilot sifatida namoyon bo'ladi, chunki u «majburlov, kuch ishlatish tartibini» belgilaydi, zero u «kuch ishlatishga bo'lgan monopol huquqqa ega»².

Yana bir yondashuv – «huquqiy davlat» nazariyasiga alohida bobda muassal to'xtalamiz.

Shunday qilib, davlatning ijtimoiy hodisa sifatida murakkabligi, uning turfa talqini, uning tushunchasining turlichaligini belgilaydi. Shu bois turli davrlarda davlatni turlicha tushunish mavjud bo'lgan. Davlatni sobiq sovet

¹ Islomov Z.M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari. – T., 2000. – 100–101-betlar.

² Qarang: Проблемы теории государства и права / Под. ред. проф. М.Н. Марченко. – М.: Юрист, 2004. – 74-bet.

tuzumi davrida sinfiylik nuqtayi nazaridan ta'riflangan. U «sinfiy jamiyatning siyosiy tashkiloti» sifatida talqin etilgan.

O'tgan asr 80-yillarining o'rtalaridan boshlab, davlatni ta'riflashda umumijtimoiy jihatni ko'rsatish tomon siljish boshlandi va sinfiylikka berilgan urg'u asta-sekin umum-ijtimoiy jihat tomonga surila bordi.

3-§. Davlatning asosiy belgilari

Yurisprudensiyada davlat belgilari masalasi huquqshunos olimlarning doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Zero, davlat jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan o'ziga xos bir qator belgilari bilan farq qiladi. Olimlarning davlat belgilari xususidagi fikr-mulohazalari, dunyoqarashlari va yondashuvlari turlichadir.

«Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» nomli asar muallifi – F. Engels davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy-siyosiy hokimiyat hamda soliqlar tizimining joriy etilishini ko'rsatib o'tgan. G.F. Shershenevich ham shunga o'xshash uch belgi: «a) odamlarning birlashuvi; b) ular ustidan hukmronlik qiluvchi hokimiyat; v) shu hokimiyat ta'sir doirasidagi hudud»ni sanab o'tgan.

Z.M. Islomov o'z asarlarida davlatning umume'tirof etilgan belgilari sifatida fuqarolik, suveren hokimiyat, yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar, davlat funksiyasini bajarish uchun lozim bo'lgan moddiy vositalar, mamlakatda qonuniylik va huquqiy-tartibotni o'rnatuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sud, prokuratura, politsiya va h.k), hududiy yaxlitlikni ta'minlovchi qurolli kuchlarni sanab o'tadi¹.

Ba'zi ilmiy adabiyot va darsliklarda davlatning asosiy belgilari sifatida davlat suvereniteti, davlatning nomi, bayrog'i, gerbi, poytaxti va konstitutsiyasining mavjudligi ham qayd etilgan. Biroq, bunday fikrlarni quvvatlab bo'lmaydi. Davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi belgi-xususiyat emas, balki davlatning ramzlari-dir. Davlatning nomi uning mavjudligi va mohiyatini belgilaydigan omil emas. Davlatning poytaxti ham o'zgarib turishi mumkin. Va nihoyat, konstitutsiya ham davlatning mavjudlik sharti emas. Masalan, Buyuk Britaniyaning konstitutsiyasi yo'q, ammo u davlatlik sifatlarini yo'qotgan emas. Konstitutsiyalar paydo bo'lgunga qadar ham davlatlar mavjud bo'lgan.

Davlat belgilari xususida huquqshunos olimlarning fikr va mulohazalari, yondashuvlari turli-tumanligi fanni boyitishga va bu sohadagi bilimlarni

¹ Qarang: Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2007. – 180–181-betlar; Davlat va huquq nazariyasi // professorlar X.B. Boboyev va H.T. Odilqoriyevlarning umumiy tahririda. – T., 2000. – 76-bet.

rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero, fandagi ilmiy yangiliklar o'zaro ilmiy bahs va munozaralar natijasida shakllanadi.

Davlatning asosiy belgilari, uning jamiyatdagi turli nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy tizimning boshqa qismlaridan farqlarini ochishga imkon beruvchi jihatlari hisoblanadi. Davlatning belgilari sifatida kishilik jamiyati uyushgan davlat tashkilotining barqaror, qat'iy umurtqasini ifodalovchi jihatlari maydonga chiqadi. Ular jamiyat rivoji bilan hamohang tarzda mazmunan boyib boradi, eski funksiyalar barham topib, yangi idoraviy tuzilmalar va funksiyalar vujudga kelaveradi.

Davlatni boshqa jamoat tashkilotlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilari hudud, fuqarolar, ommaviy hokimiyat, yagona soliq tizimi kabilar bo'lib, mazkur belgilarsiz davlat muayyan mavjudlik kasb eta olmaydi.

Aholining hududiy uyushishi va shu xudud chegaralarida ommaviy hokimiyatning amalga oshirilishi. Davlat tuzumigacha bo'lgan kishilik jamiyatida individning u yoki bu uruqqa mansubligi qon-qarindoshlik asosida aniqlanardi. Buning ustiga, qat'iy belgilangan hududiga ega bo'lmagan urug' jamoasi u yerdan-bu yerga ko'chib yurardi. Davlatga uyushgan jamiyatda esa, aholining urug'chilik asosida uyushishi o'z ahamiyatini yuqotdi. Uning o'rnini hududiy asosda uyushish prinsipi egalladi. Davlat qat'iy chegaralangan hududga ega bo'lib, uning suveren hokimiyati faqat shu hududga tatbiq etiladi, unda yashaydigan aholi esa, yuzaga kelgan davlatning fuqarosiga aylanadi. Shunday qilib, yangi huquqiy institut – fuqarolik tobeligi paydo bo'ladigan davlatning makondagi sarhadlari suveren hudud hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, **«Davlat – jamiyatning siyosiy-hududiy tashkilotidir.** Davlat hududi – muayyan davlat suvereniteti ostida bo'lgan, tarixiy voqelik, xalqaro bitimlarga muvofiq o'rnatiladigan va mustahkamlanadigan hududdir»¹.

Davlat hududi – uning yurisdiksiyasi tarqaladigan makon. Davlat o'zining tegishli hududida suveren hokimiyatini amalga oshiradi va ularni boshqa davlatlar va ayrim guruhlarining hujumidan himoya qilish huquqiga ega. Muayyan davlatning tegishli qonunlari faqat o'sha davlatning belgilangan hududida amal qiladi, boshqa davlatlar esa, undan mustasno hisoblanadi. Zero, qonunlarni makonda amal qilishi prinsipining mohiyati va mazmuni ham shundadir.

Hudud, odatda, *ma'muriy hududiy* deb ataladigan maxsus bo'linishga ega bo'ladi. Masalan, 1991-yil 20-noyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashqari, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharlardagi tumanlar, qishloqlar,

¹ Qarang: Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права (юриспруденции). – М., «Право и государство». 2003. – 112-бет.

ovullar va shaharchalar ham O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy qismlari hisoblanadi. O'zbekiston o'z yurisdiksiyasini mazkur hududlarda amalga oshiradi. Davlat aholini ma'muriy-hududiy birliklarga ajratib, o'z hokimiyatini ma'muriy-hududiy prinsip asosida amalga oshiradi.

Respublikamiz Markaziy Osiyoda, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, uning hududi shimoliy-g'arbda Turon past tekstligini, janubiy-sharqda Tyanshan va Oloy tog' tizimlarini, janubiy-g'arbda Qizilqum cho'llarining bir qismini egallaydi. Maydonining umumiy uzunligi 2355 kilometrni tashkil etadi. O'zbekiston tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, 12 ta ma'muriy viloyat, 157 ta qishloq tumani, 123 shahar va 104 shahar tipidagi qo'rg'on kiradi. ***Davlatning ma'lum hududga egalik qilishi uning birinchi belgisidir.*** Davlat hududi yer, yer osti boyliklari, havo bo'shlig'i va hududiy suvlarni o'z ichiga oladi va u faqat «qattiq yer»gagina bog'lanishi mumkin emas.

Davlat hududida istiqomat qiluvchi va uning hokimiyatiga bo'ysunuvchi odamlar uning fuqarolari hisoblanadi. Fuqarolar xalq vakili, jamiyat a'zolari sifatida umumiy madaniy jihatlari va tarixiy ongiga ko'ra davlatga mansublik tuyg'usiga ega bo'lgan, nisbatan keng ijtimoiy guruh tarzida tavsiflanishi mumkin. Aholisiz davlat bo'lmaydi, chunki muayyan hudud davlat deb tan olinada, lekin bu davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar ijrosini ta'minlovchi aholining bo'lmasligi, uning go'yo bir materik yoki qit'a singari hududiy birlik sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Davlat aholisi uning tuzulishiga ko'ra bir millatdan tashkil topishi yoki ko'p millatli bo'lishi mumkin. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi, ular ijtimoiy mavqei, tili, dini, urf-odatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'lib, hudud miqyosida birlashganlar. Bir davlat hududida mavjud turli milliy guruhlariga nisbatan yagona siyosiy hokimiyat tatbiq etiladi.

Mazkur borada davlatning fuqaroligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. *Fuqarolik* – o'zaro huquq va majburiyatlar hamda javobgarlikning mavjudligida ifodalanadigan, davlat hududida yashovchi shaxslarning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasi hisoblanadi. Bu shaxsning muayyan davlat ixtiyorida bo'lishi, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham davlatga mansub ekanligida namoyon bo'ladi. Ushbu mansublik huquqiy hujjatlar (pasport) yordamida tasdiqlanadi. Fuqarolik deganda, insonni siyosiy-huquqiy tomondan davlat hududida va uning tashqarisida himoyalaniishi, qonuniy muhofazalanishi tushuniladi.

Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunoniston va Rimda mavjud bo'lsada, asosan, feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy

hayot demokratiya va bozor munosabatlariga o'tayotgan bir bosqichda, hozirgi shaklda namoyon bo'la boshladi. Ilk bor «shaharlik» so'zi (fransuzcha «suttuayn», inglizcha «sitizen», ruscha «gorojanin-grajdanin» va hokazo) mustabid feodal munosabatlardan ozod degan ma'noni bildirgan. Mustaqillik e'lon qilinishidan so'ng o'zbek tilida o'tmishdagi «grajdanlik» so'zi o'rniga «fuqarolik» degan atama qabul qilindi.

Davlatning yana bir muhim belgisi – ommaviy-siyosiy hokimiyatning ta'sis etilganligi. Ya'ni, siyosiy elita va jamiyatning qolgan qismi o'rtasida mavjud hukmronlik va bo'ysunish (hokimlik va tobelik) munosabatlarining mavjudligi.

Jamiyatda hokimiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kabi turlaridan farqli o'laroq davlat hokimiyati alohida mavqega ega. Davlat hokimiyati faqat ma'lum hududgagina tatbiq etiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi ijtimoiy hokimiyat esa, hududga bog'liq bo'lmay, faqat urug', qabila a'zolarigagina tatbiq etilar edi. Bu davlatning butun jamiyatni muayyan yo'sinda boshqarish va majburlash qobiliyatini anglatadi.

Ommaviy-siyosiy hokimiyat irodasiga u ta'sir etuvchi hududdagi barcha itoat qilishi shart bo'ladi. Ommaviy-siyosiy hokimiyat jamiyatning rivoji va ravnaqi manfaatlaridan kelib chiqib, uni boshqarishni amalga oshiradi. Ommaviy-siyosiy hokimiyat maxsus davlat apparati timsolida moddiylashadi, institutsiyalashadi. Uning ijtimoiyligi, ommaviyligi shundaki, davlat hokimiyati butun jamiyatga daxldor, davlat butun jamiyat (xalq) irodasini ifodalab, uning nomidan ish yurita oladi.

Ommaviy-siyosiy hokimiyat apparati, odatda, jamiyat hamda xalq manfaatiga xizmat qilishga safarbar etilgan. Ushbu apparatga qonun chiqaruvchi idora, hukumat, moliya organlari, boshqaruv organlari, sud idoralari, huquqni muhofaza etuvchi idoralar, qurolli kuchlarni boshqarish apparati, turma va jazoni ijro etish muassasalari kabilar kiradi. Davlat apparati davlat majburlovini qo'llashda mutlaq huquqqa ega.

Davlatning muhim xususiyatlaridan biri uning suverenitetga egalidir. Suverenitet – mamlakat ichkarisida va undan tashqarida (xalqaro maydonda) davlat hokimiyatining oliyligi, ustunligidir. Suveren hokimiyat – bu oliy, mustaqil, bo'linmas, umumiy va uzviy, ya'ni ajralmas, begonalashtirib bo'lmaz hokimiyatdir. Davlat hokimiyatining suverenligi – uning mamlakat hududidagi barcha tashkilotlar, muassasalar, uyushmalar, partiyalardan ustunligi va ulardan mustaqilligidir. Davlat suvereniteti quyidagilarda ifodalanadi:

- ichki va tashqi siyosat masalalarida mustaqil qaror qabul qila olishi;
- davlat hokimiyatining mamlakat butun hududiga tatbiq etilishi va davlat organlarining barcha aholi uchun umumiy majburiy qarorlar qabul qilishi;

– boshqa ijtimoiy-tashkiliy hokimiyatlar (partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar va boshqalar) ning qarorlarini bekor qila olishi.

Shu bois suveren davlat hokimiyati barcha fuqarolar uchun majburiy qonunlar qabul qiladi; qonun doirasida majburlov choralarini qo'llaydi.

Shunday qilib, **davlat** – majburlov choralarini qo'llashda qonuniy huquqqa ega bo'lgan, tashkiliy rasmiylashgan hokimiyatni amalga oshiruvchi ijtimoiy qatlam tomonidan o'rnatilgan yuridik tartib amal qiladigan muayyan hududda yashaydigan aholini o'z qamroviga olgan siyosiy tashkilot.

Davlat – muayyan hududda oliy hokimiyatga ega bo'lgan ommaviy-siyosiy tashkilot. Davlat hokimiyatining mohiyati jamiyat a'zolari irodasining hukmron ijtimoiy qatlam (sinf) irodasiga bo'ysundirilishidadir. Davlat hokimiyati – ijtimoiy hokimiyatning bir turi bo'lib, davlat-huquqiy tashkilotlar(organlar)da mujassamlashadi va jamiyat ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. Davlat va huquq davlat hokimiyatini rasmiylashtiruvchi, amalga oshirilishini ta'minlovchi ijtimoiy institutlardir.

Soliqlarning joriy etilganligi – davlatning asosiy belgilaridan biri bo'lib, u aholidan davlat apparatini saqlab turish, faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy mablag'larni undirib olishda ifodalanadi. Mamlakatning davlat budjeti aholidan, turli xil xo'jalik subyektlaridan olinadigan soliqlar va yig'implardan kelib tushadigan daromadlar hisobiga to'ldiriladi hamda ushbu moliyaviy mablag'lar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayot sohasini ta'minlash uchun maqsadli sarf etiladi.


Davlatning soliq siyosati natijasida to'plangan mablag'lar hisobidan na-faqat davlat apparatining faoliyati jarayonida, balki mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot sohaslarini rivojlantirishda ham keng foydalaniladi.

Tabiiyki, davlat tegishli moliyaviy vositalarsiz jamiyatning biron-bir sohasini boshqara olishi yoki muayyan islohotlarni amalga oshirishini tasavvur etish qiyin. Chunki, mamlakatdagi mavjud tashkilotlar o'z faoliyatlarida moliyaviy resurs sifatida davlat budjetiga (davlat organlari) yoki xo'jalik hisobidan tushgan daromadga tayangan holda ish yuritadilar va shu hisobidan davlat xizmatchilariga, ishchi va xodimlarga haq to'laydilar. Ma'lumki, davlat xizmatchilari (deputatlar, sudya, prokuror, hokimlar va boshqalar) moddiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanmay, balki o'z faoliyatida asosan boshqaruvni amalga oshiradilar. Shuning uchun mazkur doiradagi shaxslarga ish haqi, ularning pensiya ta'minoti va boshqa moddiy resurslar mamlakatning budjetidan ajratiladi. Bundan tashqari, davlat organlarining xizmat faoliyati uchun zarur bo'lgan texnika, aloqa vositalari, kiyim-kechak va boshqa ashyolar davlatning budjeti hisobidan ajratiladi.

Xo'jalik hisobidan moliyaviy ta'minlanuvchi shaxslar guruhi esa, o'z faoliyatlarida asosan moddiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar hamda o'z daromadlarining umumiy foizidan kelib chiqqan holda ish haqi oladilar. Jumladan zavod, fabrika ishchilari, fermer xo'jaligi a'zolari, xususiy tadbirkorlar va boshqalar shular toifasidandir.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq siyosati va uning natijasida yig'ilgan moliyaviy manbalar davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qaratiladi, har yili davlat budjeti daromadlari va sarf-xarajatlari hisob-kitob qilinadi hamda bu haqda xalqqa hisobot beriladi.

Demak, davlatning soliqlarni joriy etishi uning ajralmas belgisi hisoblanadi, soliq yig'ishni amalga oshirmasdan yoki davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan to'ldirmasdan, davlat-siyosiy ahamiyatga molik biron-bir tadbirni amalga oshirib bo'lmaydi.



4-§. Davlat tipologiyasi

Davlatning mazmuni va mohiyati haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun ularni muayyan tur (tip) larga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiq. Davlatlarni muayyan bir tiplarga ajratish ularni batafsil o'rganishga yordam beradi. Davlat tipologiyasi davlat va huquq nazariyasi fani o'rganadigan alohida mavzu hisoblanadi.

Davlat va huquqiy tizimlarni tiplarga ajratib klassifikatsiya qilish (tasniflash) davlat-huquqiy materiyani anglashning obyektiv zaruriy va qonuniyatli jarayoni bo'lib, u davlat va huquq rivojlanishining tabiiy-tarixiy mantig'ini aks ettiradi, davlat va huquqning bir tipining boshqa tipi bilan almashinishi tarixan muqarrarligini ifoda etadi. Tipologiya davlat va huquqning rivojlanishi tarixiy jarayonini o'rganishning muhim usuli va vositasi hisoblanadi¹.

¹ Qarang: Марченко М.Н. Теория государства и права. – М., 1996. – 87-бет.

Davlat tipologiyasi – davlatning mohiyatan o'ziga xos xususiyatlarini ajratish yoki biror tipga mansubligini belgilashda foydalaniladigan ta'limot, bilimlar tizimidir. Davlat tipologiyasida davlatlarni muayyan mezonlar asosida turlarga ajratish, tasniflash amalga oshiriladi. Huquqshunoslik fanida davlat tipologiyasini o'rganishda ikki xil yondashuvni, ya'ni **formatsiyaviy** (tarixiy materialistik) va **sivilizatsiyaviy** (ma'rifiy) yondashuvni ko'rsatish mumkin.

Formatsiyaviy yondashuvning mohiyati shundaki, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi ijtimoiy inqiloblar natijasida sodir bo'ladi va bu davlatning bir tarixiy tipidan boshqa, undan yuqoriroq ikkinchi tipiga o'tishini nazarda tutadi. Formatsiyaviy yondashuv fanda sinfiy yondashuv deb ham yuritilib, unda davlat tipologiyasining asosiy mezoni ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar hisoblanadi. Mazkur tipologiyada, birinchidan, davlatlar muayyan ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida tiplarga ajratiladi; ikkinchidan, davlatlarning tabiiy-tarixiy xususiyati ularning o'z taraqqiyotida ma'lum bosqichlarni o'tishini ko'rsatadi.

Formatsiyaviy yondashuv bir tipdagi davlatning boshqasiga faqat sotsial inqilob orqali o'tishini tan oladi. Ushbu tipdagi davlatlarda hokimiyat hukmron sinfning manfaati uchun xizmat qiladi. Ya'ni, davlatning ijtimoiy vazifasi sinfiy manfaatlarni amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Masalan, quldorlik davlati – quldorlarning, feodal davlat – yirik yer egalarning irodasini ifodalaydi. Shunday qilib, davlat va huquqqa formatsiyaviy yondashuv aniq ifodalangan sinfiy xususiyat kasb etadi. Bunda ishlab chiqarish munosabatlari tipiga ko'ra *quldorlik, feodal, kapitalistik va sotsialistik* davlat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

An'anaga ko'ra, *quldorlik davlati* tarixdagi birinchi davlat tipi hisoblanadi. Ushbu davlat tipining paydo bo'lishi eramizgacha bo'lgan IV-III asrlarga to'g'ri keladi. Bunday davlatlar Qadimgi Misr, Qadimgi Babil, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Hindiston va ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan. Quldorlik davlati tizimi Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rim antik davlatlarida eng to'liq tarzda rivojlangan.

Ekspluatatsiya shaklining o'zgarishi quldorlik tipidagi davlatning *feodal davlati* bilan almashishiga olib keldi. Yevropada uning paydo bo'lishi yangi eraning V–XI asrlariga to'g'ri keladi. Feodal jamiyatning asosini feodallarning yerga bo'lgan xususiy mulkchiligi tashkil etar edi, feodal davlat esa feodallar sinfining diktaturasi sifatida maydonga chiqadi.

Ishlab chiqarishning yanada o'sishi, savdo va sanoatning rivojlanishi yangi davlat tipi – *kapitalistik davlatning* paydo bo'lishiga olib keldi. O'zgalar mehnatidan foydalanishning kapitalistik shakli quldorlik va feodal shakllardan

farq qiladi. Bunda u mehnatkashlarning ekspluatatorlarga shaxsan, ochiqdan-ochiq qaramligiga emas, balki rasman erkin, biroq ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan va shu sababli yashash uchun o'z kuchini kapitalistik korxonalarining egalari sotishga majbur bo'lgan yollanma ishchilar sinfining yashirin iqtisodiy qaramligiga asoslanar edi.

Kapitalistik tuzumdagi davlat yaqin vaqtlargacha ekspluatatsiya qilinuvchilarni ekspluatatorlarga bo'ysundirishida yordam beruvchi, ularni jamiyatni tashkil etishning muayyan tarixiy shakliga mos keluvchi tartiblarga rioya qilishga majbur qiluvchi mashina bo'lib keldi.

Biroq keyingi o'n yilliklarda kapitalistik jamiyatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy manfaatlar sinfiy manfaatlardan, umuminsoniy manfaatlar milliy manfaatlardan, umumiy manfaatlar xususiy manfaatlardan ustunlik qila boshladi. Demokratik g'oyalar va institutlar (tashkilotlar) keng yoyila boshladi, bu jamiyatning rivojlanishida davlatning o'rni va ahamiyatiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Davlat faoliyatining mazmuni, uning ijtimoiy yo'nalishi jiddiy ravishda o'zgara boshladi. Davlat zo'rlik, majbur qilish vositasidan tobora butun jamiyat ishlarini boshqarish mexanizmiga aylana bordi.

Sotsialistik davlat to'g'risidagi g'oyalar sinfiy nazariya (markscha-lenincha ta'limot) tarafdorlari asarlarida paydo bo'lgan. Ular o'z asarlarida sotsialistik davlatni boshqa tipdagi davlatlarga qarshi qo'yib, asosiy tafovut hokimiyatning ekspluatatsiya qiluvchi ozchilik qo'lida bo'lishi va undan ekspluatatsiya qilinuvchi ko'pchilik qarshiligini bostirish uchun foydalanishda, deb uqtirganlar. Ularning fikricha, sotsialistik davlat «sotsialistik inqilob» natijasida paydo bo'ladi, ya'ni siyosiy hokimiyat zo'ravonlik orqali egallab olinadi. Bu jarayon eski davlat mashinasini sindirish va proletariat diktaturasini o'rnatish zarurligi bilan bog'lanadi. Ayni paytda sotsialistik inqilob g'alabasidan so'ng hokimiyat ishchilar sinfi qo'lida bo'lishi rejalashtiriladi. Ishchilar sinfi esa butun xalq manfaatlarini yo'lida ekspluatator sinflar qarshiligini bostiradi va butun xalqni yangi hayot qurish uchun o'ziga ergashtirishga intiladi.

Sinfiy tipologiya ta'limoti mamlakatimizda sobiq sovet Ittifoqi parchalangunga qadar yagona g'oya sifatida e'tirof etib kelindi. Ushbu ta'limotning asosiy kamchiligi shundaki, u dunyodagi barcha davlatlarni yagona sinfiy tipologiyaga kiritgan holda, bu boradagi milliy, madaniy, diniy va boshqa bir qator omillarni inkor etadi.

Sivilizatsiyaviy (ma'rifiy) yondashuv formatsiyali yondashuvni to'liq rad etmagan holda, davlat tipologiyasini mamlakatlar erishgan taraqqiyot darajasiga bog'liq ekanligiga asoslanadi. Sivilizatsiyaviy yondashuv sinfiy yondashuvdan ancha keng. Ma'rifiy tipologiyada davlat sivilizatsiya mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Bu yondashuvning ko'zga ko'ringan vakili A. Toynbidir. Uning fikricha, sivilizatsiya – jamiyatning milliy, diniy, jug'rofiy va boshqa belgilarining yaxlitligi bilan ajralib turadigan muayyan holatidir. Unga binoan, davlatlar xronologik, genetik, jug'rofiy, hududiy, diniy, iqtisodiy asoslar va hokazo mezonlarga ko'ra tiplarga ajratiladi.

Davlatlarni hududlarining hajmiga qarab katta, o'rta va kichik davlatlarga bo'lish mumkin. Katta hududli davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy, Hindiston va Meksika kabi davlatlarni misol qilsak, o'rta hajmli hududdagi davlatlarga O'zbekiston, Fransiya, Germaniya, Ispaniya kabi davlatlarni olish mumkin. Kichik davlatlar qatoriga Kipr, Daniya, Vatikan kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin. Davlatni izohlashga tarixiy nuqtayi nazardan yondashuv asosida ularni qadimiy, o'rta asr va hozirgi zamon davlat turlariga ajratsa bo'ladi.

Qadimiy davlatlar Yevropada milodgacha IX-VII asrlarda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyo hududida ilk davlatlar sifatida dastlab Katta Xorazm, So'g'd, Qang' va Baqtriya davlatlari paydo bo'lgan. O'rta asrlarga O'zbekiston hududida paydo bo'lgan va rivojlangan Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Ashtarxoniylar davlatlari misol bo'la oladi. Hozirgi zamon davlat turlari sifatida, ayni vaqtda, rivojlanayotgan O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy kabi davlatlarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Tarixiy va madaniy rivojlanishiga ko'ra esa davlatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi (agrar) va sanoat bilan shug'ullanuvchi (industrial) davlatlarga bo'linadi. Agrar davlatlarning aksariyati Osiyo hududida joylashgan bo'lib, ushbu davlatlar xalqlarining turmush tarzi va hayot kechirish manbasi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishga moslashgan. Sanoat bilan shug'ullanuvchi davlatlar sifatida ko'proq Yaponiya, AQSh va Yevropa mamlakatlarini qayd etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi sanoatlashgan agrar davlat tipiga kiradi.

Ma'rifiylik tavsifiga ko'ra, davlatlar – Sharq va Fapb tiplariga bo'linadi. Sharq davlatlariga Osiyo hududida joylashgan davlatlarni G'arb davlatlariga – Yevropa mintaqasi mamlakatlarini ko'rsatish mumkin.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik yalpi ichki mahsulotning (YaIM) hajmi bo'yicha yuksak darajada rivojlangan (Shvetsiya, Shveysariya, Yaponiya, Amerika), o'rta darajada rivojlangan (Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston) va «qashshoq» (Efiopiya, Nigeriya, Kongo, Somali) davlatlarga bo'linadi.

Ma'rifiy tipologiyaning ijobiy jihatlari, birinchidan, ma'lum sharoitlardagi madaniy omillar tipologiyaning asosiy mezoni qilib olinadi, ikkinchidan, ma'naviy mezonlarning ko'pligi, muayyan sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari tipologiyani aniq amalga oshirishga imkon beradi.

IV bob. DAVLATNING SHAKLLARI

1-§. Davlat shakli tushunchasi

Davlat uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi, shu davr ichida u shakllanib, rivojlanib, o'zgarib keldi. Tabiiyki, davlat insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida har xil shakllarga ega bo'lgan. Davlatni uning shakli nuqtayi nazaridan o'rganish – avvalo, davlat tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va ichki strukturasi, shuningdek davlat hokimiyatini o'rnatish va amalga oshirishning asosiy usullarini anglashni nazarda tutadi.

Aholi hayot tarzini yaxshilash maqsadida turli xil inqilobiy o'zgarishlar, hatto fuqarolik urushlari yoki qo'zg'olonlar asosida davlat to'ntarishlari o'tkazib, o'ziga qulay bo'lgan davlat shaklini yaratishga intiladi. Jamiyatning rivojlanishi va aholi ongining o'sishi natijasida davlat shakllari o'zgarib turadi va takomillashib boradi, bu haqda tarix jonli guvohlik beradi.

Davlatning shakllari muayyan tarixiy sharoitlarga, jamiyatning ijtimoiy tuzumiga, jug'rofiy, iqlim va boshqa sharoitlariga, aholining ijtimoiy tarkibiga, siyosiy kuchlar nisbatiga bog'liq ravishda turli-tuman bo'lishi mumkin. Zero, «har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir»¹.

Davlat shakli haqidagi masala muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Davlat shakli tushunchasi davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti sifatida, huquqshunoslikning eng muhim, sarmazmun mavzularidan biri bo'lib, uning ma'nosini anglash va izohlashga jiddiy yondashuv talab etiladi. Ushbu fikrning tasdig'i sifatida huquqshunos olim I. Ilin quyidagilarni ta'kidlaydi: «Davlat shakli – murakkab va g'oyat mas'uliyatli masaladir, uni ehtiyotkorlik va mutlaqo xolis fikr bilan o'rtaga qo'yish zarur. Eng avvalo, davlat shakli xalqlar hayotiga daxlsiz bo'lgan «mavhum tushuncha» ham, «siyosiy chizgi» ham emas, balki hayot tarzi va xalq hokimiyatining jonli tashkil etilishidir»².

Xalq o'z hayot tarzini tushunishi, aynan «shunday» tashkil etilishini udalashi; shu tuzum qonunlarini hurmat qilishi hamda shu tashkilotga ixtiyoriy

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: «O'zbekiston», 1996. – 6-bet.

² Ильин И.А. О государственной форме // «Сов.гос. и право», 1991. №11. – 135-бет.

hissasini qo'shishi zarur. Boshqacha aytganda, aynan xalqning jonli huquqiy ongi davlat shaklini belgilab beradi, unga hayot, kuch baxshida etadi; binobarin, davlat shakli, eng avvalo, xalqning huquqiy ongi darajasiga, uning to'plagan tarixiy-siyosiy tajribasiga, iroda kuchi va milliy xususiyatiga bog'liqdir¹.

«*Davlat shakli*» iborasini bir guruh olimlar «*davlat tuzumi*»ning sinonimi sifatida qo'llaydilar va davlat shakli tushunchasiga davlat boshqaruv shakli, davlatning tuzilish shakli va siyosiy rejim kiradi, deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh olimlar davlat shakliga davlat boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli kiradi deb, unga siyosiy rejimni qo'shmaydilar. Yana bir toifa huquqshunoslar davlat shakli – davlat hokimiyatining tuzilishi shaklidir, deyдилar. Shunday qilib, davlat shakli uch tushunchani: davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejimni o'z ichiga oladi.

Davlat boshqaruv shakli davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining shakllantirilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning o'zaro hamda aholi bilan aloqadorligidir. Bu tushuncha orqali mamlakatda kim hukmron va u hokimiyatni qanday boshqaradi, degan savollarga javob olinadi. Boshqaruv shakliga qarab davlatlarning *monarxiya* va *respublika* shakllari farqlanadi.

Davlat tuzilishi shakli orqali davlatning hududiy tarkibi, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralarining o'zaro munosabati (nisbati) ifodalanadi. Davlatlar tuzilishi shakliga ko'ra, *oddiy (unitar)* va *murakkab (federativ, konfederativ)* turlarga ajratiladi.

Siyosiy (davlat – huquqiy) rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari (metodlari) va vositalari yig'indisidir. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va vositalari toifasiga ko'ra *demokratik* va *avtoritar* siyosiy rejimlar farqlanadi.

Lekin shuni ta'kidlash joizki, bular hozircha davlat shaklini tushunishga bo'lgan umumiy yondashuv, ilk tanishuvdir. Uni batafsilroq tushunish uchun davlat shaklini tashkil etuvchi har uch jihatni diqqat bilan o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'sirini kuzatish hamda nazariy, siyosiy-huquqiy tafakkur yuz yillar davomida davlatni o'rganar ekan, davlat shaklining aynan shunday mazmunini nega alohida ajratib ko'rsatganligini tushunishga harakat qilish lozim.

Davlat shaklini bunday tushunishning shunchaki tarkib topmaganligi va ayrim olimlarning hozir ham unga qo'shilmasliklarini qayd etib o'tish joiz. Uzoq vaqt davomida davlat shakli boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli-dan (biz keltirgan tarkibdan dastlabki ikkitasidan) iborat deb hisoblab kelingan. Keyinchalik unga siyosiy idora usuli qo'shilgan. «*Davlat shakli*» va «*siyosiy*

¹ Ильин И. О грядущей России. Избранные статьи. – М., 1993. – 27-бет.

idora usuli» o'rtasiga tenglik alomatini qo'yuvchilar ham, bunga asos ham bo'lgan. Buni keyinroq «*siyosiy (davlat) idora usuli*» tushunchasini batafsil ko'rib chiqish vaqtida mufassal izohlab o'tamiz. Shunga qaramay, hozirgi kunda davlat hokimiyati tashkiloti uch qism – boshqaruv, davlat (ma'muriy-siyosiy) tuzilishi hamda davlat (siyosiy) idora usuli – birligidan tashkil topadi, degan fikr keng tarqalgan.

Davlat shakli davlat hokimiyatining qanday prinsiplarga asosan tashkil etilganligini va hududiy jihatdan qay tartibda tuzilganligini umumiy, yaxlit tarzda ifodalaydi. Davlat shakli davlatning asosiy organlari (parlament, hukumat, davlat boshliqlari)ning faoliyat tartibi va ular o'rtasidagi munosabatlar prinsiplarini, davlatning tarkibiy qismlari va ularning yuridik mavqelarini, shuningdek davlat hokimiyatini amalga oshirish metodlarini hamda fuqarolar bilan munosabatlaridagi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita aloqalarini tavsiflaydi.

2-§. Davlat boshqaruvi shakli

Davlatning mohiyatini tushunishda davlat boshqaruvi shakli alohida ahamiyatga ega. Boshqaruv shakli davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi va mazmunini anglatadi.

Davlat shakllarini o'rnatish masalasiga turli nuqtayi nazarlardan turib yondashish mumkin. Ilmiy-tahlil (gnoseologik) yondashuvi davlat shakllarini o'rganishda davlat shakllari bilan uning tuzilishi hamda mohiyati o'rtasidagi aloqadorlikni ochib beradi. Bu masala bilan asosan davlat va huquq nazariyasi fani shug'ullanadi.

Davlatning tashkil topish chog'idagi shart-sharoitlar (masalan, AQSh davlati hududiy-siyosiy qurilishining federativ shakli), tarixiy an'analar (Buyuk Britaniyadagi monarxiya), ichki siyosiy kuchlar kurashi (qator Afrika davlatlarida davlat shakllarining bir necha marta o'zgartirilishi), jamiyat ma'naviy – mafkuraviy tizimida diniy-axloqiy qadriyatlarning hukmronlik qilishi (Erondagi teokratik respublika) kabilar davlat shakliga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonga subyektiv omil ham ta'sir etishi mumkin. Masalan, general Sharl de Golning Fransiyadagi Beshinchi Respublika institutlariga ko'rsatgan ta'sirini eslashning o'zi kifoya.

Davlat shakli tushunchasi davlat hokimiyatini tashkil etishning eng muhim jihatlari qamrab olganligi bois, o'z mazmuniga ko'ra ancha murakkab hodisadir. Bu tushuncha qaysi organlar davlat hokimiyatini ifoda etishini, bu organlarning shakllanish tartibini, ular vakolatlari ko'lami va muddatlarini, davlat organlari (mahalliy va markaziy organlar) o'rtasidagi munosabatlarni, va nihoyat, davlat hokimiyatini amalga oshirishning usul va vositalarini qamrab oladi.

Jamiyat boshqaruvi tashkil etishning qaysi jihati tadqiqot obyekti ekanligiga ko'ra, davlat shaklining uch elementi bir-biridan farqlanadi:

birinchidan, boshqaruv shakli;

ikkinchidan, davlat tuzilishi (hududiy-siyosiy) shakli;

uchinchidan, siyosiy (davlat – huquqiy) rejim.

Davlatning mohiyatini tushunishda davlat boshqaruvi shakli alohida ahamiyatga ega. Boshqaruv shakli davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi va mazmunini, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmini anglatadi.

Davlat boshqaruvi shakli insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bunda davlatni kim boshqaradi, davlat qanday boshqariladi degan masalalarga va uning boshqarish shakllariga Aflotun, Arastu, Forobiy, Monteskye, Lokk, Russo va boshqa mutafakkirlar o'z asarlarida alohida e'tibor qaratganlar. Boshqaruv shakli deganda, oliy davlat hokimiyati, uning idoralari aholi bilan o'zaro munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Boshqaruv shakliga ko'ra, davlatlar *monarxiya* va *respublikaga* bo'linadi. «Monarxiya» yunoncha so'zdan olingan bo'lib («monos» – bir, «arhe» – hokimiyat), yakka hukmronlik, yakka hokimiyatchilik degan ma'noni anglatadi.

Monarxiyaning quyidagi belgilari mavjud:

- monarx davlatni shaxsiylashtiradi;
- monarx tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i hisoblanadi;
- monarx davlatni o'zi yakka boshqaradi;
- monarx hokimiyati muqaddas va daxlsiz deb e'lon qilinadi;
- hokimiyatni o'rnatish va qabul qilishning alohida tartibi mavjud;
- monarx o'z boshqaruv faoliyati natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar bo'lmaydi.

Monarxiya oliy hokimiyat xalq tomonidan saylab qo'yilgan organlarga emas, balki meros tariqasida egallagan podsho-hukmdorga tegishli bo'ladi. Monarxiya boshqaruv shakliga asoslangan davlatlarda mamlakat boshliqlari imperator, xon, podsho, sulton, qirol, qirolicha, amir, shoh va boshqa shu kabi nomlar bilan ataladi.

Monarx davlatni tanho hokimlik asosida boshqaradi. Albatta, bu davlatning barcha ishlarini uning bir o'zi hal etar ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Turli davlat organlarida xizmat qiluvchi ko'p sonli maslahatchilar, vazirlar, amaldorlar davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadi. Ayni paytda, eng muhim davlat ishlari bo'yicha monarxning o'zi hukm chiqarishiga to'g'ri keladi. U davlat hokimiyatining to'laqonli suveren egasidir. Monarx hokimiyati oliy maqomga ega bo'lib, u mustaqildir. U – davlatdagi oliy hokimiyat sohibidir. Monarxiya

hokimiyati vorislik asosida bir avloddan ikkinchi avlodga meros bo'lib o'tadi. Hokimiyatni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishiga xalqning hech qanday aloqasi bo'lmaydi, hokimiyatning hukmdor tomonidan egallanishi va uning faoliyat ko'rsatishi maxsus marosimlar orqali amalga oshiriladi. Monarx muddatsiz, umrbod hokimiyat egasi hisoblanadi. Lekin, monarxlar ag'darib tashlanganligi, o'ldirilganligi, boshqa kishilar bilan almashtirilganligiga tarixda misollar ko'p. Monarx siyosiy boshqaruvda mas'uliyatdan ozod hisoblanadi, ya'ni u o'z boshqaruvi natijalari uchun yuridik va siyosiy javobgar hisoblanmaydi. Hukmdor qoidaga ko'ra, qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi. Masalan, 1809-yildagi Shvetsiya davlat boshqaruvi to'g'risidagi qonunda Qirolning xatti-harakatlari qonunga kirmaydi, deb ko'rsatilgan.

Monarxiyaning uch turi mavjud: *mutlaq monarxiya*, *cheklangan monarxiya* va *noan'anaviy monarxiya*.

Davlat hokimiyati boshqa bironta idora vakolatlari bilan yoki qonunlar asosida cheklanmagan holda amalga oshirilsa, bunday monarxiya mutlaq monarxiya deyiladi.

Mutlaq monarxiya boshqaruv shaklida davlat boshlig'i hokimiyatdan muddatsiz, ya'ni umrbod foydalanadi, taxtni meros yoki qarindoshlik senzi bo'yicha egallaydi hamda o'z xatti-harakatlari uchun qonun yoki biror davlat organi oldida javobgar bo'lmaydi, balki faqat xudo oldida mas'uliyatning mavjudligida namoyon bo'ladi. Mutlaq monarxiyaning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, mazkur boshqaruv shakliga asoslangan davlatlar qonunlarida davlat boshlig'i, ya'ni monarx tomonidan qabul qilingan qonun yoki boshqa turdagi huquqiy hujjatning biror-bir shaxs tomonidan bajarilmasligi holatida u faqat yuridik javobgarlikka tortilibgina qolmay, balki monarx xudoning yerdagi vakili hisoblangani uchun uning amrini bajarmaslik katta gunoh sanaladi va xudoning qahriga uchraydi hamda inson o'limidan so'ng narigi dunyoda xudo oldida ham javob berishi haqida uqtiriladi. Monarx hokimiyati ilohiylashtirilgan shaklda namoyon bo'ladi.

Cheklangan monarxiyada mutlaq monarxiyadan farqli ravishda monarx hokimiyatining vakolatlari konstitutsiya va qonun asosida yoki davlatning biron-bir vakolatli idorasi tomonidan cheklangan bo'ladi. Cheklangan monarxiya, o'z navbatida, *dualistik* va *parlamentar* turlarga bo'linadi.

Dualistik monarxiya davlatlariga Saudiya Arabistoni, Quvayt, Nepal kabi davlatlar kiradi. *Dualistik monarxiya*da hokimiyat monarx va parlament o'rtasida bo'linadi. Lekin bu bo'linish noteng bo'lib, unda monarx hokimiyati cheklangan bo'lsa-da, parlament qabul qiladigan birorta ham qonun monarx roziligisiz kuchga kirmaydi. Ijro hokimiyati esa to'laligicha monarx va u tayinlaydigan hukumat qo'lida jamlanadi. Boshqaruvning bunday shakli XIX asr va

XX asrning boshlarida ancha keng tarqalgan edi (jumladan, Germaniya birlashtirilgandan keyin 1871-yilda qabul qilingan Konstitutsiya bo'yicha shunday boshqaruv shakllangan edi). Bugun rivojlangan G'arb mamlakatlarida boshqaruvning bunday shakli mavjud emas. Faqat Lixtenshteyn bundan mustasno bo'lib, 1921-yilgi Konstitutsiyaga bu yerda 2003-yilda o'zgartirishlar kiritilgan. Yaqin Sharqning bir necha mamlakatlarida, masalan, Iordaniya va Marokashda esa, dualistik monarxiya hali ham mavjud.

Dualistik monarxiyalarda saylanadigan vakillik organi – parlament (har bir davlatda turlicha nomlanadi, masalan, Iordaniyada «majlis») faoliyat yuritadi. U qonunlar qabul qilish va budjetni ma'qullash huquqiga ega.

Monarx tomonidan tayinlanadigan hukumat faqat uning oldida javobgar sanaladi. Hukumatning parlament oldida mas'ulligi, javobgarligi instituti dualistik monarxiyalarda mavjud bo'lmaydi. Monarx parlamentni tarqatib yuborish, favqulodda dekretlar chiqarish va mamlakatda favqulodda holat e'lon qilish huquqiga ega. U qurolli kuchlarning oliy bosh qo'mondonidir.

Dualistik monarxiya mutlaq monarxiyadan parlamentar monarxiyaga o'tishda oraliq, o'tish shakli bo'lib, hukmdor bilan bir qatorda, mutlaq monarxiya uchun xos bo'lmagan boshqa oliy davlat hokimiyat organlari – parlament va hukumatning mavjudligida namoyon bo'ladi. Amaldagi va yuridik hokimiyat monarx tuzadigan hukumat va qonun chiqaruvchi idora hisoblangan parlament o'rtasida bo'linadi.

Dualistik monarxiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, parlament (yoki uning bir palatasi) va hukumat a'zolari hukmdor tomonidan tayinlanadi va uning oldida shaxsan javobgar bo'ladi. Ushbu monarxiya shaklida davlat boshlig'ining vakolatlari qisman cheklangan bo'lsada, ammo u aslida davlat boshlig'i funksiyasini amalga oshiradi. Hukumatni tuzish parlamentning partiyaviy tarkibiga bog'liq emas.

Parlamentar monarxiyada hokimiyat hukmdor bilan birga davlat hokimiyatining oliy organlari – parlament, hukumat va boshqa organlar o'rtasida taqsimlangan bo'ladi. Parlament xalq tomonidan ko'ppartiyaviylik asosida saylash yo'li bilan shakllantiriladi. Hukumatni parlamentda ko'pchilik o'rin egalagan partiya tuzadi, xuddi parlamentar respublikada bo'lganidek, saylov natijalariga ko'ra hukumat parlament oldida hisob beradi. Eng ko'p deputatlik mandatiga ega bo'lgan partiya rahbari huqumatga boshchilik qiladi.

Parlamentar monarxiyada hokimiyatning taqsimlanishiga amal qilinadi. Hukmdor siyosiy hayotda ishtirok etadi, lekin uning hokimiyat funksiyalari juda kam bo'lib, tantanavor marosimlar xususiyatiga ega (hukumatning o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishini qabul qilish, xalqaro munosabatlarda davlat nomidan vakillik qilish, davlat nishonlarini taqdim etish va hokazo). Faqat

ba'zi bir parlamentar monarxiya davlatlarida hukmdor qo'lida davlatni boshqarishning real vositalari mavjud (masalan, Buyuk Britaniyada qirolicha parlamentni tarqatib yuboradi, u ayni vaqtda, sud hokimiyati va cherkov boshlig'i hisoblanadi), lekin amalda hokimiyatni boshqarish vositalari qo'llanilmaydi. Qonunlarni parlament qabul qiladi va monarx tomonidan imzolanganach yuridik kuchga kiradi. Bunday imzolash ramziy ma'noga ega.

Parlamentar monarxiya dualistik monarxiyaga qaraganda boshqaruvning ancha keng tarqalgan shakli. Bugun Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqa ko'pgina davlatlarda parlamentar monarxiya mavjud. Davlatni boshqarishda monarxning real hokimiyatga ega emasligi parlamentar monarxiyaga xos xususiyatdir. Uning, ya'ni monarxning vakolatlari asosan vakillik xususiyatiga ega. Bundan tashqari, u barcha muhim davlat hujjatlarini imzolab, o'ziga xos davlat «notariusi» vazifasini ham bajaradi.

Bunda monarx vakolatlari hujjatlar tayyorlanishi to'g'riligini rasmiy tekshirish bilan chegaralanadi. Odatda, muayyan hujjat mazmunini o'zgartirishga monarx o'zicha erisha olmaydi. Shu bois, «monarx javobgar emas» (monarx o'z faoliyati uchun siyosiy va yuridik javobgar sanalmaydi) prinsipidan kelib chiqqan holda monarx imzosi yonida bosh vazir yoki mas'ul bir vazirning imzosi talab etiladi. Monarx imzolayotgan barcha hujjatlar amalda hukumat tomonidan tayyorlanadi. Monarx qonunchilik hujjatlariga ham imzo chekadi, lekin u parlament qabul qilgan qonunlarga nisbatan veto qo'llash huquqiga ega emas.

Parlamentar monarxiyaning hammasida ham monarxlarning vakolatlari bir xil emas. Ayrim davlatlarda u davlat faoliyatida ishtirok etishdan mutlaqo chetlatilgan bo'lsa, ayrimlarida (masalan, Shvetsiya) tashqi ishlar bo'yicha vakil sanaladi. Ayrimlarida monarx (masalan, Ispaniyada 1978-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga binoan qiroli ispan armiyasining bosh qo'mondonidir) ancha keng vakolatlar egasidir.

Noan'anaviy monarxiya cheklangan monarxiya shakli sifatida ko'p uchramaydigan davlat shakli bo'lib, davlat boshqaruvi amaliyotida faol rivojlanmagan. Ushbu boshqaruv shakli monarxiyaning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega. Noan'anaviy monarxiyada ham respublika, ham monarxiya shaklining elementlari uyg'unligi namoyon bo'ladi. Birlashgan Arab Amirligi yetti amirlik – Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Um mul-Qayvayn, Al-Fujayra va Ra's ul-Xaymadan iborat bo'lib, hokimiyatning oliy organi – amirliklarning shayxlaridan iborat Oliy kengash hisoblanadi. Mazkur kengash a'zolari 5 yil muddatga davlat boshlig'i – Oliy amirni saylaydilar. Uning monarxiya boshqaruv shakliga xos xususiyati shun-

daki, Oliy amir faqatgina yetti amirlik rahbarlaridan va kelajakda shu amirlarning taxt merosxo'rlaridan saylanadi. Amir lavozimi esa faqatgina yagona avlod va uning merosxo'rlariga tegishlidir. Hukmdorning taxtni egallashi jarayoni xalqning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda shakllantiriladi, bu esa, o'z navbatida, monarxiyaga xos xususiyat kasb etadi.

Mazkur boshqaruv shaklining respublikaga oid jihati shundaki, Oliy amir saylov yo'li bilan belgilanib, u muayyan davrgacha vakolatli hisoblanadi. Demak, saylovning mavjudligi va muayyan muddatning o'rnatilganligi respublikaga xos bo'lgan xususiyatdir.

Malayziya davlati misolida quyidagilarni ko'rish mumkin: davlat boshlig'i – Oliy hukmdor (podshoh, 2001-yil 12-dekabrda Sulton Tuanku Said Nutra Jamolullayl) 9 malayya shtati sultonlari kengashida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Bunda uning tor doiradagi shaxslar tomonidan saylanishi hamda davlat boshlig'i lavozimiga faqat sulton va uning qavm-qarindoshlari tarkibidan nomzodlar taqdim etilishi monarxiyaning belgisi sifatida e'tirof etilsa, saylov institutining mavjudligi hamda muayyan davriy muddatga vakolat berilishi esa respublika boshqaruv shaklining ko'rinishi hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining respublika shaklida davlat hokimiyati va boshqaruvning oliy organlari bevosita xalq tomonidan yoki xalq saylagan organlar tomonidan saylab qo'yish yo'li bilan tuziladi va uning vakolati muayyan muddatga belgilanadi. «Respublika» lot. respublika – «jamo'a ishi», «xalq ishi», davlat degan ma'noni anglatadi. Respublikaning asosiy belgilari – hokimiyat oliy organlarining saylab qo'yilishi, hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi, qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ – sudlarning mavjudligi, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixida respublika shaklidagi davlat boshqaruvining bir necha ko'rinishlari ma'lum. Afina davlatida (mil. av. V – IV asrlar) boshqaruvning demokratik respublika shakli mavjud bo'lgan. Unda afinalik erkin fuqarolarning qulga aylanishiga yo'l qo'yilmasdi. Bu respublikada ijtimoiy raqobat, qulga egalik qilishning maxsus tartibi, jamoa qulchiligi mavjud edi. Shuningdek, Afinada davlat boshqaruvining birmuncha samarali tizimi faoliyat ko'rsatgan.

Sparta (mil. av. V – IV asrlar) va Rim davlatlari (mil. av. V – II asrlar) aristokratik respublikalar bo'lgan. Ular davlat sifatida aksariyat aholining aristokratiya, nufuzli kiborlar qismining manfaatlarini ifodalagan. Shuningdek, shahar-respublikalar ham mavjud bo'lib, ularda fuqarolarning erkinliklari va xususiy mulk munosabatlarining erkinligi tan olingan. Shahar-respublikalar Florensiya, Venetsiya – Italiyada; Novgorod, Pskov – Rossiyada va Germaniya, Fransiya, Angliyada ham bo'lgan.

Respublika hozirgi dunyoda keng tarqalgan davlat boshqaruv shakli bo'lib, uning ikki ko'rinishi mavjud: **1) prezidentlik respublikasi; 2) parlamentar respublika.**

Prezidentlik boshqaruv shaklida «kuchli prezident» qoidasiga asoslaniladi. Prezident hukumat boshlig'i hisoblanib, uni tuzadi va hukumat prezident oldida hisobot beradi. Prezident ham rasman, ham amalda davlat boshlig'i hisoblanib, maxsus tartibda xalq yoki saylovchilar hay'ati tomonidan saylanadi, shu bois u parlamentdan mustaqil holda faoliyat yuritadi. Prezident mustaqil holda normativ va normativ bo'lmagan hujjatlar qabul qilish hamda parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega.

Davlat boshlig'i keng vakolatlarga va mamlakatda hokimiyatni amalga oshirishda muhim nufuzga ega bo'lib, shaxsan o'zi yoxud parlament roziligi bilan hukumat a'zolarini tayinlaydi hamda vazifasidan ozod qiladi, shuningdek ba'zi hollarda parlamentni ham tarqatib yuborish huquqiga ega.

Prezident ijroiya hokimiyat rahbari bo'lsada, ayni vaqtning o'zida millatning yaxlitligi ramzi hisoblanadi. Prezident mamlakatda oliy bosh qo'mondon vazifasini ham amalga oshiradi. Masalan, Rossiya, Fransiya, O'zbekiston Respublikasi va boshqa qator davlatlarda prezident bevosita xalq tomonidan saylanadi. Saylovlar tegishli qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Parlamentar respublikaning mohiyati shundan iboratki, parlament oliy davlat hokimiyat organlari orasida muhim mavqega ega bo'lib, hukumatni tuzishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hukumat parlament oldida hisobdordir. Hukumatni parlament saylovlarida eng ko'p o'rin egallagan partiya tuzadi. Davlatning amaldagi rahbari hukumat boshlig'i – Bosh vazir bo'lib, u qoidaga ko'ra saylovlarda g'olib chiqqan partiya yo'lboshchisi hisoblanadi.

Parlament davlat hokimiyati organlari tizimida eng muhimidir. Hukumat o'z vazifalarini qonun chiqaruvchilarning aksariyati qo'llab-quvvatlasagina bajarishi mumkin, bunday ishonchdan mahrum bo'lgan taqdirda, u iste'foga chiqadi.

Parlamentar respublikalarda prezidentlik lavozimi ko'zda tutilgan bo'lsada, odatda, u katta mavqega ega bo'lmaydi. Ushbu boshqaruv shaklida «kuchli parlament» qoidasi amalda bo'lib, parlament keng doiradagi vakolatlarga ega bo'ladi. Jumladan, Germaniya, Avstriya, Italiya, Hindiston kabi davlatlar parlamentar respublika shaklidagi davlatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, jahon tajribasida respublikaning aralash shakli ham uchrab turadi. *Aralash (prezidentlik-parlamentar) respublika* boshqaruv shakli noan'anaviy monarxiya shakli singari boshqaruv amaliyotida kam uchraydigan turlardan biri bo'lib, yuridik adabiyotlar va huquqshunoslik manbalarida batafsil o'rganilmagan. Aralash respublika shakli mamlakatda bir vaqtning o'zida «kuchli parlament»

va «kuchli prezident» mavjudligi bilan boshqaruvning boshqa shakllaridan ke-skin farq qilib, prezident va parlament vakolatlari o'rtasidagi muvozanatning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Prezident umumxalq ovoz berish yo'li bilan saylanadi. U keng vakolat-larga ega bo'lsa-da, lekin hukumat boshlig'i bo'lmaydi. Prezidentlik lavozimi bilan bir qatorda, keng vakolatlarga ega bo'lgan Bosh vazir mansabi nazarda tutiladi. Hukumatni tuzishda prezident ham, parlament ham faol ishtirok etadi. Hukumat ham parlament oldida (ishonchsizlik votumi), ham prezident oldida mas'uldir.

Aralash respublika shakliga hozir Fransiya va Armaniston davlatlaridagi mavjud boshqaruv shaklini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

3-§. Davlatning tuzilish shakli

Davlat hokimiyatini hududiy nuqtayi nazardan tashkil etish va amalga oshirish – murakkab, ko'p tarkibli hodisa bo'lib, unda davlat tuzilishining muayyan tartibi, davlatning alohida tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanish va o'zaro aloqadorlik munosabatlari nazarda tutiladi. Bu milliy-davlat qurilishi, ma'muriy-hududiy tuzilish, iqtisodiy va maxsus hududlarga ajratishni ham qamrab oladi.

Davlatning tuzilish shakli deganda, muayyan davlatning siyosiy, ma'muriy, hududiy tuzilishi va uning oliy organlari bilan mahalliy organlari o'rtasidagi aloqalar e'tirof etiladi. Davlatning tuzilish shakli ikkiga bo'linadi: **oddiy** (unitar) va **murakkab** (federativ va konfederativ).

Oddiy (unitar) davlat tuzilishida mamlakat ma'muriy-hududiy qismlar-ga (viloyatlar, shtatlar, okruglar, grafliklar, tumanlarga) bo'linib, u yagona oliy organ, yagona boshqaruv organlari tizimiga, faqat bitta umumdavlat konstitutsiyasiga, yagona fuqarolikka, muayyan yaxlit hudud, davlat chega-rasi, yagona armiya, yagona pul birligi va qonunchilik tizimiga ega bo'ladi. Bunda har bir ma'muriy-hududiy birlik davlat tuzilmasi maqomiga ega bo'ladi. Unitar davlatlar (lotincha «unitas» so'zidan olingan bo'lib – «yagona», «bir butun» degan ma'noni anglatadi) oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, to'la siyosiy birlik ekanligi bilan farqlanib turadi.

Unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar, mamlakat tarkibida davlat belgilariga ega alohida hududiy tuzilmalar, ya'ni, «davlat ichidagi dav-latlar» bo'lmaydi. Unitar davlatlar tarkibidagi ma'muriy-hududiy bo'linmalar faqat mahalliy masalalarni hal etish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyati mamlakatning butun hududiga o'z ta'sirini, yurisdiksiyasini tanho o'tkazadi. Barcha ma'muriy hududlar uchun yagona qonunchilik tizimi, moliya-

kredit va soliq siyosati amal qiladi. Unitar davlatlarga Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Fransiya, Italiya, Ukraina kabi oddiy tarkibiy tuzilishga ega davlatlar misol bo'la oladi.

Unitar davlatlarning alohida turi bo'lib, *avtonom hududli unitar davlatlar* hisoblanadi. Ularda yagona hudud tarkibida avtonom tuzilmalar bo'ladi. Avtonom hududli unitar davlatlarga Xitoy (o'z tarkibida bir qator avtonomiyalarga ega – Tibet, Ichki Mo'g'uliston, Gonkong va hokazo), Ispaniya (Basklar viloyati), Daniya (Farer orollari va Grenlandiya) misol bo'ladi.

Federativ davlat (lotincha «foederare» so'zidan olinib, «ittifoq bilan mustahkamlash» ma'nosini anglatadi) murakkab davlat demakdir. Federativ davlat – teng huquqli respublikalar, shtatlar, kontonlar va boshqa davlat tuzilmalarining ixtiyoriy birlashuvi asosida tashkil topadi.

Tarixda yirik davlatlar vujudga keliishining ikki yo'li bo'lgan. Har ikki yo'l bir necha yoki ko'pchilik alohida davlatlarning birlashuvidan boshlanadi. Birinchi yo'l muayyan iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy maqsadlarga erishish maqsadida shartnomaviy birlashuv (federatsiya yo'li); ikkinchisi – unitar davlatga iqtisodiy va madaniy chatishib ketadigan siyosiy qo'shilish yo'li. Federatsiya tushunchasi haqida ko'pchilikning tasavvuri va tushunchasi noxolis yoki mavhum bo'lib, ayrimlarning fikricha, federatsiyaga birlashish go'yoki, federatsiya tarkibidagi mavqeyi yuqori bo'lgan davlatga qaram bo'lib qolishni nazarda tutadi. Aslida, federatsiya turli tarixiy davrlarda bir necha kichik davlatlarning tashqi xavfdan mudofaalanish maqsadida birlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari bir necha mustaqil shtatlarning 1775-yilda Angliya mustamlakasiga qarshi kurashishda strategik maqsadlarda yagona federatsiyaga birlashganligi asosida tashkil topgan. Federativ davlatlar yer yuzida kecha yoki bugun paydo bo'lgan yangi davlat tuzilmasi bo'lmay, balki uning vujudga kelish tarixi XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlariga borib taqaladi. AQSh, Kanada, Meksika, Germaniya davlatlari shular jumlasidandir.

Davlatlarning yagona federatsiya tarkibiga birlashuvi ayrim hollarda ularning bitta davlat tarkibiga singib ketishi natijasi, davlatning tuzilishi shakli dastavval federatsiya bo'lsa, keyinchalik unitar siyosiy shaklga aylanib ketishi hollari uchrab turadi.

Fransiya misolida ko'radigan bo'lsak, mazkur davlat tarixda bir necha ma'muriy-hududiy birliklardan iborat bo'lgan alohida kichik mustaqil davlatlar, jumladan, bir qirollik, bir kurf-yuretlik, 26 gersoglik, 6 knyazlik, bir markgraflik, 77 graflik, 19 vitsegraflik, 14 mulk, bir markizlik, bir «kaptalat» va 13 vaqf yerlaridan tashkil topgan edi. Ular dastlab federatsiya tarkibiga birlashdilar, keyinchalik bu kichik davlatlarning barchasi yagona Fransiya davlati sifatida birlashib, o'zida unitar siyosiy shaklni tashkil etdi.

Federativ davlat tuzishning o'ziga xos asoslari bo'lib, ularning inkor etilishi kelajakda bu kabi tuzilmaning barham topishiga olib kelishi mumkin: *birinchidan*, federatsiya tashkil etilishi uchun ikki yoki undan ortiq davlatlarning bo'lishi talab etiladi; *ikkinchidan*, davlatlar nisbatan uncha katta bo'lmagan shaklda tuzilgan bo'lishi lozim, chunki federatsiyani markazdan turib boshqarish imkoniyati va unga qulaylik yaratilishi talab etiladi. Agar federatsiya tarkibida juda ko'p davlatlar birlashtirilsa, bunday federatsiya samarasiz bo'lib qolishi mumkin; *uchinchidan*, shartlashayotgan davlatlar bir-biriga haqiqatan ham strategik, ham xo'jalik, ham siyosiy jihatdan aniq ehtiyoj sezishi lozim. Aslida ham federatsiyaning yuzaga kelishida davlatlarning o'zaro tabiiy ehtiyoji asosiy o'rin egallaydi. Ehtiyojsiz birlashuv esa, o'z navbatida, zo'rvonlik, bosqinchilik, qolaversa, buyuk davlatchilik shovinizmiga xos xususiyatdir; *to'rtinchidan*, xalqda o'z burchini anglash hissi tarbiyalangan, majburiyatlar va shartnomalarga xolis va sadoqat bilan qarash, o'z sha'ni va qadr-qimmatini bilish, davlat sifatida o'zini o'zi boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan xalqlar bor joydagina federatsiya tuzish maqsadga muvofiqdir. Federatsiyada hokimiyat idoralarining ikki tizimi amal qiladi: federal darajada va federatsiya subyektlari darajasida. Federativ davlat o'z tarkibiga kiruvchi subyektlarining qonun chiqaruvchi organlari, hukumati, alohida sud organlari kabi qator davlat tuzilmalarining itifoqidan iborat bo'ladi.

Federativ davlatning belgilari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, uning hududi subyektlar hududi yig'indisidan iborat bo'ladi. *Ikkinchidan*, oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federatsiya va subyektlar miqyosida ikki pog'onali bo'ladi. Federatsiya va uning subyektlarining vakolatlari federatsiya konstitutsiyasida belgilab qo'yiladi. *Uchinchidan*, ikki fuqarolik mavjud bo'lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o'zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya subyekti fuqarosi ekanligini bildiradi. *To'rtinchidan*, federatsiyaning oliy qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasi ikki palatali tuzilishga ega: quyi palata butun mamlakatning manfaatini, yuqori palata federatsiya subyektlari manfaatlarini ifoda etadi. *Beshinchidan*, markaziy hukumatga bo'ysunuvchi yagona qurolli kuchlar, politsiya, xavfsizlik xizmatlari, bojxona tizimi mavjud bo'ladi. *Oltinchidan*, federatsiyaning subyektlari davlat belgilariga – o'z konstitutsiyasiga, oliy davlat hokimiyat organlariga (subyekt boshlig'i, parlament, hukumat), o'z ramzlariga ega bo'ladi.

Federatsiya tarkibiga kiruvchi davlatlar ixtiyoriy ravishda birlashib markazlashgan davlatni tashkil qiladi. Federatsiyada barcha a'zo subyektlar nomidan markaziy idoralar ish olib boradi va uning manfaatlarini ifoda etadi.

Federatsiyaning bir-biridan farqlovchi uch turi mavjud: **hududiy, milliy** va **milliy-hududiy federatsiya**.

Hududiy federatsiya mamlakatni hududiy belgisi bo'yicha taqsimlash prinsipiga asoslangan. Bu qoidaga ko'ra, hududi juda katta bo'lgan davlatlarda, boshqaruvni osonlashtirish maqsadida federatsiya tuziladi. Federatsiyaning ushbu turini tashkil etuvchi davlat tuzilmalari suveren bo'lmaydi. Subyektlar xalqaro munosabatlarda bevosita ishtirok etish huquqidan konstitutsiya bilan mahrum etilgan bo'lib, ularning ittifoqdan bir tomonlama chiqishi taqiqlangan. Qurolli kuchlarni ittifoq idorasi boshqaradi. AQSh, Braziliya, Meksika hududiy federatsiyalarga misol bo'ladi.

Milliy federatsiyalarda subyektlar, ularda yashovchi millatlar mustaqilligi asosida tuziladi. Qoidaga ko'ra, milliy federatsiya mustahkam tuzilma bo'lib hisoblanadi. Milliy federatsiyaning asosiy xususiyati ko'ra, federatsiya subyektlari – milliy davlatlar va milliy davlat tuzilmalaridan iborat bo'lib, ular asosan subyektlarning ixtiyoriylik prinsipiga muvofiq birlashadilar. Katta va kichik millatlar suvereniteti kafolatlanadi hamda oliy davlat idoralari federatsiya subyektlarining vakillaridan tashkil etiladi. Mazkur federatsiyaga birlashgan barcha millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ladilar. Sobiq Yugoslaviya Ittifoq Respublikasi (Serbiya va Chernogoriyaning ittifoqi edi), Chexoslovakiya (1993-yilda Chexiya va Slovakiyaga ajralib ketgan) ittifoqlari milliy federatsiyalarga misol bo'ladi oladi.

Milliy-hududiy federatsiyalar federatsiyalarning alohida turi hisoblanib, ittifoqni shakllantirish asosida ham milliy, ham hududiy prinsip yotadi. Milliy-hududiy federatsiyalarga: Rossiya Federatsiyasi (72 subyekt, ularda yashovchi millatlar, xususan, subyektda ko'pchilikni tashkil etmaydigan millatlar asosida tashkil topgan hamda asosan rus aholisi istiqomat qiladigan 57 subyekt – hududiy tuzilmadan iborat); Germaniya (aholisi, o'tmishda nemis millatiga yaqin bo'lgan aholidan iborat 16 hududiy tuzilma – yerlardan iborat).

Davlat tuzilish shaklining yana bir turi – bu konfederatsiyadir.

Konfederatsiya bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, mudofaa masalalari bo'yicha tuzgan ittifoqidir. Konfederatsiyada yagona davlat hududi, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Konfederatsiya bu to'la mustaqil davlatlarning ayrim sohalar bo'yicha tuzadigan ko'ngilli ittifoqidir. Konfederatsiya davlat tuzilish shakli hisoblanib, u shartnoma yoki bitim asosida tuziladi hamda muvaqqat xarakterga ega bo'ladi. Ular keyinchalik asosiy maqsadga erishganidan so'ng tarqalib ketishi yoki tuzilgan ittifoqni mustahkamlab federatsiyaga o'tishi, yoxud qo'shilib unitar davlat bo'lib ketishi ham mumkin.

Konfederatsiyaning federatsiyadan farqi shuki, federatsiya alohida davlatlarning yagona davlatga birlashish borasidagi ittifoqi bo'lsa, konfederatsiya mustaqil davlatlarning cheklangan sohalaridagi ittifoqidir, ya'ni konfederatsiya

subyektlari birlashish jarayonida o'z mustaqilligini saqlab qoladi, federatsiya subyektlari esa, o'z suverenitetini federatsiya idoralari ixtiyoriga topshiradilar. Shuningdek, federatsiya qat'iy ravishda konstitutsiya asosida birlashsa, konfederatsiya taraflarning o'zaro kelishuviga binoan shartnoma yoki bitim asosida birlashadi.

Konfederatsiya muvaqqat, beqaror tuzilma. Odatda, u mustaqil davlatlarning federatsiyaga birlashishida yoki federatsiyaning mustaqil davlatlarga bo'linib ketishida oraliq bosqich hisoblanadi. Masalan, Shveysariya 1815–1848-yillarda federatsiyaga birlashdi, Sene Gambiya 1982-yilda Senegal va Gambiyani birlashtirishga urinishdan so'ng 1989-yilda mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. Konfederatsiyani tashkil etgan davlatlar o'rtasidagi munosabatning kuchsizligi uning barqaror emasligidan dalolat beradi. Uning tarkibiy qismlarida davlat suvereniteti va boshqa davlatchilik belgilari – mustaqil armiya, fuqarolik, qonunchilik, sudlov organlari tizimiga egaligi kabilarda namoyon bo'ladi.

Konfederatsiyada yagona umumiy oliy davlat hokimiyati organlari yo'q yoki ular bo'lgan taqdirda ham nomigagina vakolatlarga ega. Konfederatsiya tarkibidan xohlagan subyekt, istagan vaqtda erkin chiqib ketish huquqiga ega.

Konfederatsiyaning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

1) konfederatsiya muayyan maqsadga erishish uchun birlashgan mustaqil davlatlarning ittifoqi;

2) barqaror bo'lmagan siyosiy tuzilma;

3) yagona hududning bo'lmasligi;

4) yagona fuqarolikning o'rnatilmasligi;

5) konfederatsiya subyektlari undan erkin chiqib ketishi mumkinligi;

6) konfederatsiya subyektlarining qonunchilik hujjatlarini qo'llamaslik huquqiga egaligi;

7) konfederatsiya vakolatiga cheklangan doiradagi masalalarni hal etish kirishi;

8) konfederatsiya budjeti uning a'zolari ixtiyoriy badallaridan tashkil topishi.

Hozirgi vaqtda Yevropaning 28 ta davlatini birlashtirgan Yevropa ittifoqi davlatlarining hamdo'stligi konfederatsiyasi mavjud. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi konfederatsiya emas. 2016-yil iyunida Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqidan chiqish to'g'risida referendum o'tkazdi. Bunda Angliya aholisining qariyb 60 foizga yaqini Yevroittifoqni tark etish g'oyasini yoqlab ovoz berdi. «Breksit» – Ittifoqni tark etish, undan chiqish protsedurasi ikki yilga cho'zilishi, London bilan Bryussel o'rtasida uzoq muzokaralar bo'lishi hozirgacha ta'kidlanmoqda. Yevroittifoqning boshqa a'zo-davlatlari orasida ham Buyuk Britaniyadan ibrat olishni o'ylayotganlari bor. Chamasi, Yevropa Ittifoqi jiddiy islohotlarga muhtoj bo'lib qoldi.

4-§. Siyosiy rejim

Davlat shaklining asosiy elementlaridan biri siyosiy rejim (tartib)dir. Yurisprudensiyada siyosiy rejim iborasi «siyosiy tartib», «davlat rejimi» yoki «davlat tartibi» kabi shaklan har xil, ammo mazmunan bir xil bo'lgan tushunchalar bilan ifodalanadi. «*Siyosiy rejim*» tushunchasi yuridik adabiyotda XX asrning 60-yillarida yuzaga kelgan bo'lib, olimlar o'rtasidagi turli xil tortishuv, bahs va munozaralarga sabab bo'ldi. Bir guruh olimlar siyosiy rejim davlat shaklining sinonimi deb e'tirof etsalar, ikkinchi guruh olimlar esa uni davlat shakli tarkibiga kirmaydi, deb ta'kidlaganlar.

«*Siyosiy rejim*» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi yondashuvda siyosiy rejim barcha siyosiy hayot, umuman jamiyat siyosiy tizimi hodisalarining namoyon bo'lishi va tartibi tushuniladi. Tor ma'nodagi yondashuvda esa, siyosiy rejim faqat davlat hayoti, davlat hokimiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq hodisalar va usullarning namoyon bo'lishi tarzida talqin etiladi.

Siyosiy rejim – davlat hokimiyatini amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullar yig'indisi. Davlat hokimiyati har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatga ega, shu bois siyosiy rejim ham turlicha qaror topadi va namoyon bo'ladi. Muayyan davlatning siyosiy rejimi mohiyati va mazmuni o'ziga xos mezonlar, ya'ni, davlat hokimiyatining aholi bilan munosabati qaysi yo'llar va qanday usullar orqali amalga oshirilishi, siyosiy sohada turli kuchlarning o'zaro munosabatlari, jamoat tashkilotlarining jamiyat siyosiy tizimidagi mavqei qay darajadali bilan belgilanadi. Shuningdek, davlat o'z hokimiyatini amalga oshirish jarayonida aholining manfatlari uchun xizmat qilishiga qarab siyosiy rejim *nodemokratik* va *demokratik* turlarga bo'linadi.

Nodemokratik rejim yuridik fanda g'ayridemokratik, aksildemokratik va antidemokratik kabi iboralar tarzida qo'llaniladi. Demokratik rejimdan farqli o'laroq, nodemokratik rejim demokratiyaga xos prinsip va qoidalarni tan olmaydi, aksincha ularni inkor etadi.

Davlatning siyosiy rejimi tarkibida nodemokratik rejimning o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, ular *totalitar*, *fashistik* va *avtokratik* shakllarda namoyon bo'ladi.

Totalitar rejim usuliga fashistik davlatlar va «shaxsga sig'inish» davridagi sotsialistik davlat misol bo'ladi. Ushbu rejim ko'ppartiyaviylik tizimini rad etgan holda, faqat bir hukmron partiyaning mavjudligiga yo'l qo'yadi va mazkur partiya jamiyatning yetakchi kuchi deb e'lon qilinadi, uning qoidalari muqaddas aqidalardek qabul qilinadi. Hukmron partiya davlat boshqaruvini jilovlab turadi hamda partiya va davlat organlarining o'zaro qo'shilib ketishi sodir bo'ladi. Siyosiy hukmron partiya rahbari siyosiy lider bo'lib, u davlat

boshlig'i hisoblanadi. Mamlakatda siyosiy plyuralizmga yo'l qo'yilmay, yagona rasmiy mafkura o'rnatiladi. Davlatda eng dono, «xalq otasi» boshchilik qiladi va u buyuk dohiy deb e'tirof etiladi.

Totalitar davlat boshqaruvida idora etish tartibi o'ta markazlashgan bo'ladi. Barcha fuqarolar yuqoridan keladigan buyruqlarga og'ishmay amal qiladilar. Har qanday tashabbus taqiqlanadi. Shaxs siyosiy hayotda deyarli ishtirok etmaydi va odamlar hayoti qattiq nazoratga olingan bo'ladi.

Fashistik idora usuli totalitar rejimning avj olgan shakllaridan biri bo'lib, u millatchilik mafkurasi bir millatning boshqalardan afzalligi to'g'risidagi tasavvurlarga tayanadi. Insonlarning huquq va majburiyatlari qaysi millatga mansubligiga bog'liq bo'ladi, shuningdek bu rejim amal qiladigan davlatlarda senzlar asosan shaxsning millati va irqiga qarab belgilanadi. Ushbu rejim odamlar qonun va sud oldida teng bo'lishi mumkin emas degan aqidaga tayanadi, faqat bir millatni oliy irqqa mansub deb e'lon qiladi va u barcha imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin, deb hisoblanadi. Bunday hollarda inson va uning shaxsiga nisbatan agressiv kayfiyat hukmron bo'ladi. Jamiyatda uzluksiz ravishda ijtimoiy ixtiloflar, ommaning qashshoqlashuvi yuz beradi.

Avtokratik siyosiy rejim jamoaviy avtokratiya va yakka shaxs avtokratiyasi ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Jamoaviy avtokratiya o'z navbatida, *aristokratiya* va *oligarxiyaga* bo'linadi.

Aristokratik rejimda hokimiyat aholining muayyan qismini tashkil etgan zadogonlar qo'lida to'planib, xalq davlat boshqaruviga jalb etilmaydi. Aristokratiyaning eng muhim xususiyati shundaki, insonning jamiyatdagi mavqei uning ijtimoiy kelib chiqishi bilan belgilanadi.

Oligarxiya rejimida aristokratik rejimdan farqli ravishda hokimiyatga egalik qilish insonlarning mulk senziga qarab belgilanadi, hokimiyat aholining mulkdor tabaqasi tomonidan egallanadi. Bunda ham aristokratik rejimdagi singari oddiy xalq davlat boshqaruviga jalb etilmaydi. Oligarxiyaning o'ziga xosligi shundaki, insonning jamiyatdagi mavqei uning boyligi bilan belgilanadi.

Nodemokratik siyosiy rejim jamoa avtokratiyasidan farqli ravishda ***yakka shaxs avtokratiyasi*** ko'rinishi bo'lib, u ham o'z navbatida, *avtoritar, tiraniya* va *despotiya* kabi turlarga bo'linadi.

Avtoritar siyosiy rejim mamlakatda fuqarolarning huquq va erkinliklarining cheklanganligi, bekor qilinganligi yoki umuman yo'qligi bilan ajralib turadi. Bu kabi siyosiy rejimga asoslangan davlatlarda davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati cheklangan, tugatilgan yoki umuman taqiqlangan bo'ladi hamda davlat hokimiyati ustidan xalq nazoratining yo'qligi, ularning yashirin usullar bilan shakllantirilishi namoyon bo'ladi.

Avtoritar siyosiy rejimning o'ziga xos xususiyati shundaki, butun hokimiyat yagona shaxs (bir organ yoki bir necha shaxs) qo'lida to'planib, davlat hokimiyatini amalga oshirishda ma'muriy-buyruqbozlik, ba'zan terrorchilik (o'zboshimchalik, zo'ravonlik) usullari qo'llaniladi hamda taraqqiyparvar siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari faoliyati taqiqlanadi, cheklanadi yoki tarqatib yuboriladi.

Ushbu rejimda siyosiy monizm – ya'ni yakka mafkuraning ustunligi, uning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilganligi, fuqarolik jamiyatining mavjud emasligi, uning institutlarining cheklanganligi, ijtimoiy manfaatlarni ifodalash imkoniyatlarining taqiqlanganligi avj oladi.

Tiraniya rejimi yakka shaxs boshqaruviga asoslangan. Buning despotiyadan farqi shundaki, tiranning hokimiyati, odatda, zo'ravonlik, bosib olish, ba'zan qonuniy hokimiyatni ag'darib tashlash natijasida qaror topadi. Tiran hokimiyati o'zboshimchalik, terror va genotsid asosida amalga oshirilib, demokratik tamoyillar tan olinmaydi, mamlakatda amalda bo'lgan qonunlarga rioya qilinmay, ularni muntazam ravishda buzish hollari yuz beradi. Tiran hokimiyati shafqatsiz bo'ladi hamda qo'rquvga asoslanadi. Ushbu hokimiyatning yo'lga g'ov bo'lgan guruh yoki jamoa shafqatsiz ravishda bostiriladi.

Despotiya (yunoncha «despoteia» – cheklanmagan hokimiyat) **rejimi** hokimiyatning faqat bir kishi tomonidan boshqariladigan mutlaq monarxiyaga xosligini anglatadi. Despotiyalar qadim zamonlarda paydo bo'lib, boshqaruvda o'ta o'zboshimchalik, raiyatning to'la huquqsizligi, boshqaruvda huquqiy va axloqiy qadriyatlarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Despotiya sharoitida mustaqillik, norozilik mumkin bo'lmay, bunday hodisalar xuddi tiraniyadagi singari ayovsiz bostiriladi.

Bunday holatlarda ishlatiladigan chora-tadbirlar o'ta ayovsiz va shafqatsiz bo'lib, jazolash dahshatli tus oladi. Buning sababi xalqni qo'rquvda saqlash hamda o'rnatilgan hokimiyatning barqarorligini ushlab turishda namoyon bo'ladi.

Demokratik siyosiy rejim. Demokratiya (yunoncha demokratia «demos – xalq, kratos – hokimiyat» – «xalq hokimiyati») siyosiy rejimi barcha insonlarning tengligi va erkinligini tan olishga, aholini turli jamoat tashkilotlariga birlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini xalq ishtirokida saylash, davlat hokimiyatining taqsimlanishi va xalqning davlatni boshqarishda ishtirok etishiga asoslanganligida aks etadi. Demokratik davlat o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini rasmiy ravishda konstitutsiya va qonunlarda e'lon qiladi, ayni paytda, ularning iqtisodiy zaminini ta'minlaydi hamda kafolatlaydi. Demokratik tartib ikki shaklda amalga oshiriladi: *vakillik demokratiyasi* va *bevosita demokratiya*.

Vakillik demokratiyasida xalq o'zi saylagan deputatlari orqali davlat ahamiyatiga molik iqtisodiy, siyosiy va huquqiy masalalarni muhokama qilish, hal etish haqida qaror qabul qilish va davlatni idora etishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bevosita demokratiyada davlatni idora etishda xalqning bevosita ishtiroki ta'minlanadi, ya'ni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni hal etishda umumxalq ovozigacha qo'yish (referendum) ni amalga oshirish mumkin.

Demokratik siyosiy rejimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanganligi;
- davlat hokimiyatining birdan-bir manbaya xalq ekanligi;
- vakillik hokimiyat organlarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi;
- siyosiy qarorlar qabul qilinishi ustidan xalq nazoratining o'rnatilganligi;
- hokimiyat vakolatlarining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud o'rtasida taqsimlanganligi;
- davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga qonunsiz aralasha olmasligi;
- huquqni muhofaza etuvchi organlar faoliyatining qonunga to'la asoslanganligi;
- jamoat birlashmalari tizimining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavjudligi;
- siyosiy partiyalarning muxolifatda bo'lish erkinligi ta'minlanganligi;
- siyosiy plyuralizmning qaror topganligi – turli ijtimoiy guruhlar o'z manfaat (fikir) larini erkin ifodalash imkoniyatiga egaligi;
- fuqarolik jamiyatining shakllanganligi.

Demokratik siyosiy rejim doirasida *liberal* yoki *liberal-demokratik* rejim turlari farqlanadi. *Liberal rejimda* davlat hokimiyati saylovlar yo'li bilan shakllantiriladi, hokimiyatning taqsimlanishi amal qiladi hamda shaxs bilan davlat o'rtasidagi nisbatda ustuvorlik shaxs tomonida bo'ladi. Liberal rejimning o'ziga xos xususiyati shundaki, inson o'z mulki, huquq va erkinliklariga ega bo'ladi, iqtisodiy jihatdan mustaqil, siyosiy erkin harakat qiladi hamda so'z, fikr almashish va mulk shakllari erkinligi e'lon qilinadi.

Liberal-demokratik rejimda barcha odamlarning tengligi va ozodligi e'tirof etilib, davlatni boshqarishda xalqning keng ishtiroki ta'minlanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining iqtisodiy asoslari kafolatlanadi. Shuningdek, jamiyat ishlarini boshqarish va huquqiy normalarni yaratishda xalq yalpi ravishda ishtirok etadi hamda ijro organlari ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, davlatni boshqarishda prezidentlik instituti joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi boshqaruv shakli bo'yicha *prezidentlik respublikasi* shaklidagi davlat, tuzilish shakli bo'yicha oddiy – unitar davlatdir, siyosiy rejimiga ko'ra, demokratik tar-

tibdagi davlat. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab hozirgi kunga qadar o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning: «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasida ham ko'rsatib o'tilgan. Bu risolada yosh, suveren davlat rivojlanishining besh tamoyili belgilab berilgan: – iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat – bosh islohotchi ekanligi, qonun ustuvorligi, islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi. Unga ko'ra, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lida umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash, inson huquq va erkinliklari ustuvorligini tan olish asosida xalqaro va milliy davlatchilik tajribalariga asoslanib, kelgusida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etadi.

1991-yilning 31-avgust kuni o'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi amalga oshdi – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Respublika barcha ko'pmillatli aholisining xohish-idorasi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida» gi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlandi hamda umumxalq referendumida o'zining yakdil tasdig'ini topdi. Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan mamlakatda darhol demokratik huquqiy davlat asoslari vujudga keltirila boshladi. Respublikada hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov hokimiyatlariga bo'linishi tamoyili amal qilmoqda. Ikki palatali parlamentning qaror topishi (2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar) davlatchiligimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining huquqiy asosini vujudga keltirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Bularning hammasi qonun chiqarish ishini yanada faol yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Davlat boshqaruvining yangi tizimi shakllandi. Boshqaruvning prezidentlik respublikasi shakli bu tizimning o'zagi bo'ldi. Joylardagi boshqaruv tizimida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik lavozimlari joriy etildi. Qonun ustuvorligini, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlovchi sud hokimiyatini qayta tashkil etish va vakolatlarini yanada kengaytirish ishlari faol olib borilmoqda.

«Siyosiy rejim» barcha siyosiy institutlar, jumladan davlat, siyosiy partiya, saylanadigan birlashmalar, ommaviy ijtimoiy tashkilot va boshqalarning amaldagi faoliyatini ifoda etadi. Siyosiy yoki davlat rejimlarini o'rganish davlat nazariyasi fanining vazifasidir. Davlat nazariyasida «davlat rejimi» tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ibora davlat nazariyasida davlat faoliyatining usullarini, metodlarini tavsiflash uchun foydalaniladi. Bu esa, o'z

navbatida, davlat hokimiyati muayyan jarayonlarda qanday amalga oshirilayotganini ta'riflashga imkon yaratadi.

Davlat rejimi davlat shakllarining boshqa elementlaridan farq qiladi va o'ziga xos siyosiy-huquqiy kategoriya hisoblanadi. U davlat hokimiyatini amalga oshirishning real mexanizmi sifatida hokimiyat tarmoqlari munosabatlari-dagi yuridik prinsiplarni emas, balki ularning haqiqiy holatini, avvalo, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi mavjud real munosabatlarni ochib beradi.

Yuqorida qay etilganidek, «davlat rejimi» va «siyosiy rejim» kategoriyalari o'zaro uzviy bog'liq. Siyosiy rejim amalda davlat rejimi mazmuni va tabiatini oldindan belgilaydi. Shuning uchun demokratik va avtoritar siyosiy rejimlarning har biri o'ziga mos davlat rejimiga ega bo'ladi. Davlat rejimining demokratligi yoki avtoritarligi darajasi to'g'risida quyidagilarga asoslanib, xulosa chiqarish mumkin:

birinchidan, davlat faoliyatidagi huquqiy va nohuquqiy metodlar, vosita va usullar nisbatan muayyan davlatning huquqiy yoki huquqiy emasligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi (demokratik davlat doimo huquqiy bo'ladi);

ikkinchidan, davlat hokimiyati organlari faoliyatida xalq suvereniteti prinsipining amalda joriy etilganlik darajasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

Demokratik davlat rejimi sharoitida davlat organlari huquqiylik va qonuniylik prinsiplariga og'ishmay amal qiladi, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qiladi, jamiyatda siyosiy erkinliklarning yuksak darajasi ta'minlanadi. Avtoritar davlat rejimi sharoitida esa, kuchga tayanuvchi boshqaruv metodlari, asosiy huquq va erkinliklarning qisman yoki to'liq tugatilganligi, xalqning jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishdan chetlatilganligi kuzatiladi.

Demokratik davlat rejimiga xos asosiy xususiyat shundaki, davlat faoliyatining asosidagi siyosiy irodaning shakllanishi «quyidan yuqoriga» qarab yo'naladi. Ya'ni, individ va shaxslardan davlat institutlariga qarab «o'sib keluvchi» iroda siyosiy qarorga aylanadi. Shu tariqa demokratik siyosiy rejim xalqning davlat boshqaruvida keng va doimiy ishtirokini ta'minlaydi.

Demokratik davlat rejimining yana quyidagi belgilarini ta'kidlash mumkin:


birinchidan – davlat hokimiyatining qurilishi va uning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'lingan holda amal qilishi;

ikkinchidan – vakillik muassasalarining hal qiluvchi rolining ta'minlanishi. Ularning umumiy saylovlar orqali shakllantirilishi va davlat hokimiyatini amalga oshirishi uchun real vakolatlarga ega bo'lishi, davlat apparati faoliyatida konstitutsionalizm prinsiplari va Konstitutsiyaning us-

tuvorligiga rioya qilishning tan olinganligi hamda ularga sobitqadamlilik bilan rioya etilishi.

Demokratik davlat rejimi boshqaruvining turli shakllari: prezidentlik yoki parlament respublikalari, shuningdek parlament monarxiyalarida ham uchraydi. Masalan, boshqaruvning turli shakllariga egaligiga qaramay GFR va Italiyada (parlament respublikalari), Meksika va Argentinada (prezidentlik respublikalari), Ispaniya va Yaponiyada (parlament monarxiyalari) demokratik davlat rejimi amal qiladi.

Shunday qilib, davlatlarning boshqaruvi, tuzilishi va siyosiy rejimiga ko'ra shakllari nihoyatda turli-tumandir. Bunga ko'pgina omillar sabab. Avvalo, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va boshqa omillar ta'sir etadi. Qolaversa, demokratik, milliy, diniy va boshqa an'analar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.



V bob. DAVLATNING FUNKSIYALARI

1-§. Davlatning funksiyalari tushunchasi, mazmuni va belgilari

Davlatning tabiati va ijtimoiy-tarixiy missiyasi (ijtimoiy vazifasi) uning funksiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Davlatni o'rganishga funksional yondashuv, ya'ni uni dinamik (harakatlanishdagi, faoliyat ko'rsatishdagi) vaziyatda tavsiflashni anglat-

di. Davlatni funksional tahlil etish, *birinchidan*, davlat tushunchasini chuqurroq mushohadalashga ko'maklashadi; *ikkinchidan*, davlat faoliyatining mazmunini, aniq tarixiy vaziyatda harakatlanish mexanizmini ilmiy izohlash imkonini beradi; *uchinchidan*, davlat boshqaruvini oqilona amalga oshirish uchun davlatning tashkiliy strukturasi takomillashtirishga xizmat qiladi. Davlat faoliyatining turli tomonlarini tavsiflash, tushuntirish va bashorat qilish uchun «*davlat funksiyalari*» kategoriyasidan, davlatning siyosiy tizim instituti sifatida qanday faoliyatni amalga oshirishiga beriladigan tavsifdan foydalaniladi.

«*Davlat funksiyalari*» atamasi davlatning ijtimoiy vazifalari namoyon bo'ladigan faoliyatining asosiy, eng muhim yo'nalishlarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bunday faoliyat yo'nalishlarining eng asosiy maqsadi jamiyatning barqaror turmush tarzini ta'minlashdan iboratdir. Davlat funksiyalarida davlatning mohiyati, ijtimoiy rivojlanishi va, eng avvalo, mamlakat aholisining turli-tuman manfaatlarini qondirish bilan bog'liq asosiy masalalarni hal etishdagi aniq roli o'z ifodasini topadi.

Huquqshunos olimlar V.M. Korelskiy va V.D. Perevalov «davlat funksiyasi – davlatning asosiy harakat yo'nalishi va undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar»dir¹, – deb ta'riflansa, N.I. Matuzov va A.V. Malkolar «davlat funksiyalari – davlatning tashqi va ichki faoliyatiga xos asosiy yo'nalishlar bo'lib, ushbu yo'nalishlar davlatning sinfiy va umuminsoniy mohiyati asosida o'z aksini topadi va muayyanlashadi»², deb qayd etadilar. Z.M. Islamov davlat funksiyalari – faoliyat yo'nalishi, biroq hech qachon faoliyatining o'zi emas,

¹ Теория государства и права // Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова – М.: Инфра-Н – норма, 2001 – 146-бет.

² Матузов Н.И., Малько А.В. Теория государства и права. Учебник. – М.: Юристов, 2004. – 48–66-бетлар.

deb ta'kidlaydi¹. Biroq, oxirgi mulohaza nazariy jihatdan bahslidir. Shunday qilib, yuridik adabiyotlarda «davlat funksiyasi» tushunchasiga oid yagona bir fikr hozirga shakllangani yo'q. Ammo tadqiqotchilarning barchasi davlat funksiyasi davlatning mohiyati, ijtimoiy maqsadi, vazifalarini belgilab beradi, degan fikrda yakdildirlar.

Davlat funksiyalari taraqqiyotning u yoki bu bosqichida jamiyat oldida turgan asosiy vazifalarga qarab belgilanadi va bu vazifalarni ro'yobga chiqarishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Davlat vazifalarining mazmuni esa, turli xil ichki va tashqi omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masalan, mamlakat iqtisodiy hayotidagi tanglik hodisalari davlatning, uning barcha organlarining kuch-g'ayratini iqtisodiy vazifalarni hal qilishga jalb etishni talab qiladi. Jinoyatchilikning o'sishi esa, davlatni jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularga barham berish yuzasidan o'z vaqtida jiddiy amaliy chora-tadbirlar ko'rishga majbur etadi. Tashqaridan bo'ladigan tajovuz davlat mexanizmini mamlakat aholisini tajovuzni bartaraf etishga tayyorlash uchun safarbar qiladi.

Mamlakatimiz davlat va huquq nazariyasi fani rivojlanishining hozirgi bosqichida davlat faoliyatiga uning funksiyalari nuqtayi nazaridan yondashuv kengaya borib, davlatning ijtimoiy vazifasi va binobarin, zimmasidagi barcha vazifalarini teranroq tushunishga olib kelmoqda. Mustaqillik sharoitida jamiyat hayotida yuzaga kelgan hozirgi yangi shart-sharoitlar davlat funksiyalari mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalaga funksional yondashuv turli xalqlarda davlatning turli ko'rinish va shakllarda yuzaga kelishi, rivojlanishi, almashishi, barham topishi, ya'ni davlatchilik shakllanishi va evolyutsiyasining uzoq tarixiy jarayonini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Ayni davlatchilik tushunchasi jamiyatning davlat bo'lib uyushganligiga, mazkur jamiyat o'zining davlat bilan hamohang tarixiy rivojlanishida bosib o'tadigan turli bosqichlarga, va eng asosiysi, davlat bajaradigan turli funksiyalarga izoh beradi. Boshqacha aytganda, faqatgina statik va dinamik tavsif umumiy holda davlat kabi murakkab ijtimoiy institutning tabiatini chuqur anglashga imkon yaratadi.

Davlat funksiyalari quyidagi umumiy jihatlar bilan ta'riflanadi:

1. Davlat har bir funksiyasining mazmuni bir yo'nalishdagi davlat faoliyatidan tarkib topadi. Davlat faoliyatining o'xshash tomonlari ular qaysi ijtimoiy munosabatlarga daxldor bo'lsa, ana shu munosabatlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda bitta funksiyaga birlashtiriladi.

¹ Исламов З.М. Общество. Государство. Право. (вопросы теории). – Т., 2001. – 223-бет.

2. Muayyan faoliyat uchun maxsus tuzilgan ko'p sonli davlat organlarining (masalan, moliya vazirligi, xalq ta'limi vazirligi, prokuratura organlarining) funksiyalaridan farqli o'laroq, davlat funksiyalari uning faoliyatini butunlay qamrab oladi. Biroq, bu hol muayyan davlat funksiyalarini amalga oshiruvchi ayrim organlarning ahamiyatini kamaytirmaydi, chunki mazkur organlar ba'zida davlatning asosiy vazifalarini hal qilishda yetakchi rol o'ynaydi. Davlat funksiyalarini uning ayrim organlari funksiyalaridan farqlash lozim. Agar davlat funksiyalari u amalga oshiradigan faoliyatning asosiy, ijtimoiy ahamiyatga molik, butun davlat apparatining ishi bo'ysundirilgan yo'nalishlariga javob bersa, ayrim davlat organlarining funksiyalari hamisha ham davlatning ijtimoiy vazifalari va mohiyatini ifoda etavermaydi.

3. Davlat funksiyalari kompleks, umumiy tusga ega. Ularda davlatning ichki va tashqi faoliyatidagi hal qiluvchi, hayotiy muhim yo'nalishlarga qaratilgan sa'y-harakatlari qamrab olinadi.

4. Davlat funksiyalarini maxsus vakolatli organlar yoki turli davlat organlarining tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat faoliyatidan farqlash ham zarur. Masalan, jinoyat ishlarini tergov qilish, bojxona nazoratini amalga oshirish davlat faoliyatining turlari jumlasiga kiradi. Bu faoliyatlar maxsus tashkil etilgan maxsus davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

5. Davlat funksiyalari bu funksiyalarni ro'yobga chiqarishning shakllari va uslublari bilan aynan bir narsa emas. Huquq ijodkorligi, ijroiya-farmoyish berish va huquqni muhofaza qilish faoliyati – hozirgi zamon davlati funksiyalarini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakllari hisoblanadi. Davlat taraqqiyotning u yoki bu bosqichida o'z oldida turgan vazifalarga muvofiq ishontirish, rag'batlantirish yoki majbur etishning turli vositalaridan foydalanishi mumkin. Davlatning aniq funksiyasi esa, davlat hokimiyatini amalga oshirishning mazmuni, shakli va uslublari davlat faoliyatining muayyan yo'nalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Davlat funksiyalari o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra obyektiv xususiyatga ega. Uning har bir funksiyasi jamiyat va davlat o'zaro hamkorligining, munosabatlarining zaruriy, qonuniy hosilasi sifatida maydonga chiqadi. Shu bois u yoki funksiyani bajarish yoki bajarmaslik davlatning ixtiyoriy xohishiga bog'liq emas. Masalan, davlat o'zining huquqni muhofaza etish, huquqiy tartibotni ta'minlash funksiyasini bajarmasa, jamiyat hayotida tartibsizliklar va boshqa salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Bunday nobarqarorliklar ba'zan davlat tanazzuliga ham olib kelishi mumkin. Davlatning obyektiv tabiatli funksiyalari jamiyatning ehtiyojlariga muvofiq bo'lgan taqdirda ular to'la hajm va samara bilan amalga oshishiga umid qilish mumkin.

«Davlat funksiyasi» bilan «davlatning vazifasi» tushunchalarini chalkashtirmaslik lozim, ular bir xil hodisalar emas. Davlat oldida uning turli taraqqiyot bosqichlarida har xil vazifalar turadi. Ushbu vazifalarni hal etish uchun davlat funksiyalari bajariladi. *Vazifa* – bu jamiyat va davlat oldida turgan, o‘z yechimini kutayotgan muammo yoki masala. *Funksiya* esa, davlat faoliyatining yo‘nalishi, ijtimoiy muammolarni hal etish yo‘llaridir. Demak, funksiya hal etiladigan vazifalarga bog‘liq holda paydo bo‘ladigan davlat faoliyatining turidir. Tabiiyki, turli tarixiy vaziyatlarda davlat oldidagi vazifalar o‘zgarib turadi. Shunga ko‘ra, davlatning funksiyalari ham o‘zgarishi mumkin.

Davlatning maqsadi asosiy u intiladigan farovon, yorqin kelajak bo‘lib, uning barcha vazifalari ana shu oliy maqsadni ta‘minlashga yo‘naltiriladi. Maqsad ustuvor bo‘lib, vazifalar uning manfaatiga bo‘ysundiriladi.

Shunday qilib, davlat funksiyasi tushunchasi davlatning tabiatini, uning faoliyati mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Davlatning mexanizmi (apparati) va shakllari uning statik holatini tahlil etish hamda idrok etish imkonini bersa, davlatning funksiyasi uning dinamik holatini tushunishga yo‘l ochadi.

2-§. Davlat funksiyalarini tasniflash

Davlat funksiyalarini o‘rganish, bu sohadagi ilmiy bilimdan amaliyotda foydalanish davlat nazariyasi fani to‘plagan davlat-huquqiy munosabatlarga doir jami materiallarni tartibga solishni taqozo etadi. Buning uchun yuqorida ta‘kidlanganidek, davlat-huquqiy hodisalar hamda jarayonlarni bilishda ilmiy tasniflash uslubidan foydalaniladi. Zero, ushbu uslubdan foydalanilmasa, davlat-huquqiy hodisalar hamda jarayonlarni har tomonlama tartibga solish va taqqoslash mushkul.

Davlat funksiyalarini o‘rganishda ham tasniflash uslubidan samarali foydalaniladi. U yoki bu funksiyalarni muayyan bir turkumga, guruhga kiritish imkonini beruvchi tasniflash mezonlari, ya‘ni belgilari (ularning yig‘indisi) turli xususiyatga ega. Masalan, davlat faoliyatining obyektlari va sohalari, hududiy ko‘lamlari, ijtimoiy munosabatlarga davlat tomonidan ta‘sir ko‘rsatish usuli, vazifalarning mazmuni bir-biridan farq qiladi.

Darhaqiqat, ilmiy va amaliy maqsadlarda davlat funksiyalari turli *mezonlar* bo‘yicha tasniflanishi mumkin. Davlat funksiyalari *amal qilish vaqti* bo‘yicha *doimiy* va *vaqtinchalik* funksiyalarga bo‘linadi. Doimiy funksiyalar davlat amal qilishining barcha bosqichlarida ro‘yobga chiqariladi. Vaqtinchalik funksiyalar ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos shart-sharoitlari bois kelib chiqadi va bunday ehtiyojga o‘rin qolmaganidan keyin barham topadi. Siyosiy yo‘nalish

(ichki va tashqi siyosat) *sohalari* bo'yicha davlat funksiyalari *ichki* va *tashqi* funksiyalarga bo'linadi. Ichki funksiyalar davlatning mamlakat ichidagi faoliyatini, muayyan jamiyat hayotidagi yetakchilik rolini anglatadi. Tashqi funksiyalar esa, mamlakat tashqarisida olib boriladigan faoliyatni anglatadi, unda boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda davlatning roli namoyon bo'ladi. Har qanday davlatning ichki va tashqi funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, chunki, boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlar yo'lini belgilovchi tashqi siyosat ham ko'p jihatdan muayyan davlat amal qilishining ichki shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha davlat funksiyalari *iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy* hamda *ma'naviy sohada* amalga oshiriladigan funksiyalarga bo'linishi mumkin.

Davlat funksiyalarini *asosiy* va *asosiy bo'lmagan* funksiyalarga ajratish lozim, degan fikr ham mavjud. Albatta, bunday ajratish shartli tusga ega bo'ladi, sababi, bu borada aniq mezonlar hali ilmiy tarzda belgilanmagan. Muayyan davlatning har bir funksiyasi shu davlat uchun obyektiv zaruratdir. Davlat faoliyatining barcha turlari teng darajada muhim, biroq bu fikr, turli bosqichlarda birinchi navbatda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish imkoniyatini istisno qilmaydi, albatta. Mana shu ustuvor yo'nalishlar davlatning asosiy faoliyat yo'nalishlariga aylanadi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipini mezonlar jumlasiga kiritish va ushbu prinsip asosida davlat funksiyalarini tasniflash mumkin. Bunda funksiyalar tegishincha *qonun chiqarish (qonun ijodkorligi), boshqaruvo, huquqni muhofaza qilish (shu jumladan, sudlovo)* va *axborot* funksiyalariga bo'linadi. Bunday tasniflashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u davlat hokimiyatini ro'yobga chiqarish jarayonini, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipini ifodalaydi. Bu qonunchilik (vakillik), ijro etish, sud hokimiyati tarmoqlari faoliyati bilan bog'liq rasmiy tasniflashdir. Shunday bo'lsa-da, ushbu tasnifdan ilmiy va amaliy maqsadlarda tez-tez foydalaniladi.

«To'rtinchi hokimiyat» deb ataluvchi ommaviy axborot vositalari faoliyatini ko'rsatuvchi axborot tarqatish vazifasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu funksiya ham o'zining mazmuni, tuzilishi, ta'minlash usullari va vositalariga ega. Ushbu funksiyaning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat: aholini aniq maqsadga yo'naltirilgan axborot bilan ta'minlash, ijtimoiy ongga axborot orqali ta'sir ko'rsatish va axborot uzatishning boshqa usullaridan iborat bo'lib, hokimiyat barcha tarmoqlarining, butun davlatning amal qilishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Umuman olganda, aytish joizki, *davlat funksiyalari* – davlatning yaxlit, siyosiy, institutsional, hududiy jihatdan yagona va ayni vaqtda, differentsiyalashgan faoliyati yo'nalishidir. Shuning uchun davlat nazariyasida

davlat funktsiyalarini ichki va tashqi funktsiyalarga ajratish, ya'ni davlatning jamiyatga (davlatning o'zi ham jamiyatning alohida tashkiloti hisoblanadi) munosabati bo'yicha (ichki funktsiyalar) va davlat shaklida tashkil topgan boshqa jamiyatlarga, boshqa davlatlarga nisbatan munosabati (tashqi funktsiyalar) bo'yicha faoliyatini aniqlash funktsiyalarni taqsimlashning g'oyat keng tarqalgan va e'tirof etilgan usulidir.

3-§. Davlatning ichki funktsiyalari

Davlatning ichki funktsiyalari – uning jamiyat ichki hayotini boshqarish bo'yicha faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Ichki funktsiyalarni tasniflash davlat faoliyatining sohalarini bo'yicha amalga oshiriladi. Boshqaruv shakllari yoki davlat qurilishidan qat'i nazar, har bir davlat bir qator asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, muhofaza va nazorat qilish vazifalarini hal etadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish barcha davlatlarning eng muhim vazifasidir. Davlat faoliyatining mazkur sohalariga muvofiq uning ichki funktsiyalari iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy nazorat, huquqiy tartibotni ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish funktsiyalariga bo'linadi.

1. *Iqtisodiy funktsiya* davlat tomonidan mamlakat iqtisodiyotini eng maqbul sharoitda rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilishi va muvofiqlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida amal qiluvchi huquqiy davlatda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ma'muriy usullar vositasida emas, asosan iqtisodiy uslublarda amalga oshiriladi. Bunday davlat uchun mulkdorning erkinlik va mustaqillik huquqi xos bo'lib, bu huquqlar ijtimoiy boyliklarni, (moddiy ne'matlarni) yaratuvchilarning ham, ularni iste'mol qiluvchilarning ham bir xilda tengligi va mustaqilligini ta'minlaydi.

Davlat tomonidan tartibga solishning ikki asosiy iqtisodiy uslubi mavjud:

1) muayyan va birmuncha qattiq soliq siyosati, bunday siyosat davlatga o'z oldida turgan ijtimoiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish, shuningdek jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarini yanada mutanosib rivojlantirish maqsadida milliy daromadning muayyan qismini qayta taqsimlash imkonini beradi;

2) iqtisodiyotning butun jamiyat uchun eng ko'p foyda ko'riladigan ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish orqali xo'jalik yuritish uchun eng ma'qul shart-sharoitlarni yaratish.

Mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyin O'zbekiston Respublikasida soliq solishning sekin-asta bir modelidan ikkinchisiga o'tildi. 2008-yilning 1-yanvaridan e'tiboran yangi, ancha liberallashtirilgan Soliq kodeksining amalga kiritilganligi fikrimizga dalildir.

Hozirgi zamon demokratik davlatining iqtisodiy faoliyati quyidagi yo'nalishlarga ega:

A. *Butun jamiyat iqtisodiy hayotiga davlatning ta'siri.* Bunday ta'sir davlat tomonidan budjetning shakllantirilishi va budjet sarf-xarajatlari ustidan nazoratning amalga oshirilishi, mamlakat miqyosida iqtisodiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi, sanoat va ilmiy tadqiqot dasturlarining moliyalashtirilishi hamda ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun moddiy boyliklar yaratuvchilarga subsidiyalar berishda o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solinishida davlat hokimiyatining yuqori va mahalliy organlari, shuningdek ixtisoslashtirilgan muassasalar ishtirok etadi.

Mahalliy davlat organlari ham iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ular mahalliy budjet uchun ko'proq mablag' olish maqsadida o'ziga qarashli hududda kapital oqimi va biznesni rivojlantirishni ta'minlaydi. Mahalliy hokimiyat organlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'z hududlariga yangi kompaniyalarni jalb etish orqali infratuzilmani rivojlantiradilar, ishsizlik muammosini hal etadilar. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun soliqlar va mahalliy yig'imlar mexanizmidan foydalaniladi, qurilish uchun yer maydonlari ajratiladi, yangi ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtirish uchun obligatsiyalar chiqariladi. Davlatning iqtisodiy funksiyasi asosan tartibga solish, rag'batlantirish, tavsiyalar berish kabi harakatlardan iboratdir, biroq bu boradagi faoliyat uchun taqsimlash yoki taqiqlash mexanizmlarini ishlab chiqish mutlaqo yotdir.

Davlatning iqtisodiy faoliyati iqtisodiyotning davlat sektorida (davlat korxonalari, muassasalari va idoralarida) bevosita xo'jalik rahbarligining amalga oshirishda ham o'z ifodasini topadi. Bu o'rinda davlatning o'zi ishlab chiqarish vositalarining mulkdori, moddiy boyliklar va xizmatlarni yaratuvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida tarkib topadigan iqtisodiy munosabatlarga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish uslublari mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning umumiy uslublardan jiddiy farq qilmaydi.

B. *Moliyaviy nazorat funksiyasi* ishlab chiqaruvchilarning daromadlari davlat tomonidan aniqlanishi va hisobga olinishida o'z ifodasini topadi. Qonunga binoan bunday daromadlarning muayyan qismi ijtimoiy va boshqa umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun davlat budjetiga soliqlar tarzida yo'naltiriladi. Davlat soliqlarning to'g'ri sarf qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Daromadlar va xarajatlar ustidan oliy darajadagi moliyaviy nazorat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti huzuridagi Hisob palatasi vakolatiga kiradi. Joylarda ushbu vazifalarni mahalliy davlat hokimiyati organlari bajaradilar. Moliya vazirligi bunday nazoratni amalga oshirishda zarur huquqlarga ega.

Moliyaviy nazoratning o'ziga xos funktsiyalari soliq va bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organlar moddiy boyliklarning davlat chegarasidan olib o'tilishi ustidan nazorat qiladilar hamda bojxona yig'implari va bojlarini, shuningdek soliqlar va boshqa umumiy majburiy to'lovlarni undiradilar. Davlat chegarasidan bojxona idoralarining nazorati ostida o'tkaziladigan tovarlar va mol-mulkdan undirilgan pul yig'implari davlat daromadiga o'tkaziladi.

Samarali moliyaviy nazorat davlatga muayyan mablag' to'plash imkonini beradi. Bunday mablag' to'plashdan ko'zlangan maqsad ulardan yana jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanishdir.

2. Davlatning ijtimoiy funksiyasi shaxsning ijtimoiy himoyalanganligi, moddiy boyliklar yaratishda bevosita ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligidan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolari uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Huquqiy davlatda moddiy boyliklarni ta'minlash ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi erkin ekvivalent almashuvdan tashqari ham amalga oshiriladi. Davlatning ijtimoiy siyosati, birinchidan, turli obyektiv sabablarga ko'ra to'laqonli mehnat qila olmaydiganlar (bemorlar, nogironlar, keksalar, talabalar, bolalar) uchun munosib turmush tarzini ta'minlash maqsadida ijtimoiy boyliklarni yaratishga qo'shilgan mehnat ulushidan qat'i nazar uni taqsimlashni taqozo etadi. Ikkinchidan, davlat sog'liqni saqlash, madaniy dam olish, maorif, ta'lim, uy-joy qurilishi, transport va aloqaning benuqson ishlashi uchun zarur mablag'lar ajratadi. Aynan shu orqali davlat fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, dam olish, uy-joyli bo'lish, ta'lim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan huquqlari, ya'ni ijtimoiy huquqlarini lozim darajada ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. Bunday huquqlardan davlatning barcha fuqarolari imkon qadar to'liq hajmda foydalanishlari kerak.

Demokratik davlat iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda qolgan barcha kishilarning aniq ijtimoiy himoya qilinishini kafolatlaydi va mamlakat butun aholisining ijtimoiy ehtiyojlariga ajratiladigan mablag'larni muttasil ko'paytirib boradi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilar erkinlik hamda iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lsalargina, davlat mamlakat aholisiga nisbatan adolatli ijtimoiy siyosat o'tkazishga qodir bo'ladi.

3. Huquqiy tartibotni muhofaza qilish (huquqni muhofaza qilish) funksiyasi – davlatning ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilari davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarni aniq va to'la bajarishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir.

Jamiyat va davlat hayoti adolatli qonunlar negiziga qurilgan huquqiy davlatda shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari har qanday noqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilinadi. Davlatning huquqni muhofaza qilish faoliyati markazida,

birinchi navbatda, shaxsning fuqaro sifatidagi, jamiyat a'zosi sifatidagi, erkin individ sifatidagi shaxsi, shuningdek davlatning o'zi va unga qarashli turli tuzilmalar turadi. Shuning uchun shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilan bir paytda davlat o'zi hamda butun jamiyat manfaatlarini muhofaza qiladi.

Huquqbuzarliklarga qarshi kurash – davlatning huquqni muhofaza qilish faoliyatining muhim tomoni, ammo bu boradagi faoliyatning asosiy yo'nalishi emas. Davlat zimmasiga jamiyat hayotida erkinlik va adolat negizida yaratilgan huquqiy normalar talablariga to'liq javob beradigan tartibni saqlab turish hamda ularni maxsus organlar (sud, prokuratura, ichki ishlar organlari va boshqa shu kabilar) yordamida ta'minlash yuklatilgan. Mamlakatda barqaror huquqiy-tartibotni saqlash – butun davlat, uning jami organlari tizimining vazifasidir. Davlat faoliyatining majburlov tomoni fuqarolar va davlat o'rtasida uyg'un, obyektiv yuzaga kelgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va axloqiy munosabatlar tarkib topgan sari sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Majburlov ma'rifiy taraqqiy etgan jamiyatning huquqiy tartibiga o'z o'rnini bo'shatib beradi.

4. *Tabiatni muhofaza qilish (ekologiya) funksiyasi* – hozirgi kunda har qanday davlatning, umuman, butun jahon hamjamiyatining hayotiy muhim faoliyatidir. Atrof-muhit birgalikda yashash obyekti sifatida o'ziga nisbatan o'ta oqilona hushyor va baodob, sergak munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish maqsadiga qaratilgan qonunlarning keng ko'lami ishlab chiqilgan bo'lib, ularda odamlar va tabiiy muhitdan foydalanish sohasidagi turli tashkilotlarning faoliyati barqaror tartibga solingan (hayvonot dunyosi, atmosfera havosi, tabiiy resurslar va suvni muhofaza qilish to'g'risida qonunlar qabul qilingan). Atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ishlab chiqilib, hozirda amal qilib turgan dasturlarda tabiiy muhit yaxlitligini va muvozanatini buzuvchilarga qarshi faol ta'sir choralari ko'rish, hatto tabiiy muhitni ifloslantiruvchi zararli chiqindi manbalariga to'liq barham berishgacha bo'lgan choralarni qo'llash nazarda tutilgan.

2017-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Unda ta'kidlanganidek, Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirining oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etilsin. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi;

atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash va boshqalar¹.

Mazkur farmon munosabati bilan 2017-yil 27-mayda Konstitutsiyaning 80, 93, 108 va 109-moddalariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qonun qabul qilindi². Qonunda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining maqomi va nomi o'zgarganligi, u bundan buyon Vazirlar Mahkamasiga hisobot berishi munosabati bilan (ilgari ushbu qo'mitaning raisi Senat tomonidan tayinlanar va Senatga hisobot berar edi) ushbu masalalar Senat vakolatidan chiqarilganligi belgilandi.

Qayta tashkil etilgan Davlat qo'mitasi shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni amalga oshirishga oid amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi us-tidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

4-§. Davlatning tashqi funksiyalari

Davlatning tashqi funksiyalari – davlat xalqaro maydonda olib boradigan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Bunday faoliyat boshqa davlatlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish va ularni saqlash hamda ehtimol tutilgan tashqi tajovuzdan mamlakatni mudofaa qilishni ta'minlashdan iborat davlatning tashqi vazifalarini hal etishga qaratilgan. Shunga ko'ra davlatning tashqi funksiyalari: jahon hamjamiyatining *barcha davlatlari bilan*

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 17-son, 287-modda.

² Xalq so'zi, 2017-yil 30-may.

o'zaro manfaatli hamkorlik va tashqi hujumlardan mamlakatni mudofaa qilish kabi ikki asosiy funksiyaga bo'linadi.

Boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish – davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va muayyan davlatning manfaatlarini barcha davlatlarning aniq va umumiy manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi teng huquqli munosabatlar o'rnatish hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan turli xil faoliyatidir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi alohida olingan har bir davlatning va umuman, jahon hamjamiyatining ichki muammolarini yanada samarali hal etish uchun barcha taraqqiy etgan davlatlarning xo'jalik, siyosiy va madaniy hayotini integratsiyalashni, ularning umumiy kuch-g'ayratini birlashtirishni talab qiladi. Bunday hamkorlik integratsiya masalalariga keng va o'zaro manfaatli yondashuvni, birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali nafaqat muayyan mamlakatning, balki hamkorlik barcha ishtirokchilarining manfaatlariga mos keladigan eng oqilona yechimlarni topa bilishni taqozo etadi.

Davlatlararo iqtisodiy hamkorlikda xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperatsiyalash va ixtisoslashtirish, eng yangi texnologiyalarni ayirboshlash, tovar aylanmasini muvofiqlashtirish, kredit-moliya aloqalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni umumiy muvofiqlashtirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy hamkorlik bir-biri bilan hududiy bog'liq bo'lgan davlatlar hamjamiyati doirasida samarali amalga oshiriladi. Bu fikrimizga Yevroosiyo iqtisodiy hamdo'stligini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu hamdo'stlikning maqsadi: iqtisodiy va siyosiy sohalarda har tomonlama hamkorlik, muntazam va bir maromda rivojlanish, turmush darajasini tezroq oshirish, davlatlarning mazkur hamkorligiga kirgan xalqlarning aloqalari yanada jipslashuviga erishishdan iboratdir. Bu davlatlar savdo sohasiga taalluqli barcha cheklovlarga o'zaro barham berish; uchinchi mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilishda umumiy bojxona tarifini kiritish; odamlar, kapital (sarmoya)lar va xizmatlarning erkin harakatlanishiga halal beruvchi barcha to'siqlarni bartaraf etish, transport, energetika va xo'jalik sohasida umumiy siyosat yuritish; raqobatning yagona qoidalarini belgilash va boshqa shu kabilar haqida kelishib olganlar. Hamjamiyat doirasida bir qator kredit uyushmalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular zimmasiga umumiy iqtisodiy va ijtimoiy siyosat tadbirlarini (investitsiya banki, taraqqiyot fondi va boshqalar) moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan.

Iqtisodiy hamkorlik davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar asosida ham amalga oshiriladi. Biroq, bunday hamkorlik faqat mazkur davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari doirasida chegaralanadi.

Davlatlarning siyosat sohasidagi hamkorligi, eng avvalo, tinchlik va urush masalalarida namoyon bo'ladi. Jahon hamjamiyati taraqqiyotining hozirgi darajasi davlatlarga global qurolli to'qnashuvlarni chetlab o'tish imkonini beradi. Davlatlar o'rtasidagi siyosiy hamkorlik davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari – parlamentlararo, hukumatlararo, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari darajasida amalga oshirilmoqda.

1991-yilda paydo bo'lgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) asosan iqtisodiy hamkorlik prinsiplari negiziga qurilgan. Uning doirasida siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida davlatlararo hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti hozirgi davlatlarning siyosiy manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi asosiy xalqaro organdir. Nizolarni, shu jumladan, harbiy nizolarni siyosiy yo'l bilan bartaraf etish masalalari BMTning doimiy organi – Xavfsizlik Kengashining diqqat markazida turadi. Ushbu Kengash xalqaro tinchlikni saqlash va hamkorlikni yo'lga qo'yish, davlatlararo munosabatlarning turli-tuman sohalarida hamkorlikni rivojlantirish borasida keng vakolatlarga ega.

Madaniyat va fan-texnika sohasidagi hamkorlik turli shakllarda hamda turli davlatlararo darajalarda amalga oshiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotida bunday hamkorlik Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan muassasalar (YUNESKO), Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) va boshqalar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Madaniy va fan-texnika hamkorligining muayyan masalalari esa, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar asosida hal etiladi.

Xalqaro va fan-texnika sohasidagi hamkorlik doirasida ilmiy axborot, san'at asarlari, musiqa va sahna madaniyati yutuqlarini ayirboshlash, birgalikda mutaxassislar tayyorlash, fan va madaniyat muammolari bo'yicha turli festivallar, konferensiyalar o'tkazish, olimlar, fan va madaniyat arboblari, sportchilar o'rtasida bevosita aloqalar o'rnatish amalga oshiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik ko'pchilik davlatlarning sayyoramizda mo'tadil ekologik vaziyatni asrab qolish borasidagi say'-harakatlarini birlashtiradi. Ushbu faoliyat barcha masalalarni qamrab olib, insoniyat hayotining davom etishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ekologik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu boradagi ishlar BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari tomonidan ham, mintaqaviy va boshqa davlatlararo organlar tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun davlatlarning kosmonavtika, tibbiyot, biologiya, elektronika sohalarida erishgan eng yangi yutuqlaridan foydalanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi – Shanxay Hamkorlik Tashkilotining faol a'zosi.

Hozirgi vaqtda davlatlarning tashqi faoliyati xalqaro-huquqiy normalarga asoslanadi, jahon hamjamiyatiga kiruvchi barcha xalqlarning tub manfaatları va milliy xususiyatlarini imkon qadar hisobga oladi.

Tashqi hujumdan mamlakatni mudofaa qilish bo'yicha davlat funksiyasi – davlat faoliyatining muhim yo'nalishidir. Tarixning guvohlik berishicha, davlat tarzida uyushgan jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mamlakatning erkinligi va mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini tashqi tajovuzlardan himoya qilish obyektiv zaruriyat bo'lib kelgan.

Vatanni himoya qilish, davlat hududini bosqinchilardan ozod etish uchun olib borilgan urushlar, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan qonuniy va adolatli hisoblanadi. Mamlakatni mudofaa qilish funksiyasi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va harbiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu funksiya tinchlik vaqtida mamlakatni ehtimol tutilgan tashqi hujumni qaytarishga har tomonlama tayyorlashdan iboratdir. Urush vaqtida esa, mudofaa funksiyasi dushman bilan bevosita qurolli kurash shakliga ega bo'lib, unda g'alabaga erishish uchun mamlakatning butun imkoniyati va barcha kuchlarini birlashtirish ro'y beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining mudofaa doktrinasini e'lon qilib, uni izchil amalga oshirmoqda. Mazkur doktrinaning mohiyati boshqa davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan ehtimol tutilgan tajovuzga barham berish uchun maqbul darajada yetarli kuch va vositalarni yaratishdan iborat. «Mamlakatni mudofaa qilish funksiyasi» tushunchasi ma'nodor va serqirradir. Bu tushuncha mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, tinchlik vaqtida ham, urush vaqtida ham Qurolli Kuchlarning jangovar qudrati va qobiliyatini saqlab turish bo'yicha davlat tadbirlarining butun tizimini o'z ichiga oladi.

Davlatning mudofaa faoliyati uning harbiy doktrinasiga asoslanib, quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topadi.

Mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash. Fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlariga tayangan, rivojlangan va samarali iqtisodiyot mamlakatning yuksak mudofaa qobiliyatini ta'minlaydi, ya'ni Qurolli Kuchlarning ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash uchun barcha zarur narsalarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiyot armiyani texnika va qurol-yarog'larning eng yangi namunalarini, davlat mudofaa salohiyatining boshqa tarkibiy qismlari bilan zarur darajada ta'minlaydi.

Qurolli Kuchlarni muntazam ravishda takomillashtirish, ularning jangovar qobiliyati va tayyorgarligini muttasil oshirib borish. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mamlakat Qurolli Kuchlari Bosh qo'mondoni sifatida Qurolli Kuchlar qudratli, harakatchan va moslashuvchan, zamonaviy himoya vositalariga ega bo'lishi, harbiy texnika va qurol-yarog'larning barcha turlari-

dan professional darajada foydalanishi, yuksak jangovar qobiliyat va tayyorgarlikka ega bo'lishi, qonuniylik va xalqaro huquq qoidalari doirasida harakat qilishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Davlat chegaralarini qo'riqlash. Ushbu faoliyat chegara qo'shinlari va boshqa maxsus bo'linmalar tomonidan amalga oshirilib, davlat qonunlari bilan belgilangan chegara rejimini ta'minlashga qaratilgandir.

Fuqaro mudofaasini tashkil etish. Davlat ehtimol tutilgan tashqi hujumga qarshi kurash va urush vaqtida mamlakat iqtisodiyoti barqaror amal qilishini ta'minlash maqsadida tinchlik maqsadini ko'zlab, bir qator mudofaa tadbirlari o'tkazadi. Ushbu faoliyat ommaviy qirg'in quroli bilan zarba berilishi ehtimol tutilgan aholi punktlaridan odamlarni ko'chirishni nazarda tutadi. Bu ish maxsus himoya inshootlari barpo etish, qutqaruv va tiklash ishlarini o'tkazish bilan bog'liqdir.

Qurolli Kuchlar zahirasisiga harbiy ta'lim berish. Ko'pgina mamlakatlarda harbiy hisobda turgan shaxslarni harbiy jihatdan vaqti-vaqti bilan qayta tayyorlash tashkil etiladi. Bu davlatlararo harbiy nizolar kelib chiqqan taqdirda qurolli kuchlarni tezda safarbar etish va ularning o'rnini malakali shaxsiy tarkib bilan to'ldirish imkonini beradi. Bizning davlatimiz ham noharbiy tayyorgarlikni tashkil etadi, bu jarayon o'rta va oliy yurtlarida amalga oshiriladi.

4-§. Davlat funksiyalari: muammolar va istiqbol

Hozirgi sharoitda davlat funksiyalarini ichki va tashqi funksiyalarga ajratish ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, chunki ko'pgina ichki funksiyalar tashqi funksiyalar tusini kasb etmoqda (masalan, davlat faoliyatining ekologik yo'nalishi) yoki aksincha.

Zamonaviy davlatning ekologiya, demografiya (nufus), xom ashyo, kosmos sohalaridagi, axborot texnologiyasini yaratish va undan foydalanish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasidagi hamda butun taraqqiyotga daxldor bo'lgan boshqa global sohalardagi faoliyatini tasdiqlovchi global funksiyalarni ajratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, hozir davlatning muayyan vazifalarini markazdan joylarga berish to'g'risidagi masalani hal etish alohida muammo bo'lib, uning bir necha jihatlari mavjud. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» deb e'lon qilingan va amalda ro'yobga chiqarilayotgan dastur davlatning bir qator vazifalarini nodavlat tashkilotlarga, masalan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga berishni taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan davlat vazifalarini mavjud tamoyillar o'zanida rivojlantirishning taxmin qilinayotgan ayrim jihatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, davlat funksiyalari o'zgarishiga nafaqat davlatning o'zidagi, balki davlat amal qilishining shart-sharoitlaridagi o'zgarishlar, ya'ni tashqi shart-sharoitlar, davlat «yashab turgan», amal qilayotgan tashqi muhitning o'zgarishlari ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat funksiyalarining rivojlanish tendensiyalari bu vazifalar ham davlatning mohiyati va rasmiy tavsifining ta'siri ostidagi, ham o'zgarib borayotgan tashqi muhit ta'siri ostidagi rivojlanishi va o'zgarishini o'z ichiga oladi. Bunda har ikki jarayon ham nisbatan mustaqil deb tavsiflansa-da, bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini hisobga olish lozim.

Eng avvalo, davlat funksiyasiga butun fan-texnika taraqqiyoti intellektual rivojlanish muayyan ta'sir ko'rsatadi. Boz ustiga hozirgi barcha davlatlarning funksiyasiga XXI asrdagi fan-texnika yutuqlari o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ta'kidlash joizki, bunday ta'sir ikki tomonlama bo'ladi. Bir tomondan, ta'lim va fanni, ayniqsa fundamental fanni qo'llab-quvvatlash, uning natijalaridan foydalanish, jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish va boyitish kabi davlat faoliyatining hayotiy muhim yo'nalishi birinchi o'ringa chiqadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishda erishilgan muvaffaqiyatlarni hisobga olgan holda hozirgi vaqtda davlatimizning ta'lim sohasidagi funksiyasi mustaqil funksiya sifatida ajratilgan. Boshqa tomondan esa, hozirgi zamonda fan-texnika sohasida nazoratdan tashqari paydo bo'ladigan yutuqlar va ular-dan foydalanish tufayli paydo bo'ladigan xavfni cheklash taqozo etiladi. Bu, ayniqsa, yadroviy texnologiyalar, genetika, tibbiyot biologiyasi va boshqa shu kabilarga taalluqlidir.

Fan sohasida davlat tomonidan intellektual mulkni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ya'ni ilmiy faoliyatni samarali olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilmiy ishlar natijalari ularning yaratuvchilariga tegishliligini muhofaza qilish, ushbu mehnatning adolatli baholanishini ta'minlash va ana shu natijalardan foydalanganlik uchun munosib taqdirlash kabi faoliyatning yangi sohalari paydo bo'lmoqda. Fan-texnika taraqqiyotining, ayniqsa genetika, tibbiyot biologiyasi va boshqa shu kabi yangi sohalardagi taraqqiyotning zararli oqibatlarini cheklash borasidagi davlat faoliyati ham muhimdir. Yangi ilmiy yo'nalish, ya'ni inson organlarini transplantatsiya qilish, jinsni o'zgartirish, sun'iy homila bilan bog'liq bioetika shakllanmoqda, evtanaziya muammolari yuzaga kelmoqda. Bu sohaga davlatning nazorat qilish va tartibga solish tarzida aralashmasligining iloji yo'q.

Ekologik omil ham davlat funksiyasining evolyutsiyasiga muayyan ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ta'sirning mohiyati shundaki, agar hozirgi zamonda har

bir davlat o'z hududida aholisining yashash shart-sharoitlari munosib darajada saqlanishini o'z zimmasiga olmasa, ya'ni insoniyatning umumiy tabiiy muhitda normal yashashini saqlab turish borasida boshqa davlatlar bilan hamkorligi yo'lga qo'yilmasa, yaqin istiqbolda umumbashariy kollaps, global tanglik yuz berishi ehtimoldan holi emas. Radioaktiv chiqindilar, suv va havo resurslarining sanoat chiqindilari bilan ifloslantirilishi, yerlarning cho'lga aylanishi (ayniqsa, Orol muammosi), o'rmonlarning kamayib ketayotganligi, boshqa noma'qul oqibatlar hozirgi vaqtda insoniyat hayotida yuzaga kelgan real xavfdir. Bu borada davlat miqyosida faoliyat olib borish zaruriyati – shak-shubhasiz, davr talabidir. Davlatning bu sohadagi funksiyasi evolyutsiyasi boshqa sifat darajasiga ega bo'lmoqda, ekologiyani mo'tadil saqlab qolish uchun iqtisodiy, ma'muriy, huquqiy vositalar va uslublar orqali majburiy, qat'iy choralar ko'rishni talab etmoqda.


Jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvi, ijtimoiy manfaatlarining musharakligi, transmilliy kompaniyalarning paydo bo'lishi va hukmronligi, jahon ahamiyatiga molik boshqa iqtisodiy omillar davlat funksiyalari evolyutsiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan yana bir jiddiy sohadir. Hozirgi jahon davlatlarining aksariyati tashqi iqtisodiy faoliyatda ziddiyatlardan hamkorlik va sherikchilikka olib boradigan yo'lni bosib o'tmoqdalar.

Jamiyat axborotlashuvining kuchayib borayotganligi, ma'lumotlar bazalari, global axborot tizimlarining yaratilishi, umumjahon axborot makoni – Internet tizimining shakllantirilishi ham davlat funksiyalarining yangi evolyutsiyasini keltirib chiqarmoqda. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan funksiyalarning rivojlanish tendensiyalari shubhasiz hozirgi zamon davlatlariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasiga, uning funksiyalari mazmuniga u yoki bu darajada daxldordir.

Shunday qilib, **davlat funksiyalari** – davlat organlari butun tizimining jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan yaxlit, o'zaro bog'liq faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular ayni vaqtda, boshqa davlatlar bilan birga aloqadorlikda va hamkorlikda amalga oshiriladi.

Davlat organlarining teng huquqli sherikchiligi, jamiyat oldida turgan umumiy muammolarni hal etish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlari ayrim individlar, turli davlat va jamoat birlashmalari hamda umuman hamjamiyatning mo'tadil turmush faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Hozirgi zamonda davlat tarzida uyushgan jamiyat o'z tarkibidagi davlat va nodavlat institutlarining ish faoliyatini uyg'unlashtirgan taqdirdagina izchil hamda jadal rivojlanishi mumkin.

Davlatning asosiy funksiyalari



VI bob. DAVLAT MEXANIZMI (APPARATI)

1-§. Davlat mexanizmi (apparati) tushunchasi va mohiyati

Davlat hokimiyatini amalga oshirish masalasi barcha zamonlarda dolzarb bo'lgan va hozir ham shunday. Davlatning institutsiyaviy elementi – davlat hokimiyatining uyushtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya'ni

tashkilot sifatida rasmiylashtirilganligidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtayi nazardan talqin etish mumkin. Teran ma'noda, davlat – bu mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan iyerarxik (pog'onama-pog'ona uyushgan) tashkilot bo'lib, bunda aholi davlatning boshlang'ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi – tashkilotida, bir tomonda – «boshqariluvchi fuqarolar» bor, ikkinchi tomonda – butun davlat tashkilotini boshqaruvchi *apparat* mavjud¹.

Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuch – bu davlat apparati(mexanizmi)dir. Bu apparat (mexanizm) davlatning nimadan tashkil topganligini anglatadi. Davlat apparati – davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar tizimi. U davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy funksiyalarni ado etadi. Apparat – jamiyatda boshqaruvni amalga oshiruvchi lavozimli xodimlar va boshqaruv organlari yig'indisidir. Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus tashkilot «*davlat apparati*» va «*davlat mexanizmi*» atamallari bilan ifodalanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy islohotlarda davlatning roli, uning bosh islohotchilik xususiyatlarini ushbu sermazmun ishlarni amalga oshirishda davlatning, davlat organlarining va eng asosiysi, davlat mexanizmining tutgan o'rni beqiyosdir².

Davlat mexanizmi (apparati) da jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida, bir qancha davlat organlari iyerarxiya asosida, yagona bir tizimga birlashadi. Shuningdek, u o'z funksiyalarini bajarib, davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Davlat mexanizmi-

¹ Qarang: Проблемы общей теории права и государства / Под ред. проф. В.С. Нерсесянца. – М., 2008. – 565-бет.

² Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T., 2005. – 40-бет.

ni tashkil etish muayyan obyektiv prinsiplarga tayanadi. Bu esa, jamiyatning davlat tomonidan samarali idora etilishini ta'minlaydi.

Davlat vazifalarini bajarish uchun ularga mos ravishda davlat organlari tashkil etiladi va bu organlar asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Masalan, qonunlarni yaratish uchun parlament shakllantiriladi, qonunlarga bir xilda amal qilinishini nazorat qilish maqsadida prokuratura organlari tashkil etiladi. Davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishi vakolatlarning taqsimlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida, odatda, davlatning normativ tavsifi, hokimiyat va davlat idoralari ko'rinishlarining izohi bayon etiladi. Bu qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, prezidentlik instituti, markaziy va mahalliy hokimiyat idoralari tizimidan iborat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan ham qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlatning uchta asosiy tayanchidir.

Davlatning jamiyat hayotining asosiy sohalariga, fuqarolar va ijtimoiy guruhlar faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri maqsadli va samarali bo'lishi lozim. Ushbu maqsadga ishchan, izchil, «qobiliyatli» davlat apparati vositasida erishiladi. Davlat ishlarini boshqarish davlat apparati tarkibida yuqori uyushqoqlikni, vakolatlar doirasida omilkor harakatni, mahorat va professionalizmni talab etadi.

Hozirgi kunda davlatshunos olimlar davlat apparatining, eng avvalo, fuqarolar va ular uyushmalarining turli ehtiyoj va manfaatlarini mutanosiblashtirish mexanizmi deb hisoblaydilar. Bunday fikrning to'g'riligi davlat mexanizmining o'ziga xos umumiy belgilarini tahlil etish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Davlat mexanizmi quyidagi asoslarga ko'ra faoliyat yuritadi:

Davlat mexanizmining yagonaligi. Davlat mexanizmi – davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizmidir. Uning yaxlitligi avvalo, davlat hokimiyati va uning irodasi yagonaligi bilan, davlat organlari va muassasalari faoliyati tamoyillari, vazifalari va maqsadlarining yagonaligi bilan ta'minlanadi. Davlat organlari o'zaro farq qilishiga qaramay, bir butunning qismlari hisoblanadi va o'zaro chambarchas bog'liq. Masalan, parlament va hukumat turli vakolatlariga ega, har xil mazmundagi ishlarni bajaradi, lekin har ikkisi ham birgalikda yagona davlat hokimiyatini amalga oshiradi, ya'ni ikkalasining faoliyati ham fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun shartsharoit yaratib berishdan iborat. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq va aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

Maqsad va vazifalarning umumiyliigi. Barcha davlat organlari umumiy maqsad va vazifalarni bajaradi, ya'ni davlat funksiyasini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashadi. Asosiy maqsad – jamiyat va xalq manfaatini

qondirish. Demokratiya sharoitida davlat va davlat organlari xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Asosiy qonunimizda belgilanganidek, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Konstitutsiyaning 7-moddasida belgilab qo'yilganidek, «O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi».

Ierarxik tizimga asoslanganligi. Davlat mexanizmi (apparati) piramida shaklida tuzilgan bo'lib, unda yuqori turuvchi organlar quyi turuvchi organlarga nisbatan ko'proq huquqiy vakolatlarga ega bo'ladi va ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladi, quyi turuvchi organlar esa, yuqori turuvchi organlarning qarorlarini bajarishga majburdirlar. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qarorini vazirliklar va davlat qo'mitalari, joylardagi mahalliy organlar, hokimliklar bajarishi majburiy hisoblanadi.

Majburlov apparatining mavjudligi. Davlat organlari, xususan, qonun chiqaruvchi organ qonun qabul qilish va uni kuchga kiritish usuli bilan, ijro etuvchi organlar boshqaruv, majburlov va rag'batlantirish usullari bilan, sudlar, prokuratura va huquqni muhofaza etuvchi organlar majburlov va ishontirish usuli bilan huquqiy normalarni tatbiq etadilar. Huquqni muhofaza qilish organlari huquq normalarini amaliyotga joriy etishda asosan ishontirish va majburlash usullaridan foydalangan holda ish yuritadilar. Taassufki, jamiyatdagi barcha fuqarolar ham davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardagi qoidalarga so'zsiz rioya qilavermaydilar, chunki insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bir xilda shakllanmaydi. Shu bois, fuqarolar davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga o'z xohishlariga ko'ra rioya etmaydigan bo'lsa, davlat o'zining majburlov kuchi orqali qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi. Bular: *prokuratura, ichki ishlar organlari, bojxona, milliy xavfsizlik xizmati, jinoiy jazoni ijro etish muassasalari, moliya organlari, armiya va boshqalar.*

Boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi maxsus shaxslar guruhining mavjudligi. Davlat organlarida faoliyat yurituvchi shaxslar faqat boshqaruv ishlari bilan shug'ullanadilar, ular ishlab chiqarish va moddiy ne'matlar yaratish jarayonida ishtirok etmaydilar. Biroq, ushbu toifadagi shaxslar davlat va jamiyat manfaatlarini uchun faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, sudya sudlov jarayonida huquqbuzarlik sodir etgan biror-bir yaqin tanishining ishi bo'yicha, u shaxsga nisbatan qonuniy chora ko'rish jarayonida, o'zining shaxsiy manfaatlaridan emas, balki davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, obyektiv ravishda qonunga asosan hukm chiqaradi.

Hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari ichki tuzilishining mavjudligi. Davlat mexanizmining bir me'yorda ishlashini ta'minlash maqsadida davlat organlari, davlat muassasalari va davlat tashkilotlari birgalikda faoliyat yuritadi va o'z navbatida, ular ichki tarkibiy tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Davlat organlari – davlat funksiyalarini amalga oshirishda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining asosiy bo'g'ini. Masalan, prokuratura, sud, ichki ishlar organlari va boshqalar hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlaridir.

Davlat tashkilotlari – bevosita ishlab chiqarish hamda ta'minot bilan shug'ullanuvchi davlat idorasi hisoblanib, davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Mazkur tashkilotlarning asosiy qismini davlat o'z monopoliyasida qoldiradi. Metro, tramvay, trolleybus, elektr energiyasi tarmog'ini boshqarish, aloqa tizimi shular jumlasidandir.

Davlat muassasalari – davlat organlari kabi hokimiyat vakolatiga ega bo'lmagan, davlatning oldida turgan umumijtimoiy vazifalarni bajaruvchi idoralardir, masalan, kasalxonalar, maorif, teatr va boshqalar. Ushbu muassasalar hokimiyat vakolatiga ega bo'lmasa-da, lekin jamiyat oldida turgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni bajaradilar.

Yuridik adabiyotlarda «*davlat apparati*» va «*davlat mexanizmi*» degan tushunchalar ko'p uchraydi. Bu tushunchalar asosan bir xil ma'no va mazmunga ega. Lekin «*davlat mexanizmi*» kengroq tushuncha bo'lib, unga davlat organlaridan tashqari, davlat apparati ishini tashkil qiluvchi va unga yordam beruvchi bo'limlar, muassasalar ham kiradi. Ularga tayanib, davlat apparati o'z faoliyati – davlat funksiyalarini amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini davlat organi deb olsak, Ichki ishlar vazirligining oliy o'quv yurtlari, tibbiyot, moliya-iqtisod boshqarmalari va shunga o'xshash vazirlik faoliyatini tashkil qilishga yordam beradigan tashkilotlar uning muassasalari hisoblanadi.

Davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayoni nuqtayi nazaridan «*davlat mexanizmi*» atamasini qo'llash maqbulroqdir. Zero, «*mexanizm*» iborasi boy mazmunga ega bo'lib, bunda hodisaning funksional jihati, harakatlanish holati aks etadi. Shunga ko'ra, agar «*davlat apparati*» iborasi orqali davlatning strukturasi, tarkibiy tuzilishi izohlansa, «*davlat mexanizmi*» iborasi ko'magida davlat idoralari tizimining funksional jihati (xususiyatlari) tavsiflanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, «*davlat mexanizmi*» atamasi davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini yoki davlatning harakatlanish mexanizmini anglatadi.

2-§. Davlat mexanizmi- (apparati)ning tashkil etilishi va faoliyati prinsiplari

Davlat mexanizmi (apparati) ning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi muayyan rahbariy g'oyalar, qoidalar, ya'ni prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Davlat mexanizmining prinsiplari ularning to'g'ri faoliyat yuritishida yo'llanma beruvchi vazifani o'taydi. Shuningdek, mazkur prinsiplar davlat apparatining harakat doirasi va mezonini belgilab beradi.

Davlat mexanizmi faoliyati va uni tashkil etishning **asosiy prinsiplari:**

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsipi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlat hokimiyatining uch asosiy tarmog'idir.

Davlat mexanizmini qurish muayyan obyektiv tamoyillar asosida amalga oshadi, bu esa jamiyatni davlat tomonidan idora etishning samaradorligini ta'minlash kafolati hisoblanadi. Qonun chiqarish va ijro etish vakolatlari ayni bir shaxs qo'lida yoki ayni bir idora ixtiyorida jamlangan bo'lsa, erkinlik mavjud bo'lmaydi, zero, monarx yoki senat noto'g'ri qonunlar qabul qilishi va ulardan johillarcha foydalanishi mumkin.

Hokimiyatlar taqsimlanishining yuridik ma'nosi buyuk fransuz ma'rifatparvari Sh.L. Monteskyening «Qonunlar ruhi haqida» asarida shunday izohlangan: adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki aksincha, bir-biriga tobe bo'lmagan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo'lishi shart. Ularning har qanday ko'rinishda biron-bir organ yoki shaxs qo'lida mujassamlanishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo kelishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo'lda birlashtirilishi qonunning ustun bo'lishiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalalar faqat sudlov bilan mashg'ul bo'lmay, qonun yaratish ishi bilan shug'ullansalar, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin¹.

Hokimiyatlar taqsimlanishi uch jihat yoki uch darajada: *funksional, institutsiyaviy va shaxsiy* darajada namoyon bo'ladi.

Hokimiyatning funksional bo'linishi. Erkinlikni ta'minlash uchun majburlash (kuch ishlatish) to'g'risidagi qarorni qabul qilish funksiyasini davlat majburlovini amalga oshirish funksiyasidan farqlay bilish kerak. Qonun chiqaruvchi hokimiyat kuch ishlatish qoidalarini o'rnatadi, sud hokimiyati kuch ishlatishning aniq choralariga yo'l qo'yadi yoki ular yuzasidan farmoyish beradi. Shuning uchun ham ushbu hokimiyat tarmoqlarining har biri davlat majburlovini alohida amalga oshirmasligi kerak. Ijro etuvchi hokimiyat aynan shunday kuchga ega, lekin u ham o'z navbatida kuch ishlatish bo'yicha normativ

¹ Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. – М., 1955. – 290-бет.

yoki individual qarorlar chiqarmasligi shart. Shundan kelib chiqqan holda ijro etuvchi hokimiyat qonunlar va sud qarorlari asosida va ularni bajarish yo'lida harakat qilmog'i lozim.

Hokimiyatning institutsional bo'linishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud funksiyalarini bajarish bir shaxs yoki muassasa qo'lida jamlanmasligi kerak. Hokimiyatning bo'linishi majburlov kuchiga ega bo'lgan instansiyalarni kuch ishlatish to'g'risida qaror qabul qiluvchi instansiyalardan ajratishni, ya'ni kuch ishlatish vakolatiga ega bo'lgan va kuch ishlatish haqida qaror qiladigan organlarni bo'lib yuborishni bildiradi.

Shu ma'noda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarga bo'linishi, bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari birlamchi norma ijodkorligi bilan shug'ullanish, normativ hujjatlar e'lon qilishga haqli emasligini, ikkinchi tomondan, qonun chiqaruvchi ijro etuvchi organlar faoliyatiga aralasha olmasligini, ijro etuvchi hokimiyat vakolatiga kiruvchi qarorlarni qabul qilishga haqqi yo'qligini bildiradi. Aks holda, qonun chiqaruvchi bir vaqtning o'zida kuch ishlatish qoidalarini o'rnatadigan kuchga ham aylanib qoladi.

Sud hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan qo'shib yuborishning mumkin emasligiga shubha yo'q. Agar sudya o'zi sud qiladigan qoidalarni o'rnatib, o'zi o'zgartiradigan bo'lsa, u holda noxolis sudga ega bo'lamiz.

Hokimiyatning shaxslar bo'yicha bo'linishi. Qonun chiqaruvchi organlar tarkibiga ijro etuvchi hokimiyat xodimlari va sudyalari kirmaydi, ya'ni qonun kuchiga ega bo'lgan qarorlarning bo'lg'usi ijrochilari deputat bo'lib saylanishlari mumkin emas. Biroq hukumat a'zolari bir paytning o'zida ham parlament deputatlari bo'lgan parlamentar mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya kabilarda) bu prinsip amal qilmaydi. Ayni paytda, bu holatni hokimiyat bo'linishi prinsipining buzilishi deb hisoblab ham bo'lmaydi, chunki bunga parlamentar tipdagi mamlakatlarning qat'iy farqlanishi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi¹.

Hokimiyat vakolatlari konstitutsiyaviy bo'linishining bosh ma'nosi – ijtimoiy-siyosiy kuchlar orasida hokimiyat vakolatlarining oqilona taqsimlanishidir. Bundan maqsad – hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olish, hokimiyatlarning bir-birlarini muayyan muvozanatda ushlab va cheklab turishidir. Bunda hokimiyat tarmoqlarining o'zaro bir-birini tiyib turishi va qarama-qarshi ta'sir etishi mexanizmini qaror toptirish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining ustuvorligi prinsipi. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi prinsipidan kelib chiqqan holda davlat mexanizmi (apparati) o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Davlat organlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ham inson,

¹ Проблемы общей теории права и государства. Под ред. акад. В.С. Нерсесянца. – М., 2008. – 576–579-бетлар.

uning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash, himoya qilish va ularga rioya etishdir. Davlat mexanizmi (apparati) o'z faoliyatida turli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish davrida inson huquq va erkinliklarining bir-lamchi ekanligidan, hech bir organ inson huquq va erkinliklariga zid hujjatlar chiqarishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashi e'tirof etilgan. Har qanday demokratik huquqiy davlatda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi va e'zozlanadi.

Demokratizm prinsipi. Davlat mexanizmi (apparati) tashkil etilishi demokratik prinsip asosida amalga oshiriladi. Chunki, davlatning qonun chiqaruvchi organlari xalq tomonidan saylash orqali tashkil etiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga 135 nafar deputat O'zbekiston xalqi tomonidan yashirin ovoz berish asosida saylanadi, 15 nafar deputat O'zbekiston Eko harakatidan saylanadi va shu demokratik tartibda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi shakllantiriladi. Xuddi shu kabi Oliy Majlisning yuqori palatasi bo'lgan Senat ham xalq vakillarining ishtirokida tashkil etiladi. Senatdagi mavjud 100 nafar senatorning 16 nafarini Prezident tayinlasa, 84 nafari viloyat, Toshkent shahar va Qoraqolpog'iston Respublikasidan 6 nafardan mahalliy vakillik organlari deputatlari yig'ilishida saylanadi. Mahalliy joylardagi Xalq deputatlari Kengashlari ham demokratik saylov asosida shakllantiriladi.

Ijro etuvchi hokimiyat – Hukumat ham xalq tomonidan saylangan Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan tashkil qilinadi. Oliy sud va Konstitutsiyaviy sudlarning raisi va uning o'rinbosarlari, shuningdek, sudyalari ham Oliy Majlisdagi xalqning vakillari bo'lgan senatorlar tomonidan saylanadi.

Davlat mexanizmi (apparati) xalqning ishtirokida shakllantiriladi, xalq hokimiyatini ifodalaydi, u ham o'z faoliyatida faqatgina xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

Pog'onama-pog'ona bo'ysunish (iyerarxiya) prinsipi. «Ierarxiya» – bir-biriga o'zaro bo'ysunuvda bo'lish degan ma'noni anglatadi. Ierarxiya – pog'onama-pog'ona, piramida, o'zaro bo'ysunuvdagi kabi so'zlar bilan bir ma'noni anglatadi. Pog'onama-pog'ona joylashish prinsipining mazumuni shundaki, u davlat organlari tuzilishining bir shakli bo'lib, yuqori davlat organlarining vakolatlari quyi organlarining vakolatlariga nisbatan ko'proq hamda ular quyi organlarning faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy davlat organlarining qarorlari mamlakatning butun hududida quyi turuvchi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishi Vazirlar Mahkamasi hamda mahal-

liy davlat hokimiyati organlari uchun majburiy ahamiyatga ega. Shuningdek, tuman hokimi chiqargan qarorni viloyat hokimi, viloyat hokimining qarorini Prezident va Bosh vazir bekor qilishga haqli.

Oshkoralik prinsipi. Davlat mexanizmi (apparati)ga kiruvchi organlar o'z faoliyatini oshkoralik tamoyili asosida amalga oshiradilar. Qonun chiqaruvchi organ – parlament faoliyati jarayonida qabul qilinayotgan qonunlar loyihagini yoki qabul qilgan qonunlar matnini ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa e'lon qilinishi hamda xalqning qonunlardan xabardor etilishi oshkoralikning ifodasidir. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan qabul qilingan farmoyish va qarorlarning to'plamlarda chop etilishi hamda sud organlari tomonidan chiqarilgan hukmlar (davlat va oila siri bilan bog'liq bo'lgan ishlar bundan mustasno) va qarorlar haqida ma'lumotlar bilan ham xalqning tanishishi uchun ochiq bo'lishi ham oshkoralik belgisidir. Oshkoralik davlat mexanizmi (apparati) faoliyatining asosiy mezon bo'lishi lozim. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari davlat apparati faoliyati haqidagi kundalik axborotni doimiy ravishda e'lon qilib turishi, xalqning jamiyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlardan xabardor bo'lib turishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ayni vaqtda, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta'sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko'makchisi va hamdardiga, demokratiya ko'zgasiga aylanishi zarur. Hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy va xolis baho berish, turli sohalardagi kamchiliklar, dolzarb muammolarni dadil ko'tarib chiqish ular faoliyatida asosiy mezon bo'lishi kerak¹.

Qonuniylik prinsipi. Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi qonun yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat apparatining asosiy bo'g'ini bo'lgan qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, ijro etuvchi organ – Vazirlar Mahkamasini va sud organlari – Oliy sud va Konstitutsiyaviy sud to'g'risida O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari qabul qilingan. Mamlakatimizdagi barcha davlat organlari qonun asosida tashkil etilib, qonun asosida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. O'zbekiston Respublikasida qonundan tashqari, nooshkora, maxfiy va harbiy tashkilotlar tuzish taqiqlangan. Shuningdek, davlat organlari o'z faoliyatini qonun asosida amalga oshirishi shart. Har qanday davlat organlarining qonunlarda belgilab qo'yilgan vakolatlardan chetga chiqishi mumkin emas.

¹ Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. /Xalq so'zi, 2017-yil 8-dekabr.

Professionalizm prinsipi. Davlat apparati xizmatchilari o'z sohalarining yetuk mutaxassislari bo'lib, ular maxsus malaka va bilimga, yetarli tajriba va amaliy uquvga ega bo'lgan xodimlar hisoblanadi. Davlat apparatida xizmat qilayotgan xodimlar dastlab mazkur soha bo'yicha quyi organlarda xizmat qilgan, ushbu sohada boy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis xodim bo'lishi shart.

Kollegiallik va yakkaboshchilikning birgaligi prinsipi. Davlat apparati organlari o'z faoliyatini kollegiallik va yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar. Kollegiallik jamoaviy boshqaruv hisoblanib, Oliy Majlis quyi palatasi deputatlari va yuqori palatasi senatorlarining xizmat faoliyatida yaqqol ko'rinadi. Chunki ushbu organlar bamaslahat, muhokama tarzida bir-biri bilan hamkorlikda masalalarni hal etadilar. Masalan, Oliy Majlis qonun qabul qilishda bahamjihat ish tutadi. Yakkahokimlik yoki yakkaboshchilik prinsipida esa, masala kollegiallikka o'xshash umum irodasining ro'yobga chiqishi bilan emas, balki xizmat sohasi yoki bo'lim boshlig'ining yakdil fikri asosida hal qilinadi. Masalan, Bojxona qo'mitasi raisining tegishli masala yuzasidan yakka tartibda buyruq chiqarishi, Vazirning buyrug'i va hokazo.

Saylanish va tayinlanishning uyg'unligi. Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi saylanish va tayinlanish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida oliy vakillik organlari Qonunchilik palatasi deputatlarining barchasi, Senat a'zolarining aksariyat qismi, Oliy sud organlarining rais va o'rinbosarlari saylash orqali tegishli vakolatga ega bo'ladilar. Ijro etuvchi organlarning barchasi tayinlash tartibida shakllantiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti vazirlar va hokimlarni lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Davlat mexanizmi (apparati)ga kiruvchi organlar yuqorida qayd etib o'tilgan prinsiplar asosida tashkil etiladi hamda ular o'z faoliyatini mazkur prinsiplar asosida amalga oshiradilar.

Davlat mexanizmi bilan davlat funksiyalarining uzviy aloqadorligi davlat mexanizmi (apparati) ni tarkibiy-funksional tahlil etish imkonini beradi. Tarkibiy-funksional yondashuv umumiy tizimli tahlil uslubining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlatning tarkibi va funksiyalarini uzviy bog'liqlikda o'rganishga ko'maklashadi. Shunga ko'ra, davlat mexanizmining tuzilishi u bajaradigan vazifa va funksiyalar samaradorligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

Hozirgi O'zbekiston davlati mexanizmining tarkibiy-funksional tahlili unga kiruvchi tarkibiy qismlarning, ya'ni davlat organlarining roli va o'rnini aniq tasavvur etishni anglatadi. Davlat organlarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan maqomi (tarkibiy yondashuv) ularning zimmalaridagi davlat funksiyalarini bajarish jarayoni va xususiyatlari bilan uyg'un tarzda (funksional yondashuv) tahlil etiladi.

3-§. Davlat organi tushunchasi va turlari

Davlat mexanizmining dastlabki va eng muhim tarkibiy elementi *davlat organidir*.

Davlat organi — davlat funksiyalarini bajarishda qatnashuvchi va buning uchun

tegishli hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'g'inidir.

Davlat organlari bevosita davlat funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va nisbiy mustaqil bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov organlari (tashkiliy tuzilmalar)ning hamkorlikda faoliyat yurituvchi yagona tizimidir. Mazkur organlar davlati apparatining bir qismi hisoblanib, davlat funksiyasini amalga oshiruvchi ma'lum davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo'lgan, bajarilishi majburiy huquqiy hujjatlar chiqaradigan, ma'lum tartibda tashkil etilgan idoralardir. Davlat organlari tuzilishi jihatidan alohida va mustaqil tashkilot ekanligi, doimiy personallar – davlat xizmatchilarining mavjudligi, faoliyatining moddiy-moliyaviy jihatdan barqaror ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Davlat organlarining belgilari quyidagilardan iborat:

Operativ boshqaruvda bo'lgan ommaviy mulkka ega va budjet tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat organlari o'z vakolatini amalga oshirish uchun moddiy mablag' bilan ta'minlanadi. Shuningdek, moliyaviy qimmatliklar, bankdagi hisob raqami, budjet hisobidan moliyalanish manbayiga ega bo'lishi shular jumlasidandir. Masalan, barcha vazirliklar o'zining bankdagi shaxsiy hisob raqamiga ega hamda tegishli davlat xizmatchilariga maosh to'lash, ularning xizmat faoliyati uchun zarur texnik vositalar va boshqa jihozlar sotib olish uchun davlat budjetidan doimiy ravishda moliyaviy mablag'lar ajratiladi.

Davlat nomidan muayyan sohada uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi. Davlat organlari jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritadi. Jumladan, davlatdagi huquqiy tartibotni ta'minlash sohasini Ichki ishlar vazirligi, prokuratura organlari amalga oshirsa, davlatning tashqi funksiyalarini Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, mamlakat mudofaasini esa, Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa organlar amalga oshiradi.

Hokimiyat vakolatlariga egaligi. Davlat organlari muayyan hokimiyat vakolatlariga egaligi bilan boshqa davlat muassasalari va tashkilotlaridan farq qiladi. Davlat organlari ishontirish va majburlash usullaridan foydalangan holda qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlaydilar. Davlat tashkilotlari va muassasalari esa, bu kabi hokimiyat vakolatlariga ega emas.

Tarkibiy tuzilishga egaligi. Davlat organlari xizmat turlari va tarkibiy miqdoriga ko'ra muayyan tuzilishga ega. Masalan, ijro etuvchi hokimiyat or-

ganlari vazirlik va davlat qo'mitalaridan iborat; vazirlik (qo'mita) tarkibi esa, bosh boshqarma, boshqarmalar, bo'lim, bo'linmalar tarzida tashkil etiladi. Masalan, Adliya vazirligida Qonunchilik bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligida Tergov bosh boshqarmasi, Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va boshqa tuzilmalar mavjud.

Hududiy faoliyat miqyosiga egaligi. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlarining faoliyat ko'lami butun O'zbekiston hududini qamrab oladi, mahalliy davlat organlarining faoliyati esa, faqatgina tegishli viloyat, shahar, tuman hududi miqyosida amalga oshiriladi.

Qonun vositasida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari qonun yo'li bilan tashkil etiladi va tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartib hamda vakolatlar asosida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasida noqonuniy tashkilotlar tuzish qat'iy man etiladi. Davlatimiz Asosiy qonunining 57-moddasida quyidagilar ta'kidlangan: Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish qat'iy man qilinadi.

Davlat organlarining turlari. Davlat organlari xilma-xil bo'lib, ular turli vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi. Ular *faoliyati mazmuni va mezonlariga ko'ra turlicha tasniflanadi:*

Davlat faoliyatini amalga oshirish shakli bo'yicha: vakillik, ijroiya, sud organlari va prokuratura organlariga ajratiladi. Davlat organlarini tasniflashning dastlabki asosi – ularning konstitutsiyaviy bo'linishidir. Yagona davlat hokimiyati Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi va demokratizm prinsiplari asosida tarkibiy-funksional belgiga ko'ra alohida organlarga bo'linadi.

Vakillik organlari. O'zbekiston Respublikasida markaziy va mahalliy vakillik organlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi respublikada qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi davlatning oliy vakillik organidir. Ikki palatali Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq o'z vakolatiga kiradigan har qanday masalani o'z muhokamasiga qabul qilish va hal etish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyat va tumanlardagi Xalq deputatlari kengashlari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'i va Konstitutsiyaga va inson huquqlariga rioya etilishining kafili hisoblanadi. U davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi hamda ularning hamkorligini ta'minlaydi. Prezident O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish choralari ko'radi; mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi; O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini parlament tasdig'iga kiritadi, Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi; O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi, qonunchilik tashabbusi va veto huquqlaridan foydalanadi; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi; Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat qabul qilinadigan qaror asosida parlamentni yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuborishi mumkin; Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ijroiya organlar. Vazirlar Mahkamasi – iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, O'zbekiston Respublikasining qonunlari va Oliy Majlisning hamda uning palatalarining qarorlari ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon, farmoyish va qarorlar bajarilishini ta'minlovchi ijro organi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida Vazirlar Mahkamasining maqomi quyidagicha belgilangan: «O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi».

Ijro etuvchi organlar vazirliklar va davlat qo'mitalaridan, mahalliy darajadagi hokimliklardan iborat tarzda tarkib topadi.

Ma'lumki, Asosiy Qonunimizda «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi» to'g'risidagi norma belgilab qo'yilgan. Uning ijrosini amalda ta'minlash maqsadida 2017-yil 8-sentabrda Prezident farmoni bilan Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyaga asosan, davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi va maxsus «yo'l xaritasi» bo'yicha 100 dan ortiq ijro hokimiyati organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish mo'ljallangan.

Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad – ixcham va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruv tizimini yaratishdan iborat¹.

Sud hokimiyati organlari. Mamlakatda sud hokimiyatining butun faoliyati va diqqat-e'tibori ijtimoiy adolatni, huquqiy tartibot va qonun ustuvorligini ta'minlashga, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasi hamda 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonuniga binoan O'zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudidan, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat deb belgilandi. Mazkur tizim chorak asrlik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida faoliyat yuritdi, shakllandi va takomillashib bordi.

2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bunda sudlarning ixtisoslashtirilishi o'z qonuniy ifodasini topdi. Ushbu qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining oliy sud tuzilmalarining institutsional qiyofasi saqlangani holda Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo va tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlari faoliyat yuritadigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinib², unda sud tizimini tubdan isloh etish vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Bundan maqsad sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash.

Ushbu maqsadga erishishni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tad-

¹ Qarang: Xalq so'zi, 2017-yil 8-dekabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni (2017-yil 7-fevral). – T.: «Adolat», 2017. – 3–9-betlar.

birlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda quyidagilar ta'kidlandi: Sudlar tizimining amaldagi tuzilmasi va shtat birligi xizmat vazifalarini oqilona taqsimlash imkonini bermayapti, bu esa ularni zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish va maqbullashtirishni talab etadi.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta'minlash, ma'muriy sud ish yurituvini amalga oshirish bo'yicha konstitutsiyaviy normani, shuningdek aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarurati ma'muriy sudlar tizimini tashkil etishni taqozo etmoqda.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish, sudlar tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) tashkil etilsin¹.

Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida»gi Qonun loyihasini tayyorlab, parlamentga kiritilishi belgilandi. Bu Qonun 2017-yil 28-martda qabul qilindi, ya'ni Senat tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish to'g'risida»gi va yuqorida qayd etilgan 2017-yil 21-fevraldagi farmonga muvofiq, 2017-yil 28-martda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, Asosiy qonunning 80, 81, 83, 93, 107, 110, 112-moddalariga tegishli tuzatishlar kiritildi². Mazkur konstitutsiyaviy tuzatishlarga muvofiq, sud tizimida iqtisodiy va ma'muriy sudlar tuzilishi belgilandi. Konstitutsiya 111-moddasining yangi tahririda Sudyalar oliy kengashining konstitutsiyaviy maqomi aniq mustahkamlab qo'yildi. U sudyalar hamjamiyatining oliy organi hisoblanadi.

Konstitutsiya 93-moddasi birinchi qismi 14-bandining yangi tahririga muvofiq, Prezident Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudyalari raislari va rais o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 3-fevral.

² Qarang: Xalq so'zi, 2017-yil 29-mart.

sudi raisini lavozimga tayinlaydi va ozod qiladi. O'z navbatida, Kengash Prezident bilan kelishilgan holda harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari sudyalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislarini hamda sudyalarini mustaqil ravishda lavozimga tayinlaydi hamda lavozimdan ozod qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi (2017-yil 28–29-mart) «Sudlar to'g'risida» Qonun, Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishini ma'qulladi. Bu bilan yangi tuzilayotgan ma'muriy va iqtisodiy sudlar faoliyatining tegishli huquqiy bazasi yaratildi. Iqtisodiy sudlar tashkil etilishi munosabati bilan «Sudlar to'g'risida»gi qonundan xo'jalik sudlarining faoliyatini tartibga soluvchi normalar chiqarib tashlandi. Okrug harbiy sudlari va Harbiy hay'atlar tugatildi. Oliy sud tuzilmasiga ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha hay'atlar kiritildi.

Qonun sudya lavozimiga birinchi marta saylanganda besh yillik muddatni, navbatdagi marta saylanganda o'n yillik muddatni va sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davrini belgilash, ayni bir sudda sudyalik (raislik) lavozimini surunkasiga ikki muddatdan ortiq egallash mumkin emasligini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi – barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qiladi. U siyosat va huquq sohalaridagi mutaxassislar orasidan Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalaridan, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibda saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Oliy sud tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va bajarilishi barcha uchun majburiydir.

Prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'sunuvchi prokurorlar barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat nazorati idoralari, hokimlar, shuningdek, kimning tasarrufida bo'lishidan va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, muassasalar, harbiy qismlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar, fuqarolarning qonunlarni aniq va bir xilda ijro etishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev 2017-yilning 7-yanvarida mamlakatimizda prokuratura organlari xodimlari kuni ilk bor bayram

qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasidagi yig'ilishda shunday dedi: «Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, mamlakatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza etish, jinoyatlar va huquq buzilishlarining oldini olish bo'yicha tizimli ish olib bormoqda... Prokuratura organlari jamiyatda adolatni mustahkamlashda muhim rol o'ynashlari lozim».

Ta'kidlash muhimki, «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga muvofiq, fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarilgandir. Qonun O'zbekistonda inson huquqlarini himoyalash va ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan kelib chiqadi. Demokratik jamiyatda alohida fuqarolar emas, balki ularning qonuniy huquq va manfaatlari qanday himoya qilinayotganligi prokurorlik nazoratining obyekti hisoblanadi.

Yuqoridan quyiga qarab bo'ysunuviga (iyerarxiyaga) ko'ra: markaziy va mahalliy davlat organlari. O'zbekiston Respublikasida davlat organlari pog'onama-pog'ona bo'ysunish tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, mahalliy organlar markaziy organlarning itoatida bo'ladi. Markaziy davlat organlari chiqargan normativ-huquqiy hujjatlar mahalliy davlat organlari uchun majburiy xususiyatga ega. Shuningdek, mahalliy davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar markaziy davlat organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin. Masalan, Vazirlar Mahkamasining barcha qaror va farmoyishlari mamlakatning barcha viloyatlari, Toshkent shahri hokimlari uchun majburiy xususiyat kasb etadi. Viloyatlar, Toshkent shahar hokimining qarori faqatgina u rahbarlik qilayotgan viloyat (shahar) hududida amal qiladi va bu qarorni yuqori turuvchi organ rahbari – Bosh vazir yoki Prezident bekor qilish huquqiga ega.

Vakolat muddatiga ko'ra: doimiy va vaqtinchalik davlat organlari.

Doimiy organlar – faoliyat muddati cheklanmagan, doimiy faoliyat olib boruvchi davlat organlari. O'zbekiston Respublikasidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarni doimiy faoliyat olib boruvchi organlar sifatida ko'rsatish mumkin. Masalan, prokuratura, ichki ishlar, soliq, bojxona organlari va boshqalar.

Vaqtinchalik organlar – jamiyat oldida turgan biron-bir muhim vazifani muayyan muddat davomida amalga oshiruvchi va mazkur ishlar yakun topishi bilan o'z faoliyatini to'xtatuvchi organlar hisoblanadi. Masalan, turli xil tabiiy ofatlar yuz berganda yoki ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda davlat tomonidan ushbu xavfni bartaraf etish bo'yicha Hukumat komissiyasi yoki «operativ shtab» tashkil etiladi. Mazkur komissiya yoki operativ shtab yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan muddat davomida faoliyat yuritadi.

Shakllanish manbayiga ko'ra: birlamchi va ikkilamchi davlat organlari.

Birlamchi davlat organlari – xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylash yo'li bilan tashkil etiladigan organlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati (qisman) saylash yo'li bilan tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudining raislari va sudyalari Senat tomonidan saylanadi.

Ikkilamchi davlat organlari – xalq tomonidan saylangan, tashkil etilgan yoki shaxslar tomonidan shakllantiriladigan davlat organlari. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalq saylagan Prezident va Oliy Majlis tomonidan shakllantiriladi. Vazirliklar va davlat qo'mitalari Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Prezident tomonidan tashkil etiladi. Prezidentning bu xususdagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritiladi.


Vakolatni amalga oshirish tartibiga ko'ra, kollegial organlar va yakka tartibda vakolatni amalga oshiruvchi organlar.

Kollegial organlar – o'z ish faoliyatini jamoaviy tarzda, ya'ni kollegial asosda tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida qonunlar deputatlarning jamoaviy muhokamasi va umumiy ovozi asosida qabul qilinadi. Mahalliy Xalq deputatlari kengashlari ham kollegial tarzda faoliyat yuritadi. Barcha vazirliklar va davlat qo'mitalari tarkibida Hay'atlar, kengashlar tashkil etilgan bo'lib, ular ham kollegiallik asosida ish olib boradilar.

Yakka tartibda faoliyat yurituvchi davlat organlari – mazkur organ rahbarlari xizmat faoliyatida muayyan bir ish yuzasidan jamoa bilan maslahatlashuv yoki muhokama qilish shaklidan ma'lum bir ma'noda mustaqil bo'ladi va o'zi yakka holda qaror qabul qiladi. Bunga Prezident, Bosh vazir, Bosh prokuror, vazir, hokim va boshqalarni misol tarzida ko'rsatib o'tish mumkin. Ta'kidlash joizki, yakka tartibda qaror qabul qilish va ish yuritish faqat katta vakolat, huquqgina emas, balki ulkan mas'uliyat hamdir.

4-§. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi

Hokimiyatning taqsimlanishi – demokratik huquqiy davlatning zaruriy shartidir. Mazkur prinsipning qo'llanilishi hokimiyatning suiiste'mol qilinishiga to'siq qo'yadi, fuqarolarni mansabdor shaxslarning tazyiqidan himoya qiladi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishiga shart-sharoit yaratadi. Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasining vujudga kelishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ammo,



uning mustaqil va bir butun siyosiy-huquqiy ta'limot sifatida shakllanishi XVII–XVIII asrdagi burjua inqiloblari davriga to'g'ri keldi. Davlat organlari faoliyatining (vakolatlarining) chegaralanishi g'oyasi eng umumiy ko'rinishda antik davr donishmandlari – Platon, Aristotel, Polibiy, Likurg va boshqalar tomonidan ifoda etilgan.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasi «klassik» shaklining an'anaviy asoschilari Jon Lokk va Sharl Lui Monteskyedir. Hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va federal turlarga bo'linishi, Lokkning fikricha, inson huquqlarini ta'minlashning eng muhim vositalaridan biridir. Bunda «barcha qonun chiqaruvchi hokimiyatga itoat etadi, chunki u qonunlarni o'rnata oladigan eng oliy organdir». Lokk sud hokimiyatini alohida e'tirof etmagan, sababi uni ijroiya hokimiyatning tarkibiy qismi deb hisoblagan.

Bu borada buyuk fransuz tarixchisi va faylasufi Sharl Monteskyening xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. U «hokimiyatlar taqsimlanishi» deb nom olgan bir butun tugal ta'limotni yaratgan. Olimning xulosasiga ko'ra, adolatlilik qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki, aksincha, bir-biriga tobe bo'lmagan uchta hokimiyat – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'lishi shart. Ularning har qanday ko'rinishda biron-bir organ yoki shaxs qo'lida mujassamlanishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo kelishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo'lda birlashtirilishi qonunning ustun bo'lishiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalalar faqat sudlov bilan mashg'ul bo'lmay, qonun yaratish ishi bilan shug'ullansalar, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin.

O'z o'tmishdoshlari singari Monteskye ham boshqaruvning samarali bo'lishi uchun davlat faoliyati sohasida odilona «mehnat taqsimoti» zarur, deb ta'kidlagan. U uchta hokimiyatning har biri o'z faoliyatining xususiyatiga muvofiq, alohida mustaqil organ tomonidan amalga oshirilgani ma'qul, degan. Ayni vaqtda, donishmand davlat organlari tizimi, ular o'rtasidagi aloqalar tabiati, o'zboshimchalikni cheklash va inson erkinligini ta'minlash maqsadida ularning o'zaro hamkorligi hamda bir-birini «tiyib turish» munosabatlarini tahlil qilishda davom etgan. Bu o'rinda hokimiyatlar mustaqilligi va ularni amalga oshiruvchi organlarning mustaqilligi, bir-birining faoliyatiga aralashmasligi o'ta muhimdir.

Monteskye ta'limotida alohida o'rin tutadigan g'oya – hokimiyatlarning muvozanati, tengligi hamda ularning «o'zaro tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etish sistemasi» haqidagi g'oyadir. Yuqorida zikr etilgan hokimiyatlar o'rtasida shunday munosabat o'rnatilmog'i lozimki, bunda ularning har biri davlat vazifalarini mustaqil o'tash bilan birgalikda, o'z huquqiy vositalari yordamida bir-birlarini muvozanatda ushlab turadilar, hokimiyat vakolatlarining

birgina muassasa tomonidan qonunsiz ravishda tortib olinishi (uzurpatsiya qilinishi)ni bartaraf etadilar. Masalan, qonun doirasida ishlashi lozim bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat, ayni paytda, qonun chiqaruvchi kengashning faoliyatini chegaralab turishi talab etiladi, aks holda parlament o'zining mutlaq hokimligini o'rnatishi mumkin. Shu sababli ham ijro hokimiyatining boshlig'i qonunlarni imzolashda «veto» (ya'ni, vaqtincha rad etish) huquqidan foydalanadi, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'ladi.

O'z navbatida, qonun chiqaruvchi organ qonunlarning ijro etuvchi organ tomonidan qanday bajarilayotganligi ustidan nazorat qilish vakolatlariga ega, hukumat esa, parlamentga hisob berishga majbur.

Hokimiyatning turli tarmoqlari o'rtasida o'zaro munosabat masalasiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, unda Monteskyening qarashlari Lokkning g'oyalaridan farq qilishini ko'ramiz. Hokimiyatlarning uzviy aloqadorligini tan olish bilan birga, Lokk qonun chiqaruvchi hokimiyat ijro etuvchi hokimiyatdan ustun turishini ta'kidlaydi. Monteskye esa ularning to'la tengligi, mustaqilligi, hatto alohidaligini yoqlab chiqadi. Bundan hokimiyatlar mutlaqo cheklanmagan degan ma'no chiqmaydi. Aksincha, hech bir hokimiyat idorasi boshqasining vakolatlari doirasiga aralashmaydi. Har bir hokimiyat o'z himoyasi nuqtayi nazaridan o'zga hokimiyatni nazorat qiladi, cheklab turadi, vakolatlaridan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi. Bunda hokimiyatlarni ta'minlashning tartibi, vositalari (mexanizmi) vujudga keltiriladi.

Hokimiyatlarning eng maqbul taqsimlanishi «o'zaro tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etish sistemasi» yordamida ta'minlanadi. Mazkur sistema biron-bir hokimiyat organining mutlaq avtoritar mavqega ega bo'lishiga, huquqni va konstitutsiyani poymol etishiga yo'l qo'ymaydi.

Monteskye kashf etgan «o'zaro tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etish sistemasi», ya'ni hokimiyat tarmoqlarini muvozanatda ushlab va hatto, qarama-qarshi qo'yish sistemasi davlat organlarining samarali hamkorlik qilishiga sharoit yarata olmaydi, – deb yozadi rus olimi A. Barnashov.

Monteskyening sxemasi «uch hokimiyat» orasida birining ustun bo'lishini inkor etadi. Bu ta'limot, avvalo, hokimiyatlar taqsimlanishiga tashkiliy-huquqiy yondashuvni anglatadi.

Keyinchalik Monteskyening qarashlari burjuaziya mafkurachilari tomonidan tanqidga uchragan. Xususan, buyuk fransuz olimi J.J. Russo ajralmas, yagona va bo'linmas «**xalq suvereniteti**» pozitsiyasida turib Monteskyening hokimiyatlar taqsimlanishi g'oyasini tanqid qilgan. Russo o'z davri uchun ilg'or hisoblangan siyosiy dastur bilan chiqqan. Uning asosida davlat hayotini «aql hukmronligi» va xalq suverenitetini ta'minlovchi «**ijtimoiy shartnoma**» vositasi orqali demokratik tashkil etish g'oyasi yotadi.

Russo davlat vakolatlari taqsimlanishini, ya'ni davlat organlari o'rtasida vakolatlar chegaralanishini tan olgan. Russoning ta'biricha, qonun chiqaruvchi hokimiyat – suveren xalq irodasining ifodachisi bo'lganligi sababli, u (qonun chiqaruvchi) barchaga taalluqli umumiy xususiyatga ega masalalarni tartibga solishi lozim. Ijroiya hokimiyat suveren xalq qarori bilan o'rnatilganligi bois, u xalqning ishonchli tayanchi va xizmatkori sifatida maydonga chiqadi. Barcha davlat organlarining tengligiga oliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni qayta tuzish evaziga erishiladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni xalqning o'zi bevosita majlislarda amalga oshiradi (yirik shaharlarda vakillik organlari tuzilishi mumkin).

Yuqorida keltirilgan ikki yondashuv elementlarini birlashtirish birinchi marta Amerika Qo'shma Shtatlarining 1787-yilgi Konstitutsiyasida o'zining qonuniy ifodasini topgan. Konstitutsiya mualliflari «biz Qo'shma Shtatlarning xalqi...» degan so'zlar bilan uning suverenitetini bayon etgan. Davlat organlari (Kongress, Prezident va unga itoat qiluvchi ministrlar, sudlar)ning vakolatlarini bo'lib berish orqali esa, «o'zaro tiyib turish va qarshi ta'sir etish sistemasi» bilan to'ldirilgan hokimiyatlar taqsimlanishini joriy qilgan.

Ko'pchilik burjua davlatlari, shu jumladan AQSh ham, xalq suvereniteti va undan kelib chiquvchi qonunning oliyligi prinsipi zahirida «hokimiyatlar taqsimlanishi»ni e'tirof etgan. Masalan, AQSh Konstitutsiyasiga binoan, qonun chiqaruvchi hokimiyat Vakillar palatasi va Senatdan iborat Kongressga tegishli. Ijro etuvchi hokimiyat saylashga vakil qilingan kishilar tomonidan saylanadi. Prezident bir vaqtning o'zida ham davlat boshlig'i, ham hukumat boshlig'i hisoblanadi. U qonunlarga itoat etishi shart, ammo Kongressga hisob bermaydi.

AQShning Oliy sudi nafaqat odil sudlovni amalga oshirish vakolatlariga, balki konstitutsiyaviy nazorat huquqiga ham ega. Buning ma'nosi shuki, Oliy sud qonunlarning va ma'muriy aktlarning konstitutsiya normalariga muvofiqligini tekshiradi va ularni g'ayrikonstitutsiyaviy deb e'lon qilish hamda prezident yoki kongress aktlarini yuridik kuchga ega emas, deb topish imkoniyatiga ega. Jiddiy siyosiy inqirozlar davrida esa, Amerika Oliy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasida arbitrluk (hakamluk) rolini bajaradi. Shu yo'l bilan hokimiyatlar faoliyatini o'zaro uyg'unlashtiradi.

An'anaga ko'ra, hokimiyatlarning taqsimlanishi prinsipi AQSh Konstitutsiyasida o'zining eng aniq ifodasini topgan deb hisoblanadi. Bunga Amerika davlat qurilishi tajribasidan olingan yuqoridagi misollar ham dalil bo'la oladi. Ammo ko'pchilik amerikalik mutaxassislarning o'zlari e'tirof etganidek, hokimiyatlar taqsimlanishining mohiyati Massachusetts shtatining Konstitutsiyasida yanada mukammalroq o'z talqinini topgan. Unda masalan, shunday deyilgan: «Jamiyatda insonlar emas, balki qonunlar hukmron bo'lishi uchun uni boshqarishda:

- qonun chiqaruvchi hokimiyat hech qanday sharoitda ijro etuvchi va sud hokimiyatini (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim;
- ijroiya organlar hech qanday sharoitda qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatini (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim;
- sud organlari hech qanday sharoitda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim».

Hokimiyatlarning taqsimlanishi dunyoning hech bir mamlakatida, hatto ikki asrdan ortiq tarixga ega bo'lgan AQSh da ham bunday radikal ko'rinishda amalga oshirilgan emas. Bu uquvsizlik yoki istamaslik oqibati emas, balki jamiyatning real turmushini nazariy (mavhum mafkuraviy) qolipga solib bo'lmazligi natijasidir. Lekin shunga qaramay parlament demokratiyasi rivoj topgan qator mamlakatlarda har bir hokimiyatning vakolat doirasi nisbatan mukammal belgilangan bo'lib, unga boshqasi «bostirib» kirolmaydi. Faqat «bir-biriga aloqador» masalalardagina, shunda ham qonun bilan belgilangan holdalarda, turli hokimiyatlarning vakolatlari o'zaro uyg'unlashib ketishi mumkin. Ammo o'z vakolatlari doirasida har bir hokimiyat mustaqil, o'zaro teng va faqat qonunga itoat etadi.

1917–1991-yillar mobaynida Yer kurrasining oltidan bir qismiga teng hududda Sovet davlati hukm surganligi tarixiy hodisadir. U o'ziga xos totalitar shakldagi davlat bo'lib, «kommunistik» mafkuraga amal qilar edi. Sovet huquqshunoslik fani yetmish yil davomida hokimiyatlar taqsimlanishi to'g'risidagi mumtoz nazariyaning «oqilona mag'zini», uning ilmiy va amaliy ahamiyatini inkor etib, xaspo'shlab keldi.

Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumining barbod bo'lishi oqibatida sobiq Sovet Ittifoqi vayronalarida bir qator yangi suveren davlatlar vujudga keldi. Sobiq Ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka erishish jarayoni demokratlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni qayta tiklash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini tan olish, qonunning (huquqning) ustunligi, huquqiy davlat yaratish shiori ostida amalga oshdi. Yosh mustaqil davlatlarning shakllanishi jarayonlarida turli g'oyalar va konsepsiyalarning paydo bo'lishi tabiiy bir holdir. Shular jumlasidan hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasi ham keng tarqaldi. Bundan kutilgan maqsad – hokimiyatning suiiste'mol qilinishi, byurokratizm va siyosiy hayotdagi boshboshdoqlikdan saqlanishdan iborat. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi deyarli barcha respublikalarning yangi konstitutsiyalarida davlat tuzumining huquqiy asosi sifatida mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy qonunchilik sohasida bunday o'ta mas'uliyatli qarorga kelinishi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Gap siyosiy mexanizmlarning oddiygina o'zgarishi haqida emas, balki davlat qurilishining «demokratik» shakllari haqida jamiyatdagi chuqur singib ketgan eski stereotip (qolip)larning tubdan

o'zgarganligi, umuman, MDH davlatlarida davlat hokimiyati konsepsiyasining qaytadan ko'rib chiqilganligi haqida borayotir.

Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi – davlat tuzilmalarining samarali faoliyat yuritishi, suiiste'molliklarning bartaraf etilishi, inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishi, umuman qonunchilikni ta'minlashning garovidir. Shuning uchun ham hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining davlatchiligimiz hayotiga real singdirilishi masalasi katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Birgina quyidagi misolga murojaat etaylik. Prezidentlik lavozimining joriy qilinishi va keyinchalik uning takomillashib borishi ko'pchilik respublikalarda parlament bilan ijroiya organlar o'rtasida hokimiyat vakolatlarini qayta taqsimlash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bu jarayonning ancha murakkabligi ayon bo'lib qoldi. Dalil sifatida Rossiya Federatsiyasining parlamenti bilan hukumati o'rtasida uzoq davom etgan keskin qarama-qarshilikni eslash kifoya. Tajriba shuni ko'rsatadiki, respublikalarning parlamentlari prezidentlik hokimiyati bilan «bahslashishga» layoqatsiz bo'lib chiqdilar.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi mamlakatning aniq tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joriy etilsagina, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini ta'minlash mumkin. Mazkur prinsip hokimiyat egasi bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartib (muayyan qolip, andaza)ga solish imkoniyatini beradi. Zero, ularning har biri o'z sohasi doirasida mustaqil bo'lib, boshqa hokimiyatga itoat etmaydi va so'zsiz ijro etilishi mo'ljallangan qarorlar (aktlar) qabul qiladi.

Biroq hokimiyatlar taqsimlanishini mutlaqlashtirish kerak emas, chunki hokimiyatlarni o'zaro birlashtirish, ular faoliyatini uyg'unlashtirish lozim bo'ladi. Buning uchun hokimiyatlarning mavqeini (maqomini) konstitutsiyaviy belgilash, chegaralash talab qilinadi. Biron-bir hokimiyatning qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan «chegaralar»dan chetga chiqishi va boshqa hokimiyatlarning vakolat doirasiga aralashishi mumkin emas.

Hokimiyatning har uch shaxobchasi, birgalikda yagona davlat hokimiyatini tashkil etadi. Ulardan boshqa hech bir davlat organi hokimiyatga da'vogarlik qilolmaydi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining muhim jihatlaridan biri shuki, unda hokimiyatning har bir shaxobchasi (tarmog'i) qolgan ikki hokimiyat subyekting har birini nazorat qilish huquqi va imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ammo bu nazorat – ustunlik emas. Nazorat huquqi nazorat qilinayotgan hokimiyatning konstitutsiyaviy vakolatlarini o'zlashtirib olish imkonini bermaydi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi har bir hokimiyatning o'z vakolati doirasida to'laqonli hokimiyat egasi bo'lishini taqozo etadi. Shu bois har qanday alohida

olingan davlatda yagona qonun chiqaruvchi organ, yagona ijro etuvchi organ hamda yagona sudlov organi (tizimi) bo'lishi lozim.

Ilgari yuridik adabiyotda «*vakillik hokimiyati*» degan ibora keng qo'llanilardi. Bu iborani to'g'ri deb bo'lmaydi. Aslida qonun chiqaruvchi *hokimiyat va vakillik organi* deyish to'g'ridir. Qonun ijod etish faqat vakillik organi tomonidan emas, balki bevosita xalq tomonidan (referendum yo'li bilan) yoki hatto alohida shaxs tomonidan (monarxiya shaklidagi davlatlarda) amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, masalan, Fransiya va Qozog'iston Prezidentlarining ham qonunchilik vakolatlari bor. Vakillik xarakteriga esa ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi hokimiyat ega bo'lishi mumkin.

Hokimiyat taqsimlanishi serqirra hodisa bo'lib, u tuzilma hosil qiluvchi va funksional prinsipdir. U alohida tarkibiy qismlarning qotib qolgan yig'indisi emas, balki amal qiluvchi, harakatlanuvchi mexanizmdir. Bu mexanizm murakkab kelishtiruv va maxsus huquqiy jarayonlarni (shu jumladan, ixtilof va favqulodda holatlarga mo'ljallangan jarayonlarni) birlashtirish vositasidir. Hokimiyatlarning yagonaligi (hamjihatligi) va taqsimlanishi davlat hokimiyati tarmoqlarining dialektik holatidir. Yagonalikka dialektik muvozanat orqali, hokimiyatlarni mutanosiblashtirish yordamida erishiladi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasining tarixiy va umuminsoniy qadriyatiga tan berish bilan bir qatorda shuni ta'kidlash kerakki, u ma'muriy-buyruqbozlik tizimining barcha ofatlari va betayin davlat boshqaruvi oqibatlari-dan xalos bo'lishning yagona vositasi emas. Buning uchun hali yana bir qator omillar kerak. Ya'ni, ilg'or taraqqiy etgan demokratiya, tegishli siyosiy madaniyat darajasi, «o'zaro tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etishning» konstitutsiyaviy rasmiylashtirilgan sistemasi va hokazo. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipini aslida to'la hajmda joriy etish mumkin emas. Hatto, Amerika Qo'shma Shtatlarida ham hokimiyatlar taqsimlanishi sof ko'rinishda amalga oshmagan. Shuning uchun o'zga davlat-huquqiy andazasini muayyan mamlakatga mexanik tarzda ko'chirib o'tkazish to'g'ri emas. Chunki, barcha xalqlar va davlatlar uchun yagona namuna, qolip, andaza bo'lishi mumkin emas.

Shunday qilib, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining mohiyati hokimiyat vakolatlarini namoyon etuvchi davlat organlari o'rtasida o'zaro muvozanatni va ularning o'zaro bir-birini tiyib turish tizimini ta'minlashdan iborat. Hokimiyatlar taqsimlanishi shuni anglatadiki, bunda davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan demokratik muvozanat (balans) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Basharti, shunday muvozanat va hamkorlik ta'minlanmasa, har qaysi hokimiyat tarmog'i, bu qonunchilik, ijro va sud hokimiyati tuzilmasi bo'ladimi, tabiiy, ular o'zlariga yuklatilgan vakolat va vazifalarni to'la-to'kis ado etish imkoniga ega bo'lmaydi.

VII bob. JAMIYATNING SIYOSIY TIZIMI VA DAVLAT

1-§. Siyosiy tizim tushunchasi va turlari

Erkinlik, shu jumladan, siyosiy erkinlik har qanday jamiyat intiladigan ezgu tilak, oliy qadriyatdir. Ijtimoiy hayotning erkinligi jamiyat siyosiy tizimida demokratik institutlarning nechogʻlik qaror topganligi va samarali amal qilishi bilan belgilanadi.

Siyosiy tizim jamiyat manfaatlariga, xalq irodasiga qanchalik samarali xizmat qilsa, uning tabiati va mazmuni shunchalik demokratik boʻladi. Boshqacha aytganda, siyosiy tizimni muttasil demokratlashtirib borish xalq hokimiyatchiligini real amalga oshirishning strategik yoʻlidir. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jamiyatni isloh etish va demokratlashtirishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifasi ekanligiga alohida urgʻu bergan edi¹.

Siyosiy demokratiyani ravnaq toptirish yoki siyosiy tizimni demokratlashtirish jamiyatimiz taraqqiyoti hozirgi bosqichining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Siyosiy hayotni izchil va muntazam erkinlashtirib borish masalasi mamlakat Prezidentining doimiy diqqat markazida turadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev oʻz saylovoldi Dasturida quyidagi muhim fikrni taʼkidlagan edi: «Siyosiy tizimni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalarimiz rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, fuqarolarning orzu-intilishlarini roʻyobga chiqarish, tashabbuslarini amalga oshirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishdan iborat»².

Siyosiy tizimni modernizatsiyalash, avvalo, mamlakat siyosiy hayotining barcha jihatlarini erkinlashtirishdan iborat. Erkinlashtirish siyosiy islohotlarning asl negizi sifatida butun siyosiy tizimni qamrab olmoqda. Mamlakatda roʻy berayotgan siyosiy demokratik jarayonlarni anglab yetish uchun jamiyatimiz siyosiy tizimini koʻzdan kechirish yetarli boʻladi. Shu maqsadda respublikamiz siyosiy tizimi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini alohida yoritish joiz. Siyosiy tizim insonlar faoliyatining alohida sohasi – siyosat, siyosiy munosa-

¹ Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: 2010. –15-bet.

² Xalq soʻzi, 2016-yil 3-noyabr.

batlar va aloqalar sohasi bilan bog‘liq. U muayyan siyosiy irodaning mahsuli sifatida vujudga keladi va bu irodaning amalga oshirilishiga safarbar etilgan vositalarning institutsiyaviy (tashkiliy-tuzilmaviy) rasmiylashgan shakli tarzida namoyon bo‘ladi. Siyosiy tizim kishilar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning barqaror shakli bo‘lib, uning yordamida jamiyat a‘zolarining barchasiga nisbatan hokimiyat ta’siri amalga oshiriladi yoxud qat’iy irodaviy qaror qabul qilinadi¹.

Tizimlilik jamiyatning tabiiy holati va mavjudligining zarur shartidir. Jamiyatning tarkibiy qismi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va siyosiy tizim kabi ijtimoiy hodisalardan iboratdir. Siyosiy tizim ijtimoiy tizimning bir turi sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi.

Yuridik fanda uchraydigan, ijtimoiy tizimning turlari hisoblanadigan «huquq tizimi», «huquqiy tizim» va «siyosiy tizim» kabi o‘xshash tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim.

«*Huquq tizimi*» – huquqning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro aloqadorligi, rivojlanish jarayonini tashkil etish usullari to‘g‘risidagi masaladir. Huquq tizimining tarkibiy elementlari huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohaslarining o‘zaro bog‘liq va aloqadorlikda bo‘lgan yig‘indisidir. «Huquqiy tizim» esa, muayyan makon va zamonda amal qilayotgan huquqiy hodisalar, huquqiy prinsiplar, institutlar, normalar va jarayonlarning bir butun mush-tarakligi, o‘zaro chambarchas bog‘liqligi hamda aloqadorligi bo‘lib, ularning maqsadli harakatlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning yuksak saviyada huquqiy tartibga solinishiga erishiladi.

«*Siyosiy tizim*»ning mohiyatini anglab yetish uchun avvalo, «siyosat» va «sistema» (tizim) kabi iboralarning lug‘aviy hamda ilmiy ma’nosini aniqlash lozim.

«*Siyosat*» *yunoncha* «*politikos*» so‘zidan olingan bo‘lib, «davlatni boshqarish san’ati», «davlat ishlari» degan ma’noni bildiradi. Qadim yunon faylasufi Demokritning fikricha, «siyosat – bu davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir». Bu fikrni davom ettirib Platon (Aflotun) siyosatni hukmdorning san’ati sifatida, ya’ni shoxning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta’riflaydi. Siyosiy san’atning mohiyati davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish, siyosiy «matoni» to‘qish mahoratida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda siyosat – davlat ishlarida ishtirok etish, davlatni yo‘naltirib turish, uning shakli, vazifalari, faoliyati va mazmunining belgilanishi (ifodalanishi) deb talqin qilinadi. Siyosat – turli ijtimoiy guruhlarining davlat ho-

¹ Qarang: Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T., 1999. – 380-bet.

kimiyatiga nisbatan bo'ladigan munosabatining ifodasidir. Ingliz siyosatshunos olimlari G. Ponton va P. Djill siyosatni uch jihatning mushtarak birligi:

- 1) kishilarning ijtimoiy masalalarni tushunish va hal etish usullari;
- 2) bu faoliyat asosida yotuvchi pritsiplar;
- 3) ayrim shaxs yoki guruhning vaziyat ustidan nazoratni qo'lga kiritish va uni saqlab qolish vositasi tarzida izohlaydilar.

G'arb siyosatshunosligida keng tarqalgan nuqtayi nazarga ko'ra, siyosat – jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini murosaga keltirish, uyg'unlashtirish asosida oqilona qaror qabul qila olish qobiliyatidir.

Siyosat xususida umumiy tushunchaga ega bo'lgach, endi tizim (sistema) nimaligi haqida mulohaza yuritishga o'tamiz. Sistema mazmunan bir toifadagi hodisalar, institutlar va elementlarning yagonaligi, bir butunligidir. Sistemaning muhim jihati – unda strukturaviy xususiyatning borligi, ya'ni voqelikning ichki tarkibiy qismlarga egaligi, bu qismlar orasida pog'onali bo'ysunish mavjudligi hamda bu qismlarning nisbiy mustaqilligi¹. Sistemaning mazkur sifatlariga e'tibor qaratishimizning boisi siyosiy tizim tarkibiga kiruvchi qismlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud ekanligini chuqur tushunish va ular o'rtasidagi munosabatlarning chambarchas bog'liqligi va dialektikasiga e'tiborni jalb etishdir.

«Siyosiy tizim» ijtimoiy tizimning boshqa turlaridan farqli o'laroq, jamiyatda hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish hamda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar yig'indisidir.

Siyosiy tizimning asosiy tarkibiy bo'g'inini, o'zagini *davlat* tashkil etadi. Davlat siyosatni shakllantiruvchi, amalga oshiruvchi va jamiyatni boshqaruvchi muhim zarur tashkiliy tuzilmadir. Davlat siyosiy tizimga kiruvchi barcha elementlarni bahamjihat etuvchi, ularning harakatiga (faoliyatiga) siyosiy mazmun bag'ishlovchi, sistema hosil qiluvchi bo'g'indir. Siyosiy tizimning vazifa va funksiyalarini ado etishda davlat nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Siyosiy tizim barqarorligini ta'minlash uchun siyosiy hayot ishtirokchilari manfaatlarini, ular o'rtasida vujudga keladigan ziddiyatlarni hisobga olish zarur. Buning uchun esa, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, kuchlar, shuningdek tashkilotlar va harakatlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish lozim. Bu vazifani O'zbekistondagi islohotlar sharoitida siyosiy tizimning asosiy elementi hamda bosh islohotchi bo'lgan – davlat bajarmoqda.

Siyosiy tizimni jamiyatdagi boshqa ijtimoiy tizimlardan farqi quyidagilarda ifodalanadi:

¹ Qarang: Блауберг И.В., Юдин Б.Г. Понятие целостности и его роль в научном познании. – М., 1972. – 16-бет; Афанасьев В.Г. Системность и общество. – М., 1980. – 21–31-бетлар.

- *birinchidan*, siyosiy tizim doirasida qabul qilinadigan qarorlar butun jamiyat uchun majburiydir;
- *ikkinchidan*, siyosiy tizim ijtimoiy muhit va avvalo jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan uzviy bog‘liqdir;
- *uchinchidan*, siyosiy tizim jamiyatning boshqa tizimlariga nisbatan mustaqildir.

Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini belgilovchi, uning imkoniyatlarini amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir. Siyosiy tizimni siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo‘lgan davlat tashkilotlari va siyosiy munosabatlar yig‘indisi deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy tizimni mohiyati quyidagi vazifalarda o‘z ifodasini topadi:

- siyosiy tizim o‘zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va milliy tuzilmalarini, demografik jarayonlar, aholining ma‘lumot darajasi, ijtimoiy onggi holati, ma‘naviy-ruhiy va ma‘rifiy-mafkuraviy hayotni, xalqaro ahvolni aks ettiradi;
- siyosiy tizim orqali mafaatlarning asosiy guruhlari aniqlanadi. Zero, hozirgi sharoitda jamiyatimiz siyosiy tizimi oldida avvalo, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishda turli manfaatlar muvozanatiga erishish vazifasi turibdi.

Jamiyatning siyosiy tizimi to‘g‘risidagi ta‘limotlar yurisprudensiyada XX asrning 60–70-yillarida namoyon bo‘la boshladi. Siyosiy tizim masalasi faqat huquqshunoslik fanining predmeti bo‘lib qolmay, balki uni siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa kabi fanlar ham o‘rganadi.

«Siyosiy tizim» tushunchasi bahs va munozaraga boy bo‘lib, huquqshunos olimlar tomonidan turli xil tarzda ta‘riflanadi. Siyosiy tizim – xalq irodasiga muvofiq, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat uyushmalar), siyosiy normalar, prinsiplar, institutlar, jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va mushtarak yig‘indisidir¹. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko‘ra, «siyosiy tizim» – shaxslarning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish jarayonidagi tashkiliy mustaqilligi va siyosiy faolligini rivojlantiradigan davlat, jamoat tashkilotlari va boshqa uyushmalarning yig‘indisidir².

Mazkur ta‘riflar yordamida jamiyat va davlatning aloqalarini aniqlash, davlatning jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni va mavqeini ko‘rsatib beradigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy omillarni belgilab olish mumkin. Siyosiy tizim insonlar faoliyatining alohida sohasi – siyosat, siyosiy munosabatlar va aloqalar sohasi

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. – 82-bet.

² Qarang: Saidov A.X., Tadjixanov U.T. Davlat va huquq nazariyasi. T.2. – T., 2001. – 125-bet.

bilan bog‘liq. U muayyan siyosiy irodaning mahsuli sifatida vujudga keladi va bu irodaning amalga oshirilishiga safarbar etilgan vositalarning institutsiyaviy (tashkiliy-tuzilmaviy) rasmiylashgan shakli tarzida namoyon bo‘ladi. Siyosiy tizim kishilar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning barqaror shakli bo‘lib, uning yordamida jamiyat a‘zolarining barchasiga nisbatan hokimiyat ta’siri amalga oshiriladi yoxud qat’iy irodaviy qaror qabul qilinadi.

Siyosiy hokimiyat siyosiy tizimning o‘zagini tashkil etadi, uning faoliyatiga «ruh» bag‘ishlovchi, ta’bir joiz bo‘lsa, butun siyosiy vujudni «qon» bilan ta’minlovchi sub’stansiya (asos) sanaladi. Siyosiy hokimiyat tuzilmalari va institutlarini demokratlashtirish, avvalo, «hokimiyat» fenomenini teran anglab yetishni, u haqida jamiyat ijtimoiy ongida mufassal obyektiv tasavvur (bilim) hosil qilishni taqozo etadi.

Huquqshunoslik va siyosatshunoslik fanlarida siyosiy tizimlarni turlarga ajratish g‘oyasi turli mamlakatlar siyosiy tizimlarini qiyosiy tahlil qilish zarurati tufayli paydo bo‘ldi. Hozir dunyoda 280 dan ortiq mamlakatlar bo‘lib, ularning siyosiy tizimlari ham turli-tumandir.

Turli jamiyatlardagi siyosiy hayot shakllarining rivojiga ko‘ra siyosiy tizimlar tipologiyasi o‘rganilganda, ularning quyidagi turlari ko‘zga tashlanadi:

- 1) demokratik siyosiy tizimlar;
- 2) avtoritar siyosiy tizimlar;
- 3) totalitar siyosiy tizimlar.

Yuqoridagi siyosiy tizimlar tipologiyasini tahlil etishda «siyosiy rejim» tushunchasi keng qo‘llaniladi. Bu tushuncha orqali hokimiyatga egalik qilishning u yoki bu shakli, davlat va siyosiy tizimning amal qilishi anglanadi.

Siyosiy rejim indikatorlari sifatida quyidagilar tushuniladi:

- 1) shaxsning jamiyatdagi mavqei, huquq va erkinliklari darajasi, turli manfaatlarning imkoniyatlari, ularning ifoda etilishi va ro‘yobga chiqarilishi;
- 2) fuqarolarning siyosatga jalb etilish darajasi va xususiyati, uning natijalari;
- 3) o‘zini o‘zi boshqarish va davlat boshqaruvining nisbati, siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usullari;

Yuqorida qayd etilgan indikatorlar holatiga, darajasiga ko‘ra totalitar, avtoritar va demokratik siyosiy rejimlar o‘zaro farqlanadi. Shunga binoan, jamiyatlarining siyosiy tizimlari ham totalitar, avtoritar yoki demokratik belgilariga ko‘ra tavsiflanadi.

Demokratik siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari:

- hukmron va muxolif siyosiy partiyalarning mavjudligi;
- partiyalarning oshkora kurashi sharoitida shakllanadigan umumdavlat vakillik organi – parlamentning mavjudligi;

– partiyalarning saylovlarda oshkora kurashi natijasida hukumatning shakllanishi;

– hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga asoslanganligi.

Avtoritar tipdagi siyosiy tizimlar esa yakka shaxs yoki muayyan guruh qoʻlida kuchli hokimiyatning toʻplanganligi bilan ajralib turadi. Bunday tizimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– fuqarolar demokratik huquq va erkinliklarining tugatilganligi yoki cheklanganligi;

– muxolif partiyalar va ijtimoiy tashkilotlarning mutlaqo yoki qisman taqiqlanganligi;

– davlat organlarida saylovning cheklanishi va parlamentning ikkinchi darajali organga aylanib qolishi;

– hukmron partiyaning davlat apparati bilan qoʻshilib ketishi;

– muxolif matbuotning taqiqlanishi;

– hokimiyat vakolatlari taqsimlanish tamoyilining buzilishi yoki umuman amalga oshmaganligi.

Totalitar turdagi siyosiy tizimlar davlatning jamiyat hayoti barcha sohalarida toʻla (total) nazorat oʻrnatganligi bilan ajralib turadi yoki tavsiflanadi. Totalitar siyosiy rejimlarning asosiy belgilari quyidagilar:

– fuqarolar huquq va erkinliklarining butkul kamsitilishi;

– hokimiyatning barcha darajalarda nomenklaturaning yopiq kanallari orqali shakllantirilishi;

– hokimiyat boʻlinishi prinsipining amalda bekor qilinganligi;

– yagona hukmron partiyaning mavjudligi;

– yagona rasmiy mafkuraviy doktrinaning jamiyat barcha aʼzolariga singdirilishi.

Totalitarizm ijtimoiy turgʻunlikka, fuqarolarning passivligiga, davlat va partiya apparatining izdan chiqishiga, maʼnaviy tubanlashuvga olib borishini sobiq SSSRning tarixi yaqqol koʻrsatdi.

Oʻtish holatidagi jamiyatlarda (totalitarizm yoki avtoritarizmdan demokratiyaga yoki aksincha) oʻtish davri siyosiy tizimlari shakllanadi. Bunday siyosiy tizimlar siyosiy institutlarning zaifligi, oxlokratiya, yaʼni, olomon hokimiyati xavfining namoyon boʻlishi, siyosiy his-tuygʻularning jilovlanmaganligi, ijtimoiy guruhlarning oʻz gʻoyaviy-siyosiy yoʻllarini yoʻqotganliklari va boshqa holatlar bilan izohlanadi.

Ayrim siyosatshunoslar siyosiy tizimlarni ulardagi markazlashuv darajasi, hurfikrlilik (plyuralizm) va siyosiy hayotning demokratlashganligi darajasiga koʻra taʼriflab, quyidagi turlarga ajratadilar:

1. Marksistik siyosiy tizimlar (siyosiy tizimlarni bir-biriga keskin qarama-qarshi qo'yadi).
2. Demokratik siyosiy tizimlar (fuqarolarning davlat hokimiyati ustidan jamoat nazoratini ta'minlovchi mexanizm mavjud bo'ladi).
3. Modernizatsiyalashgan siyosiy tizimlar (rivojlangan fuqarolik jamiyati va ratsional hokimiyatni amalga oshirish mavjud bo'ladi).
4. An'anaviy siyosiy tizimlar (siyosiy an'analarga sodiqlik, hokimiyatning monarxiya shakli va hokazo).
5. O'tish davri siyosiy tizimlari (bunday tizim negizida rivojlanmagan fuqarolik jamiyati, siyosiy rollarning zaif tabaqalashtirilganligi, hokimiyatning xarizmatik usulga asoslanganligi, siyosiy institutlarning sust rivojlanganligi yotadi).

Shu o'rinda siyosiy tizimlar evolyutsiyasi va revolyutsiyasi to'g'risidagi ayrim nuqtayi nazarlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jamiyatdagi ijtimoiy sinfiy kuchlar joylashuvidagi o'zgarishlar oqibatida jamiyatning siyosiy tizimi ham o'zgarishlarga yuz tutadi. Shu tufayli siyosiy jarayon – ijtimoiy subyektlarning siyosiy tizimni shakllantirish, o'zgartirish, qayta tuzish va ro'yobga chiqarish borasidagi barcha harakatlarining yig'indisi, degan xulosaga kelish mumkin.

2-§. Siyosiy tizimning tarkibiy tuzilishi va funksiyalari

Jamiyat siyosiy tizimining ichki tuzilishi (strukturasi)ni to'g'ri tavsiflash uchun unga kiruvchi qismlarni aniqlab olish mezonlarini qat'iy belgilash lozim. Bunday asosiy talab sistemaga kiruvchi qismlarning ichki batartibligi (tashkiliy mezon) va faoliyatining siyosiy yo'naltirilganligi (siyosiy mezon) hisoblanadi. Ushbu talab (mezon)lar siyosiy tashkilotning ijtimoiy vazifasi, maqsadi, funksiyalari, faoliyatining asosiy sohalari, faoliyat yuritish va tashkiliy prinsiplarini aks ettiruvchi nizom, dastur, ustavlarda normativ tarzda rasmiylashadi.

Faoliyatning siyosiy yo'naltirilganligini aks ettiruvchi mezon siyosiy sistemaning u yoki bu instituti uchun quyidagicha ahamiyat kasb etadi: *birinchidan*, muayyan ijtimoiy birlikning, sinf yoki guruhning siyosiy manfaatlarini ifodalashga qodir bo'lish; *ikkinchidan*, siyosiy hayot va siyosiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish; *uchinchidan*, davlat hokimiyatiga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lish – hokimiyatga egalik qilish, uni shakllantirish yoki undan foydalanish, davlat organlari bilan hamkorlik qilish yoki ularga muxolifatda bo'lish shakllaridan birontasining mavjud bo'lishi; *to'rtinchidan*, o'z faoli-

yatida mamlakat siyosiy hayotida qaror topgan siyosiy norma yoki qoidalarni qo'llash¹.

Mazkur mezonlarga rioya etgan holda siyosiy sistema subyektlari tanlab olinadigan bo'lsa, ular qatoriga davlat, barcha siyosiy partiyalar va ba'zi jamoat birlashmalari (ijtimoiy harakatlar) kiritilishi mumkin. Eng asosiy talab ularning siyosatga daxldorligi, siyosiy manfaat va maqsadlarni ko'zlashi hamda ularga erishish yo'lida harakatlana olishidir.

Siyosiy va huquqiy adabiyotlarda siyosiy tizimning tarkibiy tuzilishini tashkil etuvchi elementlar siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishdagi o'rniga qarab quyidagi qismlardan iborat, deb e'tirof etiladi:

tashkiliy jihat – davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar (institutSIONAL element);

me'yoriy jihat – huquq, siyosiy norma va an'analar, siyosiy hayot doirasidagi axloq va madaniyat qoidalari (normativ element);

aloqalar tizimiga oid jihat – siyosiy institutlar o'rtasidagi aloqa bog'lash vositalari va shakllari: saylovlar, referendumlar, ommaviy muhokamalar, majlislar, davlat va siyosiy partiyalarning aholiga murojaatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyati va boshqalar (kommunikativ elementlar);

mafkuraviy jihat – siyosiy ong, jamiyatda hukmron bo'lgan va uni yo'naltiruvchi siyosiy mafkura (g'oyaviy, mafkuraviy element).

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi yuqorida qayd etilgan to'rtta kichik tizim siyosiy maqsadlarning amalga oshirilishida muayyan vazifalarni bajaradi. Masalan, tashkiliy kichik tizimga kiruvchi davlat va siyosiy partiyalar siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun tuziladi. Qolgan boshqa kichik tizimlar, jumladan, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari esa, siyosiy maqsadlar uchun emas, balki ma'lum guruhlarining madaniy, jismoniy va malaka-viy manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

Madaniy-mafkuraviy tizimning vazifasi siyosiy partiyalarning muayyan g'oyalar va qarashlarga tayanishi bilan bog'liq. Siyosiy partiyalar jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlari, hokimiyat uchun kurash uslublari va konsepsiyalaridan kelib chiqib, turli g'oyalarni ilgari surishlari mumkin. Siyosiy partiyalar mamlakatda amal qilayotgan qonunlar, huquqiy normalarga to'la-to'kis rioya qilsalar, jamiyat siyosiy tizimida o'zlarining munosib o'rinlariga ega bo'ladilar, aks holda, ularning faoliyati davlat tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Bugungacha dunyo siyosiy tarixida liberal, konservativ, radikal, milliy, sotsialistik va boshqa turdagi mafkuralar ilgari surilganligi ma'lum. Demokratik davlat ma'lum bir mafkuraviy konsepsiyaga tayansa ham, u yoki

¹ Qarang: Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. Отв. ред. проф. М.Н. Марченко, Том 1. – М., 1998. – 239–240-бетлар.

bu mafkurani davlat mafkurasi sifatida belgilamaydi. Siyosiy me'yor – davlat va siyosiy tuzilmalar darajasida tan olingan siyosiy axloq hisoblanadi. Uning asosiy hujjati konstitutsiya bo'lib, u jamiyat va davlat hayotining normalarini o'zida aks ettiradi.

Axborot-kommunikatsiya tizimining o'rne siyosiy jarayonlarni xalqqa xolisona yetkazish va baholash bilan belgilanadi. Bunda asosiy o'rinni televizion, gazeta va jurnallardagi siyosiy va huquqiy rukndagi ko'rsatuv va maqolalar egallaydi. Ayniqsa, kompyuter tizimidan axborot olish manbayi yuqori o'rinda turadi. Chunki, «Internet» tizimi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Siyosiy tizimning yuqorida qayd etilgan kichik tizimlari mustaqil faoliyat ko'rsatsalarda, ammo bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning o'zaro uyg'un holatdagi faoliyati siyosiy tizim barcha mexanizmlarining normal ishlashini ta'minlaydi.

Siyosiy tizimni bunday tushunish unga kompleks yondashishni bildiradi. Yuqoridagi talqindan kelib chiqib, siyosiy tizimni quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- 1) siyosiy va huquqiy normalar;
- 2) siyosiy tuzilmalar (institutlar);
- 3) siyosiy faoliyat;
- 4) siyosiy ong;
- 5) siyosiy madaniyat.

Siyosiy va huquqiy normalar – Konstitutsiya, kodeks, nizom, partiyaviy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bo'lib, ular siyosiy munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Siyosiy tuzilmalar (institutlar) – siyosiy va davlat tashkilotlari, ular o'rtasidagi munosabatlar, institutlar hamda muassasalar yig'indisidir. Bu yerda siyosiy faoliyat, harakat va munosabatlarni amalga oshirishning tashkiliy jihati nazarda tutiladi.

Siyosiy faoliyat – jamiyatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirish tizimini muhofaza etish, rivojlantirish hamda funksional ta'minlashga qaratilgan faoliyat turidir.

Siyosiy ong – ijtimoiy ongning bir turi bo'lib, u siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlarini aks ettiruvchi va kishilarning siyosiy munosabatlar sohasidagi xulq – atvorini yo'naltiruvchi tafakkurning namoyon bo'lishidir. Siyosiy ong – siyosiy nazariyalar, dasturlar, ta'limotlar tarzida, shuningdek siyosat haqidagi oddiy insoniy qarashlar, tasavvurlar va an'analar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Siyosiy madaniyat – siyosiy tizim subyektlari bo'lgan siyosiy partiyalar, birlashmalar va jamoalarning davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtiro-

ki hamda siyosiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida qo'llaydigan (rioya etadigan) qadriyatlar, siyosiy g'oyalar, e'tiqod va ramzlar tizimidir. Siyosiy madaniyat muayyan millat yoki ijtimoiy–siyosiy jamoaning siyosat olami, siyosiy jarayonlar amalga oshirishining qonun va qoidalari xususidagi tasavvurlari majmui hamdir. B. To'ychiyevning ta'biricha, siyosiy madaniyat ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan qismi va jihatlarini qamrab oladi. Ular, o'z navbatida, davlat va siyosiy institutlarning shakllanishi, amal qilishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Siyosiy madaniyat tarkibiga siyosiy tizim doirasida namoyon bo'luvchi e'tiqod va fikr yo'nalishlari ham kiradi¹. Boshqa bir olim K.S. Gadjiyevning fikricha, siyosiy madaniyat – siyosiy hamjamiyat subyektlarining ko'pchiligi tomonidan e'tirof etilgan normativ qadriyatlar tizimidir².

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakat siyosiy tizimining qonuniy asoslarini tashkil etadi. Unda davlat, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining huquqiy maqomi va o'zaro aloqalari hamda faoliyatining ustuvor tamoyillari belgilangan. Siyosiy tizimning amal qilishi, faoliyat ko'rsatishi mazkur institut haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarning ro'yobga chiqishi va hayotga tatbiq etilishini anglatadi.

Siyosiy tizimning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

birinchidan, xalqning siyosiy irodasini aniqlash, ifodalash va amalga oshirishga ko'maklashish;

ikkinchidan, xalq ommasini jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga safarbar etish;

uchinchidan, jamiyatni uyushtirish va boshqarish, jamiyat rivojining qonuniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslantirilgan mexanizmlarni yaratish.

3-§. Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o'rni

Tarixan olib qaraganda davlatni dastlabki siyosiy tashkilot deb hisoblash mumkin. Davlatning siyosiyliigi shundaki, u hukmronlikka intilgan va erishgan ijtimoiy guruhlarining (sinflarning) manfaatini ifodalovchi tashkilot sifatida maydonga keldi. Keyinchalik ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa uyushmalar, tashkilotlar, partiyalar vujudga kelib, o'ziga xos siyosiy tashkilotlar yig'indisi, majmui, tizimi hosil bo'ldi.

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004; Туйчиев Б. Проблемы формирования политической культуры и демократизация современного общества. – Т., 1991. – 33–34-betlar.

² Qarang: Гаджиев К.С. Политическая наука. – М., 1995. – 338-bet.

So'nggi asrlardagi sinfiy va demokratik jamiyatlarda davlatdan tashqari muayyan ijtimoiy kuchlarning, guruhlar va qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, ayollar va yoshlarning jamoat birlashmalari, sanoatchilar va fermerlarning tashkilotlari kabilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ayni vaqtda, ular siyosatga muayyan ta'sir o'tkazmoqda. Biroq, shunga qaramay davlat jamiyatning siyosiy tizimida markaziy o'rin egallaydi.

Buning sababi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchi – davlat manfaatlari o'zaro kelisha olmaydigan turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflarning samarasiz ziddiyati va o'zaro qarama-qarshiligining muqobili sifatida yuzaga keladi va faoliyat ko'rsatadi.

Ikkinchi – davlat birgalikda hayot kechirish maqsadida uyushgan insonlarning ittifoqi, turmush faoliyatining tashkiliy shakli hisoblanadi. Insonlarning davlat bilan bo'ladigan tarixiy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari «fuqarolik» degan kategoriyada o'zining mujassami, siyosiy-huquqiy ifodasini topadi. «Davlat jamoasi» ning har bir a'zosi davlatning mavjudligidan manfaatdor. Chunki, davlat vositasida shaxsiy daxlsizlik va erkinlik, oila va mulk muhofazasi, shuningdek shaxsiy hayot xavfsizligi kafolatlanadi. Shu tariqa individ (shaxs) dastlabki barqaror siyosiy sifatlarga ega bo'lib, mamlakat siyosiy hayotining ishtirokchisiga aylanadi.

Uchinchi – davlatning vujudga kelishida jamiyatning ijtimoiy – sinfiy ta'baqalanishi muhim rol o'ynaydi. Bundan shu ma'no chiqadiki, davlat iqtisodda hukmron sinfning siyosiy tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi – davlat o'z ijtimoiy manfaatlarini qondirish uchun birlashgan insonlar dastlabki siyosiy faoliyatining mahsulidir. Bu siyosiy voqeeliklarning umumuniversalligi bilan bog'liq. Siyosiy hayot ommaviy hokimiyat faoliyati va mamlakatning butun hududi miqyosida kechadi. Shu bois davlat siyosiy hayotni tashkillashtirish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Davlat qonunchilik hujjatlari yordamida «siyosiy o'yin qoidalarini» belgilaydi. Davlat mamlakat miqyosida siyosiy hayotning shakli sifatida jamiyat siyosiy tizimi bilan aynan mos keladi. Davlat o'zining vazifasi va funksional xususiyatlari (tavsifi) bilan siyosiy tizimning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Beshinchi – davlat jamiyatning siyosiy tizimi bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'lovchi va muvofiqlashtiruvchi muhim bo'g'indir. U jamiyat manfaati uchun zarur umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Masalan, transport, aloqa, uy-joy qurilishi, energetika ta'minoti, ekologiya sofligini ta'minlash, ta'lim tizimini tashkil etish va hokazo sohalarda davlat amalga oshiradigan faoliyat butun jamiyatning umumiy manfaatlarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir. Xalq bu hokimiyatni vakillik demokratiyasi (saylab qo'yiladigan davlat hokimiyati organlari orqali) va bevosita demokratiya yo'li bilan amalga oshiradi. Bevosita demokratiya shakllariga fuqarolarning davlatni boshqarishda, referendumda ishtirok etish hamda jamoat birlashmalariga uyushish huquqi kiradi. Fuqarolar bu huquqlarni turli jamoat tashkilotlariga uyushish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin. Bunday tashkilotlar qatoriga siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari va har xil ijodiy uyushmalar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1 bobining mazmunidan kelib chiqib, siyosiy tizimga O'zbekiston xalqi siyosiy faoliyati tashkiliy shakllarining majmui, deb ta'rif berish mumkin. Bunda davlatga xalq siyosiy faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli sifatida qaraladi, chunki boshqa shakllar davlatga nisbatan ikkilamchi xususiyatga ega. Ular davlat oldida turgan vazifalarni hal qilishga nodavlat tuzilmalar vositasida yordam beradi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda barcha fuqarolarning ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi, davlat hayotida demokratiya asoslarining yanada kengayishiga ko'maklashadi. Jamiyat siyosiy tizimida davlatning asosiy o'rni va roli davlat siyosiy tizimning asosiy elementi deb aytish imkonini beruvchi bir qancha xususiyatlar bilan belgilanadi.

Birinchidan, davlat O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli xalqining siyosiy tashkiloti, ya'ni ijtimoiy, mulkiy mavqei, irqi, millati, kasb-kori va hokazolardan qat'i nazar, jamiyat barcha a'zolarining tashkilotidir. Shu bois, davlat butun xalq tashkiloti sifatida siyosiy tizimning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda kengroq ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, davlat xalq manfaatlarining rasmiy ifodachisi sifatida, mulkning barcha shakllari rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Uchinchidan, davlat maxsus apparatga ega. Boshqa tarkibiy qismlardan farqli o'laroq, bu apparat organlariga hokimiyat vakolatlari beriladi. Bunday vakolatlarga ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlari ega bo'ladi. Ular tarkibiga majburlov vazifalarini bajaruvchi ichki ishlar, soliq, bojxona, prokuratura va milliy xavfsizlik organlari kiradi.

To'rtinchidan, siyosiy tizimning boshqa elementlaridan farqli o'laroq, davlat organlari o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish hamda ularning ijrosi ustidan nazorat tizimiga ega bo'ladi. Jamoat tashkilotlari normativ hujjatlar qabul qilish huquqiga ega. Bu normativ hujjatlar faqat mazkur jamoat tashkiloti a'zolariga nisbatan tatbiq etiladi.

Beshinchidan, davlat suverenitetga, ya'ni davlat hokimiyatining barcha siyosiy partiyalar, muassasalar, fuqarolar va nodavlat tashkilotlariga nisbatan

ustunlikka ega. U suverenitetga ega bo'lgan holda, o'zini o'zi tashkil etadi va umummajburiy xulq-atvor qoidalari (qonunlar) qabul qiladi. Davlat qonunlar chiqarish orqali siyosiy tizimga kiruvchi barcha tashkilot, muassasa, birlashmalarning huquqiy maqomini belgilab beradi.

Shunday qilib, davlat jamiyat siyosiy tizimida alohida o'rin egallaydi va undagi munosabatlarni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi.

4-§. Jamoat birlashmalari va davlat organlarining o'zaro munosabatlari

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan jamoat birlashmalarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarda jamoat birlashmalarining huquqlari, ularning maqsadlari, ish faoliyatining shakllari, tuzilish tartibi mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari o'zlarining davlat va jamiyat ishlarida qatnashish huquqini jamoat birlashmalariga uyushgan holda amalga oshiradilar. Jamoat birlashmalarining faoliyati juda keng sohalarni o'z ichiga oladi. Ularning huquqlari, har bir jamoat birlashmasining nizomi va boshqa huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan.

Jamoat birlashmalarining nizomlari davlat tomonidan ro'yxatga olinadi. Nizomlarni ro'yxatga olish tartibi jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunning 11-moddasida ko'rsatilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro jamoat tashkilotlari, respublika viloyatlararo birlashmalarining nizomlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olinadi.

Viloyat, tuman, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq tuman, shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining nizomlari esa, viloyat adliya boshqarmalarida ro'yxatga olinadi. Jamoat birlashmalari, ularning nizomlari ro'yxatga olingan kundan boshlab, o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar va yuridik shaxs deb tan olinadilar. Jamoat birlashmalari nizomlarida, dasturiy va boshqa hujjatlarida belgilangan maqsadlar, vazifalarni amalga oshirish uchun o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadilar, qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda esa:

– davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini shakllantirishda qatnashadilar;

– davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadilar;

– davlat va jamoat organlarida o‘z a‘zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadilar va ularning manfaatlarini himoya qiladilar;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlarda, jamoat birlashmalarining dasturlari va nizomlarida ko‘rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Shunday qilib, O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga fuqarolarni jalb qilib, ular ishtirokida davlat va jamiyatni rivojlantirishga hissa qo‘shish uchun to‘liq imkoniyatlar yaratilgan.

Jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qonunda ularni tuzish va faoliyatini to‘xtatish tartibi ham ko‘rsatilgan. Jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta‘sis s‘ezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig‘ilishini o‘tkazadi, uning nizomi (o‘zga asosiy hujjati) qabul qilinadi va rahbar organlari tuziladi. Qonunga muvofiq, nafaqat O‘zbekiston fuqarolari, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham jamoat birlashmalariga a‘zo etib qabul qilinadilar. Faqat 18 yoshga to‘lgan fuqarolar Respublika siyosiy partiyalariga a‘zo bo‘lish huquqiga egadirlar.

Partiyalar o‘z a‘zolarining siyosiy irodasini ifodalab, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzishda ishtirok etishni, shuningdek respublika Oliy Majlisi va Xalq deputatlari kengashlariga saylangan o‘z vakillari orqali hokimiyat organlarining faoliyatida qatnashishni asosiy vazifa qilib qo‘yadilar. Ularning dasturiy hujjatlari bo‘ladi va bunday hujjatlar matbuot orqali ommaning e‘tiboriga havola qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi o‘zi xohlagan siyosiy partiyaga a‘zo bo‘lib, o‘sha partiya orqali o‘z siyosiy irodasini ifoda etishi mumkin. Bunday erkinlik, o‘z navbatida, xalq siyosiy ongining o‘shishiga olib keladi. O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar har xil yo‘llar bilan o‘z a‘zolari va boshqa fuqarolarning davlat ishlarida ishtirok etishini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Siyosiy partiyalar respublika Oliy Majlisi, Xalq deputatlari kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatishi, saylov oldi tashviqot ishlarini olib borishi, respublika Oliy Majlisida va tegishli Xalq deputatlari kengashlarida o‘z tarafdorlari bo‘lgan deputatlar fraksiyalari, guruhlarini tuzish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari siyosiy partiyalarning dasturini, ularning maqsadlarini o‘rganib chiqish imkoniyatiga egadirlar. Ular o‘z ixtiyorlari va xohish-irodalarini siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘lish orqali ifodalaydilar. Siyosiy partiyaga a‘zolik faqat yakka tartibda amalga oshiriladi. Bir partiyaning a‘zosi, ayni vaqtda, ikkinchi partiyaga a‘zolikka qabul qilinmaydi. Ommaviy

jamoat harakatlari ham siyosiy yoki o'zga maqsadlarni ko'zlaydilar, lekin ularning ro'yxatga olingan a'zolari bo'lmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar, harbiy xizmatchilar o'z xizmat faoliyatida faqat qonun doirasida ish yuritadilar, shuning uchun bu shaxslar siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadni ko'zlovchi ommaviy harakatlarning a'zolari bo'la olmaydilar.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda faqat o'z nizomidagi vazifalarni bajarish maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni tuzishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromadlardan faqat nizomda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunga asosan, siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlarning diniy tashkilotlardan, chet el davlatlari tashkilotlari va fuqarolaridan moliyaviy va o'zga yordam olishi man etiladi, ulardan tushgan mablag'lar esa, davlat foydasiga o'tkaziladi.

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga asosan, o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar. 2004-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi¹. Qonun ushbu sohadagi tegishli munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan va unda siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning quyidagi manbalari belgilangan:

- kirish va a'zolik badallari;
- qonunga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- mamlakatimizdagi yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan Qonunga muvofiq tartibda beriladigan xayriya yordami.

Siyosiy partiya Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov yakuni bo'yicha o'z fraksiyasini tuzish uchun zarur deputatlik o'rinlarini (9 deputat) olgan bo'lsa, davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi (Qonunning 7-moddasi).

Jamoat birlashmalarining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi. Jamoat birlashmalari o'z ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishlari hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan ham shug'ullanishlari mumkin.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004-yil, 5-son, 86-modda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, respublika Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari butun respublika hududida faoliyat ko'rsatadigan barcha jamoat birlashmalari uchun ularning nizomlarida, boshqa hujjatlarida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat bolalar, yoshlar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalarning binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylari, sport inshootlaridan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Konstitutsiyaga asosan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik, ma'muriy va jinoyat kodekslarida jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi qoidalar mustahkamlangan. Davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun bu qoidalar majburiydir. Qonunga asosan, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, boshqa jamoat birlashmalari faoliyati asosan ular a'zolarining (qatnashuvchilarining) ishdan bo'sh vaqtida va mazkur birlashmalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalarining manfaatlariga daxldor masalalar qonunlarda ko'zda tutilgan holda tegishli jamoat birlashmalari ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda davlat organlari va xo'jalik tashkilotlari tomonidan hal qilinadi.

Davlat moliya organlari jamoat birlashmalarining mablag' bilan ta'minlanishi va ular daromadlarining manbalarini soliqlar to'g'risidagi qonunlarga muvofiq nazorat qilib boradi. Prokuratura organlari esa jamoat birlashmalari respublika qonunlari va respublika Prezidenti farmonlarini qay darajada to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilish huquqiga ega.

Jamoat birlashmalarining nizomini ro'yxatga olgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning joylardagi organlari jamoat birlashmalari faoliyatining maqsadlariga taalluqli nizom qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladilar. Jamoat birlashmasi, uni ro'yxatga olgan Adliya vazirligi organlariga ularni qiziqtirgan masalalar bo'yicha hisobot berib turadi. Ro'yxatga oluvchi adliya organlari jamoat birlashmasining rahbar organidan qabul qilingan qarorlarni taqdim etishni talab qilishga, jamoat birlashmalari o'tkazadigan tadbirlarda

qatnashish uchun o'z vakillarini yuborishga haqli. Ular jamoat birlashmasining nizomiga rioya qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan uning a'zolari va boshqa fuqarolardan tushuntirish xati olishlari mumkin. Bu har qanday birlashma faoliyatining oshkoralik bilan amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy, moddiy yoki boshqa javobgarlikka sabab bo'ladi. Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun aybdor bo'lgan davlat va jamoat organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar javobgarlikka tortiladilar. Shu bilan birga o'z nizomini ro'yxatdan o'tkazmagan jamoat birlashmalari ham jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzsalar, javobgar bo'ladilar.

Agar jamoat birlashmasi o'z nizomida belgilab qo'yilgan maqsadlar va vazifalar doirasidan chetga chiqadigan yoki qonunni buzadigan xatti-harakatlarni sodir etsa, shu jamoat birlashmasining rahbar organi jamoat birlashmasi nizomini ro'yxatga olgan adliya organi yoki prokuror tomonidan yozma ravishda ogohlantirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasiga muvofiq, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi. Mahalliy jamoat birlashmalariga nisbatan bunday harakat tegishli viloyat, Toshkent shahar, tuman sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro jamoat birlashmalari, davlatlararo jamoat birlashmalarining bo'limlari, viloyatlararo jamoat birlashmalarining faoliyati esa respublika Bosh prokurori, O'zbekiston Adliya vazirligi taqdimiga muvofiq O'zbekiston Oliy sudi qarori bilan to'xtatilishi mumkin. Bunday vaqtda Oliy sud qarori ustidan shikoyat qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng ko'ppartiyaviylik muhiti vujudga keldi. Hozir O'zbekistonda bir necha siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar paydo bo'ldi va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda. Xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi va O'zbekiston yoshlari ittifoqi kabi tashkilotlar shular jumlasidandir.

1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 1-moddasida siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Siyosiy partiya qarashlar, qiziqishlar va maqsadlarning mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ixtiyoriy birlashmasidir». Siyosiy partiyalar to'g'risidagi ushbu qonunda, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari, ular faoliyatining kafolatlari, ularni

tuzish tartibi, nizomi, ro'yxatga olish, faoliyatini to'xtatish tartibi, ularning huquqlari, vakillik organlaridagi partiya fraksiyalari, guruhlarining maqsadi, vazifalari to'liq ko'rsatib berilgan.

O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunday mas'uliyatning asosiy negizi har qanday jamoat birlashmasi oldiga qo'yilgan yagona maqsadni, ya'ni bозor munosabatlariga o'tish jarayonida har bir fuqaroning ijtimoiy himoyalangan bo'lishi, ularning davlat va jamiyatni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat. Jamoat birlashmalari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o'z a'zolari ishtirokida tahlil qilishlari va ularga nisbatan o'zlarining fikrlarini bildirishlari, islohotlar natijasida o'z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari hamda barcha a'zolarini ularni bajarishga jalb etishlari lozim. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi barcha kuchlarni yagona maqsad – O'zbekistonning yuksak taraqqiyoti, har bir fuqaroning tinch-totuv va farovon hayot kechirishi yo'lida birlashtiradi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida mamlakat siyosiy tizimining, shu jumladan, davlatning demokratlashuvi tendensiyasi kuchayadi. Bir tomondan, siyosiy tizimning barcha tarkibiy bo'g'inlari faoliyatining xalq ommasining ishtiroki, daxldorligi kuchayadi (kengayadi), ikkinchi tomondan, davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi, ijtimoiy sherikchiligi rivoj topadi.

Bu borada davlat xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilot sifatida quyidagi yo'nalishlarda o'z faoliyatini faollashtiradi:

Birinchi yo'nalish – davlat organlari o'z faoliyatini oshkoralik va ochiqlik muhitida amalga oshira borib, jamiyatni o'z faoliyatining asosiy mazmunidan muntazam xabardor etib boradi. Davlat organlari faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash mexanizmlari rivoj topadi. Davlat organlarining parlament va xalq oldida hisobot berish institutlari vujudga keladi. Jumladan, Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida quyidagilarni ta'kidladi: «Endi nafaqat hukumat, balki mutasaddi vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, shuningdek, hokimlar ham o'z faoliyati yakunlari bo'yicha hisobot berish tizimi joriy etiladi va shunga qarab ularning ishiga baho beriladi»¹, shuningdek, «2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi»².

¹ Qarang: Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2017. – 17-bet.

² O'sha manba, 18-bet.

Ikkinchi yoʻnalish – davlat organlarining siyosiy tizimning boshqa boʻgʻinlari hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan oʻzaro hamkorligi kengayib boradi. Jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishga davlat organlari bilan bir qatorda siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari, shu jumladan mahallalar keng jalb etiladi. Bunda jamoatchilik muhokamalari va jamoatchilik ekspertizasi oʻtkazish, davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlikdagi jamoatchilik kengashlari (komissiyalari) tuzilishi va ular faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish tendensiyasi kengayadi.

Uchinchi yoʻnalish – siyosiy tizim doirasida demokratik institutlarning kengayib borishi, davlat, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari hamkorligining yangi shakllari paydo boʻlishi, oʻz navbatida, ular faoliyat koʻrsatishining qonunchilik va huquqiy bazasini shakllantirish, tegishli huquqiy mexanizmlarni vujudga keltirish va huquqiy amaliyotni monitoring qilish institutlari kengayishi tendensiyasi namoyon boʻlishiga olib keladi.

Shu tarzda siyosiy tizim doirasida demokratik hamkorlik, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari qaror topadi.

Ikkinchi bo'lim. HUQUQ NAZARIYASI

VIII bob. HUQUQNING MOHIYATI

1-§. Huquqning tabiatini anglash

Huquq – insoniyat uzoq tarixiy tamadduni mobaynida kashf etgan noyob ijtimoiy qadriyatlardan eng sarasi. U jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'zining quyidagi boy jihatlari va qirralari bilan namoyon bo'lib keladi: *birinchidan*, huquq – haqiqat, adolat mezoni; *ikkinchidan*, erkinlik me'yori; *uchinchidan*, tenglik timsoli va o'lchovi; *to'rtinchidan*, hokimiyat va jamiyat irodasining normativ ifodasi; *beshinchidan*, qat'iy tartibot tasdig'i; *oltinchidan*, jamiyatdagi qonuniy manfaatlarni ta'minlash vositasi; *yettinchidan*, barqarorlik va xavfsizlik kafolati; *sakkizinchidan*, zo'rlik va tajovuzni cheklash vositasi (ba'zi tarixiy davrlarda ekspluatatsiyani, zo'rlikni qonunlashtirish, ta'minlash vositasi); *to'qqizinchidan*, davlat hamda jamiyat farovonligi yo'lida (ba'zan totalitar ta'qib maqsadida) majburlash chorasi; *o'ninchidan*, qonunbuzarni jazolash omili va boshqa ko'plab fazilatlar hamda xususiyatlar bilan sifatlanadi.

Huquq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy-tarixiy zaruriyat tarzida, kishilar o'rtasidagi muomalaning qat'iy (imperativ) mezoni, insoniy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida paydo bo'lib, asrlar osha amal qilib kelmoqda.

Huquqning sirli ichki olamini, murakkab serqirra tabiatini, benazir salohiyati va imkoniyatlarini anglash, uning tub mohiyatiga yetib borish sermashaqqat ilmiy izlash, mushohada etish asosida amalga oshishi mumkin bo'lgan murakkab aqliy-tahliliy faoliyatni talab etadi. Huquq haqidagi hozirgacha mashhur nuqtayi nazarlarni umumlashtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin: huquq rasman teng va erkin subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixan qaror topgan, shakllangan mezoni, qonuniy me'yorlardan chetga chiqish davlat majburlovi vositalari bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tartibotning normativ ifodasi.

Huquqning mo'jizaviy tabiatini, qat'iy tartibotli voqeligini anglash borasidagi insoniyatning intilishi, uning tub mohiyati sari yuksalib borish to'laqonli ko'p tarmoqli huquqshunoslik (yurisprudensiya) fani shakllanishiga olib keldi. Mazkur fan huquqiy mushohada, tahlil va tafakkurning mahsuli sifatida qator ming yilliklar mobaynida huquq bilan muvoziy tarzda shakllanib hamda

rivojlanib kelmoqda. Shu bois huquqning talqiniga oid turli-tuman ta'limotlar qaror topdi.

Mashhur huquqshunos E.N. Trubeskoy «Huquq qomusi» asarida (1901-y.) «Biz o'zimiz uchun huquq aslida nima ekanligini aniqlab olmasak, huquqning u yoki bu konkret ko'rinishlari to'g'risidagi mulohazalarimiz noaniqlik, muayyan ilmiy mazmunsizlik qusuriga ega bo'ladi»¹, – deb yozadi. Olim fikrini davom ettirib, shunday deydi: «Ilmda bahsli bo'lgan huquqning mohiyati masalasini hal etish uchun, avvalo, uning shubhasiz belgilarini aniqlab olish, so'ngra munozarali jihatlarini tahlil etishga o'tish ma'qul»². Shunga ko'ra, huquqning tushunchasi haqidagi tahlilimizni quyidagi mulohazalar bilan boshlaymiz.

Huquq – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, davlat tomonidan qabul qilingan yoki ma'qullangan yashash qoidalari tizimidir. Huquq – qonun darajasida ifodalangan iroda. Rossiyalik olim S.S. Alekseevning fikricha, huquq – qonunlarda yoki davlat tomonidan tan olinadigan boshqa manbalarda mustahkamlanadigan va huquqiy ruxsat etilgan hamda yuridik jihatdan ruxsat berilmagan, taqiqlangan xulq-atvorni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan huquq umummajburiy normalar tizimi³. Fikrimizcha, **huquq** – *jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning yurish-turishi, xulq-atvori, asosiy hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, davlat tomonidan rasmiylashtirilgan yashash qoidalari tizimidir.*

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy huquqni fozil kishilarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit, ijodiy mehnatga imkon yaratish, ehtirolarni jilovlash vositasi, insonni asrash, avaylash qurolidir.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyator bo'lib, qonunchilik hujjatlarida ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalari tayanuvchi normativ qoidalar tizimidir. Ushbu xulosa quyidagi metodologik fikrga asoslanadi: «Huquq – ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»⁴.

Huquqning ijtimoiy barqarorlik, erkinlik, adolat va tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi uning jamiyat hayotidagi qadriyat sifatidagi nufuzini nihoyat-

¹ Qarang: Трубеской Е.Н. Энциклопедия права.– Киев, 1901. – 11-bet.

² O'sha joyda.

³ Qarang: Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М., 1999. – 58-bet.

⁴ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996. – 20-bet.

da oshiradi. Akademik V.S. Nersesyansning e'tiroficha, «Huquq o'z mohiyatiga ko'ra real munosabatlarda tarixan obyektiv belgilangan erkinlikning muayyan shakli, mazkur erkinlikning me'yor, erkinlik mavjudligining namoyishi, shakllangan erkinlik», «rasman (shaklan) erkinlik prinsipi aynan huquqning o'zi bo'lib, u huquqqa xos adolatni aks ettiradi»¹. To'g'ri, tenglik va erkinlik chindan ham huquqiy g'oyalar bo'lsa-da, uning mohiyatini adolat g'oyasi to'laroq ifodalaydi.

Huquq davlat hokimiyatining obro'yi bilan quvvatlangani bois ijtimoiy regulyatorga aylanadi. Shu sababli huquq oddiy emas, balki normativ mustahkamlangan, norma (me'yor) darajasiga ko'tarilgan g'oyadir. S.S. Alekseev huquqni «normativ sistema» deb ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, «huquqning jamiyat hayotidagi asosiy qadr-qimmati, ijtimoiy vazifasi va ahamiyati normativ sistema ekanligida»². Huquq davlat darajasida umumlashtirilgan irodaning normativ ifodasidir.

Huquqning davlat bilan uzviy aloqasiga asoslanib (ma'lumki, davlat hokimiyat-majburlov vositalari yordamida huquqni amalga oshirishni ta'minlaydi), ko'pincha huquqni davlat yaratadi, degan xulosaga kelinadi. Bunga ayrim normalarni davlat rasman tasdiqlashi va hatto o'z qonun ijodkorligi faoliyatida qabul qilishi ham turtki beradi. Bu holda huquqni davlat tomonidan qabul qilingan yoki tasdiqlangan va uning majburlov kuchi bilan ta'minlangan yuridik normalar majmui sifatida ta'riflash uchun asos paydo bo'ladi.

Huquq-murakkab, serqirra va ko'p ma'noli hodisa. *Birinchidan*, umumijtimoiy ma'nodagi huquq (ma'naviy huquq, xalqlar huquqi va sh.k.), *ikkinchidan*, maxsus yuridik ma'nodagi, davlat bilan bog'liq yuridik vosita sifatidagi huquq farqlanadi.

Huquq (sof yuridik ma'noda) – ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi, davlat tomonidan o'rnatiladigan hamda ta'minlanadigan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yuridik normalar tizimi.

Huquq nafaqat eng muhim, balki o'ta murakkab ijtimoiy hodisalar qatoriga kiradi. Rim yuristlari huquqning ma'nosini tushunish va uning jamiyat hayotidagi o'rnini aniqlashga harakat qilib, huquq mazmuni faqat bir belgi yoki xususiyat bilan cheklanmasligiga e'tiborni qaratgan edilar. Ulardan biri – Pavel huquq bir necha ma'noda qo'llanilishini qayd etgan: birinchisi – huquq «hamisha odilona va oqilona bo'lgan narsa»ni anglatadi – bu tabiiy huquq; ikkinchisi – huquq «muayyan davlatda hammaga yoki ko'pchilikka foydali bo'lgan narsa» ma'nosida keladi – bu fuqarolik (sivil) huquqi. Jamiyat va dav-

¹ Qarang: Нерсесянц В.С. Право и закон. – М., 1983. – 342–343-betlar.

² Qarang: Алексеев С.С. Восхождение к праву: поиски и решения. – М.: Норма, 2001. – 54-bet.

latning rivojlanishiga muvofiq tarzda odamlarning huquq haqidagi tasavvuri ham o'zgarib bordi, biroq rim yuristlari tomonidan yaratilgan dastlabki asoslar takomillashgan ko'rinishda bo'lsa ham saqlanib qoldi. Rim huquqining ko'pgina institutlari (masalan, mulk huquqi, vorislik huquqi, oldi-sotdi huquqi va b.) dan boshqa mamlakatlarda fuqarolik kodekslari va o'zga normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan va hozir ham foydalanilmoqda. Unda rim huquqi prinsiplari va turli institut-larining kuchli ta'siri ostida mulk huquqi alohida qayd etilgan, mulkni egallash yo'llari va usullari mustahkamlangan. Rim huquqining boshqa mamlakatlar huquqiy tizimlariga bunday ta'siri (u yuridik adabiyotlarda «rim huquqi resepsiyasi» deb ataladi) mazkur tizimlarning xususiyati va mazmunida, shuningdek huquq tushunchasiga berilgan ta'rifda sezilarli darajada aks etdi.

Qadimgi yunon va rim faylasuflari tomonidan ta'riflangan huquq va odilik, huquq va ezgulikning uzviy aloqasi haqidagi qoidalar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. «Siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi norma» bo'lgan huquq, qadimgi yunon mutafakkiri Aristotelning ta'biri bilan aytganda, «adolat mezon» bo'lib xizmat qilishi lozim. Huquqni o'rganuvchi, eng avvalo, jus (huquq) so'zi qayerdan kelib chiqqanini; u «justitia» – haqiqat, adolat so'zidan olinganligini yodda tutish kerak, – deb yozgan edi qadimgi rim yuristi Ulpian.

Mashhur davlat arbobi va huquqshunos M.T.Sitseronning fikricha, huquq asosida tabiatga mos bo'lgan haqiqat yotadi. Bunda haqiqat abadiy, o'zgarmas va ham butun tabiatning va ham inson tabiatining ajralmas xususiyatidir. «Haqiqiy qonun» – tabiatga mos, oqilona, barcha insonlarga tatbiq etiladigan, doimiy, abadiy qoida bo'lib, insonlarni hamisha burchni bajarishga chorlaydi, buyruq berish va taqiqlash bilan jinoyat sodir etishdan qaytaradi; lekin, kerak bo'lmagan chog'da rostgo'y odamlarga hech narsani buyurmaydi va ularga hech narsani taqiqlamaydi.

Tabiiy huquq qoidalari hozirgi zamon huquqshunoslik nazariyasi va amaliyotida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu qoidalar ko'pgina davlatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligida o'z aksini topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi» ekanligi bevosita ko'rsatilgan (24-modda). Shu tariqa mazkur huquq davlat yoki boshqa organ tomonidan in'om etilmasligi, balki hech kimga bog'liq bo'lmagan tabiiy sabablarga ko'ra mavjud bo'lishi ta'kidlangan. Huquqning mohiyati va mazmuni haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga, shuningdek uning ta'rifiga boshqa omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunda huquqning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni va ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy jihatdan huquq hech qachon mavhum bo'lmashligi umumiy tan olingan talabdir. «Abstrakt» huquq mavjud emas, u doimo aniq va konkretidir. Bu tabiiy bir holdir, chunki huquq azaldan ayrim sinf, millat yoki odamlar guruhi faoliyati natijasi sifatida vujudga kelmaydi va maydonga chiqmaydi, balki butun jamiyat hayoti mahsuli va uning tabiiy rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Huquq – yuksak ijtimoiy qadriyat va butun insoniyat madaniyatining ko'rsatkichi.

Huquq butun jamiyat yoki, hech bo'lmasa, uning katta qismining manfaatlarini aks ettiruvchi qoidalar nafaqat xalqaro-huquqiy hujjatlarda, balki ayrim davlatlar tomonidan qabul qilinuvchi hujjatlar, chunonchi: konstitutsiyalar, qonunlar, ba'zi qonun osti hujjatlarida ham ifodalanadi. Amalda har bir davlat konstitutsiyasida butun jamiyat manfaatlariga tegishli talablar va qoidalar aks etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, hammaning qonun oldida tengligi (18-modda), har kimning yashash huquqi (24-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (25-modda), mehnat qilish, dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim olish kabi huquqlari mustahkamlab qo'yilgan.

Huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umum-majburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, yuridik adabiyotlarda huquq tushunchasini ta'riflashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Huquq haqidagi fikr-mulohazalar xilma-xilligi u haqda aniq tasavvurning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar mavjudligidan kelib chiqadi.

2-§. Huquqning asosiy belgilari

Huquq ta'riflarining ko'pligiga ijobiy hodisa sifatida qarash kerak, chunki u huquqqa asrlar osha nazar tashlash, uni nafaqat turg'un holatda, balki (dinamikada) rivojlanish holatida ham ko'rish imkonini beradi. Biroq, bu hodisa kamchiliklardan ham xoli emas. Asosiy kamchilik ta'riflardagi farqlar tug'diradigan qiyinchiliklar, huquqni bilish va undan amalda foydalanishda yagona, izchil jarayonning yo'qligi bilan bog'liq.

Huquq tushunchasiga ta'riflar ko'pligidan kelib chiquvchi qiyinchiliklarni bartaraf etishning bir necha yo'llari mavjud. Shunday yo'llardan biri huquq

tushunchasining turli zamonlarda taklif qilingan ayrim ta'riflari asosida «barcha zamonlar» va «hayotning barcha holatlari» uchun yaroqli bo'lgan umumiy ta'rifni ishlab chiqishdan iborat, ya'ni huquqning eng muhim belgilari va jihatlari aniqlash va ko'rib chiqish lozim. Bu yerda, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatidagi huquqning belgilari to'g'risida so'z yuritilmoqda.

Huquqqa turli yondashuvlarning tahlili uning quyidagi muhim xususiyatlari va belgilarini qayd etish imkonini beradi:

1. Huquq – normalar yoki xulq-atvor qoidalari tizimi. Boshqa har qanday tizim singari, u ham bir tartibli, o'zaro uzviy bog'langan va o'zaro ta'sirga kirishuvchi qismlardan tash-kil topadi. Tizimning ayrim tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keluvchi aloqalar yagona maqsadlarga erishishga qaratilishi lozim. Har qanday normalar (xulq-atvor qoidalari) tizimi zamirida obyektiv va subyektiv omillar yotadi. Obyektiv omillar orasida muayyan mamlakatda huquqiy normalar tizimi vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy va boshqa omillar alohida o'rin egallaydi. Ayrim normalar ham, ularning tizimi ham amalda o'z-o'zidan, muayyan shaxslarning xohishi yoki ko'rsatmasiga binoan vujudga kelmaydi, ular jamiyat va davlat hayotining obyektiv ehtiyojlari ta'sirida vujudga keladi.

Normalar tizimining vujudga kelish va faoliyat ko'rsatish jarayoni obyektiv omillar bilan bir qatorda subyektiv omillar ham mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu yerda muayyan mamlakatda ilmiy asoslangan huquqiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunchilik ishlari rejalarini tayyorlash va bajarish, davlat organlarining huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyati jarayonida yuristlarning faol ishtiroki to'g'risida ham gap bormoqda.

2. Huquq – davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan normalar tizimi. Jahonda turli ijtimoiy normalar tizimlari juda ham ko'p. Biroq, faqat huquqiy normalar tizimigina davlat tomonidan yaratiladi. Huquq normalarini o'rnatar ekan, davlat bevosita o'z vakolatli organlari orqali ish ko'radi.

Huquqiy normalar tizimining davlat tomonidan o'rnatilganligi va ma'qullanganligi ularning davlatga to'la bog'liqligini va unga bo'ysunishini anglatadimi? Bu masalaga ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuvga ko'ra, huquq normalariga «davlat talablari» sifatida qaraladi. Bunda davlat huquq manbasi sifatida ta'riflanadi. Davlat hokimiyati huquqqa tobe emas, balki undan ustun bo'lib qoladi. Shunday qilib, davlatga birlamchi, huquqqa – ikkilamchi hodisa sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra, davlat, davlat hokimiyati huquqiy xususiyat kasb etadi. Davlat hokimiyati zamirida fakt emas, balki huquq yotishi kerak. Davlat, garchi u huquqiy hujjatlar qabul qilsada, huquqning manbayi bo'lishi mumkin emas. Chunki, davlat hokimiyatining o'zi huquqdan kelib chiqadi, ya'ni uning vakolatlari huquq vositasida rasmiylashtiriladi. Davlat huquqdan emas, balki huquq davlatdan ustun turadi, uni muvozanatga soladi va chegaralaydi.

Bundan tashqari, davlat va huquq o'zaro munosabatlari xususiyatiga nisbatan boshqacha yondashuvlar ham mavjud. Bu yondashuvlar murakkabligi, har xilligi va ziddiyatliligiga qaramay, ularning aksariyati huquq normalari davlatning huquq ijodkorligi faoliyati bilan belgilanadi, davlat tomonidan qabul qilinadi yoki tasdiqlanadi, degan asosiy fikrga asoslanadi.

3. Huquq – umummajburiy xususiyatga ega normalar yoki xulq-atvor qoidalari tizimi. Umummajburiylik (ya'ni, normativlik) huquq normalarida ifodalangan talablar jamiyatning barcha a'zolari tomonidan bajarilishi shartligini anglatadi. U huquq normasi bilan birga yuzaga keladi, u bilan birga rivojlanadi va huquq normasi ifodalangan hujjat bekor qilinishi bilan bir vaqtda barham topadi.

Umummajburiylik nafaqat oddiy fuqarolar, mansabdor shaxslar, turli no-davlat organlari va tashkilotlari, balki davlatning o'ziga nisbatan ham tatbiq etiladi. Basharti, huquqiy davlat, agar u og'izda emas, balki amalda ma'rifatli va huquqiy bo'lsa, u muqarrar tarzda o'zini va o'z organlarini huquq normalari talablarining umummajburiyiligi bilan cheklaydi, o'z faoliyatini qonun talablariga qat'iy muvofiq tarzda tashkil etadi va bu talablar ular ifodalangan normalar bilan birga belgilangan tartibda o'zgartirilmagunicha yoki bekor qilinmagunicha ularga rioya qiladi.

4. Huquq – normativ xususiyatga ega rasmiy talab yig'indisi. Normativlik barcha ijtimoiy normalarga taalluqli xususiyatdir, ammo, huquqning normativligi boshqa ijtimoiy normalardagiga qaraganda o'zining qat'iyligi, imperativ (buyruq mayliga ega)ligi, davlat hokimiyatining kuchiga tayanganligi bilan ajralib turadi. Normativlik, ya'ni hayotiy munosabatlarni (vaziyatlarni) muayyan aniq tarzda me'yorlash, umumiy kelishilgan va rasmiy o'rnatilgan qolip doirasiga kiritish hisoblanadi. Normativ qoida jamiyat (jamo) miqyosida yalpi umumiy xususiyatga, umummajburiy tabiatga ega bo'lishdir. Normativlik deganda, rasmiy o'rnatilgan normalar vositasida ijtimoiy munosabatlarni, insonlar (ular tashkilotlari) xulq-atvorini, faoliyatini tipik tarzda (bir xilda) universal tartibga solish tushuniladi. Huquqning normativligi ijtimoiy hayotda umumiy batartiblik va barqarorlikka intilishni anglatadi.

Huquqning normativligi belgisi uning mohiyati, mazmuni va shaklining nisbatini aniq ajratib olish imkonini beradi. Chunki, ba'zi mualliflar huquqning mazmunini uning mohiyati bilan almashtirib yuboradilar, boshqa olimlar – huquq mazmunini uning shakli bilan adashtiradilar.

Bu masalaga oydinlik kiritish uchun huquqni davlat-irodasi va normativlik nuqtayi nazaridan izohlash lozim. Agar huquqning mohiyati uning real hayot sharoitlari bilan belgilangan jamiyatning davlat irodasi ekanligida bo'lsa, uning mazmuni ushbu irodaning normativ ifodalanishidir. Zero, jamiyatning irodasini qonun vositasida davlat irodasi tarzida rasmiylashtirish uchun uni huquqiy hujjat yordamida o'rnatish yoki sanksiyalash (ma'qullash) lozim bo'ladi. Huquqning shakli u bayon etiladigan normativ-huquqiy hujjatlardan iborat. Huquqning tegishli hujjatda ifodalangan mazmuni uning mohiyatini oydinlashtiradi (konkretlashtiradi).

Normativlik huquqni yaratish sohasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Qonun (huquq) ijodkorlarining fikrlash jarayoni ham normativ sifat kasb etadi. Qonun (huquq) ijodkorlikning tili, grammatika qoidalari – normativ; huquq yaratish jarayoni, tartib-taomillari – normativ. Huquqiy tartibga solish qamroviga olingan xulq-atvor (faoliyat) ham normativdir. Insoniyat o'z bilimlari va tajribasini umumlashtirib, uning «qaymog'ini» qoidalarda, normalarda ifoda etadi va ushbu qoidalarga rioya etib, ijtimoiy hayotning o'ta muhim jihatlarini normativ qolipga soladi. Shu ma'noda huquq madaniy taraqqiyotning mahsuli, yutug'i hisoblanadi.

5. Huquq davlat tomonidan muhofaza qilinadi va ta'minlanadi.

Huquq normalarida ifodalangan talablar buzilgan hollarda davlat majburlovi qo'llaniladi.

Davlat o'zi qabul qilgan yoki tasdiqlagan hujjatlarga befarqlik bilan qaray olmaydi, u mazkur hujjatlarni amalga oshirishga katta kuch-g'ayrat sarflaydi, ularni muhofaza qiladi va bajarilishini kafolatlaydi. Bunda keng qo'llaniladigan usullardan biri – ishontirish, ikkinchisi – davlatning jismoniy va ruhiy majburlovi hisoblanadi.

Jismoniy majburlov deganda, huquq bilan nazarda tutiladigan, huquqiy tartibotni saqlash uchun jismoniy kuch va vositalar qo'llanishidan iborat bo'lgan zaruriy chora-tadbirlar tushuniladi. Ruhiy majburlov deganda, shaxs bo'ysunmagan holda qo'llanishi qonun bilan nazarda tutilgan choralarga yo'liqishdan qo'rqish birinchi o'rinda turadi. Aynan qo'rquv fuqarolarni o'z xulq-atvorini huquq qonun talablariga moslashtirishga ruhan majbur etadi. Davlat ishontirish va majburlovdan huquq normalarining qo'llanilishini ta'minlash uchungina foydalanadi. Boshqa barcha hollarda undan foydalanishning ehtimol tutilgan imkoniyatigina muttasil saqlanadi.

3-§. **Huquqning talqiniga oid ta'limotlarning turli-tumanligi**

Huquq insoniyat aql-idroki, tafakuri mahsuli sifatida noyob, benazir hodisa bo'lganligi bois, uning talqiniga qiziqish na-faqat so'nmas, balki tinimsiz ortib bormoqda.

Huquq mavjud bo'lgan butun tarixiy davr mobaynida uning talqini va ta'rifiga bag'ishlangan ko'plab ta'limotlar, konsepsiyalar, nuqtayi nazarlar yaratilgan. Ushbu ta'limotlarning turli-tumanligiga huquqni tushunish pozitsiyasi, saviyasi sababdir. **Huquqni tushunish** – insonning huquqni anglash, uni o'zi uchun qabul qilish (baholash) va unga ijtimoiy hodisa sifatida o'z munosabatini bildirish borasidagi maqsadga yo'naltirilgan fikriy faoliyatining jarayoni va natijasidir.

Huquqni tushunish *subyektlari* – fuqarolar, oddiy insonlar; professional huquqshunoslar, huquq ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar. Huquqni tushunish hamisha subyektiv tabiatga ega.

Huquqni tushunish *obyekti* – sayyoramiz miqyosidagi huquq, mamlakat (jamiyat) miqyosidagi huquq, huquq sohasi, huquq instituti, huquqning alohida normalari.

Huquqni tushunish *mazmunini* subyektning o'z huquq va majburiyatlari, aniq va umumiy huquqiy imkoniyatlar (ruxsat etilgan holatlar), taqiqlangan holatlar, shuningdek undagi qoidalarning adolatligi yoki adolatsizligi borasidagi fikri (bahosi) ifodalangan bilimlari tashkil etadi.

Huquq haqidagi turli ta'limotlar va nuqtayi nazarlar mazmunini yoritishda quyidagi holatlarga (omillarga) e'tibor qaratish lozim: *birinchidan*, «tadqiqotchi» huquq harakatlangan qaysi tarixiy davrda va madaniy makonda yashagan; *ikkinchidan*, huquqni anglash natijasi hamisha huquqni o'rganuvchi subyektning falsafiy, axloqiy, diniy, mafkuraviy pozitsiyasiga bog'liq; *uchinchidan*, u yoki bu konsepsiyaning asosini nima tashkil etadi (huquq yaratilishining manbayini yoki bu hodisaning mohiyatini nima tashkil qiladi), huquqning manbayi (insonmi, Xudomi yoki tabiatmi) va mohiyati sifatida nima tushuniladi (sinf irodasimi, inson erkinligining me'yorimi yoki individning tabiiy egoizmimi); *to'rtinchidan*, bir tomondan, konsepsiyaning barqarorligi va uzoq yashashi, ikkinchi tomondan, uning o'zgaruvchanligi, rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlar moslashuvchanligi. Huquq aslida nima ekanligini, uning mohiyati va belgi-xususiyatlarini mukammalroq anglash uchun uning qadimiy talqinlariga, shakllanish ildizlari va rivojlanish qonuniyatlari izohiga qaytib ish ko'rish afzal.

Qadimgi yunon faylasuflari, davlat va huquq masalalari bilan mashg'ul bo'lgan olimlari va amaliyotchilari bildirgan nodir fikrlar, yaratgan ta'limotlarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Qadimgi yunon ijtimoiy-huquqiy fikri quldorlik

tuzumi sharoitida shakllanishiga qaramasdan, erkinlik g'oyasi atrofida mushohada yuritgan.

U davrda erkinlik, tom ma'nodagi erkinlik bo'lmay, jamiyatning tabaqalarga bo'linishiga asoslangan erkinlik hisoblangan. Qadimgi Gretsiyada keyinchalik tarixiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan insonlarning qullar va ozod kishilarga bo'linishi tanqid qilinadi va rad etiladi. Erkinlik endi siyosiy-huquqiy emas, balki ruhiy hodisa sifatida talqin etiladi. Shu asosda tabiiy huquq va tabiat qonunlari bo'yicha insonlarning tengligi va erkinligi e'lon qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, qadimgi grek mutafakkirlari o'z davrlari uchun ham va bugungi kun uchun ham ilg'or bo'lgan yurisprudensiyaning yangi yo'nalishiga asos solganlar.

O'tmishdagi Rim huquqshunoslari davlat va huquq umumiy nazariyasi hamda tarmoq huquqiy fanlar (fuqarolik huquqi, davlat va ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, xalqaro huquq) sohasida siyosiy-huquqiy muammolarning juda keng majmuasini ishlab chiqqanlar. Ular o'z zamondoshlari bo'lgan grek mutafakkirlaridan farq qilgan holda, o'zlari yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy, tarixiy va siyosiy-huquqiy borliqni nazariy tavsiflab berdilar. Huquqiy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlab o'tilganidek, Rim huquqshunoslari tevarakatrofdan ajralib qolgan «kabinet olimlari» bo'lmay, ular ham nazariy, ham amaliy faoliyat ko'rsatganlar. Ular xalq orasida bo'lib, hayotiy muammolarni juda chuqur bilganlar. Huquqshunoslarning huquqiy munosabatlar tahlili hamda bergan xulosalari o'zining chuqurligi, aniqligi, mantiqiyliigi va ishonchga sazovorligi bilan ajralib turgan¹.

Mashhur Rim huquqshunosi Ulpian huquqni – (yustitia) haq, haqiqat, ya'ni har kimga o'ziga tegishli bo'lgan huquqni berishga qaratilgan doimiy va uzluksiz iroda sifatida tushuntiradi. Huquqiy adolatning umumiy tushunchasidan, u quyidagi huquqiy qoidalarni keltirib chiqaradi: vijdonli (to'g'ri so'z) bo'lish, boshqa kishiga zarar yetkazmaslik, har kimga o'ziga tegishli bo'lganini berish. Shundan kelib chiqib, u yurisprudensiyani «ilohiy va insoniy ishlarni anglash, adolat va adolatsizlikni bilish» sifatida tavsiflaydi².

Shunday qilib, Qadimgi Gretsiyada yurisprudensiyaning falsafiy, tarixiy, siyosiy negizlariga jiddiy e'tibor berilgan bo'lsa, Rimda uning ilmiy-nazariy, amaliy-texnikaviy qirralariga alohida urg'u berilgan. Kishilik jamiyati hamda uning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lgan huquq va davlatning keyingi rivojlanishi, yurisprudensiyaning taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. G'arbiy Yevropada bir necha asrlar hukm surgan diniy mutaassiblikning liberalizm g'oyalari bilan almashishi bunga turtki bo'lib xizmat qildi.

¹ Qarang: Дигесты Юстиниана. Избранные фрагменты в переводе с примечаниями И.С. Преторского. – М., 1984. – 12-бет.

² O'sha joyda, 23-бет.

Akademik V.S. Nersesyans ta'kidlab o'tganidek, huquqiy ta'limotlar va yurisprudensiya tarixi ikki shakldagi huquqni tushunish va huquqqa bo'lgan yondashuvlarning kurashidan iborat. Huquqni bunday tushunish va yondashuvni shartli ravishda *yuridik* (jus – huquq so'zidan olingan, huquq va qonunni farqlashdan kelib chiqadigan) hamda *legistik* (Lex – qonun so'zidan olingan, huquq va qonunni aynanlashtirishdan kelib chiqadigan) shakllarga bo'lish mumkin. Bunda ularning har ikkisi yoki birining u yoki bu xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ko'plab oraliq shakllarning mavjudligi istisno etilmaydi¹.

Tilga olingan ikki shakldagi huquqni tushunishda ikki xildagi: huquqiy va legistik yurisprudensiya konsepsiyalari mos keladi. Bular: birinchisi, huquq va qonunni (pozitiv huquqni) bir-biridan farqlashga hamda *huquqni yuridik tushunishga* asoslanuvchi yurisprudensiya, bu tegishli tarzda davlatning yuridik tushunchasini ham o'zida qamrab oladi; ikkinchisi, huquq va qonunni (pozitiv huquqni) aynanlashtiruvchi va *qonunni legistik tushunishga*, o'zida davlatning legistik tushunchasini ham qamrab olishga asoslanuvchi yurisprudensiyadir.

Huquqqa legistik yondashuv yuridik pozitivizm, normativizm kabi ko'rinishlarga ega. Ushbu yondashuvni ingliz muta-fakkirlari T. Gobbs, J. Ostin, Germaniyada R. Iering, G. Kelzen, Rossiyada G.F. Shershenevich va boshqalar asoslab bergan. Nomlari kayd etib o'tilgan mutafakkirlar turli tarixiy davrlarda yashab o'tgan bo'lishlariga qaramay, ular ilgari surayotgan quyidagi holatlar ularni o'zaro yaqinlashtiradi: a) huquq – davlat hokimiyatining mahsuli, hukmdorning buyrug'i, talabi va h.k.; b) davlat huquq bilan bog'liq bo'lmagan; v) davlat hokimiyati huquq ostida emas, balki undan ustun turadi; g) vujudga kelish nuqtayi nazaridan davlat birlamchi, huquq esa ikkilamchidir va h.k.

Huquqqa legistik yondashuv huquqni o'rganishda ham o'ziga xos tarzda yo'l tutadi. U huquqni falsafiy talqinlardan, his-tuyg'u, orzu-istaklar va boshqalardan xoli tarzda tadqiq etish lozimligini uqtiradi. Jumladan, nemis huquqshunosi R. Iering davlat va huquq hodisalarini bilish metodologiyasida tavsiflash, tasnif va faktlar talqiniga alohida e'tibor qaratib, huquqiy hodisalarni tarixiy, tuzilish hamda funksional jihatdan ko'rib chiqish lozimligini uqtiradi.

Yuridik pozitivizmning bir shakli hisoblangan normativizmga asos solgan avstriyalik huquqshunos G. Kelzen esa, «sof huquq nazariyasi»ni shakllantirish maqsadida, pozitiv huquqni barcha unga xos bo'lmagan hodisalardan tozalash lozim deb hisoblaydi. Buning uchun ilmiy bilish predmetining chegarasi aniq belgilab qo'yilishi lozim. Uning fikricha, maxsus va o'ziga xoslikka ega bo'lgan huquq (ya'ni yurisprudensiya deb ataluvchi fan), bir tomondan, «adolat

¹ Qarang: Нерсесянц В. С. Из истории правовых учений: два типа правопонимания // Политические и правовые учения: проблемы исследования и преподавания. – М., 1978; Шу муаллиф. Право и закон. – М., 1983.

falsafasi»dan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy borliqni bilishga yordam beruvchi fan – sotsiologiyadan ajratilishi hamda ulardan farqlanishi kerak.

Har bir fan, jumladan yurisprudensiya ham, qandaydir ezgu istak, qadr-qiyamat nuqtayi nazaridan emas, balki o'z holicha tavsiflanishi lozim. Shu asosda G. Kelzen yurisprudensiya fani predmetini quyidagilardan iborat deb biladi: qonunchilik normalari, ularning tarkibiy qismlari va o'zaro munosabatlari, huquqiy tartibot, uning tuzilishi.

Huquqqa legistik yondashuv tarafdorlari, o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib, har qanday qonunni, jumladan adolatsiz qonunni ham huquqiy deb hisoblaydilar. Shuning uchun ularning talqiniga ko'ra, despotik, totalitar, avtoritar davlatlar ham huquqiy ko'rinishga ega va demak ular ham «huquqiy tartibot» va «huquqiy davlat»dir. Shundan kelib chiqib, legistik yondashuv tom ma'nodagi «huquqiy davlat» g'oyasini inkor etadi. G. Kelzenning ta'kidlashicha, bunday davlat yolg'on tabiiy huquqiy tasavvurlardan kelib chiqadi. Ko'rsatib o'tilgan salbiy jihatlariga qaramay, huquqqa legistik yondashuv qonun, qonunchilikni takomillashtirish, qonunchilik talablarini hayotga joriy etish mexanizmini yaratishda, ularning ichki mutanosibligiga erishish, jamiyatda huquqiy-tartibotni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

O'z navbatida *huquqni yuridik tushunish* ikki asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlanadi. Ulardan biri, *tabiiy huquq nazariyasi* bo'lsa, ikkinchisi, akademik V.S. Nersesyans ilgari surgan *huquqni libertar-yuridik (erkinlik) tushunishdir*. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, har ikkala yondashuvning negizlari antik davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi Gretsiya va Rimda sofistlar, Suqrot, Aflotun, Arastu, Sitseron, rim yuristlari, o'rta asrlarda G. Grotsiy, B. Spinoza, T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteskye, XX asrda R. Shtammmler, G. Radbrux kabi mutafakkirlar tabiiy huquq nazariyasining mustaqil konsepsiya darajasiga ko'tarilishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Mazkur yondashuvga ko'ra, huquq tabiiy huquq hamda ilohiy, pozitiv, siyosiy kabi huquqlarga bo'linadi. Bunda e'tiborli jihati shundaki, *tabiiy huquq* nazariyasi asoschilari tabiiy huquq va pozitiv huquqni (insonlar yaratgan) bir-biriga qarama-qarshi qo'yadilar. Ularning fikricha, tabiiy huquq abadiy, o'zgarmas, azaldan mavjud. Insonlar ularni anglash orqali o'z faoliyatlarida qo'llashlari lozim. Pozitiv huquqni esa, adashishga moyil bo'lgan, his-tuyg'uga beriluvchan insonlar yaratadi va u sun'iydir. Shuning uchun tabiiy huquq pozitiv huquqdan ustun turadi hamda pozitiv huquq tabiiy huquqqa moslashishi lozim.

Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

– ijobiy huquq, ya'ni davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan bir qatorda insonga tug'ilishidanoq tegishli bo'ladigan oliy, haqiqiy, «tabiiy» huquq mavjud. Har qanday qonun ham huquqiy bo'lmasligi mumkin;

– huquq va axloq aynanlashtiriladi, (mazkur nazariya namoyandalari-ning fikriga ko‘ra) adolat, haqiqat, ozodlik, erkinlik, tenglik kabi axloqiy tushunchalar huquqning o‘zagini tashkil etadi va huquq ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash jarayonini belgilab beradi;

– inson huquqlarining manbayi qonunlarda emas, balki insonning tabiatida bo‘lib, unga tug‘ilishdan (yoxud xudoning amri bilan) ega bo‘lish mumkin.

Huquqni tushunishning tabiiy huquq nazariyasi quyidagi ijobiy jihatlarga ega:

– *birinchidan*, nazariyalar orasida eng ilg‘ori bo‘lib, yangi erkin demokratik davlat tuzumi yaratilishiga asos bo‘ldi;

– *ikkinchidan*, qonunlar huquqiy bo‘lmasligi mumkin, agar qonunlar insonning tabiiy huquqlariga zid kelsa, ularni inkor qilsa, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik me‘yorlari buziladi;

– *uchinchidan*, inson huquqlarining manbayi tabiat yoxud Alloh deb tan olinadi. Shu bois davlat tuzilmalari va mansabdorlar tomonidan zo‘ravonlik qilishning, suiiste‘molliklarning oldini olish imkoni yaratiladi.

Huquqni bunday tushunish ham muayyan salbiy jihatlarga ega bo‘lishi mumkin. Xususan:

1. Huquqni mavhum axloqiy qadriyat sifatida tushunish uning shakliy-yuridik xususiyatlarini susaytiradi, qonuniy va qonunga xilof harakatlar mezonini har xil odamda har xil bo‘ladigan erkinlik, adolat, haqiqat to‘g‘risidagi tasavvurlarga qarab belgilashda qiyinchiliklarga olib keladi.

2. Huquqni bunday tushunish obyektiv huquq bilangina emas, balki, huquqiy ong bilan ham ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Huquqiy ong esa, turli xil odamlarda turlicha bo‘ladi.

Huquqni bunday tushunishga O‘zbekistonda ham alohida e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston davlatining qonunlari ham insonning tabiiy huquqlarini adolat, haqiqat, erkinlik, mustaqillik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda belgilamoqda.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz ham huquqni tabiat yoxud Alloh tomonidan insonlarga berilgan imkoniyatlar majmui deb tushunganlar. An‘anaviy hamda «yangilangan» tabiiy huquq nazariyasi, o‘zining mazmun jihatidan aniq shakllantirilmaganligi, tushunchalarning noaniqligi, ko‘p o‘rinlarda axloq va huquq aralashib ketganligi va umumiy ahamiyatga ega emasligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, tabiiy huquq yondashuvining ilg‘or va ijobiy jihatlarga, insonlarning tengligi va erkinligi g‘oyasi, adolat va uni ta‘minlash masalasi, insonlarning ajralmas huquqlari, huquqning hukmronligi, hokimiyatning cheklanganligi, davlat va fuqarolarning o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘langanligi,

huquqiy davlat kabilarni kiritish mumkindir. Aynan shuning uchun ham tabiiy huquq nazariyasi har bir tarixiy davr uchun jozibali bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Huquqni yuridik tushunishning libertar-yuridik shakli mazmun-mohiyatini erkinlik tashkil etadi. Erkinlik insoniyatning ming yillik taraqqiyoti, siyosiy-huquqiy nazariyalar va amaliyoti natijasida shakllangandir. Erkinlik qadimgi grek siyosiy-huquqiy ta'limotlarida shakllantirilib, yangi davr Yevropasida ham huquqni falsafiy tushunishda markaziy o'rinni egallab kelgan va bu davom etmoqda. Bunda F. Volter, Sh. Monteskye, J. Lokk, I. Kant, G. Gegel, Shelling, Fixte kabi buyuk mutafakkirlar ilgari surgan g'oyalari katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Rossiyalik olim S.S. Alekseevning haqli ravishda ta'kidlab o'tganidek, aynan I. Kantning g'oyalari erkinlikni falsafiy tushuntirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan¹.

Akademik V.S. Nersesyans yurisprudensiya va huquqqa yondashuvning yuridik shakli doirasida huquq hamda davlatning libertar-yuridik tushunchasidan kelib chiqadi. U huquqni erkin shaxslarning rasman tengligi, ya'ni inson erkinligining zaruriy va umumiy shakli sifatida talqin etadi. Huquqning mazkur umumiy tushunchasi orqali yurisprudensiyani libertar-yuridik konsepsiyasining yagona predmeti doirasida uning har ikkala obyektini – ham erkinlikning normativ shakli sifatida pozitiv huquq (umumiy qoidalarning hukmronligi o'rnatilganda), ham mazkur erkinlikning tashkiliy, institutsional, hokimiyat shaklidagi davlat qamrab olinadi.

Huquqqa «sotsiologik» yondashuv XIX asrning ikkinchi yarmida «erkin huquq» maktabi doirasida shakllangan. Yevropada bunday yondashuvning namoyandalari E. Erlix, F. Jeni, S.A. Muromsev va boshqalardir. Bu yo'nalish huquq normalari ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob bermay qolgan sharoitda vujudga keldi va rivojlandi. Huquqqa sotsiologik yondashuvda, asosiy urg'u huquq nima, degan savolga javob topishga emas, balki huquq harakatiga qaratiladi. Unga ko'ra, huquqni normalardan emas, balki hayotning o'zidan izlash lozim. Yozilgan qonunlar bo'sh tovush, to'ldirilishi lozim bo'lgan idishga o'xshatiladi. Qonunni sudyalari, amaldorlar huquq bilan to'ldiriladi.

Avstriya huquqshunosi E. Erlix «erkin huquq» ta'limotini yaratib, sotsiologik yurisprudensiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Huquq asoslarini jamiyatdan, uni tashkil etgan oila, savdo uyushmalari, jamoa va davlat kabi uyushma va ittifoqlardan izlash lozim. Huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va mohiyatini tushunish uchun, eng avvalo, ijtimoiy uyushmalarda mavjud bo'lgan tartibotni o'rganish kerak. Huquqni tushunishdagi boshqa yondashuv-

¹ Qarang: Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М., 1999. – 447-бет.

larning kamchiligi shundaki, ular ushbu tartibotdan emas, balki huquqiy ko'rsatmalardan kelib chiqqanlar. Qadimgi va hozirgi davr jamiyatlarida huquq, urug'lar, oilalarda hamda uyushma va ittifoqlarning ichki tuzilishini belgilab beruvchi va ularning bitimi, shartnomasi va nizomlari bilan o'rnatilgan norma va ko'rsatmalarida mavjud bo'lgan tartibdir. Agarda qonunlarda muayyan holat bo'yicha nizoni hal etish bo'yicha aniq ko'rsatma bo'lmasa, mazkur uyushma yoki ittifoqning nizomiga, ya'ni ittifoqning huquqiy faktga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lgan huquqiy normalariga murojaat etish lozim. Mana shu normalar va faktlar «tirik» huquqdir¹.

Mazkur yondashuv quyidagi g'oyalarga asoslanadi:

1. Huquq tabiiy huquqlarda ham emas, qonunlarda ham emas, balki qonunlarni hayotga tatbiq etishda namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi.

2. Huquq – yuridik xatti-harakatlar, yuridik amaliyot, huquqiy tartibot, qonunlarning qo'llanishidir. Huquq bu huquqning subyektlari – jismoniy va yuridik shaxslarning amaliy xulq-atvorlaridir.

3. «Jonli huquq»ni dastavval sudyalalar o'zining yurisdiksiyasi doirasidagi faoliyatida yaratadi. Ular «qonunlar mazmunini» huquq bilan to'ldiradi va sudyalalar real hayotida huquq ijodkorligini amalga oshiradi.

Huquqni «sotsiologik» tushunish ham o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega.

Ijobiy jihati shundan iboratki, *birinchidan*, huquqni bunday tushunish huquqning hayotga tatbiq etilishiga asoslanadi. *Ikkinchidan*, huquq shakllariga nisbatan ijtimoiy munosabatlar ustuvorligi tan olinadi. *Uchinchidan*, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashni tan oladi, boshqaruvni nomarkazlashtirish (desentralizatsiya qilish) tarafdori.

Huquqni sotsiologik tushunishning salbiy jihatlari: 1) agar huquqni, qonunlarni hayotga tatbiq etish, real huquqiy tartibot deb tushunsak, huquqiy va huquqqa xilof xatti-harakatlarni belgilash mezonlari yo'qoladi, chunki huquqni hayotga tatbiq etish qonuniy va g'ayriqonuniy usullar bilan bajarilishi mumkin; 2) huquq ijodkorligining faqat sudyalalar va ma'muriyatchilarga yuklab qo'yilishi ayrim mansabdor shaxslar tomonidan oshkora zo'ravonlik va o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqish, ishonchni suiiste'mol qilish xavfini kuchaytiradi.

Jamiyat hayotida ba'zan mansabdor shaxslarning qonunni chetlab o'tishi, qonun talablarining aksini qilib o'z manfaatlarini qondirish hollari uchrab tura-di. Mansabdor shaxslarga, «faqat qonun yo'l qo'yan barcha xatti-harakatlarga ijozat beriladi» degan tamoyil qo'llansa, ishonchliroq samara beradi.

¹ Qarang: Тихонравов Ю.В. Основы философии права. Учебное пособие. – М.: Вестник, 1997. – 534-bet.

Amalda sotsiologik yondashuv tadqiqotchilar va qonun chiqaruvchi idora uchun yaxshi samara berishi mumkin. Huquqni bilish, foydali va samarali qonunni ishlab chiqish uchun amaldagi qonunchilikni mukammal o'rganish zarur. Hayotga tatbiq etilgan yozma huquq normalarini o'rganish ularni takomillashtirishning eng ma'qul yo'lidir. Hayotga tatbiq etilgan huquq-ijtimoiy munosabatlarni qonun bilan tartibga solishdagi nuqson va kamchiliklarni aniqlash manbayidir.

Huquqning psixologik nazariyasi. Huquqqa yondashuvda ayrim olimlar huquqiy normalar va huquqiy munosabatlar bilan birga huquqiy ongni ham huquq tushunchasiga kiritadilar. Shu bois, huquqning psixologik nazariyasi kelib chiqdi, u fanda va amaliyotda mustaqillikka da'vogar bo'lsa-da, aslida huquqiy realizm g'oyalari va boshqa nazariyalar bilan bog'liqlikda yashab kelmoqda.

Mazkur nazariya o'tgan asrda mantiqiy to'la shakllangan bo'lib, Petrajitskiy, Ross, Reysner va boshqalar bu nazariyaning Yevropadagi namoyandalaridir. Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

1) inson psixikasi (ruhiyati) – ijtimoiy taraqqiyot – jamiyat, davlat, huquq, axloqning rivojlanishini belgilovchi omil;

2) huquq tushunchasi va mohiyati qonun sohibi faoliyati orqali emas, psixologik qonuniyatlar – huquqiy ehtiroslar (imperativ-atributiv xarakter), ya'ni nimagadir huquqiy vakolat (atributiv norma), nimadir qilish burchi (imperativ norma) majmui orqali kiritiladi, deb hisoblanadi;

3) barcha huquqiy his-tuyg'ular ikkiga – ijobiy (davlat tomonidan o'rnatiladigan) va intuitiv (shaxsiy) huquqiy his-tuyg'ularga bo'linadi. Intuitiv huquq inson xulq-atvorining haqiqiy tartibga soluvchisi bo'lib, «haqiqiy» huquq sifatida qaralishi kerak.

Mazkur nazariyaning ijobiy jihatlari: *birinchidan*, huquqni tushunishda iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan birga psixologik jarayonlarga ham alohida e'tiborni qaratadi. Bu ijtimoiy psixologiyani hisobga olmay, individning psixologik tuzilishini inobatga olmay turib, qonunlar chiqarish mumkin emasligini anglatadi; *ikkinchidan*, jamiyat huquqiy tizimida, huquqiy tartibga solishda huquqiy ongning o'rni va ahamiyatini oshiradi; *uchinchidan*, inson huquqlarining manbayini qonunlardan emas, inson ruhiyatidan qidiradi.

Ushbu yondashuvning salbiy jihatlari: psixologik omillarga haddan ziyod katta e'tibor berib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillarga e'tiborni susaytiradi; intuitiv huquqning haqiqiy deb hisoblanishi bilan huquqni davlatdan ajratadi, huquqiylik, huquqqa xiloflik, qonuniylik va g'ayriqonuniylik o'rtasidagi farqni, mezonni yo'qotadi.

Ma'lumki, sobiq Sovet huquq nazariyasida huquqqa psixologik yondashuv subyektiv idealizmga olib keluvchi nazariya sifatida rad etilgan edi. Biroq,

sovet hokimiyatining dastlabki yillarida agar proletar davlatining manfaatlari talab qilsa, sudylar huquqiy ongga murojaat qilishi dekretlarda tan olingan edi. Amalda esa, sotsialistik huquqiy ongga asoslanib, «aybdorlarni» joyida otib tashlash intuitiv huquqi keng miqyosda qo'llanildi. Buning salbiy oqibatlari hammaga ma'lum.

Aytish joizki, huquqni tushunishga psixologik yondashuv nazariyasining asoschisi L.I. Petrajitskiy huquqni obyektiv va subyektiv, intuitiv va pozitiv, rasmiy va norasmiy turlarga bo'lib tushuntiradi. Yuridik amaliyotda, xususan, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida psixologik nazariya xulosalaridan samarali foydalanish mumkin. Huquq normalari harakatining psixologik mexanizmini bilish nihoyatda muhim, chunki u huquqni amalga oshirishda huquqni qo'llovchi subyektning kasbiy mo'ljallarining to'g'ri va aniq bo'lishi, huquqni qo'llash motivlarining asosli bo'lishini nazarda tutadi.

Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv. Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida mantiqan shakllandi. Uning asosiy namoyandalari Gustav Gugo (1764-1844), K. Savin (1779-1861), G. Puxta (1798-1846) va boshqa olimlardir. Mazkur yondashuv tarafdorlari tabiiy huquqiy ta'limoti hamda qonunchilik hokimiyati organlarining huquq yaratuvchi faoliyati natijasida sun'iy ravishda yaratiladigan pozitiv huquq g'oyasini tanqid qiladilar. Ularning fikricha, huquq o'z-o'zidan vujudga keladi, shu nuqtayi nazardan u tilning kelib chiqishiga o'xshaydi. Til shartnoma, biror shaxs yoki davlat organining ko'rsatmasi bilan o'rnatilmagani, xudo tomonidan ato etilmagani kabi, huquq ham faqat qonun ijodkorlik faoliyati bilan emas, balki xalqning turmush sharoitlari asosida tegishli normalarning tasodifiy shakllanishi bilan ham vujudga keladi.

Huquqiy normalarning va institutlarning shakllanishi va taraqqiyoti obyektiv rivojlanish natijasidir. Ushbu rivojlanish o'z-o'zidan, davr talabi va ehtiyojlariga muvofiq amalga oshadi. Shuning uchun insonlar bu jarayonga aralashmasliklari lozim. Huquqqa tarixiy yondashuvning mashhur vakili K. Savinining fikricha, milliy ruhning harakati bilan huquq ham tasodifiy rivojlanadi. Taraqqiyotning birinchi bosqichida huquq odatlar shaklida namoyon bo'ladi, ikkinchisida huquqshunos olimlar tomonidan ishlov beriladi, bunda u o'zining ildizi – xalqning umumiy e'tiqodi bilan aloqasini yo'qotmaydi. Xalq ruhi bilan sug'orilmagan huquq jamiyatda yashab keta olmaydi.

Mazkur nazariyaning asosiy g'oyalari:

– huquq – tarixiy hodisa bo'lib, til kabi faqat biror kishining kelishuvi yoki kimningdir ko'rsatmasi bilan emas, muayyan tarixiy sharoitdan kelib chiqadi va rivojlanadi.

– huquq – dastavval huquqiy odatlar (yuridik oqibatlar keltirib chiqaruvchi, tarixan shakllangan xulq-atvor qoidalari)dir. Qonunlar «milliy ruh», «xalq ongi» zamirida huquqdan kelib chiquvchi qoidalar majmuidir.

– bu nazariya namoyandalari inson huquqlarini inkor etib, yirik yer egaligi hukmron bo'lgan vaqtda insonning tabiiy huquqlarini tan olishi mumkin bo'lmagan.

Huquqni tarixiy tushunish nazariyasining ham o'ziga xos kamchiliklari yo'q emas:

– bu nazariya yirik yer egaligi tuzumi inqirozga uchragan bir paytda tabiiy huquq nazariyasiga qarama-qarshi nazariya sifatida eski tuzumni saqlab qolish niyatida vujudga kelgan;

– huquqiy odatlarning ahamiyatini qonunlardan ustun qo'yishga harakat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida huquqiy urf-odatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlat organlarining huquqiy hujjatlarisiz o'jizlik qilib qoladi.

Huquqni tushunishga integratio yondashuv. Huquqni tushunish bo'yicha har xil yondashuvlar bilan tanishuv huquqning ko'p qirrali tushuncha ekanligini tasdiqlab turibdi. Bu yondashuvlardan birortasini mutlaqlashtirish yoki butunlay voz kechish maqsadga muvofiq emas. Ularning har biridan biror foydali jihatni topish imkoni bor. Huquqni qo'llash va huquqni ijod qilish jarayonida bu nazariyalarning barcha ibratli jihatlarini birlashtirish, umumlashtirish tufayli, huquqni tushunishda integrativ (umumlashtiruvchi) yondashuvga ehtiyoj tug'iladi. Biroq, bunda barcha nuqsonlarini umumlashtirishning oldini olish lozim bo'ladi.

Integrativ yondashuv asosida huquqni mukammal qiluvchi, rivojlantiruvchi, inson, davlat, jamiyat talablariga javob beruvchi jihatlarni umumlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu huquqning shakliga ham, mazmuniga ham taalluqli xususiyatlarni qidirishni zarur qilib qo'yadi. Erkinlikning adolatli o'lchovlari huquqning mazmunini tavsiflaydi, shakliy jihatini esa, davlat tomonidan qo'llanadigan majburlovga asoslanuvchi umummajburiylik tashkil etadi. Shu bois, amaliyotchi (sudya, prokuror, ichki ishlar xodimi, yuriskonsult) uchun muayyan jamiyatda muhofaza qilinadigan erkinlik va adolatni himoya qilish muhim. Aks holda noroziliklar, janjallar kelib chiqadi, har qanday adolatni toptashga yo'l ochiladi.

Huquq amalda mutlaqo mukammal talabga javob beradigan hodisa bo'lmay, vaqt va makon shart-sharoitlariga qarab o'zgarishlar, to'ldirishlar, yangilanishlarga duch keladi. Shu bois, huquq ijodkorligining samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida huquqqa har xil yondashuvlardan foydalanish, huquqning har xil ta'riflarini o'rganib, ularni sintez qilish yaxshi samara beradi. Huquq

nima degan bahslar asosida juda ko'p amaliy muammolar: huquqning asoslari, huquqning manbalari, huquqning ta'sir doirasi, huquqning samaradorligi, huquqdagi ziddiyatlar va boshqa masalalar hal qilinadi.

Tahlilimiz yakunida huquqning integrativ ta'rifini keltiramiz. Huquq – jamiyatda tan olingan va rasmiy muhofaza bilan ta'minlangan tenglik va adolat me'yorlari, xohish-irodalarni erkin mutanosiblashtiruvchi, ularning o'zaro kurashlarini hamda o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar majmuidir.

IX bob. HUQUQ PRINSIPLARI VA FUNKSIYALARI

1-§. **Huquq prinsiplari tushunchasi va mohiyati**

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ustuvor maqsadlari, ezgu intilishlari, ma'naviy-g'oyaviy qadriyatlarini bo'lishi tabiiy holat. Fuqarolik jamiyatining ezgu niyat-intilishlari ijtimoiy adolat, tenglik va erkinlik kabi voqeliklar bilan chambarchas bog'liq huquqiy ideallarda mujassamlashadi. Haqiqat, adolat, qonun ustuvorligi, demokratik boshqaruv singari huquqiy ideallar jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy tafakkurida, ijtimoiy-huquqiy mafkurada o'z in'ikosini topib, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Real hayotda huquqiy g'oyalar hamda ideallar normativ tarzda rasmiylashtirilgan huquqiy prinsiplar sifatida namoyon bo'ladi¹.

Mamlakatimiz huquqiy tizimi muayyan huquqiy prinsiplar asosida amal qiladi. Huquqiy prinsiplar huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi, negizi hisoblanadi. «Prinsip» (lotincha – principium) atamasi orqali faylasuflar, huquqshunoslar va sotsiologlar o'rganilayotgan hodisaning mavjudlik qonunini, ichki mantig'ini ifoda etadilar. Prinsip kategoriyasi «qonuniyat», «mohiyat» kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, huquqiy tizimning mohiyati uning asosiy prinsiplari mazmunida namoyon bo'ladi. Huquqiy tizim prinsiplari huquqning butun ichki tuzilishini, mazmunini qamrab oladi hamda boshqa ijtimoiy tizimlar bilan aloqasi va o'zaro munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Huquq prinsiplari, hech mubolag'asiz, uning mohiyatini ifodalovchi asosiy jihatlardan birini, asl o'zagini tashkil etadi. Ular butun huquqiy materiyani – g'oyalar, normalar va munosabatlarni qamrab olib, jami huquqiy hayotga muayyan mantiq, mazmun, ma'no, sobitqadamlik, ichki mutanosiblik hamda uyg'unlik baxsh etadi. Yanada aniqroq ta'riflaydigan bo'lsak, huquq prinsiplarida bamisoli huquq rivojining butun dunyoviy tajribasi, insoniyat ma'rifiy taraqqiyotining hosilasi o'zining mujassam ifodasini topadi. Prinsiplar huquq shakllanishida yo'nalish beruvchi mo'ljal, mezon vazifasini o'taydi.

¹ Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T., 2011. – 301-bet.

Huquq prinsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g'oyasi, boshlang'ich qoidasi, yetakchi mezon sifatida maydonga chiqadi.

Avvalo qonunda, huquqiy normalarda o'z tasdig'ini topadigan huquq prinsiplari jamiyatning butun siyosiy-huquqiy hayotiga, mamlakat ijtimoiy tizimiga to'raligicha singib ketadi. Ular nafaqat huquqning mohiyatini, balki uning mazmunini tavsiflaydi, uning ichki tuzilishi, statik holati bilan bir qatorda, huquqni qo'llash jarayonini, huquq faoliyatining dinamikasini aks ettiradi. Huquq prinsiplari normativ hujjatlarni tayyorlashning butun jarayoniga, ularni qabul qilish va chiqarish, huquqiy talablarga rioya etish kafolatlari o'rnatilishiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquq prinsiplari o'ziga xos tayanch tuzilma bo'lib, unga nafaqat huquq normalari, institutlari yoki tarmoqlari, balki butun huquq tizimi asoslanadi. Mazkur rahbariy tamoyillar davlat organlarining huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish bilan bog'liq butun faoliyati uchun yo'naltiruvchi mash'al bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tizimning bahamjihatligi, barqarorligi va samaradorligi ularga rioya etish darajasiga bevosita bog'liq. Huquq prinsiplari umummajburiy tusga ega bo'lganligi sababli ular turli huquq tarmoqlari va institutlari, normalari va huquqiy munosabatlar, obyektiv hamda subyektiv huquq o'rtasidagi ichki birlikni, uyg'unlik va o'zaro aloqadorlikni ta'minlashga ko'maklashadi.

O'z mohiyati va tabiati jihatidan huquq prinsiplari tasodifiy emas, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimi tomonidan bevosita belgilanadi. Bundan tashqari, ular mazmuniga mamlakatda mavjud davlat va huquq, hukmron siyosiy va davlat rejimi, jamiyat siyosiy tizimining qurilishi hamda amal qilishi tamoyillari o'z ta'sirini o'tkazadi¹.

Yuqoridagi fikr kundek ravshan, uni isbotlashning hojati yo'q. Zero, aytaylik, feodal huquqning tuzilishi va harakatlanishi prinsiplari quldorchilik huquqi yoki hozirgi zamonaviy huquq prinsiplaridan tubdan farq qiladi. Shuningdek, Rim huquqiga asoslangan hozirgi roman-german huquqining prinsiplari islom dini arkonlariga asoslangan musulmon huquqi prinsiplaridan farq qilishi barchaga ayon.

Huquq prinsiplari, odatda, bevosita qonun hujjatlarida (konstitutsiya va joriy qonunlarning muqaddimasida, moddalarida) mustahkamlanadi; ba'zan huquq normalarining mazmunidan kelib chiqadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik prinsipi, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan

¹ Qarang: Васильев А.М. Правовые категории. Методологические аспекты разработки системы категорий теории права. – М., 1976. – 216–225-betlar.

qoidalari ustunligini tan olish prinsipi o'z aksini topgan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning bir qator moddalarida o'ta muhim boshqa huquqiy prinsiplar mustahkamlangan. Ulardan ba'zilarini eslab o'tamiz: davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi (2-modda), xalq hokimiyatchiligi (7-modda), davlat hokimiyatining bo'linishi (11-modda), siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi (12-modda), Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi (15 va 16-moddalar), fuqarolarning qonun oldida tengligi (18-modda) va hokazo.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham aynan shunday. Misol uchun Shvetsiya Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq: «Shvetsiyada butun davlat hokimiyati xalqdan kelib chiqadi. Shved xalqining boshqaruvi fikrlarni erkin shakllantirish hamda umumiy va teng saylov huquqiga asoslanadi. Boshqaruv davlat tuzumi vositasi bilan, vakillik va parlament tizimi hamda kommunal o'zini o'zi boshqarish orqali amalga oshiriladi».

Adolat va erkinlik huquq binosining tamal toshlaridir. Barcha prinsiplar orasida ular alohida muhim o'rin tutadi. Adolat va erkinlik prinsipi ko'pgina nufuzli xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda, mamlakat ichki qonunchiligida o'z tasdig'ini topgan. Fikrimizning dalili sifatida 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

2-§. **Huquq prinsiplarining tasnifi**

Huquq prinsiplarining mazmuni, namoyon bo'lish jabhasi va xususiyatlariga qarab turli mezonlar asosida tasniflash mumkin.

Masalan, huquqning tipi va harakatlanish ko'lamiga qarab quldorchilik, feodal, burjua va sotsialistik huquq prinsiplari haqida gapirish mumkin. Shuningdek, huquq prinsiplari o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, axloqiy, diniy va maxsus-yuridik turlarga bo'linadi. Huquqshunoslikka oid adabiyotda umumiy va maxsus, sohaviy va tarmoqlararo prinsiplar to'g'risida fikr-mulohazalar mavjud.

Umumiy huquqiy prinsiplar butun huquqiy tizim asosida turishi bilan tavsiflanadi. Bu prinsiplar tahlili orqali u yoki bu mamlakat huquqiy tizimining mazmun-mohiyati, tabiati, xususiyatlari, harakatlanish sifatleri haqida xulosa chiqarish mumkin. Bunday huquqiy prinsiplar qatoriga quyidagilar kiradi:

Huquqni shakllantirish va amalga oshirishda **demokratizm prinsipi**. Mazkur prinsip huquqni yaratish sohasida xalqning, bevosita xalq vakillari bo'lmish deputatlarning, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va fuqarolarning huquqiy siyosatni shakllantirish hamda qonun-

chilikni takomillashtirishda keng ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Huquqni amalga oshirish jabhasida demokratizm tamoyili huquqni qo'llovchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni tashkil etish va faoliyat yuritish tartibida, dastavval odil sudlovni amalga oshirish jarayonida, ularning fuqarolarga yaqinligida, aholi uchun yuridik yordamning realligi darajasida o'z aksini topadi. Xususan, O'zbekistonda keng rivojlanayotgan sud-huquqiy islohotining zaminida ham demokratik jihatlarni chuqurlashtirish yotadi. Bunda advokatlar mavqeini kuchaytirish, sud jarayonida prokuror bilan advokatning huquqiy mavqeini tenglashtirish, prokuratura va ichki ishlar organlari xodimining faoliyatini inson huquqlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan isloh etish kabilar ko'zda tutiladi. «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap-so'zlar yo xalqqa xushomad qilish yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi»¹.

Qonuniylik prinsipi. Huquq ijodkorligi jarayoni subyektlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va nashr etish qonunlar, avvalo, Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi. Qonuniylik tamoyilining asosiy ma'nosi shundaki, qonun chiqaruvchi organ – parlamentning ham, huquq ijod etuvchi boshqa organlarning ham faoliyati qonun asosida qat'iy amalga oshirilishi lozim.

Sudlov jarayoni hamda huquqni amalga oshirishda ish ko'radigan barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ham batamom qonunga mos ravishda bo'lishi talab etiladi. Mazkur faoliyatda qonuniylik prinsipi barcha mutasaddi organlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning xatti-harakatida qonunga itoat etish, uning talabiga og'ishmay rioya qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniylik umumiylik va yagonalik sifatlari bilan tavsiflanadi. Qonunga itoat etish barcha subyektlar uchun umumiy talabdir. Ayni vaqtda, qonundagi har bir qoida huquqiy munosabatning barcha ishtirokchilari uchun yagona talab sifatida maydonga chiqadi. Boshqacha aytganda, qonun ustuvor va butun mamlakat hududida yagonadir. U bir xilda tushunilishi va bir xilda bajarilishi lozim.

Insonparvarlik prinsipi. Buning ma'nosi shundaki, huquq jamiyat – inson – davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va tartibga solishda adolat, insonni sevish, shaxsni e'zozlash va uning sha'nini qadrlash, unga hayot kechirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish nuqtayi nazaridan kelib chiqadi. Huquqning insonparvarligi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1998. – 156–157-betlar.

ijtimoiy tuzumning shaxs uchun qulay iqtisodiy shart-sharoitlar, imtiyozlar yaratishini nazarda tutadi. Huquqda shaxsni tahqirlovchi, qiynovchi, unga nisbatan noinsoniy munosabatni yoqlab chiquvchi qoidalar bo'lishi mumkin emas. Mamlakatda vujudga keltirilgan kafolatlar tizimi fuqarolarni g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar hamda ularning oqibatlaridan himoya qilishi kerak.

Albatta, fuqarolar huquq va erkinliklarining to'la kafolati faqat demokratik huquqiy davlat sharoitidagina bo'lishi mumkin. O'zbekistonda insonparvar huquqning shakllanishi mustaqillik, davlat suverenitetining qo'lga kiritilishi hamda mustahkamlanishi davri bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Konstitutsiyasida: oila jamiyat va davlat muhofazasidadir (63-modda). Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi (64-modda). Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida gamxo'rlik qilishga majburlar (66-modda), – deb ta'kidlanganligida insonparvarlik g'oyalari mujassam ekanligini ko'rish mumkin. Bunday insonparvarlik bilan yo'g'rilgan huquqiy qoidalarni Oila, Mehnat kodekslarida, «Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi va boshqa qonunlarda ko'plab uchratish mumkin.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Mazkur prinsip quyidagi jihatlardan bilan tavsiflanadi. *Birinchi*dan, mamlakatda barcha fuqarolar teng holat va maqomga egaligi. Davlat o'z qonunlari bilan fuqarolarga bir xil sharoit va teng imkoniyatlar yaratib beradi. Hamma bir xil huquq va majburiyatlarga ega. Biroq, ulardan foydalanish amalda turlicha bo'ladi. Masalan, birov oliy o'quv yurtiga kiradi, boshqa fuqaro esa, bu huquqdan foydalanmaydi. *Ikkinchi*dan, bu prinsip umumfuqaroviy huquqlarning tengligida ifodalanadi. Bu huquqlar, avvalo, Konstitutsiyada va boshqa qonunlarda mustahkamlanadi. Bular fuqarolarning saylov huquqi va saylanish huquqi, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy yordamdan foydalanish huquqi, turar joyga, xususiy mulkka ega bo'lish huquqi va hokazolar. *Uchinchi*dan, bu prinsip fuqarolarning qonun oldida birdek mas'ulligida ifodalanadi. Qonunni buzgan har bir fuqaro, har bir mansabdor shaxs (shu jumladan, yuridik shaxs) istisnosiz o'z qilmishi uchun javob berishi shart.

Davlat va shaxsning o'zaro mas'ulligi prinsipi. Davlat bilan shaxs bir-biri bilan muayyan huquq va majburiyatlar orqali bog'liq bo'lishi lozim. Bu demokratik siyosiy tizim va adolatli davlat boshqaruvining muhim talablaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ana shu talab o'z ifodasini topgan: «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas» (19-modda). Ayni vaqtda, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

O'z navbatida, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy itoat etishlari, jamiyat manfaatlariga muvofiq ish tutishlari, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari, qonun bilan belgilangan soliqlarni to'lashlari lozim. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart (20-modda). Basharti, bir tomondan, davlat, davlat organlari va mansabdor shaxslar, ikkinchi tomondan, fuqarolar o'z zimmlaridagi qonuniy majburiyatlarini buzsalar, tegishli yuridik javobgarlik kelib chiqadi. Bunday hollarda fuqaro davlat oldida, davlat esa (o'z mansabdor shaxslari va organlari orqali) fuqaro oldida qonunda belgilangan majburiyatlarni bajaradi. Mazkur yuridik munosabat hamda aloqadorlik huquqiy davlat barpo etishning zaruriy shartidir. Ta'bir joiz bo'lsa, bu yerda gap «davlat suvereniteti» va «shaxs suvereniteti»ning o'zaro dialektik aloqadorligi, bog'liqligi xususida bormoqda.

Umumiy huquqiy prinsiplar qatoriga, shuningdek, ijtimoiy adolat, teng huquqlilik, huquq va majburiyatlar birligi, huquqning ustuvorligi kabilar ham kiradi.

Maxsus yuridik prinsiplar aslida huquqiy tilda ifodalangan ijtimoiy prinsiplardir. Odatda, ilmiy adabiyotda maxsus-yuridik prinsiplar toifasiga quyidagilar kiritiladi:

- 1) huquq normalarining butun mamlakat aholisi uchun umumiy-majburiyligi hamda ularning boshqa ijtimoiy normalardan ustuvorligi;
- 2) amaldagi obyektiv huquqni tashkil etuvchi normalarning ziddiyatsizligi va qonunning boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustunligi;
- 3) huquqning ommaviy va xususiy huquqqa, nisbatan mustaqil huquq sohalari hamda institutlariga bo'linishi;
- 4) obyektiv va subyektiv huquq o'rtasida, huquq normasi va huquqiy munosabat hamda huquq bilan huquqning qo'llanishi o'rtasida muvofiqlikning mavjudligi prinsipi;

5) ijtimoiy erkinlik, qonun va sud oldida tenglik, teng huquqlilik prinsipi;
6) qonunda mustahkamlangan huquq va erkinliklarning yuridik kafolatlanganligi;

7) teng yuridik mezon (miqyos)larda ifodalangan xulq-atvorning adolatlilik hamda yuridik javobgarlikning sodir etilgan huquq buzilishiga mosligi;

8) yuridik javobgarlikning faqat huquqqa xilof aybli xatti-harakat (yoki harakatsizlik) uchungina qo'llanilishi va Konstitutsiyaga binoan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi qonuniy tartibda sudga ko'rib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi; aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi (26-modda);

9) yangi yoki nisbatan og'irroq yuridik javobgarlikni o'rnatayotgan qonunning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi prinsipi; jazolash tizimini insonparvarlashtirish va boshqalar.

Tarmoqlararo huquqiy prinsiplar ikki yoki undan ortiq huquq tarmoqlari doirasida amal qiladigan prinsiplardir. Ko'pincha bunday prinsiplar bir-biriga yaqin turuvchi huquq sohalari qamrab oladi (masalan, konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq sohalari; jinoyat-protsessual va fuqarolik protsessual huquq sohalari uchun umumiy bo'ladigan prinsiplar). Masalan, moddiy javobgarlik prinsipi mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, oila huquqi sohalarida qo'llaniladigan tamoyil. Faqat ayb uchun javobgarlik prinsipi esa, Jinoyat kodeksi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning moddalarida aks ettirilgan. Bu prinsip fuqarolik qonunchiligida ham asosiy dasturilamallardan biri hisoblanadi¹. Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi ham tarmoqdararo xususiyatga ega. U jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat-protsessual huquqi va boshqa tarmoqlarda qo'llaniladi.

Sohaviy huquqiy prinsiplar faqat bitta muayyan huquq sohasi doirasida amal qiladi. Masalan, yer huquqi uchun «yerga egalik qilish shakllarining ko'pligi va ularning tengligi» prinsipi, «yerning fuqarolik muomalasida bo'lishi» prinsipi, «yer ustidan davlat boshqaruvini amalga oshirish» prinsipi, «yerdan mustaqil xo'jalik yuritish va yerdan foydalanuvchi subyektlarning tengligi» prinsipi, «yerdan maqsadga muvofiq foydalanish, yerdan foydalanganlik uchun haq to'lanishi» prinsipi va hokazolar.

Yana bir misol. Xo'jalik protsessual huquqida quyidagi prinsiplar rahbariy rol o'ynaydi: sudyalarning saylab qo'yilishi, ularning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi prinsipi; ishlarni ko'rishda kollegiallik va yakkaboshchilikning qo'shib olib borilishi prinsipi; ishlarni ko'rishda oshkoralik prinsipi; ishda qatnashayotgan taraflarning tengligi prinsipi; nizolarni ko'rishda bahs-

¹ Qarang: Лившиц Р.З. Теория права. – М., 1994. – 199-bet.

lashish, og'zakilik va bevositalik prinsiplari. Har bir huquq sohasi umumiy va tarmoqlararo prinsiplarga tayanishdan tashqari faqat o'zigagina xos prinsiplarga ham asoslanadi. Bu prinsiplarning barchasi birgalikda nafaqat huquq sohasi, balki butun huquq tizimining tuzilishi va harkatlanishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

3-§. Huquq funksiyalari tushunchasi va turlari

Huquqning mohiyati va ijtimoiy vazifasi uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. *Huquq funksiyalari* – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'nalishlari bo'lib,

ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. Huquq, avvalo, jamiyat hayotining turli jabhalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy mazmundagi umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

Huquq funksiyalari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, huquq funksiyalari huquqning mohiyatidan kelib chiqadi va uning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi. *Funksiya* – huquq mohiyatining ijtimoiy munosabatlar mazmunida ifodalanishi (yoritilishi)dir;

ikkinchidan, huquq funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning shunday yo'nalishlariki, ularni amalga oshirish ehtiyoji huquqning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi zaruriyatidan kelib chiqadi;

uchinchidan, funksiyalar huquqning eng muhim, jiddiy sifatlarini ifoda etadi va jamiyat rivojining hozirgi bosqichida huquq oldida turgan tub vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi;

to'rtinchidan, huquq funksiyalari uning ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soluvchi faol harakatining yo'nalishini aks ettiradi. Shu bois huquq funksiyalarining muhim belgilaridan biri uning dinamizmi, harkatlanishi, ta'sir etishidir;

beshinchidan, huquq funksiyalari doimiylik xususiyatiga ega, bu ularning uzluksizligi, uzoq muddat davomida amal qilishini anglatadi.

Sof yuridik nuqtayi nazardan huquq funksiyalarini ikki – *regulyativ* (tartibga soluvchi) va *negativ* (qo'riqlovchi) turga ajratish mumkin.

Huquqning regulyativ funksiyasi jamiyat a'zolarining yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tashkil etish, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Bu funksiya doirasida huquqiy

ta'sirning yana ikki – *regulyativ-statik* va *regulyativ-dinamik* huquqiy funksiyalar yo'nalishi haqida so'z yuritish mumkin.

Huquqning regulyativ-statik, ya'ni tartibga soluvchi – statik funksiyasi deganda, huquqning ijtimoiy munosabatlar, ularning holati va erishilgan darajasini mustahkamlash hamda barqarorlashtirishga qaratilgan ta'siri tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu huquqiy institutlar shaklida mustahkamlanishi huquqiy tartibga solish maqsadlaridan biridir. Ushbu funktsiya turli subyektlarning huquqiy maqomini belgilashda, masalan, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini mustahkamlash, davlat organlari va mansabdor shaxslarning vakolatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqdorligini belgilashda namoyon bo'ladi.

Huquqning mazkur funksiyasida uning tabiati nihoyatda yaqqol aks etadi. Zero, fuqarolar va tashkilotlarga huquqiy vakolatlar beriladi, ular shu vakolatlar doirasida erkin, o'zlari istaganicha faoliyat yuritadilar. Bu chegara qanchalik kengaysa, insonlar shunchalik erkin harakat qiladilar.

Tartibga soluvchi – statik funktsiya vakolat beruvchi va man etuvchi normalar orqali amalga oshadi, shu bois, ular asosida tarkib topadigan munosabatlar passiv huquqiy munosabatlar toifasini tashkil etadi. Bunday hollarda huquq subyektlari o'zlari tashabbus ko'rsatib huquqiy faollik qilishlari mumkin.

Huquqning regulyativ-dinamik, ya'ni tartibga soluvchi – dinamik funksiyasi deganda, huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etib, ularning kelgusida rivojlanishi, o'zgarishi hamda takomillashuvini belgilab berishi tushuniladi. Bu yerda huquq ijtimoiy munosabatlarning taraqqiyotini, harakatlanishi (dinamikasi)ni rasmiylashtiradi. Mazkur funktsiya majburiyat yuklovchi normalar vositasida amalga oshiriladi. Masalan, qonunchilikda fuqarolar zimmasiga qator majburiyatlar yuklatiladi: soliqlarni to'lash, harbiy burchni ado etish, mehnat intizomiga rioya qilish, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish va hokazolar. Tartibga soluvchi – dinamik funktsiya faol huquqiy munosabatlar shaklida ro'yobga chiqadi. Bular fuqarolik, mehnat, ma'muriy, moliya va boshqa huquq sohalari institutlarida o'z aksini topadi.

Huquqning regulyativ funksiyasini amalga oshirishda keng tarqalgan usullar quyidagilar:

- huquq normalari vositasida fuqarolarning huquqiy-muomala layoqatini belgilash;
- fuqarolarning huquqiy maqomini belgilash (mustahkamlash) va o'zgartirish;
- davlat organlarining huquq va majburiyatlari hamda mansabdor shaxslarning vakolatlarini belgilash;

- yuridik shaxslarning huquqiy holatini mustahkamlash;
- huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi yuridik faktlarni belgilash;
- huquq subyektlari o'rtasida muayyan huquqiy aloqa o'rnatish (tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar);
- aniq ijtimoiy munosabatlarga nisbatan huquqiy tartibga solishning oqilona tipini belgilash.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan kelib chiqib, huquqning regulyativ funksiyasini shunday ta'riflash mumkin.

Huquqning regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyasi – huquqning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan bo'lib, u xulq-atvorning ijobiy qoidasini o'rnatish, jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga oid munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida huquq egalariga subyektiv huquqlar berish va yuridik majburiyatlar yuklashda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlash zaruriyati har doim bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Huquq hamisha ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etish vositasi bo'lib kelgan. Huquqiy ta'sirning bu yo'nalishi huquqning qo'riqlovchi funksiyasini tashkil etadi.

Huquqning qo'riqlovchi funksiyasi – uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.

Qo'riqlovchi funksiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, u huquqni kishilar xulq-atvoriga ta'sir etishning alohida vositasi sifatida ta'riflaydi. Huquq bu vazifani jazo qo'llash, taqiqlar o'rnatish va yuridik javobgarlikni amalga oshirish bilan ogohlantirib, kishilar irodasiga ta'sir o'tkazish orqali bajaradi;

ikkinchidan, unda davlat huquqiy qoidalar vositasida qanday ijtimoiy qadriyatlarni o'z himoyasiga olganligi to'g'risida ijtimoiy munosabat subyektlariga axborot beriladi;

uchinchidan, u jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyati darajasining, huquqdagi insonparvarlik asoslarining ko'rsatkichidir.

Huquqning qo'riqlovchi funksiyasiga xos xususiyatlar uni davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati bilan qiyoslaganda, yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Tegishli davlat organlari huquq subyektlari tomonidan qonun talablarining qat'iy, so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi, jamiyatda qonuniylik muhitini vujudga keltiradi. Bu huquq buzilishi faktini aniqlash,

uni buzganni tergov qilish va aybdorni yuridik javobgarlikka tortish bilan ta'minlanadi.

Shunday qilib, huquqning qo'riqlovchi funksiyasi – huquqning bevosita amal qilishi bo'lsa, davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati huquq talablariga rioya qilishning moddiy kafolatidir. Bunda maxsus organlar (IIV organlari, prokuratura, sud)ning huquqni qo'riqlashga qaratilgan faoliyati namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, eng muhimi, huquqning qo'riqlovchi funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni himoyalashga yo'naltirilgandir.

X bob. HUQUQNING SHAKLI (MANBAYI)

1-§. Huquq shakli (manbai) tushunchasi

Demokratiya sharoitida xalqning iroda-
si davlat amri darajasiga ko'tarilishi, umum-
majburiy qoidaga aylanishi, belgilangan
shaklda o'rnatilishi va mustahkamlanishi

lozim. Yuridik adabiyotda huquqiy normani o'rnatish va ifoda etish shakli, odatda, huquqning manbai eng umumiy ma'noda huquqning ifoda etilish shakli hisoblanadi. Biroq, «huquqning manbai» va «huquqning shakli» degan iboralarga hamma olimlar ham aynan bir ma'noni beruvchi sinonim so'zlar deb qaramaydilar.

Bir guruh olimlarning fikricha, huquqning manbai deganda, huquqning ifodalanish shaklini emas, balki uning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi moddiy manbani, iqtisodiy tuzumni, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usulini tushunish kerak¹. Falsafiy ma'noda, gnoseologik nuqtayi nazardan bu fikr to'g'ri. Chunki ustqurma hodisalari, mafkuraviy va ma'naviy hayot voqe-liklari pirovardida o'z ibtidosini, manbayini iqtisodiyotda topadi. Bu xulosani huquqqa nisbatan ham berish mumkin. Biroq, huquqni vujudga keltiruvchi moddiy manba sifatida davlatni, davlat hokimiyatini; uning yuridik manbai sifatida esa – huquq ijodkorlik faoliyatini, qonunchilik jarayonini tan oluvchi olimlar ham bor².

Ikkinchi guruh olimlar «huquqning manbai» va «huquqning shakli» iboralari o'rtasida hech qanday farq ko'rmaydilar, ularni aynan bir ma'noda, sinonim sifatida qo'llayveradilar³. Ayniqsa, huquqning muayyan tarmoqlari bo'yicha mutaxassislar «huquqning manbai» degan iborani, hech ikkilanmasdan, huquqiy qoidalarni bayon etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni anglatish uchun ishlatadilar.

¹ Qarang: Кечекьян С.Ф. О понятии источника права. «Ученые записки МГУ», вып 16, кн.11. – М., 1946. – 3–4-betlar.

² Александров Н.Г. Понятие источника права. В кн.: «Учен.зап. ВИЮН, 1946, вып.8, – 49–51-betlar; М.С. Страгович. Теория государства и права, – М., 1940. – 173-bet.

³ Фаткуллин Ф.Н. Проблемы теории государства и права. – Изд. Казан. Ун-та, 1987. – 189–192-betlar.

Uchinchi guruh olimlar esa, «huquqning manbayi» iborasidan to'la voz kechishni istamaganlari holda, uni ayrim izohlar bilan (masalan, «huquqning yuridik manbayi», maxsus ma'noda tushuniladigan «huquq manbayi» va h.k.) qo'llashni taklif etadilar¹.

Bizga prof. S.L. Zivnsning fikri ma'qul. Bunga ko'ra, masalaning mohiyatini «huquqiy normaning manbayi»² degan ibora aniq ifodalaydi. Agar «huquqning manbayi» tushunchasiga berilgan ta'riflarning aksariyatini solishtirib ko'rilsa, ularda asosan huquqning manbayi – bu huquqiy normalar (qoidalar)ni bayon etuvchi, ifodalovchi normativ-huquqiy hujjatlardir, degan ma'noni ko'rish mumkin.

«Huquqning shakli» iborasiga kelsak, bunda shakl falsafiy talqin nuqtayi nazaridan muayyan mazmunning mavjudligini anglatadi va uni ifoda etadi. Huquqning shakli – bu huquqning tom mazmuni tuzilishi, uning mavjudlik usuli, namoyon bo'lishi, batartibligi va harakatlanishi ifodasidir.

Huquqdagi mazmun va shakl masalasi, shu jumladan, huquq strukturasi bilan qonunchilik strukturasi o'rtasidagi munosabat masalasi yuridik adabiyotda ancha keng yoritilgan. Ko'pchilik mualliflarning fikricha, huquqning mazmunini huquqiy normalar yig'indisi tashkil etadi. Bu normalarda xalqning umumiy davlat irodasi o'zining muayyan aniq ifodasini topadi³. Huquqning mazmuni hamisha o'zi uchun mos va maxsus shaklda obyektivlashtiriladi. Mazkur shakl ma'lum bir real mazmunning tashqi ko'rinishi bo'lib, uning mavjudligi, ifoda etilishi va o'zgarishi usulidir⁴.

Demak, shuni ta'kidlash joizki, *huquq shakli* – davlat bilan huquq o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Unda huquqning tashqi ifodalanishi tushuniladi. *Huquq manbayi* deyilganda, huquq normasining paydo bo'lishi va amal qilishiga imkon beruvchi zamin (rezervuar) tushuniladi. Taniqli rus huquqshunosi G.F. Shershenovich huquq shakli – ma'lum ma'noda huquqni o'zida aks ettiruvchi, uning oldingi vaqtda chiqarilgan manbayi, ya'ni asosi deb ta'riflagan.

Huquq shaklini tahlil etish davlat irodasini, xalq irodasini qonun darajasiga qanday usullar bilan ko'tarilganligini anglashga ko'maklashadi. Huquq shakli, davlat irodasining hamma uchun majburiylik usuliga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra, huquqning to'rtta tarixiy shakli mavjud: huquqiy odat, yuridik presedent, normativ-huquqiy hujjat va normativ shartnoma.

Shunday qilib, huquqning tashqi ifodalanish shakli bilan manbalari tizimi (moddiy, g'oyaviy, yuridik) o'rtasidagi o'zaro uzviy aloqadorlik muayyan mamlakat huquqiy tizimining xususiyatini ifoda etadi. Ya'ni, ba'zi davlatlarda

¹ Шебанов А.Ф. Основы теории государства и права. М., 1960. – 278–279-бетлар.

² Зивс С.Л. Источники права. М., 1981. – 22-бет.

³ Керимов Д.А. Философские проблемы права. – 215-бет.

⁴ Тюттин В.С. Отражение, система, кибернетика. – М., 1972. – 190-бет.

normativ-huquqiy hujjatlar huquqning asosiy shakli bo'lsa, boshqa davlatlarda boshqaruv organlarining berilgan vakolat asosidagi (delegirovannoye) huquq ijodkorligi keng tarqalgan; uchinchi bir mamlakatlarda presedentlar va sud qarorlari; to'rtinchi toifa davlatlarda – diniy qoidalar (Qur'on, sunna, ijmo, masalan, Eron, Saudiya Arabistoni va boshqalar) ustunlik qiladi.

2-§. Huquqiy odat – huquqning tarixiy manbai

Ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, huquqiy odat davlatchilik shakllanishining ibtidosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalarning tarixan birinchi ko'rinishi bo'lgan. Odat normalari asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi. *Odat* – doimiy takrorlanishi natijasida kishilar ongida shakllangan xulq-atvor qoidasi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar tizimida odat va huquqiy odatni farqlash lozim. Kundalik turmushdagi barcha odatiy qoidalar ham huquqiy odat sifatida shakllanavermaydi.

Ma'lumki, ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda odat normalaridan keng foydalanilgan va davrlar o'tishi bilan odat o'z o'rnini huquqqa bo'shatib bera boshladi. Bu davrni shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich – odatning mutlaq hukmronlik davri. Bu davrda jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlar odat orqali tartibga solingan, ya'ni bu davrda huquq umuman bo'lmagan, chunki bunda huquqni yuzaga keltiruvchi davlat ham bo'lmagan.

Ikkinchi bosqich – odat va huquqning birgalikda amal qilgan davri. Bu davrda davlat paydo bo'lib, asta-sekinlik bilan huquq normalari vujudga kela boshlagan, ya'ni huquq o'z-o'zidan, paydo bo'lib, zudlik bilan odat asosida tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan emas, aksincha bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan odat o'rniga, davlat tomonidan yaratilgan huquq normalari kela boshlagan.

Uchinchi bosqich – huquqning mutlaq hukmronlik davri. Bu davrda odat o'z o'rnini davlat tomonidan yaratilgan huquqqa bo'shatib bergan va hozirga qadar huquq to'la ustuvorlik qilmoqda.

Bugungi kunda odat faqat huquq yetarli tarzda tartibga sola olmayotgan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida qo'llanilmoqda. Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki u ma'lum bir guruh, sinf yoki butun jamiyatning manfaatlariga mos kelgan taqdirdagina, ijtimoiy foydali va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan (ma'qullangan) holdagina *huquqiy odat* bo'lishi mumkin. Huquqiy odat, boshqa ijtimoiy normalardan o'zining davlat

tomonidan tasdiqlangani, bajarilishining majburiyligi va davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanishi bilan ajralib turadi. Odat o'tmish bilan bugungi kuni bog'lab turadi. Jamiyatda shunday odatlar borki, davlat ularni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi. Masalan, ommaviy hashar tadbirlari, Navro'z bayrami va boshqalar. Odat insonlar o'rtasida bir xil holatning ketma-ket takrorlanishi natijasida shakllanadi. Odatning davlat tomonidan ma'qullanishigina unga rasmiy, yuridik ahamiyat baxsh etadi, shunda u umummajburiy talabga aylanadi va u davlatning kuchiga tayanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ta'rifni ifoda etish mumkin. *Huquqiy odat* – uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir.

Mamlakatimiz misolida oladigan bo'lsak, O'zbekistonning mustaqillikka cha bo'lgan davrida Navro'z, Qurbon hayiti, Ro'za hayiti kabi diniy bayramlar odat tarzida, ayrim hollarda yashirin ravishda o'tkazilar edi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, yo'qotilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklash maqsadida Navro'z, Qurbon hayiti va Ro'za hayiti kabi milliy qadriyatlarimizni rasmiy ravishda bayram sifatida e'tirof etib, shu kunlar dam olish kunlari, deb e'lon qilindi va mehnat qonunchiligida dam olish kunlari sifatida belgilab qo'yildi. Mamlakatimizdagi ayrim odat qoidalari, nafaqat huquqiy odatga, balki umummajburiy bo'lgan xulq-atvor qoidasiga aylantirildi.

Turli davlatlarda huquq manbalari tizimida huquqiy odatning roli va o'rni turlicha bo'lgan. Masalan, Angliyada huquqiy odat o'z kuchi bilan harakatlana olmasligi, balki davlatning kuchi bilan qo'llab-quvvatlab turilganligi haqida shubha yo'q. Huquqshunos olimlarning fikricha, huquqiy odat davlat paydo bo'lmasdan oldin ham bo'lgan, chunki ibtidoiy jamiyat davrida ham odamlar va jamoalar o'rtasidagi ayrim ijtimoiy munosabatlar huquqiy odatga asoslangan holda tartibga solingan. Masalan, bir shaxsning qabilada o'rnatilgan tartib-qoidani buzishi, uni qabila oldida izza qilishga sabab bo'lgan. U og'ir qilmish sodir etgan taqdirda esa, qabiladan haydab yuborilgan. Umuman, ko'rinib turibdiki, odat hukmron bo'lgan vaqtlarda davlatning majburlov kuchisiz ham ijtimoiy munosabatlar tartibga solingan.

Huquqiy odat quyidagi xususiyatlarga ega: *birinchidan*, mahalliy ahamiyatga molik, chunki huquqiy odat uncha ko'p bo'lmagan bir guruh odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi, ya'ni ma'lum bir urug' yoki qabila irodasini o'zida ifoda etadi; *ikkinchidan*, huquqiy odat, qisman din bilan bog'liq bo'lib, ko'pgina munosabatlarni tartibga solishda dinga asoslanadi va tayanadi. Jumladan, o'z otasini urgan farzand nafaqat qonun bilan jazolanadi, balki uning qilmishi bir vaqtda og'ir gunoh sanalib, xudoning qattiq qahriga uchrashiga sabab bo'lishi e'tirof etiladi.

Shunday qilib, huquqiy odat huquq manbai sifatida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda hozirgi zamon davlatlarida unchalik katta o'ringa ega emas va ayni vaqtda o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotmoqda. Huquqiy odat hozirgi vaqtda, asosan yer, meros, nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga solishda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ayrim davlatlarida qisman qo'llanilmoqda.

3-§. Yuridik presedent «Presedent» – lotincha *praecedens* so'zidan olingan bo'lib, «ilgarida bo'luvchi», «oldin sodir bo'lgan» degan ma'noni anglatadi.

Davlat organlari, jumladan, ma'muriy boshqaruv hamda sud organlari o'zlarining ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, tartibga solish jarayonida o'ziga xos, ba'zan noyob (*original*) qarorlar qabul qiladilar. Ularning bir o'rnini kelganda qabul qilgan qarorlari tarixan keyingi davrlarda faoliyat yurituvchi davlat organlari uchun namuna bo'lib xizmat qilishi hollari uchrab turadi. Shunga ko'ra, *presedent* – muayyan ishni ma'muriy organ yoki sud organlari tomonidan ko'rib chiqishda boshqa organ va sudlar tomonidan aynan shunga o'xshash ish bo'yicha ilgari chiqarilgan qarorning qo'llanilishidir. Presedent huquqning manbai sifatida ilgari qadimgi Rimda qo'llanilgan. O'tgan butun tarixiy davr nuqtayi nazaridan xulosa qilganda, yuridik presedent huquq shakli (manbai) sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda dunyoning anglo-sakson huquqiy tizimiga asoslanuvchi davlatlarida yuridik presedentning huquq manbai sifatida o'rnini beqiyosdir. Ammo, Yevropa qonunchiligi va roman-german huquqiy tizimiga mansub davlatlar sud amaliyotini huquq shakli sifatida tan olmaydilar.

Yuridik presedent deb, ma'muriy yoki sud organining muayyan ish bo'yicha chiqarilgan yozma yoki og'zaki qarorini, kelgusida xuddi shunga o'xshash ishlarini ko'rib chiqishda asos sifatida qo'llanilishiga aytiladi. Yuridik presedent turlari shartli ravishda ma'muriy presedent va sud presedentiga bo'linadi.

Ma'muriy presedent – ma'muriyatning jamiyatni boshqaruv sohasidagi ayrim ishlar yuzasidan qabul qilgan qarorini, kelgusida xuddi shunga o'xshash ishga asos sifatida qo'llashi uchun xizmat qilishi tushuniladi.

Sud presedenti – sud organining biror-bir ish yuzasidan qabul qilgan qarorini, kelgusida xuddi shunga o'xshash ishga nisbatan namuna tarzida qo'llashiga aytiladi.

Huquqiy presedent umumiy ma'noda talqin etilsa-da, uning tarkibidagi sud yoki ma'muriy presedentlar bir-biridan keskin farq qiladi. Albatta, huquqning presedent shakli sifatida sud yoki ma'muriy organlar yangi huquqiy normalar

yaratish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda huquq o'zining murakkabligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, bu yerda mansabdor shaxsning suii'stemollik qilishi ehtimoli saqlanib qoladi.

Sud qarorlari presedent sifatida quyidagicha bo'lishi mumkin: *birinchisi*, qonun va odat normalari to'g'ri kelmay qolgan taqdirda yangidan huquq normalari yaratiladi, bu inglizlarda *original precedent* deb nomlanadi, ushbu presedent normalari ijtimoiy munosabatlardagi yangi holatlarni tartibga soluvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Bunda sudyalar qonunchilikdagi mavjud bo'shliqni to'ldirish maqsadida huquq normasini yaratadilar. Roman-german huquq tizimiga mansub davlatlarda esa, sudyalar huquq ijodkorligi vakolatiga ega bo'lmay, faqatgina huquqni qo'llash bilan shug'ullanadilar; *ikkinchisi*, original (asl) normalarning ma'nosini tushuntirib beruvchi presedent ingliz tilida *declaratoruo precedent* deb nomlanib, u mavjud holatlarni tartibga soluvchi, asoslantiruvchi manba bo'lib, muayyan ish bo'yicha sudning oldin qabul qilingan hukmiga asoslangan holda boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun avvalgisini namuna, etalon sifatida qo'llaydi. Ikkinchi holatda so'z yangi norma haqida bormoqda. Nima uchun sud qarori presedent sifatida normaga aylanishi mumkin? Chunki, hayotda huquqdan tashqari presedent ham katta rol o'ynaydi. Haqiqatdan ham, kishilar doimo hayotiy tajribaga asoslanadilar, undan namuna, andaza oladilar.

Sud qarorlari xususiy ishga taalluqli bo'lib, ikki yoqlama ahamiyatga ega bo'lishi mumkin: *birinchidan*, sud faoliyati natijasida ma'lum bir hodisani hal qilish mumkin; *ikkinchidan*, bu sud qarori kelgusida bo'ladigan hodisalarga ham xuddi shu qarorni namuna sifatida ishlatish imkonini beradi. Keyingi holda sud qarori huquq normasi bo'lib xizmat qiladi, chunki u oldingi qabul qilingan qarorga (presedentga) asoslanadi.

Demak, e'tirof qilinganidek, sud amaliyoti, ya'ni sud presedenti huquq shakli hisoblanadigan mamlakat Angliyadir, shu bois, yuridik presedent bir vaqtda *ingliz odat huquqi* deb ham nomlanadi. Angliyada to'plamda yozilgan sud presedentiga asoslanish xuddi qonun moddasiga asoslangandek yuridik ahamiyatga ega. Bunga o'xshash holatlarni Yevropa qit'asida uchratmaymiz. Masalan, Fransiya huquqshunosligida, fransuz yuristlari sud amaliyotini huquq normasi sifatida hech qachon tan olmagan. Ularning fikricha, sudning obro'si qanchalik baland, uning qarori qanchalik to'liq bo'lmasin, u hech qachon hamma fuqarolar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni yarata olmaydi.

Ta'kidlash joizki, roman-german huquq nazariyotchilari huquqning presedent shaklini hech qachon tan olmaganlar, chunki ular sud va ma'muriy organlar huquqni ijod qilishlari emas, balki uni qo'llash faoliyati bilan shug'ullanishlari

lozim, deb hisoblaydilar. Anglo-sakson huquqiy tizimiga kiruvchi davlatlarda sudyalar tomonidan shakllantirilgan va sud presedentlarida ifodalangan normalar huquqning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

4-§. Normativ-huquqiy hujjat

Mamlakatimizda huquqni ifodalashning asosiy shakli – normativ-huquqiy hujjatlardir.

Normativ-huquqiy hujjatlar davlat organlari tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, majburiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydigan huquqiy hujjatlarning alohida turidir. Odatda, ular vakolatli organlarning huquq ijodkorligi faoliyatining bevosita mahsuli hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjat deganda, davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik hujjati tushuniladi. Huquqning normativ hujjat shakli demokratik huquqiy jamiyat sharoitida mamlakat xo'jalik, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotiga davlat yo'li bilan rahbarlik qilishning eng maqbul shaklidir. Normativ-huquqiy hujjatlar o'zining quyidagi uch xususiyati bilan ijtimoiy normalarning boshqa turlaridan ajralib turadi: 1) normativ-huquqiy hujjatlar vakolatli davlat organlari tomonidan yaratilib, barcha uchun umumiy majburiy qoidalarni o'rnatadi, o'zgartiradi (takomillashtiradi) yoki bekor qiladi; 2) ularda huquqiy qoidaning mazmuni, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari ifoda etiladi; 3) normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda muayyan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, qoida bo'yicha, davlatning majburlov kuchi ishga solinadi.

Yuridik ustqurma murakkab va serqirra bo'lganligi sababli normativ-huquqiy hujjatlar turli mezonlar bo'yicha turkumlanishi (tasnif qilinishi) mumkin. Bunday mezonlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- huquqiy tartibga solish predmeti yoki tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning turi;
- huquq ijod etuvchi subyekt;
- huquqiy hujjatning yuridik kuchi;
- huquqiy hujjat amal qiladigan hudud;
- huquqiy-normativ hujjatning yuridik nomlanishi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni turkumlash usullari, uslublari va yo'llari ham turlichadir. Turkumlashning juda keng tarqalgan ilmiy usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: alifboli-predmetli ko'rsatkichlar; iyerarxiyaga (pog'onali mutanosiblikka) asoslangan turkumlash, u oddiy va o'nliklar bo'yicha bo'linishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar ularni chiqaradigan davlat organlarining mavqei, hujjatlarning yuridik kuchiga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi:

- qonunlar (Konstitutsiya va joriy qonunlar);
- Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari;
- Hukumat qaror va farmoyishlari;
- davlat boshqaruv organlarining qaror, buyruq va yo'riqnomalari;
- mahalliy vakillik va ijroiya organlarining qarorlari va farmoyishlari.

Ushbu turkumlashda keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarning har biriga alohida-alohida to'xtalib, ularning xususiyatlari, o'zaro munosabatlari va farqlarini ko'rsatib o'tamiz.

Qonun normativ-huquqiy hujjatlar tizimida. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlar asosiy o'rinni egallaydi. Qonun huquqning eng muhim shakli bo'lib, unda huquqning hamma sifatleri mujassamlashadi. Albatta, «qonun» iborasi serqirra va ma'nodordir. Bu o'rinda so'z yuridik qonunlar xususida bormoqda. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan aktidir. Konstitutsiya (Asosiy qonun) qonunlar orasida asosiy o'rinni egallaydi. Unda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimi mustahkamlanadi, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv mexanizmi, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari belgilab beriladi. Konstitutsiya jamiyatning huquqiy tizimini, butun qonunchilikning o'zagi va yuridik zaminini tashkil etadi. Joriy qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo'lida chiqariladi.

Qonun oliy yuridik kuchga ega. Bu sifat quyidagilarda namoyon bo'ladi: qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o'rnata olmaydi;

boshqa barcha normativ-huquqiy hujjatlar qonunga qat'iy muvofiq holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi;

biron-bir qonunosti normativ-huquqiy hujjat qonunga zid bo'lsa, u qonunga muvofiq holga keltiriladi yoki bekor qilinadi;

qonun oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat bo'lganligi sababli uni qabul qilgan organdan boshqa hech kim qo'shimcha tarzda tasdiqlashi va harakatdan to'xtatib qo'yishi mumkin emas.

Qonun davlat nuqtayi nazaridan eng muhim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir. Unda mazkur munosabatlardagi qonunlarning normativ majburiy xarakteri va siyosiy-huquqiy me'yori o'z ifodasini topadi. Qonunlar faqat siyosatning ifodasi, siyosiy chora bo'lib qolmay, beqiyos ijodiy va tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta ma'naviy boylik, ne'mat, ijtimoiy-huquqiy qadriyat hamdir.

O'zbekistonda qonun huquqning asosiy shakli bo'lib, u davlat oliy hokimiyat vakillik organi tomonidan maxsus belgilangan tartibda qabul qilinadi. U davlat muayyan holatlar (munosabatlar)ga tatbiq qilish uchun chiqaradigan, aynan o'xshash turdagi holatlarga takror-takror qo'llaniladigan, barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan umumiy qoidalarni o'z ichiga oluvchi normativ-huquqiy hujjatdir.

Respublika qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzumimizning, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari, rivojlanishimizning yo'nalishlari va dasturiy vazifalari o'z aksini topadi. Bunday muhim prinsiplar, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Masalan, davlat suvereniteti prinsipi, xalq hokimiyatchiligi prinsipi, inson huquqlarining ustuvorligi prinsipi, qonuniylik prinsipi, demokratizm prinsipi, davlat bilan shaxsning o'zaro burchdorligi prinsipi, Konstitutsiya va qonunning oliyligi prinsipi, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi, ijtimoiy adolat prinsipi, qonun va sud oldida barchaning tengligi prinsipi, aybsizlik prezumpsiyasi, fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish prinsipi va boshqalar.

Shunday qilib, qonun ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining yuridik shakldagi tavsifini o'zida aks ettirgan va eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, bevosita xalq irodasini ifodalovchi, belgilangan tartibda davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki referendum yo'li bilan qabul qilinadigan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatdir.

Qonunning yuridik xususiyatlari ichida uning normativligi alohida ahamiyat kasb etadi. Normativlik qonunning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarning boshqa shakllari ham normativ bo'lishi mumkin, biroq ular qonunchalik qat'iy kuchga ega bo'lmay, tezkor ijro etiluvchi yoki huquqni muhofaza etuvchi bo'lishi mumkin. Qonunning normativ hujjat ekanligi quyidagi ikki jihat bilan xarakterlanadi. *Birinchi*dan, u qonun chiqaruvchi organning huquqiy qoida o'rnatish xususidagi amr-farmoyishi, irodasi, qarorini mustahkamlaydi; *ikkinchi*dan, real hayotga qat'iy va muntazam huquqiy ta'sir etish shakli, vositasidir. Qonun normalarining mavjudligi normativ-huquqiy aktda namoyon bo'ladi.

Qonunning normativligi deganda, uning barcha uchun umumiy-majburiy qoida, davlat talabining ifodasi ekanligini ham tushunish lozim. Boshqacha aytganda, qonunning normativligi undagi bir xil qoidaning barcha uchun norma, me'yor, mezon darajasiga ko'tarilishidadir. Qonunda mustahkamlangan qoida hamma o'xshash hollarda bir xil talab sifatida takror-takror amal qilaveradi. Har qanday huquq amalda bir-biriga teng bo'lmagan har xil odamlarga bir xildagi masshtabni tatbiq qilishdir. Bu yerda «norma» – lotincha «norma»

so'zidan olingan bo'lib, me'yor, qoida, aniq ko'rsatma, namuna, o'lcham demakdir. Uning umumiy va mavhum tabiati ham ana shunda. Normativlik esa, muayyan harakat, faoliyat va munosabatning faqat norma talabi asosida amalga oshirilishidir. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat'iyiligi, ustunligi va oliyligi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu irodaning imperativ (bo'ysundiruvchi) mazmuni qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

Demak, qonunning normativligi: 1) uning davlat hokimiyat mazmunidagi oliy irodani ifoda etishida; 2) eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilganligi va bunday tartibga solishning qat'iy chegarasini belgilashida; 3) hamma uchun bir xil umummajburiy harakat qoidasini o'rnatishida va lozim bo'lganda, davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanganligida; 4) maxsus vakolatli davlat organi tomonidan alohida belgilangan tamoyil asosida yaratilishidadir.

Prezident farmonlarining huquqiy maqomi. O'zbekiston Prezidenti davlat boshlig'i sifatida respublika hududida majburiy tarzda amal qiluvchi farmonlar chiqaradi. Prezidentning davlat mexanizmida tutgan qat'iy o'рни uning farmonlarini normativ-huquqiy hujjatlar tizimida egallaydigan mavqeini, rolini belgilab beradi.

Prezident farmonlari huquqiy tizimdagi nufuzli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatdir. An'anaga ko'ra, farmon yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o'rinda turadi. Biroq, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi davlat va siyosiy tizimimizga joriy etilgan hozirgi sharoitda farmonni oddiygina «qonunosti akti» deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Bunday eskicha talqinni tark etish kerak. Farmon Prezidentning Konstitutsiyada belgilangan o'z vakolatlarini amalga oshirishning huquqiy vositasidir. Shu bois uni «qonunosti akti» emas, balki «konstitutsiyaviy darajadagi huquqiy akt» deb ham atash mumkin. Uning qonun bilan munosabatiga kelganda shuni aytish lozimki, Prezident vakolatiga taalluqli masala bo'yicha chiqarilgan farmonni qonun bilan ham bekor qilish yoki boshqacha hal etish mumkin emas. Masalan, Prezident farmoni bilan tayinlangan Bosh prokuror yoki vazirni hech bir qonun bilan vazifasidan ozod etib bo'lmaydi. Bunday lavozimlarga hatto qonun bilan ham biror shaxsni tayinlab bo'lmaydi. Bordiyu, shunday qilingan taqdirda mazkur qonun Konstitutsiyaga zid bo'lib, yuridik kuchga ega bo'lmaydi, chunki bu Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlariga daxl qilish bo'ladi. Va aksincha, Konstitutsiyada qonun bilan tartibga solinishi ko'zda tutilgan masala bo'yicha farmon chiqarish mumkin emas. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining qat'iy talabi ana shunday.

Farmonlar, umumiy qoidaga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladi.

Prezident farmonlari yuksak nufuzliligi tufayli mamlakat iqtisodiyotining, aholi ijtimoiy hayoti hamda davlat boshqaruvining qonunlar va hukumat qarorlari bilan qamrab olinmagan talaygina dolzarb masalalarini tez va samarali hal etishning imkonini beradi.

Prezident farmonlari strategik va dasturiy xarakterga ega bo'lib, ular-da Hukumat, u yoki bu vazirlik, davlat qo'mitasi yirik va murakkab bo'lgan muayyan masalani qanday hal etishi kerakligining aniq rejasi va yo'l-yo'riqlari belgilab beriladi. Farmonlar Vazirlar Mahkamasi va davlat boshqaruvining boshqa bo'g'inlari faoliyatiga rahbarlik qilishning samarali vositasidir. Biroq, farmonlar hukumat qarorlari o'rnini egallay olmaydi. Har ikki turdagi bu hujjatlar Konstitutsiya va qonunda belgilangan vakolatlar doirasida chiqariladi.

Farmonlar **jamiyat hayotining asosiy sohalariga ko'ra**: 1) iqtisodiy; 2) siyosiy; 3) ijtimoiy-madaniy; 4) mafkuraviy sohalardagi farmonlarga bo'linadi.

Iqtisodiy mazmundagi farmonlar, o'z navbatida, mulkchilik, soliq, moliya, tadbirkorlik, xususiylashtirish, birja, bank tizimi, qishloq xo'jaligi, savdo, transport, narx-navo, sanoat ishlab chiqarishi, kapital qurilishi, investitsiya va boshqa sohalardagi farmonlarga ajratiladi.

Siyosiy sohadagi farmonlar davlat qurilishiga taalluqli (vazirliklarni, davlat qo'mitalarini tashkil etish, qayta tuzish yoki tugatishga qaratilgan) farmonlar; davlat idoralarining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi farmonlar; mamlakat mudofaasi, davlat xavfsizligi, bojxona masalalari va harbiy munosabatlar kabi sohalardagi farmonlardan iboratdir.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi farmonlarga aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza etish, uy-joy masalalari, sog'liqni saqlash, ilm-fan, maorif, xalq ta'limi, madaniyat, san'at, adabiyot kabi sohalarga tegishli farmonlar kiradi.

Mafkuraviy mazmundagi farmonlar xalq ommasini, yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, xalq milliy an'analari, urf-odatlarini va qadriyatlarini hamda ma'naviyatini tiklashga qaratilgan farmonlarga bo'linadi¹.

Farmon bilan qonunga qo'shimcha yoki o'zgartirish kiritish mumkin emas, u qonun asosida va qonun ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladigan hujjatdir. Shu o'rinda qonun bilan farmon o'rtasidagi munosabatni aniqroq bayon etish lozim:

Qonun parlamentning, hokimiyat oliy vakillik organining hujjatidir; farmon esa, davlat boshlig'ining normativ-huquqiy hujjati. Qonun hamisha nor-

¹ Odilqoriyev X. T. Prezident farmonlarining huquqiy tabiati // Hayot va qonun. – 1994. – № 4, 14–15-betlar.

mativ xarakterga ega bo'ladi; farmon normativ hujjat bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Ba'zan farmonlar individual hujjat sifatida chiqariladi.

Qonun o'z yuridik kuchi jihatidan farmondan ustun turadi. Farmon normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida qonundan keyingi o'rinni egallaydi. Qonun bilan farmonning qoidalari o'zaro zid kelib qolgan taqdirda, qonun ustuvorlik qiladi.

Shu o'rinda qonunning ham, farmonning ham tartibga solish predmeti borligini yodda tutish lozim. Konstitutsiyaga muvofiq farmon bilan hal etiladigan masala bo'yicha qonun chiqarish mumkin emas va aksincha. Biroq, farmonlar parlament – Oliy Majlis Senatining tasdig'idan o'tishi lozim. Qonun Konstitutsiyada belgilangan alohida qat'iy o'rnatilgan tartibda (odatda, besh majburiy bosqichli jarayon natijasida) qabul qilinadi. Farmonni qabul qilish esa, qonun ijodkorligi jarayonidagi singari maxsus bosqichlarni amalga oshirishni talab etmaydi.

Hukumatning qaror va farmoyishlari. O'zbekiston Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan, Respublika Hukumati – O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq mamlakatning butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlash maqsadida qonunlar, Oliy Majlis palatalarining boshqa qarorlari, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lib, ular iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy va boshqa ijroiya organlari faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgandir. Hukumat qarorlari va farmoyishlari qonunga yoki Prezident farmoniga zid kelib qolsa, qonun yoki farmon amal qiladi. Hukumatning bunday qarori bekor qilinishi shart bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari faqat unga Konstitutsiya va qonun bilan belgilab berilgan vakolat doirasidagina chiqarilishi mumkin. Prezidentlik hokimiyati qaror topganidan buyon, aksariyat hollarda, farmonlarda hukumatga topshiriqlar ifodalanib, unga tegishli qaror qabul qilish vazifasi yuklatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonida Vazirlar Mahkamasiga ikki oylik muddat ichida mazkur farmonning ijrosi bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish topshirig'i berildi¹.

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 17-fevral.

Vazirlar Mahkamasi 2017-yil 22-mayda 304-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini qabul qildi. Bu qaror bilan tegishli Nizomlar tasdiqlandi¹.

Davlat boshqaruvi organlarining hujjatlari. Normativ-huquqiy hujjatlar Hukumatga itoat etuvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham chiqariladi. Bular vazirliklar, davlat qo'mitalarining qarorlari, buyruqlari va yo'riqnomalari bo'lishi mumkin. Bunday hujjatlarning ta'sir ko'lami, amal qilish doirasi va yuridik kuchi ularni o'rnatuvchi boshqaruv organining davlat organlari tizimida tutgan o'rni va vakolatlari bilan belgilanadi. Ular qonunga, farmonga va hukumat qaroriga muvofiq hamda shu hujjatlarning ijrosini ta'minlash maqsadida chiqariladi. Boshqaruv tizimidagi quyi organning huquqiy akti undan yuqori turuvchi organning hujjatiga muvofiq bo'lishi shart. Respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va boshqa boshqaruv organlarining qonunga, farmonga va hukumat qaroriga zid hujjatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan bekor qilinishi ko'zda tutiladi. Vazirlar Mahkamasi o'z vakolati doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Prezidenti farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga zid bo'lgan qarorlari va farmoyishlarining ijrosini to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari. Mahalliy vakillik va ijroiya organlari Konstitutsiya, qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, markaziy davlat boshqaruvi organlarining hujjatlariga muvofiq holda va ularni ijro etish uchun qaror va farmoyishlar qabul qiladilar. Mazkur huquqiy hujjatlar shu davlat organlari hokimiyati ta'sir etadigan hudud doirasida amal qiladi. Ular yuqorida sanalgan hujjatlarga zid bo'lib chiqsa, tegishli tartibda bekor qilinadi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Konstitutsiyaga binoan xuddi respublika boshqaruv organlarining hujjatlari singari, hokimlarning qabul qilgan g'ayriqonuniy hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi (93-moddaning 16-bandi).

Yuridik adabiyotda huquqning manbayi sifatida huquqiy odat, sud tajribasi (sud presedenti), xalqaro shartnomalar ham ko'rsatiladi. Odatlar faqat davlatning ma'qullashi tufayligina huquqiy odat sifatiga ega bo'lishi mumkin. Huquqiy odatlar qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar amal qilmaydigan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin. Sud amaliyoti va tajribasi mavjud qonunlarni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Xalqaro shartnomalarga kelganda, ularning mamlakat ichki huquqiy qoidalaridan ustuvorligi tan olinadi. O'zbekistonning deyarli barcha qonunlarida basharti xalqaro shartnoma va bitimlarda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoi-

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 25-son, 569-modda.

dalar belgalangan bo'lsa, xalqaro shartnoma va bitim qoidalari qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Shunday qilib, qonun respublika normativ-huquqiy hujjatlari o'rtasida o'z yuridik kuchi jihatidan eng ustuvor o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham qonun jamiyat huquqiy tizimining o'zagi sifatida namoyon bo'ladi.

5-§. Normativ shartnomalar

Iqtisodiyotda bozor munosabatlari, jamiyatda ijtimoiy sheriklik rivojlanayotgan sharoitda serqirra manfaatlar ko'lami nafaqat davlat amri bilan, balki tashkilotlar, fuqarolarning (ular uyushmalarining) normativ mazmundagi shartnomalari qoidalari bilan ham me'yorlanmoqda. Shu bois, ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari o'rtasida o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi manba sifatida normativ shartnomalar alohida mavqega ega.

Normativ shartnoma deb ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan, og'zaki yoki yozma shaklda ifodalangan bitimga aytiladi. Normativ shartnomalar huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa manbalardan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Normativ shartnomalar ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasida, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa muayyan bir sohalarida tuziladi. Normativ mazmundagi shartnomalar quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi: 1) umumiy mazmundagi normani ifodalaydi; 2) shartnoma ixtiyoriy tuziladi; 3) manfaatlar umumiyligiga asoslanadi; 4) tomonlar teng bo'ladilar; 5) tomonlar shartnomaning barcha jihatlarini bo'yicha umumiy kelishuvga erishadilar; 6) aynanlik (ekvivalentlik) va odatda, zarar to'lov bilan qoplanadi; 7) majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun o'zaro javobgarlik nazarda tutiladi; 8) huquqiy jihatdan ta'minlanadi.

Normativ shartnomalar turli xil mezonlar asosida tasniflanadi. Jumladan, ishtirokchilar soniga ko'ra *oddiy* yoki *murakkab* turlardan iborat bo'ladi. Oddiy shartnomada ishtirok etuvchi taraflar faqatgina ikki subyektning qatnashuvini talab etadi, xolos. Murakkab shartnomada esa, biror-bir masala yuzasidan ko'pchilik ishtirokchilarning soni talab etiladi. Masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Yevropa Ittifoqi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi tashkilotlarga uyushish murakkab shartnomalar asosida tuzilgan. Shuningdek, shartnomalar ifodalanish shakliga ko'ra yozma va og'zaki bo'lishi mumkin. Og'zaki shartnomalar asosan kundalik turmushimizdagi maishiy xizmat sohalarida tez-tez uchrab turadi. Masalan, yo'lovchi va konduktor o'rtasidagi o'zaro munosabat yoki kichik hajmdagi oldi-sotdi munosabatlari yuzaga kelgan vaqtda sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar og'zaki shakldagi shartnoma

asosida amalga oshadi. Jamiyatdagi muhim va rasmiy munosabatlar faqatgina yozma shakldagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Davlatlararo shartnomalarning barchasi yozma shaklda tuziladi.

Shartnomalar tuzilish muddatining davomiyligiga ko'ra *qisqa muddatli* va *uzoq muddatli* shartnomalarga ham bo'linadi. Oila va nikoh munosabatlarida tuziladigan shartnomalar (nikoh shartnomasi) uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli shartnomalar esa muayyan ishni ma'lum bir vaqt ichida amalga oshirish bilan yakunlanadigan hollarda tuziladi.

Dunyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hech bir davlatning qonun yoki qonun osti hujjati bilan tartibga solinmaydi. Xalqaro munosabatlarda shartnoma huquq manbaysi sifatida maydonga chiqadi. Xalqaro shartnoma – davlatlararo yoki boshqa shaxslar o'rtasidagi o'zaro kelishuv bo'lib, xalqaro huquq asosida tuziladi va tartibga solinadi. Xalqaro shartnomalar tuzilgan vaqtda yoki tan olinganida (ratifikatsiya qilinganida), uning matnida ifodalangan majburiyatlarni taraflar bajarishi shart ekanligi belgilab qo'yiladi. Ayrim hollarda davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar amal qilish muddati tugamasdan ham bekor qilinishi mumkin. Buni xalqaro huquqda *denonsatsiya qilish* deb nomlanadi. Vena konvensiyasining 2-moddasida xalqaro shartnoma huquqi haqida shunday tushuncha berilgan: «Shartnoma – bu davlatlar o'rtasidagi kelishuv bo'lib, yozma ravishdagi xalqaro huquq bilan tartibga solinadi». Masalan, 1990-yilgi 12-sentabrda «GFR va GDRni yagona Germaniya davlatiga birlashtirish to'g'risida» tuzilgan xalqaro shartnoma ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi huquq manbaysi sifatida xizmat qilmoqda. GDR bilan GFR davlatlarini birlashtirgan xalqaro shartnoma ularning keyingi harakatlari uchun asosiy huquqiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro-huquqiy shartnoma: kelishuv, akt, konvensiya, deklaratsiyalar xalqaro huquqning manbaysi hisoblanib, davlatlarning o'zaro siyosiy (hamdo'stlik, o'zaro yordam, hujum qilmaslik, qurolsizlanish to'g'risidagi), iqtisodiy (savdo, iqtisodiy yordam ko'rsatish, qarz berish, kredit berish haqidagi) va boshqa toifa hamkorligini tartibga solishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va maxsus masalalar bo'yicha bir qancha shartnomalar tuzgan va bu borada 1995-yilda O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro shartnomalarning qoidalari O'zbekiston qonunlariga nisbatan ustunlikka ega.

Xalqaro shartnoma xalqaro huquqning asosiy manbalaridan biri sifatida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatdir. Xalqaro shartnomalar huquqi xalqaro huquqning alohida sohasi sifatida maydonga chiqadi.

6-§. Musulmon huquqining manbalari

Inson qilmishlarining hukmi asosan to'rtta shar'iy manbadan chiqariladi. Ular Qur'on, sunnat, ijmo' hamda qiyos. To'rt manbaning hujjatligi hamda ularning tutgan o'rni to'g'risida olimlar yakdil qarorga kelishgan. Qoidaga ko'ra, mujtahid u yoki bu masalani hal etish uchun avval Qur'oni Karimga, keyin sunnatga, keyin ijmo'ga va nihoyat, qiyosga murojaat qiladi.

Manbalarining haqqoniyligi to'g'risida Qur'oni Karim Niso surasi-ning 59-oyatida shunday deyiladi: «Ey mo'minlar, Allohga itoat qilinglar va payg'ambarga itoat qilinglar hamda o'z'laringizdan (ya'ni musulmonlardan) chiqqan boshliqlarga itoat qilinglar. Agar biror masala javobida bir fikrga kelisha olmasalaringiz, u holda o'sha masalani Allohga va uning rasuliga qaytaringlar. Agar Allohga va qiyomat kuniga iymonlaringiz bo'lsa, shunday qilishlik eng yaxshi va xayrli ma'no berishdir».

Qur'on (arab. – qiroat, o'quv)da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Qur'on 114 suradan iborat bo'lib, undagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shariat (to'g'ri yo'l, qonunchilik) ga asos qilib olingan. Qur'onda 6666 oyat mavjud, ammo ayrim adabiyotlarda oyatlar sonini 6234 ta deb ham e'tirof etilgan. Bu Qur'onning turli tarzda o'qilishi bilan izohlanadi. Qur'on normalarining aksariyati diniy-axloqiy masalalarga taalluqli bo'lib, shundan 250 tasi huquqiy xususiyatga ega.

Qur'on – musulmon huquqining asosiy manbayi sifatida Allohning o'z payg'ambarlari va elchilaridan oxirgisi Muhammad(s.a.v.)ga farishta Jabroil alayhissalom orqali yo'llagan vahiylerden iborat. Musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda Qur'onning o'rni beqiyos.

Qur'on kishilar uchun hujjat bo'lib, uning hukmlariga qat'iy rioya etishlari lozim. Uni ilohiy qonun deb qarashlariga dalil – uning Alloh huzuridan kishilarga hech shubhaga o'rin qolmagan tarzda nozil bo'lganligidir.

Rasululloh (s.a.v.): «Men Alloh tomonidan sizlarga yuborilgan payg'ambarman, bunga hujjatim va dalilim – sizlarga o'qib berayotganim, menga Alloh tomonidan vahiy qilingan shu Qur'onidir», – dedilar. Kishilar payg'ambarning bu aytganlariga ishonmaganlaridan so'ng ularga aytdilarki: «Agar bunga ishonmasalaringiz, bu inson so'zi degan fikrga borsalaringiz, sizlar ham insonsizlar, binobarin, shu men aytgan Qur'ondek sizlar ham Qur'on keltiringlar. Yoki to'liq Qur'on keltirishdan o'z bo'lsalaringiz, hech bo'lmasa, o'nta sura keltiringlar. Juda bo'lmasa, loqal bir dona Qur'on surasidek sura keltiringlar», – deb ularni munozaraga chaqirdilar.

Qur'oni Karim al-Isro surasining 88-oyatida shunday deyiladi: «Ayting (ey Muhammad): «Agar dunyodagi barcha insonlaru jinlar birgalashib, biz

nozil qilgan Qur'ondek kitob keltirishga yordamlashsalar ham, keltira olmaydilar».

Hud surasining 13-oyatida shunday ta'kidlanadi: «Ular aytadilarmi bu so'zlarni Muhammad o'zi to'qigan deb. Agar shunday gumon qilsalar, aytingki, «Agar qo'llaringdan kelsa, qodir bo'lsalaring, sizlar loqal o'n dona to'qima sura keltiringlar. Buning uchun Allohdan boshqa kimni yordamga chaqir-salaring chaqiringlar. Agar qilgan da'volaring va aytgan so'zlaringda rostgo'y bo'lsalaring».

Xuddi shuningdek, Baqara surasining 23, 24-oyatlarida esa: «Agar sizlar bizning bandamiz Muhammadga nozil qilgan kitobimizga, bu ilohiy kitob emas, deb shubha qilsalaring, aynan shu kitobdagi suraga o'xshash hech bo'lmasa bir dona sura keltiringlar. Buning uchun yordamga Allohdan boshqa kimni istasalaring chaqiraveringlar (Chunki, Alloh shunday Qur'on keltirishga qodir). Agar qilgan da'volaringning uddasidan chiqa olmasangizlar, hech qachon chiqa olmaysizlar ham, bas, shunday ekan, o'tini odamlar va toshlardan bo'lgan, kofirlar, ishonmovchilar uchun tayyorlab qo'yilgan do'zaxdan qo'rqinglar», – deyiladi. Bu va shunga o'xshash dalillar bilan Qur'on ilohiy kitob ekanligi isbotlanadi.

Qur'oni Karimda kelgan qoida va me'yorlar uch xildir¹: *birinchisi*, e'tiqodga taalluqli qoida va me'yorlar. Bunga mukallaf (oqil kishi) e'tiqod qilishi lozim bo'lgan narsalar kiradi. Chunonchi, Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, o'lganidan so'ng tirilishiga ishonish va h.k.; *ikkinchisi*, axloqqa taalluqli qoida va me'yorlar. Bunda kishi qanday go'zal xulqlar bilan ziynatlanishi va qanday yomon, yaramas xulqlardan uzoq bo'lishi ko'rsatilgan; *uchinchisi*, amaliyotga taalluqli qoida va me'yorlar. Bular insonning ishlari va so'zlariga berilgan hukmlardir.

Qur'ondagi amaliy hukmlar ikki xil bo'ladi: a) namoz, ro'za, zakot, haj, qasam kabi *ibodatga* taalluqli *hukmlar* bo'lib, ular insonning Alloh bilan bo'ladigan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan; b) insonning boshqa insonlar bilan bo'ladigan muomalasi, oila-nikoh, savdo-sotiq, jinoyat, jazo, ijara, garov kabi *muomalaga* taalluqli *hukmlar*.

Musulmon huquqining ahamiyatiga ko'ra ikkinchi manbaya – *Sunnatdir*. «Sunnat» so'zi «yo'l» ma'nosini anglatadi. U yo'l yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham sunnat deyiladi. Chunki, Rasululloh (s.a.v.) hadislarida shunday deyilgan: «Kimki bir yaxshi yo'lga birinchi bo'lib boshlasa, uning savobi o'sha boshlagan kishigadir. Aynan shu yo'lga undan so'ng to qiyomatgacha kim yursa, yurgan kishiga qancha savob bo'lsa, shu barobarida birinchi boshlagan

¹ Abdulvahob Xalloy. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. – T.: 1997. – 30–31-betlar.

kishiga ham savobi yetib turadi. Va kimki bir yomon yo'lga birinchi bo'lib yursa, uning gunohi o'sha boshlagan kishiga bo'ladi. Aynan shu yo'lga undan so'ng to qiyomatgacha kim yursa, yurganga qancha gunoh bo'lsa, birinchi bo'lib boshlagan kishiga ham shuncha gunoh yetib turadi».

Sunnatning shar'iy istilohiy ma'nosi – janobi Rasulullohning (s.a.v.) aytgan so'zlari, qilgan ishlari hamda taqrirlaridir (u zotning huzurlarida biror biror so'z aytsa yo biror ish qilsa, u so'z yo ishga Payg'ambar (s.a.v.) e'tiroz bildirmagan bo'lsalar, buni taqdir deyiladi va u ham sunnat hisoblanadi).

Sunnatda kelgan hukmlar darajasiga ko'ra Qur'on hukmlaridan keyin turadi. Bu normalarga bo'ysunish, ularga amal qilish musulmonlar uchun majburiydir. Sunnat uch xil bo'ladi: *birinchisi, sunnati qavliiy* (aytilgan so'z); *ikkinchisi, sunnati fe'liy* (qilingan ish); *uchinchisi, sunnati taqririy* (payg'ambar (s.a.v.)ning e'tiroziga uchramagan so'z yoki ish)¹.

Qur'on oyatlarining bir qanchasida Payg'ambarga itoat etishga buyurilgan. Payg'ambarga itoat etish Allohga itoatdir deb ko'rsatilgan. Oli-Imron surasining 32-oyatida: «Ey Muhammad, Allohga va uning rasuliga itoat qilinglar, deb ayting». Niso surasining 80-oyatida esa: «Kimiki Allohning rasuliga itoat qilsa, Allohga itoat qilibdur», deyilgan. Yoki «Agar Alloh va uning payg'ambari biror mo'min yo mo'minaga biror ish yuzasidan hukm chiqargan bo'lsa, u hukmni ijro etish yo etmaslik to'g'risida ularda hech qanday ixtiyor yo'qdir» (ya'ni hukmni bajarishlari shart) (Ahzob surasi, 36-oyat)». Hashr surasining 7-oyatida esa, bunday deyiladi: «Sizlarga nima narsaniki payg'ambar keltirsa, uni qabul qilinglar. Sizlarni nima narsadan qaytarsa, undan qaytinglar».

Qur'oni Karimda insonlarga bir qancha hukmlar berilgan, lekin ularni qay tartibda bajarish, miqdori va boshqalar ko'rsatilmagan. Shu holda uning bu qismini sunnat ko'rsatib beradi. Masalan, «Namoz o'qinglar va zakot beringlar» (Baqara surasi, 110-oyat); «Sizlarga ro'za farz qilindi» (Baqara surasi, 183-oyat); «Alloh savdoni halol qildi va riboni (pulni foydaga qo'yishni) harom qildi» (Baqara surasi, 275-oyat). Lekin ushbu oyatlarda qaysi kayfiyatda, qanday qilib namoz o'qish, zakotni qanday moldan, qachon va qay miqdorda berish, ro'zani qay tartibda ijro qilish, savdoning halol va harom turlari, riboning turlari ahkomlari yo'q. Bularning hammasini Payg'ambar (s.a.v.) bayon qilganlar va ko'rsatib berganlar.

Shunday qilib, sunnat orqali kelgan hukmlar, yo Qur'on hukmlarini tasdiqlagan, yoki uning hukmlarini tafsir qilib bergan yoxud Qur'onda belgilanmagan hukmlarni o'rnatgan.

¹ Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. – T.: 1997. – 36-betlar.

Islom huquqining uchinchi manbayi *ijmo'* hisoblanadi. Ijmo'ning lug'aviy ma'nosi «qasd qilmoq»ni anglatadi. Ijmo' deganda, musulmonlardan bo'lgan muftahidlarning Rasululloh(s.a.v.)ning vafotlaridan keyin, biror-bir shar'iy masala yuzasidan yakdillik bilan qabul qilingan qarori tushuniladi.

Hukm ijmo' bo'lishi uchun to'rt shart bo'lishi: *birinchisi*, muftahidlar bo'lishi; *ikkinchisi*, musulmon bo'lishi; *uchinchisi*, janobi Payg'ambar (s.a.v.) vafotlaridan so'ng bo'lishi (Rasululloh (s.a.v.)ning davrlarida ijmo' qo'lanilmagan, sababi, u kishi barcha masalalarda o'zlari yakka javob berganlar); *to'rtinchisi*, ijmo' qilinadigan masala shar'iy bo'lishi kerak.

Payg'ambar (s.a.v.)dan so'ng biror-bir voqeaning hukmi Qur'ondan ham, sunnatdan ham topilmasa, o'sha davrning muftahidlaridan masalaning shar'iy hukmi so'ralgan. Ularning ushbu masala yuzasidan bir hukmga ittifoqi ijmo' bo'lib, u shar'iy qonun hisoblangan va unga itoat qilish lozim, qarshi chiqish mumkin emas. Ijmo' qilingan masala ikkinchi bor keyingi davr muftahidlari uchun ijtehad mavzusi bo'lishi mumkin emas. Chunki ijmo' bilan chiqarilgan hukm qat'iy bo'lib, unga qarshi chiqish hamda uni bekor qilish mumkin emas.

Dunyoviy ishlar boshlig'i podshohlar, amirlar, hokimlar bo'lib, diniy ishlar boshlig'i muftahidlar va ahli fatvolar – fatvo berishga iqtidorli ulamolardir.

Ishboshi bo'lgan muftahidlar shariatda bir hukmga ittifoq qilsalar, unga itoat qilish lozim, ularning hukmlarini ijro qilish Qur'oni Karim oyatiga asosan bo'ladi. Qur'oni Karim Niso surasining 83-oyatida shunday deyiladi: «Agar oyati karimadan yo sunnati nabaviyadan javobi topilmagan masalani payg'ambarga qaytarsalar (ya'ni, payg'ambar sunnatiga solishtirsalar) va o'zlaridan chiqqan muftahidlarga havola qilsalar, albatta, ijtehad qilishga qodir bo'lganlar o'sha masalani bilardi».

Ijmo'ning ma'qul deb topilgani shu bilan asoslanadiki, Payg'ambar (s.a.v.) dan qolgan hadisi sharifga ko'ra, Islom ummatining barchasi jam bo'lgan holda xatoga yo'l qo'yishlari mumkin emas. Janobi Payg'ambar (s.a.v.) aytganlarki: «Mening ummatim xatoning ustida jam bo'lmaydi».

Musulmon huquqining to'rtinchi manbayi bo'lgan *qiyosga* katta ahamiyat beriladi. Qiyosda Qur'on va sunnatda berilmagan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etiladi. Qiyos lug'atda ikki xil ma'noda ishlatiladi. *Birinchisi*, bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsa bilan solishtirish; *ikkinchisi*, bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsaga tenglashtirish.

Islom huquqida qiyos deganda, hukmiga Qur'on yoki sunnatda dalil kelmagan voqeani, hukmiga Qur'on yoki sunnatda dalil kelgan voqeaga, har ikkala voqea hukm sababida bir xil bo'lganligi uchun o'xshatish tushuniladi. Masalan, Qur'onda xamr, ya'ni mast qiluvchi, kishining hushini yo'qotishga olib keluvchi

narsa harom deb belgilangan. Baqara surasining 90-oyatida aytilganidek, «Ey iymon keltirganlar! Albatta, xamr, qimor, butlar va (fol ochadigan) cho'plar iflosdir. Shaytonning ishidir. Bas, undan chetda bo'ling. Shoyadki, najot top-sangiz». Shunga binoan mast qilish xususiyati bo'lgan har bir narsa, u qanday bo'lmasin, uning hukmi ham harom bo'ladi.

Xuddi shuningdek, juma namoziga azon aytilayotgan vaqtda savdo bilan shug'ullanish mumkin emas. Bu to'g'rida Juma surasining 9-oyatida shunday deyiladi: «Ey, iymon keltirganlar, qachonki, Juma kuni namozga nido qilinsa, bas, Allohning zikriga shoshiling va savdoni qo'ying. Ana shundoq qilmog'ingiz, siz uchun yaxshidir, agar bilsangiz». Demak, azon aytilayotgan vaqtda ijara ishlari, yoki biror narsani garovga qo'yish va boshqa manfaat keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'lish ham man etiladi, sabab juma namozidan qolish xavfi bor.

Mazkur to'rtta muhim manba bilan bir qatorda islom huquqida al-istihson (mujtahidning ochiq – ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga o'tishi), al-maslahatul mursala (qayddan xoli bo'lgan, hech bir narsaga bog'lanmagan maslahat), urf (kishilar o'rganib, odatlanib qolganliklariga asosan qilib kelayotgan ishlari va so'zlari) ham manba sifatida tan olinadi.

XI bob. HUQUQ IJODKORLIGI

1-§. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va funksiyalari

Huquq ijod etish davlatning yuridik normalar yaratishga qaratilgan maxsus faoliyatidir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning irodasini qonun darajasida ifoda etadi, ijtimoiy boshqaruv va siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu faoliyat natijasida jamiyat miqyosida amal qiluvchi bir butun va o'zaro ichki aloqador bo'lgan huquqiy normalar tizimi vujudga keltiriladi. Huquq normalarining yaratilishi, yuridik kuchi, shakli, quyidan yuqoriga bo'ysunish munosabatlari davlatning huquq ijodkorlik funksiyasi bilan bevosita bog'liq. Huquq ijodkorligi huquq yaratishning nisbatan kengroq bo'lgan jarayon tarzidagi tarkibiy qismi hisoblanadi¹.

Huquq ijodkorligi – vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning (referendum chog'ida – butun xalqning) huquq normalarini o'rnatish, o'zgartirish, takomillashtirish va bekor qilishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatidir.

Huquq ijodkorligi faoliyatiga nafaqat yangi huquqiy normalar o'rnatish, balki ilgari chiqarilgan normativ-huquqiy qoidalarni o'zgartirish va bekor qilish ham kiradi. Davlat huquqiy normani o'rnatish yoki ma'qullash orqali huquqni qo'llash va huquqni qo'riqlashdek serqirra, murakkab jarayonlarga turtki beradi. Huquq ijodkorligi tufayli vujudga keltiriladigan huquq normalari davlat organlarining turli xil rasmiy hujjatlarida aks ettiriladi. Bunday rasmiy hujjatlar *normativ-huquqiy hujjatlar* deb ataladi. Huquq ijodkorligi davlat xarakteriga ega bo'lgan aktiv faoliyatdir. Davlat organlari jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish funksiyasini amalga oshirib boradilar. Bu esa, huquq ijodkorligi jarayonining beto'xtov davom etishini taqozo etadi.

Huquq ijodkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra davlat irodasini ifodalash va rasmiylashtirish bilan bog'liq. Davlat tashkiliy kuch bo'lsa, huquq yuridik qoida shakliga kirgan irodadir.

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T., 2011, – 34-bet.

Huquq ijodkorligi mazmuni ikki toifa harakatni o'z ichiga oladi: *birinchidan*, huquq ijod etuvchi organlarning normativ hujjat loyahasini tayyorlash bo'yicha harakatlari: ya'ni, loyihani ishlab chiqish to'g'risidagi qarorni qabul qilish; uni tayyorlash; loyihani muhokama etish; hujjatni manfaatdor idoralar bilan kelishib olish va qo'shimcha ishlov berish. *Ikkinchidan*, bu jarayonga normativ hujjatni chiqarish bo'yicha harakatlar kiradi: huquqiy hujjat loyahasini huquqni ijod etuvchi organ muhokamasiga kiritish; huquq ijod etuvchi organ tomonidan loyihani muhokama etish; normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish va uni e'lon qilish (nashr etish).

Ta'kidlash joizki, huquq ijod etishning mazkur bosqichlari (harakatlari) ba'zan birlashib ketishi, ba'zan esa, yangi xatti-harakatlar bilan to'ldirilishi mumkin. Xususan, yakka tartibda huquqiy hujjat qabul qiluvchi mansabdor shaxs ushbu bosqichlarni birlashtirib yuborishi mumkin. Masalan, Prezident farmon chiqarganda yoki hokim farmoyish qabul qilganda aytib o'tilgan bosqichlarni birlashtirib, o'zi bajaradi. Ayrim hollarda yuqoridagi bosqichlardan tashqari, loyiha yuzasidan mutaxassis-olimlarning xulosasini olish, uni ekspertizadan o'tkazish va loyihani keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yish kabi xatti-harakatlar ham amalga oshiriladi.

Huquq ijodkorligi faqat qonun loyihasi yoki huquqiy qarorni ko'rib chiqish va qabul qilish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon davlat organlarining amaldagi huquqiy hujjatlarga o'zgartishlar kiritish, eskirgan yuridik normalarni bekor qilish va mavjud normativ hujjatlarni bir tizimga solishga qaratilgan faoliyatini o'z ichiga oladi. Xalq, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar yuridik normalarni o'rnatuvchi subyektlar sifatida e'tirof etiladi. Shu ma'noda huquq ijodkorligining turlari haqida so'z yuritish mumkin.

Huquq ijodkorligining quyidagi turlari mavjud:

1) Xalqning bevosita huquq ijodkorligi. Xalq tomonidan amalga oshiriladigan huquq ijodkorligining eng yorqin ifodasi *referendum* – davlat va jamiyat hayotining o'ta muhim masalalari bo'yicha umumxalq ovoz berishidir. Referendum huquq ijod etishning alohida shakli sifatida xalqning o'z irodasini bevosita bayon etishi hisoblanadi. Bu huquqiy normalar yaratishning o'ta nufuzli turi bo'lib, referendum natijalari davlat hokimiyat organlarining biron-bir tarzdagi tasdiqlashiga muhtoj emas. Referendum yo'li bilan qabul qilingan hujjat mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum orqali bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining «Referendum to'g'risida»gi Qonunini 1-moddasi). U qat'iy irodaviy mazmundaga siyosiy-yuridik institutdir. Mohiyat-e'tibori bilan referendum davlatning u yoki bu qarorining xalq ovozi bilan tasdiqlanishi, shu orqali unga uzil-kesil va umummajburiy xususiyat baxsh etilishidir. Xalqning intilish va istaklari, man-

faat va irodasini aniqlash hamda qonun darajasiga ko'tarishda referendum eng samarali usul hisoblanadi.

«Xalq huquq ijodkorligi» tushunchasining butun mazmuni, barcha qirralari birgina «referendum» instituti orqali batafsil ochilmaydi. Xalqning bevosita huquq ijodkorligi ancha keng tushuncha bo'lib, uning mazmuniga quyidagi voqeliklar ham kiradi:

- xalqning huquq tashabbuskorligi;
- huquqiy hujjat (qonun) loyihasining jamoatchilik (umumxalq) muhokamasi;
- huquqiy hujjatni, qonunni xalq ovoz berishi orqali qabul qilish (referendum).

Demak, referendum xalq huquq ijodkorligining bir, yakuniy bosqichidir¹.

2) Davlat organlarining huquq ijodkorligi. Bu huquq ijodkorligining asosiy, keng tarqalgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan turidir. Davlat organlarining vazifasi, vakolatlari hamda faoliyat yo'nalishlari qonunda belgilab qo'yiladi. Ana shu yuridik vakolatlar doirasida har bir davlat organi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Ularning vakolatlari darajasi va ko'lami normativ hujjatlarning yuridik kuchini, o'zaro mutanosiblik (iyerarxik) munosabatlarini belgilab beradi. Odatda, davlat organlarining huquqiy maqomini belgilovchi yuridik akt(hujjat)da (Konstitutsiya, qonun, farmon yoki nizomda) ular qanday yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilishi belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 84-moddasiga ko'ra, Oliy Majlis – qonun qabul qiladi; 94-moddasiga ko'ra, Prezident – farmon, qaror va farmoyish chiqaradi; 98-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi Oliy Majlis va Prezident hujjalari ijrosini ta'minlash uchun qaror va farmoyishlar chiqaradi. Konstitutsiyaning 15 va 16-moddalari esa, qonun ustuvorligi prinsipini mustahkamlaydi. Bu moddalar mazmuni bilan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi o'zaro bo'ysunish va ustuvorlik munosabatlari aniq-ravshan belgilab qo'yilgan.

3) Mansabdor shaxslarning huquq ijodkorligi. Avvalo, mansabdor shaxs tushunchasini aniqlab olish lozim, chunki amaldagi qonunchilikda unga tegishli ta'rif berilmagan. Holbuki, mansabdor shaxs – davlat hokimiyat yoki boshqaruv organida yoxud nodavlat tashkilotida muayyan lavozimni egallagan, unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun huquqiy hujjatlar qabul qilish va amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir.

Nodavlat tashkilotlar (xo'jalik, tijorat, ijodiy va hokazo) rahbarlarining huquqiy hujjat qabul qilish va amalga oshirish bo'yicha vakolatlari mehnat, fuqarolik, moliya va boshqa sohalarga oid qonunchilik qoidalaridan kelib chiqa-

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – T., 2011. – 237-bet.

di. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan quyidagi mansabdorlik lavozimlarini sanab o'tish mumkin: Prezident, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri, Bosh vazir, vazir, hokim, prokuror, sudya, boshqarma va bo'lim boshliqlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar rahbarlari va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlatimizdagi eng oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.

Mansabdor shaxsning normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash va uni qabul qilish bo'yicha faoliyati huquq ijodkorligi hisoblanadi. Biroq, uning huquqni qo'llash bilan bog'liq xatti-harakati huquq ijodkorlik faoliyati doirasiga kirmaydi.

Huquq ijodkorligi jarayoniga turli-tuman hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy omillar (sotsial faktorlar) jiddiy ta'sir ko'rsatadi. *Ijtimoiy omillar* huquqiy tartibga solish ehtiyojini aniqlashga, huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashga, qonunchilik hujjati loyihasini muhokama qilish va qabul qilishga, pirovardida uning mazmuniga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy hayot hodisalaridir. Huquqni yaratish va shakllantirish jarayoniga eng avvalo iqtisodiy (moddiy), siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu bois huquq yaratish jarayonida ijtimoiy omillar imkon qadar to'la hisobga olinsa, yaratilayotgan qonunlar (huquqiy hujjatlar) jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlariga, taraqqiyot ehtiyojlariga shunchalik mos keladi, hayot bilan hamohang bo'ladi¹.

Ijtimoiy ahamiyatga molik muayyan normativ-huquqiy hujjatni yaratishda qonun chiqaruvchi organ, har qanday huquq ijodkorlik subyekti quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

– tegishli normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi zarurligini belgilovchi turli sotsial omillarni o'rganish;

– huquqiy normalarni shakllantirish (loyihalashtirish) chog'ida ijtimoiy va milliy qatlamlarning, sinflarning, butun jamiyatning turli-tuman manfaatlarini aniqlash va e'tibor bilan inobatga olish;

– tayyorlanayotgan huquqiy normalar loyihasini tarixan avval qabul qilingan analogik hujjatlar bilan va xorijiy davlatlarda bugungi kunda amal qilayotgan shunday huquqiy qoidalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazish;

– zaruriyat taqozo etganda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning oqilona variantlarini aniqlash uchun ijtimoiy eksperiment yo huquqiy eksperiment (tajriba) o'tkazish;

– loyihalashtirilayotgan huquqiy normaning huquqiy tizimda amal qilayotgan boshqa normalar bilan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirining xususiyatlarini, tabiatini aniqlash kabi qator harakatlarni amalga oshirish².

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995. – 83-bet.

² Batafsilroq qarang: Керимов Д.А. Культура и техника правотворчества. – М., 1991. – 23-bet.

Huquq ijodkorligi davlat faoliyatining huquqiy shakllaridan biri bo'lib, bu jarayonda quyidagi *funksiyalar* bajariladi: qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash; amaldagi qonunchilikni yangilash, uni ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga doimo moslashtirib turish; eskirgan huquqiy normalarni bekor qilib borish; huquqda hal etilmagan jabhalar, bo'shliq(probel)ni to'ldirib borish; qonunchilikni tartibga keltirish bir tizimga solish(sistemashtirish).

Davlat qonunchilik faoliyati orqali siyosiy, iqtisodiy, sotsial-madaniy va mafkuraviy hayotning hamma sohalaridagi eng muhim masalalarni hal etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar yaratadi. Qonunchilik funksiyasi har qanday davlatning ajralmas funksiyasi bo'lib, bu uning shunday bir faoliyat yo'nalishiki, unda davlatning oliy vakillik idorasi ijtimoiy tajribani umumlashtirish asosida jamiyatga davlat rahbarligini o'tkazish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida qonunlar yaratadi, mavjud qonunlarni o'zgartiradi va eskirganlarini bekor qiladi.

Qonunchilik funksiyasining mohiyati shundaki, bunda davlat (hukmron sinf, demokratiya sharoitida – butun xalq) o'z irodasiga rasmiy majburiy siyosiy tus beradi. Ayni paytda uning mohiyati, butun siyosiy xarakteriga qaramasdan, voqelikni, ijtimoiy munosabatlar mazmunini nazariy anglashdan (hech bo'lmaganda, shunday bilish taqozosidan) iborat. «Qonunchilik funksiyasi, – irodaning amali emas, balki uning «nazariy energiyasi» bo'lishlikdir. Bu yerda iroda o'zini qonun o'rniga o'tkazmaydi: uning roli aynan haqiqiy qonunni (obyektiv taraqqiyot qonunini – X.O.) ochish va ifoda etishdan iboratdir. Qonun chiqaruvchi qonunlarni kashf etmaydi, balki ularni shakllantiradi, u faqat anglangan ijobiy qonunlarda ma'naviy munosabatlarning ichki qonunlarini ifoda etadi»¹. Demak, hayotning, taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari birlamchidir, qonun esa, ularni yuridik shakl sifatida qayd etadi. Qonun yaratishning mohiyati mana shundadir.

Davlat hokimiyati yuridik qonunlarsiz o'z amalini topolmaydi. Shu sababli davlat ijobiy qonunchilik yuritadimi yoki sifatsizmi, bundan qat'i nazar, mazkur faoliyatni albatta amalga oshiradi. Bu faoliyat bo'lmasa, hech bir masala siyosiy ahamiyatlilik darajasiga ko'tarila olmaydi. Zero, fuqarolik jamiyatining hamma ehtiyojlari ham... qonun tariqasida umumiy e'tirofga sazovor bo'lish uchun muqarrar ravishda davlat irodasi orqali o'tadi². Buning sababi shuki, faqat qonunlarga obyektiv zarur bo'lgan huquqning eng muhim xususiyatlarini imkon qadar ko'proq va zamonaviy darajada o'zida ifoda etib, uni davlat himoyasiga qo'yishi mumkin.

¹ K. Marks, F. Engels. Asarlar. 1-jild. – 162, 359-betlar.

² Marks K, Engels F. Tanlangan asarlar. – T., 1981, 3-jild. – 435-bet.

Davlat hokimiyatining xalq irodasiga va iqtisodiy ehtiyojlarga mos yuridik qonunlari jamiyatda mujassam huquq sifatida gavdalanadi. Bunday vaziyat faqat demokratiya sharoitida bo'lishi mumkin. Aslini olganda, yuridik qonunlar qonun chiqaruvchi idora tomonidan qayd etilgan va shu idora tomonidan ochilgan muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlar mavjudligining obyektiv qonundan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, huquq ijodkorligining ko'rsatib o'tilgan funksiyalarining yuqori saviyada muntazam bajarib turilishi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish samaradorligining oshishini, qonunchilik tizimining izchil tarzda takomillashuvini ta'minlaydi.

2-§. Huquq ijodkorligining prinsiplari

Demokratik davlatda xalqning irodasini, ijtimoiy manfaat va ehtiyojlarni qonun darajasiga ko'tarish *huquq ijodkorligining mazmunini* tashkil etadi. Ushbu o'ta jiddiy

va mas'uliyatli jarayon muhim prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Agar shunday prinsiplarga, ya'ni rahbariy g'oya va qoidalarga tayanilmasa, huquqiy normalar tizimida sifat va samaraga erishib bo'lmaydi. Eng asosiysi, xalq irodasi va manfaatlari ifodasini to'liq ta'minlab bo'lmaydi.

Shu bois mamlakatimizda amalga oshiriladigan huquq ijodkorligi quyidagi *asosiy prinsiplarga* tayanadi:

Huquq ijodkorligining xalqchilligi. Demokratik davlat o'zining qonun ijodkorligi, huquq yaratish faoliyatida o'z xalqi bilan, aholisining keng qatlamlari bilan mustahkam bog'liq va chambarchas aloqador bo'lishi lozim.

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekanligi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Shunday bo'lgach, davlat, uning organlari huquq yaratish chog'ida xalq manfaati va ehtiyojlaridan kelib chiqishi mantiqiy holdir. Ayniqsa, qonunni xalq tomonidan saylangan deputatlar qabul qilishida chuqur va bevosita ramziy ma'no bor. Xalq o'z muxtor vakillari orqali qonun chiqarish hokimiyatiga daxldor bo'ladi. Qolaversa, huquq ijodkorligi subyekti hisoblanadigan barcha davlat organlarining ushbu faoliyati keng jamoatchilik, xalq ommasi nazorati ostida ro'y beradi. Xalqchilik prinsipi haqida gap borganda butun mas'uliyatni his etish darkor. Zero, normativ-huquqiy hujjatlarda turli demokratik kanallar vositasida (xususan, ommaviy axborot vositalari orqali) xalqning tabiatini, fazilatlarini, mentalitetini, ruhini aks ettirish g'oyatda muhimdir. Xalqning qonun (huquq) ijodkorligida bevosita va bilvosita ishtirok etishi demokratiyaning asosiy talabidir. Jumladan, qonun loyihalarining umumxalq muhokamasiga qo'yilishi qonunda va boshqa huquqiy hujjatlarda xalqning xohish-irodasini to'la

ifodalashga ko'maklashadi. Ushbu prinsip, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini yaratishda xalqning, bevosita xalq vakillari(deputat va senatorlar)ning, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning, fuqarolarning huquqiy siyosatni shakllantirish va qonunchilikni takomillashtirishda keng ishtiroki orqali namoyon bo'ladi¹.

Huquq ijodkorligining demokratikligi. Demokratizm huquq ijodkorligida xalq irodasini aniqlash va qonunda ifoda etish darajasi bilangina tavsiflanmaydi. Bu, avvalo, huquqiy hujjatlar qabul qilishda, xususan, qonun chiqarishda xalqning ishtirokini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Demokratizm parlament va mahalliy xalq deputatlari kengashlari faoliyati jarayonida aks etadi. Referendum qonun qabul qilishning bevosita demokratik shakli ekanligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Shuningdek, demokratiyaning bevosita shakllariga o'ta muhim normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining xalq muhokamasiga qo'yilishi ham kiradi. Bunday muhokamalar chog'ida mamlakat fuqarolari, jumladan, olimlar, mutaxassislar loyiha yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildiradilar. Shu tariqa xalqning fikri, irodasi qonun chiqaruvchi organga ayon bo'ladi va uni huquqiy normalar mazmunida to'laqonli aks ettirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Binobarin, demokratiyaga intilish ijtimoiy taraqqiyotimizning bosh yo'nalishidir. «Demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliigi, yashashga qobilligi muhimdir... U hayotimizning har bir soniyasiga singab ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar mazmunsiz... so'z o'yini bo'lib qolaveradi»². Demokratik qadriyatlar, mezon va me'yorlar haqida so'z borganda quyidagilarni qayd etish muhim ahamiyatga ega: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir»³.

Huquq ijodkorligida qonuniylik prinsipi. Ushbu prinsip huquq ijodkorligi subyektlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va e'lon qilish borasidagi xatti-harakatlari Konstitutsiyaga va boshqa qonunlarga asoslanishidan kelib chiqishi lozim. Huquq ijodkorligidagi qonuniylik ikki jihatni nazarda tutadi: *birinchidan*, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan har bir hujjat ularning vakolatlari doirasida va tegishli hujjatlar uchun belgilangan taomil (tartib) asosida chiqarilishi shart; *ikkinchidan*, normativ-huquqiy hujjatning mazmuni ham qonuniylik talablariga javob berishi shart.

¹ Qarang: Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T.: TDYuI, 2008. – 31-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998. – 560-bet.

³ O'sha joyda.

Ya'ni, yangi chiqarilayotgan hujjat qonunlar va yuridik kuchi bo'yicha o'zidan yuqori turuvchi boshqa huquqiy hujjatlarga zid bo'lmasligi kerak.

Qonun ustuvorligi, qonuniylik prinsipi, avvalo, qonun chiqaruvchi organ hamda ijroiya hokimiyat yuqori organlari uchun ham dasturulamaldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan «Harakatlar strategiyasi»da qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash masalalariga nihoyatda jiddiy e'tibor qaratilganligi tahsinga loyiq¹.

Qonun ustuvorligi yalpi qonuniylikni ta'minlashning muhim sharti. Boshqartirib, qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlari Konstitutsiyaga muvofiq bo'lmay qolsa, maxsus muhofaza mexanizmi ishga tushadi. Bunday hollarda Konstitutsiyaviy sud o'zining tegishli xulosasini chiqaradi va g'ayrikonstitutsiyaviy hujjatni harakatdan to'xtatadi.

Huquq ijodkorligining oshkoraligi. Huquq ijodkorligi faoliyatining natijasi bo'lmish normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning huquq va majburiyatlari mustahkamlanadi. Shu sabab, normativ-huquqiy hujjat darhol o'z ijrochilari e'tiboriga yetkazilishi zarur. Fuqarolar huquq normalari tomonidan o'zlariga qo'yilayotgan talablardan xabardor va hech bo'lmasa, shunday bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Quyidagi yuridik prezumpsiya barchaga ayon: «qonunni bilmaslik hech kimni javobgarlikdan ozod qilmaydi»; «hech kim qonunni bilmasligini ro'kach qilishi mumkin emas». Shunga ko'ra, ya'ni javobgarlikka tortishga ma'naviy huquqqa ega bo'lish uchun davlat fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlab berishi lozim.

Normativ-huquqiy hujjatlarni oshkor qilishning asosiy vositasi ularni ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasida juda muhim qoida mustahkamlangan: «Qabul qilingan qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir». Mazkur konstitutsiyaviy prinsip muhim demokratik mazmunga ega. Normativ-huquqiy hujjatni hayotga joriy etishdan avval u oshkora tarzda xalqqa yetkazilishi lozim. Huquqiy hujjatlar fuqarolardan sir tutilishi, yashirin amalda bo'lishi mumkin emas.

Bu prinsipga xalqaro huquqda ham katta e'tibor beriladi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashi qatnashchilari bo'lgan davlatlarning 1989-yil 15-yanvardagi Vena uchrashuvi Yakuniy hujjatida shunday deyiladi: YeXHK qatnashchisi bo'lgan davlatlar «shaxslarning o'z huquq va burchlarini bilishga hamda ularga muvofiq harakat qilishga bo'lgan huquqini samarali ta'minlash maqsadida inson huquqlari va asosiy erkinliklariga oid qonunlar, ma'muriy qoida hamda tartibotlarni nashr etib, barchaga yetkazish majburiyatini oladilar».

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2017. – 4-bet.

Huquq ijodkorligining ilmiy asoslantirilganligi. Huquqiy normalar yaratish jarayoni zamonaviy huquq ilmi va amaliyoti yutuqlariga, huquqiy tafakkur va mantiq qoidalariga qat'iy tayanmog'i lozim. Har bir qonun, huquqiy norma ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash hamda ilmiy asoslantirish negizida yaratilishi kerak. Muayyan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishdan oldin uni yaratish uchun qanday ehtiyoj borligini ilmiy jihatdan isbotlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun huquqiy tartibga solish mo'ljallanayotgan ijtimoiy munosabatlar turi chuqur tahlil etilishi, jamoatchilik fikrini o'rganish ishlari amalga oshirilishi lozim.

Ilmiylik prinsipi haqida gap borganda, kamida ikki jihat nazarda tutiladi. Birinchidan, huquq ijodkorligi puxta ilmiy strategiyaga tayanishi zarur. Bunday strategiya umumdavlat miqyosida shakllantiriladi. Uni, odatda, davlat yuqori hokimiyat organlari huzuridagi tegishli tadqiqotlar institutlari amalga oshiradi. Ikkinchidan, muayyan normativ-huquqiy hujjat matni ustida ish borganda, huquq normasini yaratish va ifodalashda (mazmunan va yuridik texnika nuqtayi nazaridan) ilmiy tavsiyalar inobatga olinishi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda imkon qadar qo'proq samaraga erishishdir. O'z faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlash uchun huquq ijod etuvchi organlar huquqiy hujjat loyihagini tayyorlashda ishchi guruhlar tarkibiga yetakchi huquqshunos-olimlarni kiritadilar; loyiha yuzasidan xulosa olish uchun uni tegishli ilmiy muassasalarga yuboradilar.

So'nggi paytlarda O'zbekiston Respublikasi parlamenti faoliyatida qonun loyihalarini *ilmiy ekspertiza* qilishga e'tibor qaratilayotganligi tahsinga sazovor. Qonun loyihalarini ilmiy va huquqiy ekspertizadan o'tkazishga olimlar, amaliyotchi xodimlar va boshqa yuqori malakali mutaxassislar jalb etiladi. Loyihani ekspertizadan o'tkazish natijalari yuzasidan ekspertlar tegishli xulosa taqdim etadilar.

Ilmiylik prinsipda qat'iy turiladigan bo'lsa, huquq ijodkorligining subyektlari bo'lgan organlarning vakolatlari hokimiyatlar taqsimlanishi asosida tashkil etilishi lozim. Shu yo'l bilan mazkur organlar faoliyatida parallelizm, takrorlash, nomuvofiqlik va boshqa organning vakolat doirasiga daxl qilish hol-lari istisno etiladi.

Huquq ijodkorligiga ilmiy yondashish talabi ayniqsa bugungi kunda, ya'ni bozor munosabatlarini qaror toptirish, demokratik qadriyatlarni shakllantirish davrida inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash, milliy, siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun muhimdir. Bu munosabatlarni aniq huquqiy tartibga solishga erishish uchun huquq ijodkorligining ilmiy zaminini muttasil takomillashtirib borish lozim.

3-§. Qonun ijodkorligi jarayoni va bosqichlari

Huquq ijodkorligining eng yuqori darajada tashkillashgan, uyushgan va takomillashgan shakli qonun ijodkorligidir. Shu bois, uning tabiati va xususiyatlariga mufassalroq to'xtalamiz. Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo'lmish qonun, hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata – Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi – Qonunchilik palatasi esa, o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olindi.

Parlamentning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, uning qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyatini sifat jihatidan tubdan yaxshilash masalalariga O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida alohida e'tibor qaratildi¹. Qonun ijodkorligini izchil takomillashtirib borish jamiyatni modernizatsiya qilish sharoitida davlat qurilishining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qonun ijodkorlik (qonunni yaratish) jarayoni – davlat oliy vakillik organining konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Qonunchilik jarayoni muayyan tartib, tashkillashganlik ifodasi sifatida mamlakatda qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish shakli hisoblanadi. Qonunning oliyligi, jamiyat hayotidagi ustuvor mavqei qonunchilik jarayonining ilmiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr. – T.: «Adolat», 2017. – 4-bet.

va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Zero, qonun yaratish jarayonining mukammal tartibga solinganligi sifatli va talab darajasidagi qonunning vujudga kelishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Qonun ijodkorlik jarayonining ta'rihi ikki ma'noga ega: *birinchidan*, bu qonun loyihasining parlamentga kiritilishidan boshlab, u qabul qilingunga qadar davlat organlari tomonidan ro'yobga chiqariladigan vakolatlar bo'lsa; *ikkinchidan*, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etadigan turli subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi protsessual qoidalar ifodasi(shakli)dir. Qonunchilik jarayonining muhim xususiyati shundaki, uning mazmunini tashkil etuvchi harakatlar tartibi va ularni amalga oshirish tartibi konstitutsiyaviy tarzda belgilab qo'yiladi.

Qonun ijodkorligida muayyan munosabatlarni huquq vositasida tartibga solish obyektiv zarurligini anglab yetish, shunga ijtimoiy ehtiyoj borligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Qonun yaratishdan oldin jamiyatda shunday qonun vujudga kelishga ehtiyoj bormi, degan savolga javob berish lozim. Qonun ishlab chiqishga kirishishdan avval mavjud ijtimoiy voqelik, hayot, muammoli vaziyat atroflicha o'rganilishi talab etiladi. Bu borada ruminiyalik huquqshunos Anita Nashitsning fikri diqqatga sazovor. U huquq yaratishning birinchi bosqichida jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni anglash, psixologik va irodaviy omillarni baholash, huquqni shakllantiruvchi omillarni tahlil etish va shu asosda hukmron irodani ifodalash ro'y beradi, deb ta'kidlaydi. Bu bosqichda huquqni yaratish jarayoni o'zining hayotga moslashuvchanligi bilan, turfa xilligi va dinamizmi bilan, qonunchilik sohasida tashabbus ko'rsatishga imkon beruvchi tashkiliy shakllar miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. So'ngra, huquqning ijtimoiy mansablari qonun yaratishning ikkinchi bosqichiga – huquqiy qarorni, ijobiy huquq normasini o'rnatishga – o'tilishini shart qilib qo'yadi. Bu huquq normasini chiqarishga vakolatli bo'lgan organlarning yuridik ahamiyatli faoliyati tufayli amalga oshadi¹.

Shunday qilib, u yoki bu qonunning yaratilishiga bo'lgan ehtiyojni o'rganish – qonunchilik jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Bordi-yu, qonunga ehtiyoj bo'lmasa, qonun chiqaruvchi «rejalashtirgan» huquqiy tartibga solish ro'y bermaydi, qabul qilingan qonun ishlamaydi, u amaldagi huquqiy tizimga singishib ketolmaydi, pirovard natijada qonunning ijtimoiy obro'sizlanishi kelib chiqadi.

Qonun yaratish ehtiyoji ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari-ga muvofiq hayotning o'zidan kelib chiqqani ma'qul. Masalan, bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlarning shakllanishi tegishli huquqiy zamin vujudga

¹ Qarang: A. Нашиц. Правотворчество: Теория и законодательная техника. М., Прогресс, 1974. – 136-bet.

keltirilishini taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda so'nggi vaqtlarda bir qator yangi qonunlar, jumladan, «Tadbirkorlik to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «O'zbekistonda chet el investitsiyalari to'g'risida», «O'zbekistonda investitsiya to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Bandlik to'g'risida», «Valyutani tartibga solish to'g'risida», «Reklama to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida», «Raqobat to'g'risida»gi qonunlar, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Qonun ijodkorligi jarayoni, an'anaga ko'ra, ushbu jarayonning turli bosqichlarida ishtirok etuvchi organlar o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash ma'nosida talqin etiladi. Garchand, qonun chiqarish faoliyatida u yoki bu mustaqil subyektlar ishtirok etsalar-da, qonunchilik jarayoni asosan parlamentning qonun yaratish faoliyati tartibi bo'lib qolaveradi.

Yuridik adabiyotlarda qonun ijodkorligi jarayoniga ma'no jihatidan yaqin turuvchi bir qator iboralar, ya'ni: «qonunchilik jarayoni», «qonun chiqarish jarayoni», «qonunchilik tartib-taomili» (*zakonodatelnaya protsedura*) kabi kategoriyalar keng qo'llaniladi. Qonun chiqarish jarayonining mazmuni va bosqichlari asosan konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlansa, «qonunchilik tartib-taomili», odatda, parlament (uning palatalari) reglamentlarida, ichki nizomlarida batafsil belgilab qo'yiladi. Qonunchilik tartib-taomili deganda, qonun loyihalarining parlament doirasida ko'rib chiqilishi, muhokama etilishidan tortib to qabul qilinishi va kuchga kiritilishigacha bo'lgan barcha xatti-harakatlarni amalga oshirish tartibi (ketma-ketligi) tushuniladi. Qonunchilik protsedurasi, – deydi professor M.N. Marchenko, – qonun loyihalarini tayyorlash va qabul qilish bilan bog'liq yuridik mustahkamlangan qoidalarning bir butun majmuidan iborat¹.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, qonun ijodkorligi qonunlarni tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilish bosqichlari va harakatlari bilan bog'liq qonunchilik jarayonidir.

Ikki palatali parlament sharoitida qonun ijodkorligi jarayoni quyidagi besh bosqichdan iborat bo'ladi:

- 1) qonunchilik tashabbusi;
- 2) qonun loyahasini muhokama qilish;
- 3) qonunning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinishi;
- 4) qonunning Senat tomonidan ma'qullanishi;
- 5) qonunni imzolash va e'lon qilish.

¹ Qarang: Марченко М.Н. Теория государства и права: учебник. – М.: «Проспект», 2008. – 552-bet.

Mazkur bosqichlarga alohida-alohida to'xtalamiz.

Birinchi bosqich – qonunchilik tashabbusi. Qonunni yaratish jarayoni, ya'ni qonun chiqaruvchi organ doirasidagi bevosita faoliyat qonunchilik tashabbusi ro'yobga chiqishidan boshlanadi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi – Konstitutsiyada belgilangan vakolatli organlar, tashkilotlar va shaxslar tomonidan muayyan qonun loyahasini yoki yangi qonun qabul qilish to'g'risida, shuningdek qonunni o'zgartirish yoxud uni bekor qilish to'g'risidagi taklifning Oliy Majlis e'tiboriga taqdim etilishi va parlament tomonidan bu masalani belgilangan tartibda ko'rib chiqish haqida tegishli qaror qabul qilishdir.

Mamlakatimiz Asosiy qonunida qonun chiqarish jarayonining alohida bosqichi hisoblangan qonunchilik tashabbusi huquqi o'zining yuridik ifodasini topgan. E'tirof etish lozimki, qonunchilik tashabbusi Oliy Majlisda emas, balki faqat Qonunchilik palatasida ro'yobga chiqariladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyahasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi (Konstitutsiyaning 83-moddasi).

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib, 2006-yilning 8-noyabrda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun loyahasini kiritdi¹. Ushbu qonun umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qilindi va 2007-yil 11-aprelda imzolandi. Shuningdek, 2008-yil 12-noyabrda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi kiritildi. U shu yilning 19-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi. 2008-yil 4-dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi qonunning 27-moddasi «Qonunchilik tashabbusi» deb nomlanib,

¹ Xalq so'zi, 2006-yil 9-noyabr.

² Xalq so'zi, 2008-yil 5-dekabr.

unda yuqoridagi konstitutsiyaviy norma quyidagi qoida bilan yanada aniq holga keltirilgan: «Davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish, shuningdek budjet moddalari bo'yicha o'zgartishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda kiritilishi mumkin» (27-moddaning 2-qismi).

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlarning qonun loyihasini parlamentga kiritishi va uni ko'rib chiqish tartibi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi qonunda belgilab berilgan. Xususan, mazkur Reglamentning 12-moddasida quyidagi qoidalar bayon etilgan:

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar kiritadilar.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritishda quyidagilar taqdim etilishi kerak:

1) qonun loyihasiga uning konsepsiyasi bayon qilingan holdagi tushuntirish xati;

2) o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek qonun loyihasi kiritilishi bilan bog'liq qonunlarning o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihasi;

3) o'zgartirilishi, qo'shimchalar kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo'lgan qonun osti hujjatlarining ro'yxati;

4) moddiy xarajatlarni talab qiladigan qonun loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar;

5) davlat daromadlarini kamaytirish yoki xarajatlarini ko'paytirishni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonun loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan birinchi o'qishda qabul qilinguniga qadar uni kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqining subyekti loyiha matnini o'zgartirish yoki o'zi kiritgan qonun loyihasini qaytarib olish huquqiga ega.

Mamlakatimizda ikki palatali parlament tizimiga o'tilgach, qonunchilik tashabbusini amalga oshirishning puxta huquqiy bazasi yaratildi. 2006-yilning 11-oktabrida O'zbekiston Respublikasining «Qonun loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida»gi Qonuni imzolanib, kuchga kiritildi. Qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning barcha yuridik va tashkiliy jihatlari mazkur qonunda batafsil belgilab berildi.

Ikkinchi bosqich – qonun loyihasini muhokama qilish. Qonun loyihasini muhokama etish qonun yaratish jarayonining muhim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi taqdim etilib, u sessiya kun tartibiga kirgach boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bu mavzuga e’tibor qaratib, «Qonunlarni qabul qilish jarayonida yangi tizim – aholi bilan muhokama qilish tizimini joriy etish lozim», – dedi. Ya’ni, «katta ahamiyatga ega, muhim qonun loyihalarini birinchi o‘qishda qabul qilgandan keyin ularni joylarda fuqarolar bilan keng muhokama qilish, ularning taklif va mulohalarini e’tiborga olib, loyihalarni takomillashtirgan holda ikkinchi o‘qishga kiritish tartibini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi»¹.

Qaror topgan an’anaga ko‘ra, qonun loyihasi ikki xil tarzda muhokama qilinadi: aksariyat hollarda, umumiy qoidaga binoan, parlament – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlislarida muhokama etiladi; mamlakat hayotining o‘ta muhim masalalarini tartibga solishga qaratilgan qonunlarning loyihalari esa, keng xalq muhokamasiga chiqariladi. Barcha qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo‘yish majburiy qoida emas. Umumxalq muhokamalari so‘nggi yillarda qonunchilik tajribasida keng qo‘llanilayotgan demokratik institutdir.

Qonun loyihasi avval parlament muhokamasiga qo‘yiladimi yoki umumxalq muhokamasiga kiritiladimi, degan savolga aniq javob berish mushkul. Chunki parlament ba’zi loyihalarni avval o‘zi birinchi o‘qishda muhokama etib, zarur bo‘lsa, uni umumxalq muhokamasiga kiritish uchun matbuotda e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Ba’zan esa, parlament loyihani umumxalq muhokamasiga chiqarib, muhokama yakunlarini aniqlaganidan keyingina uni o‘z muhokamasidan o‘tkazib, qabul qiladi. Har qanday holatda ham umumxalq muhokamasidan o‘tgan qonun loyihasi yana parlament muhokamasidan o‘tadi, aks holda loyiha qonun sifatida qabul qilinmaydi.

Umumxalq muhokamasi aslida qonun loyihasi yuzasidan xalq bilan bo‘ladigan bevosita kengashuv, maslahatlashuvdir. Qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga kiritish xalq ommasi tajribasini mujassamlashtirish, jamoatchilik fikrini aniqlash va qonunda xalq manfaatlari, xohish-irodasini to‘la-to‘kis aks ettirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasiga muvofiq, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi. Bu qoida muhim qonun loyihalariga ham taalluqli. Umumxalq muhokamasini amalga oshirishning protsessual, tashkiliy jihatlarini «Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida»gi qonunda o‘z ifodasini topgan. Gap qonun loyihasini xalq

¹ Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi, 2017-yil 13-iyul.

muhokamasiga chiqarish to'g'risidagi qarorni kim, qaysi organ qabul qilishi, bu haqda tashabbus bilan chiqishga kimlar vakolatli ekanligi xususida bormoqda. Masalan, ushbu qonunga ko'ra, qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga chiqarish haqidagi taklifni qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari kiritishi mumkin. Loyihani bunday muhokamaga chiqarish to'g'risidagi qarorni esa, respublika parlamenti qabul qilishga haqli.

Qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini ishtirok etishga haqli. Qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqish natijalari asosida mas'ul qo'mita uni Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritish yoki qonun loyihasini kiritgan organga (shaxsga) qaytarish to'g'risida Qonunchilik palatasining Kengashi oldiga masala qo'yadi» (28-modda).

Qonun loyihasining asosiy muhokamasi Qonunchilik palatasining majlislarida amalga oshiriladi. Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi.

Qonun loyihasini Qonunchilik palatasi majlislarida *birinchi o'qishda* ko'rib chiqish chog'ida mazkur qonun loyihasini qabul qilish zarurati, qonun loyihasining konsepsiyasi, uning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari to'g'risidagi masala muhokama qilinadi. Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish muddatini belgilagan holda uni birinchi o'qishda qabul qilish yoki qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi muhokamasiga qonun loyihasining muqobil variantlari kiritilgan taqdirda ular bir vaqtda ko'rib chiqilishi kerak. Qonunchilik palatasi deputatlarining qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan eng ko'p miqdordagi ovozini to'plagan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingan hisoblanadi. Qonun loyihasining qolgan variantlari Qonunchilik palatasi tomonidan rad etilgan deb topiladi.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini *ikkinchi o'qishga* tayyorlash chog'ida tushgan takliflarni umumlashtiradi. U asosli deb topgan takliflar qonun loyihasining matniga kiritiladi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasida ikkinchi o'qishda ko'rib chiqilayotganida mas'ul qo'mita ma'qullagan takliflar ham, ma'qullamagan takliflar ham muhokama qilinadi. Qonun loyihasi bo'yicha ovoz berish moddama-modda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi muhokama natijalari bo'yicha qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishda ko'rib chiqish uchun palataga kiritish

muddatini belgilagan holda uni ikkinchi o'qishda qabul qilish yoxud qonun loyihasini rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Uchinchi o'qishda qonun loyihasi muhokama qilinmasdan yaxlitligicha ovozga qo'yiladi.

Uchinchi bosqich – qonunni qabul qilish. Qonunchilik jarayonining yana bir muhim bosqichi – qonun loyihasini tasdiqlash, qonunni qabul qilish bosqichidir. Bu bosqichning ahamiyati va mas'uliyati shundaki, bunda qonun loyihasiga rasmiy yuridik kuch baxsh etiladi va u qonunga aylanadi. O'zbekiston Respublikasining qonunlari ikki yo'l bilan qabul qilinadi:

birinchisi – qonunning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinishi va Senat tomonidan ma'qullanishi;

ikkinchisi – qonunning umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan qabul qilinishi.

Qonun ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Qonun loyihasiga ovoz berish uch xil shaklda amalga oshiriladi: 1) moddama-modda; 2) bo'lim yoki bob bo'yicha alohida-alohida; 3) loyiha to'lig'icha ovozga qo'yiladi.

Har bir qonunni qabul qilish chog'ida ovoz berish tartibi Oliy Majlis palatalari tomonidan alohida belgilanadi. Qonunlarni qabul qilishning, ovoz berishning umumiy qoidalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Oliy Majlis palatalarining amaldagi Reglamentlarida belgilab berilgan. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik (yarmidan ortiq) ovozi bilan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarni qabul qilish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Qonunchilik palatasi to'liq yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat qabul qila olishi uchun deputatlarning muayyan qismi majlisda hozir bo'lishi va ovoz berishda ishtirok etishi talab qilinadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qonunlar «Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan» qabul qilinadi. Bu yerda mana shu «ko'pchilik ovoz» degan iboraga aniqlik kiritish lozim. Zero, parlamentarizm tajribasida bu borada aniq mezonlar mavjud. Jumladan, «nisbiy ko'pchilik», «oddiy ko'pchilik», «mutlaq ko'pchilik» va «malakali ko'pchilik» tushunchalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalarida ovoz berish demokratik tarzda amalga oshiriladi. Avvalo, har bir deputat yoki senator shaxsan o'zi ovoz berish huquqiga ega. Chunki, ovoz berish deputatning yoki senatorning o'z fikrini, u yoki bu masalaga shaxsiy munosabatini bildirishi, irodasini ifoda etishidir. Parlament a'zosi ovoz berish uchun boshqa hamkasbini vakil qilishi mumkin emas.

Parlamentning har ikki palatasida ovoz berish tartibi ularning Reglamentlarida belgilab qo'yilgan. Unga asosan O'zbekiston xalq deputatlarining (senatorlarining) kamida beshdan bir qismi talabiga muvofiq palatalarning majlisida elektron tarmoqdan foydalangan holda yoxud deputatlar(senatorlar)ning nomlari yozilgan byulletenlarni topshirish yo'li bilan nomma-nom ovoz berish o'tkaziladi. Byulletenlarda «yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» degan so'zlar bo'ladi. Deputat yoki senator byulletendagi ana shu so'zlardan birini qoldirib, qolganlarini o'chirishi kerak. Ovozlarini hisoblab chiqish paytida yuqorida ko'rsatilgan so'zlarning bittadan ortig'i qoldirilgan yoki har uchala so'z o'chirib tashlangan, yo bo'lmasa ko'zda tutilmagan qaror varianti yozib qo'yilgan byulletenlar haqiqiy emas deb topiladi.

Qonunlar umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali ham qabul qilinadi. Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonun o'n kun ichida Senatga ko'rib chiqish uchun yuboriladi. Senatga qonun bilan birga qonun loyahasini Qonunchilik palatasiga kiritish chog'ida taqdim etilgan hujjatlar ham yuboriladi.

To'rtinchi bosqich – qonunning Senat tomonidan ma'qullanishi.

Qonunchilik palatasi to'g'risidagi qonunning 29-moddasida qabul qilingan qonun Senatga yuborilganidan so'ng amalga oshiriladigan harakatlar belgilangan. Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat rad etgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda Qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

Mabodo, Senat quyi palata qabul qilgan qonunni ma'qullamay rad etsa, parlament palatalari o'rtasida *kelishuv komissiyasi* tuziladi. Senat rad etgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan teng asosda *kelishuv komissiyasi* tuzishi mumkin.

Qonunchilik palatasida kelishuv komissiyasi tuzish to'g'risidagi tashabbus Qonunchilik palatasining Spikeridan, shuningdek fraksiyalar va deputatlar guruhlaridan chiqishi mumkin. Kelishuv komissiyasi tarkibiga nomzodlar yuzasidan Qonunchilik palatasining Spikeri va Senat Raisi o'zaro maslahatlashib oladilar. Ushbu komissiyaning Qonunchilik palatasidan ko'rsatilgan tarkibi uning majlisida tasdiqlanadi. Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning hamraislarini saylaydilar.

Komissiya, qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida, Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasining qarorlari kelishuv komissiyasi tarkibiga kirgan Qonunchilik palatasi deputatlari va senatorlarning alohida-alohida ovoz berishi orqali qabul qilinadi. Qaror, agar komissiyaning har bir palatadan saylangan a'zolarining ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Kelishuv komissiyasi o'z ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish xususidagi takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qiladi. Xulosaga qonunga doir o'zgartishlar va qo'shimchalar loyihasining matni ilova qilinadi. Xulosa Qonunchilik palatasi va Senatdan saylangan kelishuv komissiyasining hamraislari tomonidan imzolanib, tegishlicha Qonunchilik palatasi va Senatga topshiriladi.

Basharti, Qonunchilik palatasi Senat rad etgan qonunni palata deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaytargan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- qonunni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda qabul qilish;
- qonunni bundan buyon ko'rib chiqmaslik;
- qonunni avvalgi qabul qilingan tahririda ma'qullash.

Bordi-yu, qonun avval qabul qilingan tahrirda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, Senatga ma'qullash uchun yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, konstitutsiyaviy qonunining, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarning loyihalarini qabul qilish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi. Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasini tegishli taklif kiritilganidan keyin olti oy ichida uning keng muhokamasini inobatga olgan holda ko'rib chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaytargan qonun qayta ko'rib chiqish uchun bevosita Qonunchilik palatasiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti rad etgan va Qonunchilik palatasi qayta ko'rib chiqishda ilgari qabul qilingan tahrirda ma'qullagan qonun belgilangan tartibda Senatga yuboriladi. Mas'ul qo'mita ushbu qonun yuzasidan xulosa beradi.

Mas'ul qo'mitaning xulosasi olinganidan keyin qonunni Senatda qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi masala belgilangan tartibda Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritiladi. Senat qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan qayta ko'rib chiqishda senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullangan qonun imzolash va e'lon qilish uchun belgilangan tartibda Senat qarori bilan birga O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga yuboriladi.

Senatning qayta ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi. Agar Senat rad etgan yoki O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaytargan qonun Qonunchilik palatasida qayta ko'rib chiqilganida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Senatning e'tirozlarini hisobga olgan holda yangi tahrirda qabul qilinsa, ushbu qonunni Senat yangidan qabul qilingan qonun sifatida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunni, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarni ma'qullash uchun senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Beshinchi bosqich – qonunni imzolash (promulgatsiya qilish) va e'lon qilish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan (2003-yil 24-aprel) qo'shimcha va o'zgartishlar mazmuniga ko'ra, qonun ijodkorligining yakuniy bosqichi o'ziga xos protsessual qoidalar bilan Asosiy qonunning 84-moddasida bayon etilgan. Unga ko'ra, qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qonun 30 kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati rad etgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati rad etgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul

qilingan hisoblanadi hamda imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati rad etgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganida qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 14 kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi shart.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Konstitutsiya 93-moddasining 17-bandida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi. O'zbekiston qonunlari imzolanganidan keyin uzog'i bilan bir hafta ichida rasman e'lon qilinadi. Agar hujjatning o'zida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilinganidan so'ng o'n kun o'tgach, butun O'zbekiston hududida bir vaqtning o'zida kuchga kiradi. Qonunlarning to'liq matni «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», «Xalq so'zi», «Narodnoye slovo» gazetalarida chop etiladi. Mazkur nashrlar qonunning birinchi rasman e'lon qilinishi hisoblanadi. Matbuotda e'lon qilingan qonun (agar uni kuchga kiritish to'g'risidagi qarorda boshqacha muddat nazarda tutilmagan bo'lsa) shu vaqtdan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi, ya'ni o'zining amaliy «faoliyatini» boshlaydi.

4-§. Normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishi

Normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga samarali tatbiq etishning muhim sharti – ularning amal qilish doirasini aniq belgilab olishdir. Normativ hujjatlarning amal qilishi ularda nazarda tutilgan yuridik oqibatlarining yuzaga chiqishidir. Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilish ko'лами amaliyot uchun

bevosita ahamiyat kasb etadi. Bu masala quyidagi to'rt yo'nalishni qamrab oladi:

- mazkur hujjat qanday ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etiladi (harakatlantirish mavzusi);
- normativ hujjat qachondan boshlab va qaysi vaqtgacha amal qiladi (vaqt bo'yicha amal qilishi);
- u qaysi hududga o'z ta'sirini o'tkazadi (hududda, makonda amal qilishi);
- normativ hujjat kimlarga taalluqli (shaxslarga nisbatan amal qilishi).

Hujjatning amal qilish mavzusi. Normativ-huquqiy hujjatlar turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, ma'muriy qonunchilik sohasidagi normativ hujjatlar davlat boshqaruvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi; fuqaroviy qonunchilik hujjatlari mulkiy va mulkiy bo'lmagan shaxsiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Bu sohalarga oid hujjatlarning hech biri o'zgasining mavzusiga, ko'lamiga oid munosabatlarni tartibga sola olmaydi.

Huquqiy tartibga solish mavzusini irodaviy-ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bu hol huquqiy hujjatlarning inson irodasi ishtirok etmaydigan hodisa yoki boshqa vaziyatlarga ta'sir etishini istisno qiladi. Bunday holatlar faqat yuridik faktlar sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ya'ni, qonun bu faktlar tufayli kelib chiqadigan yuridik oqibatlarni belgilay oladi, ammo ularning mazmuniga, ichki harakatiga ta'sir eta olmaydi. Shunday qilib, normativ-huquqiy hujjatlar muayyan turdagi va mazmundagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Normativ hujjatlarning vaqt bo'yicha amal qilishi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatning yuridik kuchga kirish va uni yo'qotish vaqtini anglatadi. Har bir davlatda qonun va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi va kuchga kirishi tartibi to'g'risidagi normalar amal qiladi.

O'zbekistonda qonunlarni matbuotda e'lon qilish va yuridik kuchga kiritish tartibi maxsus qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati respublika organlarining huquqiy hujjatlari qabul qilinganidan (imzolanganidan) so'ng o'n kundan kechiktirmasdan o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida nashr etiladi, ayni vaqtda radio va televideniye orqali e'lon qilinishi ham mumkin. Qonunlar O'zbekiston Prezidentining imzosi bilan e'lon qilinadi.

Qonunlar, Oliy Majlis palatalarining boshqa qarorlari «Axborotnoma» da nashr etilgandan so'ng 10 kun o'tgach, butun respublika hududida kuchga kiradi. Xuddi mana shu hujjatlar rasmiy matbuot organlari («Xalq so'zi», «Narodnoye slovo», «Erkin Qaraqalpaqstan» va «Vesti Karakalpakstana» gazetalari) da bosilib chiqqanidan keyin 10 kun o'tgach yuridik kuchga kiradi. Normativ mazmunga ega bo'lmagan hujjatlar ular qabul qilinib, matbuotda e'lon qilingan kundan

boshlab kuchga kiradi. Albatta, bu umumiy qoidadir. Biroq, qonun chiqaruvchi organ vaziyatga qarab boshqa muddatlarni belgilashi ham mumkin.

Agar muayyan qonunni kuchga kiritish tartibi to'g'risidagi qarorda boshqacha muddatlar belgilangan bo'lsa, qonun nashr etilgach, yuqoridagi muddatda emas, balki parlament qarorida ko'rsatilgan muddatda kuchga kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 1994-yil 24-sentabrda qabul qilinib, 1995-yil 1-apreldan boshlab kuchga kiritilgan; O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 2007-yil 25-dekabrda qabul qilinib, 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiritilgan; Respublikaning Bojxona kodeksi 1997-yil 26-dekabrda qabul qilinib, 1998-yil 1-martdan kuchga kiritilgan.

Odatda, kodekslar va boshqa katta hajmdagi qonunlar qabul qilinganidan boshlab kuchga kirgunicha bir necha oy vaqt o'tadi. Bunday muddat belgilanishiga sabab tegishli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitni vujudga keltirish, tashkiliy-tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish uchun vaqt va imkoniyatning zarur bo'lishidir. Bu davr ichida qonunni hayotga joriy etish mexanizmi tarkibiga kiruvchi qonun osti hujjatlar (farmon, hukumat qarori, nizom va yo'riqnomalar) ishlab chiqilib qabul qilinadi. Zarur bo'lsa, tashkiliy-institutsional tuzilmalar tizimi vujudga keltiriladi va hokazo.

Ba'zi normativ-huquqiy hujjatlar matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Bu haqda tegishli ko'rsatma qonunni kuchga kiritish tartibi to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan bo'ladi. Amaliyotda qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich qabul qilib, shu zayilda kuchga kiritish hollari ham uchrab turadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismi 1995-yil 25-dekabrda qabul qilindi, Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi esa, 1996-yil 29-avgustda qabul qilinib, har ikkala qism 1997-yil 1-martdan boshlab kuchga kirdi. Prezident farmonlarida ularni kuchga kiritishning turli shakllari qo'llaniladi. Masalan, farmonlar matnida shunday qoidalar uchraydi: «Farmon imzolangan vaqtdan kuchga kiritilsin», «Farmon matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin», «Farmon qabul qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiritilsin». Kuchga kiritishning bunday shakllari boshqa turdagi normativ-huquqiy hujjatlarga ham xosdir.

Referendumda qabul qilingan qonunni e'lon qilish va kuchga kiritish tartibi «Referendum to'grisida»gi qonunda belgilangan:

«Referendum natijalarini referendum o'tkazuvchi Markaziy Komissiya ovoz berish tugaganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalari orqali O'zbekiston Respublikasining aholisiga ma'lum qiladi. Referendum o'tkazuvchi Markaziy Komissiyaning qarorlari ustidan bu qarorlar qabul

qilingan kundan boshlab bir hafta ichida O'zbekiston Respublikasining Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin».

Normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish va amalda bo'lish vaqtini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki ular belgilangan vaqtdan boshlab so'zsiz bajarilishi lozim. Bu qonun ustuvorligi prinsipini hayotga joriy etish bilan bog'liq. Qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas, degan talab qonun chiqarilgunga qadar vujudga kelgan hamda mavjud bo'lgan harakat va munosabatlarga tatbiq etilmaydi, degan ma'noni anglatadi. Biroq, bu umumiy yuridik aksiomadan ikki holatda istisno bor: *birinchisi*, agar qonun yoki normativ hujjatning o'zida, ularning orqaga qaytish kuchi ko'rsatilgan bo'lsa; *ikkinchisi*, agar qonunda sodir etilgan xatti-harakat uchun jazo qo'llash to'xtatilgan bo'lsa yoki jazoni yengillashtirish ko'zda tutilgan bo'lsa, qonun orqaga qaytish kuchiga ega.

Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi uch asosga ko'ra amal qilishini to'xtatadi:

a) normativ hujjatning amal qilishi belgilab qo'yilgan muddat tugagan bo'lsa;

b) davlat vakolatli organining normativ hujjatni bekor qilish to'g'risida qarori bo'lsa yoki eskisining o'rniga kelayotgan yangi qabul qilingan normativ hujjatda bu haqda ko'rsatilgan bo'lsa;

v) ilgari amalda bo'lgan normativ hujjatni almashtiruvchi yangi normativ hujjat qabul qilinsa.

Odatda, eskirgan normativ hujjatni bekor qilish yoki kuchini yo'qotgan deb topish haqida maxsus qaror qabul qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning hudud va makon bo'yicha amal qilishi. Davlat suvereniteti tamoyiliga binoan normativ-huquqiy hujjatlar davlatning butun hududida amalda bo'ladi. Davlat hududiga quyidagilar kiradi – yer maydoni, yer osti, ichki va hududiy suvlar, yer va suv hududi ustidagi havo makoni, elchixonalarining, harbiy kemalar, parvoz etuvchi kemalar (apparatlar) hamda ochiq dengizda suzuvchi kemalarning hududlari. Normativ hujjatlar amal qilishining hududiy ko'lami davlat yurisdiksiyasi bilan chambarchas bog'liq. Ba'zan xorijiy mamlakat qonunchiligi muayyan davlat hududida amal qilishi mumkin. Biroq, buning uchun bu ikki davlat o'rtasida ular qonunchilik hujjatlarining o'zaro bir-birining hududida amal qilishi haqida shartnoma bo'lishi shart.

Xalqaro shartnomalar normativ hujjatlarning eksterritorial harakatini ham nazarda tutishi mumkin. Ya'ni, bir davlatning qonunlari o'z hududidan tashqarida ham amal qiladi (bir davlat qonunlarining boshqa davlat hududida bo'lgan o'z fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan qo'llanilishi). Federativ dav-

latlarda federal qonunlar butun ittifoq hududida, federatsiya subyektlarining qonunlari esa, ularning o'z hududlaridagina amal qiladi.

Ko'pchilik davlatlarning qonunchiligida kollizion normalar mavjud. Bular nizoli vaziyat vujudga kelganda qo'llaniladi. Masalan, teng kuchli huquqiy hujjatlar to'qnashib qolganda, shuningdek turli davrda chiqarilgan hujjatlar yoki har xil hajmdagi hujjatlar yoxud turli organlar tomonidan o'rnatilgan hujjatlar o'zaro zid kelib qolganda kollizion normalar ishga solinadi. Davlatning turli ma'muriy-hududiy birliklari uchun chiqarilgan hujjatlar o'rtasida ham o'zaro qarama-qarshilik kelib chiqishi mumkin. Aksariyat hollarda bunday nizolar sud orqali hal etiladi.

Normativ hujjatlarning shaxslarga nisbatan amal qilishi. Huquqiy qoidalarning vazifasi ular tatbiq etilishi lozim bo'lgan munosabatlarni, tashkilotlarni va kishilar doirasini aniqlab berishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlari mamlakatning barcha fuqarolariga, davlat organlariga, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga nisbatan amal qiladi. O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ hujjatlari mamlakatda yashovchi, vaqtincha kelib-ketuvchi ajnabiy fuqarolarga ham tatbiq etiladi. Tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan tuziladigan shartnomalarning mazmuniga qarab, yuqorida ko'rsatilgan umumiy qoidalardan ayrim istisnolar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasida yashaydigan chet el fuqarosi sudga majburiy tartibda ko'rsatma berish uchun keltirilgan bo'lib, u diplomatik immunitet (daxlsizlik) huquqidan foydalanadigan bo'lsa, bunday shaxsning xatti-harakatlari diplomatik vositalar bilan hal qilinadi. O'zbekistonning ayrim qonunchilik normalari xorijiy davlat fuqarolariga qo'llanilmaydi. Masalan, ularning mamlakatimizda saylov huquqiga ega emaslar; Qurolli kuchlar safida xizmat qilishi va huquqni muhofaza etuvchi davlat organlarida ishlashi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari mamlakatimizning chet davlatlarda turgan (doimiy ishlovchi, sayyoh, xizmat safarida bo'lgan) fuqarolariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, chet elda jinoyat sodir etgan O'zbekiston fuqarosi xorijiy qonunchilikka ko'ra javobgar bo'lishidan tashqari, O'zbekiston Jinoyat kodeksi bilan ham javobgarlikka tortiladi.

Ayni vaqtda ta'kidlash lozimki, diplomatik immunitet (daxlsizlik) huquqiga ega bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari ta'siriga tushmaydilar. Bular elchilar, diplomatik vakolatxonalarining rahbarlari va xodimlari, ularning oila a'zolari, xalqaro delegatsiyalarning ishtirokchilaridir. Ularning holati xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi.

5-§. Qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy siyosat

Jamiyat huquqiy rivojlanishining davr talablariga mos va tegishli saviyada bo'lishi ko'p jihatdan davlat hokimiyati yuritadigan *huquqiy siyosatga bog'liq*.

Davlat hokimiyatining irodasi – siyosiy iroda. Ushbu iroda qonun ijodkorligi faoliyatiga impuls (turtki) beradi, natijada o'zi shaklan – qonun, mazmunan – huquq tarzida rasmiylashadi, yuridik ma'no kasb etib, siyosiy-huquqiy hodisaga aylanadi. Ma'lumki, davlat belgilaydigan maqsad, bajaradigan vazifalar, amalga oshiradigan faoliyat siyosat sohasini tashkil etadi, boshqacha aytganda, ayni siyosatdir. Davlat faoliyati nihoyatda serqirra bo'lganligi bois, u yuritadigan siyosat bir qancha turlarda, masalan, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, madaniy-ma'rifiy siyosat, huquqiy siyosat kabi shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida adolatli demokratik davlatchilik qaror topayotgan vaziyatda huquqiy siyosat mavzusini, bunday siyosatni shakllantirish va amalga oshirishning fundamental masalalarini ilmiy tadqiq etish o'ta dolzarb vazifadir. Chunki, mamlakatda yuritilayotgan huquqiy siyosatning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish huquqiy tizimni muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish garovidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2015-yil 23-yanvardagi qo'shma majlisida asosiy e'tibor qonun ijodkorligi va qonunchilik faoliyatining sifat-samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Unda qonun ijodkorligini amalga oshirishda yangi, zamonaviy faoliyat shakllarini joriy etish, qonunni qo'llash amaliyotini muntazam o'rganish, qonun loyihalarini davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish asosida muhokama qilish, tegishli xorijiy huquqiy amaliyotni tahlil qilish, qonunlarda ularning normalarini amalga oshirish mexanizmlarini puxta ishlab chiqish, qonun ijodkorligida siyosiy partiyalar, ularning fraksiyalari va deputatlar faolligi hamda tashabbuskorligiga erishish, qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini yo'lga qo'yish, parlament palatalarining samarali hamkorligini ta'minlashga oid muhim vazifalar belgilandi¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev o'zining 2017-yil 12-iyuldagi parlament palatalari qo'shma majlisidagi ma'ruzasida shunday dedi: «Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi qonunlarimizda bir-biriga zid o'rinlar ham yo'q emas»². Davlat boshlig'i yana bir chiqishida ta'kidladiki, «Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabat-

¹ Xalq so'zi, 2015-yil 24-yanvar.

² Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak//Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

larni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda»¹. Ushbu fikrlar hozirgi kunda qonun ijodkorligini rivojlantirish borasidagi huquqiy siyosatning o'zagini, uning istiqbolli dasturini tashkil etadi, deyish mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosat mavzusiga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur maqolada huquqiy siyosatning birgina jabhasi, ya'ni, uning qonun ijodkorligi vositasida shakllantirilishi, amalga oshirilishi, qolaversa, qonun ijodkorligining ko'lami, yo'nalishi, mazmun-mohiyatini belgilovchi muhim omil ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Davlat hokimiyatining huquqiy tizim ravon harakatlanishini ta'minlash, huquqiy hayotni tashkillashtirish bobida yuritadigan siyosati huquqiy siyosat deb ataladi. *Huquqiy siyosat* – davlatning huquqiy mafkurasi, uning huquqiy hayot sohasida tutadigan yo'l-yo'rig'i, ro'yobga chiqaradigan amal va tadbirlari, qo'llaniladigan rahbariy g'oyalari (prinsiplari) ifodasidir². Shu bilan birga aytish joizki, huquqiy siyosat yuridik faoliyatdagi qadriyatlar, ustuvorliklar tizimida, huquqiy hayot voqeliklarida, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida hamda rasmiy huquqiy mafkurada namoyon bo'ladi. O'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, huquqiy siyosat jamiyat tuzilmalari va davlat organlarini quyidagi dolzarb vazifalarni hal etishga yo'naltiradi: mamlakat miqyosidagi muhim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, huquq subyektlari (jumladan, fuqarolar)ning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, yuridik hayotni ravon hamda izchil rivojlantirish, qonunchilikni davr talablariga mutanosib takomillashtirib borish, ijtimoiy-huquqiy ong va madaniyatni barqaror yuksaltirish, umuman, huquqiy tizimni yalpi modernizatsiya qilish kabilar.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy siyosatning irodaviy hodisa ekanligiga e'tibor qaratiladi: «huquqiy siyosat davlatning huquqiy hayot sohasidagi tizimli rasmiylashtirilgan irodasi bo'lib, u davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ... maqsadida yuridik vositalardan oqilona foydalanish borasidagi muntazam faoliyatidir». Davlat hokimiyatining huquqiy siyosati, bir tomondan, qonunchilik tizimida moddiylashadi (buning boisi qonun, qonunchilik hujjatlari huquqni ifodalashning asosiy shakli ekanligida), ikkinchi tomondan, qonun ijodkorlik faoliyatiga tatbiqan differentsiyalashadi (tarmoqlanadi).

Professor S.V. Poleninaning ta'kidlashicha, huquqiy siyosat uning ta'rif va tavsiflari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, avvalo, huquq ijodkorligi sohasidagi siyosat tarzida tasavvur etiladi³. Keltirilgan iqtibos biz ta'kidlagan huquqiy

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 8-bet.

² Qarang: Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995. – 34-bet.

³ Qarang: Российская правовая политика. – М., 2003. – 180-bet.

siyosat qonun ijodkorligiga tatbiqan differentsiyalashadi, degan tezisni quvvatlaydi. Mazkur tezisni davlatning «qonunchilik siyosati» yoki «qonun ijodkorligi borasidagi huquqiy siyosati» kategoriyalari yordamida talqin etish mumkin. Suveren davlat hokimiyati o'zining mustaqil qonunchilik strategiyasiga, qonun ijodkorligiga doir huquqiy siyosatiga, ya'ni o'z qonunchilik siyosatiga ega bo'ladi. Qonun ijodkorligi borsidagi huquqiy siyosatni shakllantirish va rasmiylashtirishda qonunchilik strategiyasi instituti muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, qonunchilik strategiyasi qanday ma'noni anglatadi? Fikrimizcha, *qonunchilik strategiyasi* – bu mamlakat butun huquqiy tizimining, alohida tarkibiy qismlari, huquq hamda qonunchilik sohalari va institutlarining hozirgi va kelgusi taraqqiyoti yo'nalishlarining belgilanishidir. Qonunchilik strategiyasi qonunlarni tayyorlashning, uni rejalashtirish va amalga oshirishning nazariy va amaliy masalalarini o'z ichiga oladi. U davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, qonunchilik strategiyasi siyosatni huquqiy munosabatlar mazmuniga singdirish, qonunlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish vositasidir.

Davlat irodasining qonun ijodkorligi jarayoniga ta'siri qonunchilik siyosati orqali amalga oshadi. Shu bois, davlatning qonunchilik siyosatini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etib, unga yuridik fan nuqtayi nazaridan tavsif berish alohida dolzarflik kasb etadi. *Qonunchilik siyosati* – davlat huquqiy siyosatining bir bo'lagi bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy yo'nalishlari, prinsiplari, maqsad va vazifalari o'z ifodasini topadi¹. Qonunlarni shakllantirish, qabul qilish va hayotga joriy etish maqsadlariga yo'naltirilgan maxsus siyosiy-yuridik ta'sir etish vositalari va choralari yig'indisi qonunchilik siyosati voqeligini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, qonun ijodkorligi davlatning huquqiy (qonunchilik) siyosatini shakllantirish, ifodalash, rasmiylashtirish hamda amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Qonunchilik siyosati ijtimoiy boshqaruv san'atining maxsus turidir. Qonunchilik siyosati qonun ijodkorligining bosh mazmunini, asosiy yo'nalishlarini, tendensiyalarini, uni takomillashtirish strategiyasi hamda taktikasini va modernizatsiyalash mantig'ini belgilaydi.

Qonunchilik siyosatining eng muhim sifati – qonunchilikni takomillashtirish maqsadiga yo'naltirilganlik, huquq ijodkorligi va huquqni ijro etishni tashkil qilishning ratsional tizimini ishlab chiqishdir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida hech kimga tobe bo'lmagan qonunchilik siyosatini yuritadi. Yuksak nufuzli insonparvar, adolatli hamda demokratik qonunlar yaratish, qonunni inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash vositasiga aylantirish, jamiyat

¹ Odilqoriyev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995. – 33-bet.

uchun umumiy manfaatli barcha munosabatlarni qonun yordamida muhofaza etish kabilar ushbu siyosatning asosini hosil qiladi.

Alohida e'tirof etish joizki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz huquqiy siyosatining, shuningdek qonunchilik siyosatining negizini tashkil etadi. U qonunchilik siyosatining asoslari, prinsiplari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Darhaqiqat, Konstitutsiyada jamiyat rivojlantirishining bosh strategiyasi, ustuvor yo'nalishlari, davlat umumiy va huquqiy siyosatining mazmun-mohiyati o'zining qonuniy ifodasini topadi. Aslida Konstitutsiya jamiyat siyosiy yetukligining, ma'rifiy-huquqiy saviyasining, turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar muvozanati(murosaga kelishuvi)ning natijasi, mahsulidir. Konstitutsiya nafaqat sof ma'nodagi yuridik hujjat, balki davlat siyosatini oliy darajadagi qonun tarzida rasmiylashtiruvchi hujjatdir. Asosiy qonunimizda qonun ijodkorligi jarayoni va uning bosqichlari, qonunlarni yaratishning konstitutsiyaviy mexanizmi aniq hamda qat'iy mustahkamlangan (76, 78, 83, 84, 87, 93-moddaning 17-bandi va boshq.). Mazkur moddalarda belgilangan qoida, prinsip va normalar mamlakatimizda amalga oshiriladigan qonun ijodkorlik faoliyatining, shuningdek, qonunchilik siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini tashkil etadi.

Davlatning Konstitutsiyada ifodlangan siyosatini, siyosiy mafkurasi va doktrinasini konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat sifatida e'tirof etish mumkin. Tahlil etilayotgan mavzuga tatbiqan *konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat* – davlat hokimiyatining Konstitutsiya asosida huquq yaratish, qonunlarni ijod qilish va uni amalga oshirish sohasida davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlarini mustahkamlash, inson huquqlari ustuvorligi tamoyili asosida qonun ijodkorligi strategiyasini belgilash, shuningdek, huquqiy vositalar bilan konstitutsiyaviy tuzumni muhofaza etishga oid asosiy konseptual qoida va mezonlarni ishlab chiqish hamda jamiyat hayotiga tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyatidir¹.

Mamlakatning qonunchilik strategiyasi Konstitutsiyada mujassam ifodalangani. Ayni vaqtda, qonunchilik strategiyasi qonunchilik siyosatining mazmun-mohiyatini ijtimoiy munosabatlar tizimiga singdirishning muhim yo'nalishlari sifatida maydonga chiqadi.

Davlatimizning qonun ijodkorligi sohasidagi zamonaviy huquqiy siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bayon etgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da o'zining aniq ifodasini topgan. Unda jami-

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. Konstitutsiyaviy siyosat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish // Huquq-Pravo-Law/ – 2002, № 4. – 4-bet.

yatimizning istiqbolli taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarni belgilash barobarida bu boradagi muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini hamda saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi. Konsepsiyaning *bosh maqsadi* mustaqillik yillari mobaynida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan yutuqlarga tanqidiy baho berish hamda istiqbolda bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni ilmiy-amaliy, nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Konsepsiyada 21 ta yangi qonun, 5 ta yangi tahrirdagi qonun, 2 ta milliy dastur va amaldagi qonunlarga 25 ta qo'shimcha va o'zgartirish kiritish, jami 50 dan ziyod qonunchilik tashabbusi ilgari surilgan.

Ko'rinib turibdiki, «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» Oliy Majlis palatalari qonun ijodkorlik faoliyatining qat'iy dasturulamali sifatida mazkur faoliyatga yangicha ruh, ma'no-mazmun, jo'shqinlik, izchillik va tizimlilik baxsh etdi. Eng muhimi, barcha qonunlarimizni demokratik fuqarolik jamiyati qurish ehtiyojlari va talablariga javob beradigan sifat hamda saviyaga ega bo'lishiga ko'maklashmoqda.

Qonunchilik siyosatini shakllashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti alohida o'rin tutadi. Prezident davlat boshlig'i sifatida o'z farmon va qarorlari vositasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalariga oid huquqiy siyosat asoslarini belgilab beradi. Shuningdek, u parlament minbaridan turib mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan qilgan ma'ruzalarida, parlamentga murojaatlarida, alohida konsepsiyalarida qonun ijodkorligi borasidagi siyosatning asosiy ustuvorliklarini ifoda etadi.

Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki davrlarida qonun ijodkorligida shunday tajriba shakllandiki, masalan, qator muhim sohalar bo'yicha, xususan, dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish, xususiy mulkchilikni rivojlantirishni rag'batlantirish, bank va banklar faoliyati, qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjasini shakllantirish, birjalar va birja faoliyatini tashkil qilish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish kabi ko'plab masalalar bo'yicha dastlab Prezident farmonlari qabul qilindi. Tegishli huquqiy mexanizmlar hayot sinovidan o'tib, ijtimoiy munosabatlar ruhiga singgach, shu masalalarga oid alohida-alohida qonunlar qabul qilingan edi.

Keyingi yillarda qonun chiqarish tizimining o'zigina emas, balki qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda qabul qilish mexanizmi ham vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi – qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organi sifatida qonunchilik siyosatini shakllantirish va hayotga joriy etishda salmoqli rol o'ynaydi. Qonun ijodkorligi jarayoni qabul qilinadigan qonunlarda davlat siyosatini, xususan huquqiy siyosatni ifodalash, rasmiylashtirishning alohida tartibi (protsedurasi) hisoblanadi. Qonun chiqarish jarayonida huquqiy siyosatni shakllantirishda jamiyatning umumiy manfaatlarini, turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini aniqlash va murosaga keltirish amalga oshiriladi. Parlament qonun ijodkorligi jarayonini samarali tashkil etish, izchil qonunchilik tizimini shakllantirish, sifatli qonunlar qabul qilinishini ta'minlash, qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq katta hajmdagi ishlarni bajaradi. Parlament mamlakat taraqqiyotining tegishli bosqichlarida muhim qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha qonun ijodkorlik ishlari rejalarini qabul qiladi, mazkur faoliyatning konseptual va tashkiliy jihatlarini muhokama etib, o'z strategik vazifalarini belgilaydi.

Oliy Majlis qonunchilik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayoniga Konstitutsiyaning 83-moddasida nazarda tutilgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarini, siyosiy partiyalarni (ularning parlamentdagi fraksiyalarini), fuqarolik jamiyatining barcha institutlarini, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarini keng jalb etadi. Mazkur siyosatning asosiy prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari mazmunida mamlakatda o'tkazilgan referendumlar, qonun loyihalarining umumxalq muhokamalari yakunlari, xalq ijtimoiy fikrini va fuqarolarning huquq tashabbuskorligini aks ettirish ta'minlanmoqda. Qonun ijodkorlik jarayonida xalq ommasining, fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlash parlament sobitlik bilan rioya etadigan demokratik konstitutsiyaviy prinsipdir.

Hukumat darajasida qabul qilinadigan qarorlar qonun va farmonlar ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular ham davlat tomonidan yuritilayotgan qonunchilik sohasidagi huquqiy siyosatning amaliy jihatlarini aks ettiradi. Qonunchilik siyosatining ayrim yuridik va tashkiliy masalalarini ishlab chiqishda, hayotga tatbiq etish va qonunchilik hujjatlarini loyihalashtirish, amaldagi qonunchilikni yangi qabul qilingan qonunlarga muvofiqlashtirishda Adliya vazirligi, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda prokuratura, qonunlar ijrosini tahlil etish bo'yicha Prezident huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Davlatning qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy siyosatini shakllantirishda sud hokimiyati subyektlari ham faol qatnashadilar. Konstitutsiyaviy sud,

umumiy yurisdiksiya va xo‘jalik sudlarining oliy organlari qonunlarni qo‘llash amaliyotini tahlil etish asosida qonunchilik tashabbusi tartibida parlament e‘tiboriga muntazzam ravishda tegishli takliflarni kiritadilar. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquqiy islohotlarining konsepsiyasi, shuningdek jinoyat qonunchiligi va jinoiy jazo tayinlash tizimini liberallashtirish konsepsiyasi ham ushbu demokratik o‘zgarishlarning huquqiy bazasini shakllashtirish borasidagi qonunchilik siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etilishi mumkin. Xususan, mazkur siyosatning qator ustuvorliklari «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunda, Prezident farmonlarida, ayniqsa, «Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi Prezident qarorida (2008-yil 23-iyun) rasmiy tarzda mustahkamlandi¹. Mazkur hujjatda sudlarga oid qonunchilik siyosatining quyidagi mantig‘i ifoda etilgan: mustaqil, xolis, demokratik sud hokimiyati va insonparvar sud tizimini vujudga keltirish pirovardida inson manfaatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli muhofaza etishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda huquqiy siyosatning alohida turi sifatida sud-huquqiy siyosati mavjudligini ham ta‘kidlab o‘tish mumkin. Fikrimizcha, *sud huquqiy siyosati* – davlat hokimiyatining, tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatdagi odil sudlovni tashkil etish va amalga oshirishga oid huquqiy g‘oyalarni, prinsiplarni, sohani isloh etish mafkurasi hamda strategiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan maqsadli, ilmiy asoslangan, izchil va tizimli faoliyatidir. Uning mohiyati jamiyat va davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, odil sudlovni samarali tashkil etish va amalga oshirishga doir g‘oyalarni shakllantirish hamda vazifalarni belgilash, dasturlarni ishlab chiqish va hayotga joriy etishdan iborat.

Alohida ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» besh ustuvor yo‘nalishni belgiladi. Ular davlat qurilishi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik va tashqi siyosat jabhalari-da amalga oshiriladigan qonun ijodkorligining dasturulamali bo‘lib, tegishli huquqiy siyosatning o‘zagini tashkil etadi.

Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari davom etayotgan hozirgi sharoitda davlatning qonun ijodkorlik faoliyatiga, umuman, qonunchilik siyosatining mazmuniga yanada yuqori yangi talablar qo‘yilishi tabiiy. Mazkur vaziyatda

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008-yil, 26–27-son, 248-modda.

qonun ijodkorligi sohasidagi davlat siyosatini davr ruhi va ehtiyojlariga mos holda takomillashtirishni ta'minlovchi, mustahkam metodologiyaga tayangan ilmiy konsepsiyani shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu o'rinda, qonunchilik siyosati qonunlar yaratish sohasidagi davlat faoliyatining ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasi sifatida maydonga chiqadi. Qonun ijodkorligi borasidagi huquqiy siyosatni rivojlantirish konsepsiyasida, avvalo, qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining va qonunchilik siyosatining bosh maqsadi, asosiy vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, rivojlanish tendensiyalari, qo'llaniladigan rahbariy prinsiplari, strukturasi va shakllari, ijtimoiy munosabatlarni qonun vositasida tartibga solishning yuridik vositalari va usullari o'z aksini topishi zarur. Qonun ijodkorligiga oid siyosatning istiqbolga mo'ljallangan konsepsiyasini ishlab chiqishda qonun va qonunchilik hujjatlari tizimi rivojlanishini prognoz qilish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, qonunchilik siyosati davlat huquqiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning izchil huquqiy taraqqiyotini ta'minlash, huquqiy tizimni yaxlit voqelik tarzida sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, qonun ijodkorligi faoliyatini modernizatsiya qilish, uning ilmiy asoslarini mustahkamlash, eng muhimi, ijtimoiy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solishning qonuniy mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

XII bob. HUQUQ NORMASI*

1-§. Huquq normasi tushunchasi va mohiyati

Huquq normasi instituti yuridik faning, jumladan davlat va huquq nazariyasining fundamental ilmiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Huquq normasi masalalarini ilmiy tadqiq etishning muhimligi shundaki, u huquqiy tizimning barcha elementlari bilan chambarchas bogʻliq: *bir tomondan*, huquq normasi huquq ijodkorligi, shu jumladan qonunchilik jarayonining mahsuli (hosilasi) boʻlsa, *ikkinchi tomondan*, u huquqni qoʻllash jarayoni orqali amalga oshirilib, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish vositasiga aylanadi, *uchinchidan*, huquq normasi huquqiy munosabatlarning andozasi, modeli sifatida maydonga chiqadi.

Jamiyatda amal qiluvchi huquq obyektiv voqelik boʻlib, u huquqiy normalar yigʻindisidan iborat. Huquq normasi milliy huquq tizimining boshlangʻich elementi, uning mazmunini tashkil qiluvchi substansiya (asos) dir. Davlat-huquqiy taʼlimot va amaliyot huquqiy norma va uning taʼrifi borasida koʻplab ilmiy talqinlar yaratgan. Huquqiy tizimning hech bir qismi, biron-bir sohasi huquq normasi bilan bogʻlanmagan holda izohlanishi mumkin emas. Shu bois, huquqiy normalar huquqiy tizim tabiatiga xos barcha xususiyatlarni oʻzida ifoda etadi. Yuridik normalarni tadqiq etishga akademik Sh.Z. Oʻrazayev, professorlar M.H. Xakimov, V.K. Babayev, M.I. Baytin, Z.M. Islomov, P.E. Nedbaylo, A.S. Pigolkin, A.F. Shebanov va boshqalar barakali hissa qoʻshganlar.

Adabiyotlarda huquq normasi, odatda, talab etilayotgan xatti-harakat qoidasi yoki shunday xulq-atvor, faoliyatning oʻlchovi sifatida taʼrif qilinadi. Huquq ijtimoiy munosabatlarga taʼsir etuvchi vosita sifatida doimo, muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida namoyon boʻladi. U analogik (bir-biriga oʻxshash) vaziyatlarda huquq subyektlari tomonidan takror-takror qoʻllanishga moʻljallangan.

Huquq normasini taʼriflashda, avvalo, uning ijtimoiy normalarning bir turi ekanligidan kelib chiqish lozim. Ijtimoiy normalar kishilik jamiyati turmush tarzi uchun xos boʻlib, mazkur normalar odamlar va ularning uyushma-

* Ushbu bob Yunusjon Odilqoriyev bilan hammualliflikda yozilgan.

lari o'rtasidagi turli-tuman aloqalar hamda munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Bunday qoidalar qatoriga kishilar va ular guruhlarining o'zaro munosabatlari, yurish-turish va xulq-atvorini tartibga soluvchi barcha axloqiy, diniy, siyosiy, korporativ, huquqiy va boshqa normalar kiradi.

Huquqiy normalar qadimdan turli ijtimoiy-hayotiy qoidalar: urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, marosim tartiblari, diniy qoidalar, axloq talablari ta'sirida shakllanib kelgan. Shu bois huquqiy normalarning tarixan paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishiga boshqa ijtimoiy normalar ta'sir ko'rsatganini nazarda tutish lozim. Tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, dastlab ijtimoiy normalar turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar tomonidan shakllantirilib, hayotga tatbiq etib borilgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bu faoliyat asosan, urug', qabilalar tomonidan amalga oshirilgan. Ijtimoiy normalar, asosan, jamoaviy turmush tarzini, oilaviy va mehnatga oid munosabatlarni va boshqa aloqalarni tartibga solishga qaratilgan. Huquqiy (yuridik) normalar ijtimoiy normalarning alohida turi sifatida ijtimoiy normalarga xos barcha belgilarga ega bo'ladi. Ayni vaqtda, huquq normalari faqat o'zigagina xos xususiyatlarga ham ega.

Huquq normasi shunday xususiyat kasb etadiki, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda har qanday xulq-atvor va xatti-harakatlarda aniq me'yorni belgilovchi mezon bo'lib hisoblanadi. Agar jamiyat hayotining bir qator jihatlari axloq, urf-odat, madaniyat qoidalari, an'ana, udum, rasm-rusumlar bilan bog'liq bo'lsa, huquqiy hayot sohasidagi munosabatlar huquqiy normalar vositasida tartibga solinadi.

Tarixiy ma'lumot. Qadimgi Sharq mamlakatlari huquqiy tizimida ibtidoiy urug'doshlik tuzumidan saqlanib qolgan odatlar, marosim qoidalari va an'analar aks etgan. Bu davrda huquq hali ma'lum tizimga, bir qolipga solinmaganligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, huquq tizimining hali tarmoqlarga bo'linishi ham aytarli sezilmas edi. Bu davrning qoidalarida moddiy va protsessual normalar qorishib ketgan edi. Masalan, «...jazo tizimida jamoa bo'yicha javobgarlik, bir kishining jinoyati uchun oila a'zolarining javobgarligi, jazo tayinlashda talion – «ko'zga ko'z, tishga tish» prinsipini, sud yuritish ishlarida ordaliya – sinab ko'rish (hovuzda cho'ktirib ko'rish) mavjudligini ko'rishimiz mumkin»¹.

Xuddi shunday qoida yaratilishi antik davlatlar davrida, ayniqsa, quldorlik paytida o'ziga xos kechgan. Ularda tovar-pul munosabatlari birmuncha rivojlangan, huquqiy tizim sohalarga bo'lingan (fuqarolik, oila, nikoh, jinoyat va boshq.). Ayniqsa, Rim huquqi ancha mukkamal tuzilganki, keyinchalik u ko'pgina davlatlarning huquqiy tizimlari shakllanishiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Misol tariqasida, roman-german davlatlarining huquqiy tizimini (Germaniya,

¹ Muqimov Z. Chet (xorijiy) mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. – T.: «Akademnashr», 2012. – 27-bet.

Fransiya, Italiya, Ispaniya va h.k) olishimiz mumkin. Unda rim huquqining resepsiyasi sezilib turadi.

Qadimgi davlatlarda hokimiyatni bir shaxs qo'lida to'planganligi, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud yakka shaxs ixtiyorida ekanligi, boshqaruv tuzumi monarxiyaga asoslanganligi yuridik tartib-qoidalar yaratilishida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Tarixiy manbalarning guvohlik qilishicha, «Mil. av. XIII asrda qonunchilik taraqqiy topa boshlagan. Masalan, fir'avn Ramzes II ning armiyani mustahkamlash, nasab va mansab toifalarini belgilash haqidagi qonunchiligi, mil. av. VII asrda fir'avn Bakxorisning 8 kitobdan iborat qonunlar to'plami»¹ kabilarni misol keltirish mumkin.

Shuningdek, «Mil. av. uchinchi ming yillik oxirgi podsho Ur-Nammuning qonunlari, Isina hukmdori Lippid Ishtarning qonunlari, Esnunna hukmdori Bilalam qonunlari (mil. av. ikkinchi ming yillik boshlari), O'rta Ossuriya qonunlari (mil. av. ikkinchi ming yillik o'rtalari), Qadimgi Babil hukmdori Xammurapi (1792–1750-yillar) qonunlari. Mazkur kodeks 282 moddadan iborat bo'lib, shundan 35 tasi o'chib ketgan (keyinchalik tiklangan) va bizgacha 282 ta modda yetib kelgan. Tarkibiy tuzilishi 3 qismga bo'linadi: 1) Kirish; 2) Sud-noma (asosiy qism); 3) Xulosa hisoblanadi»².

Ushbu manbalardagi huquq normalari, asosan davlat hokimiyatini kuchaytirishga, qulchilik va mulkchilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Albatta, qadimiy huquqiy manbalardagi huquq normalarining bayoni, mazmuni, tuzilishi bugungi tadqiqotchilar, mutaxassislar va talabalar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Shu bois yuqoridagi tarixiy yodgorlikdan ba'zi iqtiboslar keltiramiz. Xammurapi qonunlari shakli ham o'sha davr uchun o'ziga yarasha yangilik hisoblangan. Har bir modda tarkibiy tuzilish(struktura)ga ega ekanligi uni tushunish va omma ongiga sindirilishida muhim ijtimoiy vazifani o'tagan. Xammurapi qonunlari normalari sodda ko'rinishda bo'lib, aksariyati dispozitsiya va sanksiyadan iborat bo'lgan. Masalan, gipoteza «*agar, agarda*» degan so'zlaridan boshlangan, hamda jinoyat yoki huquq buzilish holati (dispozitsiya) bayon etilgan, so'ng sanksiya «*unda*» degan so'zi bilan boshlanib, tegishli jazo belgilab qo'yilgan. Jazoning muqobil ko'rinishga ega bo'lishi ham nazarda tutilgan. Misol uchun: «*Agar inson sudda jinoyat to'g'risida guvohlik uchun chiqqan bo'lsa va u aytgan so'zlarini isbotlay olmasa va bu ish hayot to'g'risidagi ishiga taalluqli bo'lsa, unda inson o'ldirilishi kerak*» (3-modda)³.

¹ Muqimov Z. Chet (xorijiy) mamlakatlar davlati va huquqi tarixi / Z. Muqimov. – T.: «Akademnashr», 2012. – 30–34-betlar.

² Xammurapi qonunlari(kodeksi)ning asl nusxasi hozirgi kunda Parij (Luvr) muzeyida saqlanmoqda. (Qadimiy huquqiy yodgorliklar: Xammurapi qonunlari. Doro I ning Behistun qoyalaridagi yozuvlari. Tarjima asar. / Mas'ul muharrir prof. X.T. Odilqoriyev. – T., 2015. – 3–9-betlar.

³ O'sha yerda, 12-bet.

«Agar inson uyiga o't ketgan bo'lsa, o'tni o'chirish uchun kelgan boshqa inson unga uy egasi mol-mulkiga ko'z qo'yib, uni olgan bo'lsa, *unda* bu inson ushbu olovga tashlanishi kerak» (25-modda)¹.

Xammurapi qonunlari qadimgi dunyo tarixiga mansub bo'lishiga qaramay, bugun ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Mazkur qonunlar qadimgi dunyo hayotida ijtimoiy me'yorlarni o'rnatish va tartibsizliklarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, davlatni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga ushbu hujjat qadimgi davlatning rivojlanish darajasini tavsiflab beradi. Uni o'rganish davomida Qadimgi Bobil ancha yuqori rivojlanish cho'qqisiga ega bo'lganligi va murakkab ijtimoiy munosabatlarni shakllantirganini, ularni huquqiy tartibga solganini kuzatish mumkin.

Yana bir misol. Rim huquqining noyob yodgorligi hisoblangan «XII jadval qonunlari» (mil.av. 451–450-y.y. 12 mis lavhaga o'yib yozilgan) respublika shaklida boshqariladigan jamiyat ehtiyojlari uchun yaratilgan bo'lsa-da, unda ham urug'doshlik tuzumining urf-udumlari, an'anaviy ong ifodalari, odatlari ta'siri sezilib turadi. XII jadval qonunlarining manbalari *odat huquqlari* va Afina huquqi (Salon qonunlari – Mil.av. VI asr, Drakont qonunlari – mil.av. 611-y.) hisoblangan. XII jadval qonunlarining ayrim normalarini misol keltiramiz:

«Agar tungi o'g'irlik yoki qurol-yarog' vositasi bilan o'g'irlikda aybdor kimsa qo'lga tushsa, unda u o'sha joyda o'ldirilishi lozim» (VIII jadval, 11-12-bandlari).

«Agar odamning badaniga va boshiga shikast yetkazsa, qo'l bilan yoki tayoq bilan urib qo'l yo oyog'ini sindirsa, unda aybdorga ozod kishi jabrlangan bo'lsa – 300 ass, qulga ana shunday zarar yetkazilsa – 150 ass² miqdorida jarima solinadi».

Yolg'on guvohlik berganlik uchun qonun juda qattiq jazoni – Tarpey qoyasidan uloqtirib yuborish bilan qatl etishni nazarda tutgan (VIII jadval, 23-band). Sudsiz biron-bir ozod kishini hayotidan mahrum qilish taqiqlangan (XI jadval 6-band)³.

Hozirgi jamiyatda huquq normasi huquq tizimining birlamchi tarkibiy elementi hisoblanadi. Ma'lumki, obyektiv huquq o'z ichki tuzilishiga egadir. Huquq tizimi yaxlit bir vujud (organizm) sifatida o'z tarkibiga huquq tarmoqlari, huquq institutlari va huquq normalarini qamrab oladi. Bordi-yu, huquqni, huquq tizimini bir bino deb qaraydigan bo'lsak, huquq normasi uning dast-

¹ Xammurapi qonunlari(kodeksi)ning asl nusxasi hozirgi kunda Parij (Luvr) muzeyida saqlanmoqda. (Qadimiy huquqiy yodgorliklar: Xammurapi qonunlari. Doro I ning Behistun qoyalariidagi yozuvlari. Tarjima asar. / Mas'ul muharrir prof. X.T. Odilqoriyev. – T., 2015. – 20-bet.

² Ass – kumush tanga.

³ Qarang: Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран. – М., 1984. – 51-bet.

labki tamal toshi sifatida, yoki bir jonli organizmning eng kichik, birlamchi hujayrasi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, mantiq nuqtayi nazaridan butun huquq mazmuniga xos bo'lgan asosiy sifat va belgilar har bir alohida olingan huquq normasida namoyon bo'ladi.

Huquq normasi ifoda etadigan formal-yuridik belgilar quyidagilardan iborat: a) huquq normasining bevosita davlat bilan aloqasi (bog'liqligi), ya'ni, huquq normasi davlat tomonidan o'rnatiladi yoki ma'qullanadi; u hokimiyat tepasida turgan siyosiy kuchlarning amri-irodasini ifodalaydi; b) huquq normasi davlat irodasini ifodalaydi (mujassamlashtiradi); v) huquq normasi umummajburiy bo'lib, vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi mazmunga ega; g) huquq normasida ifodalangan qoida qat'iy rasmiy aniqligi bilan tavsiflanadi; d) huquq normasi uzoq muddat qo'llanishga mo'ljallangan; ye) huquqiy normalar o'zaro mutanosib va iyerarxik bo'ysunish tarzida mavjud bo'ladi; j) huquq normasi davlat tomonidan muhofazalanadi; z) huquq normasining qoidasi buzilgan taqdirda davlat majburlovi qo'llaniladi; i) normativ hujjatlar va boshqa huquq manbalarida ifoda (bayon) etiladi. Ayni paytda, huquq normasi yaxlit bir tizimning dastlabki bo'lagi sifatida o'ziga xos jihatlarga ham ega bo'ladi.

Huquq normasining mohiyatini teran anglash uchun uning lug'aviy idiziga, etimologiyasiga e'tibor qaratish lozim. «Norma» (lotincha) so'zi «qoida», «aniq ko'rsatma», «namuna», «o'lchov» ma'nolarini anglatadi. Darhaqiqat, har bir norma o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor qoidasini, muayyan yurish-turish modelini ifodalaydi, Masalan, O'zbekiston Respublicasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan, «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi». Bu huquqiy normada fuqarolarning muhim konstitutsiyaviy huquqi bo'lmish sudga himoya so'rab murojaat qilishga oid qoida mustahkamlagan.

Huquq normasida jamiyatning, xalqning, ular hayotining moddiy shart-sharoitlari bilan belgilanadigan erki, irodasi, manfaatlari ifodalanadi. Huquq normasi shaxslarning bir-biri bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qanday xatti-harakat modeliga, namunasiga rioya etishlari lozimligini, ya'ni qaysi harakatlarni sodir etish mumkin yoki qanday xatti-harakatlarni sodir etmaslik kerakligini ko'rsatadi. Shu ma'noda huquq normasi insonlar xulq-atvorining huquqiy mezoni sifatida maydonga chiqadi. Uning tartibga soluvchi vosita sifatidagi ahamiyati shundaki, muayyan huquq subyekti (xususan shaxs, organ, muassasa) o'z harakatida huquq normasida mustahkamlangan qoidaga rioya etadi yoki boshqa huquq subyektidan huquq normasida belgilangan tegishli xatti-harakatni sodir etishni talab qiladi. Basharti, belgilangan huquqiy qoida bajarilmasa, huquqbuzarga nisbatan davlat ta'sir chorasi qo'llaniladi.

Demak, huquq subyekti huquq normasida belgilangan xatti-harakat me'yoriga rioya qilgan taqdirda, holatida huquq normasi xatti-harakat o'lchovi, *faoliyat mezoni* sifatida namoyon bo'ladi. Huquq normasida belgilangan qoida buzilganida esa, u huquq subyektining harakatiga *baho berish vositasi* sifatida maydonga chiqadi.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni qat'iy tartibga solish salohiyati tufayli katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, shu bois huquq normasi huquq buzilishi holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Chunki, huquq subyekti tomonidan qonunda belgilangan huquqiy xatti-harakat qoidasini buzish, muqarrar ravishda unga nisbatan ta'sir chorasining qo'llanishiga olib keladi.

Huquq normasi yalpi umumiy xususiyatga ega. U ijtimoiy munosabat qat-nashchilarining barchasiga, ularning xohish-istagiga bog'liq bo'lmagan holda, tegishli bo'ladi. Ya'ni, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir toifasiga, turiga tegishlidir (masalan, bitimlar tuzish, pensiyaga chiqish tartibi, nikohdan o'tish va hokazo). *Huquqiy normaning umumiy xarakterga ega ekanligi*, avvalambor, shunda ko'rinadiki, huquqiy normada ko'zda tutilgan analogik holatlar yuzaga kelaverar ekan, bu norma ham qo'llanilaveradi va aslo o'z yuridik kuchini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, go'yo normadagi holatlar o'zining yuzaga kelishini «kutib yotadi» va vaziyat vujudga kelganda ishga tushadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasida mustahkamlangan «soxta tadbirkorlik, ya'ni ustavida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan yashirish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tuzilmalari tuzish»dan iborat xatti-harakatning sodir etilishi – ushbu moddaning «harakat» ga kelishiga, qo'llanishiga olib keladi.

Huquqiy normaning yana bir muhim jihati, uning davlat erki-irodasini, hokimona amrining ifoda etishida ko'rinadi. Shu bois, huquq normasi – muayyan munosabatlar ifodasi yoki muayyan harakat sodir etishni maslahat beruvchi tavsiyanoma bo'lmay, balki, shu normada ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda qanday harakat qilish lozimligini belgilovchi hokimiyat amridir. Har qanday huquq normasi vakolatli davlat organi tomonidan o'rnatiladi yoki ma'qullanadi, shu bois u davlat amri-irodasini ifodalaydi, umummajburiy qoida tariqasida amal qiladi. Mabodo, huquq normasida belgilangan xatti-harakat qoidasi bajarilmasa, uning bajarilishini ta'minlovchi davlatning majburlov choralari harakatga keladi. Masalan, huquq subyekti tomonidan qonunga xilof harakatlar sodir etilishi tegishli yuridik javobgarlikka olib keladi, demak, huquq normasi davlatning majburlov kuchiga tayanadi.

Huquq normasi huquq subyektiga muayyan huquqlarni bergan taqdirda ham davlatning amri-irodasi saqlanib qoladi, chunki bu iroda huquq subyekting huquqlari kafili sifatida namoyon bo'ladi. Huquq normasi mazmunan va ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra davlat amri-irodasini ifodalagani uchun uning bu belgisi, o'z navbatida, huquqiy normaning ifodalanish shakliga qat'iy talab qo'yadi. Shu sababli, huquqiy normalar shaklan aniqlikka ega bo'ladi. Huquqiy norma qonunlarda, shu kabi boshqa rasmiy normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanadi, zero, huquq normasini to'g'ri tushunish va o'rinni qo'llash uchun, u albatta puxta ishlangan, aniq va ixcham shaklda ifodalangan bo'lishi kerak. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar ichida huquq normasi o'zining aynan shu jihati, ya'ni shaklan aniq qoida ekanligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida huquq normasining quyidagi o'ziga xos belgilarini ta'kidlash mumkin:

Birinchidan, jamiyat, shaxs yoki ijtimoiy guruh uchun qadr-qimmatli bo'lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bunda, birinchi navbatda, normadagi adolat va erkinlik g'oyalari bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy idrok etish va qonuniy mustahkamlash predmeti bo'ladi. Bunda huquqning ijobiy munosabatlarni mustahkamlash funksiyasi namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, jamiyat, shaxs manfaatlarini qo'riqlash maqsadida ba'zan salbiy, noxush ijtimoiy xulq-atvor ham huquqiy norma ta'siriga tushadi, lekin o'z-o'zidan emas, balki nizoli vaziyatlarni tartibga solish vositasi orqali aks etadi. Yuridik normalarda ijtimoiy voqelik, uning yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari aks ettirishning murakkabligi, hatto nobop normalar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Huquqda ijtimoiy voqelikni aks ettirish subyektiv bo'lib, davlatning huquq ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi organlari faoliyati ilmiylik prinsiplariga har doim ham asoslanavermasligi bois xato normalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy normalarda aks ettiriladigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati, muhimligi darajasi normaning qonunchilik iyerarxiyasida egallaydigan o'rnini belgilaydi. Eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yuridik kuchi jihatdan yuqori nufuzga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar – konstitutsiyalarda, konstitutsiyaviy qonunlarda, qonunlarda ifodalanadi.

Ikkinchidan, huquq normasi tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning modeli sifatida namoyon bo'ladi. *Modellashtirish* – bu ongda ijtimoiy reallikning andozasini in'ikos etish, vujudga keltirish yo'li bilan tabiiy va ijtimoiy hodisalarni idrok etish jarayonidir. Qonun chiqaruvchi organ «ongida»

shakllantirilgan ijobiy xulq-atvorning namunaviy variantlari, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlar modeli shaklida ifodalanadi. Modelni ifodalash vositalari turli-tuman: tabiiy til vositasi, formulalar, konstruksiyalar, raqamlar va hokazolardir.

Huquqiy norma faqat xulq-atvor emas, balki ijtimoiy munosabatlarning holati, ularning xususiyatlari, obyektiv va subyektiv tarkiblarini ham modellashtiradi. Bunda u huquqiy holat va tushunchalar, huquqiy tartibga solish chegaralari, usullari, prinsiplari haqida, huquqqa muvofiqlik va huquqqa ziddlik, huquqiylik va nohuquqiylik haqida axborot yetkazadi. Ijtimoiy munosabatlarning modeli sifatida normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlangan yuridik normalar ijtimoiy voqealikning yaxlit manzarasini aks ettiradi. Shuning uchun ham har qanday mamlakat va davrning qonunchilik yodgorliklarini o'rganish – shu davr davlati, jamiyati va hayoti, turmushi va huquqi haqida ancha ishonchli axborot beradi. Huquq normasi o'zidagi mavjud axborot, shuningdek ijtimoiy munosabatlarni modellashtirishda alohida ahamiyat kasb etishi tufayli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatiga ega. U ijtimoiy munosabatlarni aks ettirganligi bois unga muayyan mazmun va ifodalanish shakli xos bo'ladi.

Uchinchidan, ijtimoiy jarayonlar, holatlar va aloqalarning takrorlanishi tufayli huquq normasi ularning tipikligini aks ettiradi hamda mustahkamlaydi. Odatda, tip jihatidan mansublik mavjud munosabatlarga xos bo'ladi, lekin u yangidan shakllanayotgan, kelgusida takrorlanib turishi ehtimol tutilgan ijtimoiy aloqalarga ham taalluqli bo'lishi mumkin. *Tipiklashtirish* – murakkab tafakkur jarayoni bo'lib, umumlashtirish, holatlarining muhim belgilarini aniqlash va ahamiyatsiz belgilarni bo'rttirmaslikni nazarda tutadi. Huquqiy normaga nisbatan esa tipiklashtirish muayyan vaziyatlardagi huquqiy hodisa yoki inson xatti-harakatidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatishda ifodalanadi. Bu huquqiy holatlarda (shaxsning individual belgilaridan tortib, uning ayrim fe'l-atvorigacha) muayyanlikdan abstraksiyalashishga o'tish jarayonidir. Shu tufayli «erkinlik qonunlarda alohida shaxs o'zboshimchaligiga bog'liq bo'lmagan, nomuayyan, nazariy mavjudlik kasb etadi»¹.

Tipiklashtirish tufayli huquqiy tushuncha o'ziga xos ma'lum belgilariga ega bo'ladi, xulq-atvor qoidasi esa ijtimoiy munosabatlar bilan aloqani uzmaganda holda o'zining tartibga soluvchi ta'siri bilan cheksiz miqdordagi shaxslarni qamrab olish xususiyatiga ega. Shu ma'noda yuridik norma uchun mazmunining aniqligi va subyektlarining mavjudligi xosdir. Huquq normalari mazmunini tipiklashtirish shunga olib keladiki, bunda ular turli shaxslar uchun teng masshtab, me'yor sifatida namoyon bo'ladi. Bu huquqning barqarorlik xususi-

¹ Marks K., Engels F. Asarlar. – M., 1984, T.1. – 63-bet.

yatini ham belgilab beradi. Ijtimoiy munosabatlar ancha uzoq muddat mavjud bo'lgandagina, ularga xos umumiy va barqaror belgilar tipik ma'no kasb etadi. Bu barqarorlik huquq normasida mustahkamlanib, ularga doimiylik, izchillik baxsh etadi. Huquqiy normalar modellashtirayotgan ijtimoiy munosabatlar notipik bo'lib qolgan taqdirdagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

To'rtinchidan, huquq normalari umummajburiy xususiyatga ega. Huquq normasining bu xususiyati unga og'ishmay rioya qilish va ijro etish hamda inson xulq-atvoriga davlat, jamiyat va ijtimoiy guruhlar tomonidan ma'lum munosabat bildirilishini ko'zda tutadi. Agar xulq-atvor yuridik norma talabalarga muvofiq kelsa, munosabat ijobiy bo'lishi mumkin yoki norma talablari buziladigan bo'lsa, salbiy aks ta'sir yuz berishi mumkin. Huquqiy normaga, umuman huquqqa rioya qilish va uni ijro etish ichki va tashqi omillar bilan ta'minlanadi.

Shunday qilib, **huquq normasi** – davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan, bajarilishi hamma huquq subyektlari uchun umummajburiy bo'lgan, davlatning majburlov kuchi bilan muhofazalanadigan, ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini o'zida mujassam etgan va aniq shaklda ifodalangan xatti-harakat mezonini, yurish-turish qoidasidir.

2-§. **Huquq normasining tuzilishi**

Huquq normasining struktura-tuzilishini ochishda uning statik (turg'un) holatidan tashqari, dinamik (jo'shqin) vaziyati hamda funksional (harakatdagi) jihatlari muhim rol o'ynaydi.

Huquq normalarining shunday funksional aloqalari mavjudki, ular huquqning ichki birligini ta'minlash va izohlash uchun xizmat qiladi. Huquq muayyan murakkab funksional tizimdir. Undagi alohida normalarning har biri huquqiy tartibga solish jarayonida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ularning har biri predmet hamda vazifasi bo'yicha ixtisoslashib, bu jarayon esa ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni nazarda tutadi. Bular: subordinatsiya aloqalari (bir normalaning undan yuqori turuvchi boshqasiga «bo'ysunushi»); huquq normalari o'rtasidagi aloqalar; huquq funksiyalari asosida vujudga keladigan muhofazalovchi aloqalar ushbu bog'liqlik mahsuli hisoblanadi.

Bulardan birinchisi huquq normalarining ongli-irodaviy mazmuni bo'lib, ularda muayyan *tafakkur*, ong (qonun chiqaruvchi avvaldan dasturlashtirgan ijtimoiy munosabatlar modellari) hamda *irodaviy* (qonun chiqaruvchining muayyan munosabatlarning real mavjudligini faol asoslashi) holatlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Huquq normalarining yuridik mazmuni esa, har ikki holatni ham rasmiylashtiradi, ularga yuridik o'ziga xoslik, huquqiy tabiat bag'ishlaydi. Huquq normalarining yuridik mazmuni ularning o'zida ifo-

dalangan xulq-atvor qoidasi sifatida tushunilishi mumkin, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar matni orqali anglab yetiladi.

Qonunchilik hujjatida mantiqan yakunlangan rasman muayyan mustahkamlanishiga ega bo'lgan davlat hokimiyatining irodasi normativ qoida sifatida maydonga chiqadi. Qonun va boshqa huquqiy hujjatni yaratuvchi organ huquqiy norma mazmunida uning barcha tarkibiy qismlarini, ya'ni normaning qo'llanish shart-sharoitlarini, subyektlarning huquq va majburiyatlarini, yuridik talabga rioya etilmagan holda – javobgarlik choralarini aks ettirishi lozim.

Shu bois huquqiy normaning tarkibiy tuzilishini tahlil etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Huquq tizimining boshlang'ich elementi, ya'ni kichik tizim sifatida huquq normasi o'z ichki tuzilishiga ega, ya'ni huquq normasi mazmunan o'zaro bir-biri bilan bog'liq bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Ta'kidlash joizki, adabiyotlarda huquqiy normaning tuzilishi masalasida turlicha yondashuvlar mavjud. Xulq-atvor normalarining tarkibi haqidagi masala anchadan beri huquqshunoslarning e'tiborini jalb qilib kelmoqda.

Huquqiy normaning uch element(gipoteza, dispozitsiya, sanksiya)dan iboratligi haqidagi fikrlar huquqshunoslikda keng tarqalgan. Huquqiy normada, avvalambor, norma qo'llaniladigan sharoitga oid qism bor, so'ngra xulq-atvor qoidasining o'zi bayon qilinadi, oxirida esa ushbu qoidani bajarmaganlik uchun kelib chiqadigan yuridik oqibat nazarda tutiladi.

Ijtimoiy munosabatlarning ayrim turlarini tartibga soluvchi huquq normalarining «ixtisoslashganligini» hisobga olgan holda, ko'pchilik mualliflar yuridik norma tarkibidan ikki elementni ajratib ko'rsatadilar: regulyativ normalarda – gipoteza va dispozitsiya; qo'riqlovchi normalarda – gipoteza (dispozitsiya) va sanksiya. So'zma-so'z ifodalaganda bu odatda shunday bo'ladi. Ushbu masala haqidagi bahslarning mohiyatini chuqurlashtirib o'tirmay, ta'kidlash joizki, yuridik normaning uch elementli strukturasi – uning mantiqiy-yuridik ifodasidir. U nazariy fikrlash vositasida shakllantiriladi va o'zining timsolida ushbu formulani ifodalaydi: «Agar... bo'lsa, unda..., aks holda esa... bo'ladi». Mantiqiy yuridik tizimni qayta tiklash uchun, mantiq talab va qoidalaridan tashqari yana qonunchilikni hamda yuridik texnikani, huquqiy aloqalar tizimini yaxshi bilish zarur. U yoki bu vaziyatda xatti-harakatning ma'lum bir qolipini belgilovchi huquq normalari, ya'ni xulq-atvor qoidalari, o'zining mantiqiy yuridik tarkibiga ko'ra, gipoteza, dispozitsiya va sanksiyaga ega.

Shunday qilib, huquqiy norma quyidagi uch element (qism)dan iborat:

1) gipoteza; 2) dispozitsiya; 3) sanksiya.

Gipoteza – huquq normasining dastlabki tarkibiy elementi bo'lib, u ushbu huquqiy normaning qanday sharoitlarda harakatga kelishi va uning dispozitsiyasi qanday sharoitlarda amalga oshishini belgilovchi hayotiy shart-

sharoit va mavjud vaziyatni ko'rsatadi, ya'ni huquq normasida belgilangan xatti-harakat qanday sharoitlarda bajarilishi mumkin va lozimligini bildiradi. Gipotezada huquq normasida belgilangan qoida qay sharoitda va qay holatda hamda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan aniq hayotiy holatlar (voqea, harakat, hodisalar), shart-sharoitlar o'z ifodasini topadi. Masalan, fuqarolik huquqi normasi fuqarolarning muomala layoqati qaysi holda to'la vujudga kelishini ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasida «Fuqaroning to'liq muomala layoqati u voyaga yetgach, ya'ni 18 yoshga yetgach, to'la hajmda vujudga keladi», degan qoida mustahkamlangan. Yana bir misol: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar», deb qayd etilgan. Birinchi misolda qonunlarning «voyaga yetgan», ikkinchi misolda esa, «voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar» deyilgan qismi ushbu huquq normalarining gipotezasidir, ya'ni «Qachon? Qay holatlarda qo'llaniladi?» degan savolga javob ifodalangan. Normaning gipotezasida mustahkamlangan abstrakt ifodalangan har bir vaziyat xulq-atvor qoidasiga «hayotbaxsh» ta'sir etib, uni alohida darajaga ko'taradi. Boshqacha aytganda, gipoteza yuridik normani harakatga keltirish sharti va omilidir.

Huquq normasining tarkibiy tuzilishi elementi sifatida gipoteza *oddiy*, *murakkab* va *alternativ* (*muqobil*) turlarga bo'linadi. Agar gipotezada biron-bir holatning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko'rsatilishi yuridik normaning harakati bilan bog'liq bo'lsa, u holda bunday gipoteza *oddiy gipoteza* deb ataladi. Masalan, «Fuqarolik to'g'risida» gi qonunda bayon etilganidek, «Bola, agar uning ota-onasi u tug'ilishi paytida O'zbekiston fuqarolari bo'lgan bo'lsalar (gipoteza), bola qayerda tug'ilishidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarosi bo'ladi».

Agar gipoteza huquq normasining harakatini bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ko'proq holatlarning bor-yo'qligiga bog'liq qilib qo'ysa, u *murakkab gipoteza* deb ataladi.

Yuqorida fuqarolik to'g'risidagi qonunda bayon qilingan gipoteza aynan shundaydir: «O'zbekiston hududida tug'ilgan bola (birinchi holat), fuqarolikka ega bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bo'lsa (ikkinchi holat), u O'zbekiston fuqarosi bo'ladi».

Yuridik normaning harakati qonunda sanab o'tilgan bir necha holatlardan biriga (u yoki bunisiga) bog'liq bo'lsa, unda *alternativ gipoteza* deyiladi.

Dispozitsiya – huquq normasining navbatdagi tarkibiy elementi bo'lib, unda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilanadi va ularning

bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari variantlari ko'rsatiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan noqonuniy o'tganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi – hukumatning ruxsatisiz yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib yoki buning uchun belgilangan chegara punkti orqali o'tmay, davlat chegarasidan noqonuniy o'tishning taqiqlanganligidir. Dispozitsiya shu xulq-atvor qoidasining o'zi, yuridik normaning o'zagi, mag'zidir. Ammo, huquq normasi faqat birgina dispozitsiyaning o'zidan iborat bo'la olmaydi. Faqat gipoteza va sanksiya birlikda dispozitsiya atrofida jamlangandagina dispozitsiya hayotiy kuchga ega bo'ladi va o'zining tartibga soluvchi xususiyatlarini namoyon qiladi. Dispozitsiya – bu huquqiy xatti-harakat modelidir.

Dispozitsiyada huquq normasining gipotezasida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda huquq subyektlari rioya etishlari lozim bo'lgan qoida ifodalanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasiga muvofiq, «voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar» – bunda, gipotezada ko'rsatilgan holatlar, ya'ni farzandlarning voyaga yetishi va mehnatga layoqatli bo'lishi hollarining mavjudligi dispozitsiyaning amal qilishiga sharoit tug'diradi, ya'ni farzandlarda o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilish majburiyatini vujudga keltiradi.

Bajarilishi shart bo'lgan yoki aksincha, man etilgan xulq-atvor qoidalarini bayon qilishning to'laligi bo'yicha dispozitsiyalar – *oddiy, tavsif etuvchi, blanket va havola etuvchi* dispozitsiyalarga bo'linadi. *Oddiy dispozitsiyada* xatti-harakat tavsiflab berilmaydi, balki barchaga ma'lum tushuncha, ibora, (masalan, Jinoyat kodeksining 97-moddasi «qasddan odam o'ldirish») yordamida ta'riflanadi. Bu kabi dispozitsiyalarda izoh va sharh talab etilmaydi, ammo ular qonunchiligimizda juda kam uchraydi.

Tavsif etuvchi dispozitsiya – huquqbuzarlik belgilarining to'liq bayonini o'z ichiga oladi (masalan, JKning 169-moddasi: o'g'rilik – o'zgarlar mulkini yashirin ravishda egallab olish (qonunda, garchand bu mantiqan o'rinli bo'lmasa-da, talon-toroj qilish, deb yozilgan). Bunda norma dispozitsiyasi hammaga tushunarli bo'lishi uchun ma'lum bir ma'noda, qisqa shaklda bayon etiladi.

Blanket dispozitsiya huquqbuzarlikning belgilarini aniqlash uchun shu qonunda yoki qonunchilikning boshqa sohalari normalarida belgilangan tegishli qoidalarga havola qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida yong'in xavfsizligi, texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu qoidalarning mazmuni Jinoyat kodeksida emas, balki JKning moddalarini qo'llashda murojaat qilish zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlarda ochib beriladi. «Blanket»

so'zi «blank» iborasi asosida vujudga kelgan bo'lib, asl ma'nosi blank tarzidagi norma mazmunini boshqa huquqiy qoida vositasida to'ldirish lozimligini anglatadi. Yuqorida keltirilganidek, «texnika xavfsizligi qoidalarini buzganlik» ka doir javobgarlikni belgilash uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida tasdiqlangan «Texnika xavfsizligi qoidalari» degan hujjatni olib, uning qaysi qoidasi kodeks normasiga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab, ya'ni shu qoida mazmuni bilan Jinoyat kodeksining blanket normasi to'ldirilishi kerak bo'ladi. Undan so'ng aybning hajmi va jazoning miqdori hal etilishi mumkin.

Havola etuvchi dispozitsiya deganda, huquqbuzarlik belgilariga ega bo'lmagan, balki o'sha qonunning boshqa normasiga (masalan, JKning 110-m. «Qiyinash») yoki boshqa huquqiy hujjatga murojaat etishni nazarda tutuvchi dispozitsiya havola etuvchi dispozitsiya sifatida tushuniladi.

Sanksiya – yuridik normaning uchinchi tarkibiy elementi bo'lib, u huquqiy norma buzilgan yoki majburiyat bajarilmagan yoxud talab etilgan xatti-harakat sodir etilmagan holda huquqni buzgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan davlat ta'sir chorasidir. Sanksiyaning bunday ta'rifini, odatda, yuridik fan, davlat va huquq nazariyasi beradi. Faylasuflar, shuningdek, sotsiologlar sanksiya deganda, faqatgina salbiy (tanbeh, jazo) oqibatlarnigina emas, balki ijobiy (rag'batlantirish, quvvatlash) oqibatlarni (shuningdek, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xulq-atvoridan kelib chiqadigan ijobiy oqibatlarni) ham tushunadilar.

Sanksiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan jazo yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi ifodalangan bo'ladi. Sanksiya – yuridik normaning mantiqiy yakunlovchi qismidir. Unda jamiyat, davlat, shaxsning huquqiy normani buzuvchilarga nisbatan salbiy munosabati ifodalanadi.

Huquqiy norma sanksiyasi – umumlashma tushuncha. Huquqbuzar uchun bo'ladigan noxush oqibatlarning tabiatiga bog'liq ravishda u qo'yidagilarni nazarda tutishi mumkin:

a) javobgarlik choralari (ozodlikdan mahrum qilish, jarima, moddiy zararni undirish); bu turdagi sanksiyalar javobgarlikka tortuvchi yoxud jazovlovchi sanksiyalar deb ataladi;

b) ogohlantirish ta'sir choralari (ushlab keltirish, mulkini hisobga olish, jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlab, davlat hokimiyatining akti yoxud ma'muriy aktlarni bekor qilish, majburiy davolash, o'zboshimchalik bilan qurilgan binolarni buzib tashlash va hokazo);

v) muhofaza choralari (ishchi va xizmatchilarni agar ular ilgari qonunsiz ishdan bo'shatilgan bo'lsalar, avvalgi ish joyiga qayta tiklash, aliment undirish

va hokazo), ko'rsatilgan choralarni tayinlash, ya'ni shaxsga yetkazilgan zararni bartaraf etish va uning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan xatti-harakatlar (bu choralar javobgarlik choralaridan farq qilib, huquqbuzar tomonidan unga tegishli bo'lgan va ilgari ijro qilinmagan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutadi);

g) subyektga nisbatan uning o'z xulq-atvori oqibatida kelib chiqadigan noxush oqibatlar (kasalxona rejimini buzish natijasida bemorning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini yo'qotishi yoxud bu hol uzrli sababsiz yuz berishi va hokazo).

Huquqiy normalarning sanksiyalarini huquqbuzar uchun noxush bo'lgan oqibatlarning hajmi va miqdoridan kelib chiqib tasniflash maqsadga muvofiqdir, bunda sanksiyalar uch guruhga ajratiladi:

1) *mutlaq aniq sanksiyalar*, ularda noxush oqibatlarning miqdori aniq ko'rsatilgan (xodimni xizmat burchini bajarishdan ozod etish, ishdan bo'shatish, jarimaning aniq miqdori va hokazo) bo'ladi;

2) *nisbiy aniq sanksiyalar*, bularda noxush oqibatlar chegarasining eng ozidan eng ko'pigacha yoxud faqat eng ko'pigacha ko'rsatiladi. Avvalo, bular Jinoyat kodeksining «falon yildan ... falon yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi» yoki «... yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi» shaklidagi sanksiyalaridir;

3) *alternativ sanksiyalar*, ularda «yoki», «yoxud» birlashtiruvchi-ayiruvchi bog'lovchilar orqali bir necha noxush oqibatlar (jazolar) ko'rsatilib, sanab o'tiladi va huquqni qo'llovchi subyekt ulardan faqat bittasini – hal etilayotgan holat uchun eng maqsadga muvofiq bo'ladiganini tanlaydi. Bunday sanksiya quyidagicha ifodalanishi mumkin: «... yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi».

Shunday qilib, huquq normasining tarkibiy qismlari quyidagilarni o'rnatadi:

Gipoteza – dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kim va qachon, qaysi sharoitda bajarishi lozimligini ko'rsatadi; dispozitsiya esa – bajarilishi lozim bo'lgan qoida nimadan iboratligini ko'rsatadi, u huquqiy munosabat ishtirokchilarining subyektiv huquqlari va majburiyatlarining mazmunini aks ettiradi; sanksiya esa, huquq normasi talabini bajarmaslik oqibatlarini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, huquqiy normalarning hammasida ham uning uch elementi birgalikda kelavermaydi. Aksariyat konstitutsiyaviy normalar gipoteza va dispozitsiyadagina iborat. Konstitutsiyaviy normalarning sanksiyasi boshqa qonunchilik hujjatlarida, tegishli kodekslarda mustahkamlangan bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd

qilish eng og‘ir jinoyatdir», degan mazmundagi huquqiy qoida mustahkamlangan. Bu normada insonni hayotdan mahrum etganlik uchun qanday jazo berilishi ko‘rsatilmagan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasida qasddan odam o‘ldirganlik uchun o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Ayni paytda, Jinoyat va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarning maxsus qismi, ya‘ni huquqbuzarliklar ko‘rsatilgan qismida joylashgan moddalar asosan dispozitsiya va sanksiyadan iborat (Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning maxsus qismi normalariga qarang), ularning gipotezasi mazkur kodekslarning umumiy qismida, ayrim hollarda boshqa qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan bo‘ladi. Masalan, JKning 97-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatning subyekti jinoyat qonunchiligida belgilangan yoshga yetgan, aqli raso, mazkur jinoyatni qasddan sodir etgan shaxs bo‘lishi mumkin. Bu qoidalar JKning Umumiy qismida ko‘rsatib o‘tilgan. Shunday qilib, huquq normasining strukturasi – bu uning o‘zaro mazmunan uzviy bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan ichki tuzilishidir.

3-§. **Huquq normalarining turlari**

Huquq normalarining ilmiy va o‘quv adabiyotida turlicha tasniflari va guruhlanishlari mavjud. Tasniflash deganda, mantiqan o‘rganilayotgan obyektlarni tur-

lar bo‘yicha ma‘lum bir umumiy mezonlar asosida guruhlarga ajratish tushuniladi. Tasniflashning to‘g‘ri va to‘laroq bo‘lishi, avvalo, unga asos qilib olingan mezonning boshqa barcha belgilarini qayd etuvchi uning eng ahamiyatli jihatiga bog‘liqdir. Yuridik normalarni tasniflashning to‘rtta mezonini mavjud: 1) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish funksiyalari; 2) huquqiy tartibga solish predmeti; 3) huquqiy tartibga solish metodi; 4) normani ifodalash shakli.

Huquq normalari huquqiy tartibga solish mexanizmidagi funksional vazifasiga ko‘ra, boshlang‘ich normalar va qoida – normalarga bo‘linadi. Boshlang‘ich, ta‘sis etuvchi, yo‘nalish beruvchi normalar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning maqsadini, vazifalarini, prinsiplari, yo‘nalishi va chegaralarini aniqlab beruvchi asos hisoblanadi. Demak, bunday normalar qatoriga Konstitutsiyada mustahkamlanadigan mamlakat iqtisodiyoti va davlat siyosati asoslarini, inson huquqlari va erkinliklari, fuqarolik jamiyati asoslarini ifodalovchi normalar kiradi; shuningdek, huquq sohalari asoslarini belgilovchi *prinsip-normalar*, yo‘nalish va vazifalarni ifodalovchi *maqsad-normalar*, huquqiy tushuncha va kategoriyalarni belgilovchi *ta‘rif-normalar* kiradi.

Huquqiy normalarning katta qismini *xulq-atvor qoidalaridan iborat normalar* tashkil etadi. Huquqiy normalarini tasniflash uchun asosan, huquq normasi elementi bo'lgan dispozitsiyaning mazmuni bilan bog'liq holdagi o'zgarishlar nazarda tutiladi. Umuman olganda, huquq normasining tasniflanishiga dispozitsiyadagi o'zgarish ta'sir etadi hamda turli mezonlar orqali o'z ifodasini topadi. Huquq normasini tasniflashda usul va mezonlar ko'p bo'lganligi uchun uni tasniflashning umumiy tomonlarini inobatga olgan holda, guruhlar-ga bo'lish qulay hisoblanadi.

Huquq normalarini, ularda mustahkamlangan qoidalar xususiyatiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

Huquq va vakolat beruvchi normalar – ya'ni, huquq subyektiga qanday harakatlarni sodir etish *mumkinligini* ko'rsatuvchi normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga binoan, «hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi». Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 36-moddasiga ko'ra, tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatishga, ishni qo'zg'atishni rad etishga, gumondor shaxslarni ushlab va so'roq qilishga, Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tergov harakatlarini olib borishga, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok qilish uchun jalb etish to'g'risida va unga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash to'g'risida qaror chiqarish va qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishga haqlidir¹.

Majburiyat yuklovchi normalar – ya'ni, qanday harakatlarni sodir etish *lozimligini* ko'rsatuvchi normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga binoan, «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar». Yana bir misol: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risidagi»gi konstitutsiyaviy qonunning 28-moddasiga ko'ra, Prezident imzolashni rad etib, qayta ko'rib chiqish uchun yuborgan qonun Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, uni Prezident o'n to'rt kun ichida imzolashga va e'lon qilishga majbur².

Man qiluvchi normalar – ya'ni, huquq subyektiga muayyan xatti-harakatlarni sodir etishini *man qiluvchi* normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida «maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi», deb ko'rsatilgan va bu qoida man etish xarakteriga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi / Rasmiy nashr. Toshkent «Adolat». 2015-y.

² O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risidagi»gi Konstitutsiyaviy qonuni.

Ba'zi huquq normalari ham vakolat beruvchi, ham majburiyat yuklovchi yoki man etuvchi xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Jinoyat-protsessual kodeksining 15-moddasi mazmuniga muvofiq, sud, prokuratura, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari hamda asoslari mavjud bo'lgan taqdirda o'z vakolat(jinoyat ishini qo'zg'atishga bo'lgan huquq)lari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari shart¹. Ushbu huquq normasi, bir tomondan, sanab o'tilgan subyektlarga jinoyat ishini qo'zg'atishga vakolat bermoqda va ayni paytda, jinoyat ishini qo'zg'atishni ularga muqarrar ravishda majburiyat tarzida yuklamoqda.

Rag'batlantiruvchi normalar – huquqiy munosabatlar subyektlari davlat va jamiyat manfaatiga foyda keltiradigan xatti-harakat variantlari uchun rag'bat, imtiyoz belgilovchi normalar. Bunda o'zining yuridik va ijtimoiy burchiga vijdonan, sidqidildan yondashgan va yaxshi natijalarga erishgan shaxslar uchun rag'batlantirish choralari belgilanadi. Rag'batlantiruvchi normalar kishilarni yuqori samara bilan mehnat qilish, ijodiy va ijtimoiy faollikka undovchi qoidalardir (masalan, Davlat mukofotlari to'g'risidagi qonun, ilg'orlarni taqdirlash qoidalari va hokazo).

Tavsiya etuvchi normalar – xatti-harakat va xulq-atvorning eng maqsadga muvofiq, davlat nuqtayi nazaridan e'tiborli bo'lgan variantini belgilaydi. Tavsiya etuvchi normalar, odatda, nodavlat jamoat tashkilotlari, hissadorlik jamiyatlari, davlat korxonalari va ilmiy muassasalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borgani sayin davlat xo'jalik va hissadorlik uyushmalarining ishlariga kamroq aralashib, ularga beradigan huquqiy tavsiyalarining salmog'i ham kamayib boradi. Avval imperativ xususiyatga ega bo'lgan ko'plab normalar tobora tavsiyaviy mazmun kasb etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003-yil 5-noyabrdagi 486-sonli qaror. Unda hukumat shu sohadagi munosabatlarning davlat nuqtayi nazaridan maqbul variantlarda tashkil etilishidan manfaatdor subyekt sifatida shirkat xo'jaligining namunaviy ustavi, shirkat xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olishning namunaviy shartnomasi kabilarni tegishli shaxslar uchun tavsiya sifatida ilova qilib o'tgan.

Bulardan tashqari, huquq normalarini boshqa qator mezonlar asosida tasniflash mumkin. Bunda, eng avvalo, huquq normalari huquq tarmoqlari bo'yicha bo'linadi va bunday guruhlash huquq normalarini bir tizimga keltirish va zarur hollarda kodifikatsiya qilish uchun muhimdir. Huquqiy tizimdagi o'rnini va ahamiyati bo'yicha huquq normalarini ta'sis etuvchi, qo'riqlovchi, deklarativ, definitiv, kollizion va ta'minlovchi normalarga bo'lish mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi / Rasmiy nashr. Toshkent «Adolat». 2015-y.

Ta'sis etuvchi normalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy tuzumining asosini, inson huquq va erkinliklarini, siyosiy va huquqiy tizimning asosini mustahkamlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga ko'ra, «O'zbekiston – suveren demokratik respublika, davlatning «O'zbekiston», «O'zbekiston Respublikasi» degan nomlari bir ma'noni anglatadi. Bunda qonunning matnida davlatning nomlanishi ta'sis etilgan.

Tartibga soluvchi normalar ijtimoiy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga soladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, u ijozat beruvchi va majburlovchi xususiyatga ega, shunga muvofiq, u ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari uchun davlat tomonidan qo'riqlanadigan va kafolatlanadigan o'zaro subyektiv huquqlar hamda yuridik majburiyatlar o'rnatadi. U yoki bu ijtimoiy munosabatni huquqiy norma qoidalari orqali maqsadli tartibga solish natijasida bu munosabat huquqiy xarakter kasb etadi, uning ishtirokchilari esa, mazkur huquqiy munosabatning subyektlariga aylanadilar.

Qo'riqlovchi normalar huquq normalari tizimida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, asosan jamoat tartibini saqlash funksiyasini bajarishga qaratiladi va ular jamiyatda o'rnatilgan talablar buzilgan taqdirda yuzaga keladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 97–103-moddalarida ifodalangan huquqiy normalar insonlarning hayotidan mahrum etishga yo'naltirilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni jazo qo'llash tahdidi ostida jinoyat deb topadi, taqiqlaydi va tegishli javobgarlik choralari ko'zda tutadi. Shu asosda Konstitutsiyamizning 13-moddasida oliy qadriyat sifatida tan olingan inson hayoti va sog'lig'ini qo'riqlaydi, muhofaza etadi.

Deklarativ normalar axborot berish, bayonot berish vazifasini bajaradi va qoidaga ko'ra, ushbu normalar dasturiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur toifadagi normalar ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga muayyan huquqlar berish yoki majburiyatlar yuklashdan cheklangan holda, faqatgina ma'lumot berish bilan kifoyalanadi, xolos.

Tezkor (operativ) normalar. Ular yordamida huquq tizimining eskirgan, mavjud ijtimoiy hayot talablariga javob bermay qolgan normalari chiqarib tashlanib, yangilari joriy qilinadi yoki tegishli qo'shimchalar bilan to'ldiriladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar to'g'risida»gi 2003, 2007, 2008, 2011, 2014 va 2017-yillardagi Qonun normalari shular jumlasidandir.

Kollizion normalar. Ularda biron-bir holat bir emas, bin necha huquqiy normalar ta'siriga tushib qolishi mumkin va bu holda o'sha normalar o'rtasida nizo – «to'qnashuv» sodir bo'ladi, bu holatni hal etish uchun kollizion normalar qabul qilinadi. Mohiyatan olganda, kollizion norma chet el huquqini muayyan

milliy yurisdiksiya doirasida qo'llanishiga ruxsat beradi. Shunga ko'ra, kollizion normalar «bir tarafdin davlatlarning huquq-tartibotidagi mavjud tafovutlar va xilma-xillikni, ikkinchi tarafdin esa, davlatlarning milliy huquqiy tizimlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni aks ettiradi». Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 71-bobidagi ko'pchilik huquq normalari kollizion xarakterga ega.

Ziddiyatli vaziyatlarni hal etganligi bois *kollizion normalar* «hakam-norma» deb yuritiladi. Masalan, bironta munosabat qonun normasi va hukumat qarori bilan turlicha tartibga solinadigan bo'lsa, u holda ushbu munosabat yuridik kuchi yuqori bo'lgan norma, ya'ni qonun normasi bilan tartibga solinadi.

Definitiv (ta'rif) normalar – ular huquqiy kategoriya va tushunchalarning tavsifini o'zida mujassamlashtiradi. Bularidan masalan, jinoyat qonunida – jinoyat ta'rifi, ma'muriy qonunda – ma'muriy huquqbuzarlik harakati ta'rifi, fuqarolik qonunida – bitimlarning ayrim turlari ta'rifi va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Definitiv normalar qonunchilikdagi biron-bir normaning mazmunini tushuntirib berishga qaratilgan bo'ladi. Definitiv normalar huquqiy kategoriya va tushunchalarning tavsifini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 34-moddasida residiv jinoyatning mohiyati, ta'rifi ochib berilgan. Definitiv normalar, asosan evristik va yo'nalish beruvchi funksiyalarni bajaradi.

Huquq normalarini huquqiy tartibga solish predmeti bo'yicha (huquq sohalari bo'yicha): konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliyaviy, yer, fuqarolik, mehnat, jinoyat huquqi va boshqa soha normalariga bo'lish mumkin. Ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarning sifat jihatidan bir xilligi va nisbiy mustaqilligi ularni tartibga soluvchi huquqiy normalarning maxsusligi va ma'lum darajada o'ziga xosligining shartidir, bular jamlangan holda muayyan huquq sohasini tashkil etadi.

Huquq normalarini *moddiy va protsessual* huquq normalariga ajratish ham keng tarqalgan. Huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari mazmunini aniqlab beruvchi normalar *moddiy huquq normalari* guruhiga qo'shiladi. Moddiy huquq normalari huquq subyektlarining huquq va burchlari, ularning huquqiy holati, huquqiy tartibga solish doirasini mustahkamlaydi. Boshqacha aytganda, ular huquq subyektiga unga qanday huquq berilishi va undan nima talab qilinishini ko'rsatib beradi.

Huquqlarni amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish, ijro etishning tartibini, buzilgan huquqni tiklash jarayonini belgilovchi normalar esa, *protsessual normalar* deyiladi. Masalan, Fuqarolik kodeksida fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari mustahkamlangan bo'lsa (ya'ni, moddiy normalar), buzilgan huquqni tiklash, yetkazilgan zararni qoplashga

oid normalar (ya'ni, protsessual normalar) Fuqarolik-protsessual kodeksida mustahkamlangan bo'ladi.

Protsessual huquqiy normalar tashkiliy munosabatlarni tartibga soladi, hamda sof tashkiliy, rasmiy, boshqaruv xususiyatiga ega. Ular doimo moddiy huquq normalari tartibi, shakllari va tatbiq qilish usullarini belgilaydi. Protsessual normalar ikkilamchi xususiyat kasb etadi. Protsessual huquqiy normalar hamma vaqt ham alohida sohalarda jamlanavermaydi. Bu hol sodir bo'lgan taqdirda ham, u huquq sohasining ma'lum bir rivojlanish bosqichida bo'ladi, ya'ni muvaqqat bo'ladi. Protsessual normalar o'ziga xos huquqiy kompleksni hosil qilib, huquq sohasining ma'lum bir bo'linishi tashkil etilishidan vujudga keladi. Huquq normalarida xatti-harakatni shakllantirishning mavhumligiga qarab, *abstrakt* (mavhum, umumiy) va *kazuistik* (nisbatan konkret) normalar farqlanadi. Muayyan bir munosabat turini yaxlit holda tartibga soladigan normalar abstrakt (mavhum) normalar hisoblanadi. Bir munosabat turining muayyan bir qismini tartibga soladigan normalarni esa, kazuistik normalar, deb yuritiladi. Masalan, Konstitutsiyaning «Asosiy prinsiplar» deb nomlangan 1-bo'limi normalari abstrakt, umumiy tabiatga ega, Bu bo'limda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy va siyosiy tuzumining asoslari umumiy tarzda mustahkamlangan. Keyingi bo'limlarda esa asosiy qoidalar yanada aniqroq ifodalaniib, ularga batafsil to'xtalib o'tilgan: masalan, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari (2-bo'lim), davlat hokimiyatining tashkil etilishi (5-bo'lim) va hokazo. Huquq normalari, shuningdek, *asosiy* (dastlabki) va *hosila* normalarga bo'linadi, birinchisida umumiy xarakterga ega bo'lgan qoidalar mustahkamlansa, (masalan, qonun normalari), ikkinchisida esa, umumiy qoidalarni rivojlantiruvchi, aniqlashtiruvchi normalar mustahkamlanadi (masalan, qonunosti normativ hujjatlarning normalari qonun normalarini aniqlashtiradi, konkretlashtiradi).

Huquq normalari amal qilish hududiga qarab, *umumiy amal qiluvchi*, *mahalliy miqyosda amal qiluvchi* va *lokal* normalarga bo'linadi. Bunda birinchisi butun mamlakat hududida amal qilsa (masalan, Konstitutsiya normalari), ikkinchisi – ma'lum hududlarda amal qilishi mumkin, masalan, ekologik talafot hududlarida, baland tog'li sharoitda, cho'l zonasida, radiaktiv xavf mavjud zonalarda, uchinchisi – muayyan soha vakillarining faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normalar (masalan, sog'liqni saqlash, ichki ishlar vazirligi tizimi bilan bog'liq) va hokazo.

Huquq normalari subyektlariga qarab, *umumiy* va *maxsus* normalarga bo'linadi, bunda birinchisi hamma huquq subyektlari uchun taalluqli bo'lsa, ikkinchisi esa, aholining muayyan guruhi uchun, yoki aniq belgilangan doiradagi subyektlar, jumladan pensionerlar, nogironlar, soliq idorasi xodimlariga

taalluqli bo'ladi. Umumiy va maxsus huquq normalari bir-biridan umumiylik darajasi va harakat doirasi bilan farq qiladi. Umumiy normalar, odatda, u yoki bu huquq sohasining barcha huquqiy institutlarini (jinoiyat huquqining shartli hukm qilish haqidagi, hukm ijrosini kechiktirish, fuqarolik huquqining da'vo muddati, shartnomalar haqidagi institutlari va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bu normalar huquq sohasining umumiy qismiga jamlanadi va tarmoq obyektlarini tartibga soladi. Ulardan farq qilib maxsus normalar u yoki bu huquq sohasi manbalarining institutlariga tegishli bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ma'lum bir turini tartibga soladi. Maxsus normalar umumiy ko'rsatmalarni batafsil holga keltiradi, ularni amalda tatbiq etishning zamon va makondagi shartlarini muayyanlashtiradi, shaxsning xulq-atvoriga huquqiy ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Shu tufayli, ular huquqning umumiy normalari beto'xtov va izchil tatbiq etilishini ta'minlaydi. Maxsus normalar yig'indisi u yoki bu huquqiy sohaning maxsus qismini tashkil etadi.

Maxsus normalarga quyidagilar misol bo'ladi: oldi-sotdi, hadya, pudrat, kapital qurilish va fuqarolik huquqining boshqa bitimlari haqidagi normalar; jinoiyat huquqida – bezorilik, bosqinchilik, o'g'rilik va hokazo jinoiyat tarkiblari uchun belgilangan javobgarlik haqidagi normalar.

Huquqiy tartibga solish uslubiga qarab, huquq normalarini *imperativ* va *dispozitiv* normalar guruhiga bo'lish mumkin. *Imperativ normalar* davlat amri xususiyatiga ega bo'lib, xatti-harakat subyektiga belgilangan harakat modelidan chetga chiqishni man etadi, masalan, ko'pgina jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy normalar shunday mazmundadir. Imperativ normalar qat'iy-majburiy ahamiyatga ega bo'lib, hokimiyat munosabatlarini, ya'ni bo'ysunish va itoat etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi (masalan, JKning Maxsus qismi normalari imperativ ahamiyatga ega). Masalan, Jinoiyat kodeksining 44-moddasida mustahkamlangan huquq normasi mazmuniga muvofiq, jinoiy jarimaning eng, minimal miqdori eng kam oylik ish haqining 5 baravarini, maksimal miqdori esa, 600 baravarini tashkil etadi. Sudya jarima jazosini tayinlashda ushbu imperativ norma asosida belgilangan miqdorlar doirasidan chetga chiqolmaydi.


Dispozitiv normalar imperativ normalardan farqli o'laroq, munosabat qatnashchilariga o'z xatti-harakatlari variantlari, subyektiv huquq va majburiyatlar hajmi to'g'risida kelishib olish imkonini ifodalaydi.

Dispozitiv normalar – xulq-atvor varianti haqida ko'rsatma berish bilan birga subyektlarga qonuniy vositalar doirasidagi munosabatlarni o'z xohishicha tartibga solish imkonini beradi. Bunday keng huquqiy mustaqillikning (munosabat qatnashchilariga beriladigan) mohiyati shundaki, bunda tomonlarga

o'zaro huquq va majburiyatlar haqida kelishib olish imkoni beriladi, u holat yuz bermagan taqdirda, ma'lum bir majburiy xulq-atvor qoidasi qo'llaniladi. Bu dispozitiv normalar bayon qilinishining o'ziga xosligini ham shart qilib qo'yadi. Bu turdagi ma'lum bir xulq-atvor qoidasining bayoni, odatda, quyidagi so'zlar bilan «agar boshqa qonunda yo shartnomada ko'zda tutilmagan, belgilanmagan bo'lsa...», deb ifodalanadi.

Dispozitiv normalar huquqning ko'pgina sohalarida mavjud. Masalan, mehnat huquqida o'rnatilgan normaga ko'ra: agar mehnat shartnomasi tugaganidan keyin ham mehnat munosabatlari davom etayotgan va tomonlardan birortasi uni to'xtatishni talab qilmagan bo'lsa, bu holda shartnoma harakati noma'lum muddatga uzaytirilgan hisoblanadi. Dispozitiv normalar ko'proq fuqarolik huquqiga xosdir, chunki bu sohani huquqiy tartibga solish uslubi subyektlarning tengligi tamoyiliga asoslanadi. Masalan, Oila kodeksining 73-moddasida ifodalangan huquq normasi mazmuniga e'tibor bersak, u ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasi, kamoloti haqida qayg'urishi zarurligini belgilaydi, ya'ni ota-onalar farzand voyaga yetgunga qadar ular haqda g'amxo'rlik qilishlari, ularga ta'lim-tarbiya berishlari shart. Biroq, ushbu huquq normasi ta'lim-tarbiyaning qandaydir usullaridan foydalanishlikni teng ravishda ota-onalar ixtiyoriga topshirmoqda. Bunda ota-onalar o'z farzandlari uchun ma'qul topgan ta'lim-tarbiyaning muayyan usullaridan foydalanishlari mumkin.

Shunday qilib, huquqiy (yuridik) normalarni tasniflash huquqiy tartibga solishni amalga oshirish va takomillashtirishda ularning boy salohiyati va turli-tuman imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliyotda foydalanishga ko'maklashadi.



XIII bob. HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

1-§. Huquqiy ong, huquqiy tafakkur va ma'naviyat olami Jamiyatning ma'naviy olamida ijtimoiy ongning turli shakllari – axloq, madaniyat, san'at, din, fan va boshqalar qatorida huquqiy ong hamda madaniyat ham alohida o'rin tutadi. Jahon ma'rifiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy-huquqiy hodisalarga qadriyatlar ta'limoti mezonlari asosida baho berish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yo'nalish, xususan, o'zbek huquqshunoslik fanlari uchun ham xos bo'lib bormoqda.

Huquqshunoslik fanimiz huquqning, butun huquqiy tizimning jamiyatda barqarorlik, huquqiy tartibot va qonuniylik muhitini vujudga keltirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi ahamiyatidan kelib chiqib, ularni nihoyatda muhim *ijtimoiy qadriyatlar* sifatida tadqiq etadi¹. Huquqni aksiologik (qadriyatli) o'rganish aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq maqsadli tadbirlarni amalga oshirishda muhim vosita vazifasini o'taydi. Bugungi taraqqiyot asri ijtimoiy hayotning muhim mezoni hisoblangan huquqning nufuzini yuksaltirishga, uni ma'naviy ne'mat va ijtimoiy demokratik qadriyat tarzida asrab-avaylashga chorlamoqda. Davrning ushbu imperativ talabini, qat'iy undovini jamiyat huquqiy ongiga singdirish lozim.

Huquqshunoslik fani huquqni, qonunni, huquq ijodkorlik jarayonini, huquqni qo'llash faoliyatini, huquqiy tartibot muhiti va qonuniylikni, yuridik amaliyotni va boshqa huquqiy hodisalarni umuminsoniy madaniyat yutug'i (mahsuli) sifatida talqin etadi. Ushbu huquqiy hodisalarning ijtimoiy ongdagi in'ikosi(aksi)ni ifodalash uchun «*huquqiy ong*» (ingl. Legal awareness) kategoriyasi kiritilgan. Bu huquq nazariyasida amaldagi huquqni namoyon qiluvchi ijtimoiy ong shakli, qarashlar va his-tasavvurlarning majmui, mavjud huquqiy munosabatlarni huquqiy tushuncha va kategoriyalarda baholash, shuningdek huquqning istiqboli haqidagi qarashlardir.

Ijtimoiy hayotda aksariyat vaziyatlar, holat-hodisalar faqat huquq, majburiyat, mas'uliyat, javobgarlik nuqtayi nazaridan baholanadi. Ushbu holat hamda jihatlar huquqiy ongda o'z aksini, ifodalanishini topadi.

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. – M., 2010. – 391-bet.

Adabiyotlarda huquqiy ongning bir qancha ta'riflari shakllantirilgan. Ularni umumlashtirgan holda quyidagi ta'rifni keltirish mumkin. *Huquqiy ong*, bu avvalo, insonlarning mavjud huquqiy tizim, qonunchilik va boshqa (amaldagi va idealdagi) huquqiy hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalovchi tasavvurlar, bilimlar, axborotlar va his-tuyg'ular yig'indisidir.

Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari majmuidir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ongning tabiati va mohiyatiga yondashiladigan bo'lsa, uning mazmunida mustaqillik yillarida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagi islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi.

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi, madaniyati va huquqiy savodxonligiga bog'liqligidan kelib chiqib, Harakatlar strategiyasida «aholining huquqiy madaniyati va onginu yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi¹. Mazkur vazifani bajarish uchun mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, huquqiy bilimlar hamda qonunlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan keng ko'lamli maqsadli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish zarur.

Huquqiy ong huquq bilan umumiy ildizlar, jihat va tabiatga ega. Huquqiy ong jamiyatning obyektiv ehtiyojlari va manfaatlari, turli ijtimoiy guruhlarning ta'sirida shakllanadi; o'zgarib boruvchi hayotiy shart-sharoitlar va jarayonlar tufayli jo'shqin rivojlanadi; huquqiy ong ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lganligi bois falsafiy, mafkuraviy va siyosiy qarashlarning ta'siriga uchraydi.

O'z in'ikosini ongda (individual ongda, guruh ongida va hokazo) topadigan hayotiy shart-sharoitlar, ehtiyojlar, manfaatlar amaldagi yuridik huquqlar va majburiyatlarning o'zaro nisbati – huquqiy ongning xususiyat – belgisidir. Huquq to'g'risidagi g'oyalar, tasavvurlar, xulosalar bunday nisbatning natijasi hisoblanadi. Insonning hech bir faoliyatini uning ongidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Demakki, biror-bir huquqiy hujjat, birorta yuridik munosabat huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkuradan tashqari amalga oshmaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. / Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2017. – 14-bet.

Qolaversa, huquqiy ong falsafiy nazariyalar, mafkuraviy qarashlar, diniy doktrinalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Abu Nasr Forobiyning fikricha, huquq normalari, ular bajarilishining shartligi va majburiyligi komil insonlar ongining bir qismi bo‘lishi kerak, shuning uchun huquq ma’naviy hodisa hisoblanadi. I. Kant, G. Gegel esa huquqning majburiylikini inson erkinligini tartibga solishning tashqi vositasi ekanligini ta’kidlaydilar. Ba’zilar esa huquqni ijtimoiy munosabatlarning sinfiy tartibga soluvchi vosita deb tushunganlar. Yana bir toifa mutafakkirlar huquqni inson tabiiy huquqlarining rasmiylashtiruvchi vosita va kafolati, deb e’tirof etganlar (Sh. Monteskye, J.J. Russo).

Huquqiy ong huquqiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni inson, inson ongi va faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Huquqiy ongning jamiyat hayotini tashkil etishga ko‘rsatadigan ta’siri beqiyosdir. Zikr etilgan ta’sirni ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatish vositalaridan biri sifatida huquqiy ongni huquqiy tartibga solish mexanizmiga taalluqliligi bilan izohlash mumkin. Uning huquqiy tartibga solish mexanizmi tarkibiy qismi ekanligining xususiyati shundan iboratki, huquqiy ongning roli huquqiy ta’sir ko‘rsatishning hech bir bosqichi bilan cheklanmaydi. Huquqiy ong huquq ijodkorligi bosqichida ham, huquqni amalga oshirish bosqichida ham amal qiladi. Huquqiy ong huquqiy tartibga solish mexanizmining barcha elementlarida – huquq normalarida, huquqiy munosabatlarda, huquqni ro‘yobga chiqarishga doir hujjatlarda u yoki bu darajada namoyon bo‘ladi.

Huquqiy ong huquqni amalga oshirish bosqichida, yuridik huquqlar va majburiyatlarni hayotga tatbiq etish jarayonida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jamiyat hayoti shuni ko‘rsatadiki, ong, fikr, iroda kuchi, turmush tarzi haqiqatan ham odamlarning xulq-atvorini boshqaradi, u turmushning barcha sohalarida, shu jumladan, huquqiy sohalarida individlarning xatti-harakatlari hamda faoliyatiga turtki beradi va ularni tartibga soladi.

Huquqiy ongning mo‘tadilligi uning sifat tavsifi, ayrim elementlari jamiyat huquqiy hayoti ishtirokchilari xulq-atvorining qonuniy bo‘lishini, ular o‘z subyektiv huquqlaridan faol foydalanishi va uni himoya qilishini, zimmadagi majburiyatlarni ongli ravishda bajarishini, huquqiy faoliyatni ijtimoiy nazorat qilishda ishtirok etishini ta’minlovchi xususiyatlarini anglatadi. Qonun ustuvorligini tan olish, qonunni hurmat qilish yuksak huquqiy ongning xususiyati va yorqin ifodasidir.

Huquqiy ongning nazariy jihatlari huquqiy tafakkur hodisasida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda «huquqiy tafakkur» kategoriyasi ma’nosini oydinlashtirib olaylik. Avvalo, huquqiy tafakkur insonning atrofdagi huquqiy voqelik haqida yuridik kategoriyalar vositasida ijodiy fikrlash, faol aqliy tahlil yuritish qobiliyatidir.

Huquqiy tafakkur asosini haqqoniy yuridik bilim, jamiyatda huquqiy vositalar orqali hal qilinayotgan vazifalarni nazariy anglangan holda tushunish tashkil etadi. Huquqiy tafakkur huquq haqida, jamiyatdagi barcha huquqiy hodisalar xususida nazariy tahlil asosida mushohada yuritish, ular tub ma'nomazmuniga yetishga yo'naltirilgan aqliy jarayondir. Huquqiy tafakkur – huquqning mohiyatini, muhim xususiyatlarini, ichki va zaruriy aloqalarini, ya'ni qonuniyatli bog'lanishlarini ratsional bilishning, teran anglashning yuksak bosqichi sanaladi.

Huquqiy tafakkur huquqiy hayot hodisalarini mantiqan, abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilish vositasi hamda usulidir. U huquqni, qonun va boshqalarni ilmiy asosda anglash, ijodiy faoliyat yordamida tahlil etishga tayanadi. Unda bilish jarayoni izchil va tizimli kechadi. Huquqiy tafakkur voqelikni tahlil etish, huquqiy hodisalar haqidagi tushunchalarni shakllantirish, ular haqida mulohaza va fikr yuritish hamda huquqiy amaliyot borasida o'z baholarini ifodalash, xulosalar chiqarish shaklida namoyon bo'ladi.

Jamiyat a'zolarining, fuqarolarning davlat-huquqiy realliklar haqida tizimli bilimlarni hosil qilishi, mazkur bilimlarni chuqurlashtirib borishi, umuman huquq haqidagi tasavvurlarining ortib borishi, huquqiy ongning huquq mohiyatini anglash sari yuksalib borishi huquqiy tafakkur tufayli mumkin bo'ladi.

Istiqlol va islohot davrida huquqning tobora inson hayoti va faoliyatining uzviy qismiga aylanib borishi huquq hodisasini yangi darajada tafakkur mavzusiga aylantirishda to'plangan bilimlarni, axborotlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga, huquqning izchil harakatini ta'minlovchi g'oyalar, nazariyalar, mazmunli tushunchalar yaratishga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj tufayli so'nggi chorak asrda yurtimizda yangicha huquqiy tafakkur shakllandi.

Huquqiy tafakkur huquq hodisasining barcha qirralarini ham alohida, ham bir butun, yaxlit, umumlashgan tarzda qamrab oladi. Huquqiy tafakkur huquq ijodkorligi bosqichidan to huquqning amaldagi harakati, uning har bir huquqiy munosabat ishtirokchisi faoliyatida, xatti-harakatida mujassamlanishiga qadar singib boradi. Bu jarayon istiqlolning dastlabki kunlarida, ayniqsa, jadal amalga oshdi. U Konstitutsiyani yaratish va qabul qilish chog'ida yaqqol namoyon bo'ldi.

Huquqiy tafakkur orqali huquqiy qoida qo'llaniladigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy shart-sharoit tahlil etiladi, huquqni yaratish jarayoni ilmiy asoslangan negizga ega bo'ladi, huquqning samarali harakatini ta'minlovchi mukammal yuridik mexanizm yaratiladi va h.k.

Shu nuqtayi nazardan huquqiy tafakkur davlatning huquqiy (shu jumladan konstitutsiyaviy – huquqiy) siyosatini belgilash, huquqiy tizimni shakllantirish, umuman hukuq hodisasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, istiqlol mohiyatiga mos huquqiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishiga jamiyatda ayni zamondagi hukmron munosabatlar, amaldagi qonunchilik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqshunoslik fanining darajasi, shuningdek, donishmand ajdodlarimizning boy huquqiy merosi katta ta'sir ko'rsatdi.

Komil ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, istiqlol tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma'naviy salohiyati Konstitutsiyamizning g'oyaviy-ilmiy hamda mafkuraviy poydevori bo'ldi. Konstitutsiya va yangi qonunlarimiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo'lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining ilg'or huquqiy ongini, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi va xizmat qilishda davom etmoqda. Yangicha huquqiy tafakkur zamonaviy demokratik qadriyatlarni davlat-huquqiy hayot sohasiga singdirishga safarbar etiladi, adolatli va insonparvar huquqiy institutlarni hamda ilg'or huquqiy qadriyatlarni qaror toptirishga asoslanadi.

Huquqiy faoliyatni qadriyat sifatidagi anglanishi ta'siri natijasida shaxsning muayyan harakat tarziga moyilligi yuzaga keladi. Binobarin, huquqiy ong nafaqat yuridik voqelikni, odamlarning huquq sohasidagi xulq-atvorini ifodalaydi, balki xulq-atvorni tartibga solishda, shuningdek, ijtimoiy hayotning obyektiv jihatdan huquqiy me'yorlashga muhtoj bo'lgan munosabatlarini belgilashda ham ishtirok qiladi. Shu ma'noda huquqiy ong va huquqiy tafakkur huquqning g'oyaviy-nazariy manbayidir.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish – huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir.

Huquqiy ong sust rivojlangan, huquqiy tafakkur esa, nomukammal bo'lsa, bu jamiyat va uning institutlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizm ana shunday salbiy ko'rinishlarning shakllaridir. Mana shu ikki ko'rinish huquqiy ongni o'rganish uchun nihoyatda muhimdir, zero, bo'lg'usi amaliyotchi-yurist huquqiy normalar va talablarni amalga oshirish jarayoniga jiddiy ta'sir etuvchi mazkur hodisalarga duch kelishi tabiiy.

2-§. Huquqiy ongning tabiati va strukturasi

Jamiyat hayotining jadal va jo'shqin rivojlanishida huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yo'li bilan ularga uyushqoqlik va batartiblik baxsh etadi. Huquqning munosabatlarni tartibga solishdagi ta'sir yo'nalishi o'ta ko'p qirralidir. U bir tomondan, mavjud ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi va barqarorlashtiradi, ikkinchi tomondan, hayotda endi vujudga kelayotgan yangi munosabatlarning rivojiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy hayot rivojiga xalaqit beruvchi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar uchun nomaqbul bo'lgan hodisalarning oldini olishda ham huquqning ahamiyati katta.

Yuqorida ta'kidlanganidek, *huquq* – erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va imkoniyat (imtiyoz) lar berib, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Huquqning tartibga soluvchi xususiyati, bunyodkor salohiyati uning kishi ongiga ta'siri orqali yuzaga chiqadi. Huquqiy talablar dastlab ongda aks etib, shaxs tomondan anglab yetiladi, tushuniladi va ruxan o'zlashtiriladi, insonning huquqqa munosabatini belgilovchi taassuroti va e'tiqodi murakkab bilimlar natijasida shakllanadi.

Ta'kidlash joizki, huquq ijtimoiy hodisa sifatida ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U haqiqiy voqelikning boshqa barcha hodisalari kabi, jamiyat ongida aks etib, nafaqat uning in'ikosi, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan fikrlash va tafakkur jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib yetish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'liq. Huquq va ong o'rtasida vujudga keladigan uzviylikni nazarda tutib, avvalo, huquqiy ong tushunchasini oydinlashtirib olish lozim.

Huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Demak, u ongning yagona shakli emas. Hayotning sohalari g'oyat xilma-xil bo'lib, ularning har biri jamiyat ijtimoiy ongida diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa aniq shakllarda namoyon bo'ladi. O'rganadigan sohasining o'ziga xosligi, alohidaligidan qat'i nazar, ijtimoiy ongning har bir shakli boshqa shakllar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Goho, ijtimoiy ongning har xil shakllari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik holati muayyan qiyinchiliklar tug'diradi va ularni ajratish oson bo'lmaydi.

Inson hayotiga tajovuz qilish, unga tegishli mulkka rahna solish, uni nobud etish yoki o'g'irlash axloq nuqtayi nazaridan qoralanadigan salbiy holatlardir. Bu axloqiy talablar ijtimoiy ongda namoyon bo'ladi, aks etadi. Huquqda

taqiqlangan o'g'irlik, jamoat mulkini talon-taroj qilish yoki odam o'ldirish uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik o'zining tabiati bilan o'sha axloqiy talabning namoyon bo'lishi yoki timsoli emasmi? Yaxshilik va yomonlik bilan bog'liq hodisalarni tushunish jamiyat ongining har xil shakl va darajalarida hamda yuqori murakkab o'zaro dialektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, ularning har biri ijtimoiy ongning alohida sohasida huquq va huquqiy voqelikning xilma-xil hodisalari bilan uzviy bog'liqdir. Ongning bu shaklini huquqsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, huquqni ham huquqiy ongsiz anglab bo'lmaydi. Biri ikkinchisidan kelib chiqadi, biridan oldin ikkinchisi yuz bergan bo'ladi, chunki bir holda huquq huquqiy ongning rivojiga yordam bersa, boshqa holda buning aksi bo'lib, huquqiy ong huquqning rivojiga, uning takomillashuviga ko'maklashadi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Biroq ong bilan huquq o'rtasidagi mavjud bog'liqlik, ularning har biri inson xulq-atvoriga ta'sir qilishiga qaramay, huquq va huquqiy ongni bir-biriga o'xshatish uchun asos bo'la olmaydi. Ularning har biri alohida huquqiy hodisa sifatida kishilar munosabatiga ta'sir etishi bilan farq qiladi. Masalan, huquqning kishilar munosabatiga ta'sirining o'ziga xosligi shundaki, uning me'yoriy qoidalari umummajburiy xususiyatga ega. Bu – har kim huquqiy talabga bo'ysunishga majbur deganidir. Bo'ysunmaslik holati esa huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Huquqiy ongga kelganda, uning tartibga soluvchi ta'sir kuchi boshqa shaklda amalga oshiriladi. Gap shundaki, har bir huquqiy ko'rsatma huquqiy ong orqali o'tganidan so'nggina, aniq fe'l-atvorda yoki qilmishda amalga oshadi.

Huquqiy amr-iroda, talab hamma vaqt, *shaxsning* ongiga yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki, odillikning ta'sir kuchi shaxsga qaratilgan buyruqni inson tomonidan anglanib, qabul qilinishiga mo'ljallangan. Inson huquqiy axborotni anglab qabul qilish, ruhan tushunib yetishdek murakkab jarayonga duch keladi. Huquqiy ong, mohiyati bo'yicha o'ziga xos «sinov va tajriba maydoni»ni tashkil qiladi, unda huquqiy axborotni o'zlashtirish va qabul qilib olish bilan bog'liq murakkab jarayon kechadi. Huquqiy ongning bilish vazifasi, huquqiy talabga nisbatan, o'zining fe'l-atvor *yo'lini* ishlab chiqishdagi baholash fikri yoki mulohazasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, miya ichki fikrlash funksiyasining butun jarayoni insonning o'zini o'zi boshqarishi, o'zini o'zi nazorat qilishiga, uning fe'l-atvor xususiyatini aniqlashga yordam beradi.

Huquqiy talabni tushunishda, huquqiy bilim darajasi, umumiy va huquqiy madaniyatning saviyasi shubhasiz katta ahamiyatga egadir. Huquq – qanday fe'l-atvor shaklida (qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u barcha holdalarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo'lib, u orqali fe'l-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatiladi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o'zaro

ta'sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir kuchi va tartibga soluvchi ta'sirining mohiyati namoyon bo'ladi. Huquqiy ongning ijtimoiy ongning shunday sohasiki, u tushuncha, taassurot, baholash, fikr yuritish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi huquqiy me'yorlarni shakllantirish bilan birga huquqiy tizimning xilma-xil qismlari (sudya, hakamlar ishi, jazo berish tizimi, ichki ishlar organlari xizmati, notarial idoralar, prokuratura va boshqa ko'p sohalar) borasida tushunchalarni yuzaga keltiradi.

Shu tarzda odamlar xulq-atvori tamoyiliga singib ketadigan, xilma-xil huquqiy hodisalarga jamiyat a'zolarining munosabati, huquq to'g'risidagi tushunchasi, huquqiy bilimi – yuqorida zikr etilgan tarzda shakllanadi. Nazariy talqin jihatidan huquqiy ong ikki qismga: *huquqiy mafkura* va *huquqiy ruhiyatga* ajratiladi. Bu kategoriyalarning har qaysisida huquqiy hodisalar o'ziga xos aksini topadi. Masalan, ulardan birida huquqiy hodisalar ilmiy tushunib yetilgan mafkura ko'rinishida aks etsa, ikkinchisida – huquqiy hodisaning tarkibiy qismlari, xilma-xil his qilish, kayfiyat va holatlar shaklida namoyon bo'ladi.

Ayni vaqtda, huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatlarning o'ziga xosligi ulardagi mavjud umumiylik va o'zaro ta'sirni mutlaqo inkor etmaydi. Chunki, ular bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, shu tariqa huquqiy voqelik to'g'risida ilmiy asoslangan, hissiy tushunib yetilgan tushuncha hosil qilinadi. Huquqiy ong ruhiy jihatining boyligi, uning odamlar xulq-atvoriga, ularning huquqqa munosabatiga ta'siri unga muayyan kuch bag'ishlaydi.

Huquqiy mafkura – har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtayi nazar, nazariy tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aks etgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi. Bunday ilmiy manbalarning mazmuni odamlar ma'naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Insonning ongidagi huquqni anglash jarayoni, yuqorida zikr etganimizdek yoki shunga yaqinroq tarzda kechadi. Inson huquqiy ongi orqali huquqni anglash bilan uni qo'llash jarayonida, sud ishlarida, qonuniylik va qonun to'g'risida axborot olinadi. Shunday axborot asosida huquqiy madaniyat darajasi yuksaladi, insonning huquqiy bilimi rivojlanadi va teranlashadi. Insonning huquqiy fe'l-atvori qandayligi, pirovardida, uning huquqiy madaniyati darajasiga, huquqiy bilimining kengligi va teranligiga bog'liqdir. Huquqiy mafkura – shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, insonning unga bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy ruhiyat – ong doirasidagi huquqiy hodisalar bilan bog‘liq holda, ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan his-tuyg‘u, kechinmalar sohasini ifodalaydi. Huquqiy ruhiyat – huquqiy hodisalarni hissiyot bilan tiklash sohasidir. Inson hissiz, o‘ylamay o‘z-o‘zidan fikr yuritadigan qurilma emas, balki u fikr yuritish bilan birga sezadigan tirik zotdir. Shuning uchun, inson ijtimoiy hodisalarni, shu jumladan, huquqiy hodisalarni ham nafaqat aql, balki sezgi bilan ham anglab yetadi. Huquqiy hodisalarni tushunib yetish jarayoni insonning ishtirokisiz rivojlana olmaydi, shu sababli unda tabiiy tarzda g‘oyaviy va hissiy jarayonlar qo‘shilib ketadi.

Masalan, loyihalashtirilayotgan qonunning mazmuni bilan shunchaki tanishib chiqish, shaxsda har xil hayajonlanishni (shodlanish va qanoatlanish, anglashilmovchilik va achinish, e‘tirof etish va hafa bo‘lish kayfiyatini) keltirib chiqaradi yoki uning to‘lqinlanishiga olib keladi. Inson o‘zining ruhiy holatiga ko‘ra huquqni mensimaslik, noqonuniylik, zulm va inson erkini kamsitish bilan bog‘liq salbiy huquqiy voqeliklarga befarq, loqayd qaray olmaydi. Uning huquqiy kechinmalari va kayfiyati qahr-g‘azab va norozilik ko‘rinishlarida namoyon bo‘lib, ijtimoiy-huquqiy hayotning salbiy hodisalariga tanqidiy qarash uchun ruhiy asosni vujudga keltirib, insonparvarlik g‘oyalari negizida insonda qayta yaratish, bunyodkorlikka intilish hissini keltirib chiqaradi.

Har qanday bilimning huquqiy ong doirasida shakllanishi idrok etish jarayonini teranlashtira borib, ular aks ettirgan hodisalarni o‘zlashtirishda hissiy tus oladi. Huquqni takomillashtirishda insonning xuddi shu hissiyoti (buni eslatib o‘tish joiz) oldingi o‘rinlardan birida turadi. Huquqiy ong sohasida kechadigan fikrlash jarayoni odamlar talabi va manfaatini ifoda etuvchi inson hissiyoti bilan yo‘g‘rilgan yoki shu hissiyotdan tuzilgan. Huquqiy ong sohasida vujudga keladigan huquqiy g‘oyalar, tushunchalar va taassurotlar, aql va sezgining shunday noaniq chalkashib ketishi oqibatida, inson fe‘l-atvorini tartibga solishda jiddiy ta‘sirchan kuchga ega bo‘ladi. Shuning uchun, huquqiy ongni o‘rganishga katta ahamiyat beriladi.

Huquqiy ongning strukturasi tahlil qilish, bir tomondan, huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyat kabi uning tabiiy tarkibiy qismlarining o‘zaro ta‘siri tabiati va o‘zaro nisbatini ochadi, boshqa tomondan, ijtimoiy hayotda bugun hodisa sifatida uning vazifasini ochib berishga yordamlashadi.

Huquqiy fan huquqiy ong sohasini *ijtimoiy va shaxsiy (individual)* turlarga ajratadi. Ammo bu chegaralash, ular o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlikni mutlaqo inkor etmaydi. Huquqiy ong har bir turining nisbatan mustaqilligini tan olgan holda, ularga xos xususiyatlarni ochadigan huquqning umumiy nazariyasi ularning har ikkisi ham jamiyat mahsuli bo‘lganligi uchun ular

birligini yagona ijtimoiy hodisa sifatida tan olishdan kelib chiqadi. Ijtimoiy ong huquqiy ongning yanada yuqoriroq darajasi hisoblanadi, chunki unda huquqiy voqelikka xos bo'lgan barcha xususiyatlar mujassam. Uning mazmuni huquqni bilish va hayotga tatbiq qilishda inson tafakkurining ijodiy yutuqlari va ijtimoiy-huquqiy amaliyoti bilan sug'orilgan.

Individual huquqiy ongga kelsak, u o'z mazmuniga ko'ra katta hajmli va keng emas. Bundan tashqari, u huquqiy tafakkur tarixida to'plangani uchun, huquqiy bilimlar yig'indisini qamray olmaydi. Shaxsiy huquqiy ong bilish imkoniyatlari jihatidan bir qadar cheklangan. Hammaga ma'lumki, har bir insonning hayoti alohidadir. Bir shaxsda huquqiy bilim olish imkoniyati katta bo'lsa, boshqasida kamroq. Shuning oqibatida, shaxsiy huquqiy ong har xil rivojlanish darajasiga ega. Huquqiy ong ma'lum darajada jamiyat a'zolarining huquqiy axborotlashuviga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'tarishga ko'mak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilish masalasi alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat darajasiga qarab, *huquqiy ong turlari* uchga ajratiladi: *oddiy, ilmiy va kasbiy*. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi va insonning shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga uning ishga joylashuv payti yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yoxud yo'l qoidasini buzgani uchun javobgarligi haqidagi bilimlar misol bo'la oladi.

Insonlardagi shaxsiy huquqiy tajriba, kundalik hayot doirasida kechib, nisbatan tor bo'lganligi sababli huquqiy ong juda chegaralangandir. Huquqiy ong bizni o'rab turgan borliq haqidagi oddiy tushunchalar chegarasida muttasil qola olmaydi va doimo rivojlana borib, tabiiy ijtimoiy qonuniyatlar darajasiga chiqadi, shu bilan nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi.

Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy-huquqiy haqiqatni u yoki bu darajada to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Ilmiy huquqiy ong huquqni ijod qilish faoliyatining birinchi darajali manbayi bo'lgani uchun huquqiy amaliyotni takomillashtiradi. Unda huquqiy nazariya va huquqiy g'oyalar, tasavvurlar va tushunchalar tizimi bilan bir qatorda, huquqshunoslarning kasbiy huquqiy ongi ham ajratiladi.

Huquqshunoslar huquqiy ong jihatidan qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarning huquqiy mulohazalaridan o'zlarining huquqiy me'yor va nuqtayi nazarlari, bilimining teranligi hamda katta hajmi va eng muhimi, huquq qoidalari va me'yorlarini qo'llashni bilishlari bilan farq qiladilar. Huquqshunoslar huquqqa, shuningdek uning amalda qo'llanilishiga kasbiy malaka bilan yondashadilar. Bu qonunchilik bilan yuqori darajada mos kelish, huquqni qo'llash foydaliligi va uni chuqur tushunish zarurligini nazarda tutadi. Kasbiy huquqiy ong huquqiy

oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish natijasida shakllanadi, so'ngra huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi.

Huquqshunos-olimlar *huquqiy ong funksiyalari* masalasini ham tahlil etadilar va huquqiy ongning axborot olish, baholash va tartibga solish funksiyalarini ko'rsatadilar.

Axborot olish funksiyasi jamiyat barcha a'zolarining turli shakldagi huquqiy bilimlarga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Huquqiy ongning axborot olish funksiyasi ketma-ket paydo bo'luvchi ruhiy hodisalardan tuzilgan: *birinchidan*, u asosan sezish, eshitish va ko'rishdan vujudga keladi; *ikkinchidan*, qabul qilish, xotira, esda saqlash, xotiradagilarni qayta tiklash, tanish jarayonlari vositasida huquqqa oid bilimlarni to'playdi va ularni har hil huquqiy tasavvurlar shaklida ifoda etadi; *uchinchidan*, tafakkur oliy darajadagi bilish jarayoni hisoblanib, huquqiy g'oyalar, tushuncha va e'tiqodlar uning mahsulidir.

Baholash funksiyasi huquqiy ongning o'sishi natijasida insonlarning huquqiy va huquqqa zid bo'lgan ko'rinishlarni bir-biridan ajrata olishishga erishishiga xizmat qiladi.

Tartibga solish funksiyasi esa, shaxslarning yuqori darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishi, ularni huquqqa asoslangan holda harakat qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, adabiyotlarda huquqiy ongning gnoseologik, boshqaruv va huquqiy shakllantirish funksiyalari alohida shaklda ajratib ko'rsatiladi.

Gnoseologik funksiya obyektiv borliqdagi mavjud huquqiy holatlarni bilishni tavsif etadi. Boshqaruv – o'z fe'l-atvorini huquq talablari bilan qiyoslash vositasida o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishdir.

Huquqiy ongning o'zini boshqarish funksiyasi inson orzu-intilishlarini oqilona ro'yobga chiqarish huquqiy ongning amaliy tomoni hisoblanib, u iroda orqali amalga oshiriladi. U huquqiy bilimlarni aniqlash, ichki tuyg'ular bilan mavjud huquqiy e'tiqodlar, mavjud obyektiv borliq, jamiyatda amal qilayotgan huquqiy normalarni muvofiqlashtirish, maqsadni aniqlash, qaror qabul qilish va qarorni ijro etish kabilarni o'z ichiga oladi. Huquqiy ong qabul qilayotgan huquqiy axborotni «qayta ishlash» va o'zlashtirishda inson fe'l-atvorini boshqaruvchi murakkab mexanizmlar muhim o'rin egallaydi, u manfaatni anglash, maqsadni aniqlash, asoslar tizimi va istagini namoyon etish kabi holatlarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy ongning tashkil etish, uyushtirish funksiyasi – huquq subyektlari xulqi, xatti-harakatlarini shakllantirish, uyushtirish, tashkil etishdan iborat bo'lib, u ijtimoiy hayot va taraqqiyot uchun juda muhim hisoblanadi. Shu ma'noda huquqning yaratuvchanlik, bunyodkorlik salohiyati xususida gapirish mumkin.

3-§. **Huquqiy tarbiya va uni amalga oshirish usullari**

Mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida huquqiy ong va madaniyat mavzusiga katta e'tibor berilgan. Shu ma'noda huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat masalalari bugungi kunda mamlakatimizning rivojlanishidagi asosiy dolzarb muammolardan bo'lib qoldi. «Tarbiya» atamasi kundalik hayotda insonlar muomalasida ko'p marotaba takrorlanadigan ijtimoiy kategoriyadir. Tarbiyalarning barcha turlari umumlashgan yagona tizimini ijtimoiy tarbiya o'zida mujassam etadi va u *siyosiy tarbiya, madaniy tarbiya, ma'naviy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya*, shuningdek, *huquqiy tarbiya* va boshqa tarbiya turlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy tarbiya tizimida tarbiyaning boshqa turlari singari huquqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning axloqiy, estetik, ma'naviy va boshqa shu kabi turlari negizida shakllanadi va rivoj topadi. Ya'ni, huquqiy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning barcha turlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jumladan, yuksak rivojlangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan har bir davlatning vazifasi o'z aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirishdir. Har qanday davlatning ijtimoiy rivojlanishi o'sha davlat fuqarolarining huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Zero, yuksak darajada rivojlangan huquqiy ong va huquqiy madaniyat huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ajralmas belgisidir. Yuksak darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat esa, huquqiy tarbiyaning mahsuli. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda huquqiy tarbiya asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'rifatparvar mutafakkir Abdulla Avloniy ham «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» deb bejiz ta'kidlamagan. Chunki «huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat» kabi bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va bir-birini to'ldirib turuvchi ushbu mantiqiy izchillikda va ketma-ketlikda joylashgan o'xshash kategoriyalar jamiyat huquqiy tizimining holatidan darak beradi.

Huquqiy tarbiya – murakkab va ko'p qirrali hodisadir, ya'ni uni bir ma'noli qilib ta'riflab bo'lmaydi. Huquqiy tarbiyaning ta'rifi bu jarayonning qaysi tomonini, jumladan, umum-ijtimoiy jihatini, huquqning ijtimoiy amal qilish tizimi sifatida yoki davlatning ijtimoiy boshqarish, huquqbuzarlikning oldini olish elementi sifatidagi vazifasi va shu kabilarni tadqiq qilishga bog'liq bo'ladi. Huquqiy tarbiya deganda shaxsning ongiga tashkiliy suratda va aniq maqsadni ko'zlab ta'sir ko'rsatishning maxsus yuridik turi tushuniladi.

Ma'lumki, «huquqiy tarbiya» kategoriyasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan va izohlar berilgan. *Huquqiy tarbiya* – shaxslar va ijtimoiy

guruhlarning huquqiy ongiga ko'rsatiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sir jarayonidir. Davlat va huquq nazariyasi bo'yicha darsliklarda huquqiy tarbiyaga keng ta'rif berish uchraydi, ya'ni «**huquqiy tarbiya** fuqarolarning ongi va ruhiyatiga ta'sir qilishga qaratilgan, huquqiy tarbiya shakllari, vositalari va uslublaridan foydalanib, fuqarolar ongida chuqur va barqaror huquqiy bilimlar, e'tiqodlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, qonunga mos fe'l-atvor, odatlarni shakllantirish jarayonidir»¹.

Demak, **huquqiy tarbiya** fuqarolarga huquqiy bilimni singdiruvchi muhim ijtimoiy vositadir. Tarbiyani keng va tor ma'noda tushunish mumkin.

Tor ma'nodagi tarbiya – huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan maxsus tashkil etilgan jarayon bo'lib, bunda shaxsni tarbiyalash uchun tarbiyaning barcha shakllari va usullari bir maqsadga qaratiladi, yo'naltiriladi. Uning tashkilotchilari, ya'ni asosiy subyektlari – ota-onalar, o'qituvchilar, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari va ularning boshliqlari va boshqalar hisoblanadilar.

Keng ma'nodagi tarbiya – shaxsning tarbiyalanishida uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qila oladigan, shaxslar tomonidan maxsus tashkil etilgan yoki tashkil etilmagan tarbiya jarayonlarining yig'indisi. Bunda oila, bog'cha, maktab, ish va yashash joylarida, bevosita profilaktika noziri tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy profilaktik ishlar tushuniladi. Mazkur jarayonlarda ko'pincha kuzatilishicha, muhit tarbiyaga ta'sir etadi, muhit o'zgarasa, tarbiyaning mohiyati va shaxslarning xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Shaxsning xatti-harakati ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning shakllanishiga yordam beradi.

Yuqoridagi ta'riflarning mazmunidan kelib chiqqan holda huquqiy tarbiyani ham tor va keng ma'noda izohlash mumkin.

Tor ma'nodagi huquqiy tarbiyada shaxslarning rasman yuridik o'quv yurtlarida oladigan huquqiy bilimlarining yig'indisi tushuniladi. Huquqiy tarbiya – shaxsning bir maqsad yo'lida, ongli ravishda jamiyat taraqqiyoti va siyosatidan kelib chiqib, olib boradigan bir tizimdagi ijobiy faoliyatidir. Huquqiy jihatdan shaxsning o'zini o'zi tarbiyalashi – bu ongli ravishda bir maqsad yo'lida, o'z xarakterida ijobiy-huquqiy yo'nalishni shakllantirishidir.

Keng ma'nodagi huquqiy tarbiya – shaxsning oila va bog'chada huquqiy bilim olishi, o'qishi, o'zining huquqiy bilimlarini mustaqil boyitishi, umuman o'z ustida mustaqil ishlashi orqali olinadigan huquqiy bilimlarining yig'indisidir.

Huquqiy tarbiyaga yuqorida berilgan izohlarni tahlil qilgan holda, **huquqiy tarbiya** – davlat organlari, nodavlat organlari, mansabdor shaxslar va alohida

¹ Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. – T., 2001. – 187–188-betlar.

shaxslar guruhining aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maxsus murabbiylik faoliyati hisoblanadi.

Tarbiya jarayonlarining yo'nalishlarini farqlashda qo'llaniladigan muhim mezonlardan biri – ong shakllarining turlicha ekanligi. Chunki, alohida olingan tarbiya jarayonlarining har qaysisi, inson ongining hamma tomonlarini emas, faqat uning ayrim ko'rinishlarini qamrab oladi. Masalan, siyosiy tarbiya – siyosiy ongni; ma'naviy tarbiya – ma'naviy ongni; estetik tarbiya – estetik ongni shakllantiradi va hokazo.

Tabiiyki, huquqiy tarbiya, ongning o'ziga xos shakli bo'lgan, huquqiy ong bilan bog'liq. Huquqiy tarbiya ikki xil vazifani bajaradi. Birinchisi – tarbiyalanuvchilarga ma'lum miqdordagi huquqiy bilimlar, ko'nikmalar va malakaning berilishi. Ikkinchisi – tarbiyalanuvchilarda huquqiy g'oyalar, xissiyotlar, e'tiqodni shakllantirish. Shu vazifalardan kelib chikib huquqiy tarbiyada fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish quyidagicha kechadi: *birinchidan*, asosiy huquqiy qoidalar tizimini bilish, ularning mazmuni va mohiyatini tug'ri tushunish; *ikkinchidan*, huquq, qonunlar, qonuniylik va huquqiy tartibotni chuqur hurmat qilish; *uchinchidan*, huquqiy bilimlarni amalda mustaqil qo'llay olish; *to'rtinchidan*, o'z odatlarini olingan huquqiy bilimlar bilan moslashtirish; beshinchidan, huquqiy normalarning har qanday buzishlariga nisbatan qat'iy murosasizlik ko'nikmasini hosil qilish.

Huquqiy tarbiya jarayoni odamlar orasida muayyan munosabatlar orqali amalga oshadi. Shu bois huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy tarbiya doirasiga kiradi. Unda tarbiyalanuvchilar (shaxslar, ijtimoiy guruhlar) huquqiy ongining shakllanishi ro'y beradi. Huquqiy tarbiya jarayonida kishilarning muayyan huquqiy bilim darajasiga ega bo'lishiga erishish maqsad qilib qo'yiladi. Ularning shaxsiy e'tiqodidan kelib chiqadigan qonunga, huquqqa bo'lgan hurmatni shakllantirish huquqiy tarbiyaning o'zagini tashkil etadi.

Mazkur qamrovga kiruvchi huquqiy ongning tarkibiy qismlari shaxsga nisbatan kerakli psixologik va mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni tashkil qiladi, uning o'z huquqiy bilimlarini turmushda faol tatbiq qila olishiga imkoniyat yaratadi. Mana shu tayyorgarlik darajasi huquqiy tarbiya ishlarining samaradorligi ifodasidir.

Huquqiy tarbiya-shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi, uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holda ta'sir ko'rsatishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin o'tmishda ham huquqiy tarbiyaga unchalik jiddiy e'tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda ham shaxsning aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi haqida so'z borar

edi-yu, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmasdi. Huquqiy tarbiyaning tarbiyaviy ishning mustaqil yo'nalishi sifatida belgilab qo'yilmaganligi o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Shubhasiz, huquqiy, siyosiy, va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan qo'shib yuborish ham mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida huquqiy tarbiyaning mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liq. Huquqiy tarbiya mustaqil huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa, tarbiyaning o'ziga xos shakllari va usullarini izlab topish hamda qo'llanish zaruriyatini taqozo etadi. Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan, huquqiy ongi shakllangan, huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi lozim. Huquqiy tarbiya tamoyillariga ilmiylik, amaliyot bilan uzviylik, o'ziga xoslikni ham kiritish mumkin. Huquqiy tarbiyaning ilmiyligi uni amalga oshirish jarayonida hozirgi zamon huquqiy va boshqa fanlari, avvalo, huquqiy faoliyat, shaxs tarbiyasi (sotsiologiya, ruhshunoslik, pedagogika va boshqalar) bilan bevosita munosabatdor yutuqlardan foydalanishni ifodalaydi. Ayni vaqtda, huquqiy tarbiyaning ilmiyligi uning mavjud holatini aks ettirmaydigan subyektivizm bilan, huquqiy voqelikni baholashda mafkuraviy andozalardan foydalanish bilan chiqisha olmaydi.

Davlatimizning rivojlanish istiqbollari har tomonlama bilimli, yuqori malakali yoshlar qo'lida bo'lib, bu ulardan yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lish huquqni puxta bilishni talab qiladi. Bozor iqtisodiga o'tish hamda huquqiy demokratik davlat qurish, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatning qaror topishini ta'minlash, aholini huquqiy jihatdan tarbiyalash va uning huquqiy ongini rivojlantirishga bog'liqdir.

Yuridik amaliyotda aholiniing huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida bir qancha **huquqiy tarbiya usullaridan** foydalaniladi. Chunonchi, ishontirish, axborotlashtirish, huquqiy targ'ibot, rag'batlantirish, majburlash va jazolash shular jumlasidandir.

4-§. Huquqiy madaniyat va uning tuzilishi

Huquqshunoslikda huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat kategoriyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va o'zaro uzviy aloqadordir. Huquqiy madaniyat – huquqiy ong va huquqiy tarbiyaning mahsuli. «Huquqiy madaniyat» tushunchasiga tavsif berishdan oldin «madaniyat» iborasining mazmun va mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir, chunki huquqiy madaniyat «*huquq*» va «*madaniyat*» kabi tushunchalarning

birlashmasi natijasida yuzaga kelgan va shakllangan. Madaniyatning umumiy ta'rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida «madaniyat» tushunchasi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin.

Misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, chet ellik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1919-yilga qadar «madaniyat» tushunchasiga yettita ta'rif berilgan, 1950-yilga kelib bu son 164 taga, 1970-yillarda esa – 250 taga yetgan¹. Amerikalik olimlar A. Kreber va K. Klakxonlar esa, 1950-yillarning boshida «madaniyat» tushunchasining 257 ta ta'rifi mavjudligini ta'kidlaganlar².

Ijtimoiy fanlar miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni antropologik, sotsiologik yondashuv va falsafiy yondashuv³ kabi uch guruhga bo'lish mumkin. *Antropologik yondashuvda* madaniyat tabiat yaratgan narsalardan farqli ravishda, inson tomonidan yaratilgan ne'matlarning yig'indisi deb tushuniladi. *Sotsiologik yondashuv* esa, madaniyatni ma'naviy qadriyat deb talqin etadi. Bu yerda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. *Falsafiy yondashuvda* madaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lmagan, sof tahliliy holda ajratilib ko'rsatiladi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning xilma-xil tomonlari va doiralarning namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Uning afzalligi «madaniy» va «huquqiy madaniyat» ni hayotda qo'llanish hollariga qarab taqqoslaganda yanada aniq ko'rinadi. Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, har bir muayyan holatda madaniyatning turlicha ko'rinishlarini tushinishda qat'iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo'ladi. Chunonchi, huquqiy hayotda, ma'rifatparvarlikning shakllanishini ta'minlashda, inson omilini oshirish nuqtayi nazaridan yondashilganda, avvalambor, huquqiy madaniyatning mazmuniga e'tibor qaratish zarurligi namoyon bo'ladi.

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni ta-

¹ Qarang: Fischer Hugo. *Theori der Kultur. Das kulturelle Kraftsteld.* Stuttgart, 1965; Боль А. *Социология культуры.* – М., 1973.

² Kroeber A, Kluchonu C. *Culture // Anaetical Review of Concepts and Debinifions.* Cambride. – Mass., 1952.

³ Qarang: Сальников В.П. *Социалистическая правовая культура.* – Саратов, 1989. – 5–12-betlar.

komillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'riladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta'minlash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'lib hisoblanadi. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining deyarli barcha chiqishlarida huquqiy madaniyatning ahamiyatiga, uni yuksaltirish masalalariga e'tibor qaratadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan (2016-yil 7-dekabr) ma'ruzasida shunday dedi: «Qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi»¹.

Sh. Mirziyoyev «Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalar va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: «Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali «Markaz – viloyat – tuman» tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi»².

«Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir. Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli choratadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi»³.

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 10-bet.

² Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: 2010. – 27-bet.

Shunday qilib, shaxs va jamiyatning huquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muhim natijasi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning ajralmas qismidir. Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topadi: *birinchidan*, yuridik normalar tizimi bo‘lmish huquq; *ikkinchidan*, huquqiy munosabatlar, ya’ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi; *uchinchidan*, huquqni muhofaza qilish va ta’minlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo‘lmish yuridik muassasalar; *to‘rtinchidan*, huquqiy ong, ya’ni huquqiy voqelikni ma’naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim; *beshinchidan*, huquqiy xatti-harakat (ham qonuniy, ham qonunga xilof).

Qonunchilikda, davlat-huquqiy qurilishda, huquqiy tartibga solish va huquqiy madaniyat institutlari hamda mexanizmlarida ko‘z o‘ngimizda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar, huquqiy rivojlanishning olamshumul, strategik istiqbollari va maqsadlari to‘g‘risida o‘ylash, mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy islohotlarni jahondagi huquqiy rivojlanish jarayoni bilan «muvofiqlashtirish», unda O‘zbekistonning o‘rni hamda ushbu o‘ringa mos islohotchilik yo‘nalishlari va maqsadlarini aniqlash zarur. Bizning milliy huquqiy tizimimiz butunlay yangi asosda, jahon huquqiy jarayonining yutug‘i bo‘lgan demokratik prinsiplar negizida yangidan yaratilganligi shubhasiz. Konstitutsiyadan boshlab deyarli barcha qonunlarimiz tub o‘zgarishga uchradi. Qonunlarimizda huquq mustaqil demokratik davlatning huquqi bo‘lgan bugungi kun voqeligi hisobga olindi. O‘zbekiston qonunlarida halqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalari o‘z ifodasini topdi va mustahkamlandi. Ular rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimining ilg‘or yutuqlarini davom ettirdi, qadimiy mamlakatimizning tarixiy-huquqiy tajribasini qamrab oldi.

Huquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs huquqlari va erkinliklari hajmining kengayishi, ularning himoyalanganlik darajasining kuchaytirilishi-dir. Huquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hamda madaniyatida uning oliy qadriyatining, ya’ni «barcha narsalarning mezon bo‘lgan inson»ning maqomini mustahkamlashga qaratilgan barcha huquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi. Huquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak huquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Xuddi shuningdek, huquq o‘ziga munosib oliy qadriyat o‘rnini olmas ekan, demokratik fuqarolik jamiyatini yaratib bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda xalqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalarining milliy huquqdan ustunligi e’tirof etilmoqda, bu huquqiy madaniyatimizga barcha ilg‘or taraqqiyot o‘zgarishlari uchun yo‘l ochmoqda, xalqaro huquqda o‘z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyatlar va ideallarni huquqiy madaniyatimiz rivojlanishi uchun mezon va yo‘nalish sifatida belgilamoqda.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi – huquqiy madaniyatdir. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng ko'lamli demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori madaniyatli bo'lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni yuridik adabiyotlarni o'qib, ularga amal qilsa, huquq buzilishi ham shunchalik kam bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» qabul kilindi. Unda mamlakat miqyosida aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish va huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, ommabop yuridik adabiyotlarni ko'paytirish, xalqning yuridik sohadagi bilimlarini oshirishga katta e'tibor qaratilib, jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Prezident Sh. Mirziyoev yuqoridagi Dasturning tarixiy ahamiyatiga munosib baho berib, ayni vaqtda quyidagilarni ta'kidladi: «Yigirma yil avval bu borada qabul qilingan Milliy dasturni yangidan ishlab chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Parlamentimiz jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha yangi Milliy dasturni yaratishda bosh-qosh bo'lishi maqsadga muvofiq, deb hisoblayman»¹.

Jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muayyan maqsadlar ko'zda tutiladi. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda huquqiy madaniyat bir qancha funksiyalarni bajaradi. Huquqiy madaniyatning regulyativ (tartibga soluvchi), normativ, sotsiologik (ijtimoiy) huquqiy, kommunikativ (aloqalar o'rnatish), prognostik (bashoratlash) **funksiyalari** shular jumlasidandir.

Huquqiy madaniyatning regulyativ funksiyasi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta'minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog'liq. Bu funksiya umumiy va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo'yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta'minlashga yordam beradi. Bu funksiya umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy va ma'naviy kafolat-

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligini va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 10-bet.

larni, ya'ni rostgo'ylik, insof, diyonat, ezgulik, shafqat, vijdon, insoniy qadriyat va tanlov erkinligini qamrab oladi.

Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi aksiologik (baholovchi) tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli hodisa va faktlarda, ma'lum bir ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy normalar boshqa jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil qiluvchi elementlarni baholovchi obyekt sifatida maydonga keladi.

Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi huquq normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariiga mos holda atrofdagi huquqiy voqelikni o'zgartirishda erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o'z aksini topadi. Huquqiy madaniyatdagi baholovchi faoliyat shaxs, huquq xizmatchilari jamiyati, qonunchilik, huquqiy tartib-intizom, huquqiy munosabatlar, huquqiy boshqaruv mexanizmi (tegishli huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan) «o'lchovidan» tashkil topadi.

Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi shaxsning huquqiy sifatleri shakllanishi tizimi orqali o'rganib chiqilishi mumkin. Shubhasiz bunday jarayonga huquqiy voqelik muayyan darajada ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta'limini tashkil qilish chorasini ko'rish, ularga yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini o'zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi. U fuqarolarning huquqiy doiradagi muloqotini ta'minlar ekan, shu muloqot orqali mavjud bo'ladi va ta'sir etadi. Bu yerda fuqarolarning faqat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti, shuningdek, bizga shaxsan notanish bo'lgan, bizdan makon va zamonda ajralib turgan tengdoshlarimiz, o'tmish avlodlarimiz bilan bevosita «muloqoti» nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma yuridik asarlar vositasida ta'minlanadi. Bugungi kunda u ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Huquqiy muloqot subyektlararo o'zaro ta'sir formulasi bo'lib, huquq doirasida erkin va kamyob mohiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Bu funksiyani o'zlashtirish huquqiy madaniy merosga, zamonaviy huquqiy madaniyatni uning boshqa ko'rinishlariga nisbatan o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir jamiyatning huquqiy madaniyati boshqa jamiyat huquqiy madaniyatining o'zaro ta'sirisiz muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Sovetlar davrida mamlakatimizning madaniyatini cheklashga urinish, jumladan, uning boy tarixiy, huquqiy merosidan uzishga intilish va zamonaviy davlatlar madaniy-huquqiy hayoti bilan har qanday aloqani cheklashga urinish qanday achinarli oqibatlariga olib kelgani ma'lum. Huquqiy madaniyat hozirgi va o'tmish davr huquqiy madaniyatining ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirishi lozim. Huquqiy

madaniyatning kommunikativ funksiyasi faqat «bugungi» huquqiy boshqaruv doirasida tashkil topish bilan cheklanmaydi. U huquqiy madaniyatning rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, huquqiy madaniyatni vujudga keltirish va uni rivojlantirish uchun zaruriy element sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy madaniyatning prognostik (bashorat qilish) funksiyasi huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash, qonunlar va huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquqqa mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos bo'lgan an'analarni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ilmiy bashorat qilish va rejalashtirishning elementlari qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda. Chunki qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur.

Huquqiy madaniyat bashoratlash ehtimoli bo'lgan o'ziga xos qadriyatlardan iborat. Bunday hollarda hatto ma'lum darajadagi noaniqlik yetarli asoslangan bashorat qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Huquqiy madaniyatga bevosita aloqador bo'lgan juda ko'p qarama-qarshiliklarga duch kelish mumkin. Bularning barchasi, albatta, huquqiy madaniyatga ta'sir qiladi. Shu bois huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy taraqqiyotning istiqboldagi ijobiy, yuksakroq ideal modelini ko'zlagan hamda tasavvur etgan holda ish tutish lozim.

XIV bob. HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Huquqiy munosabatlarning tushunchasi, tuzilishi va turlari

Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishi va ularni tartibga solishi masalasi davlat va huquq nazariyasi uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Jamiyat hayotida kishilar va ularning turli-tuman

tashkilotlari o'rtasida son-sanoqsiz moddiy, moliyaviy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlar (aloqalar) mavjud bo'ladi. Ma'rifiy jamiyatda ushbu munosabatlar axloqiy, diniy, korporativ va boshqa ko'plab ijtimoiy normalar bilan batartiblashtiriladi, tashkillashtiriladi va yo'naltiriladi. Ijtimoiy munosabatlarining muayyan qismi huquq normalari bilan tartibga solinib, ularga barqarorlik, izchillik, maqsad sari yo'naltirilganlik xususiyatlari baxsh etiladi. Ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi *huquqiy munosabatlarni* tashkil qiladi. Huquq normalari o'z vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi; huquq talablari ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantiriladi va shu tariqa munosabatlar tartibga solinib, huquq hayotga tatbiq etiladi.

Huquqiy munosabat – o'zaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog'liq shaxslar (ya'ni, fuqarolar va yuridik shaxslar) o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Huquqiy munosabat ta'rifidagi asosiy narsa, avvalo, bu tomonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishdir. Bunday munosabatlarda kamida ikki tomon – huquq sohiblari ishtirok etib, o'zaro muloqotga kirishadilar.

Huquq sohiblari bir-birlari oldida tegishli subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarni o'taydilar. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari bir-biri bilan o'zaro mutanosib tarzda bog'liq; bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning majburiyati muvofiq keladi; har doim huquq subyekti bo'lgan shaxs qarshisida majburiyat o'tovchi shaxs gavdalanadi. Masalan, ishga kirish bilan bog'liq huquqiy munosabatni olaylik. Bunda, ishga qabul qilingan xodim zimmasida muayyan mehnat faoliyatini amalga oshirish majburiyati, korxonada ma'muriyatida esa, mehnat intizomiga rioya qilishni talab etish huquqi va bajarilgan ish uchun tegishli ish haqi to'lash majburiyati (bu, ayni vaqtda, huquq hamdir) paydo bo'ladi. Shu bilan birga, ikkala subyekt

ham qonunda belgilangan qator huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Yuridik adabiyotda huquqiy munosabatlarning tabiati masalasi ancha mu-nozarali. Bir guruh olimlar huquqiy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi, deb hisoblaydilar (L.S. Yavich¹, V.K. Babayev², Yu.I. Grevsev³ va boshqalar). Boshqa mutaxassislarining ta'kidlashicha: «Huquqiy munosabat-lar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi emas, ya'ni ular mulkiy, mehnat, oilaviy, boshqaruv munosabatlari silsilasida mustaqil o'rin tutmaydi: huquqiy munosabatlar faqat ularning yuridik shakli, tashqi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi... Ijtimoiy munosabatlar huquqiy shaklga ega bo'lishi mumkin, bunda ular huquqiy munosabatlar, deb ataladi»⁴. To'g'ri, ijtimoiy munosabatlarning hammasi ham huquqiy normalar vositasida tartibga solinmaydi. Odatda, davlat va jamiyat manfaatlarini nuqtayi nazaridan eng muhim ijtimoiy munosabatlar huquq bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy munosabatlarning qolgan qismi axloq normalari, siyosiy normalar, jamoat birlashmalari normalari, odat qoidalari, diniy normalar va hokazolar bilan tartibga solinadi.

Huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyat va maxsus belgilar bilan tavsiflanadi:

a) huquqiy munosabat – ijtimoiy tUSDagi munosabat, ya'ni insonlar o'rtasidagi munosabat bo'lib, bu ularning faoliyati, xulq-atvori bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, mulkdor buyumga nisbatan ma'lum huquqlarga ega. Bi-roq, bu huquqlar kundalik hayotda amalga oshishi uchun mulkdor mazkur buyum ustidan boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishi lozim. Xususan, mulkdor shaxs buyumni boshqa kishiga sotishi, o'zining mulkdan foydalanish huquqini birovga o'tkazishi, mulkni hadya qilishi, ijaraga berishi mumkin. Ayni paytda, ulardan o'zining mulk huquqiga rioya etishlarini talab qila oladi.

Huquqiy munosabat har qanday ijtimoiy munosabat kabi insonlarning ongli faoliyati natijasidir. Odatda, huquqiy aloqalar kishilarning ongli va oqilona faoliyati natijasi hisoblanadi. Huquqiy munosabat ijtimoiy munosabatning max-sus ko'rinishi sifatida rang-barang, hayotning butun borlig'i va boyligi bilan uzviy bog'liq hamda mazmunan u bilan belgilanadi. Har qanday ustqurma hodisa kabi huquqiy munosabatlar ham moddiy (iqtisodiy) munosabatlarga tayanadi. Bu fikrga yana shuni qo'shimcha qilish mumkin: huquqiy muno-sabatlar, nafaqat, iqtisodiy munosabatlarga, balki hayotda huquqning mavjud bo'lishini taqozo etadigan barcha holatlarga (omillarga) ham tayanadi.

¹ Явич Л.С. Право и общественные отношения. – М., 1987. – 11–23-бетлар.

² Общая теория права. Под ред. В.К. Бабаева. – Н. Новгород, 1993. – 405–407-бетлар.

³ Гревцев Ю.И. Правовые отношения и осуществление права. – Л., 1987. – 29–42-бетлар.

⁴ Qarang: Лазарев В.В., Липень С.В. Теория государства и права. – М., 1998. – 290–291-бетлар.

Huquqiy munosabatlarni ta'riflaganda hamisha e'tibor beriladigan muhim sifatlardan biri ularning *mafkuraviy tabiatidir*. Mafkuraviylikni sobiq totalitar tuzumdagi sinfiylik bilan aralashtirib yubormaslik lozim. O'z mohiyatiga ko'ra, mafkura ijtimoiy-siyosiy hayotga oid turli qarashlar, fikrlar va nazariyalar tizimidir. Masalan, erkin bozor va tadbirkorlik munosabatlariga o'tish g'oyasi, falsafasi, mafkuradir; davlat va jamiyatning dinga munosabati ifodasi ham mafkura; aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish ham davlat va jamiyatning mafkurasini va hokazo. Shuningdek, huquq va unga mos huquqiy munosabatlar moddiy hayot va moddiy munosabatlarning shakli sifatida hamisha mafkuraviy hodisalar bo'lib qolaveradi. Mafkuraviylikning yana bir xususiyati shundaki, huquqiy munosabatlar, avvalambor, kishilar ongi orqali o'tib (huquqiy ong sifatida mavjud bo'lib), so'ng real voqelikka aylanadi.

b) huquqiy munosabat – huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga ta'siri natijasida vujudga keladigan munosabat. Huquq normasi bilan huquqiy munosabat o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Hayotda faqat yuridik normalarda nazarda tutilgan huquqiy munosabatlarga mavjud. Kishilar o'rtasidagi muayyan munosabatlarga huquqiy norma qo'llanilgach, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi. Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini ixtiyoriy hodisa emas, balki qonuniyatli jarayon deb tushunish lozim. Buning sharti shuki, huquqiy normalar tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan, bevosita huquqiy voqelikdan kelib chiqishi kerak, chunki huquqiy normalar munosabatlarni tug'diruvchi sabab bo'lishdan avval ushbu munosabatlar ichki rivojlanishning oqibati, ularning zaruriy, mohiyatiga oid maxsus belgisi bo'lganligidir¹.

d) huquqiy munosabat – bu kishilarning o'zaro subyektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar vositasidagi aloqalaridir. Bu ijtimoiy aloqaning alohida shakli. Ya'ni, huquq normalari bilan mustahkamlangan huquq va majburiyatlar orqali amalga oshadigan aloqadir. Subyektiv huquq egasi – huquqdor, vakolatli shaxs; yuridik majburiyatlar egasi – majburiyat o'tovchi shaxsdir. Har qanday huquqiy munosabatda huquqdor shaxs qarshisida majburiyat o'tovchi shaxs (inson, tashkilot, davlat idorasi) hozir bo'ladi. Xuddi shu ma'noda huquqiy munosabat individuallashtirilgan (ya'ni, shaxsi aniqlangan) aloqa hisoblanadi.

Shaxsini belgilash *nomma-nom va ijtimoiy vazifani bajarishdagi rolga* qarab ikki ko'rinishda bo'ladi.

Shaxsini nomma-nom belgilashda huquq sohiblari o'z ismi-shariflari, tashkilotlar esa, o'zlarining to'liq unsurlari bilan nomlanadilar. Masalan, nikoh

¹ Дудин А.П. Диалектика правоотношения. – Саратов, 1984. – 13-бет.

munosabatlariga kirishuvchi shaxslarning aniq ism-shariflari ifoda etiladi. Yoki mahsulot yetkazib berish, yuk tashib berish munosabatlariga kirishgan tashkilotlarning barcha unsurlari, to'liq nomlanishi va boshqa muhim belgilari aniq ko'rsatiladi.

Ikkinchi holatda subyektlarni nomma-nom yoki unsurlar(rekvizitlar)ga qarab belgilash talab etilmaydi. Faqat ularning ijtimoiy roli, vazifasi ta'kidlanadi. Masalan, oldi-sotdi munosabatlarida bir tomon-sotuvchi, ikkinchi tomon – xaridor. Yoki ma'muriy huquq buzilishi munosabatlarida bir tomonda-militsiya xodimi, ikkinchi tomonda – fuqaro va hokazo.

e) huquqiy munosabat – irodaviy munosabatdir. Ma'lumki, huquqiy normalarda davlat irodasi ifoda etiladi. Shu bilan birga huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun uni ishtirokchilarining ham istagi, xohishi talab qilinadi. Shunday huquqiy munosabatlar borki, ularning vujudga kelishi uchun barcha ishtirokchilarning xohish-irodasi bayon etilishi lozim. Masalan, nikohga kirayotgan har ikki tomon o'z xohishini bildirishi lozim yoki oldi-sotdi munosabati sotuvchi bilan xaridorning xohish-irodasi tufayligina amalga oshishi mumkin. Ba'zi huquqiy munosabatlarda bir tomon irodani bayon etsa, yetarli hisoblanadi. Bunday huquqiy munosabatlar, masalan, ma'muriy ishlar yoki huquqni muhofaza etuvchi idoralar amri bilan qo'zg'atiladigan jinoyat ishlari bo'lishi mumkin.

f) huquqiy munosabat – davlat tomonidan qo'riqlanadigan munosabatdir. Yuridik normalarda davlat irodasi va jamiyat manfaatleri aks ettirilganligi bois davlat ularning talablari to'la-to'kis bajarilishini nazorat qilib boradi. Huquqiy qoidalar ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda davlatning majburlash kuchi ishga solinadi. Davlat huquqni qo'riqlash orqali, ayni vaqtda, huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarni ham qo'riqlaydi. Huquqiy munosabatlar davlat tomonidan maxsus tarzda qo'riqlanishi bilan ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlaridan farq qiladi. Davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqiy munosabatlar tizimi jamiyatdagi huquqiy tartibotning asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, **huquqiy munosabat** – huquqiy normalarning kishilar xatti-harakati, xulq-atvoriga ta'sir etishi oqibatida vujudga keladigan, davlat tomonidan qo'riqlanadigan hamda uning ishtirokchilarida subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir. Jamiyat hayotida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar nihoyatda turli-tumandir. Ularni bir qancha mezonlar asosida tasniflash mumkin. Huquqiy munosabatlarni quyidagi mezonlar asosida guruhlash, turlarga ajratish, ya'ni tasniflash maqsadga muvofiq:

Huquq sohasiga ko'ra, ya'ni huquq normalarining muayyan huquq sohasiga tegishliligiga qarab huquqiy munosabatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

davlat-huquqiy (konstitutsiyaviy) munosabatlar; fuqaroviy-huquqiy munosabatlar; jinoiy-huquqiy munosabatlar; mehnat-huquqiy munosabatlari; moliyaviy-huquqiy munosabatlar va hokazo. Shuningdek, mazkur tasniflash doirasida moddiy va protsessual huquqiy munosabatlar; xususiy-huquqiy hamda ommaviy-huquqiy munosabatlar haqida gapirish lozim.

Huquqiy munosabatlar o'z mazmuniga ko'ra, tartibga soluvchi (regulyativ) va qo'riqlovchi (negativ) turlarga ajratiladi. Bu yerda tasniflash mezonini – huquqning dinamik va statik, ya'ni tartibga soluvchi funksiyalaridir. Tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar huquq subyektlarining mo'tadil xulq-atvori, ya'ni huquqqa muvofiq xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan munosabatlardir. Qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar – huquqbuzarlik sodir etish va buning uchun jazo tarzida davlat majburlov chorasini qo'llash zaruriyati asosida kelib chiqadigan munosabatlardir.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari tengligi yoki hokimlik-bo'ysunish (iyerarxik) tarzidaligiga qarab bu munosabatlar farqlanadi. Tomonlar huquq va majburiyatlarining tengligiga asoslangan (avtonom) huquqiy munosabatlar, masalan, fuqaroviy-huquqiy, oilaviy-huquqiy munosabatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Hokimlik va bo'ysunish (ya'ni, avtoritar) mazmunidagi huquqiy munosabatlar, jumladan, jinoiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy munosabatlar shaklida bo'ladi. Bunda bir taraf ustuvor huquqqa, hokimiyat vakolatlariga ega. Ikkinchi taraf esa, bo'ysunish holatida bo'lib, asosan majburiyat o'taydi.

Adabiyotlarda kompleks huquqiy munosabatlar haqida ham so'z yuritiladi. Bunday munosabatlar uzoq davom etuvchi, nisbatan turg'un, murakkab tarkibli bo'lib, ulardagi o'zaro huquq va majburiyatlar ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi munosabatlarga er-xotin o'rtasidagi yoki korxonada ma'muriyati bilan xodim o'rtasidagi munosabatlar va boshqalar misol bo'la oladi. Kompleks huquqiy munosabatlar, o'z navbatida, bir necha oddiy huquqiy munosabatlarga bo'linadi. Kompleks huquqiy munosabatlar ular tarkibiga kiruvchi oddiy huquqiy munosabatlardan o'zining vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi asoslariga (yuridik faktlarga) ko'ra farq qiladi.

Huquqiy munosabatlar umumiy va aniq (konkret), mutlaq va nisbiy turlarga ham bo'linadi. Umumiy huquqiy munosabatlar deganda, avvalo, fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va majburiyatlarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy normalar asosida vujudga keluvchi munosabatlar tushuniladi. Fuqarolar qonunda nazarda tutilgan vakolatlariga ega bo'lgach, barcha u yoki bu huquq subyektlari bilan huquqiy aloqadorlikda hisoblanadilar. Basharti, mazkur huquq va erkinliklar amalga oshirilsa, *aniq huquqiy munosabat* vu-

judga keladi. Aniq huquqiy munosabatlar jinoyat, fuqarolik, mehnat, oila, soliq, uy-joy va boshqa kodekslar maxsus qismidagi moddalarning qo'llanishi asosida kelib chiqishi mumkin. Bunda qonunda mustahkamlangan aniq huquqning ta'minlanishi uchun muayyan subyekt tegishli yuridik majburiyatni ado etadi.

Mutlaq huquqiy munosabatlarda bir taraf aniq ma'lum bo'ladi – bu subyektiv huquq egasidir. Qolgan barcha subyektlar majburiyat o'tovchi tomon bo'ladilar, ya'ni vakolatli shaxs subyektiv huquqlarning amalga oshirilishiga qarshilik qilmasligi lozim. Bunday huquqiy munosabatga mulkchilik munosabatlari misol bo'ladi.

Nisbiy huquqiy munosabatlarda barcha ishtirokchilar (taraflar) aniq belgilangan bo'ladi, ya'ni huquq egasi ham, majburiyat o'tuvchi tomon ham ma'lum bo'ladi. Masalan, sotuvchi va xaridor, buyurtmachi va pudratchi, ma'muriyat rahbari va xodim.

Huquqiy munosabatlar o'z ichki tuzilishiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlar (elementlar) dan iborat:

a) huquqiy munosabatlarning subyektlari (ishtirokchilari);

b) huquqiy munosabatlarning obyeksi;

d) huquqiy munosabatning mazmunini tashkil etuvchi subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar.

2-§. Huquqiy munosabatlarning subyektlari

Huquqiy munosabat, avvalambor, insonlar (kishilar jamoasi) o'rtasidagi aloqa, bog'lanish, munosabat bo'lib, o'z ishtirokchilariga, taraflariga ega. Har qanday munosabat ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasidagi aloqa, muloqot sifatida talqin etiladi. Tegishli subyektlarning mavjud bo'lishi huquqiy munosabatlar amalga oshirishining muqarrar sharti hisoblanadi.

Huquqiy munosabatlar subyektlari – huquqiy normalar tufayli muayyan munosabatlar ishtirokchisi hamda subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar egasi bo'lgan insonlar yoki tashkilotlardir. Ushbu ta'rifdan ma'lum bo'lishicha, huquqiy munosabatlar subyektlari ikki toifaga bo'linadi: insonlar (jismoniy shaxslar) va tashkilotlar (jamoaviy subyektlar). Jismoniy shaxslarga tegishli davlatning fuqarolari, shu mamlakat hududida turgan xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. Huquqning jamoaviy subyektlariga turli-tuman davlat va nodavlat tashkilotlar hamda idoralar, shuningdek davlatning o'zi ham kiradi. Jamoaviy subyektlar sifatida ba'zan ijtimoiy birgaliklar ham tushuniladi: masalan, referendum yoki saylovlar o'tkazilgan chog'da – xalq, saylovchilar (elektorat) ana shunday subyekt hisoblanadi. Fuqaroviy-

huquqiy munosabatlarda jamoaviy subyektlar *yuridik shaxslar* sifatida maydonga chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida jismoniy va yuridik shaxslar ta'rifi berilgan. ***Fuqarolar (jismoniy shaxslar)*** deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Qonun barcha fuqarolarning teng ravishda huquq va burchlarga ega bo'lish qobiliyatini (*huquqiy layoqatini*) e'tirof etadi. Kodeksning 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasi bayon etilgan. Unga muvofiq, o'z mulkiga, xo'jalik yuritishida yoki kundalik boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan javob bera oladigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot ***yuridik shaxs*** hisoblanadi.

Yuridik shaxsning *huquqiy layoqati* va *muomala layoqati* bir vaqtda, ya'ni u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi. Yuridik shaxslar – davlat, davlat idoralari, jamoat va shirkat tashkilotlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari, ba'zan yakka tadbirkor ham.

Davlat idoralari va nodavlat tashkilotlar quyidagi hollarda huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'ladilar:

- a) o'zlarining hokimiyat yoki qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirish orqali;
- b) jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida (faoliyatida) ishtirok etish orqali;
- d) xo'jalik va mulkiy munosabat bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish orqali.

Davlatning o'zi to'lig'icha huquq egasi bo'lish holatlari ham mavjud. Masalan, *xalqaro huquqiy munosabatlarda*, ya'ni xorijiy davlatlar bilan muvoqotga kirishganda; *davlat-huquqiy munosabatlarda*, ya'ni federatsiya bilan uning subyektlari o'rtasida aloqalar amalga oshganda, yoki davlat fuqaroligiga qabul qilishda, yoxud davlat o'z fuqarosiga faxriy unvonlar berganda va h.k.; *fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda*, ya'ni davlat mulki bilan bog'liq munosabatlarda, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan tarixiy, milliy, ilmiy, madaniy va moddiy boyliklarga davlat merosxo'r (voris) bo'lgan hollarda; *jinoiy-huquqiy munosabatlarda*, ya'ni jinoiy ish bo'yicha hukm yoki fuqarolik ishi bo'yicha hal qiluv qarori davlat nomidan e'lon qilinadi.

Davlat ishtirok etadigan mulkiy munosabatlar davlat mulki, tashqi savdo, kredit, boj va qarz masalalarida vujudga keladi. Ba'zi hollarda davlat yagona huquq subyekti sifatida maydonga chiqadi. Masalan, Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga muvofiq, O'zbekistonda yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmon, temir yo'l, havo va suv transportiga, aloqa vositalariga egalik qilish huquqi faqat davlatga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi – xalqaro huquqiy munosabatlar subyekti, ya'ni ma'lum huquq va majburiyatlar egasidir.

Huquqiy munosabatning subyekti bo'lish uchun tashkilot yoki jismoniy shaxs huquqdorlik maqomiga ega bo'lishi lozim. Faqat huquqdor, ya'ni huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar **huquqiy munosabat ishtirokchisi** deb tan olinadi.

Huquqdorlik – huquq sohibi, huquqiy aloqalar ishtirokchisi bo'lish qobiliyatidir.

Huquqiy layoqat – shaxsning huquq normalariga muvofiq subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'la olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, huquqiy layoqat jismoniy va yuridik shaxslarning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyati, qonunda nazarda tutilgan turli munosabatlarga kirishi qobiliyatidir. Insonlarda huquqiy layoqat ular tug'ilgan paytda paydo bo'lib, vafot etgunicha mavjud bo'ladi. Huquq normalari huquqiy munosabat subyektlarining ular huquqiy layoqatiga mos tarzda harakatlanish mezoni va chegarasini belgilaydi. Huquq nazariyasida huquqiy layoqatning uch turi farqlanadi: umumiy, sohaviy va maxsus.

Umumiy huquqiy layoqat – har qanday shaxsning, yoki tashkilotning umuman huquq subyekti bo'la olish imkoniyatidir. Bu imkoniyat tug'ilgan (tashkil topgandan) boshlab mavjud bo'ladi.

Sohaviy huquqiy layoqat – shaxs yoki tashkilotning u yoki bu huquq sohasida subyekt bo'la olish yuridik qobiliyati. Turli huquq sohalarida subyekt bo'lish uchun har xil talablar belgilangan.

Maxsus huquqiy layoqat – muayyan lavozimni prezident, sudya, prokuror va h.k. egallash munosabati bilan vujudga keladigan huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish qobiliyati. Bunday layoqat shaxsning muayyan huquq subyekti toifasiga mansub bo'lishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin (masalan, huquqni muhofaza etish organi xodimi).

Huquqiy muomala layoqati – jismoniy va yuridik shaxsning o'ziga tegishli huquqini o'zi bevosita amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Muomala layoqati qonunda belgilangan shaxslar tomonidan o'z harakatlari bilan subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatidir. Muomala layoqatining mazmuni, ko'lami va amalga oshirish shartlari huquq normalari bilan belgilanadi.

Demokratik jamiyatda huquq layoqati va muomala layoqati uni chindan ham amalga oshirish imkoniyatlari bilan ta'minlanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, barcha fuqarolar huquq layoqatiga ega hisoblanadilar. Biroq, har bir fuqaro ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydi. Xususan, O'zbekistonda muomala layoqati balog'at chog'i, voyaga yetish kunidan boshlab yuzaga chiqadi. Ayrim huquq tarmoqlarida huquq layoqati va muomala layoqati bir vaqtda paydo bo'ladi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq sohasida asosiy huquq va majburiyatlarga ega bo'lish o'n sakkiz yoshdan boshlanadi.

Mehnat-huquqiy munosabatlarida huquq layoqati va muomala layoqati 16 yoshdan, oila-nikoh munosabatlarida 18 yoshdan (O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra ayollar 17 yoshdan) qatnasha oladilar. Jinoiy-huquqiy munosabatlarda jinoiy javobgarlikka tortilish 16 yoshdan, og'ir jinoyatlarda huquq layoqati va muomala layoqati 14 yoshdan, ba'zan hatto 13 yoshdan paydo bo'ladi (masalan, javobgarlikni og'irlashtiradigan holatda qasddan odam o'ldirish jinoyatida).

Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda huquq layoqati va muomala layoqati har doim ham birga (bir vaqtda) vujudga kelmaydi. Fuqaroning o'z harakati bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va ularni amalga oshirishi, o'zi uchun fuqarolik majburiyatlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Aytish joizki, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi (Fuqarolik kodeksining 22-modasi). Shuningdek, ushbu qonunda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha va o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati ko'lami belgilangan (27 va 29-moddalar).

Huquqiy munosabat subyekti o'z xatti-harakati, nojo'ya xulq-atvori va huquqbuzarlik oqibati, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'tay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Gap **delikt layoqati** haqida bormoqda. «Delikt» lot. – huquqbuzarlik, noqonuniy xatti-harakat, ya'ni shaxsning sodir etilgan huquqbuzarligi, jinoyati uchun javob bera olish layoqatini anglatadi. Mazkur layoqat sohibi hisoblanayotgan shaxs aqli raso, ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi va o'z xatti-harakatlari oqibati uchun to'la javobgarlikni zimmasiga olishga layoqatli bo'lishi lozim.

Huquqdorlik tushunchasi tarkibida huquqiy layoqat muhim belgilovchi o'rinni egallaydi. Muomala layoqati bilan delikt layoqati esa, undan kelib chiqadi. Chunki, shaxs huquq layoqatiga ega bo'lmasa, huquqni amalga oshirishi yoki tegishli javobgarlikni o'tashi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

3-§. Huquqiy munosabatlarning obyekti

Huquqiy munosabatlar tarkibiy tuzilishining zaruriy qismlaridan yana biri – ularning obyektidir. «Obyekt» – lot. objektum – soʻzidan olingan boʻlib, «narsa», «mavzu» de-

gan maʼnoni anglatadi. Har qanday huquqiy munosabat uning zamirida yotgan hayotiy hodisalarni, narsa va jarayonlarni tartibga solish vazifasini oʻtaydi. Shu bois, obyeksiz, yaʼni hech narsaga qaratilmagan, hech narsaga taʼsir koʻrsatmaydigan huquqiy munosabatlar boʻlmaydi.

Huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan subyektlarning diqqat-eʼtibori, manfaati, xatti-harakati qaratilgan real neʼmat, aniq narsa, jarayon, harakatlari *huquqiy munosabatning obyekti* deb ataladi. Masalan, uy-joy oldi-sotdi shartnomaviy munosabatining obyektini uy-joy tashkil etadi; odam oʻldirish jinoyatining obyekti – insonning hayoti; birovni haqorat qilish fuqaroviy, maʼmuriy va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu huquqiy munosabatlar obyektini shaxsning shaʼni, qadr-qimmatini, obroʻ-eʼtibori tashkil etadi.

Huquqiy munosabatlarning obyekti hayot hodisalari kabi turli-tumandir. Ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Moddiy olam neʼmatlari. Ularga buyum, ashyolar kiradi. Yuridik maʼnoda buyumlar – tabiat neʼmatlari va mehnat faoliyati jarayonida yaratilgan narsalar boʻlib, ular yuzasidan huquqiy munosabatlar kelib chiqadi. Buyum (ashyo) lar toifasiga: ishlab chiqarish qurol-vositalari, isteʼmol mollari, pul, qimmatli qogʻozlar, moddiy mahsulotlar va boshqalar kiradi. Masalan, moddiy olam neʼmatlari obyekti boʻluvchi huquqiy munosabatlarga oldi-sotdi, mahsulot ayirboshlash, hadya, meros kabi munosabatlar kiradi.

Maʼnaviy ijod mahsulotlari. Bu intellektual-aqliy faoliyat natijasidir. Unga madaniyat, sanʼat, tasviriy ijod, kino, adabiyot asarlari va boshqalar kiradi.

Intellektual-aqliy ijod mahsullari yuzasidan ham turli-tuman huquqiy munosabatlar kelib chiqadi. Sanʼat va adabiyot asarlarini yaratgan shaxs mualliflik huquqiga daʼvogar boʻladi. Muzey, koʻrgazma, sheʼriyat kechasiga borgan shaxslarda ana shu ijod mahsulotlariga qiziqish paydo boʻladi. Bu munosabatning obyekti – maʼnaviy boyliklardir. Ijod mahsulotlari oldi-sotdi, hadya, ijara, foydalanish kabi huquqiy munosabatlarning obyekti boʻlishi mumkin.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining xulq-atvori va uning oqibatlari. Inson faoliyati, xulq-atvori huquqiy munosabatlar vositasida tartibga solinuvchi obyekt sifatida namoyon boʻladi. Aksariyat hollarda majburiyat oʻtovchi subyektning xulq-atvori huquqiy munosabat obyekti boʻladi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga muvofiq, ichki ishlar idoralari jazoni oʻtab qaytgan shaxslar ustidan maʼmuriy

nazorat o'rnatadi va uni amalga oshiradi. Bunda nazorat ostida bo'luvchi shaxsning faoliyati, yurish-turishi, xulq-atvori ichki ishlar organi bilan jazo o'tab chiqqan shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatning obyekti bo'ladi.

Xulq-atvorning natijasi deganda, u yoki bu harakat (harakatsizlik) keltirib chiqaradigan oqibat tushuniladi. Ko'pgina huquqiy munosabatlar muayyan oqibatga erishish uchun o'rnatiladi va amalga oshiriladi. Bu holatda xulq-atvor emas, balki uning natijasi huquqiy munosabatning obyekti sanaladi. Masalan, yuk tashish shartnomasi asosida kelib chiquvchi huquqiy munosabatni olaylik. Bunda huquqdor shaxsni (yuk qabul qilib oluvchi tomonni) majburiyat o'tovchi shaxsning qanday xatti-harakatlar sodir etishi qiziqitirmaydi. Balki uning harakatlari natijasi, ya'ni yukni muayyan muddatda belgilangan joyga yetkazib berishi qiziqtiradi.

Shaxsiy nomulkiy ne'matlar. Huquqiy munosabatning shaxsiy nomulkiy obyekti deganda nomoddiy ne'matlar, insonning bevosita shaxsiyati bilan bog'liq narsalar tushuniladi. Bular – insonning hayoti, qadr-qimmati, sha'ni, sog'lig'i kabilar. Insonni hayotdan mahrum etish jinoyatdir. Deyarli barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida inson hayotiga tajovuz qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, obro'e'tibori, qadr-qimmati fuqarolik, ma'muriy, nikoh va oila hamda boshqa qonunchilik sohalari normalari bilan muhofaza etiladi.

4-§. Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar

Huquqiy munosabat uning ishtirokchilarida o'zaro subyektiv huquq va majburiyatlar mavjud bo'lishini anglatadi. Subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Chunki, ularni o'zaro bog'liqlikda tahlil etish orqali huquqiy munosabatning tabiati va maqsadi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Subyektiv huquq – huquqdor (vakolatli) shaxsning huquq normalari doirasida hamda muayyan yuridik faktlar asosida vujudga keluvchi xatti-harakati, fe'l-atvorining me'yoridir. Shuningdek, subyektiv huquq – huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquq normasiga asosan unda nazarda tutilgan harakatni sodir qilishga haqli ekanini yoki ularning ma'lum harakatlarning amalga oshirilishini talab qilish vakolatini bildiradi. Subyektiv huquq qonun bilan beriladigan va davlat tomonidan muhofazalanadigan xulq-atvorning mumkin bo'lgan (ruxsat etilgan) chegarasi, ko'lami bo'lib, u asosan shaxsning imkoniyati sifatida baholanadi va uning qonuniy manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

Subyektiv huquqning mazmunini aks ettiruvchi jihat – *huquqiy vakolat* hisoblanib, u uch xil bo'ladi:

O'z xatti-harakatlarini amalga oshirish yuzasidan bo'lgan huquqiy vakolatlar. Bunga misol: mulkdor o'ziga tegishli mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlariga ega ekanligidir; o'z harakatlarini sodir etish huquqi qonunchilik normalari yoki boshqa shaxslarning subyektiv huquqlari bilan cheklanishi mumkin.

O'zgalarning xatti-harakatiga bo'lgan huquqiy vakolat. Bunda subyektiv huquq javobgar shaxs tomonidan muayyan harakatlar sodir etilgan taqdirdagina amalga oshadi. Masalan, qarz shartnomasi bo'yicha pulni qaytarishni talab etish huquqi.

Talab tarzidagi huquqiy vakolat. Bu vakolatli davlat organiga murojaat etib, muayyan majburiyatning bajarilishini talab etish imkoniyatidir. Masalan, sudga murojaat etib, aliment to'lanishini talab qilish huquqi. Shunday qilib, subyektiv huquqning amalga oshishi huquqiy vakolat egasi bo'lgan shaxsning ixtiyori, istagi va irodasiga bog'liqdir.

Subyektiv huquq hamisha erkinlik (ozodlik) bilan uzviy bog'liq. U – erkinlik me'yori. Mabodo, erkinlikning bu me'yori nolga teng bo'lsa, har qanday munosabat o'zining huquqiy tabiatini yo'qotadi¹. Basharti, subyektiv huquq o'zga shaxs yoki tashkilot tomonidan buzilsa, huquqiy vakolat egasida buzilgan huquqini muhofaza etilishini talab qilib, murojaat etish imkoniyati paydo bo'ladi. Mazkur vaziyatda davlatning huquqni qo'riqlash faoliyati namoyon bo'ladi.

Yuridik majburiyat – huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan o'zlarining burchi (majburiyati) bo'lgan harakatni amalga oshirishlari yoki ba'zi harakatni sodir etishdan o'zlarini tiyishlaridir.

Shaxs yuridik majburiyatlarni o'tash tufayli huquqiy munosabatning ikkinchi ishtirokchisi subyektiv huquqi amalga oshishini ta'minlaydi. Agar huquqimizga muqobil turuvchi majburiyat o'tovchi shaxs bo'lmasa va u subyekt qonun talab etgan xatti-harakatlarni sodir etmasa (yoki biron-bir harakatdan o'zini tiymasa), bizning huquqimiz quruq gapdan boshqa narsa emas.

Yuridik majburiyat qonunga muvofiq talab etiladigan, bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdir. Agar subyektiv huquqdan foydalanish ixtiyoriy bo'lib, undan foydalanmaslik ham mumkin bo'lsa, yuridik majburiyatni bajarmaslik mumkin emas.

G.F. Shershenevich yuridik majburiyat nima deb savol qo'yadi va unga shunday javob beradi: bu eng avvalo, «o'z irodang chegaralanganligini,

¹ Qarang: Варламова Н.В. Правоотношения: философский и юридический подходы. – Правоведение. 1991, № 4. – 51-bet.

o'zganing manfaati bilan bog'langanligini anglashdir». Inson o'z xulq – atvorini unga tashqaridan bo'ladigan talablarga muvofiqlashtirishga majbur qilinadi. Majburiyatning mohiyati ana shundadir. Huquqning talabi kimga qaratilgan bo'lsa, o'sha shaxsni yuridik majburiyat o'tovchi deb hisoblash lozim. O'z tabiati va ta'biga ko'ra harakat qilmoqchi bo'lgan shaxsning irodasiga qonunda nazarda tutilgan omillar ta'sir etib, uni o'z majburiyatini anglashga majbur qiladi¹.

Subyektiv yuridik majburiyat quyidagilarda ifodalanadi:

– *taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishdan tiyilish* (bunda majburiyat o'tovchi shaxs passiv bo'lib, subyektiv huquq amalga oshishiga xalal bermaydi);

– *muayyan xatti-harakatlarni sodir etish* (bunda majburiyat o'tovchi shaxsdan faol harakat qilish talab etiladi, toki huquqiy munosabat boshqa ishtirokchisining subyektiv huquqi ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratilsin).

Yuridik majburiyatni bajarmaslik oqibatida yuridik javobgarlik kelib chiqadi. Yuridik majburiyatni bajarmagan shaxsга nisbatan davlat majburlov chorasini qo'llaydi, ya'ni jazoga duchor etadi.


Shunday qilib, subyektiv huquq va yuridik majburiyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Huquq majburiyatsiz mavjud bo'lmaydi. Va aksincha, biron-bir huquqqa mos kelmaydigan majburiyat bo'lmaydi. Aynan bir faktik xulq-atvor, xatti-harakat bir vaqtning o'zida bir tomon uchun – huquq, ikkinchi tomon uchun – majburiyat hisoblanadi. Masalan, ish vaqtidan tashqari ishlaganlik tufayli oshirilgan haq to'lash ma'muriyat uchun – majburiyat, xodim uchun – huquqdir.

5-§. Yuridik faktlar

Barcha ijtimoiy hayot hodisalari singari huquqiy munosabatlar ham taraqqiyot qonuniyatlariga itoat etadi. Insonlar o'rtasidagi aloqalarning yuridik shakli bo'lmish son-sanoqsiz huquqiy munosabatlar muntazam ravishda paydo bo'lib, o'zgarib va barham topib turadi.

Huquqiy munosabatlar yuridik normalar asosida kelib chiqadi. Biroq, huquqiy normalar o'z-o'zidan, bevosita huquqiy munosabatlarni paydo qilmaydi. Normalar faqatgina huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va chegaralarini belgilab beradi. Huquqiy munosabatlarning mavjudligi *yuridik faktlar*, deb ataluvchi muayyan hayotiy hodisalar bilan bog'liq. Yuridik faktlar huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti, aniq talabi sifatida maydonga chiqadi.

¹ Qarang: Шершеневич Г.Ф. Общая теория права. Вып. 3.1911. – 619–620-betlar.



Xo'sh, yuridik faktlar degani qanday hodisa? Turmushdagi barcha voqealiklar mana shunday hodisalar hisoblana oladimi? Chamasi, yo'q. Hayotda turli-tuman faktlar, holatlar, shart-sharoitlar bor. Ammo, ularning hammasi ham yuridik fakt bo'lavermaydi. Muayyan hodisa va holatlarni yuridik fakt deb e'tirof etish davlatning xohish-irodasiga bog'liq. Yuridik fakt huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi, tomonlarda huquq va majburiyat vujudga keltiradi. Huquqiy normalar ta'sirida u yoki bu hayotiy holatlar yuridik faktga aylanadi.

Yuridik faktlar – huquqiy normalar asosida huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va barham toptiruvchi hayotiy hodisalardir. Yuridik faktlar huquqiy tizimda, huquqiy tartibga solish mexanizmida muhim rol o'ynaydi va katta ahamiyat kasb etadi. Ular huquqiy norma bilan aniq huquqiy munosabat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir.

Yuridik faktlar huquqiy normalar va huquqdorlik (huquq subyekti), subyektiv huquq va yuridik majburiyat bilan birgalikda huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq, har kim bilim olish huquqiga ega. Fuqaroning oliy o'quv yurtiga kirib o'qish huquqi amalga oshishi uchun u balog'at yoshiga yetganligi hamda muomala layoqatiga egaligidan tashqari tegishli yuridik fakt mavjud bo'lishi lozim. Bu yuridik fakt – uning kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishi, tanlovdan o'tishi va buyruq bilan o'quv muassasasiga qabul qilinishidir. Ana shundagina talaba bilan o'quv yurti ma'muriyati o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Yuridik faktlar huquq normalarida nazarda tutiladi, mustahkamlanadi. Masalan, nikohni FHDYo (ZAGS) idoralarida ro'yxatdan o'tkazish fakti – yuridik faktdir, chunki bu holat Fuqarolik kodeksi va Oila kodeksida mustahkamlangan. Ayni vaqtda, masjidda ham nikoh o'qish faktlari (urf-odati) mavjud. Biroq, bu fakt qonunda nazarda tutilmagan. Shu bois, u yuridik fakt bo'la olmaydi.

Yuridik faktlar xilma-xildir, ular mohiyatan bir necha turlarga bo'linadi. Yuridik faktlar ular keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlariga qarab: *huquqni yaratuvchi*, *huquqni o'zgartiruvchi* va *huquqni bekor qiluvchi* faktlarga bo'linadi.

Ayni bir yuridik hodisa bir vaqtning o'zida ham huquq yaratuvchi, ham huquqni o'zgartiruvchi, ham huquqni bekor qiluvchi fakt bo'lishi mumkin. Masalan, insonning o'limi fakti meros huquqiy munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo'la oladi, shu choqqacha mavjud bo'lgan huquqiy munosabat ishtirokchilari tarkibi o'zgarishiga olib keladi (ya'ni, o'lgan shaxs bu munosabatdan chiqib ketadi), mavjud qator (oilaviy, mehnat, nafaqa) huquqiy munosabatlarning barham topishiga asos bo'ladi.

Yuridik faktlar irodani ifodalashiga qarab, ikki asosiy guruhga: *yuridik hodisalar va yuridik harakatlarga* bo'linadi.

Hodisalar – tabiat va jamiyatdagi shunday faktlarki, ularning yuz berishi kishilarning erku irodasi, ongi va ehtiyojiga bog'liq emas. Masalan, yer qimir-lashi, bola tug'ilishi, insonning vafot etishi, yong'in, sel kabi tabiiy ofatlar va boshqalar. Mazkur hodisalar huquq bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlar muayyan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan ular yuridik faktlar, deb tan olinadi. Odatda, hodisalar huquqiy munosabatning obyektiga ta'sir etadi. Masalan, yong'in tufayli uy-joyiga zarar yetgan shaxs bilan tegishli davlat idoralari, jumladan, sug'urta idoralari o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Harakatlar – huquqiy munosabat ishtirokchilari irodasi bilan bog'liq faktlar. Ular bir necha turga ajraladi: *huquqqa muvofiq* va *huquqqa xilof* harakatlar. Amaldagi qonun normalari asosida vujudga keladigan hamda shu normalar bilan tartibga solinadigan harakatlar *huquqiy (huquqqa muvofiq)* harakatlar, deb ataladi. Huquqiy normalar talablariga zid, ularni buzuvchi harakatlar *huquqqa xilof (g'ayriqonuniy)* harakatlar hisoblanadi.

Huquqqa zid harakatlar o'z mazmuni va xususiyatiga qarab *jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va intizomiy-huquqiy bo'lmagan harakatlarga* bo'linadi. Huquqiy bo'lmagan harakat qonunga binoan yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, jinoyat sodir qilinganlik uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Huquqqa muvofiq harakatlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

- *yuridik aktlar*;
- *yuridik xatti-harakat*.

Yuridik aktlarda huquqqa muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishi nazarda tutilib sodir etiladi. Bunday harakatlarda huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish va barham toptirishga qaratilgan xohish ifodalandi. Masalan, fuqarolik huquqiy bitimlari, ma'muriy aktlar shunday aktlar sirasiga kiradi.

Yuridik xatti-harakat kishilar tomonidan huquqiy oqibatlarga olib kelishini atayin ko'zda tutmagan holda sodir etiladi, biroq bunday oqibatlar qonunda nazarda tutilganligi tufayli kelib chiqadi. Masalan, ijodkor ilmiy yoki badiiy asar yaratdi, deylik. Bunda ijodkorning huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishni istagani yoki istamaganidan qat'i nazar, qonun mualliflik huquqiy munosabatlari paydo bo'lishini shart qilib qo'ygan. Demak, ijod mahsulining yaratilishi – yuridik faktdir.

Yuridik aktlarning eng muhim xususiyati shundan iboratki, ularda yuridik ahamiyatga molik asosiy shart – yuridik oqibatlarni ko'zlab o'zicha ish ko'rishdir.

Shunday qilib, yuridik faktlar huquqiy munosabatlar o'rnatishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular, odatda, huquqiy munosabat subyektlarining manfaatlariga mos keladi. Yuqoridagi tahlillarga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) huquqiy munosabatlar – ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lib, ular ustqurmaning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy tizim, ishlab chiqarish munosabatlari zahirida vujudga keladi va takomillashib boradi;

2) huquqiy munosabatlar, o'z navbatida, jamiyat hayotiga, ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

3) huquqiy munosabatlar huquq normalari asosida paydo bo'ladi (o'zgaradi yoki barham topadi) hamda o'z tabiatiga ko'ra irodaviy xarakterga ega bo'ladi;

4) faqat huquqiy normalargina ijtimoiy munosabatlarga qonuniy shakl baxsh eta oladi;

5) huquqiy munosabatlar – davlatli jamiyatga xos hodisa. Ular davlat siyosati, xohish-irodasi bilan chambarchas bog'liqdir. Huquq vositasida davlat ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi; zarur hollarda huquqiy munosabatlarni ro'yobga chiqarish, muhofaza etish uchun davlatning majburlash kuchi ishga solinadi;

6) demokratik jamiyatda huquqiy munosabatlar, asosan, ixtiyoriy, ongli ravishda amalga oshiriladi. Biroq shunday bo'lsa-da, huquqiy munosabatlar doimo davlatning madadiga (kuchiga) tayanadi;

7) huquqiy munosabatlar quyidagi to'rt unsurli tarkibiy tuzilishga ega: huquqiy munosabat subyekti, uning obyekt, huquqdorlik, yuridik majburiyat;


8) huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan (rivojlantiradigan) yoki barham toptiradigan hayotiy hodisalar (shuningdek, tabiat hodisalari) yuridik faktlar hisoblanadi (chizmaga qaralsin);

9) yuridik faktlar hayotda huquqdan alohida, mustaqil bo'lib, davlat xohish-irodasi tufayligina huquqiy ma'noga, ahamiyatga ega bo'ladi;

10) huquqiy munosabatlar obyektiv va subyektiv huquqni amalga oshirishning alohida shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy munosabatlar fuqarolar, jamoat birlashmalari, davlat organlari va boshqa yuridik shaxslar o'rtasidagi turli-tuman aloqalarni tartibga solish orqali jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish, shuningdek, inson, jamiyat va davlat manfaatlarini huquqiy jihatdan uyg'unlashtirishga samarali xizmat qiladi.

Yuridik faktlarning tasnifi



XV bob. HUQUQ TIZIMI VA QONUNCHILIK TIZIMI. QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISH*

1-§. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Huquqiy voqeliklar talqiniga tizimli yondashuv o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, vaqt o'tgani sayin sezilarli darajada faollashdi. Obyektiv (pozitiv) huquqqa normalarning oddiy yig'indisi emas, balki yuridik normalarning *mukammal tizimi* sifatida qarash uning boy ichki olamini, ijtimoiy vazifasi va tabiatini teran anglash imkonini beradi. Avval ta'kidlaganidek, huquqning mohiyati, ichki tuzilishi jamiyatning iqtisodiy va sotsial tuzumiga bog'liq. Boshqacha aytganda, huquqning tizimi, u bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga, tabiati va ichki tizimiga bevosita bog'liq.

Ijtimoiy munosabatlar har qancha turli-tuman bo'lmasin, ular muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi, jamiyatning rivojlanish qonunlari asosida vujudga keladi va namoyon bo'ladi. Shu bois ular ham muayyan tizim sifatida mavjud bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar ham ma'lum darajalar va sohalar bo'yicha birlashadi hamda guruhlanadi. Ularning aynan mana shu umumlashuv (integratsiya) hamda tabaqalashuv (differensiatsiya), guruhlashuv xususiyati huquq tizimining ichki mazmunini, botiniy tuzilishini belgilash uchun asos bo'ladi. Huquqiy normalarning mazmun jihatdan xususiyatlariga ko'ra tegishlicha toifalanishi, o'zaro bog'liq guruhlariga bo'linishi ularning tizimli xususiyatga egaligidan dalolat beradi.

Yuridik adabiyotda «huquq» va «qonunchilik» iboralari ko'pincha sinonim sifatida qo'llaniladi. Ular o'xshash voqeliklar bo'lsa-da, farqli jihatlari, nisbiy mustaqillik, alohidalik xususiyatlari mavjud. Avvalo, ularning nisbati «mazmun» bilan «shakl» nisbati kabidir. Qolaversa, *huquq* – normalar yig'indisi, *qonunchilik* esa, normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisidir. Biroq, ularning ham ikkisi muayyan tizimlar sifatida faoliyat qiladi. Shu bois mavzu doirasida «huquq tizimi» va «qonunchilik tizimi» masalalarini tahlil etamiz.

Huquq tizimi – bu huquqning botiniy tuzilishi, uning ichki arxitekturasi, tarkibi bo'lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligi

* Mazkur bob yuridik fanlar nomzodi Xojiakbar Adilkariyev bilan hamkorlikda yozilgan.

va qismlari o'rtasidagi munosabat, aloqadorlik hamda nisbatni ifodalaydi. Huquq tizimi obyektiv tabiatga ega. Buning ma'nosi shuki, mavjud ijtimoiy munosabatlar va ularning real manzarasi huquq tizimini belgilovchi omil hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, yangilanishi huquq tizimida o'zining aynan aksini, ifodasini topadi. Shu jihatdan har bir davlatning huquq tizimi mazkur jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning in'ikosi, ifodasi hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday huquq davlat tomonidan o'rnatilgan va bajarilishi hokimiyat vositalari bilan ta'minlanadigan normalar majmuidan iborat. Ayni vaqtda, bu normalar majmui betartib tarzda jamlangan bo'lmay, balki uning qismlari o'zaro muvofiqlik, bog'liqlik asosida birlashadi. Bu tizim bir paytda umumiylik va alohidalik, mustaqillik va bog'liqlik, o'xshashlik va farqlanish xususiyatlariga egadir. Huquq tizimini tashkil etgan normalarning umumiyliigi va birligi ularda ifodalangan *davlat irodasining yagonaligi*, huquqiy normalar amal qilib turgan «huquqiy zamin»ning, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmi va bu mexanizm asoslanadigan umumiy qoidalarning yaxlitligi, shuningdek vazifalari va maqsadlarining mushtarakligi bilan belgilanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, huquq tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

– *birinchidan*, ijtimoiy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib obyektiv ravishda shakllanadi;

– *ikkinchidan*, u yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini, ya'ni bu tizim qanday ichki «qurilma»dan iboratligini ko'rsatadi;

– *uchinchidan*, huquq tizimi uni tashkil etuvchi yuridik normalarning muayyan guruhlarga birlashishini ifodalaydi;

– *to'rtinchidan*, huquq tizimini tashkil etuvchi yuridik normalar va ular birlashgan guruhlarning o'zaro farqlanishini ko'rsatadi;

– *beshinchidan*, ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va o'ziga xosligi yuridik normalarning ham ma'lum darajada ixtisoslashuviga sabab bo'ladi.

Falsafiy talqindagi «tizimlar nazariyasi»ga ko'ra, har qanday tizimning tarkibiy tuzilishi muayyan qoidalar va mezonlar asosida tashkil topadi. Biron-bir tizimni chuqurroq anglash uchun tizim asosida yotadigan ushbu mezonlarni aniqlash lozim. Bu huquq tizimini o'rganish uchun ham zarur bo'lib, uning natijasida huquqning nimalarga asoslanib «qurilganligi», huquq normalarining jamlanishi (integratsiya) va guruhlarga bo'linishi (differentsiatsiya) asosida nima yotganligini bilib olamiz. Shu maqsadda adabiyotlarda qator yondashuvlardan foydalaniladi. Genetik yondashuv asosida birlamchi va ikkilamchi (hosila) mezonlar ajratiladi. Huquqqa nisbatan, avvalo, inson birlamchi mezon hisoblanadi. Shu ma'noda huquqqa nisbatan turli yo'llar bilan shakllangan

ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar, eng avvalo, davlat va jamiyat ikkilamchi mezon hisoblanadi. Tarixiy yondashuvga asosan esa, huquqning tizim sifatida shakllanishining butun rivojlanish yo'lini kuzatib tahlil etish mumkin, bu jarayonda eng muhim mezon sifatida huquqning shakli (manbayi) oldingi o'ringa chiqadi. Huquq shakllarini tahlil etish orqali biz u yoki bu huquq tizimi uchun xos bo'lgan tizim hosil qiluvchi mezonlarni aniqlashimiz mumkin. Tarixiy yondashuv huquq tizimining genetik aloqalarini ochib berishi bilan bir qatorda, tarixiy rivojlanish jarayonida huquq tizimida bo'lgan jo'shqin o'zgarishlarni ham kuzatish mumkin. Bu avvalo insonning o'zining individ sifatida va turli ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar a'zosi sifatida rivojlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, huquq tizimiga turli diniy, etnik, g'oyaviy omillar va ularning o'zaro nisbati ta'siri ham namoyon bo'lgan.

Huquq voqeligiga tizimli-tuzilmaviy yondashuv uning ichki tuzilishida huquq normalarining ma'lum tartibda joylashganligini ko'rsatadi. Huquq tizimida joylashgan normalarning tartibga solinganligi, o'zaro muvofiqligi va aloqadorligi hamda ayni paytda, farqlanishi ijtimoiy munosabatlarning ham xuddi shunday tuzilmaviy xususiyati va ularni huquqiy tartibga solishga bog'liqligi bilan belgilanadi.

Huquqning tizimliliigi bir necha darajalarni o'z ichiga oladi. Ulardan *birinchisi* o'z ichki tuzilishi va aloqalariga ega bo'lgan *huquq normasidir*. Ushbu aloqadorlik tufayli u aniq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu bilan bir qatorda, aynan bir munosabat bir necha normalar bilan tartibga solinadi va bu ularni huquq tizimliliigining *ikkinchi* pog'onasi hisoblangan *huquq institutiga* birlashtirishga asos bo'ladi. Bu birlashuv huquq norma-sining tashqi aloqalari natijasi sifatida amalga oshadi. *Uchinchi*, huquq tizimliliigining ancha yuqori darajasi bo'lib, *huquqning tarmoqlarga (sohalarga)* bo'linishi hisoblanadi.

Huquq tizimidagi tarkibiy tuzilmalar o'zining tashkiliy qurilishi va aloqalarining murakkabligi bilan bir-biridan farq qiladi (masalan, gorizantal, vertikal, matritsali va to'g'ri yo'nalishli aloqalar va hokazo). Taraqqiyotning hozirgi holatiga mos keladigan tasnifga ko'ra, huquq tizimi – huquq normalari, huquq institutlari va huquq tarmoqlari (sohalari)dan iborat.

Huquq normasi huquq tizimining birlamchi elementi bo'lib, u davlat tomonidan o'rnatiladigan, hokimiyat xususiyatiga ega bo'lgan xulq-atvor va xatti-harakat qoidasidir. Huquq normasi huquq tuzilmasi ichida boshlang'ich o'rinda bo'lib, butun huquq tizimida bo'ladigan o'zgarishlarni o'zidan o'tkazadi. Shu bois, uning huquq tizimining boshqa tuzilmalariga ta'siri ancha salmoqli. Ta'bir joiz bo'lsa, uni huquqning «o'lchov birligi», «birlamchi mezoni» deyish mumkin.

Huquq instituti huquqiy normalarning alohida guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Odatda, huquq instituti huquqiy normalarning uncha katta bo'lmagan barqaror guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir turini tartibga soladi. Demak, agar huquqiy norma huquqiy materiyaning birlamchi elementi bo'lsa, huquq instituti esa, uning dastlabki huquqiy umumlashmasidir. Har bir tarmoq o'z ichiga bir qator institutlarni qamrab oladi va ular tarmoqning tarkibiy qismi, bo'lagi, bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib, ayni paytda, muayyan mustakillikka ega. Zero, ular ma'lum darajada mustaqil masalalarni tartibga soladi. Huquq institutlariga misol qilib, ma'muriy huquqda – mansabdor shaxs instituti; fuqarolik huquqida – da'vo muddati, shartnomalar, oldi-sotdi institutlari; konstitutsiyaviy huquqda – saylov tizimi, fuqarolik instituti; jinoyat huquqida – zaruriy mudofaa instituti; oila huquqida – nikoh instituti va boshqalarni keltirish mumkin.

Huquq institutlarini turlicha guruhlashtirish mumkin. Eng avvalo, biz ularni huquq tarmoqlari bo'yicha ajratamiz: ma'muriy huquq institutlari, fuqarolik huquqi institutlari va shu kabilar. Demak, qancha huquq tarmog'i bo'lsa, shuncha yo'nalishdagi huquq institutlari majmui mavjud. Bunda huquq tarmoqlari institutlarni turlarga ajratish mezonini vazifasini o'taydi. Hayotda shunday bo'ladiki, muayyan bir ijtimoiy munosabat bir huquq tarmog'iga oid institut bilan tartibga solinib qolmay, bir necha tarmoqqa tegishli institutlar bilan tartibga solinishi mumkin. Shu munosabat bilan ular tarmoq institutlari va tarmoqlararo institutlar hamda *oddiy va murakkab* (kompleks-majmuaviy), *regulyativ* (tartibga soluvchi), *qo'riqlovchi* va *ta'sis etuvchi* (mustahkamlovchi) institutlarga ajraladi.

Huquq tarmog'i – bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining umumiy majmui. Huquq tarmog'i huquqni tizimlashning ancha yuqori darajasi hisoblanadi va u ma'lum yaxlitlik va mustaqillik bilan tavsiflanadi. Ta'kidlash joizki, ba'zi adabiyotlarda huquq tizimining yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarkibiy elementlaridan tashqari yana huquq tarmoqchasi va subinstitutlar ham ajratiladi. Huquq tizimida tarmoqlarning ajralib chiqishiga unga bo'lgan obyektiv zarurat asos bo'lib hisoblanadi, davlat esa bu zaruratni o'z vaqtida anglab, uni rasmiylashtiradi, xolos. Huquq tarmog'i qonun chiqaruvchi organ tomonidan o'ylab topilmay, balki ijtimoiy va amaliy ehtiyoj mahsuli sifatida shakllanadi. Ijtimoiy munosabatlar u yoki bu sohasining sifat jihatidan turdoshligi muayyan huquq tarmog'ining shakllanishini taqozo etadi. Shu bois, u yoki bu huquq tarmog'ining mavjudligi yoki mavjud emasligi huquqiy tartibga solishga «muhtoj bo'lgan» ijtimoiy munosabatlarning te-

gishli sohasi mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liq bo'ladi. Ayni paytda, huquq tarmoqlari ham o'zlarining hajmi, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri va umuman huquqiy tartibga solishda tutgan o'rni bilan farqlanadi hamda bu farq ko'p jihatdan ular tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va ahamiyati bilan belgilanadi. Mustaqil huquq tarmog'i tashkil topishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi lozim:

- ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xosligi (tur jihatdan birligi);
- bu munosabatlarning hajmi va murakkabligi;
- vujudga kelgan munosabatlarni boshqa huquq tarmoqlari normalari yordamida tartibga solishning imkoni yo'qligi;
- bu munosabatlarni tartibga solishning alohida usulini qo'llash zarurligi.

Adabiyotlarda huquqning konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliyaviy, mehnat, fuqarolik, oila, jinoyat huquqi, yer huquqi, qishloq xo'jaligi huquqi, ekologiya huquqi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual huquqi va boshqa tarmoqlari ko'rsatiladi.

Shunday qilib, huquq tizimi murakkab, ko'p qirrali harakatdagi yaxlit tuzilma bo'lib, professor S.S. Alekseev ta'kidlaganidek, quyidagi bir necha darajalarni:

- 1) alohida normativ qoida tuzilmasini;
- 2) huquqiy institut tuzilmasini;
- 3) huquqiy tarmoq tuzilmasini;
- 4) huquqning yaxlit umumiy tuzilmasini o'z ichiga oladi.

Ushbu darajalarning hammasi bir butun yaxlit holda ancha murakkab ijtimoiy tarkibni tashkil etadi. Ayni paytda, huquq tizimi darajalari mantiqan va mazmunan o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birini sabab va oqibat nisbati tarzida taqozo etadi.

Ommaviy va xususiy huquq. Ta'kidlash joizki, jahon huquqiy tizimlarining ko'pchiligiga u yoki bu tarzda huquqning xususiy va ommaviy huquqqa ajratilishi xos. Xususiy huquq alohida shaxslarning ehtiyojini qondirish va manfaatini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, ommaviy huquq esa, davlatning umumiy manfaatlarini muhofaza etadi. Xususiy va ommaviy huquqning shakllanishi qadimgi Rimga borib taqaladi. Unda jus publicum va jus privatum ajratilgan bo'lib, ularga Rim yuristlari tavsif berishgan. Masalan, Ulpianing fikriga ko'ra, ommaviy huquq Rim davlatining holatiga, maqomiga taalluqli «ad statum rei Romanae spectat»; xususiy huquq esa, alohida shaxslar foydasiga taalluqlidir «ad Singulorum itilitatem»¹. Huquq himoya etadigan manfaatlar mazmuni, xarakteri xususiy va ommaviy huquq

¹ Qaragang: Новицкий И.Б. Основы Римского гражданского права. – М., 1972.

sohalarini ajratishning mezoni hisoblanadi. Ommaviy huquq doirasiga davlat manfaatini muhofaza etuvchi huquqiy normalar, xususiy mulk sohasiga esa, alohida shaxslar manfaatini himoya qiluvchi normalar kirgan. Shunisi e'tiborga molikki, Rimda ommaviy va xususiy huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning xususiyatiga ko'ra ancha farqlangan. Xususan, ommaviy huquq uchun jus publicum privatorum pactis mutari non protest, ya'ni ommaviy huquq normalari alohida shaxslarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas, degan tamoyil xos bo'lgan. Bunday normalar imperativ normalar, deb atalgan. Ya'ni, so'zsiz, majburiy, hokimona buyruq xususiyatiga ega bo'lgan normalar.

Xususiy huquq uchun esa, vakolat beruvchi normalar xos bo'lgan.

Moddiy va protsessual huquq. Huquq tizimidagi tarmoqlar moddiy va protsessual huquq turlariga ham bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliyaviy huquq, yer huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va mehnat huquqi o'z mazmuniga ko'ra moddiy huquq hisoblanadi va ular insonlararo, ularning xilma-xil tuzilmalariaro real tarkib topadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar mulk shakllari, mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish, mulkni olish va sotish, davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlar, fuqarolarning mehnat faoliyati, huquq va erkinliklarini amalga oshirish bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Protsessual huquq tarmoqlariga esa, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va xo'jalik protsessual huquq tarmoqlari kiradi. Ular turli nizolar, kelishmovchiliklarni hal etish, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni tergov qilish va sudga ko'rishning tashkiliy masalalarini tartibga soladi. Masalan, jinoyat huquqi normalari qanday qilmish jinoyat ekanligi va shu xatti-harakat yoki harakatsizlik uchun beriladigan jazoning umumiy asoslarini belgilab bersa, jinoyat-protsessual huquqi uni tergov qilish, sudga ko'rish kabi qator masalalarni o'z normalarida mustahkamlaydi. Moddiy huquq bilan protsessual huquq o'rtasida uzviy bog'liqlik borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Ular bir-birini taqozo etadi va uzviylikda bir butun yaxlitlik kasb etadi.

Shunday qilib, **huquq tizimi** – huquqning obyektiv ravishda shakllangan ichki tuzilishi bo'lib, u harakatdagi, o'zaro bir-biri bilan bog'langan barcha yuridik normalar, institutlar va huquq tarmoqlarini o'z ichiga oladi, ichki uzviylik va ayni paytda, tartibga soladigan munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan farqlar bilan tavsiflanadi.

Huquq tizimi tarkibidagi eng yirik tuzilma – *huquq tarmog'idir*. Huquqni tarmoqlarga ajratish ikki mezon, ya'ni *huquqiy tartibga solishning predmeti* va *huquqiy tartibga solishning usuli (metodi)* orqali amalga oshiriladi.

2-§. Huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi – huquqni tarmoq va institutlarga ajratish mezonlari

Huquq tizimini tarmoqlarga va institutlarga bo'lish kimningdir xohishi yoki olimlar va davlat arboblarning istagi emas. Bu jamiyatda mavjud turli-tuman ijtimoiy aloqalar tabiatidan kelib chiquvchi obyektiv zaruriyatdir. Obyektiv huquqni nima uchun tarkibiy qismlarga bo'lish zarur, degan savolga XX asrning boshlarida G.F. Shershenevich shunday javob bergan edi: «Nazariy jihatdan yondashganda, huquq normalarining tabiatidan kelib chiquvchi ichki farqlanish (bo'linish) mavjud va u tegishli tasniflashni talab qiladi. Pedagogika nuqtayi nazaridan esa, ulkan va doimo kengayib boradigan huquqiy materialni qismlarga ajratmasdan o'rganish mumkin emas. Va nihoyat, amaliy nuqtayi nazardan qaraganda, turli boshqaruv organlari, ayniqsa, sudlar turlicha normalar bilan ish ko'rganda ularning muayyan taalluqliligini belgilash uchun qat'iy mezonlar zarur bo'ladi. Ushbu sabablarning barchasi fan tomonidan huquqni tasniflashga bo'lgan intilishni oqlaydi»¹.

O'tgan XX asrda huquqning ommaviy huquqqa va xususiy huquqqa bo'linishi butun dunyoda (sobiq Sovet Ittifoqidan tashqari) e'tirof etildi. Ayni vaqtda, uni tarmoqlar va institutlarga ajratish ham saqlanib qoldi. Bu tasnif mezonlari huquqiy tartibga solishning predmeti va metodidir.

Huquqiy tartibga solish predmeti deganda, huquq bevosita tartibga soladigan narsa, ya'ni, ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar o'z xususiyatiga ko'ra, yuridik normalar o'rtasida alohida aloqadorlikni vujudga keltiradi, ularni yaqinlashtiradi. Shu bois huquqiy tartibga solish predmeti huquq normalarini ma'lum tarmoqqa ajratish, guruhlashda asos bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tartibga solish predmeti tuzilmasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- a) huquqiy tartibga solish predmeti subyektlari (individual va jamoa);
- b) subyektlarning xulq-atvori, xatti-harakati;
- d) atrof-muhit obyektlari: narsalar va hodisalar – bular yuzasidan insonlar bir-birlari bilan munosabatga kirishadilar va ma'lum manfaat yuzasidan ularga qiziqish bildiradilar;
- e) muayyan munosabatning paydo bo'lishi va barham topishining bevosita sababchilari bo'lgan ijtimoiy faktlar: hodisa va harakatlar.

Demak, **huquqiy tartibga solish predmeti** – huquqiy ta'sir doirasidagi barcha ijtimoiy munosabatlardir, boshqacha aytganda, huquqiy maydon qamrovidagi munosabatlardir.

¹ Шершеневич Г.Ф. Общая теория права. Вып. 3. – М., 1912. – 514–515-бетлар.

Huquqiy tartibga solish predmeti – jamiyat a'zolari bo'lmish insonlar o'rtasida vujudga keladigan va tarkib topadigan faktik, real munosabatlar bo'lib, ular obyektiv ravishda huquqiy tartibga solinishga muhtoj bo'ladilar. Bunday munosabatlar xilma-xil va ko'p sonli, ya'ni, boshqaruv, mehnat, mulk, oila va boshqa sohalarda bo'lishi mumkin. Ular mazmunan turlicha bo'lgani holda, muayyan umumiy xususiyatlardan ham xoli emas. Umumiylik esa, quyidagilarda ko'rinadi:

1) avvalo, insonlar va ularning turli jamoalari, birlashmalari uchun hayotiy muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlar;

2) stixiyali tarzda bo'lmay, balki doimo aniq maqsadga yo'naltirilgan, irodaviy munosabatlar;

3) barqaror, qayta-qayta takrorlanadigan, tipik (xos va mos) munosabatlar;

4) insonlarning xatti-harakati orqali ifodalangan munosabatlar va shu bois ularning kechishi jarayoni ustidan chetdan nazorat olib borish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlar, aniqrog'i, ularning mazmuni, hajmi, ixtisoslashganligi, guruhlashganligi huquq tizimining ham tarkibiy tuzilishini, uning ichki «qurilmasi»ni belgilovchi bosh omil va asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, har bir huquq tarmog'ining huquqiy tartibga solish predmeti o'z xususiyatiga ega. Shu bois bu holat mazkur tarmoq obyekt bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turini tartibga solishning usuli ham o'ziga xos bo'lishini taqozo etadi. Huquqni tarmoqlarga ajratishning yana bir muhim mezoni huquqiy tartibga solish usulidir.

Huquqiy tartibga solish usuli – jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarga huquq vositasida qo'llaniladigan usul, vosita va yo'llar majmui. Huquqiy tartibga solish usuli uzoq tarixiy jarayonda shakllangan hodisa bo'lib, davlat undan huquqiy normalarni yaratishda va ijtimoiy munosabat ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy aloqalarni tartibga keltirishda foydalanadi. Agar huquqiy tartibga solish *predmeti* huquq nimani tartibga soladi, degan savolga javob bersa, huquqiy tartibga solish *usuli* esa, huquq shu ijtimoiy munosabatlarni qanday, qaysi yo'l va usul bilan tartibga soladi, degan savolga javob beradi.

Huquqiy tartibga solish usuli huquqni tarmoqlarga ajratishning ikkilamchi (qo'shimcha) asosi bo'lsa-da, uning huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishdagi roli beqiyosdir.

Ta'kidlash joizki, darslik va ilmiy adabiyotlarda huquqiy tartibga solish usullarining turlari va ularning tasniflari to'g'risida yakdillik yo'q. Biroq, turlicha tasniflarning mavjudligiga qaramay, ularning barchasini mazmunan ikki guruhga bo'lish mumkin:

- *avtonomiya usuli (dispozitiv);*
- *avtoritar usul (imperativ).*

Avtonomiya usuli asosan fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat va savdo huquqi, ya'ni xususiy huquq ta'siri daxldor bo'lgan sohalarda qo'llaniladi.

Avtoritar usul esa davlat huquqi, ma'muriy huquq, moliya huquqi, jinoyat huquqi, ya'ni ommaviy huquq ta'siri daxldor sohalarda qo'llaniladi.

3-§. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tavsifi

Yuqorida ta'kidlanganidek, huquq tarmoqlari – ijtimoiy munosabatlarning yirik, yaxlit bir sohasini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat huquq tizimining taribiy qismidir. O'zbekistonda hozirgi paytda mavjud eng asosiy huquq tarmoqlari va ularning o'ziga xos jihatlariga, predmeti hamda tartibga solish usuli xususiyatlariga, har bir tarmoqning huquq tizimida egallagan o'rnini va ularning o'zaro farqlariga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat huquq tizimida yetakchi o'rinni *konstitutsiyaviy (davlat) huquq* sohasi egallaydi. Bu huquq tarmog'i davlatga oid eng muhim, asosiy munosabatlarni tartibga soladi va shu bois uning normalarida boshqa huquq sohalari uchun negiz – poydevor bo'ladigan qoidalar mustahkamlangan. Uning asosiy normalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi konstitutsiyaviy qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan. Konstitutsiyaviy huquq normalari O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, shaxsning huquqiy holati, davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati asoslarini va davlat tuzilishiga oid boshqa masalalarni mustahkamlaydi. Davlat tuzumiga oid munosabatlar bevosita konstitutsiyaviy huquqning obyektini hisoblanadi. Bu huquq tarmog'i usulining mazmuni – ta'asis etish, mustahkamlashdan iboratdir. Ta'kidlash joizki, mazkur huquq normalari, asosan, gipoteza va dispozitsiyadan iborat tuzilmaga ega bo'lib, ularda aniq sanksiya mustahkamlanmagan. Ayni paytda, Konstitutsiyaning ba'zi normalari to'g'ridan to'g'ri amal qilishi, qo'llanishi mumkin.

Ma'muriy huquq konstitutsiyaviy huquq bilan mustahkam bog'liq bo'lgan huquq tarmog'i hisoblanadi va u ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishda vujudga keladigan boshqaruv munosabatlarini tartibga soladi. Bu huquq tarmog'i normalari davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning boshqaruv, ijro etish hamda farmoyish berish bilan bog'liq faoliyatini tartibga soladi. Boshqaruv, ijro etish va farmoyish berish funksiyasini

amalga oshiruvchi organlar, jumladan, Prezident devoni, Hukumat, vazirliklar, davlat qo'mitalari, mahalliy organlar ma'muriyati tegishlicha vakolatlar bilan ta'minlangan. Iqtisod va madaniyatning sohalari, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, mudofaa va xavfsizlik kabi sohalardagi boshqaruv bu huquq tarmog'ining obyekti bo'lib hisoblanadi.

Mazkur tarmoqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llaydigan usuli hokimiyat va bo'ysunish, imperativ xarakterdagi buyruqlar, lavozimi va darajasiga asoslangan pog'onama – pog'ona bo'ysunish, topshirilgan soha uchun yakka tartibdagi javobgarlik kabilardan iborat.

Moliya huquqi davlatning moliya va budjet faoliyatini amalga oshirish sohasida, banklar va boshqa moliyaviy muassasalar faoliyatida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu tarmoqning predmeti bo'lib moliyaviy munosabatlar, davlat budjetini shakllantirish va ijrosini ta'minlash, pul muomalasi, bank operatsiyalari, kreditlar, soliqlarga oid munosabatlar hisoblanadi. Moliyaviy faoliyat, ko'pincha, ijro etish, farmoyish berish xususiyatiga ega va shu bois u ma'muriy huquq bilan ancha yaqin aloqada bo'ladi. Bu faoliyat shuningdek davlat – hokimiyat xususiyatiga ham ega. Shuning uchun u konstitutsiyaviy huquq bilan uzviy bog'liq. Bu tarmoqning tartibga solish usuli – tekshirish, nazorat, bajarilishi majburiy bo'lgan farmoyishlar berish yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishdan iborat.

Yer huquqi yerdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga soladi. Uning normalari yerdan unumli foydalanish va yer tuzilishi, yer fondini saqlash va taqsimlash, turli yer shakllarini ularning ma'muriy-xo'jalik ahamiyatiga qarab, huquqiy holatini aniqlashga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Yer huquqi o'z ichiga o'rmon, suv va tog' huquqi tarmoqchalarini ham qamrab oladi. Bu huquq tarmog'ining asosiy normativ akti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi hisoblanadi. Yer huquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda vakolat berish, ruxsat berish va man etish usullaridan foydalanadi.

Qishloq xo'jalik huquqi – qishloq ho'jaligi shirkatlari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, ijara xo'jaliklarining tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi, ularning boshqa xo'jalik subyektlari hamda davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnatdan foydalanish va unga haq to'lash tartibi, daromadni taqsimlash tartibiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidan iborat. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, bozor munosabatlarining qishloq xo'jaligiga tobora kirib borishi va mustahkamlanishi bu huquq tarmog'ining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Qishloq xo'jalik huquqi normalari qonunlarda, normativ hujjatlarda va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tashkiliy shakllarining Namunaviy nizomlarida

mustahkamlangan. Bu normalar hali kodekslashtirilmagan. Mazkur huquq tarmog'ining asosiy usuli dispozitiv xususiyatga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi munosabatlarni mustahkamlash, muhofaza qilish, tavsiya etish, yordam ko'rsatish yo'llari bilan amalga oshiriladi.

Mehnat huquqi normalari mehnat munosabatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va barham topishining shartlarini, ish vaqti hamda dam olish vaqti muddatining davomiyligini belgilash, mehnat muhofazasi, mehnat intizomiga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Mehnat munosabatlari subyektlariga ish beruvchi, ishchi va xizmatchilar, davlat organlari, muassasalari, korxonalar va jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari kiradi. Mazkur tarmoqning normativ manbayi – Mehnat kodeksidir. Mehnat huquqining mehnat munosabatlarini tartibga solishda qo'llaydigan usullari bo'lib, rag'batlantirish, tegishli shartnomalarga normativ hujjat tusini berish hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi mulkiy munosabatlarni, shuningdek, shaxsiy nomulkiy munosabatlarni (masalan, ismga bo'lgan huquq, mualliflik huquqi, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish kabilar) tartibga soladi. Mulkiy munosabatlar, meros va vorislik munosabatlari ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Bu huquq normalari o'z ta'siri bilan korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning barcha fuqarolik oboroti (aylanmasi), xo'jalik faoliyatini, jumladan, mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish, mulkni sotib olish va sotish, hadya qilish, meros qoldirish, mulkni ijaraga saqlab turishga berish, garovga berish, mahsulot yetkazib berish kabi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik huquqi normalari har qanday mulkiy munosabatlarni ham tartibga solavermaydi. U faqat taraflar huquqiy jihatdan teng bo'lgan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, da'vog'ar va javobgar, kreditor va qarzdor, buyurtmachi va pudratchi kabilar shartnoma munosabatlarining teng ishtirokchilari sanaladilar. Bu huquq tarmog'iga hokimiyat va bo'ysunish tarzidagi ma'muriy va moliyaviy huquqlar uchun xos bo'lgan munosabatlar yotdir.

Fuqarolik huquqi huquq tizimi tarmoqlari ichida eng yirigi bo'lib, u hajm jihatidan salmoqli huquq tarmog'i hisoblanadi. Ayniqsa, bozor munosabatlarining rivojlanishi, turli mulk shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan uning obyekti yana ham kengaymoqda. Shu bois mazkur huquq tarmog'i meros huquqi, mualliflik huquqi, turar joy huquqi, patent huquqi va boshqa shu kabi bir qator huquq tarmoqchalarini o'z ichiga oladi. Fuqarolik huquqining bosh normativ hujjati, asosiy manbayi – O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidir. Bundan tashqari, ushbu huquq tarmog'i ichiga kiradigan ba'zi huquq tarmoqchalari normalari ham kodekslashtirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi, Uy-joy kodeksi.

Mazkur huquq tarmog‘i tartibga soladigan munosabatlar mazmuni uchun taraflarning tengligi xosdir. Shu bois fuqarolik-huquqiy munosabatlarini tartibga solish usuli avtonom va dispozitiv xususiyatga ega. Ya‘ni, qonunda belgilangan qoidalar doirasida shartnomada huquqiy munosabat ishtirokchilarining muayyan xatti-harakat variantlarini mustahkamlash va ularga asoslanib ish yuritish huquqining mavjudligidir.

Oila huquqi huquq tarmog‘i sifatida mazmunan fuqarolik huquqiga yaqin turadi. Ushbu huquq tarmog‘i oila-nikoh munosabatlari sohasidagi mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Uning normalari nikoh tuzish hamda uni bekor qilish, er-xotinlar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi, shuningdek farzandlikka olish, vasiylik va xomiylikka oid munosabatlarni, oila a‘zolarining mulkiy ahvoriga, ularning o‘zaro huquq va majburiyatlariga doir masalalarni tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oila huquqining asosiy normativ hujjati hisoblanadi. Bu huquq tarmog‘ining tartibga solish usuli taraflarning tengligiga asoslanadi va dispozitiv xususiyatga ega bo‘ladi.

Jinoyat huquqi yordamida davlat tomonidan qanday ijtimoiy xavfli xatti-harakatning jinoyat deb hisoblanishi va uning uchun qanday jazo tayinlanishi belgilanadi. Jinoyat huquqi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan mutasaddi davlat organining vakolatlarini, jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish asoslari va shartlarini, ularga nisbatan davlatning qoralov siyosati prinsiplarini, aniq jinoyatlar tarkibi va ularga tayinlanadigan jazolar tizimi hamda turlarini, aybning shakllarini, turlarini o‘z normalarida mustahkamlaydi.

Jinoyat huquqining bosh normativ hujjati – O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidir. Bu huquq tarmog‘ining ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir o‘tkazish usuli jamiyat uchun xavfli qilmish, harakat va harakatsizliklarni qat‘iy man etish, davlat majburlovini amalga oshirishdan iboratdir.

Jinoyat-ijroiya huquqi – mahkumlarning huquqiy holati, jazolar va boshqa jinoiy-huquqiy ta‘sir choralarini ijro etuvchi muassasalar va organlar tizimi, ularning faoliyatini tekshirish va nazorat etish, jazo turlarini ijro etish tartibiga doir normalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur huquq tarmog‘ining usuli – tarbiyalash va rag‘batlantirish jarayonlarini hokimiyat va bo‘ysunish usuli bilan ko‘shib olib borishga asoslangan. Asosiy huquq normalari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida jamlangan.

Jinoyat-protsessual huquqi – protsessual huquq tarmoqlaridan biri bo‘lib, u jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, ularni sudda ko‘rish bo‘yicha sud, prokuratura va surishtiruv hamda dastlabki tergov organlarining faoliyatini, shakllarini tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oladi. Jinoyat-protsessual huquqi

jinoyat jarayonining ishtirokchilari bo'lmish gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, ayblov va himoya tomoni vakillarining protsessual huquq hamda majburiyatlarini, ularning huquqiy holatini belgilaydi. Huquq tarmog'ining bosh normativ hujjati – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksidir. Bu huquq tarmog'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham imperativ, ham taraflar tengligiga asoslangan usullardan foydalanadi.

Fuqarolik protsessual huquqi fuqarolik, oila, mehnat, yer va moliyaviy sohalarda vujudga keladigan nizolarni ko'rib chiqish yuzasidan sud faoliyatini tartibga soladi. Fuqarolik protsessual huquqi sud jarayoni ishtirokchilarining huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari hamda ushbu huquq tarmog'i normalari bilan belgilangan boshqa masalalarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi ushbu huquq tarmog'ining asosiy normativ hujjati hisoblanadi. Fuqarolik protsessual huquqiga juda yaqin turadigan huquq tarmog'i – **xo'jalik protsessual huquqi** bo'lib, u iqtisodiy sudlar tomonidan sudda mulkchilikning turli shakllariga mansub xo'jalik subyektlari va ular bilan fuqarolar hamda tadbirkorlar o'rtasida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini ko'rib, hal etadi. Uning asosiy manbayi – Xo'jalik protsessual kodeksidir.

Yuqoridagilardan tashqari, O'zbekiston huquq tizimida xo'jalik huquqi, ekologiya huquqi, budjet huquqi, soliq huquqi, savdo va tadbirkorlik huquqi kabilar ham shakllanmoqda. Mamlakatimizdagi asosiy huquq tarmoqlari shulardan iborat.

Xalqaro huquq – xalqaro, eng avvalo, davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Shu sababli u biron-ta ham davlatning milliy huquq tizimiga kirmaydi. Xalqaro huquqda uning subyektlarining jamoaviy irodasi mustahkamlangan va mujassamlashgan. Turli xalqaro shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlari ushbu huquqning normativ asosini tashkil etadi. Bu hujjatlarda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi norma va prinsiplarning yaxlit, mukammal tizimi o'z ifodasini topgan bo'lib, ular xalqaro huquq subyektlari hisoblanmish davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi ommaviy va xususiy xalqaro huquqqa bo'linadi. Xalqaro xususiy huquq turli davlatlar fuqarolari hamda tashkilotlari o'rtasidagi mulkiy va boshqa nomulkiy munosabatlarni, ularning huquqiy holatini, yurisdiksiyasini, yashab turgan davlat qonunchiligini qo'llash tartibi va shartlariga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Davlatlar, xalqlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquqning subyektlari hisoblanadi.

4-§. Qonunchilik tizimi

Mamlakatda amal qiluvchi huquq tizimi to'g'risidagi bilimlarimiz batafsil bo'lishi uchun «qonunchilik tizimi» tushunchasini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. «Huquq tizimi» va «qonunchilik tizimi» tushunchalari o'zaro bog'liq, lekin bir-biridan farq qiladigan ilmiy kategoriya-lardir. Ular huquqning ikki jihatini aks ettiradi va uning mohiyatini chuqur-roq anglab yetishga ko'maklashadi. «Huquq tizimi» va «qonunchilik tizimi» tushunchalari mazmun bilan shaklning o'zaro nisbati tarzida maydonga chiqadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, huquq tizimi huquqning mohiyatini, *mazmunini* ifodalasa, qonunchilik tizimi huquqning bayon etilish *shaklini* ifoda qiladi. Har qanday voqea, hodisa va predmetning ma'no-mohiyati, ijtimoiy vazifasi va funksiyasini uning shakli o'zida mujassam etadi. Ya'ni, shakl hodisa va predmet mazmunining mavjudligini ta'minlash vositasidir. Shunga ko'ra, «qonunchilik» huquqning mavjudligini, «qonunchilik tizimi» esa huquq tizimi mavjudligini ta'minlaydi. Huquqiy normalar qonunchilik hujjatlarida mustahkamlanadi, rasmiylashtiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, huquq tizimi huquqning ichki tuzilishi, ichki tarkibiy qurilishi bo'lib, uning mazmuni o'zi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar xususiyati bilan belgilanadi. Qonunchilik tizimi huquq tizimining tashqi shakli sifatida huquq manbalari tuzilishini, normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisini (uyushmasini) aks ettiradi. Huquq, huquqiy normalar qonunchilikdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, amal qila olmaydi.

Qonunchilik tizimi deganda, huquqning mazmuni va ichki tarkibiy tuzilishini mustahkamlovchi, rasmiylashtiruvchi, moddiylashtiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisi tushuniladi. Qonunchilik tizimi huquq (qonun) ijodkorligi faoliyati orqali huquq normalarining yaratilishi, rasmiy hujjatlarda mustahkamlanishi va tizimlashtirilishi (sistemalashtirilishi) natijasida vujudga keltiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, huquq tizimi huquqning ichki tuzilishi, ichki tarkibiy qurilishi bo'lib, uning mazmuni o'zi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar tabiati bilan belgilanadi. Qonunchilik tizimi huquq tizimining tashqi shakli sifatida huquqning manbalari tuzilishini, normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisini (uyushmasini) aks ettiradi. Huquq, huquqiy normalar qonunchilikdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, amal qila olmaydi.

Qonunchilik hujjatlari murakkab tarkibiy tuzilishga (strukturaga) ega. Ularni turli mezonlar asosida gorizontol, vertikal va kompleks turdagi qonunchilik tizimi sifatida tasniflash mumkin.

Qonunchilik tizimining gorizontol tuzilishi sohaviy (tarmoq) tasniflash bo'lib, huquqiy tartibga solishning predmeti, ya'ni ijtimoiy munosabatlar yo'nalishi va mazmuniga asoslanadi. Bu mezonga muvofiq, huquq tarmoqlari-

ga mos keluvchi qonunchilik tarmoqlari ajratiladi (masalan, konstitutsiyaviy huquq – konstitutsiyaviy qonunchilik, fuqarolik huquqi – fuqarolik qonunchiligi, jinoyat huquqi – jinoyat qonunchiligi, mehnat huquqi – mehnat qonunchiligi, ma'muriy huquq – ma'muriy qonunchilik). Har bir huquq tarmog'iga mos ravishda qonunchilik tarmog'i shakllanadi, masalan, fuqarolik protsessual huquqiga – fuqarolik protsessual qonunchiligi mos keladi, yer huquqiga – yer qonunchiligi muvofiq bo'ladi.

Qonunchilik tizimining vertikal (pog'onama-pog'ona, iyerarxik) tuzilishi davlat hokimiyati organlarining vakolatiga ko'ra pog'onama-pog'ona joylashuvini va normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchiga ko'ra joylashuvini aks ettiradi. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimi markazida Konstitutsiya turadi, undan so'ng konstitutsiyaviy qonunlar, joriy qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, vazirlik va davlat qo'mitalarining normativ hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ hujjatlari joylashadi. Sanab o'tilgan hujjatlarning mana shu joylashuvi ularning yuridik kuchini ham aks ettiradi. Barcha normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda eng oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Konstitutsiyaga mos bo'lishi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, birorta ham qonun yoki normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalari-ga zid kelishi mumkin emas.

Qonunchilik tizimining kompleks tuzilmalari huquqiy tartibga solish obyektining xususiyati va davlat boshqaruvining mazmunidan kelib chiqib shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi o'z ichki mantig'iga ko'ra, quyidagi qonunchilik tuzilmalarini qamrab oladi. ***Birinchisi – qonunchilik sohalari*** bo'lib, muayyan huquq sohasining predmeti hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat. Buning ma'nosi shuki, qonunchilik tizimining ichki tuzilishi huquqiy tartibga solish obyektlari, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga ko'ra tasniflanishidan kelib chiqadi. Masalan, inson va davlat (uning ijroiya hokimiyat organlari timsolida) o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish haqida so'z yuritganda, ma'muriy huquq qoidalari (normalari) amal qiladi, mulkiy munosabatlarni tartibga solish haqida so'z yuritganimizda esa, fuqarolik huquqi sohasiga oid normalar amal qiladi va hokazo. ***Ikkinchisi – qonunchilik sohasi*** ichidagi yirik tuzilma, sohaviy ijtimoiy munosabatlarning muayyan turlarini tartibga soluvchi ***qonunchilik institutini*** ifodalaydi (masalan, fuqarolik qonunchiligi sohasining tarkibiga kiruvchi mualliflik, meros, hadya, oldi-sotdi, ijara institutlari). ***Uchinchisi – qonunchilik tizimining asosini***, uning sohalari va institutlari tashkil topishining boshlang'ich bo'g'inini yuridik norma, ya'ni qonun

va boshqa normativ-huquqiy hujjatning normasi (moddasi) tashkil etadi. Qonunchilik tizimining ushbu boshlang'ich qismini shartli ravishda **qonunchilik normasi** deb atash mumkin. Qonunchilik normasi deganda, Konstitutsiyaning normasini, qonunning qoidasi (moddasi)ni, farmonning normasini, hukumat qarorlarining normasini tushunish lozim.

To'rtinchisi – o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy hayotning nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etuvchi har turli ijtimoiy munosabatlar majmuini tartibga soluvchi, bir necha huquq sohalariga oid huquq normalarini o'z ichiga oluvchi normativ tuzilma **qonunchilikning kompleks sohasi** (masalan, transport, baliqchilik xo'jaligi, harbiy, temir yo'l munosabatlariga oid qonunchilik) deb ataladi¹. Masalan, qonunchilikning kompleks sohasi sifatida harbiy qonunchilik Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy xizmat o'tash tartibi, harbiy xizmatchilar hamda ular oilalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va qo'riqlash bilan bog'liq davlat, ma'muriy, yer, moliya, jinoyat va boshqa huquq sohalariga tegishli normalarni o'z ichiga oladi.

Taassufki, milliy huquqshunosligimizda «*huquq*» bilan «*qonun*»ni bir-biridan farqli hodisalar ekanligini anglamasdan, ularni aynanlashtirish holatlari mavjud. Shu bois aksariyat tadqiqotchilar «*huquq sohasi*» va «*qonunchilik sohasi*» kategoriyalarini yetarlicha farqlamaydilar. Ba'zi olimlar «huquqning kompleks sohalarini» bo'ladi, deb hisoblaydilar². Aslida, kompleks sohalar, yuqorida isbot qilganimizdek, faqat qonunchilikda mavjud bo'lishi mumkin. Shuni yana bir karra yodga solish lozimki, huquq sohalarini shakllantirish (alohida ajratish) mezoni huquqiy tartibga solish predmeti va tegishli huquqiy tartibga solish metodidir. Ular har bir huquq sohasi uchun alohida va o'ziga xos hodisadir³. Qolaversa, huquq sohasining predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bir turliligi, mazmunan bir toifaga mansubligi, ta'bir joiz bo'lsa, «bir jinliligi» bilan tavsiflanadi, va aslo, kompleks xususiyatga ega emas.

Qonunchilikning kompleks sohasi to'la shakllanib, amal qilishi uchun kompleks normativ hujjatlarning tizimi (yig'indisi) mavjud bo'lishi lozim. Shunday qilib, kompleks mazmundagi hujjatlarning yig'indisi, majmuasi qonunchilikning kompleks sohasini hosil qiladi. Bitta qonunchilik hujjatida turli huquq sohalariga tegishli normalarni jamlash qonun chiqaruvchi organga masalalarni keng qamrovli, ya'ni kompleks tarzda hal qilish imkoniyatini beradi. Masalan, bitta qonunchilik hujjatida ijtimoiy muhim masalaning ham fuqaroviy-huquqiy, ham ma'muriy, ham jinoiy-huquqiy va boshqa jihatlari kompleks tarzda aks ettiriladi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.12. – T., 2006. – 205-bet.

² Rahmonqulov X.R. O'zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi. – T., 2007. – 8-bet.

³ Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T., 2008. – 58-bet.

Qonunchilikning kompleks (majmuiy) tuzilmalari qatoriga, masalan, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi, transport qonunchiligi, kapital qurilish sohasiga oid qonunchilik, fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga oid qonunchilik, xo'jalik qonunchiligi kabilarni kiritish mumkin. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir sharoitda yangi huquq tarmoqlari paydo bo'lmoqda. Masalan, korporativ huquq, budget huquqi, bojxona huquqi, parlament huquqi, tadbirkorlik huquqi, sug'urta huquqi, axborotlashtirish huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi, munitsipal huquq va boshqalar shular jumlasidandir.

Qonunchilik tizimini yanada chuqurroq ta'riflash maqsadida uni huquq tizimi bilan qiyoslab tahlil yuritamiz.

Avvalo, huquqning tarkibiy tuzilishi (strukturasi) jamiyatning iqtisodiy tizimi mazmuni bilan belgilanadi. Huquq tizimi qonun chiqaruvchi organning xohishiga ko'ra shakllantirilmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, huquq tizimining elementlari quyidagilardan iborat: huquq normalari, huquq institutlari, huquq tarmoqlari (ba'zan u yoki bu huquq tarmog'i ichidagi bir turdagi yirik tuzilmani «tarmoq osti huquq sohasi» deb yuritiladi). Huquq tizimining rivojlanishi va yangilanishi ijtimoiy munosabatlarning takomillashuviga bog'liq.

Qonunchilik huquq normalarini o'rnatish, rasmiylashtirish va hayotga joriy etish vositasi hisoblanadi. Qonunchilik hujjatlari huquqiy normalarni umumlashtiradi va rasmiy ifoda etadi. Biroq, qonunchilik tizimi normativ-huquqiy aktlarning oddiy yig'indisi emas, balki bunday hujjatlarning mantiqiy mutanosib va uyg'unlashtirilgan tizimidir. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimini shakllantirishda tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlari va qonun chiqaruvchi organning istagi, manfaati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Huquqning ichki tuzilishi (strukturasi) qonunchilik tizimini shakllantirish uchun obyektiv asos bo'lib xizmat qiladi. Huquqni ijod etish yoki qonun chiqarish jarayonida vakolatli organ huquq tarmog'i va huquq tuzilmalarining xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutishi lozim.

Qonunchilik tizimi bilan huquq tizimi o'rtasida quyidagi farqlar mavjud:

birinchidan, huquq tizimining birlamchi, boshlang'ich elementini huquqiy norma tashkil etadi; qonunchilik tizimining boshlang'ich elementini qonunning moddasi yoki normativ-huquqiy hujjatning qoidasi tashkil etadi;

ikkinchidan, qonunchilik tizimi o'z mazmuniga ko'ra ba'zan huquq tizimidan kengroq bo'lishi mumkin. Masalan, qonunchilik hujjatlarida dasturiy, maqsadni ifodalovchi qoidalar ham bayon etiladi. Bular huquqiy norma yoki institut mazmuni uchun ahamiyat kasb etmaydi;

uchinchidan, huquq tizimini tarmoqlarga va institutlarga bo'lish asosida huquqiy tartibga solish predmeti va metodi yotadi; qonunchilik tarmoqlari dav-

lat hayotining yo'nalishlari va o'z predmeti mavjudligi bilan izohlanadi, ammo yagona tartibga solish metodiga ega bo'lmaydi;

to'rtinchidan, huquq tizimi, uning tarmoqlari mazmuni bir turli bo'ladi; qonunchilik tizimi va tarmoqlari esa, turli yo'nalishdagi hamda xarakterdagi munosabatlarni tartibga soladi;

beshinchidan, huquq tizimining ichki tuzilishi qonunchilik tizimining ichki tuzilishi bilan aynan mos kelavermaydi. Qonunchilik tizimining vertikal tuzilishi davlat organlari iyerarxiyasini aks ettirsa, huquq tizimining vertikal tuzilishi – uning normalarga, institutlarga, sohalarga bo'linishini aks ettiradi;

oltinchidan, huquq tizimi obyektiv xususiyatga ega bo'lsa, qonunchilik tizimi subyektiv omilga, ya'ni qonun chiqaruvchi organning xohish-irodasiga bog'liq.

Shunday qilib, huquq tizimi bilan qonunchilik tizimi o'rtasidagi nisbatni, munosabatni aniqlash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bu vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi huquq tizimi bilan qonunchilik tizimini bir-biriga yaqinlashtiradi, hayotda qo'llanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

5-§. Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish tushunchasi va turlari

Ikki palatali parlament samarali va sermahsul faoliyat yuritgan sharoitda normativ-huquqiy hujjatlar hajmining keskin ko'payishi tabiiy. Bunday vaziyatda qabul qilingan yuzlab qonunchilik hujjatlari o'rtasida muayyan ziddiyatlar va kolliziyalar bo'lishi

mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev e'tibor qaratganidek, «amaldagi qonunlarimizda bir-biriga zid o'rinlar ham yo'q emas»¹. Ularni bartaraf etishda siyosiy partiyalar ham, deputatlar ham tashabbus bilan chiqmayaptilar. Bunday ziddiyatlar va nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda normativ-huquqiy hujjatlarning ichki barqarorligini ta'minlash maqsadida ularni mantiqiy tizimlashtirish (sistemalashtirish) katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi ma'ruzada ta'kidlaganidek, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash lozim, qolaversa, «Qonunlarning ko'pchiligi amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish, tuzatish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan bo'lib, kodifikatsi-

¹ Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. /Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

yalashish xarakteriga, ya'ni, muayyan darajada tizimlashuv mazmuniga ega emas»¹.

Qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish huquqiy tizim amal qilishining, muntazam rivojlanib borishining sharti hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish, mantiqiy umumlashtirishning shaklidir². Qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonun ustunligi, hokimiyatlar taqsimlanishining o'zaro tiyib turish va muvozanatlash mexanizmini ta'minlashga, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mavjud qonunchilik hujjatlarini *kodeks* shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog'i imkoniyatlari bilan ta'minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyatdir.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish davlat mexanizmi va huquqiy tizim jo'shqin maromda ishlashining zaruriy shartidir. Mazkur faoliyatni oqilona yo'lga qo'yish uning nazariy va metodologik asoslari hamda mukammal mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu ishga davlat hokimiyati organlari, muassasalarini va huquqshunos olimlarni faol jalb etish zarur. Qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning real vazifalarini belgilash uchun, birinchi navbatda, *huquq tizimi* va *qonunchilik tizimi* o'rtasidagi munosabatni chuqur tadqiq etish zarur. Ko'p yillar davomida MDH davlatlari va mamlakatimiz huquqshunos olimlari tomonidan bu masalada muayyan tadqiqotlar olib borilib, ularning ko'pchiligi qonunchilik amaliyotida o'zining munosib tasdig'ini topgan, ba'zilari esa, qonunchilikda bahs-munozaraligicha qolib kelmoqda. Milliy huquq tizimining elementini **huquq normasi**, qonunchilik tizimining elementini esa **normativ-huquqiy hujjatning (qonunning) normasi** tashkil qiladi. Qonunchilikni tizimlashtirishni aniq tashkil etishda, shuningdek huquq instituti va qonunchilik instituti, huquq tarmog'i va qonunchilik tarmog'i o'rtasidagi nisbatni aniqlash ham nihoyatda muhimdir.

Huquq tizimi va qonunchilik tizimi rivojlanishining tendensiyalarini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy munosabatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Bunday masalalarning ilmiy yechimi, avvalambor, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni ro'yxatga olish va tizimlashtirish, qolaversa, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining majmuini yaratish uchun birinchi darajali ahamiyat

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 14-bet.

² Qarang: Проблемы общей теории права и государства/Под. общ. ред. проф. В.С. Нерсесянца. – М., 2008. – 347-бет; Теория права / Под. ред. проф. М.Н. Марченко. – М., 1998. – 197–198-бетлар.

kasb etadi. Qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish amaldagi huquq tizimiga qanchalik muvofiq kelsa, undan kutilayotgan natijalar shunchalik yuqori bo'лади.

Huquq tizimi va qonunchilik tizimi o'rtasidagi munosabatni tadqiq etish davomida «qonunchilikning tizimliliigi», «qonunchilikni tizimlashtirish», «qonun hujjatlarining sistematikasi» kabi tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlik va farqli jihatlarining aniqlanishi dolzarb muammolardan biridir.

Qonunchilikni tizimlashtirish, birinchi navbatda, inson va fuqarolarning qonunlardan unumli foydalanishiga imkon yaratadi. Shu jihatdan, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishni mamlakat Konstitutsiyasidan kelib chiqib tashkil etishni ham o'ylab ko'rish lozim. Masalan, fuqaroda bankka qo'yilgan omonatlarning sir tutilishiga oid muammo kelib chiqdi, deylik. Fuqaro esa, bank va moliya huquqi sohasi bo'yicha yetarli malakaga ega emas. U o'zining huquqiy savodxonligi darajasidan kelib chiqib, huquqlarining buzilishiga oid tegishli huquqiy normani qidirib topa olmasligi mumkin. Shu bois, fikrimizcha, fuqarolarning huquqlari va burchlarini tartibga solishga qaratilgan normalar guruhini qonunchilik tizimida alohida bo'lim sifatida ajratish maqsadga muvofiq. Chunki, fuqaroning o'zi izlagan qonunni tez va oson topishiga erishish qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng asosiy maqsadidir. Yuridik adabiyotlarda tizimlashtirishning quyidagi ikki an'anaviy turi – *kodekslashtirish* va *inkorporatsiya* haqida so'z yuritiladi.

Kodekslashtirish – qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng yuqori shaklidir. Mazkur amal tufayli qonunchilik tarmog'idan muhim huquqiy normalarni mantiqiy birlashtiruvchi kompleks hujjat (kodeks) vujudga keltiriladi. Kodekslashtirishda normativ-huquqiy hujjatlar shunchaki, oddiygina to'plab birlashtirilmaydi, balki huquqiy tizimning umumiy prinsiplaridan kelib chiqib, tarmoqdagi barcha normativ material ichki mutanosib, bir butun va ilmiy tizimlashtirilgan yagona va yaxlit hujjat ko'rinishida bayon etiladi.

Kodekslashtirish – amaldagi qonunchilik normalarini chuqur va har tomonlama qayta ishlash hamda zarur bo'lsa, unga jiddiy o'zgartishlar kiritish orqali yangi, kompleks, tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat yaratishdir. Kodekslashtirishning muhim xususiyati va inkorporatsiyadan farqi shundaki, u faqat qonunni ijod etuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Shu jihatdan u huquq ijodkorligining bir turi hisoblanadi.

Kodekslashtirishda normativ-huquqiy hujjatning mazmuni o'zgaradi; ya'ni eskirgan huquqiy norma bekor qilinadi, yangisi yaratiladi; ko'pchilik normalar qayta bayon qilinadi; normalar o'rtasida qarama-qarshiliklar, takrorlashlar hamda huquqdagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

Kodeks – muayyan huquq (qonunchilik) sohasidagi ustuvor normalarni ifoda etuvchi, mujassamlashtiruvchi qonundir. U katta miqdordagi turli xil

normalarni qamrab olsa ham, ichki muvofiqlikka ega bo'lgan yagona butun hujjatdir. Uning tarkibiy qismlari (normalar, institutlar) o'zaro uzviy aloqador bo'lib, muayyan tizim tarzida joylashtiriladi. An'anaga ko'ra, qonunchilik sohaslarida tegishli kodekslar uyg'unlashtiruvchi va boshqaruvchi faol markaz rolini o'ynaydi. Kodeks bir huquq sohasiga oid qonunning mukammalligi, sayqal topganligi, barqarorligi bilan farq qiladi. Agar muayyan qonunchilik sohasida bir vaqtning o'zida kodeks va bir necha qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lsa, ular ichida kodeks yuridik kuchi va tartibga solish imkoniyati jihatidan ustunlik qiladi. Kodekslar ichki mantig'ining pishiqligi, normalarining o'zaro muvofiqlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Kodekslashtirilgan aktlar o'zining huquqiy tartibga soluvchi ta'sir kuchi va ahamiyatini uzoq muddat davomida saqlab qoladi.

Kodeksdan tashqari kodekslashtirilgan hujjatlarning *ustav* va *nizom* shakllari mavjud. Ular o'z mazmuni va vazifasiga binoan bir-biridan farq qiladi.

Ustav – boshqaruvning u yoki bu sohasidagi muayyan idora, vazirlik va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi normalarni o'zida aks ettiruvchi kodekslashtirilgan aktdir. Masalan, Qurolli Kuchlar intizomiy ustavi.

Nizom – muayyan davlat tuzilmalarini (jamoat birlashmalarining) tashkil etilish tartibi, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kompleks kodekslashtirilgan hujjat.

Nizom – kodekslashtirilgan hujjatning eng keng tarqalgan turi. U muayyan huquq ijodkorlik organi yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlanadi. Eng ahamiyatli sohalarga tegishli va yuridik kuchi yuqoriroq bo'lgan nizomlar respublika Prezidenti, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni to'g'risida nizom» – mamlakat Prezidenti tomonidan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'mitalari to'g'risida nizom» – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan tasdiqlangan va hokazo.

Inkorporatsiya – qonunchilikni tizimlashtirishning bir turi bo'lib, bunda qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, farmoyishlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniga hech qanday o'zgartirish kiritmay, alifbo, xronologik, mavzu bo'yicha va boshqa tarzda tizimga solib nashr etiladi.

Qonunlarni inkorporatsiya qilish orqali tizimlashtirish deyarli barcha davlatlarda amalga oshiriladi. Ular ko'p jildli holda nashr etilib, qonunlarning chiqarilgan vaqtiga qarab (xronologik), alifbo tartibida va boshqa sifat hamda belgilariga qarab joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab chiqarilgan qonunlarni «O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari» degan ko'p jildli xronologik

to'plam sifatida nashr etib keldi. Endilikda, «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» nashr qilinmoqda.

Inkorporatsiyaning uch turi mavjud:

a) *rasmiy inkorporatsiya* – qonunchilik hujjatlarini ularni chiqargan organlar tomonidan to'plam va majmua shaklida tizimlashtirish;

b) *norasmiy inkorporatsiya* – bunda tizimlashtirilgan to'plamlar tuzish unga maxsus vakolatli bo'lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi (masalan, yuridik nashriyotlar tomonidan yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan tizimlashtirish);

d) *ofitsioz inkorporatsiya* – qonunchilik hujjatlarining ularni tizimlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idoralar tomonidan to'plam yo majmua qilib chiqarilishi (odatda, bunday tizimlashtirish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi).

Qonunlar majmuini tuzish, qonunlar va boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlarni to'plab, qat'iy tartib asosida mavzuli (predmetli) tizimlash – inkorporatsiyaning eng yuqori ko'rinishidir.

Konstitutsiya asosida mamlakat qonunlari majmuini tayyorlash va chop etish qonunlar mazmunini aholiga yetkazish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlashni kuchaytirish, davlat va jamiyat hayoti huquqiy negizini mustahkamlashga, ommaning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni **jamlash (konsolidatsiya qilish)** usuli qonunchilikni tizimlashtirishga yaqin turadi. Qonunchilikni jamlash normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishdan oldin, dastlabki bosqich sifatida maydonga chiqadi. Bunda u yoki bu masalaga oid huquqiy hujjatlar to'planadi, birlashtiriladi hamda umumlashtiriladi.

6-§. Normativ-huquqiy hujjatning tili va uslubi

Til odamlar o'rtasida aloqa qilish, bir-birini tushunish, inson faoliyatining barcha sohalarida birgalikda faoliyat yuritishning muhim vositasidir. Normativ hujjatlar tili muayyan xususiyatlar va qonuniyatlarga ega bo'lib, ular mustaqil ilmiy tadqiqotlar mavzuini tashkil etadi¹. Qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash va talqin etish amaliyoti uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammo bo'yicha asosli va chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarur. Bundan tashqari, asosiy yuridik atamalarni bir xilda tushunish va qo'llash uchun ularning umumiy

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995. – 191–194-betlar; Ko'chimov Sh. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi. – T., 1997.

ro'yxatini tuzish fursati yetdi. Bu yuridik atamalarning rivojlanish yo'llari to'g'risida ma'lum xulosalar chiqarish, yuridik amaliyotda atamalarni qo'llash muammolarini, huquqiy atamalarni takomillashtirish, standartlashtirish va bir xil holga keltirish yo'llarini tadqiq etish imkonini beradi.

Normativ hujjat grammatik qoidalarga qat'iy rioya etgan holda sof adabiy tilda yozilishi lozim. Kelgusida anglashilmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun umumiy qabul qilingan adabiy til shakllaridan chetlashishga yo'l qo'yilmaydi. Til muttasil rivojlanib boruvchi hodisa bo'lgani bois, so'zlarning ma'nosi o'zgarishi mumkin. Shu bois so'zlar va atamalarni normativ hujjat qabul qilingan paytdagi ma'nosida qo'llashni nazarda tutadigan qoidaga qat'iy rioya etish lozim. Mahalliy shevaga mansub so'zlar va jumalarni yoki eskirgan (arxaik) so'zlarni qo'llash mumkin emas. Chunki, normativ hujjat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, hokimiyatning inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. U badiiy asardan farqli o'laroq, odamlarning his-tuyg'ulari va tasavvuriga emas, balki irodasi va aql-idrokiga murojaat etadi. Normativ hujjatda ifodalangan huquq normasi huquq subyektlari amal qilishi shart bo'lgan ma'lum xulq-atvor qoidalarini belgilaydi va ayni paytda, mazkur qoidalar buzilgan taqdirda ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Bu holatlar huquq tilining o'ziga xos jihatlarini belgilab beradi.

Matnni mumkin qadar aniq, lo'nda va to'liq bayon etishga katta e'tibor berish mana shunday jihatlardan biridir. Normativ hujjatda jumalar va iboralarni sun'iy tarzda juda qisqa ifodalash amaliyotda noaniqliklar va anglashilmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin, tushuntirishlar berish, qo'shimchalar qilish va boshqa hujjatlar qabul qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Sodda va tushunarli bayon etishga intilish normativ qoidalar mazmunining aniqligi va to'liqligiga putur yetkazmasligi, jo'nlikka va binobarin, ta'riflarning mujmaligiga olib kelmasligi lozim. Ayrim normativ hujjatlar juda murakkab munosabatlarni tartibga soladi va bu tegishli normalarni bayon etish uslubida o'z aksini topadi. Normativ hujjatlar tilini huda-behudaga murakkablashtirmaslik kerak. Ammo, ayni vaqtda, u ommabop risolani ham eslatmasligi lozim. Hujjatda moddalar miqdorini sun'iy tarzda kamaytirish mumkin emas, chunki bu holda moddalar bayoni (matni) asossiz ravishda uzunlashib va kattalashib ketadi.

Huquqshunoslikda ishlab chiqilgan va odatdagi nutqda uchramaydigan maxsus atamalar normativ hujjatlarda keng qo'llaniladi, umumiy muomalada keng tarqalgan aksariyat atamalar nisbatan tor va maxsus mazmun kasb etadi. Huquqiy ko'rsatmalarning aniqligini oshirish uchun bir xil atama va iboralarni inkor etmaslik, balki ularni keng qo'llash o'rinlidir. Ayni bir tushunchani ifodalash uchun sinonimlardan foydalanishda ham juda ehtiyot bo'lish kerak. Zero,

sinonim so'zlarning har biri o'z ma'nosiga ega. Ulardan noto'g'ri foydalanish normativ matnda noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Boz ustiga, aksariyat sinonimlar normativ hujjatlarda o'ziga xos ma'no kasb etadi.

Ayrim yuristlar ongida hanuzgacha saqlanib qolgan «oddiy fuqarolar mu-taxassislarining yordamisiz qonunlarning mazmunini tushuna olmaydilar», de-gan zararli qarashga barham berish kerak. Qonun matni qanday tuzilganiga ko'p narsa bog'liq. Qonun talablari hammaga tushunarli va aniq bo'lishi lozim. Agar qonun ijtimoiy munosabatlarning tor va maxsus sohasini tartibga solsa hamda xodimlarning alohida toifasiga mo'ljallangan bo'lsa, unda maxsus va texnik atamalar hamda iboralarni qo'llash o'rinli bo'ladi. Bordi-yu, qonun keng aholiga mo'ljallangan bo'lsa, uni nisbatan sodda va tushunarli tilda bayon etish lozim. Bunday hujjatlarda murakkab va maxsus atama hamda iboralarni, max-sus so'z va jummalarni tushuntirmasdan keng qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Ta'riflarning noaniqligi, tushunchalar va atamalarni bir xilda qo'llamaslik normativ hujjatni noto'g'ri tushunish va qo'llashga, uning asl ma'nosidan che-kinishga olib keladi. Normativ hujjatda noo'rin yoki noto'g'ri qo'llangan atama yoki ibora, noto'g'ri tuzilgan yoki tushunarsiz jumla, xato punktuatsiya – bu-larning barchasi jiddiy oqibatlariga: ko'p sonli so'rovlar va bahslarga, qo'shimcha tushuntirishlar talab etilishiga, eng xavotirlisi – normativ hujjatlar ma'nosining buzilishiga va ularni qo'llashda xatolar bo'lishiga olib keladi. Normativ matn qanchalik aniq va tushunarli bayon etilgan bo'lsa, huquq normalarini qo'llashda shunchalik kam qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, qonunning maqsadi hayotga shunchalik to'g'ri va izchil tatbiq etiladi. Normativ hujjatlar matnini bayon etish tilining xususiyatlari maxsus yuridik til mavjud, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Maxsus atamalar sonining ko'pligi maxsus bilimlar yoki talqin qilishni taqozo etadi. Huquqiy hujjatlar matnini bayon etish xususiyat-lari huquqiy hujjatlarning maxsus tili mavjudligidan dalolat beradi.

Yurtimizdagi yuridik til – rasmiy o'zbek adabiy tilining alohida turi. U huquqiy ko'rsatmalarni bayon etishning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq. Nor-mativ hujjat tilining sodda, tushunarli, jonli va sermazmunligi qonunni amalga oshirishning samarali vositasidir. Yuridik ta'riflar eslab qolish uchun oson, tushu-narli va ifodali bo'lishi, odamlar ongiga chuqur kirib borishi, ularning yuridik madaniyati va huquqiy ongini oshirishga ko'maklashishi katta ahamiyatga ega. Ba'zan normativ hujjatlarda, sud qarorlarida, o'quv adabiyoti va monografi-yalarda uchrab turadigan «huquqiy jargon»ni qo'llashdan ehtiyot bo'lish kerak.

So'nggi yillarda qabul qilingan normativ hujjatlar tili ancha yaxshilandi. Lekin, shunga qaramay, ayrim hujjatlarda til va uslub nuqtayi nazaridan kam-chiliklar mavjudligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Grammatik xatolar, grammatik shakllarni noto'g'ri qo'llash hollari, g'aliz jumlar va iboralar, ortiqcha hamda

keraksiz soʻz va atamalar normativ hujjatlarda hozir ham uchrab turibdi. Normativ matnda iloji boricha sodda gaplarni qoʻllash lozim. Har qanday normativ hujjat loyahasini rasman tasdiqlashdan avval umumiy adabiy tahrirdan oʻtkazish zarur. Huquq normalarini tuzishda oʻxshash taʼriflar va jumllarni, «namunaviy konstruksiyalar» va «sxemalar»ni bir xilda izchil bayon etish muhim. Turli huquqiy hujjatlarda ifodalangan oʻxshash koʻrsatmalarni bir xil shaklda bayon etish lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qonun tili muammolarini muhokama qiluvchi komissiya tuzilgan. Komissiya tarkibiga deputatlar orasidan malakali yuristlar, tilshunoslar va jurnalistlar kiritilgan. Komissiya qonunchilik hujjatlari tilidagi kamchiliklarni oʻrganadi, ularning yuz berishi sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yoʻllarini taklif etadi.

Normativ hujjatlar matnining ixcham va aniq bayon etilishi, ularning tushunariligi qonunchilikda qoʻllanilayotgan atamalarga, ularning aniqligi va bir xilligiga koʻp jihatdan bogʻliq. Normativ hujjatda qoʻllangan har qanday soʻz ham atama hisoblanavermaydi. Fikrimizcha, atama – aniq chegara bilan ajratilgan maʼlum tushunchani ifodalovchi soʻz yoki bir necha soʻzdan iborat iboradir. Atamalarni notoʻgʻri, nooʻrin qoʻllash normativ hujjatni tushunarsiz va ziddiyatli qilib qoʻyishi mumkin.

Huquqiy hujjatlarda atamalarning bir qancha turlari qoʻllaniladi. Ularning birinchisi – *umumiy qoʻllaniladigan atamalar*. Ular umumiy foydalaniladigan tildan olinadi, oʻzining umumiy eʼtirof etilgan maʼnosida qoʻllaniladi va hech qanday maxsus maʼnoga ega boʻlmaydi. Mazkur atamalarni faqat ularning maʼnosi barchaga tushunarli boʻlgan, hech qanday eʼtiroz tugʻdirmaydigan joyda qoʻllash mumkin. Ikkinchi turkum, yaʼni *maxsus yuridik atamalar* huquqshunoslikda ishlab chiqiladi yoki qonun chiqaruvchi organ tomonidan yaratiladi (masalan, «daʼvogar», «sudlanganlik», «surishtiruv» va hokazo). Umumiy qoʻllaniladigan atamalardan maxsus yuridik atamalarning ustunligi shundaki, ular zarur tushunchani aniq ifodalaydi. Mazkur atamani normativ hujjatda birinchi marta qoʻllashda haddan tashqari keng, binobarin, notoʻgʻri talqin qilinishiga yoʻl qoʻymaslik uchun ayni vaqtda mazkur atama aniq va tor maʼnoda qoʻllanilayotganini muayyan tarzda eslatib oʻtish lozim.

Baʼzi hujjatlarda koʻpincha uchinchi turkumni tashkil etuvchi, yaʼni texnika, fan va sanʼatning turli sohalaridan oʻzlashtirilgan texnik atamalar qoʻllaniladi. Huquq normalari jamiyat hayotining turli tarmoqlarini qamrab oladi. Har bir sohada huquq normalarini qoʻllash oʻz xususiyatlariga ega. Shu bois, normativ hujjatlarni maxsus texnik atamalarsiz tuzish baʼzan juda qiyin kechadi. Maxsus texnik atamalar normativ koʻrsatmalarni yanada qisqa, aniq va loʻnda qilib bayon etishga yordam beradi. Bu esa, ularning yaxshiroq

tushunilishi va to'g'riroq qo'llanilishiga ko'maklashadi. Shubhasiz, texnik atamalardan foydalanish normativ hujjatlarni tushunishni qiyinlashtiradi, lekin yuridik atamalarning aniq, ixcham va to'liq bo'lishiga jumladan mana shu atamalar yordamida erishish mumkin.

Maxsus atamalarni zaruratga qarab, o'ta ehtiyotkorlik bilan qo'llash lozim; normativ hujjatlarni ularga to'ldirib yubormaslik kerak. Yuridik hujjatlarda atamalarni qo'llashga qo'yiladigan talablarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1) atama ifodalanayotgan tushunchaning mazmunini aniq va tushunarli aks ettirishi lozim; mujmal, ko'p ma'noli, eskirgan va tushunarsiz atamalarni qo'llash maqsadga muvofiq emas;

2) keng qo'llaniladigan, umume'tirof etilgan va sinovdan o'tgan atamalardan foydalanish kerak;

3) qo'llanilayotgan huquqiy atamalarning barqarorligini saqlab qolish zarur. Umuman, muomaladan mustahkam o'rin olgan va muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan atamalardan voz kechish, asossiz ravishda yangi atamalarni muomalaga kiritish zararli. Ayni bir huquqiy tushunchani ifodalash uchun yangi atamalar kiritish, atamalarning mazmunini o'zgartirish noaniqliklar va anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu sohada turg'unlikka yo'l qo'yish, huquqiy atamalarning barqarorligi deb muvaffaqiyatsiz atamalarni saqlab qolish ham yaramaydi (masalan, «ijara» atamasi o'rniga ma'lum vaqt «pudrat» atamasi qo'llanib kelindi). Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi yangi tamoyillarni aks ettiruvchi, huquqiy hujjatlarda ilgari qo'llanilmagan yangi atamalar ishlab chiqishni, avvalo, yuridik amaliyot talab qilishi kerak, shundan keyingina huquq fani ularni qabul qilishi lozim;

4) atamalarni qo'llashda bir xillikni saqlab qolish zarur. Ayni bir tushunchani ifodalashda normativ hujjat matnida faqat bitta atamani qo'llash lozim. Normativ hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda ham mana shu talabga rioya qilish kerak. Bir tushuncha barcha qonunchilik hujjatlarida ayni bir atama bilan ifodalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

7-§. Qonunlarni tizimlashtirishda yuridik texnikaning ahamiyati

Yuridik texnika-normativ – huquqiy hujjatlar aniq, tushunarli va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida ularni ishlab chiqish, rasmiylashtirish va tizimga solish qoidalari, vositalari va usullari majmui¹.

¹ Теория государства и права/Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова. – М., 1998. – 313-бет.

O'z vaqtida Sh.L. Monteskye qonun chiqaruvchi amal qilishi lozim bo'lgan bir nechta qoidani ta'riflab bergan edi:

– qonun uslubi sodda va aniq, dabdaba va jimjimadorlikdan xoli bo'lishi lozim;

– tushunchalar aniq bo'lishi, har xil talqin qilish imkoniyatini istisno etishi lozim;

– qonunlarda real va dolzarb masalalarni ko'tarish, ramziylik va mavhumliklardan qochish zarur;

– qonunlar matni mantiq bo'yicha mashqlar bo'lmasligi, aqliy salohiyati o'rtacha bo'lgan odamlarga mumkin qadar tushunarli bo'lishi lozim;

– qonunni ko'p sonli istisnolar, cheklashlar va eslatmalar bilan qalashtirib tashlash yaramaydi;

– qonunlar puxta o'ylangan, asoslangan va amaliyot uchun zarur bo'lishi lozim.

Mazkur prinsiplar hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Qonun loyihalarini ishlab chiqishning sinovdan o'tgan usullarisiz ilg'or parlamentarizmni tasavvur qilish mumkin emas.

Qonunchilik texnikasining usullari va metodlari ko'p va rang-barangdir. Uning asosiy vazifasi qonunchilik hujjatlarining tushunarli hamda yuridik amaliyotda foydalanish uchun qulay, sifatli, lo'nda va ixcham bayon etilgan normalarini ishlab chiqishda eng yaxshi shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat. Bundan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibi va shakliga qo'yilishi lozim bo'lgan quyidagi asosiy va eng umumiy talablarni belgilash mumkin:

1) normativ-huquqiy tartibga solishning to'liqligi, huquqiy munosabatlar modelini tuzish, shuningdek yuridik normalarni ta'riflashda kamchilik va nuqsonlarning yo'qligi;

2) normativ-huquqiy ko'rsatmalarning aniqligi, normalarni haddan tashqari umumiy, mavhum ta'riflashga, haddan ziyod cheklovlarga yo'l qo'ymaslik;

3) mantiqiy jihatdan qat'iy va izchil bayon etish, huquqiy hujjatning normativ ko'rsatmalari o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash;

4) normativ hujjatda ham, butun huquq tizimida ham ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik;

5) normativ materialni iloji boricha qisqa va ixcham bayon etish (lekin ixchamlikka intilish huquqiy ko'rsatmaning barcha asosiy qoidalarini to'liq bayon etish zarurati bilan zid kelmasligi kerak);

6) normativ va nonormativ ko'rsatmalarni, muvaqqat va doimiy normalarni aniq ajratish;

7) normativ hujjatlar tilining sodda, aniq va loʻndaligi, oson esda qolishi. Qonun aniq va loʻnda boʻlgan taqdirdagina qoida real mazmun kasb etadi. Qonunni bilmaslikni bahona qilish mumkin emas. Darhaqiqat, fuqarolar uchun tushunarli boʻlmagan, faqat yuristlargina tushunib, toʻgʻri talqin qila oladigan qonunlarga boʻysunishni fuqarolardan talab qilish behuda. Tushunish uchun mutaxassislar yordami talab etiladigan qonun samarasizdir;

8) normativ-huquqiy hujjat yagona mazmun bilan bogʻlangan, bitta tartibga solish predmetiga ega boʻlishi lozim. Bir-biriga bevosita bogʻlanmaydigan ikki yoki undan ortiq mustaqil masalalar boʻyicha qonun qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Qonun huquqning muayyan tarmogʻi yoki boshqa instituti bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solishi, huquqiy tartibga solishning maʼlum predmetini qamrab olishi lozim;

9) normativ-huquqiy materialni yaxshiroq izohlash, undan foydalanish, uni hisobga olish va sistemalashtirishni yengillashtirish maqsadida ayni bir masala yuzasidan bir nechta hujjat qabul qilinishiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Yagona kompleks qonunda (qoida tariqasida, kodeksda) huquqning maʼlum tarmogʻi, muhim huquqiy institutning barcha masalalari toʻliq tartibga solinishiga, unda huquqiy tartibga solishning muayyan sohasi doirasida har qanday savolga javob boʻlishiga erishgan maʼqul. Ushbu masala yuzasidan barcha qoʻshimchalarni, qonunchilikni murakkablashtirib yangi mustaqil hujjatlar qabul qilmagan holda asosiy hujjatning matniga kiritish lozim;

10) huquq ijodkorligining texnik usullaridan bir xilda va izchil foydalanish. Agar normativ-huquqiy hujjat loyahasini tayyorlash va rasmiylashtirishda maʼlum texnik qoida qoʻllanilgan boʻlsa, uni shunga oʻxshash qolgan barcha holatlarda ham qoʻllash zarur.

Yuqorida zikr etilgan barcha talablarni qatʼiy va izchil bajarish yuridik madaniyat nuqtayi nazaridan mukammal, sifatli va samarali qonun qabul qilishga koʻmaklashadi. Talablardan birini bajarmaslik yoki birining hisobiga boshqasiga haddan tashqari berilish (masalan, matnning mazmuniga ziyon yetkazish hisobiga ixchamlikka intilish) hujjatning texnik jihatdan nomukammalligidan, qonun ijodkorlari malakasining yetarli emasligidan dalolat beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tuzish ishini rejalashtirish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Qonun ijodkorligi organi maʼlum davrga moʻljallangan reja tuzsa, unda qaysi masalalar yuzasidan asosiy qonunchilik hujjatlari qabul qilish lozimligi, ularning har biri qaysi muddatlarda tayyor boʻlishi kerakligi, muayyan hujjatni oʻz vaqtida tayyorlash uchun qaysi qoʻmita (mansabdor shaxs) bevosita javob berishini koʻrsatsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Fikrimizcha, joriy (masalan, bir yilga moʻljallangan) va istiqbolli (toʻrt-besh yilga moʻljallangan) rejalashtirishni amalga oshirish zarur. Qonun ijod-

korligi faoliyatini rejalashtirish qonunlarni puxta o'ylangan asosda, ehtiyojga qarab qabul qilish, qonunchilik hujjatlarini tartibga solish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Huquqiy materialni bayon etish usuli qonunchilik texnikasida katta ahamiyatga ega. Huquqiy normani shunday ta'riflash lozimki, uni ikki xil talqin etish mumkin bo'lmasin, hujjat matnida ta'riflangan ko'rsatmaning ma'nosi va talabini tushunish oson bo'lsin. Huquq tizimi qanchalik mukammal, uning qonunchilik texnikasi saviyasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, mazkur tizimning normalari shunchalik mukammal bo'ladi. Ayrim hollarda, agar muayyan munosabat juda keng tarqalgan bo'lsa, umumiy qoidadan muayyan istisnoni belgilash lozim bo'lsa yoki bundan ham umumiyroq qoida yetarli darajada aniq va lo'nda bo'lmasa, ushbu ta'riflarni normativ hujjatlarga kiritish o'rinli bo'lmaydi.

O'xshash jihatlarga ega va bitta umumlashtiruvchi ta'rifda tavsiflash mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlar majmuini qamrab olish uchun ancha keng huquqiy ko'rsatmalarni ta'riflash normativ material hajmini qisqartiradi, ta'riflarning yanada to'liq va serma'no bo'lishiga erishish imkonini beradi, huquqiy tartibga solishda kamchiliklar yuzaga kelishi ehtimolini kamaytiradi. Ayni paytda, mavhumlik darajasi cheksiz bo'lmasligi kerak. Haddan tashqari umumlashtirish va mavhumlashtirish ta'riflarning noaniqligi va mujmalligiga olib kelishi, har xil, ba'zan teskari talqin qilish, mazkur normalarni qo'llovchi shaxslar va organlar vakolatini kengaytirish, binobarin, qonunni buzish uchun zamin yaratadi. Huquq normalarini bayon etishda oqilona me'yorni saqlash, haddan tashqari mavhumlashtirishga ham, ortiqcha mufassallashtirishga ham berilib ketmaslik lozim.

Qisqartmalarni qo'llashdagi har xillik ham normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlashning texnik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquq normalarini bayon etishda qo'llanilgan hamda aholining aksariyat qismiga tushunarsiz bo'lgan va keng tarqalmagan qisqartmalar faqat anglashilmovchiliklar va noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Umum e'tirof etgan, muomaladan mustahkam o'rin olgan va barchaga tushunarli bo'lgan qisqartmalar (masalan, va h.k., va b.)ga kelsak, ulardan voz kechish noto'g'ri bo'lar edi. Zotan, ular normativ materialni bayon etishni qisqartiradi, uni ixchamlashtirishga ko'maklashadi. Qisqartmalarni qo'llashda ma'lum tartib va bir xillik o'rnatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Normativ-huquqiy hujjatlarning sarlavhalari haddan tashqari uzun bo'lsa, boshqa hujjatlarda ularga havola qilishda sarlavhalarini qisqartirib bergan ma'qul. Bunda sarlavhalar qisqartmalarini qo'llashning bir xil tartibini o'rnatish, ya'ni ayni bir hujjatga nisbatan bir xil qisqartmalar (masalan, JPK, JK, FK) qo'llanilishi kerak.

Qator hollarda normativ-huquqiy hujjatlarda, kichik sarlavhalarda, qisqartmalarni ta'riflashda, maqolaning rasmiy manbayini ko'rsatishda, xorijiy so'zlarni tarjima qilishda, ba'zan tushunchalarni ta'riflashda, izohlar berishda, boshqa moddalarga va normativ hujjatlarga havolalar qilishda hamda ayrim boshqa hollarda qavslardan foydalanish mumkin va lozim.

Normativ-huquqiy hujjatlarda raqamlarni yozishda bir xillikni ta'minlash katta ahamiyatga ega. Ular, qoida tariqasida, so'z bilan yoziladi. Sanalar, moddalarning raqamlari, grafiklar, tariflar va boshqa ko'rsatkichlardagi raqamlar bundan mustasno. Shunday qilib, ilmiy ta'riflarni va huquq ijodkorligining boshqa texnik vositalarini bir xilda qo'llash, mukammal va maromiga yetgan yuridik konstruksiyalardan foydalanish qonun chiqaruvchi hokimiyat organining fikrini aniq, to'g'ri va mantiqan izchil bayon etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

XVI bob. HUQUQIY TIZIM VA HUQUQIY ISLOHOT

1-§. Huquqiy tizim tushunchasi va mohiyati

O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimi – nisbatan global ijtimoiy tizim bo'lmish jamiyatning jo'shqin rivojlanayotgan tarkibiy qismlaridan biridir. Huquqiy tizimning taraqqiy etganlik darajasi, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatida namoyon bo'ladi. Nafaqat huquqshunoslar, balki barcha fuqarolarning huquqiy tizim to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadlariga erishish uchun nihoyatda muhimdir.

Mamlakatimiz milliy huquqiy tizimining mazmun-mohiyatini to'la tavsiflash uchun «huquqiy tizim» tushunchasini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Umuuman aytganda, «tizim» tushunchasi yunoncha «systema» so'zidan olingan bo'lib, «qismlardan iborat butun» degan ma'noni anglatadi. Voqea va hodisalarni tizimli o'rganish falsafa fanining alohida yutug'i bo'lib, bugungi kunda barcha sohalariga, jumladan, huquq sohasiga ham joriy etilmoqda. Falsafiy nuqtayi nazardan «tizim» ichki izchillik va o'zaro aloqadorlikni, munosabatlarning bir butunligini anglatadi. Tizimning muhim jihati uning strukturaviy xususiyatga ega ekanligi, ya'ni voqelikning ichki tarkibiy qismlarga egaligi, bu qismlar orasida pog'onali bo'ysunishning yuzaga kelishi hamda ularning nisbiy mustaqilligidan iborat¹.

Har bir fan o'zi o'rganayotgan obyektning mazmun-mohiyatini ochishga tobora chuqurroq kirib borar ekan, tadqiq etilayotgan ijtimoiy hodisalarga tizimli yondashuv, tizimli tahlil usullarini kengroq qo'llay boradi. Bu esa, insonning o'zini o'rab turgan hodisalar to'g'risidagi bilimlarini tobora kengaytirib borishiga imkon beradi.

Tizimli tadqiqotlarning dolzarbligi ikki muhim holat bilan belgilanadi. *Birinchisi*, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tizimli, yaxlit tarzda anglash ehtiyoji o'sib borayotganligi bo'lsa; *ikkinchisi*, zamonaviy nazariy bilim va amaliy faoliyat chuqurlashib borayotganligi tufayli ularni yaxlitlikda o'rganish zaruriyati yuzaga kelayotganligidir. Shu sababli bilim va ijtimoiy faoliyatni tizimlashti-

¹ Qarang: Блауберг И.В., Юдин Б.Г. Понятие целостности и его роль в научном познании. – М., 1972. – С.16; Афанасьев В.Г. Системность и общество. – М., 1980. – 21–31-бетлар.

rish, ular orasidagi bog‘liqliklarni ochib berish ehtiyoji vujudga keladi. Bu vazifani aynan tizimli tadqiqotlar hal etadi.

Huquqiy hodisalarga tizimli yondashuv ularni mukammal o‘rganishga ko‘maklashadi. Huquqiy hodisalar – insonlar irodasining mahsuli. Aynan insonlar, ularning uyushmalari siyosiy institutlarni vujudga keltiradi hamda huquqiy hodisalarni rasmiylashtiradi. Mazkur siyosiy institutlar va huquqiy hodisalar yig‘indisi o‘zaro aloqada bo‘ladi va yaxlit bir butunni tashkil etadi. Tizimning xususiyati shunda ifodalanadiki, uning tegishli qismlari bir butunga birlashadi. Qismlar yaxlitlikni hosil qiladi va aksincha yaxlitlik qismlarni birlashtiradi, ularning mohiyati, mazmuni va shakllarini, tizim tarkibidagi o‘rni va vazifasini belgilab beradi.

«*Huquqiy tizim*» tushunchasi yuridik fanga XX asrning so‘nggi choragida kirib kelgan bo‘lib, u bugun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlar bilan bir qatorda namoyon bo‘lmoqda. Huquqiy tizim huquqqa oid tushunchalar, huquqiy institutlar, huquqiy jarayonlar va boshqa barcha huquqiy voqelikni o‘zida mujassamlashtirgan holda ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Huquqiy tizim, o‘z navbatida, davlat va jamiyatning huquqqa munosabatini aks ettiradi. Yuqori darajada rivojlangan huquqiy tizim nafaqat huquqni ijod qiluvchi, uni amalga oshiruvchi hamda muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qulayliklar yaratadi, balki butun jamiyatni huquq talablari doirasida hayot kechirishini ta‘minlaydi.

Huquqiy tizimni alohida o‘rganish va unga baho berishda quyidagi muhim jihatlarga e‘tibor qaratish lozim:

- huquqiy tizim tushunchasi (mazmuni);
- huquqiy tizimning tarkibi (tuzilishi);
- huquqiy tizimning amal qilish doirasi (makonda va zamonda);
- huquqiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari (belgilari).

Huquqiy tizim tushunchasini tahlil etishda, mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlarining fikrlariga e‘tibor qaratish lozim. Ushbu tushuncha huquqshunoslar tomonidan turlicha talqin etiladi. Ba‘zi mualliflar «*huquqiy tizim*»ni «*huquq tizimi*» iborasi bilan bir xil deb tushunadilar, boshqa olimlar esa, mazkur tushuncha doirasida huquqiy normalar va huquqiy munosabatlarning o‘zaro daxldorligini nazarda tutadilar. Uchinchi guruh mutaxassislar «huquqiy tizim tushunchasi normativ tuzilma sifatida huquqning tuzilishini, vakolatli organlarning huquq ijodkorlik va huquqni qo‘llash sohasidagi faoliyatlarini qamrab oladi», deb ta‘kidlaydilar¹. Akademik V.S. Nersesyansning fikricha, huquqiy tizimni ta‘riflash, o‘z mohiyatiga ko‘ra, huquqni umumiy tushunishni, shartli ravishda «huquqiy tizim» so‘zi bilan almashtirilishini bildiradi².

¹ Алексеев С.С. Общая теория права. Т.1. – М., 1981, – 87–88-betlar.

² Проблемы общей теории права и государства / Отв. ред. В.С. Нерсесянц. – М., 2000. – 450-bet.

«Huquqiy tizim» tushunchasini talqin etish orqali huquqning ochilmagan yangi qirralarini bilib olish va shu bilan bir qatorda huquq to'g'risidagi tasavvurlarni rivojlantirish mumkin. «Huquqiy tizim» bilan «huquq tizimi»ni qiyoslab ko'raylik. To'g'ri, huquq tizimi o'z tarkibiga huquq sohalari, huquq institutlari, huquq normalarini qamrab olgani holda, huquqiy tizimning normativ o'zagini tashkil etadi. Lekin faqat huquqiy normalarning o'zi huquqiy tizimning hajmini to'liq ifodalay olmaydi. *Huquqiy tizim* huquq normalaridan iborat bo'lgan obyektiv huquqdan farq qilib, nafaqat bir turdagi elementlarni, balki turli yo'nalish va harakatda bo'lgan huquqiy tuzilmalarni, g'oyalarni, prinsiplarni, jarayonlarni o'zida mujassamlashtiradi. Huquqiy tizimga harakatdagi (funktional) hodisa sifatida qarash lozim. Huquqiy tizim keng qamrovli tushuncha bo'lib, muayyan makon va zamonda amal qilayotgan huquqiy hodisalar, huquqiy prinsiplar, institutlar, huquq normalari hamda huquqiy jarayonlarning mushtarak bir butunligi, o'zaro uzviy bog'liqligi va aloqadorligidir.

Taniqli olim M.N. Marchenkoning nuqtayi nazariga ko'ra, huquqiy tizim deganda, biror-bir mamlakat doirasida amal qiluvchi barcha yuridik institutlar va muassasalarning yig'indisidan iborat mamlakatning butun huquqiy tuzilmasi, jamiyatning yagona vujud sifatida huquqiy jihatdan tashkil etilganligi tushuniladi. Bu nafaqat huquqiy normalar, shu bilan birga, huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy amaliyot va hokazolarni qamrab oladi¹.

«Huquqiy tizim – o'zaro bog'liq bo'lgan, mutanosib va bir-biriga ta'sir qiluvchi huquqiy vositalardan iborat bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni, shuningdek, u yoki bu mamlakatdagi huquqiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi tarkibiy qismlarni birlashtiradi»². Ushbu ta'rif ham huquqiy tizim mazmunini yoritishda muayyan ahamiyat kasb etadi.

Prof. N.I. Matuzovning e'tirofiga ko'ra, «Huquqiy tizimni ichki muvofiqlashgan, o'zaro bog'langan, ijtimoiy bir turdagi yuridik vositalarning yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin. Davlat ularning yordamida ijtimoiy munosabatlarga zarur normativ ta'sir (mustahkamlash, tartibga solish, qo'riqlash, muhofaza qilish kabi) ko'rsatadi»³. Lekin fanda «huquqiy tizim» tushunchasini «huquq tizimi», «qonunchilik tizimi», «yuridik normalar tizimi» tushunchalari bilan aynan bir xil, deb hisoblash uchrab turibdi. Huquqiy tizimni tushunishda, «huquq tizimi» va «huquqiy tizim» kategoriyalarining bir-biridan farqini ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

¹ Qarang: Марченко М.Н. Теория государства и права в вопросах и ответах. – М., 2001. – 131-bet.

² Saidov A., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi. Ikki jildli. 2-jild. Huquq nazariyasi. – T., 2001. 48-bet.

³ Матузов Н.И. Правовая система и личность. – Саратов. 1987. – 26-bet.

Huquq tizimi – huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi – tarkibi bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o‘rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko‘rsatadi. Yoki, huquq tizimi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning ichki tuzilishi bilan bog‘langan, huquqiy normalarni izchil tarzda joylashtirilishining ifodasidir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, huquq tizimi huquqning ichki tarkibiy tuzilishidir. Uning tarkibiga: huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalari (tarmoqlari) kiradi. Demak, *huquq tizimi* – huquqning ichki tuzilishi, uning tarkibiy qismlarini tashkil etilishi va joylashishining muayyan tartibini ifodalaydi.

Huquqiy tizim esa, mamlakat hududi doirasida amal qiladigan barcha yuridik vositalar, huquqiy jarayonlar, institutlar va muassasalarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, jamiyatning huquqiy tuzilishi, uning butun huquqiy hayoti va huquqiy jihatdan tashkil etilishini ifodalaydi.

Huquqiy tizim nafaqat huquq normalarining o‘zi, balki ularni harakatga keltiruvchi, o‘zaro bog‘liq huquqiy hodisalar yoki vositalar hamda ularning bir butun harakatdagi ko‘rinishidir. Huquqiy tizim tarkibiga huquq normalari bilan bir qatorda, huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqiy amaliyot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy mafkura, huquqiy siyosat, huquqiy tamoyillar, yuridik muassasalar va boshqalar kiradi. Huquqiy tizim asosan muayyan mamlakat va davlat miqyosida amal qiladi. Chunki, davlatlarda hokimiyatni amalga oshirish usuli, davlat organlarining tashkil etilishi va shu kabi davlatning asosiy siyosiy xususiyatlariga qarab, uning qonunchiligi va huquqiy tizimi yaratiladi.

Huquqiy tizim tushunchasini muayyan davlatlardagi huquqiy voqelikka nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bir qator huquqiy tizimlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni belgilab olish, ularni huquq oilalari bo‘yicha tasniflash imkonini beradi¹. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, jamiyatda mavjud huquq tavsifiga tizimli yondashilganda, uning barcha tarkibiy qismlari xalqning manfaat va irodasini ifodalashida namoyon bo‘ladi. Huquqiy tizimning alohida tarkibiy qismlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘ladi va bir-biriga faol ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tartibga solish yagona maqsadga, ya’ni jamiyat barqarorligini ta’minlash, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi – mamlakatimizdagi huquqiy voqelikni, ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida ifodalovchi nisbatan yangi huquqiy kategoriyadir. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, mohiyat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi milliy huquqiy tizimni shakllanti-

¹ Qarang: Вишневский А.Ф. Общая теория государства и права // А.Ф. Вишневский, Н.А. Гартбак, В.А. Кучинский; Под общ. ред. проф. В.А. Кучинского. – М., 2004. – 280-бет.

rishga kirishildi. Albatta, huquqiy tizimni yaratish bir qancha yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Zamon ruhiga yot, yagona mafkurani o‘rnatuvchi, bozor munosabatlariga to‘sqinlik qiluvchi normalar bekor qilindi, ba‘zilari esa, mohiyatan o‘zgartirildi va aksariyat qoidalar mutlaqo yangidan qabul qilindi. Bu normalar yaxlit tizimning tarkibiy qismlariga aylandi, yangi huquqiy tizim hosil qildi.

O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi – bu umum e‘tirof etilgan talablar va xalq manfaati hamda fuqarolarimizning erkin hayoti, farovon kelajagini hisobga olgan holda yaratilgan, unga muvofiq harakatda bo‘lgan huquqiy hodisalar, vositalar, jarayonlar, prinsiplar, institutlar hamda muassasalarning o‘zaro mantiqiy bog‘liq holdagi ifodasidir.

Mamlakat huquqiy tizimi muayyan davlatning ichki huquqiy hayoti, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquq tizimi, huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, huquqiy madaniyat, huquqiy amaliyot va yuridik fanni qamrab oluvchi, o‘ziga xos amal qilish xususiyatlariga ega bo‘lgan hamda doimiy rivojlanishda bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy voqelikdir.

Shunday qilib, huquqiy tizim har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlari: geografik jihatdan joylashuvi, tarixi, tili, dini, xalqining ijtimoiy tabiati, mentaliteti, urf-odatlarini, shuningdek milliy qadriyatlarini inobatga olgan holda shakllanib, jamiyatning, shu mamlakat fuqarolarining manfaatlarini o‘z mazmunida aks ettiradi.

2-§. Huquqiy tizimning tarkibiy elementlari

Tizim muayyan tarkibiy qismlar, bo‘linmalarining bir butun shaklidir. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy tizim alohida ijtimoiy hodisa sifatida bir qancha tarkibiy qismlar (elementlar)ni birlashtiradi. Huquqiy tizimning tarkibiy qismlari bir-biridan o‘z mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari, tuzilishi va shakli, harakat doirasi va maydoni hamda boshqa xususiyatlari bilan farq qiladi. Huquqiy tizim tuzilishining murakkabligi uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning ko‘pligi, har birining alohida funksiyasi mavjudligi va o‘zaro munosabatda hamda uzviy aloqadorlikda harakatlanishida namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning huquqiy tizimi o‘zining muayyan mantiqiy ichki tarkibiy tuzilishiga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir. «Huquqiy tizim» o‘z tarkibiy qismlarining tizimli majmui tarzida gavdalanadi va normalar yig‘indisi hisoblanmish obyektiv huquqdan jiddiy farq qiladi. Mazkur farq shundaki, huquqiy tizim bir turdagi elementlarnigina emas, balki turli yo‘nalish va

maqomdagi tuzilmalarni qamrab oladi, birlashtiradi. Ta'kidlash joizki, huquqiy tizim tarkibiga:

1) **falsafiy** yoki **mafkuraviy** (huquqning talqini, huquqiy tushuncha va kategoriyalar, huquqiy ong, huquqiy mafkura, huquqiy madaniyat);

2) **normativ** (jamiyatda amal qilayotgan huquqiy normalar majmui);

3) **institunional-tashkiliy** (huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayoni bilan bog'liq yuridik muassasalar);

4) **sotsiologik**, ya'ni **ijtimoiy** (huquqiy munosabatlar, huquqni tatbiq etish, qonuniylik muhiti, yuridik amaliyot) elementlar kiradi.

Huquqiy tizim harakatdagi «jonli» hodisa sifatida talqin etilishi lozim. Zero, u ijtimoiy hayotning faol tarkibiy qismi sifatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarni uzluksiz tartibga solish vazifasini bajaradi. Amaliy jihatdan huquqiy tizim harakatlanishining dinamik talqini muhim ahamiyat kasb etsa, ilmiy nuqtayi nazardan uni statik (harakatsiz) tarzda ajratib olib ifodalash muayyan mazmunga ega. Shundan kelib chiqib, huquqiy tizim strukturasi **statik** va **dinamik** jihatdan tavsiflash mumkin.

Statik holatda uning tarkibiy qismlari quyidagilardir: 1) yuridik normalar; 2) huquqiy prinsiplar va institutlar; 3) huquqiy muassasalar yig'indisi; 4) huquqiy g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar.

Dinamik holatda: 1) huquq ijodkorlik jarayoni; 2) huquqni amalga oshirish (qo'llash) jarayoni; 3) huquqiy munosabatlar; 4) huquqiy tartibga solish mexanizmi; 5) huquqiy tafakkur (huquqiy ongning rivoji, ijtimoiy hayotga faol ta'siri). Huquqiy tizimning dinamik ko'rinishi bu mazkur tizim elementlarining harakatlanish jarayoni, uning maqsadli yo'nalishi va pirovardida ko'rsatadigan samarasidir.

Shunday qilib, jamiyat huquqiy tizimi tarkibiga quyidagi asosiy elementlarni kiritish mumkin:

- huquqiy normalar yig'indisi (huquqiy tizimning o'zagi);
- huquqiy prinsiplar (rahbariy g'oyalar);
- huquq ijodkorlik jarayoni (vakolatli idoralarning faoliyati);
- huquqni amalga oshirish, qo'llash jarayoni;
- huquqiy munosabatlar (huquqiy normaning amalga oshirilish shakli);
- huquqiy tartibga solish mexanizmi;
- yuridik muassasalar tizimi;
- yuridik amaliyot (sud amaliyoti, tergov amaliyoti, adliya amaliyoti va hokazo);
- huquqiy ong (huquqiy hodisalarning ijtimoiy ongdagi in'ikosi);
- huquqiy siyosat (strategiya);
- huquqiy mafkura (g'oyaviy-ma'naviy jihat);

- huquqiy madaniyat (huquqiy ma’naviyat va tarbiyaning ifodasi);
- qonuniylik muhiti va huquqiy tartibot rejimi;
- huquqning manbayi (qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar majmui).

Yuqorida sanab ko’rsatilgan huquqiy hodisalar yagona bir tizim hosil qilib, o’zaro aloqadorlikda, munosabatda bo’ladi. Har bir huquqiy institut (hodisa) qolganlarining mavjud bo’lishini taqozo etadi. Bu tizimdagi bir elementning harakatlanishi qolgan elementlarning harakatga kelishiga sabab bo’ladi. Demak, ***jamiyatning huquqiy tizimi*** – muayyan makon va zamonda amal qilayotgan huquqiy hodisalar, huquqiy prinsiplar, institutlar, normalar va huquqiy jarayonlarning mushtarak bir butunligi, o’zaro uzviy bog’liqligi hamda aloqadorligi bo’lib, ularning maqsadli harakatlanishi natijasida ijtimoiy munosabatlarning yuksak saviyada huquqiy tartibga solinishiga erishiladi. Huquqiy tizim yaxlit hodisa bo’lib, tarkibiy qismlarining o’zaro ichki aloqadorligi, bog’liqligi, mutanosibli, izchilligi va barqarorligi bilan tavsiflanadi.

Bayon etilgan tarkibiy qismlar huquqiy tizimning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ko’rsatadi. Shunga o’xshash fikrni davlat va huquq nazariyasiga oid darsliklarda ham ko’rish mumkin. Unga ko’ra, huquqiy tizimning asosiy qismlari sifatida quyidagilar alohida ajratib ko’rsatiladi: 1) huquqiy tushunchalar; 2) huquqiy jarayonlar; 3) huquq prinsiplari; 4) huquqiy madaniyat; 5) huquqiy siyosat; 6) huquq va uni ifoda etuvchi qonunchilik; 7) huquqiy munosabatlar; 8) yuridik amaliyot; 9) yuridik texnika; 10) yuridik fan.

N.I. Matuzov esa, huquqiy tizimni murakkab, serqirra tushuncha ekanligini ta’kidlab, uni jamiyatda mavjud bo’lgan barcha yuridik hodisalar, huquqiy vositalar yig’indisi sifatida ta’riflaydi¹. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, olim huquqiy tizim tarkibini barcha huquqiy hayot, huquqiy ustqurma elementlari bilan izohlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, huquqiy tizim – murakkab ijtimoiy hodisa sifatida o’z tarkibida mamlakatdagi mavjud barcha huquqiy voqeliklarni, ya’ni, huquqiy vositalar, hodisalar, institutlar, muassasalar, binobarin huquqiy hayotni aks ettiruvchi butun bir reallikni ifodalaydi.

Huquqiy tizimning tarkibiy elementlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Normativ xususiyatga ega bo’lgan tarkibiy elementlar:

a) huquq; b) huquq tizimi; d) huquqiy prinsiplar; e) huquqning manbalari.

2. Harakatda (muayyan jarayon orqali) ifodalanadigan tarkibiy elementlar:

¹ Qarang: Матузов Н.И. Правовая система и личность. – Саратов. 1987. – 26-бет.

a) huquq ijodkorligi; b) huquqni amalga oshirish, qo'llash jarayoni; d) huquqiy munosabatlar; e) huquqiy tartibga solish mexanizmi;

3. G'oyaviy-mafkuraviy mazmunga ega bo'lgan elementlar:

a) huquqiy ong; b) huquqiy madaniyat; d) huquqiy mafkura; e) huquqiy siyosat; f) yuridik fan (huquqiy tafakkur); g) qonuniylik muhiti va huquqiy tartibot rejimi.

4. Tashkiliy tarkibiy elementlar:

a) yuridik muassasalar: huquqiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar.

Huquqiy tizimni tushunishda uning tarkibiy qismlari mazmunini chuqur bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi elementlar bir butun yaxlit holda huquqiy tizimni tashkil etadi: huquq, huquq tizimi, huquqiy tamoyillar, huquq ijodkorligi, huquqni amalga oshirish, huquqiy munosabatlar, huquqiy tartibga solish mexanizmi, yuridik muassasalar tizimi, yuridik amaliyot, huquqiy siyosat, huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va boshqalar. Huquqiy tizimning har bir elementiga alohida to'xtalamiz.

Huquq – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, davlat tomonidan qabul qilingan yoki ma'qullangan yashash qoidalari tizimidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, **huquq tizimi** – bu huquqning tarkibiy tuzilishi bo'lib, o'z tarkibiga huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarini qamrab oladi. Huquq tizimi huquq normalarining tashkiliy tuzilishi bo'lib, uning mavjud bo'lishi obyektiv shart-sharoitlarga (milliy, madaniy, tarixiy va sh.k.) bog'liq va huquqning ichki tuzilishini ifodalaydi. Huquq tizimi huquqiy tizimning normativ asosi hisoblanib, boshqa tarkibiy elementlarning shakllantiruvchi va harakatini tartibga soluvchi birlamchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy prinsiplar huquqiy tizim doirasidagi rahbariy g'oyalar yig'indisini tashkil etadi. Mazkur tushuncha kompleks xususiyatga ega. Chunki, huquqiy tizimning har bir elementi o'z prinsiplariga ega.

Huquqiy prinsiplar – yo'naltiruvchi, dastlabki g'oya bo'lib, insonlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun xizmat qiladigan, asosiy yo'nalishni ko'rsatib beradi. Huquqiy tizimni shakllantirishda huquqiy prinsiplar (rahbariy g'oyalar)ning faol harakatini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquq ijodkorligi – jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli organlarning huquqiy hujjatlarni shakllantirish va qabul qilish faoliyatini qamrab oluvchi jarayon.

Huquqni amalga oshirish – huquq normalari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yoki huquqni amalda tatbiq etishda namoyon bo'ladi.

Huquqni amalga oshirishning birlamchi shakli qonun chiqarish bo'lsa, ikkilamchi shakli ular orqali ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishdir.

Huquqiy munosabatlar – huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Huquq sohalariga ko'ra ular: konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar, jinoiy-huquqiy munosabatlar, ma'muriy-huquqiy munosabatlar, fuqaroviy-huquqiy munosabatlar va boshqa turlarga ajraladi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyatda turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga muntazam ravishda va muayyan ketma-ketlikda ta'sir etish jarayonidir. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda huquqiy normalar ruhi mamlakat intilayotgan maqsad va vazifalar, ya'ni: bozor iqtisodiyotiga o'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish manfaatlari bilan chambarchas bog'liq.

Yuridik muassasalar – huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Yuridik muassasalar deb – huquq ijodkorligi, huquqni tadbiq etish, uni muhofaza qilish hamda huquq buzilishlariga qarshi kurash bilan shug'ullanadigan davlat va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tizimiga aytiladi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik muassasalar tizimiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi prokuratura, bojhona va soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, shuningdek vakillik hamda davlat boshqaruv organlari, advokatura va hokazolar kiradi.

Huquqiy amaliyot huquq va huquqiy ong bilan birga jamiyat huquqiy tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Huquqiy amaliyotsiz huquqiy tizim tashkil topishi, rivojlanishi va amal qilishi mumkin emas. Huquqiy amaliyot to'plangan ijtimoiy-huquqiy tajribalar asosida huquqiy normalarni yaratish, sharhlash va amalga oshirish faoliyatidir. Huquqiy tizimning «sistema» tashkil etuvchi tarkibiy qismlaridan hisoblangan huquqiy ong va huquqiy madaniyat muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, huquq bilan chambarchas bog'liqdir.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir shakli hisoblanib, nisbatan mustaqildir. Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquqqa, qonunga munosabati hamda davlat mexanizmi faoliyati xususidagi tasavvurlari, qarashlari, ta'riflari, his-tuyg'u va kayfiyatlarining mujassam ifodasidir. Jamiyat huquqiy tizimida katta ahamiyatga ega bo'lgan, huquqning insonlar xatti-harakatida mujassamlashishi, kishilarning huquqqa nisbatan hurmati, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizligini anglatuvchi tushuncha-huquqiy madaniyat hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma'naviy kamolotining, davlatchilik binosi rivoji va huquqiy tizim yetukligining muhim ko'rsatgichidir. Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasi, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasi, fuqarolarning qonunga

hurmati, huquqiy normalarning ijro etilishi darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasi tushuniladi.

Huquqiy siyosat – ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asoslari, prinsiplari, yo'nalishlari, vazifalari, strategiyasi va taktikasidir. U davlat tomonidan shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

Huquqiy mafkura davlatchilik, siyosiy tizim va huquqiy hayot haqidagi siyosiy-huquqiy g'oyalar, qarashlar va bilimlarning umumlashtirilgan tizimidir.

3-§. **Huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari**

Huquqiy tizimining mazmun-mohiyati, uni isloh qilish hamda moder-nizatsiyalash xususida gap borganda, avvalo ikki o'zaro uyqash tushuncha: «*huquqiy islohotni ta'minlash*» va «*islohotlarni huquqiy ta'minlash*» iboralari-ning ma'nosini aniqlab olish lozim. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar barcha iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sohalarini qamrab olgan. Har bir yo'nalishda islohotlarni ro'yobga chiqarish uchun tegishli huquqiy bazani yaratish, rejalashtirilgan islohiy tadbirlarni ro'yobga chiqarishning huquqiy mexanizmini vujudga keltirish katta ahamiyat kasb etadi.

Islohotlarni samarali amalga oshirish uchun, avvalo, ularning asosiy tamoyillarini belgilab olish muhim edi: «Biz, eng avvalo, huquqiy asosni tayyorladik. Jamiyatimizning asosiy aqidalari, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'nalishlari belgilab berilgan Konstitutsiyamiz ham ana shu asosga qurilgan. Biz qonunchilik bazasini barpo etib, butun davlat tuzilmasini o'zgartirdik. U bozor maqsadlariga javob beradi...»¹. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «O'tgan davr mobaynida Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan tamoyil va qoidalar negizida yurtimizda milliy qonunchilik tizimi barpo etildi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalishiga, hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo'ldi»².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan (2017-y. 7-fevral) «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» tasdiqlangani mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarga, ayniqsa, huquqiy islohotlarga jiddiy salohiyat, quvvat baxsh etdi, bu islohotlarni tom ma'noda yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur Strategiyada mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalishi belgilandi:

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996. – 135-bet.

² Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., 2017. – 6-bet.

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish¹.

Yurtimizda ochiq va odil demokratik jamiyatni barpo etish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslarda amalga oshirilmoqda. Bu asoslar iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng qo'lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi. Konstitutsiya va mustaqillik yillari mobaynida qabul qilingan fundamental qonunlar hayotimizning barcha jabhalarini demokratlashtirishning, jamiyatni tubdan yangilash, uni modernizatsiya qilishning qudratli kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Demokratik jamiyat, bozor iqtisodiyoti sari boshlangan sa'y-harakatning ortga qaytmasligi va barqarorligi uning huquqiy asoslarini mukammal tarzda shakllantirishga bevosita bog'liqdir. «Mustahkam huquqiy asos bo'lgandagina, o'z umrini yashab bo'lgan tuzumni to'la ishonch bilan qayta qurish, rivojlangan yuqori samarali bozor iqtisodiyotiga ega yangi jamiyatni qurish mumkin bo'ladi»².

Yuqoridagi mulohazalar islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlashning zarurligi va ahamiyatini to'la tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarni uch yo'nalishda guruhlashtirish mumkin:

- siyosiy islohotlarni, davlat qurilishiga oid faoliyatni huquqiy ta'minlash;
- iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash;
- sud-huquqiy tizim sohasidagi islohotlarni, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini isloh qilishni huquqiy ta'minlash.

Boshqacha aytganda, *islohotlarni huquqiy ta'minlash* deganda, barpo etilayotgan demokratik davlatchilik qurilishini, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni, mustaqil sud hokimiyati qaror topishi hamda inson huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish mexanizmini huquqiy rasmiylashtirish nazarda tutiladi.

Bugungi sharoitda mamlakatda islohotlarning mustahkam huquqiy bazasi vujudga keltirildi. Bular – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, huquqning asosiy sohalari manbasi bo'lmish 16 ta kodeks, 850 dan ziyod qonunlar, 5000 ga yaqin Prezident farmonlari va 1500 dan ziyod qarorlari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr / – T.: «Adolat», 2017. – 31-bet.

² Islom Karimov Konstitutsiya to'g'risida. – T., 2001. – 116–117-betlar.

11000 ga yaqin Vazirlar Mahkamasi qarorlari, 2700 dan ortiq vazirliklar va davlat qo'mitalarining normativ hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlardir.

«Harakatlar strategiyasi» amalga oshirila boshlangach, 2017-yilning birinchi yarim yilida besh ustuvor yo'nalishda amaliy faoliyatni ta'minlash doirasida 20 dan ortiq qonunlar, Prezidentning 180 dan ortiq farmon va 450 dan ziyod qarorlari qabul qilinib, faol qo'llana boshlandi¹.

«**Huquqiy islohot**» iborasi o'z mazmuniga jamiyat huquqiy tizimini isloh qilish, uni demokratik yangilash va ma'rifiy dunyo qadriyatlari hamda umume'tirof etilgan prinsiplar asosida takomillashtirish degan ma'noni qamrab oladi. Ma'lumki «islohot» tushunchasi lotincha «Reformo» so'zidan olingan bo'lib, o'zgartirish, tuzatish, qayta tashkil etish ma'nosini anglatadi. Shundan kelib chiqib ta'rif beriladigan bo'lsa, huquqiy tizimni isloh qilish deganda, jamiyatning zamonaviy talab va ehtiyojlari asosida huquqiy hayotni (huquqiy voqelikni) o'zgartirish, yangilash, modernizatsiya qilish tushuniladi. Ushbu islohot huquqiy tizimni tashkil etuvchi barcha elementlarni yangilash va takomillashtirish jarayonlarini ifoda etadi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasining o'z huquqiy tizimi qaror topdi. U vujudga kelish, shakllanish va takomillashish jarayonlarini «boshidan» kechirmoqda. Aytish joizki, huquqiy tizimning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi barcha huquqiy institut va hodisalar birdek yuksak maromda rivoj topayotgani yo'q. Ayrim elementlar masalan, qonunchilik jadal rivojlanayotgan bo'lsa, boshqa elementlar sustroq rivojlanmoqda yoki hali eski shakl va qoliplardan to'la xalos bo'la olgani yo'q, xususan, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va hokazo. Bu esa huquqiy tizimning barcha tarkibiy elementlari tubdan isloh etilishi, davr talablariga moslashtirilishi lozimligini anglatadi. Huquqiy tizimning tarkibiy bo'g'inlarini inobatga olgan holda *huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari* quyidagicha talqin etilishi mumkin:

Huquqiy tizimni liberallashtirish (erkinlashtirish).

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida huquqqa va u bilan bog'liq barcha hodisalarga baho berishda «**liberitar**» (ya'ni, huquqqa erkinlikni ta'minlash vositasi sifatida qarash) yondashuv ustuvor mavqeni egallamoqda. Bu konsepsiyaga asosan **huquq** – avvalambor **erkinlik**, **adolat** va **tenglik mezon**i, ularni ta'minlash vositasi, aholi xavfsizligi hamda har bir fuqaroning mulkiy mustaqilligi (daxlsizligi)ni ta'minlovchi normativ tizimdir.

Mazkur doktrina ikki asosiy jihat bilan ta'riflanadi. *Birinchi*, shaxs erkinligi va uning ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirish (liberallashtirish) bo'lsa, *ikkinchi* – ijtimoiy adolat prinsipning ustuvorligini ta'minlash, uni jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalariga singdirishdan iborat.

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 10-avgust.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi ijtimoiy-huquqiy vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Qonunchilik mohiyat e'tibori bilan tubdan o'zgardi, butun huquqiy tizimni liberallashtirish sari yo'l olindi, ayniqsa, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati esa, liberallashtirish va insonparvarlikka yuz tutdi. Biroq, totalitar tuzumning qoldiqlari va ayrim andozalaridan birdaniga qutulishining iloji yo'qligini nazardan qochirmaslik lozim.

Ma'lumki, bu maqsadga faqatgina barcha uzviy bog'liq masalalarning kompleks tarzda hal qilinishi orqali erishish mumkin.

Birinchidan, davlatning jinoiy-huquqiy siyosatining qonuniy zaminini yaratish borasida amaldagi qonunlarga jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ikkinchidan, jinoyat yustitsiyasining barcha tizimlarini qayta tashkil qilish va takomillashtirish, uning ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash borasida faoliyat olib borilmoqda.

Uchinchidan, aholining, shu jumladan, huquqni muhofza qiluvchi organlar xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatning to'g'ri yo'ldan adashgan a'zolariga nisbatan yuksak ma'rifiy, insonparvarlik munosabatini shakllantirish, jinoyatga oid ko'rsatma bergan odamlarni ta'qib qilmay, aksincha, ularga yordam berish, ularning qonuniy muhofazasini ta'minlash, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini to'la joriy etish choralarini ko'rish va boshqalar.

Jinoiy-huquqiy siyosatni erkinlashtirish shaxs erki va huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida baholashni belgilab berdi. Darhaqiqat, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining har qanday yo'nalishi maqsad-mazmunida inson va uning manfaatlariga e'tibor mavjud. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi – butun jamiyatning, xususan, har bir insonning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat.

Liberallashtirish tendensiyasi huquqiy tizimning barcha elementlarini, shuningdek huquqning va qonunchilikning barcha sohalarini qamrab olayotganligi mantiqiy holdir. Fikrimizni dalillash uchun quyidagi misollar kifoya qiladi: 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va 1995–1996-yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 1998-yilda kuchga kiritilgan Oila kodeksi va boshqa salmoqli sohaviy qonunlar xalqaro huquqiy standartlarga mos holda, shuningdek inson huquqlarini to'la – to'kis ta'minlashga yo'naltirilgan demokratiya, insonparvarlik hamda adolat prinsiplariga, tayanib ishlab chiqildi va qabul qilindi. Mehnat munosabatlari sohasida ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi shartnoma munosabatlarining erkinlashuvi, fuqarolik qonunchiligida shartnomaga kirishuv-

chi subyektlarning mustaqilligi, xususiy mulk daxlsizligi; oila qonunchiligida nikoh tuzishning ixtiyoriy va erkinligi, nikoh shartnomasi asosida er va xotin munosabatlarining mo'tadillashuvi ushbu sohalarning liberallashtirishiga oid ayrim yorqin misollardir, xolos. Liberallashtirish shabadasi ma'muriy, bojxona, soliq qonunchiligini ham qamrab oldi.

Qonun chiqarish jarayonini demokratlashtirish. Ushbu yo'nalishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan quyidagi jiddiy masalalar mavjud:

– O'zbekistonning *qonunchilik* (kengroq doirada olinadigan bo'lsa, huquqiy islohotlar dasturi) *strategiyasini* aniqlab, alohida rasmiy hujjat sifatida shakllantirish va qabul qilish lozim;

– qonun ijodkorlik jarayonining sotsiologik jihatlariga e'tibor qaratish, qonun bilan tartibga solish ehtiyojini o'rganish va shu asosda bo'lg'usi qonun ijodkorlik ishlarining empirik bazasini vujudga keltirish zarur. Shundan kelib chiqib, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi huzurida qonunchilik muammolarini sotsiologik tadqiq etish institutini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi;

– qonun loyihalari ishlarini rejalashtirish va bashoratlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozim;

– qonunchilik texnikasini takomillashtirish va bu borada deputatlarning tegishli malakasini hosil qilish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim va hokazo.

Qonun chiqarish jarayonini demokratlashtirishning bir qator rezervlari bor. Jumladan, qonun loyihalarining muhokamasiga manfaatdor tashkilotlarni, fuqarolar, ekspertlarni kengroq jalb etish, umumxalq muhokamalaridan samarali foydalanish, uning mexanizmlarini takomillashtirish, qonun loyihalarining muhokamalarida deputatlarning faolligini oshirish, qonunchilik jarayonining oshkoraligini kuchaytirish kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi masalalarni hal etish nuqtayi nazaridan ko'rilgan quyidagi chora-tadbirlar e'tiborga molikdir. Avvalo, Harakatlar strategiyasida parlament rolini oshirishga, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilashga e'tibor qaratildi, qonun loyihalarini tayyorlashga keng jamoatchilikni jalb etish muhim vazifalardan biri, deb belgilandi¹. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev parlament Qonunchilik palatasida 2017-yil 12-iyuldagi videosektor yig'ilishida quyidagilarni ta'kidladi: Parlamentda, «fraksiyalarda qonun loyihalari va boshqa muhim masalalar muhokamasini, ulardagi konstruktiv bahs va munozaralarni yanada kuchaytirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Qabul qilinayotgan har bir qonun loyihasi... atroflicha muho-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – T., 2017. – 30–31-betlar.

kama qilinishi, fraksiyalar ushbu masalalarda prinsipial pozitsiyasini namoyon etishi shart»¹.

Davlatimiz boshlig'i ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolarini o'rganish institutini tashkil etishni taklif etdi².

Ijtimoiy hayotning hamma sohalarida qonunning ustuvorligini ta'minlash. Qonunning mazmuni xalqchil, insonparvar, demokratik va adolatli bo'lishiga erishish, uning sifatini muttasil yaxshilab borish hamisha o'z dolzarbligini saqlab qolayotgan mavzudir. Mazkur yo'nalishda, avvalo:

- amaldagi qonunlarni inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga moslashtirish bo'yicha muntazam ishni yo'lga qo'yish va shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyatini yanada faollashtirish lozim;

- qabul qilingan va endi yaratiladigan qonunlar mazmunini «*Qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruxsat etiladi*» (fuqarolar uchun) va «*Qonunda belgilangan narsalargagina ruxsat etiladi*» (davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun) prinsiplari asosida qayta ko'rib chiqish kerak;

- inson huquqlari va erkinliklari ustuvor ta'minlanishi prinsipidan kelib chiqib, qonunchilik mazmunidagi etatizmdan voz kechish va inson manfaatlarini yoqlovchi huquqiy tartibga solish mexanizmini joriy etishga bosqichma-bosqich o'tish;

- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashning yuridik, tashkiliy, ma'naviy-axloqiy mexanizmlarini vujudga keltirish. «Qonunning ustuvorligi bizning islohotlar modelimizdagi yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi»³;

- Konstitutsiya va qonunlarning amal qilish mexanizmini va ularni aniq hamda og'ishmay qo'llash amaliyotini joriy etish lozim.

Konstitutsiyaviy islohotlar – huquqiy islohotlarning markaziy bo'g'ini. Jamiyat ehtiyojlari va taraqqiyot manfaatlariga mos tarzda Konstitutsiyaning takomillashtirilishi mamlakat konstitutsiyaviy tuzumini, siyosiy tizimni barqarorlashtirish garovi hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshayotgan konstitutsiyaviy mazmundagi muhim o'zgarishlar pirovardida Konstitutsiyaning o'zini ham takomillashtirishga sabab bo'lmoqda. Masalan, 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan umumxalq referendumida mamlakatda ikki palatali parlament tuzish g'oyasi yoqlab ovoz berildi. Shu asosda 2002-yil 4-aprelda «Referendum yakunlari va davlat hokimiyatini tashkil qilishning asosiy prinsiplari to'g'risida»gi

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

² Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

³ Qarang: Islom Karimov Konstitutsiya to'g'risida. – 417-bet.

konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu konstitutsiyaviy qonunning ahamiyatini izohlab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: «... u referendum natijalarini qonunchilik tilida ifodalab – muhrlab beradi va Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartirishlar kiritishga asos bo'ladi»¹, – dedi. Ushbu bashorat tez orada qonun ijodkorligi amaliyotida o'z tasdig'ini topdi. 2002-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlar, 2003-yil 24-aprelda Konstitutsiyaning davlat hokimiyati organlari tashkil etilishiga oid boblariga ikki palatali parlament joriy etilishi bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi². Bunda parlament palatalarining vakolatlari mustahkamlandi, Prezident va Hukumatning vakolatlari qayta shakllantirildi, saylov qonunchiligiga oid konstitutsiyaviy normalar takomillashtirildi.

2007-yil 11-aprelda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun aholining ijtimoiy, siyosiy faolligini kuchaytirishda, chinakam ko'ppartiyaviylikni rivojlantirishda, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda g'oyat muhim rol o'ynadi. U parlamentdagi turli siyosiy yo'nalishlarga amal qiluvchi partiyalar fraksiyalarining huquqiy maqomini aniq belgilab berdi, ularning qonun ijodkorligi ishi samaradorligini oshirishda tutgan o'rni, fraksiyalararo sog'lom tortishuvni sezilarli darajada oshirdi. Parlamentdagi ko'pchilikning va parlamentdagi muxolifatning huquqlari qonunchilik yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi.

2008-yil 4-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun ma'qullandi. Mazkur qonun mamlakatimizning saylov qonunchiligini izchil demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Konstitutsiyaviy islohotlar so'nggi yillarda faol va maqsadli o'tkazilayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqib, 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu yangiliklar hokimiyat tarmoqlari mustaqilligining oshishiga, ularning o'zaro bir-birini tiyish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirildi. Parlamentda Hukumatning hisobotini tinglash, Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish institutlari joriy etildi.

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: «O'zbekiston», 2002. – 319-bet.

² Xalq so'zi, 2003-yil 25-aprel.

2014-yil 16-apreldagi Qonun bilan Asosiy qonunimizning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bunda jamoatchilik va parlament nazorati institutlari, mahalliy vakillik hokimiyati organlarida mahalliy hokimlarning hisobotini tinglash masalalari konstitutsiyaviy darajada belgilandi. Shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi doimiy ishlovchi konstitutsiyaviy organga aylantirildi.

Prezident tashabbusi bilan 2017-yil 28-martda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80, 81, 83, 93, 107, 110, 112-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bunga muvofiq, Oliy xo'jalik sudi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Sud tizimida xo'jalik sudlari tugatilib, ayni vaqtda iqtisodiy va ma'muriy sudlar tuzildi. Sudyalar korpusini shakllantirish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi¹.

Bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olib yuridik texnika qoidalariga rioya etgan holda **qonunchilikni sistemalashtirish, ayniqsa kodekslashtirish**. Hozirga qadar Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, Yer kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa kodekslar qabul qilindi. Biroq, barcha kodekslarimiz va joriy qonunlarimiz bozor munosabatlariga to'la moslashtirib bo'lini, deyishga hali erta. Bu boradagi xalqaro tajribani puxta o'rganish va o'z milliy xususiyatlarimizni, huquqiy qadriyatlarimizni e'tiborga olgan holda qonunlarimizni yanada takomillashtirish zarur bo'ladi. Qonunchilikni sistemalashtirish bilan bir vaqtda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasida mutanosiblik va batartiblikni ta'minlash lozim. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning qonunga mosligini ta'minlash sohasidagi ishlarni davom ettirish o'rinlidir.

Huquqni muhofaza etish idoralari faoliyatini liberallashtirish ham demokratik islohotlarning muhim yo'nalishi.

2001-yil 29-avgustda Oliy Majlisning VI sessiyasida «Prokuratura to'g'risida» gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bunda, xususan, prokuratura faoliyatidan umumiy nazorat yo'nalishi chiqarib tashlandi. Shuningdek, prokuratura endi ishlarni sudda ko'rilishi chog'ida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat munosabati bilan sudlarning ishiga aralashmaydi, balki sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi masalalar sud tomonidan ko'rilayotganda ishtirok etadi.

2016-yil avgustida O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilinib, shu yil 16-sentabrda imzolandi. Mazkur

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 29-mart.

qonun mamlakatda ichki ishlar organlar faoliyatining barcha yo'nalishlarini huquqiy tartibga solishga xizmat qiladi¹.

Zikr etilgan huquqiy hujjatlarda prokuratura va ichki ishlar organlari faoliyatida, ayniqsa ularning tergov faoliyatida, inson huquqlari va manfaatlari ustuvor ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Fuqarolarning himoyaga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash maqsadida advokaturaning faoliyati takomillashtirilmoqda. Prokuratura, Adliya va Ichki ishlar vazirliklari tizimida inson huquqlarini muhofaza qilish bilan bevosita shug'ullanuvchi maxsus tuzilmalar tashkil etildi. «Advokatura to'g'risida»gi, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi va kuchga kirganligi huquqni muhofaza etish mexanizmlari takomillashib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Shaxsning huquqiy muhofazalanishi kafolatlarini kuchaytirish.

Bu masala barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarga taalluqli bo'lib, uning e'tiborga molik jihati shundaki, so'nggi yillarda O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash institutlarining muayyan tizimi vujudga keltirildi. Ya'ni, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy markazi, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti va hokazo.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisning vakili (Ombudsmanning) faoliyati yildan-yilga faollashib hamda tobora samarali bo'lib bormoqda. Uning faoliyati asosan quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'layotir:

- O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat(monitring)ni amalga oshirish;
- fuqarolarning inson huquqlariga oid ariza va murojaatlari bilan ishlash;
- Ombudsmanning mintaqaviy (viloyatlardagi) vakillari faoliyati;
- Ombudsmanning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va nohukumat tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi;
- Ombudsmanning axborot – ma'rifiy va xalqaro sohadagi faoliyati.

E'tirof etish joizki, ombudsmanning faoliyati fuqarolar uchun foydali bo'lib bormoqda.

Shu bilan birga so'nggi yillarda respublika Prezidenti va Hukumatining yosh avlodga, bolalarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlashga alohida g'amxo'rlik ko'rsatayotganligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida Bolalar huquqlari bo'yicha maxsus ombudsman lavozimi (institut) ta'sis etilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu tashabbusning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro

¹ Xalq so'zi, 2016-yil 17-sentabr.

Konvensiyani (1989-yil 20-noyabr) bajarishdagi faolligini yanada oshirgan bo'lar edi. Shu o'rinda 2008-yil yanvarida O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinganligini ta'kidlash joiz.

Shuningdek, O'zbekistonda ekologiya masalalari bo'yicha maxsus ombudsman lavozimining ta'sis etilishi ham davr talabiga mos bo'lib tushgan bo'lar edi. Fuqarolar huquqlarini muhofaza etishda advokatura alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni va «Advokatlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi advokaturaning huquqiy maqomini birmuncha mustahkamladi. Ammo, fuqarolarning ushbu konstitutsiyaviy huquqini amalda yuksak saviyada ta'minlash uchun yana ko'p ishlar qilinishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Huquqiy islohotni bilimdon va malakali kadrlar bilan ta'minlashning mukammal tizimini tashkil qilish. Huquqshunos-yuristlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish; huquqshunoslik fanini rivojlantirish va ilmiy tavsiyalarni huquqiy islohot manfaatlariga, uning samarasini oshirishga xizmat qilishga yo'naltirish o'ta muhim vazifalardan biridir. Hozirgi paytda Adliya vazirligi qoshida sudyalalar va adliya idoralari xodimlarining malakasini oshirish markazi, O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi huzurida prokuror va tergov xodimlarining malakasini oshirish Oliy kurslari faoliyat ko'rsatmoqda; Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida rahbar xodimlarning malakasini oshirish fakulteti ish olib bormoqda. Bu borada ta'lim va malaka oshirishning uzluksizligi hamda muntazamligi ta'minlanishiga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatda davlat qurilishini erkinlashtirishga, boshqaruv tizimini demokratlashtirish hamda uning oqilona shakllarini ishlab chiqishga, davlatning markaziy organlari funksiyalarini mahalliy va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishga yo'naltirilgan ma'muriy islohotlar ham huquqiy islohotlarning muhim bo'g'inidir.

Aholining keng qatamlari ichida huquqiy umumta'limni joriy etish. Milliy istiqloq ruhi bilan sug'orilgan huquqiy mafkurani va huquqiy madaniyatni shakllantirish fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartidir. 1997-yil avgustidan boshlab mamlakatda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» hayotga joriy etilmoqda. Respublikada huquqiy targ'ibot markazlari faol ishlab, aholi huquqiy madaniyatini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning quyidagi so'zlari muhim: «20 yil avval bu borada qabul qilingan Milliy dasturni yangidan ishlab chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Parlamentimiz jamiyatda

huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha yangi Milliy dasturni yaratishda bosh-qosh bo'lishi maqsadga muvofiq»¹.

Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etish yangicha huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan ko'p jihatdan bog'liq. Huquqiy madaniyatni ijtimoiy ongga singdirish hamda aholining yurish-turishi hamda fe'l-atvorida tegishli ko'nikmalarni shakllantirish jo'ngina uddalanadigan ish emas. Huquqiy madaniyatni shakllantirish barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, mahalla jamoalari, maktab, oila, o'zini o'zi boshqarish organlarining bahamjihat, maqsadga yo'naltirilgan ulkan ma'rifiy-tashkiliy faoliyati natijasida amalga oshadigan ishdir.

Huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning bajarilish saviyasi va samarasi bilan belgilanishi yaxshi ma'lum. Bozor iqtisodiyoti sari borayotgan yo'limiz biz uchun huquqiy tarbiya maktabi bo'lmog'i darkor. Binobarin, bundan kelib chiqadigan muhim saboq shuki, qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishni o'rganishimiz, o'z huquq va erkinliklarimizni qonun orqali himoyalashni, o'z majburiyatlarimizni og'ishmay bajarishni o'rganib olishimiz kerak. Boshqa odamlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganib olish lozim.

Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovni demokratishtirish, sud-huquqiy islohotini amalga oshirish. Sud islohoti huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati umumiy shakllanish jarayonining ajralmas zaruriy tarkibiy qismidir. Sud-huquqiy islohoti mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari bilan teng, mustaqil kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishning muhim omilidir.

Sud hokimiyati – uch hokimiyatning biri, uning yuksak nufuzli huquqiy holati jamiyat va davlat hayotida inson huquqlari, demokratiya va qonuniylik barqaror bo'lishining asosiy shartidir. Zero, sud hokimiyatining vazifasi – fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlash, qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni ijro etish va qo'llashda qonuniylik hamda adolat uchun kurashishdan iborat.

Mustaqil O'zbekistonda davlat hokimiyatining taqsimlanishi real joriy etilishi bilan chinakam tom ma'nodagi sud hokimiyatining qaror topishiga yo'l ochildi. Bu o'rinda o'ta muhim narsa – sudning davlat hokimiyatining bir bo'g'ini sifatida tegishli qat'iy vakolatlar sohibi ekanligini tan olishdir. Jamiyat

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 10-bet.

ijtimoiy ongi sud hokimiyatini e'tirof etishi, unga ko'nikishi lozim. Sud hokimiyati davlatning muayyan sudlov siyosatini shakllantiradi va ro'yobga chiqaradi. Sudlov siyosatining asoslari qonunda o'z aksini topadi va sud muassasalari faoliyati orqali hayotga tatbiq etiladi.

O'zbekistonda mustaqil, adolatli sud hokimiyatini qaror toptirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Endigi islohotlarning bosh vazifasi sudni adolat va haqiqat posboniga aylantirishdan iborat. Pirovardida sudga munosabat tubdan o'zgarib, unga hurmat shakllanishi lozim. Buning uchun sud organlari faoliyatining huquqiy asoslarini qadam-baqadam takomillashtirib borish zarur. Mazkur huquqiy asos sud va sudyalarning hokimiyatning boshqa barcha tarmoqlaridan haqiqiy mustaqilligini, sud qarorlarini qabul qilishda ularning faqat qonunga bo'ysunishini ta'minlashi lozim. Bu huquqiy asos demokratizmni, xolislikni, sudning hammabop bo'lishini, sudning himoya doirasi kengayishini ta'minlashi lozim.

Mamlakatimizda sud islohotlarini jiddiy jonlantirishda, uni yangicha yondashuvlar asosidagi yangi bosqichga ko'tarishda «O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» alohida o'rin tutadi. Mazkur Strategiya ning ikkinchi ustuvor yo'nalishi «Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish» deb nomlangan. Unda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni kafolatlash, sud faoliyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish, sud-huquq tizimida qonuniylikni mustahkamlash kabi muhim masalalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»ga va 2017-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari mamlakatimiz sud tizimini izchil demokratiyalash, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini kafolatlash borasida katta qadam bo'ldi. Ushbu farmonlar tufayli sud tizimida jiddiy tub islohiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi yagona oliy sud organiga aylandi; xo'jalik sudlari va harbiy sudlar tugatildi; iqtisodiy va ma'muriy sudlar tashkil etildi; Sudyalar oliy kengashi tuzildi, u sudyalik lavozimiga tanlash va tayinlash vakolatlariga ega bo'ldi; sudyalik lavozimiga tayinlash (saylash) birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yilga, shundan so'ng muddatsiz davrga deb belgilandi. Yuqoridagi masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Yuqorida bayon etilgan barcha ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar jamiyatimizda sudning yuksak nufuzini ta'minlashga, uning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Mustaqil, xolis, demokratik sud tizimini vujudga keltirish pirovardida inson manfaatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli muhofaza etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, huquqiy tizim sohasidagi islohotlar, demokratlashtirish va liberallashtirish choralari, katta mas'uliyat talab etadi. Islohotlar huquqiy tizim tarkibiga kiruvchi barcha bo'g'inlarni qamrab oladi. Demak, har bir bo'g'inda ro'y berayotgan o'zgarish va jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Huquqiy islohotlarga keng qamrovli va kompleks yondashish lozim. Ana shundagina islohiy kuch-g'ayratimiz va ijodiy faoliyatimiz ijobiy samaralar berishiga umid bog'lash mumkin¹.

¹ Qarang: Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. – 137-bet.

XVII bob. HUQUQNING HARAKATLANISHI VA UNI AMALGA OSHIRISH

1-§. Huquqning harakatlanishi va uni amalga oshirish tushunchasi hamda bosqichlari

Huquqning asl qadr-qimmati, ijtimoiy ahamiyati uning kishilar ongi-irodasiga ta'sir etish orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga sola olish salohiyatida namoyon bo'ladi. Gap huquqning real hayotga joriy qilinishi, ya'ni uning harakatlanishi xu-

susida bormoqda.

Huquqning harakatlanishi, amal qilishi uning funksional holati ifodasidir. Huquqning jamiyat hayotida o'z amalini topib, ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga singishi, ularni me'yoriy tartibga solishda ifodalanadigan ijtimoiy manfaatli vazifani bajarishi uning funksional jihatini tashkil etadi. Huquqning harakatlanishidan muayyan ijobiy samara kutiladi. Buning uchun huquq amalga oshirilishi, hayotga tatbiq etilishi lozim. Huquq normalari bevosita hayotga, turmush amaliyotiga joriy etilgan taqdirdagina jamiyat, inson va davlat uchun foydali hamda manfaatli bo'lishi mumkin. Huquq qanchalik sobitlik bilan, izchil amalga oshirilsa, ijtimoiy munosabatlar shunchalik samarali tartibga solinishiga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan ma'qullangan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da belgilangan besh ustuvor yo'nalishdagi muhim vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyotini va ilg'or xorijiy tajribani chuqur tahlil etish asosida ish tutish e'tiborga molik jihatdir¹. Ushbu g'oya davlat boshlig'i Sh. Mirziyoevning ma'ruzalarida yanada aniq ifoda etilgan: «Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir... Asosiy masala – qonunlarning... ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir»².

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. – T., 2017. – 4-bet.

² Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 8–9-betlar.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarasi, unumdorligi ko'p jihatdan huquqni to'g'ri amalga oshirishga bog'liq. Agar huquq tatbiq etilmasa, insonlar xatti-harakatida o'zining mujassam ifodasini topmasa, ijtimoiy tartibga soluvchi vosita sifatidagi qiymatini yo'qotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlab o'tganidek, «qonunlarni qabul qilish – bu ishning bir qismi xolos». Lekin eng muhim masala ularni hayotga tatbiq etishdir.

Huquqning talqini oxir-oqibatda uning ijtimoiy munosabatlarning regulyatori bo'la olishiga, tartibga solish qobiliyatiga borib taqaladi. Huquqning qadriyat sifatidagi mantig'i – uning insonlarning ongi va irodasiga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatidadir. Aynan shu narsa huquqning harakatlanishi masalasini dolzarb mavzuga aylantiradi.

Huquqning harakatlanishi yoki amal qilishi – huquqning muayyan makon, zamonda tegishli shaxslar doirasidagi ijtimoiy munosabatlarga qadriyatlar nuqtayi nazaridan maqsadli, axborot yetkazuvchi omil va bevosita tartibga soluvchi ta'sir etishidir.

Huquqning harakatlanishi ijtimoiy modellarni va abstrakt qadriyatlarni real hayotga o'tkazishda namoyon bo'ladi. Huquqning harakati uning alohida shaxslar, guruhlar xulq-atvorida, jamiyat hayot tarzida adolat mezonlarini ta'minlashga oid mohiyatini ro'yobga chiqarishdir. Huquq ijtimoiy kuch sifatida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish jarayonida o'z salohiyatini namoyon qiladi.

Huquqning harakatlanishini davlatdan ajratilgan holda talqin etish mumkin emas. Hozirga qadar hech bir jamiyat davlatning ishtirokisiz adolat muhitini ta'minlay olgan emas. Hamma yerda davlat huquqiy normalarning harakatlanishini, amalga oshirishini ta'minlaydi. Davlat huquqiy tartibga solish vositalarini (mexanizmlarini) yaratadi, huquqning pirovard maqsadlariga erishish uchun ushbu vositalarni (mexanizmlarni) ishga soladi.

Huquq harakatlanishining asosiy ko'rinishi sifatida ***huquqni amalga oshirish*** – davlat tomonidan yuridik mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, ularni odamlar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tatbiq etish demakdir. Yuridik adabiyotlarda «huquqiy normani amalga oshirish», «huquqni tatbiq etish», «huquqiy normalarni tatbiq etish», «huquqiy normani qo'llash» kabi tushunchalar yuzasidan yakdil fikr yo'q. Lekin, huquqiy normalarni tatbiq etish – huquqiy normalarni amalga oshirishni anglatishi aksariyat nazariyotchi olimlar tomonidan tan olinadi.

Etimologiya nuqtayi nazaridan «amalga oshirish» ma'nosini bildiradigan «realizatsiya» atamasi lotinchadan olingan bo'lib, «realis» – moddiy yoki moddiylashtirish degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bu so'z ko'proq u yoki bu reja, dastur va loyihalarni, maqsadlar va hokazolarni amalga oshirish yoki ularni tatbiq etish ma'nosida qo'llaniladi. Huquq mafkuraviy hodisa bo'lib, muayyan

imkoniyat sifatida odamlar harakatida, faol xulq-atvorida, moddiy va ma'naviy boylıklar, ne'matlardan foydalanishda ro'yobga chiqadi, moddiylashadi. Ayni vaqtda, uni amalga oshirish yana bir ma'noga ega: boshqa imkoniyatlar(rejalar, dasturlar, niyatlar va sh.k.)dan farqli o'laroq, huquq amalga oshirish imkoniyatining ko'proqligi bilan tavsiflanadi, kafolatlar bilan ta'minlanadi. Tahlil qilinayotgan tushunchani izohlovchi yana bir holat shundan iboratki, huquq tabiiy va ijobiy, obyektiv va subyektiv huquqni o'z ichiga oluvchi serqirra hodisadir. Huquqni amalga oshirish institutini uning serqirra mazmunini hisobga olgan holda talqin etilishi lozim.

«Huquqni amalga oshirish» kategoriyasi yuqoridagi mazmunga mos keladi. Darhaqiqat, huquq nomoddiy ko'rinishga ega bo'lsa ham, u kishilarning faoliyatida, faol xulqi va yurish-turishlarida, ularning moddiy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanganlarida moddiylashadi. Demak, huquqni amalga oshirish – uning talablarini huquqiy munosabatlar ishtirokchilari faoliyatida namoyon bo'lishi, uning ko'rsatmalarini huquqiy xatti-harakatga aylantirishni anglatadi.

Yuridik talqini va mohiyatiga ko'ra, huquqni amalga oshirish davlat – hokimiyat xarakteriga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, u qonunda mustahkamlangan irodaga muvofiq ro'y beradi. Uning yakuniy natijasi – qonunning talabini bajarish yoki undagi taqiqqa yarasha o'z xatti-harakatlaridan tiyilish, ularni cheklashdan iborat bo'ladi.

Huquqni amalga oshirish o'zaro ichki bog'langan, tarkibiy qismlari bir-birini taqozo etadigan murakkab mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Mazkur mexanizm biror-bir elementining oqsashi yoki yetarli darajada ishlamasligi huquqni ro'yobga chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqni amalga oshirish natijasida inson huquq va erkinliklari muhofaza etiladi, xalqning davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtiroki ta'minlanadi, mulk (xususiy mulk) qo'riqlanadi, tadbirkorlik rivojlantiriladi va qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy va huquq-tartibot mustahkamlanadi. Huquq amalga oshirilgan taqdiridagina shaxs va jamiyat uchun ma'no va ahamiyat kasb etadi. Agar huquq hayotga tatbiq etilmasa, u muqarrar tarzda o'lik hodisadir. Huquq normalarining bosh vazifasi shundan iboratki, ular shaxs huquqlarining mazmunini aniqlashga yordam beradi va shu tariqa uni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

O'z tabiati, mantig'i jihatidan huquqni amalga oshirish – zamon va makonda yuz beruvchi murakkab jarayon. Unda nafaqat taraflar, subyektiv huquq va majburiyatlarning egalari, balki davlat o'zining huquq ijodkorligi, huquqni ijro etuvchi, huquqni qo'llovchi organlari orqali ishtirok etadi. Huquqni amalga oshirish, huquqni hayotga tatbiq etish jarayoni sifatida, *birinchidan*, huquqni amalga oshirishning yuridik mexanizmlarini, *ikkinchidan*, huquqni bevosita amalga oshirishning shakllarini o'z ichiga oladi. Huquqni amalga oshirishning

yuridik mexanizmlari xilma-xil bo'lib, ularning mazmuni u yoki bu mamlakat huquqiy tizimining xususiyatlari bilan belgilanadi. Mamlakatimiz huquqiy tizimida huquqni amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

Dastlabki bosqich – tabiiy huquqni qonun darajasiga ko'tarish (ijobiy huquq), uni normativ shaklda ifodalash. Tabiiy huquqning o'zagini inson huquqlari, uning inson va jamiyat tabiatidan kelib chiquvchi ijtimoiy-huquqiy talablari tashkil etadi. Bu talablarni qanoatlantirish uchun davlat ularni qonun yo'li bilan, normativ darajada tan olishi kerak. Inson huquqlarini qonun darajasiga ko'tarish: a) ularni konstitutsiyada mustahkamlab qo'yishni; b) ularni amaldagi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlashni nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqich – qonunni amalga oshirishning har xil mexanizmlari ishga solinadi. Bu mexanizmlar yordamida qonun qoidalarini subyektiv huquqlar va yuridik majburiyatlarning muayyan mazmuniga o'tkazish amalga oshiriladi. Bu mexanizmlar rang-barangdir, chunonchi, unga qonunni hukumat, vazirliklar, idoralar, o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun osti normativ hujjatlarida va mahalliy ahamiyatga molik boshqa normativ hujjatlarda aniqlashtirish; qonun normalarini rasmiy sharhlash, hujjatlar orqali tushuntirish; qonunni qabul qilish, qo'llash va majburiy ijro etish taomillarini tartibga soluvchi protsessual normalar; huquq normalarini qo'llashga doir har xil hujjatlar kiradi. Davlat organlarining huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish borasidagi faoliyati ham shu bosqichga kiradi.

Yakunlovchi bosqich – huquqni bevosita amalga oshirishdan iborat. Aynan shu bosqichda huquqlar abstrakt imkoniyatdan real voqelikka aylanadi va bu huquq sohibining xohish-irodasiga ko'ra yuz beradi, ya'ni huquqning amalga oshish-oshmasligi, agar amalga oshirilsa, bu qachon va qay darajada yuz berishi huquq subyektiga bog'liq bo'ladi.

Dunyo davlatlarida huquqni amalga oshirish o'z xususiyatlariga ega. Masalan, anglo-sakson huquqi mamlakatlarida huquqni amalga oshirish jarayoni boshqacha kechadi. Huquqiy talablarni, ya'ni tabiiy huquqni majburiy norma darajasiga ko'tarish sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud muayyan yuridik ishni ko'rib chiqar ekan, yuzaga kelgan nizoning haqiqiy holatlari, taraflarning da'volarini mufassal tahlil qiladi va ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini aniqlab, janjalni hal qiladi. Ishni hal qilish chog'ida presedent – o'xshash ish bo'yicha ilgari chiqarilgan sud qarori normativ asos sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur huquqiy tizimda huquqiy talabni amalga oshirish mexanizmi roman-german huquqiy tizimidagi shunday mexanizmga qaraganda soddaroq, chunki oldindan qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yishni taqozo etmaydi. Sudyaning o'zboshimchaligi xavfini oshirib ko'rsatish yaramaydi, chunki sud

qarori ustidan yuqori sudga shikoyat berish imkoniyati doimo mavjud bo'ladi. Masalan, anglo-sakson huquqi vujudga kelgan Angliyada oliy sud instansiyasi vazifasini Angliya Parlamentining yuqori palatasi – Lordlar palatasi bajaradi.

Shunday qilib, huquqni amalga oshirish nimaligini tushunish uchun quyidagilarni anglab olish kerak: huquqni tatbiq etishdan amalda subyektiv huquqqa ega bo'lgan shaxs, ya'ni huquq subyektigina manfaatdordir. Boshqa barcha shaxslar – majburiyat olgan taraf, huquqni qo'llovchi, qonun chiqaruvchi organ pirovard natijada vakolatli shaxs manfaatlarini ko'zlab ish ko'radi. Ko'rsatilgan shaxslar va organlar faoliyati, bu faoliyatni tartibga soluvchi yuridik normalar jamuljam holda huquqni amalga oshirishning murakkab va ko'p jihatli mexanizmini tashkil etadi. Binobarin, huquqni amalga oshirish-oshmasligi masalasining yechimi bu huquq sohibiga bog'liq bo'ladi. Huquqni amalga oshirish mexanizmi faqat uning xohish-irodasiga ko'ra ishga solinishi mumkin. Mazkur mexanizmning mavjudligi, uning sifatli va samarali ishlashga qodirligi muhimdir. Subyektiv huquqni himoya qilish mexanizmlari, ya'ni yuridik javobgarlik mexanizmlari huquqni amalga oshirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Himoya qilish jarayonida huquq tiklanadi va yana uni amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Yuridik javobgarlik subyektiv huquqlarni g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni muayyan darajada ta'minlaydi va shu tariqa ularni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

2-§. Huquqni amalga oshirish usullari va shakllari

Avval ta'kidlanganidek, huquqni amalga oshirish murakkab jarayon bo'lib, ma'lum muddat mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu jarayonda subyektiv huquq

va majburiyat sohiblari bo'lgan shaxslar bilan bir qatorda, davlat ham o'zining huquq ijod qiluvchi, huquqni ijro etuvchi, huquqni qo'llovchi organlari orqali ishtirok etadi. Huquqni amalga oshirish jarayoni huquqni hayotga joriy etish usullari va shakllarining uyg'unligidir. Ma'lumki, huquq normalari – bu gipoteza, dispozitsiya va sanksiyalarning birligi hisoblanib, uning mazmuni amalga oshirishning ikki darajasi yoki usulini talab etadi: *birinchisi*, normal tatbiq etish – huquqiy xatti-harakatda dispozitsiyani ro'yobga chiqarish; *ikkinchisi*, huquqbuzarga, davlat hokimiyati tomonidan majburiy xulq-atvor chorasini qo'llash orqali sanksiyani tatbiq etish.

Huquqni ijobiy, risoladagidek amalga oshirish usullaridan biri – huquqiy xatti-harakat hisoblanadi. Bu huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarini keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan, ongli ravishdagi xulq-atvoridir.

Normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalarni qo'llanish darajasiga ko'ra, huquqni amalga oshirishning to'rt xil *shakli* farqlanadi:

1) huquqiy munosabatlar ishtirokchilari uchun umumiy vazifalar va prinsiplar o'z ifodasini topgan qonunlarning muqaddimalarida ko'zda tutilgan talablarni ro'yobga chiqarish;

2) huquq subyektlarining huquqiy maqomi hamda vakolatlari doirasini o'rnatuvchi umumiy normalarni tatbiq etish;

3) muayyan huquqiy munosabatlarga tegishli bo'lgan huquqiy normalarni joriy etish;

4) huquq normasini vakolatli davlat organlari tomonidan hokimona tarzda qo'llash.

Huquqni amalga oshirish huquqiy munosabatlar subyektlari doirasiga ko'ra ham tasniflanadi. Huquqni amalga oshirishda ishtirokchilarning juda ko'p guruhi qamrab olinadi. Huquqni amalga oshirish subyektlariga ko'ra, *individual* va *jamoat* tomonidan huquqni tatbiq etish farqlanadi. Huquq normalarining ishtirokchilar xulq-atvorida mujassamlanishi uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning muayyan darajadagi amaliy faoliyati talab qilinadi. Huquq normalari kishilarning muayyan munosabatlariga nisbatan tatbiq qilinadi va shunga ko'ra muayyan huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtashi sodir bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida huquqni amalga oshirishda O'zbekiston xalqi, milliy davlat tuzilishi bilan bog'liq munosabatlarda – millatlar va elatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat organlari, O'zbekiston Respublikasi davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar ishtirok etadi. Huquqiy tartibga solish pirovard natijada ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqda o'z ifodasini topgan talablar va imkoniyatlar mujassamlashuvchi xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Huquqni amalga oshiruvchi subyektlar faoliyati xususiyatiga ko'ra, huquqni amalga oshirishning uch xil shaklini ko'rsatish mumkin – huquq normasiga rioya qilish, huquq normasini bajarish va huquq normasidan foydalanish:

Birinchi shakl – huquq normasi talablariga rioya etish. Bu yerda taqiqlovchi va muhofaza qiluvchi normalar amalga oshadi. *Rioya etish* amalga oshirishning bir shakli bo'lib, u subyektlarning yuridik taqiqlarga mos ravishda ish ko'rishida ifodalanadi. Bu shaklga subyektlarning passiv xulq-atvori xosdir. Ular yuridik normalar bilan man etilgan harakatlarni bajarmaydi, ya'ni o'zlariga yuklangan passiv majburiyatlarni bajaradilar. Muhofaza qiluvchi normalarning barchasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmasa-da, norma ma'nosidan mantiqan kelib chiquvchi taqiq ifodalanadi: agar biron-bir harakat uchun norma sanksiyasida yuridik javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, o'z-o'zidan ravshanki, bunday harakatni qonun chiqaruvchi organ man etgan. Masalan, bunday taqiqlar Jinoyat

kodeksi Maxsus qismi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismi normalari bilan belgilangan.

Ikkinchi shakl – majburiyatlarni bajarish. Bajarish huquqni amalga oshirishning shunday bir shakli, u huquqiy qoidaning bajarilishida ifodalangani. Amalga oshirishning mazkur shaklida subyektlar xulq-atvori faol xususiyatga ega bo'ladi: ular yuridik normalar bilan belgilangan harakatlar sodir etadi, ya'ni o'zlariga yuklangan faol harakat qilish majburiyatlarini bajaradilar. Mas'uliyatni nazarda tutuvchi majburiyat yuklovchi normalarni amalga oshirish uchun faol xulq-atvor, chunonchi: soliq to'lash, xaridorga mahsulot yetkazib berish, mehnat shartnomasi bo'yicha ishni bajarish kabilar talab etiladi.

Uchinchi shakl – subyektiv huquqdan foydalanish. Dispozitsiyalarida subyektiv huquqlar nazarda tutilgan vakolat beruvchi normalar shu shaklda amalga oshiriladi. Foydalanish amalga oshirishning shunday bir shakli, u berilgan ruxsatlardan kelib chiquvchi imkoniyatlarni amalga oshirishda ifodalanadi. Subyektlarning faol xulq-atvori bu shaklga xos xususiyatdir. Ayni holda subyektiv huquqlar, o'z faol xulq-atvori, huquq orqali berilgan yuridik imkoniyatlardan foydalanish huquqlari (masalan, himoyalash huquqi, mulk obyektlarini yuridik jihatdan tasarruf etish huquqi, saylov huquqidan foydalanish) to'g'risida so'z yuritilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi FKning 164-moddasida shunday deyilgan: «Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan iboratdir». Subyektiv huquq ham faol, ham passiv xulq-atvorni nazarda tutadi. Subyekt o'z huquqidan foydalanishdan bosh tortsa, o'zini passiv tutadi. Subyektiv huquq vakolatli shaxsning o'z harakatlari orqali (ashyo egasi undan ashyoning bevosita vazifasiga ko'ra foydalanadi), yuridik harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan (ashyoni garovga berish, uni hadya qilish, sotish va hokazo), majburiyat olgan shaxsga talab qo'yish orqali (qarzdordan qarzni qaytarishni talab qilish) va da'vo shaklida, ya'ni vakolatli davlat organiga poymol etilgan huquqini himoya qilishni so'rab murojaat etish yo'li bilan (agar qarzdor qarzni qaytarishdan bosh tortsa, qarz beruvchi qarzni majburiy tarzda undirishni so'rab sudga murojaat etadi) amalga oshirilishi mumkin.

To'rtinchi shakl – huquqni qo'llash. Huquqni qo'llash uchun vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar, vakolat berilgan nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan huquq normasida, qonunda mujassamlangan imperativ talabni, yuridik qoidani hayotga joriy qilish lozim bo'ladi. Huquqni qo'llash alohida hokimiyat mazmuniga ega faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyat uyushtiruvchi, tashkil etuvchi xususiyatga ega. U faol xatti-harakat orqali sodir etiladi.

Huquqni amalga oshirish to'g'risida eng aniq ma'noda bajarish shakli bilan bog'liq holda so'z yuritish mumkin. Huquqni amalga oshirishning qolgan ikki shakli (foydalanish va rioya etish)ga kelsak, bu yerda huquqni amalga oshirish haqidagi umumiy qoidalar aniqlik kiritishga va hatto eslatmalarga, izohlarga muhtojdir. Avvalambor, ko'rsatilgan bu ikki shaklga birlikda, uyg'unlikda va tartibga solish turiga ko'ra qaralishi lozim. Foydalanishda doim rioya etish ham bo'ladi: umumiy ruxsat beruvchi huquqiy tartibga solishda – muayyan man etuvchi normalarni buzmaslik tarzida, ruxsat beruvchi tartibga solishda – subyektiv huquq belgilagan xulq-atvor chegarasiga qat'iy rioya qilish, bu chegaradan chetga chiquvchi harakatlar sodir etmaslik tarzida namoyon bo'ladi.

Binobarin, eng muhimi bunda emas. Umumiy ruxsat beruvchi huquqiy tartibga solishda ham, aniq ruxsat beruvchi tartibga solishda ham vakolatli subyekt faol harakat qiladi. Bu faol xulq-atvorga faqat shartli ravishda huquqni amalga oshirish sifatida qaralishi mumkin. Subyektlarning faol xulq-atvorida asosan ijtimoiy hayotning obyektiv belgilangan ehtiyojlariga asoslangan moddiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa manfaatlar amalga oshadi. Tegishli – vakolat beruvchi va man etuvchi yuridik normalarni, shuningdek umumiy ruxsat va taqiqlarni amalga oshirish esa, amalda namunaviy konstruksiyalar, umumiy va mutlaq huquqiy munosabatlarning yaratilishi va subyektlarning ularga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlari bilan belgilangan o'z faol xulq-atvorini amalga oshirishidan iborat bo'ladi.

Huquqni amalga oshirish aksariyat hollarda davlat va uning organlari ishtirokisiz yuz beradi. Fuqarolar va tashkilotlar o'z ixtiyori bilan, majburlovsiz, o'zaro kelishuvga ko'ra huquqiy munosabatlarga kirishadilar va bu munosabatlarda doirasida subyektiv huquqlardan foydalanadilar, majburiyatlarni bajaradilar va qonunda belgilangan taqiqlarga rioya qiladilar. Shu bilan birga, ayrim hollarda, davlatning aralashuviga zarurat tug'iladi, bunday aralashuvsiz huquqni amalga oshirish mumkin bo'lmaydi. Huquqiy tartibga solish jarayoniga uning yakunlovchi bosqichida **huquqni qo'llash** maydonga chiqadi.

Huquqni qo'llashning zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

*Birinchi*dan, ayrim normalarni amalga oshirish mexanizmida davlatning ishtiroki nazarda tutiladi. Bu, avvalo, moddiy ne'matlarni davlat tomonidan taqsimlash nazarda tutilgan normalardir. Masalan, pensiya huquqini amalga oshirish ijtimoiy ta'minot organi komissiyasining ayrim fuqaroga pensiya tayinlash to'g'risidagi qarorini zarur element sifatida o'z ichiga oladi. Davlat yer fondidan yer uchastkasi ajratish tegishli davlat organining alohida hokimiyat qarorini talab qiladi. Shu tartibda, ya'ni alohida hokimiyat qarori chiqarish yo'li bilan fuqarolar va tashkilotlarga foydalanish uchun davlat mulkiga kiruvchi yer uchastkalari ajratiladi.

Ikkinchidan, davlat apparati doirasida davlat organlari va mansabdor shaxslari o'rtasidagi o'zaro aloqalar asosan hokimiyat va bo'ysunish xususiyatiga ega bo'ladi. Mazkur huquqiy munosabatlar zaruriy element sifatida hokimiyat qarorlarini, ya'ni huquqni qo'llash hujjatlarini (masalan, Prezidentning vazirni lavozimdan olish to'g'risidagi farmonini) o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, huquq normasi huquq to'g'risida nizo chiqqan hollarda qo'llaniladi. Agar taraflar o'zaro huquqlari va majburiyatlari xususida bir to'xtamga kela olmasalar, ular nizoni hal qilishni so'rab vakolatli davlat organiga murojaat etadilar (masalan, tashkilotlar o'rtasidagi nizolarni xo'jalik sudlari ko'rib chiqadi).

To'rtinchidan, huquqni qo'llash sodir etilgan huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlik chorasini aniqlash, shuningdek tarbiyaviy, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun zarur bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, **huquqni qo'llash** – vakolatli organlar va shaxslarning yuridik ish bo'yicha yuridik faktlar va muayyan huquqiy normalar asosida alohida qarorni tayyorlash va qabul qilish borasidagi hokimiyat mazmuniga ega bo'lgan faoliyatidir.

3-§. Huquqni qo'llash – huquqni amalga oshirish shakli sifatida

O'z ahamiyatiga ko'ra huquqni qo'llash huquqiy tartibga solishning huquq ijodkorligidan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi muhim institutdir. Qonunda belgilangan maxsus tarzda chiqariladigan qarorlar yuridik norma-

larni hayotga tatbiq etishni ta'minlovchi, ularni o'z hukmi bilan mustahkamlovchi yuridik kuchga ega va xulq-atvorning qonuniy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Huquqni qo'llash quyidagi *xususiyat* va *belgilarga* ega:

1) davlat hokimiyatini amalga oshirish vakolati berilgan organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

2) individual xususiyatga ega bo'ladi;

3) muayyan huquqiy oqibatlar – subyektiv huquqlar, majburiyatlar, javobgarlikni keltirib chiqaradi;

4) maxsus belgilangan protsessual shakllarda amalga oshiriladi;

5) yuridik ahamiyatli alohida qaror chiqarish yo'li bilan yakunlanadi.

Huquqni qo'llash huquqni amalga oshirishning bosh *funksiyasi* – huquqiy tartibga solish jarayonida *davlat majburlovidan* foydalangan holda yuridik ta'minlash faoliyatining zarurligini ifodalaydi. Huquqni qo'llash bo'yicha maxsus faoliyatga bo'lgan ehtiyoj asosan davlat majburlovidan foydalanish zarurati bilan belgilanadi. Huquq sohasida davlat majburlovi qonuniylik rejimi sha-

roitida o'z-o'zidan amalga kiritilmaydi. Huquq normalari davlat majburlovini qo'llash imkoniyatiningina nazarda tutadi. Amalda u vakolatli organlar tomonidan qo'llanilishi lozim. Bu organlar davlat majburlov choralaridan foydalanishning qonuniyligi, o'rinliligi va maqsadga muvofiqligini tekshirishlari, zarur hollarda qonunda nazarda tutilgan doirada ularni muayyanlashtirishlari, ularni qo'llash tartibini belgilashlari, ya'ni *individual-huquqiy tartibga solishni* amalga oshirishlari shart.

Shuningdek, huquqni qo'llash huquqiy tartibga solish jarayonida (qat'iy qonuniylik sharoitida) davlat majburlovini amalga oshirishning birdan-bir yo'li hisoblanadi. Bu huquqni amalga oshirishning huquqni qo'llash amal qiladigan barcha shakllariga – foydalanish, rioya etish va bajarishga taalluqlidir.

Huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi faoliyatni va shu munosabat bilan davlat majburlovining qo'llanilishini belgilovchi haqiqiy holatlar qatoriga, odatda, quyidagilar kiradi: a) subyektiv huquqni amalga oshirishga monelik qiluvchi holatlarning mavjudligi, yuridik majburiyatlarni bajarmaslik; b) yuridik javobgarlikka tortishni talab qiluvchi huquqbuzarlik sodir etilishi.

Hokimiyatning qonunchilik va ijro tarmoqlariga mansub organlari yozilgan huquq normalariga asosan ish ko'rishlari lozim. *Huquqni qo'llash* – huquq ijodkorligi yoki ma'muriy organlarning davlat-hokimiyat vakolatlariga asoslangan yuridik normalarni hayotga tatbiq etish borasidagi harakatlaridir. Bu yerda huquqiy tizimlarning o'ziga xosligiga qarab muhim xususiyatlar mavjud bo'lsa-da (avvalo, anglo-sakson guruhiga kiruvchi umumiy presedent huquqi tizimlari to'g'risida so'z yuritilmoqda), biroq huquqni qo'llovchi organ yozilgan huquqning davlat tomonidan belgilangan yoki qabul qilingan (tasdiqlangan) amaldagi yuridik normalari bilan ish ko'radi.

Huquqni qo'llash faoliyati – huquqni qo'llashga doir hujjatlarda ifodalangan asosiy va yordamchi xususiyatga ega har xil huquqni qo'llash harakatlari tizimidan iborat bo'lgan huquqni qo'llashning tashkiliy ifodasi. Bu yerda «yuridik ishni hal qilish», «alohida davlat-hokimiyat qarori» va «huquqni qo'llashga doir hujjat» tushunchalarining ma'nosi o'rtasida mavjud farqlarni hisobga olish lozim. Ko'rsatilgan tushunchalarning *birinchisi* – yakunlovchi huquqni qo'llash harakatini qamrab olsa, *ikkinchisi* – huquqni qo'llash natijasiga ishora qiladi, *uchinchisi* esa – yuridik ishni hal qilish natijasini ifodalaydi, ya'ni yuridik hujjat hisoblanadi. Huquqni qo'llash natijasida huquq normasi talablari aniq hayotiy holatga nisbatan tatbiq etiladi.

Demak, huquqni qo'llash quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Huquq normasi uni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Resub-

likasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq huquqni qo'llash va-kolatini qonun chiqaruvchi, ijro va sud organlari, korxonalar, muassasa, tashkilot rahbarlari, turli darajadagi mansabdor shaxslar, muayyan ho-latlarda jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlari amal-ga oshirishi mumkin. Huquqshunosikka oid adabiyotlarda e'tirof etil-ganidek, mansabdor bo'lmagan shaxslar huquqni qo'llash faoliyati bilan shug'ullana olmaydilar.

Huquqni qo'llash davlat faoliyatining muhim bir shakli hisoblanadi. Huquqni qo'llash o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra, boshqaruvning bir shakli bo'lgan – boshqaruv faoliyatini tashkil etadi. Lekin huquqni qo'llash umuman boshqaruvdan iborat emas, balki huquq normalarida mustahkamlangan umu-miy qoidalarni hayotga qat'iy tatbiq etilishini ta'minlashga qaratilgan maxsus xarakterdagi boshqaruvdir. Huquqni qo'llash davlat-hokimiyat faoliyati sifatida har doim davlat nomidan amalga oshiriladi.

Huquqni qo'llash har doim qonunlarda aniq belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiriladi. Sud, ma'muriy, tergov va boshqa davlat organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan huquqni qo'llash faoliyatini amalga oshirish-ning qat'iy tartibi o'rnatilgan. Huquqni qo'llovchi organlar huquq normalari asosida, doirasida va ularda ko'zda tutilgan tartibda, huquqiy tartibga solish jarayonida faol ishtirok etadi, huquqiy masalalarni hal etadi, aniq vaziyatlarda mazkur munosabatlarni huquqiy tartibga soladi¹.

Huquqni qo'llovchi davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun-da belgilab qo'yilgan muayyan prinsiplar asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Bularning eng muhimlari bo'lib: qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, maqsadga muvofiqlilik, asoslantirilganlik prinsiplari hisoblanadi. Muayyan ish bo'yicha qaror qabul qilish yoki uni rasmiylashtirish davlat organlari yoki man-sabdor shaxslarning huquqni qo'llash faoliyatining yakuni bo'lib hisoblanadi. Huquqni qo'llashning mazkur jarayonida alohida olingan hayotiy vaziyat yoki shaxsga nisbatan huquqni qo'llashning yuridik oqibatlarini ishlab chiqiladi va shakllantiriladi².

4-§. Huquqni qo'llash jarayoni va subyektlari

Huquqni qo'llash jarayoni muayyan ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Huquqiy adabiyotlarda huquqni qo'llash bosqichlari to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Aksariyat adabiyotlarda huquqni qo'llashning uch bosqichi

¹ Qarang: Алексеев С.С. Общая теория государства и права: В 2-х т. Т.1. – М., 1981 – 326-bet.

² O'sha asar, 320-bet.

ajratib ko'rsatiladi: *birinchisi*, ishning faktik tomonini aniqlash; *ikkinchisi*, ko'rilayotgan yuridik ishga mos keladigan huquq normasini tanlab olish; *uchinchisi*, ishni mazmuni bo'yicha hal etish, ya'ni huquqni qo'llash aktini chiqarish¹.

Bundan tashqari huquqni qo'llashning mustaqil bosqichlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: a) ishning holatlarini aniqlash va tadqiq etish; b) huquq normasini qonuniylik, zamon, makon hamda shaxslar bo'yicha amal qilishi nuqtayi nazaridan tanlash va tahlil etish; d) huquq normasi mazmunini tahlil etish va qaror qabul qilish (yakka tartibdagi hujjat chiqarish); e) qabul qilingan qaror mazmunini manfaatdor davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarga yetkazish².

Huquqni qo'llash bosqichlarining soni jiddiy ahamiyatga ega emas. Muhimi, huquqni qo'llashning mazmun va mohiyatini ochib berishdan iboratdir. Huquqni qo'llash bosqichlarining har biri qonunchilik talablariga javob beruvchi ma'lum fakt va yuridik harakatlarning sodir bo'lishi bilan bog'liq.

Huquq normalarini qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

– huquq normasining qo'llanishini talab qiluvchi ishning faktik tomonini tahlil etish;

– ko'rilayotgan ishga mos keladigan huquq normasini tanlab olish, uning mazmunini aniqlash va sharhlash;

– huquqni qo'llash aktini chiqarish va uning bajarilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

– qo'llanish aktining amalda bajarilishini tekshirish va uning ustidan nazorat o'rnatish.

Bu harakatlarning hammasi qonunchilik talablari asosida vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki jamoat tashkilotlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida olib borilish lozim.

Huquq normalarini qo'llanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali namoyon bo'ladi:

Birinchi bosqichda ko'rilayotgan ishning huquq normasini qo'llanishni talab etuvchi faktik tomonini tahlil qilishda, avvalo, huquq normasini qo'llayotgan subyekt tomonidan ko'rilayotgan ishning yuridik ahamiyatga egaligi, mazkur masalani hal etish jarayonida huquq normalari asosida ish ko'rishning lozirligi yoki huquq normalari qo'llamay boshqa ijtimoiy normalardan foydalangan holda hal etish mumkinligi aniqlanadi. Buning uchun huquqni qo'llovchi subyektning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishi talab etiladi.

¹ Qarang. Davlat va huquq nazariyasi. Professorlar H. Boboyev va X. Odilqoriyevlarning tahriri ostida. – T., 2000. – 332–333-betlar.

² Qarang: Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. Под ред. Проф. М.Н. Марченко. Том 2. Теория права. – М., 2000. – 319-bet.

Ko'rilayotgan ishning yuridik xususiyatini aniqlash uchun *birinchidan*, masalan, ilgari jinoyat qonunchiligi tomonidan ko'rilgan, hozirgi vaqtda qonunchilikning yangi talablariga va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra o'zining jinoylik ahamiyatini yo'qotib, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik bilan chegaralanish mumkinligini aniqlash lozim. Shuningdek, ishning yuridik xususiyatini aniqlash, mazkur ish ijtimoiy normalarning qaysi kategoriyasi orqali ko'rilganini bilishni taqozo etadi. Zero, huquq normalarini qo'llash haqida uning yuridik xususiyati aniqlanganidan keyingina, ko'rilayotgan ishga axloq yoki odat normalarini emas, balki huquq normalarini qo'llash zarurligi haqida to'xtamga kelish mumkin. Ushbu holatni aniqlash maqsadida, shuningdek ko'rilayotgan ishning ijtimoiy zarari qay darajada ekanligi aniqlanishi lozim. Uning ijtimoiy zarari darajasi va xususiyati orqali jinoyatlar, ma'muriy va fuqarolik huquqlarining buzilishi aniqlanadi.

Huquq normalarini qo'llashning birinchi bosqichini malakali olib borish ko'p jihatdan siyosiy va huquqiy onglik, qonunlarni bilish darajasiga, aniq faktlar va sharoitlarni tahlil qila olish, masalaning mohiyatini tushunish va uni ikkinchi darajali narsalardan farq qila olish qobiliyatiga bog'liq.

Huquq normalarini qo'llashning **ikkinchi bosqichi** – ko'rilayotgan ishga tegishli bo'lgan huquq normalarini tanlashdir. Agar ishning birinchi bosqichida ko'rilayotgan ish yuridik xususiyatga ega bo'lgan huquq normalarini talab etadi, degan xulosaga kelinadigan bo'lsa, shu ishni olib borayotgan shaxs, barcha huquq normalari orasidan mazkur ishga mos keladigan aniq huquq normasini tanlab olishi va ko'rilayotgan ishda uni qo'llashi lozim.

Qonunchilik huquqni qo'llovchi subyektning ayni vaqtda ko'rilayotgan ishni hal qilishida uning shu paytda amalda bo'lgan huquq normalari asosida ish olib borishi va aynan shu normalar asosida qarorga kelishi lozimligini talab qiladi.

Huquq normalarini qo'llashning **uchinchi bosqichi** – tanlab olingan huquq normasining ma'nosini aniqlash, uni sharhlashdir. Unda, avvalambor qonun chiqaruvchi organning xohishi va fikrini tushunib olish, huquq normasining siyosiy-yuridik mazmunini anglash taqozo etiladi. Buning uchun huquq normasini sharhlash lozim bo'ladi. Muayyan huquq normasini sharhlashda uni huquqning ma'lum sohalariga tegishli bo'lgan boshqa normalar bilan uzviy (tizimli) bog'liqligini nazarda tutib, ular bilan taqqoslab, so'ngra izoh beriladi, aks holda huquq normasini sharhlab bo'lmaydi. Huquq normasining ma'nosini aniqlab olish uning mazmunini fikrlash, tafakkur etish orqali tushunib yetishni nazarda tutadi. Sharhlash (lot. interpretatsiya) – talqin etish, izohlash, mag'zini chaqish ma'nosini anglatadi. Ayni mana shu ijodiy, aqliy fikrlash vositasida qo'llanmoqchi bo'lgan normaning hayotiy vaziyatga mos yoki mos emasligi aniqlanadi.

Huquq normasini qo'llashning *to'rtinchi bosqichi* – ko'riladigan yoki tartibga solinadigan masalaga oid tanlab olingan huquq normalarini qo'llash aktini (qarorni) chiqarishdan iborat bo'ladi. Bunday qaror – sudning hal qiluv qarori, sudning hukmi, davlat organining qarori, farmoyishi, mansabdor shaxsning qarori, buyrug'i shaklida bo'lishi mumkin. Huquqni qo'llash qarorida muayyan huquqiy munosabat taraflari uchun yuridik oqibatlarni (huquq va burchni belgilovchi) ifodalovchi to'xtamlar o'z rasmiy bayonini topadi. Huquq normasini qo'llash qarori individual mazmun va ahamiyatga ega.

Huquqni qo'llashning *beshinchi bosqichi* – chiqarilgan individual huquqiy hujjatni bajarish choralari ko'rish nazarda tutadi. Qaror (buyruq, hukm) ning bajarilishini ta'minlash ba'zan maxsus organlarga (prokuror, ichki ishlar organi xodimi, sud ijrochisi, soliq inspektori va h.k.) yoki qarorni chiqargan organ (shaxs) ning o'ziga yuklatiladi.

Huquq normasini qo'llashning *oltinchi, yakunlovchi bosqichi* – qabul qilingan qarorning amalga bajarilishini nazorat (monitoring) qilish, ijroni tekshirish hisoblanadi.

Huquq normasini qo'llashga qonunlarga qat'iy amal qilishni talab etuvchi murakkab mantiqiy jarayon deb qarash lozim. Biroq, huquq normasini qo'llashda formal mantiqning rolini juda ham oshirib yuborish yaramaydi, chunki huquqning hayotga samarali sur'atda kirib borishini ta'minlashdagi asosiy usul – huquq normasini qo'llashda to'g'ri va adolatli ish ko'rishdir. Bu esa, asosan dialektik metodni keng qo'llash, undan unumli foydalanish natijasidagina amalga oshiriladi.

Umuman huquqning ta'sirchanligini ta'minlash va huquq normalarini tatbiq etish jarayonini tushunish uchun ularni kimlar tomonidan qaysi vaqtda qo'llash mumkinligini aniqlab olish alohida ahamiyat kasb etadi. Gap huquqni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar haqida ketmoqda. Huquq normalarini amalga qo'llash davlat organlari, mansabdor shaxslar jamoat tashkilotlari tomonidan shaxslarning o'zaro munosabatlariga nisbatan tatbiq qilinadi. Shunga ko'ra muayyan huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishi sodir bo'ladi.

Huquq normalari o'z xususiyatiga ko'ra, faqat davlat organlari yoki shu ishga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidagina emas, balki jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqalar) tomonidan ham muayyan sharoitlarda qo'llanishi mumkin. Huquq normalarini qo'llash jarayonida alohida fuqarolar ham faol ishtirok etishlari talab qilinadi. Demokratik jamiyatda qonunlarni hayotga tatbiq etishda davlat organlari bilan bir qatorda jamoat tashkilotlarining roli ham kun sayin o'sib bormoqda. Masalan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqa-

rish organlari va boshqa nodavlat tashkilotlar o'z ish faoliyatlarida davlat organlaridan mustaqil holda zimmlariga yuklatilgan funksiyalarni bajarish maqsadida huquqni qo'llashga oid turli xil vazifalarni amalga oshirmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi mustakillikka erishganidan so'ng jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga katta vakolatlar berildi. Jamoatchilik yo'li bilan ta'sir ko'rsatish jamoat tashkilotlari va jamoaning ta'siri bo'lib, u xalqning birdamligiga, shaxsiy o'rnak ko'rsatish, obro'-e'tibor va ishontirish kuchiga asoslanadi. Huquq normalarining qo'llanilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ham ularning samarali qo'llanilishini ta'minlovchi muhim omillardan sanaladi.

Huquq normalari asosan davlat organlarining maxsus qarori, faoliyati orqali tatbiq etiladi. Huquqiy norma dispozitsiyasidagi huquq va burchlarni belgilash, sanksiyada nazarda tutilgan yuridik javobgarlikni qo'llash bevosita vakolatli davlat organlari, vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat huquqiy normani tatbiq etar ekan, ijtimoiy hayotni tartibga solish, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy asoslarini o'rnatish maqsadida muayyan masalalarni hal etishni tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar qo'lida mujassamlashtiradi.

Huquqni tatbiq etish – davlat faoliyatining shakllaridan biri hisoblanadi. Huquqiy normani tatbiq etish chog'ida har qanday vakolatli davlat organi, mansabdor shaxs davlatning nomidan harakat qiladi. Huquqiy normalarning to'g'ri tatbiq etilishi davlat tomonidan nazorat qilinadi. Bir qator huquqiy munosabatlar davlat, uning organlarining bevosita ishtiroki bilan belgilanadi (masalan, harbiy xizmatga chaqirish, orden bilan taqdirlash, davlat apparatidagi u yoki bu mansabga tayinlash va hokazo). Davlatning huquqiy normalarni tatbiq etish faoliyati huquqiy mazmunga ega. Jamiyatda huquqiy normalarni tatbiq etish xalqning manfaatlaridan kelib chiqadi va qat'iy qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Qonunchilik huquqiy normani tatbiq etish jarayoniga bir qancha talablarni qo'yadi, ya'ni huquqiy normani mo'ljallangan obyektiv holatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina tatbiq etish va unga asos qilib olinayotgan faktlar obyektiv aniqlangan bo'lishi lozim.

Qonuniylik muhiti hukmron bo'lgan sharoitda har bir insonning agar u qonunlarni buzmasa, fuqarolik huquqlari qo'riqlanadi va hech qanday organ, hech bir shaxs tomonidan tajovuzga duchor bo'lmaydi. Shunday qilib, huquqiy normalarni qo'llash subyektlari vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat (nodavlat) tashkilotlaridir.

5-§. Huquqni qo'llash hujjatlari

Huquqni qo'llash hujjatlari davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning huquqni qo'llash faoliyatining natijasi bo'lib, hisoblanadi. *Huquqni qo'llash hujjati* – davlatning hokimiyatini amalga oshirish yuzasidan chiqariladigan yakka tartibdagi muayyan hujjat bo'lib, vakolatli subyekt tomonidan aniq huquqiy masalani mazmunan hal etish yuzasidan chiqariladi. Huquqni qo'llash hujjatlari ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmida tutgan o'rni, zaruriyati hamda foydaliligi nuqtayi nazaridan mustaqil qiymatga ega. Huquqni qo'llash hujjatlari qadr-qimmatining yuqoriligi yana shu bilan belgilanadiki, ular orqali normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishga erishiladi.

Huquqni qo'llash hujjatlari quyidagi bir qator xususiyatlarga ega:

1) ular vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan chiqariladi. Bundan esa, huquqni qo'llash hujjatlarining davlat-hokimiyat xususiyatiga ega ekanligi kelib chiqadi;

2) bu hujjatlar qat'iy individuallashtirilgan bo'lib, ular aniq shaxslar va hodisalarga qaratilgan bo'ladi;

3) bu hujjatlarning bajarilishi davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi;

4) huquqni qo'llash hujjatlari bir marta qo'llaniladi, shu bilan u o'z kuchini yo'qotadi.

Huquqni qo'llash hujjatlarida, ular sudlov, ma'muriy yoki boshqa davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinishidan qat'i nazar, har doim davlatning obro'si va kuchi namoyon bo'ladi. Shuning uchun mazkur hujjatlarda nazarda tutilgan ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortish, ularni buzish tegishli tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Huquqni qo'llash hujjatlari quyidagi talablarga javob berishi lozim: a) mazkur hujjatlar qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida qabul qilingan bo'lsa, ularga aniq mos kelishi; b) huquqni qo'llovchi organ yoki mansabdor shaxsning vakolati doirasida qabul qilinishi; d) chuqur va har tomonlama asoslantirilgan bo'lishi; e) huquqni qo'llash hujjatlariga rasmiy tus beruvchi barcha zarur rekvizitlarga (hujjatning nomi, qabul qilinish joyi va vaqti, mazkur hujjatni qabul qilgan organ nomi, tegishli muhr, imzoning mavjudligi va hokazo) ega bo'lishi.

Huquqiy adabiyotlarda huquqni qo'llash hujjatlari huquqning manbayi bo'la olmasligi qayd etiladi. Sababi, mazkur hujjatlar o'zlarida umumiy yurish-turish qoidalarini emas, balki alohida hayotiy holatga taalluqli ko'rsatmani mujassamlantiradi. Huquq nazariyasida huquqni qo'llash hujjatlarini tasniflash masalasi alohida ahamiyatga ega. Huquqni qo'llash hujjatlarini bir necha mezonlar aso-

sida tasniflash mumkin. Ular ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish shakli; ularni qabul qilgan subyektlari; ahamiyati va hokazolarga asosan guruhlarga bo'linadi.

Huquqni qo'llash hujjatlari ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish shakliga ko'ra ikkiga bo'linadi: *ijro etuvchi va huquqni muhofaza etuvchi*.

Ijro etuvchi hujjatlar huquq normasida mustahkamlangan ko'rsatmalarni alohida shaxs yoki vaziyatga nisbatan ijro etishni tashkillashtirishga qaratilgan. Masalan, mutaxassisligi va malakasi talabga javob beradigan shaxsni ishga qabul qilish to'g'risidagi, o'z vazifasini sidqidildan ijro etgan xodimni rag'batlantirish to'g'risidagi buyruq va hokazo.

Huquqni muhofaza etuvchi hujjatlar amaldagi huquq normalarini turli xil tajovuzlar yoki buzilishlardan saqlashga xizmat qiladi. Ular, odatda, huquq buzilishining oldini olish yoki sodir etilgan huquqbuzarlik yuzasidan chiqariladi. Bunday hujjatlarga sudlov, tergov, prokuratura, soliq, bojxona organlarining hujjatlari misol bo'la oladi.

Huquqni qo'llash hujjatlarini qabul qiluvchi subyektlarga ko'ra, mazkur hujjatlar: qonunchilik hokimiyati organlari hujjatlari; ijro hokimiyati organlari hujjatlari; sudlov organlari hujjatlari; o'zini o'zi boshqarish organlari hujjatlari; jamoat tashkilotlari hujjatlari; korxonalar, muassasa va tashkilotlar ma'muriyati tomonidan chiqariladigan hujjatlarga bo'linadi. Huquqni qo'llash hujjatlarining ifoda etilishi shakliga ko'ra: rasmiy talab, tavsiya xarakteridagi va ko'rsatma (rezolyutsiya) hujjatlari kabi turlari mavjud.

6-§. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi

Jamiyatning jo'shqin rivojlanishi, unda qonun chiqaruvchi idora tomonidan ko'zda tutilmagan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, ularga nisbatan huquqni qo'llash ehtiyoji bilan huquq yaratuvchilik faoliyati o'rtasidagi farq huquqdagi bo'shliqni tashkil etadi. Huquqdagi bo'shliq, odatda, huquqni qo'llash jarayonida aniqlanadi. Huquqni qo'llovchi organ muayyan ishni hal etish chog'ida har doim ham ushbu munosabatni tartibga solib turuvchi xulq-atvor qoidasini topa olmasligi mumkin. Ushbu holat quyidagicha izohlanishi mumkin: 1) qonun chiqaruvchi idora (barcha huquq ijodkorligi faoliyati subyektlarining) ongli ravishda tartibga solish masalasini ochiq qoldirganligi; 2) amaldagi huquq tizimida bo'shliq (huquqiy hal etilmagan jihat) mavjudligi¹.

¹ Нерсесянц В.С. Общая теория права и государства. Учебник для юридических вузов и факультетов. – М.: Издательская группа НОРМА – ИНФРА. – М., 1999. – 490-бет.

Qonun yaratuvchi idoraning ushbu holatlarni tartibga solishni e'tibordan chetda qoldirgani vujudga kelgan hayotiy masalalar huquqiy ahamiyatga ega emasligini bildiradi. Bunday holatlar yuzasidan huquqni qo'llashni taqozo etuvchi ish qo'zg'atish mumkin emas, qo'zg'atilgan ishlar bo'yicha esa, ularning huquqiy jihatdan kam ahamiyatligini inobatga olib tegishli qaror chiqariladi.

Huquqdagi bo'shliq deganda, amaldagi huquqning mazmuni va u tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga ko'ra muayyan hayotiy holatni tartibga solish uchun zarur bo'lgan aniq normaning yo'qligi tushuniladi. Huquqdagi bo'shliq faqat huquq ijodkorligi vakolatiga ega bo'lgan organ tomonidan bartaraf etilishi mumkin.

Huquqni qo'llash jarayonida huquqdagi bo'shliqni bartaraf etish uchun maxsus huquqni qo'llovchi vositalar (usullar) – **qonun analogiyasi (o'xshashligi)** va **huquq analogiyasi (o'xshashligi)** dan foydalaniladi.

Qonun analogiyasi – huquqiy jihatdan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normasini qo'llashdir. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 5-moddasida fuqarolik qonun normalarini o'xshashlik bo'yicha qo'llash qoidalari mustahkamlangan. Unga ko'ra, ushbu Kodeks 2-moddasining birinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan munosabatlar qonun hujjatlari yoki taraflarning kelishuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchilik hujjatlarining o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xshashligi).

Huquqni qo'llash jarayonida qonun o'xshashligidan foydalanishda tegishli munosabatlarni huquqiy kvalifikatsiya qilishda shunga o'xshash munosabatlarni tartibga solib turuvchi normani, eng avvalo, ko'rib chiqilayotgan munosabat qaysi huquq sohasiga taalluqli bo'lsa, o'shandan qidirish lozim. Mazkur sohada topilmagan taqdirda – qonunchilikning yaqin tarmoqlarini va butun qonunchilik tizimidan topish kerak bo'ladi.

O'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normasi bo'lmagan paytda, ya'ni qonun o'xshashligidan foydalanishi mumkin bo'lmaganda, huquq analogiyasi (o'xshashligi) ishlatiladi.

Huquq analogiyasi – amaldagi qonunchilik normalari bilan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan huquqning umumiy asoslari, tamoyillari va mazmunini qo'llashdir. Huquqning umumiy asoslari, tamoyillari va mazmuni deganda, umumhuquqiy va tarmoq hamda huquqiy tartibga solishning huquqiy prinsiplari nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 5-moddasi ikkinchi qismida fuqarolik huquqiy munosabatlarida qonun o'xshashligidan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchilik hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuni

(huquq o'xshashligi)ga hamda halollik, oqillik va adolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.

Huquqni qo'llash jarayonida qonun analogiyasi va huquq analogiyasidan foydalanishning bitta muhim xususiyati mavjud: qonun o'xshashligi va huquq o'xshashligi jinoiy-huquqiy jazo va ma'muriy – huquqiy jazo qo'llashda ishlatilmaydi. Huquqni qo'llovchi idora uchun hayotiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi jinoiy-huquqiy yoki ma'muriy – huquqiy qoidaning yo'qligi, huquqdagi bo'shliqni emas, balki qonun chiqaruvchi idoraning ushbu holatlarni huquqiy tartibga solmaganligi, ularning huquqiy jihatdan kam ahamiyatli deb hisoblaganini bildiradi.

Qonun chiqaruvchi idora esa, huquqiy qoidaning yo'qligini aniqlagandan so'ng, ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solish shart emas deb topishi yoki bunday qoidaning mavjud emasligini huquqdagi bo'shliq deb hisoblab, tegishli normani qabul qilish yo'li bilan bo'shliqni to'ldirishi mumkin. Huquqni qo'lovchi organ (shaxs) bunday holda faqat qabul qilingan huquqiy qoidaga asoslanishi lozim hamda huquq va qonun analogiyasini qo'llashi mumkin emas. Shuningdek, fuqarolarning huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarini analogiya bo'yicha qo'llanishga yo'l qo'yilmaydi.

XVIII bob. HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH

1-§. **Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va mohiyati**

Huquqni sharhlash – yuridik fanning an’anaviy mavzularidan biri. Huquq hodisasi bilan har qancha «muloqot» qilish, uni amalga oshirish, ayniqsa, qo’llash masalalari bilan «to’qnashuv» har safar huquqiy imperativlar, talablarning ma’no-mazmunini aniqlab, oydinlashtirib olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Huquqiy vaziyatni va unga nisbatan qo’llanadigan huquqiy me’yorlar mazmunini mukammal anglab, to’la tushunib ish tutish uning mahsuldor va samarali bo’lishini kafolatlaydi. Qo’llaniladigan huquqiy normaning mazmunini teran tushunib olishga *sharhlash* instituti ko’maklashadi. «Huquqiy normani sharhlash» kategoriyasini tahlil etish doirasida avvalo «sharhlash» iborasining etimologiyasini bilib olish muhimdir.

«*Sharhlash*» – lotincha «interpretation» iborasidan olingan bo’lib, uni keng va tor ma’noda talqin etish mumkin. Sharhlashni keng ma’noda tushunishda, tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarni tushuntirishga qaratilgan har qanday bilish jarayoni nazarda tutiladi. Tor ma’noda esa – so’zlar, iboralar, formula va ramzlarni, ya’ni tabiiy yoki sun’iy til belgilarini aniqlashtirishni anglatadi. Ijtimoiy fanlarda «*sharhlash*» atamasi – «talqin qilish», «izohlash», «tushuntirish» kabi so’zlarning sinonimi tarzida qo’llaniladi.

Huquqni sharhlash tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Ba’zi bir mualliflar, huquqni sharhlash deganda – faqat huquq normasi mazmunini aniqlab olishni tushunsalar, boshqalar esa, huquqiy norma mazmunini tushuntirishni sharhlash deb hisoblaydilar. Uchinchi yondashuv tarafdorlarining fikricha, huquqni sharhlash – huquq mazmunini ham aniqlash, ham tushuntirib berishdan iborat. Huquqni sharhlash tushunchasini idrok etishda dastlabki ikki yondashuvda bir tomonlamalikka yo’l qo’yiladi. Aslida, *sharhlash* – huquq mazmunini aniqlash va uni tushuntirib berishdan iborat murakkab ijodiy jarayon bo’lib, har ikki jihatning yagonaligida namoyon bo’ladi.

Huquqni sharhlashning mazkur jihatleri quyidagicha ta’riflanadi:

Huquqning ma’nosini aniqlash va tushunish, ya’ni shaxsning huquq normasini anglash va o’rganish jarayonidir. Bunda shaxs huquq haqidagi dastlabki tasavvurga ega bo’ladi, u haqidagi mavjud ma’lumotlarni o’zlashtiradi.

Huquq normasining mazmunini tushuntirib berish – vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlangan davlat irodasini huquqiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilariga bayon etish va tushuntirishga qaratilgan maxsus faoliyatidir.

«Sharhlash – tushuntirish» faoliyati sharhlovchi shaxs «o'zi uchun» huquq mazmunini aniqlab olganidan so'nggina amalga oshirilishi mumkin. Tushuntirish, *birinchidan* izohlashning aqliy jarayoni sifatida, *ikkinchidan*, hujjatni (qaror, yo'riqnoma va h.k.) tahlil etish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tushuntirishning maqsadi – sharhlanayotgan normalarning mazmunini yoritish, huquq talablarini aniqlantirish yo'li bilan ularning mazmunini og'zaki yoki yozma talqin etishdan iborat. Biroq, huquqiy normani sharhlashni faqat tushuntirish faoliyati bilan cheklansa, sharhlashdagi aqliy fikrlash, mushohada yuritish, tafakkur qilish jarayoni chetda qolib ketadi. Demak, sharhlash uchun mutasaddi subyekt avval o'zi huquqiy norma ma'nosini anglab olishi, keyin boshqalarga izohlab berishi lozim bo'ladi.

Shunday qilib, *huquq normalarini sharhlash* deganda, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolarning huquq normalari mazmunini aniqlashga, ularda ifodalangan davlat hokimiyati irodasi mazmunini tushuntirib berishga qaratilgan maxsus faoliyati tushuniladi. Ayni vaqtda, – bu mushohada, tafakkur qilish jarayonidir.

Sharhlash eng umumiy va mavhum tabiatga ega bo'lgan huquq normalarini, jamiyatda vujudga keluvchi alohida munosabatlarga tatbiq etish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Prof. S.S. Alekseevning fikricha, qonun chiqaruvchi idora normativ ko'rsatmalarni shakllantirar ekan, kelajakka, ijtimoiy hayotda vujudga kelishi ehtimol tutiladigan o'zgarishlarni nazarda tutadi. Shunday qilib, huquq normalarini, ayniqsa, yuksak normativ umumlashganlik darajasi bilan ajralib turuvchi normalarni amalga oshirishda, ularni alohida olingan hodisaga nisbatan qo'llashda bu normalarni sharhlash zarurati yuzaga keladi. Huquqni sharhlash natijasida uning mazmuni, ijtimoiy vazifasi, amaliy ahamiyati aniqlanadi, anglab yetiladi va tushuntirib beriladi.

Huquqni sharhlashning maqsadi qonun chiqaruvchi organning huquq normasida mujassamlashgan irodasini, ushbu norma bilan bog'liq deb hisoblangan tasavvurlar va tushunchalarni ifodalashdan iborat. *Uning asosiy vazifasi* qonun chiqaruvchi organ qonunchilik hujjatida bayon etgan qoidaning mazmunini ochib berishdir. Huquqning mazmunini aniqlash sharhlashning maxsus usul va yo'llarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar matnidagi so'z va iboralarni savodxonlik, mantiqiy va yuridik jihatdan talqin etish sharhlovchi subyektdan ijodiy va ilmiy yondashuvni talab qiladi. Huquqni sharhlashning amaliy ahamiyati ko'proq sud, prokura-

tura, ichki ishlar organlari kabi huquqni qo'llash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari uchun muhimroqdir, zero, ular kundalik faoliyatida huquqqa oid masalalar bilan bevosita shug'ullanadi hamda huquq normalarini to'g'ri tatbiq etilishi uchun mas'uldirlar.

Huquqning mazmuni qonun sifatida rasmiylashtirishdan oldin tushunib olinishi; xuddi shuningdek alohida huquq normasining mazmuni, u tatbiq etilishidan oldin aniqlanishi shart¹.

2-§. Huquq normalarini sharhlash usullari Huquqiy normalarni sharhlash o'rganilayotgan hodisa to'g'risida obyektiv va ilmiy asoslangan xulosa chiqarishga ko'maklashadigan, hayot sinovidan o'tgan usullar orqali amalga oshiriladi. Huquqni sharhlash usullari orqali sharhlovchi subyekt huquq normasi haqida to'liq tasavvur hosil qiladi va u haqida batafsil ma'lumotlar to'playdi, huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga yetkazadi. Huquqni sharhlash usullarini yaxshi bilish huquq normalarining mazmunini to'g'ri anglash va tushuntirishga hamda ushbu normalarni kelajakda tatbiq etishga xizmat qiladi.

Sharhlash usullari – sharhlovchi subyekt tomonidan huquqiy qoidalar mazmunini aniqlantirish maqsadida, bilishning ilmiy tafakkurga asoslangan maxsus yo'llaridir.

Yuridik adabiyotlarda sharhlashga ikki xilda: *statik* va *dinamik* yondashuv farqlanadi: *statik yondashuvda* sharhlovchi subyekt huquqning barqarorligini saqlashga harakat qiladi; *dinamik yondashuvda* sharhlovchi huquqning mazmunini yoritishda uni ko'proq hayotiy voqelikka yaqinlashtirishga intiladi.

Huquqni sharhlash usullari bir-birini to'ldiradi va qo'llab-quvvatlaydi. Agar huquq normalarini sharhlash usullari birgalikda foydalanilsa, huquq normalarini tatbiq etish jarayonida ijobiy natijalar beradi. Huquq normalarini sharhlash bir qator maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi. Huquqni sharhlash usullari orqali huquqiy normalarning turlari va ularning mazmunini, huquq normasini ifodalash tili va huquq normasini huquq tizimida tutgan o'rnini tushunib olish mumkin.

Huquq normalarining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash uchun sharhlovchi subyektlar quyidagilarni:

- huquq normasining o'zini;
- uning huquqiy aloqalarini – huquq normasining boshqa yuridik qoidalar va prinsiplar bilan o'zaro aloqalarini;

¹ Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов. Под общ. ред. члена-корр. РАН, доктора юрид. наук, проф. В.С. Нерсесянца. – М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА М, 1999. – 444-бет.

– uning ijtimoiy voqelik bilan bo‘lgan boshqa aloqalarini tadqiq etadi.

Huquqshunoslik fanida huquqni sharhlashning quyidagi usullari farqlanadi: *grammatik (filologik) sharhlash; tizimli (sistemali) sharhlash; tarixiy-siyosiy sharhlash; mantiqiy sharhlash; teleologik sharhlash; maxsus yuridik sharhlash.*

Grammatik sharhlash («til bo‘yicha», «filologik» kabi iboralar bilan ham ifodalanadi) hujjat matnini morfologik va sintaktik tuzilishini aniqlashga qaratilgan maxsus usuldir. Ushbu usul yordamida ayrim so‘zlar va atamalar, butun gaplar, gaplar guruhining grammatik ma‘nosi aniqlashtiriladi. Bunda normativ-huquqiy hujjatda qo‘llanilgan ot, sifat, son kabi gap bo‘laklari, keli-shik qo‘shimchalari, fe‘llarning shaxsi va turlari; ishlatilgan bog‘lovchilar, tinish belgilari va shu kabilarning ahamiyati o‘rganiladi.

Huquqiy norma mazmunini, matnini savodxonlik nuqtayi nazaridan sharhlashga, undagi hatto tanish belgilarining ahamiyatiga bir misol keltiramiz. Parlament majlisida murakkab iqlimli mintaqalarda mehnat qilayotgan shaxslar uchun imtiyozlar o‘rnatishga oid qonun loyihasi muhokama qilinayotganda deputatlardan biri quyidagi jumlagi e‘tiroz bildirdi: «*Suvsiz cho‘l zonalarida mehnat qilayotganlarga imtiyoz berilsin*». Deputat bu jumladagi «suvsiz» so‘zidan keyin vergul qo‘yishni taklif etdi. Shunda jumla quyidagicha bo‘ladi: «*Suvsiz, cho‘l zonalarida mehnat qilayotganlarga imtiyoz berilsin*». Bunda vaziyat tubdan o‘zgaradi. Birinchi variantda faqat «suvsiz cho‘l zonalar» nazarda tutilgan bo‘lsa, ikkinchi variantda «ham suvsiz», «ham cho‘l» zonalarda mehnat qilayotgan shaxslar imtiyozlardan bahramand bo‘ladilar. Demak, bitta vergul qonun normasining ma‘nosini tamomila o‘zgartirdi, u imtiyozdan foydalanadigan subyektlar doirasini ancha kengayishiga sababchi bo‘lmoqda.

Grammatik sharhlashda normativ hujjatdagi har bir so‘z o‘rganiladi, so‘zning asosiy ahamiyati, ma‘nosi, grammatik shakli aniqlanadi. Qonunchilikda ishlatiladigan maxsus atamalarni tadqiq qilish huquq normalarini sharhlashda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayrim so‘zlar va atamalarning ma‘nosi aniqlanganidan so‘ng norma orqali ifoda etilgan gaplar ma‘nosi, ularning umumiy grammatik, etimologik va lug‘aviy tuzilishi o‘rganiladi. Grammatik sharhlash natijasida huquqiy normaning matnida ifodalangan mazmuni aniqlanadi.

Grammatik sharhlashda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

– «sharhlashning oltin qoidasi» – qonunning biror-bir moddasini sharhlash jarayonida hamma uchun tushunarli bo‘lgan, adabiy tildan foydalanish lozim;

– qonun chiqaruvchi organ qonunning matnida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqqan bo'lsa, sharhlash jarayonida ham xuddi shunday izohlash lozim;

– huquq normasini sharhlashda bir sohaga taalluqli iborani ikkinchi bir taalluqli bo'lmagan sohada ishlatish taqiqlanadi;

– agar qonun matnidagi ibora mazmuni aniq ifodalanmagan bo'lsa, uni sharhlashda huquqshunoslik fani va amaliyotida keng qo'llanilayotgan so'zlardan foydalanish lozim;

– agar qonun biror-bir iborani turli ma'noda tushunishga «ruxsat» bermasa, uni har xil talqin etish mumkin emas;

– turli iboralarni asossiz ravishda bir ma'noda qo'llash taqiqlanadi;

– qonunning biror-bir so'zini ortiqcha ibora sifatida talqin qilishga yo'l qo'ymaslik kerak¹.

Huquqiy normani tizimli (sistemali) sharhlash – huquqiy normaning mazmuni boshqa normalar bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, mazkur huquqiy normaning normativ-huquqiy hujjat, huquq instituti, huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyati aniqlanadi. Tizimli sharhlash yordamida normalar va hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlar (kolliziyalar) aniqlanadi va bartaraf etiladi.

Tizimli sharhlash usulida sharhlovchi subyekt tomonidan, *birinchidan*, huquq normasining huquq tizimidagi o'rni aniqlanadi (huquq sohasi, instituti), *ikkinchidan*, sharhlanayotgan huquq normasi bilan, mazkur norma tatbiq etilishi nazarda tutilayotgan aniq hayotiy munosabat o'rtasida mantiqiy bog'liqlik borligi aniqlanadi, *uchinchidan* esa, sharhlanayotgan normaning mazmunini bilishga erishiladi.

Tizimli sharhlash rasman bekor qilinmagan, biroq amalda boshqalari bilan almashtirilganligi sababli ahamiyatsiz, foydalanilmay qolgan normalarni ham aniqlash imkonini beradi. Normalarning o'zi mansub bo'lgan huquq tarmog'ining umumiy qismi bilan aloqalari, tizimli sharhlash vaqtida hisobga olish zarur bo'lgan holatlardan biridir. Bunday aloqani ko'rib chiqish, talqin qilinayotgan normaning ma'nosini har tomondan aniqlashtirish va kengroq ochish, uning umumiy yo'naltirilganligini anglashga imkon beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 615-moddasida ijara shartnomasini bekor qilish tartibi mustahkamlangan. Shartnomani bekor qilishning asoslari Fuqarolik kodeksining 382-moddasida ham belgilangan. Ijara shartnomasi bekor qilinishi chog'ida ushbu moddalar bir-biri bilan solishtirilib, ijara shartnomasini bekor qilish masalasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 615-moddasi bilan hal etiladi.

¹ Qarang: Общая теория государства и права. Академический курс в 2-х томах. Под ред. проф. М.Н. Марченко. Том 2. Теория права. – М.: «Зерцало», 1998. – 328–329-бетлар.

Tizimli sharhlashda quyidagi maxsus qoidalarga rioya etish lozim:

birinchidan, umumiy va maxsus normalarning aloqadorligi (maxsus qonunlar muayyan faktga tegishli umumiy qonun harakatlarini bekor qiladi, ya'ni maxsus qonun normalari mavjud bo'lgan taqdirda, umumiy qonun normalari qo'llanilmasdan, maxsus qonun normalari qo'llaniladi. Demak, maxsus normalar umumiy normalarning harakat faoliyatini cheklaydi);

ikkinchidan, havola etuvchi moddalarning aloqadorligi (havola etuvchi moddalar sharhlanayotgan moddalarni aniqlashtirish uchun mo'ljallangan yoki mazkur normaning mohiyatini yoritish uchun havola etilayotgan moddalarga murojaat qilinadi);

uchinchidan, agar turli organlar tomonidan chiqarilgan huquqiy normalarning qarama-qarshiligi aniqlansa, yuqori turuvchi organlar tomonidan qabul qilingan normaga asoslanish lozim;

to'rtinchidan, agar bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki normaning bir-biriga zidligi aniqlansa, u holda norma qabul qilingan vaqt e'tiborga olinadi va keyingi qabul qilingan normaga asoslanishi lozim.

Tarixiy-siyosiy sharhlash usulida qonun chiqaruvchi idora belgilagan har bir normaning maqsadi va ma'nosini aniqroq tushunib olish uchun, sharhlanayotgan norma qabul qilinayotgan paytda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sharoit inobatga olinadi.

Tarixiy-siyosiy usulda sharhlashda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning mazmuni qanday tarixiy sharoitda, davlatning qaysi organi tomonidan, qanday maqsadda qabul qilinganligi aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan tahririda 89-moddaning mazmuni quyidagicha edi: «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro hokimiyat boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi». Ushbu qoida O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, o'tish davrida mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligi va farovonligini ta'minlashda mustahkam zamin bo'ldi.

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipini yanada chuqurlashtirish, oliy hokimiyat organlari tizimida ro'y bergan muhim o'zgarishlar tufayli mazkur qoida tadrijiy ravishda o'zgarib bordi. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan konstitutsiyaviy qonuni bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga quyidagicha tuzatishlar kiritildi: «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti *davlat boshlig'idir (ta'kid muallifniki – X.O.)* va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlaydi».

Sharhlanayotgan normaning tarixiy kelib chiqish shartlari, ya'ni huquqiy norma ma'nosining qabul qilinishi tarixiga murojaat qilish orqali uni huquqiy tartibga solish tizimiga kiritishdan ko'zlangan maqsad aniqlanadi. Sharhlashning tarixiy-siyosiy usulida normativ hujjatning matni bilan birga tarixiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining muhokama qilinishi va qabul qilinishi bilan bog'liq materiallar, bunday hujjatlar chiqarilishi vaqtidagi urf-odatlar, yuridik amaliyotning ilmiy sharhlari va boshqa shu kabi qo'shimcha manbalardan foydalaniladi. Sharhlovchi subyekti hayolan huquqiy normaning hayotga kirib kelishiga sabab bo'lgan tarixiy sharoitlarga qaytib, o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhitni o'rganib chiqadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari uchun tarixiy-siyosiy sharhlash alohida ahamiyatga ega. Chunki, shu faoliyat davlat manfaatlari bilan, ularni himoya qilish bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun qonun chiqaruvchi idoraning siyosiy maqsadini tushunish, uning tarixini bilish ishning sifati va muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishiga yordam beradi. Sharhlashning tarixiy-siyosiy usuli, masalan, ma'muriy, fuqarolik yoki intizomiy huquqbuzarlik chegarasida bo'lgan jinoiy ishlarni tekshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tergovchi huquqbuzarlikning tarkibini tahlil qilib va huquqiy siyosatning zamonaviy talablarini hisobga olib, ish bo'yicha qonunlar doirasida maqsadga muvofiq qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan u huquqiy normaning maqsadga erishishini ta'minlaydi.

Mantiqiy sharhlash – tafakkur jarayoni bo'lib, huquqni talqin etayotgan shaxs sharhlashning boshqa usullariga murojaat etmasdan faqat mantiq usullari yordamida huquq normasini izohlash usulidir. Bunda huquqiy normaning matnidagi ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki mutanosibli va mantiqiy jihatdan uzviy bog'langanligiga e'tibor berilib, huquqiy normaning mazmuni aniqlanadi. Mantiqiy usul huquqiy holatlarni bilishda formal va dialektik mantiq vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunda sharhlashning obyekti normativ-huquqiy hujjat ichki qismlarining o'zaro aloqadorligi hisoblanadi. Mantiqiy sharhlashning *maqsadi* huquq normalarining mazmunini mantiq qonuniyatlari va prinsiplariga tayangan holda tushuntirishdan iborat bo'ladi.

Mazkur sharhlash usuli yordamida huquq normasining mazmuni mantiqiy jihatdan qayta shakllantiriladi, tushunchasi mantiqiy tahlil qilinadi. Ularning hajmi, belgilari va aloqalari aniqlanadi. Huquqiy qoida hayotiy holatga yaqinlashtiriladi, shuningdek, o'xshash va qarama-qarshi jihatlar o'rganib chiqiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasida «spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol

qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonunda belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi mumkin»ligi belgilangan. Mazkur qoida talabiga ko'ra, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilib, o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan cheklanmasa, u mantiqan muomala layoqatiga ega, deb hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni *teleologik (maqsadli) sharhlash* ularni chiqarishdan ko'zlangan bevosita, yaqin kelajakdagi, pirovarddagi maqsadlarni belgilashga qaratilgan bo'ladi.

Teleologiya, ya'ni maqsadga muvofiqlik va hayotdagi maqsadlar to'g'risidagi ta'limotga muvofiq, huquq va uning ayrim tarkibiy qismlari tizimli hodisa sifatida aniq maqsadga yo'naltirilgandir.

Teleologik sharhlash qonun qanday maqsadni ko'zlaganligi bilan bog'liq holda uning ma'nosini aniqlashdir. Norma va uni amalga oshirishning obyektiv oqibatlar bilan aloqasi teleologik sharhlashni mustaqil usul sifatida ajratib ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Teleologik sharhlash jarayonida turli qo'shimcha normativ-huquqiy hujjatlarga, birinchi navbatda, rasman talqin qilingan hujjatlarga ham murojaat qilinishi mumkin. Huquqning barcha subyektlari teleologik sharhlash subyektlari bo'lishi mumkin. Huquq subyektlarining ijtimoiy-huquqiy ongi huquq normasini uning maqsadi bo'yicha sharhlashning muhim omili hisoblanadi.

Teleologik sharhlashning o'ziga xos xususiyati shundaki, barcha bilimlar va ulardan foydalanish usullari normaning bevosita mazmunidan (maqsadidan) chetga chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur usulda bilish vositasi sifatida mantiq qonunlaridan, tizimli obyektlar to'g'risidagi fan qonunlaridan, maxsus yuridik bilimdan, tarix va shu kabilardan foydalaniladi.

Maxsus yuridik sharhlashda maxsus atamalar, qonunchilikda qo'llanilgan yuridik texnika vositalari va qonun chiqaruvchi idoraning xohish-irodasini ifodalash usullari tahlil qilinadi. Qonun chiqaruvchi idoraning huquq normalarida aks ettiriladigan xohish-irodasi nafaqat umumiy iste'moldagi so'zlar orqali, balki maxsus yuridik atamalar yordamida ham ifoda etiladi. Bunda turli texnik-yuridik vositalar va usullardan foydalaniladi, huquqiy tartibga solishning har xil usullari qo'llaniladi. Sharhlovchi shaxs huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini, yuridik konstruksiyani, tartibga solish usuli va boshqa shu kabilarni hisobga olishi kerak.

Yuqorida zikr etilgan sharhlashning usullari huquqiy normaning mazmunini to'laonli yoritishga katta yordam beradi.

3-§. Huquqni sharhlashning turlari

Huquqni sharhlashning turlari to'g'risidagi masala huquqni tushuntirish faoliyatining natijalari va sharhlash hujjatlarining yuridik tabiatiga oid masalalar jumlasiga kiradi. Huquqiy normalarning mazmunini tushuntirishning muayyan natijalari sharhlanayotgan hujjatlar hisoblanadi. Ularning amaliyot uchun yuridik ahamiyati sharhlash subyektlarining vakolatlaridan kelib chiqadi. Huquqiy normalarni sharhlashda sharhlovchi subyektlarning roli katta.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy normalarni sharhlash vakolatiga ega bo'lgan subyektlar quyidagilardan iborat: davlat hokimiyati vakillik organlari, davlat boshqaruvi organlari, sud organlari, prokuratura va boshqa organlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar. Mazkur subyektlar huquqiy normalarni sharhlaganda ularning mazmunini to'g'ri tushunib, huquqiy normalarni hayotga tatbiq etadi.

Huquq normalarini sharhlash uni amalga oshiradigan subyektiga qarab ikki turga bo'linadi:

rasmiy sharhlash;

norasmiy sharhlash.

Rasmiy sharhlash – qonun bilan sharhlash vakolati berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash bo'lib, u hamma uchun umummajburiy ahamiyat kasb etadi. Sharhlanayotgan huquq normalarining umummajburiyligi sharhlayotgan subyektning holatiga, huquqiy maqomiga bog'liq bo'ladi.

Yurisprudensiyada rasmiy sharhlash shartli ravishda *normativ (umumiy)* va *kazual* turlarga bo'linadi.

Normativ sharhlash umumiy xarakterga ega bo'lib, uning natijalari huquqni qo'llashda majburiy ahamiyatga ega. Normativ sharhlash yangi huquqiy normalarni yaratmaydi, balki harakatdagi huquqiy normalarning mazmunini tushuntiradi. Bunday sharhlash natijalari huquqni tatbiq etish jarayonida umumiy qoida sifatida qabul qilinadi, cheklanmagan miqdorda hayotda vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarga qo'llanadi hamda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining keng doirasiga taalluqli bo'ladi. Normativ sharhlash tarkibida **autentik (mualliflik)** va **legal (ruxsat berilgan)** sharhlash farqlanadi.

Autentik sharhlash normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ tomonidan sharhlash (masalan: qabul qilingan qonunga parlament tomonidan berilgan sharh). Autentik – haqiqiylikni, dastlabki manbalarga asoslanganlikni nazarda tutadi. Yuridik adabiyotlarda autentik sharh mualliflik sharhi ham deb ataladi. O'zbekiston Respublikasida autentik sharhlash huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar

Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, xalq deputatlari viloyatlar, tuman va shahar Kengashlari, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlariga o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha berilgan.

Huquqiy amaliyotda normativ sharhlashning alohida turi hisoblangan *legal (ruxsat berilgan)* sharhlash ham mavjud. Legal sharhlash qonun bilan bunday vakolat ruxsat etilgan organ tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 3-qismiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi Konstitutsiya va qonun normalariga sharh beradigan yagona organdir. Bu sharhlash legal normativ bo'lib, barcha davlat organlari, korxonalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Kazual sharhlash umummajburiy xarakter kasb etmaydigan, balki huquqiy normani aniq hodisa, hayotiy holatga qo'llash uchun ko'zlangan rasmiy talqin etishdir. *Kazus* – hodisa, hayotiy fakt. Kazual sharhlash sud va boshqa vakolatli organlar tomonidan ko'rilayotgan va hal qilinayotgan aniq ishlar bo'yicha tegishli normaga beriladi va faqat shu ish uchun majburiydir.

Sud organlari har bir fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va boshqa ishlarni ko'rayotganda tegishli huquqiy normalar bilan bu ishlarni ko'rib, hal qilish chog'ida huquqiy normalarni kazual sharhlaydi. Sudning har bir fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan qarori yoki jinoiy ishlar bo'yicha chiqargan hukmi huquqiy normani kazual (kazus) sharhlash asosida amalga oshiriladi.

Huquqiy normalarni subyektga ko'ra sharhlashning ikkinchi turi *norasmiy sharhlashdir*. *Norasmiy sharhlash* – huquq mazmunini shunday sharhlashni nazarda tutadiki, bunda sharhlash maxsus vakolat berilmagan organlar yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, sharhlash natijalari majburiy ahamiyat kasb etmaydi, yuridik oqibatlariga sabab bo'lmaydi. Norasmiy sharhlashning ahamiyati, uning ishonarliligi, ilmiy asoslanganligi hamda ushbu faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarning shaxsiy obro'-e'tiboriga bog'liqdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar, Jinoyat kodeksiga sharhlar, Fuqarolik kodeksiga sharhlar shular jumlasidandir.

Norasmiy sharhlashning *oddiy, kasbiy va doktrinal* kabi turlari mavjud.

Oddiy sharhlash huquqiy faoliyat sohasida mutaxassis bo'lmagan fuqarolar kundalik hayotda yuzaga keladigan huquqqa oid hodisa va harakatlarga nisbatan o'zlarining subyektiv fikrini bildirishi hamda o'zining huquqiy bilimi darajasida huquqqa oid masalaning mazmunini aniqlashdir.

Kasbiy sharhlash deganda, kundalik amaliyotda xizmat faoliyati nuqtai-nazaridan doimiy ravishda shug'ullanadigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining mavjud huquq normalarini mazmun va mohiyatini yoritishga qaratilgan fikri va mulohazalari tushuniladi. Kasbiy sharhlash bilan asosan

sudya, prokuror, tergovchi, advokat, notarius va boshqa yuridik kasb vakillari shugʻullanishi mumkin.

Doktrinal sharhlash deganda, kundalik faoliyatida bevosita huquqdagi muammolarga duch keluvchi va ularni bartaraf etish bilan shugʻullanuvchi mutaxassis, yurist-olimlarni mavjud huquq normalarining mohiyatini yoritib berishga yoʻnaltirilgan izohlari tushuniladi. Tatbiq etilayotgan normalarni *ilmiy (doktrinal) sharhlash* ilmiy xodimlar, olimlar, mutaxassislar tomonidan monografiyalar, darsliklar, maʼruzalar va ilmiy maqolalarda amalga oshirilishi mumkin. Bunday sharhlar ilmiy xarakterga ega boʻlib, majburiy (normativ) ahamiyat kasb etmaydi.

Huquqiy normalarni sharhlash maqsadi qonun chiqaruvchi idora nazarda tutgan huquqiy meʼorning maʼnosini aynan aniqlashdan iborat. Qonun chiqaruvchi idora oʻz irodasini til vositalarida ifodalaydi. Shuning uchun uning soʻzlar yordamida ifodalangan irodasi har doim ham uning haqiqiy mazmuni bilan mos kelmasligi mumkin. Huquq normasi maʼnosining bir xilligi va toʻla aniqligi sharhlashning natijasi hisoblanadi. Shunga koʻra, ***sharhlashning hajmiga koʻra turlari*** farqlanadi.

Hajmiga koʻra sharhlash – qonun chiqaruvchi idora huquqiy normaga jo etgan haqiqiy maʼnoni anglash maqsadini nazarda tutadi. Sharhlashning natijasiga koʻra *tom maʼnoda (aynan), cheklangan va kengaytirilgan sharhlash* kabi turlari farqlanadi.

Huquqni tom maʼnoda sharhlash deganda, tatbiq etilayotgan huquq yaratuvchi idoraning irodasi bilan uning huquqiy normada soʻzda ifodalangan irodasi bir boʻlganda qoʻllanadigan izohlash tushuniladi. Tom maʼnoda sharhlash fanda «aynan» sharhlash ham deb ataladi. Bunga misol qilib Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasini koʻrsatish mumkin. Unda shunday deyilgan: «Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik oʻrnatiladi. Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega boʻlganligidan qatʼiy nazar, hamma uchun tengdir». Shuningdek, huquqiy normalarni soʻzning tom maʼnosida sharhlashga misol sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasini keltirish mumkin. Unda «Oʻzbekiston Respublikasi oʻz hududida ham, uning tashqarisida ham oʻz fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik koʻrsatishni kafolat»lashi mustahkamlangan.

Cheklangan sharhlash huquqiy normaning soʻzda ifodalangan va rasmiylashtirilgan maʼnosi uning mantiqiy maʼnosi va mazmunidan keng boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida «Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda oʻz vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega» ekanliklari mustahkamlangan. Qonun chiqaruvchi idora «Oʻzbekiston Respub-

likasining fuqarolari» iborasi bilan faqat voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega shaxslarni nazarda tutadi. O'z-o'zidan ma'lumki voyaga yetmagan, ruhiy kasal shaxslar bunday huquqdan foydalana olmaydilar.

Kengaytirilgan sharhlar shu qonun normasi matnining mazmuni uning mantiqiy ma'nosidan tor bo'lganda qo'llaniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida «Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar», deyilgan. Bunda qo'llanilgan «sudya» iborasining haqiqiy ma'nosi keng tushuniladi. Qonun chiqaruvchi idora «sudya» iborasi orqali faqat sudyalarni emas, shu bilan birga xalq maslahatchilarini ham mustaqilligini va faqat qonunga bo'ysunishini nazarda tutgan.

Shunday qilib, huquqiy normalarni sharhlar, huquq yaratuvchi organing normativ-huquqiy hujjatlarda mujassamlangan irodasining haqiqiy ifodasi bilan huquqiy normaning so'zda ifodalangan ma'nosini aniqlash va tushuntirish orqali, huquqning to'liq tatbiq etilishiga ko'maklashadi. Aholining huquqiy normalar mazmunini teran anglashga, ularga qat'iy amal qilishga, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yuqori saviyada bo'lishiga olib keladi.

XIX bob. HOZIRGI DUNYO HUQUQIY TIZIMLARI

1-§. Dunyoning huquqiy xaritasi: asosiy tushunchalar

Dunyoviy huquqiy tizimlarni ilmiy mushohada qilish va talqin etish masalasi bugungi kunda olimlar e'tiborini o'ziga jalb qilayotgan dolzarb mavzu hisoblanadi. Hozirgi dunyo huquqiy xaritasi jamiyat taraqqiyotining mazkur bosqichida mavjud va faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab milliy huquqiy tizimlarning yig'indisidan iborat. Uning muhim jihati shundaki, ushbu huquqiy tuzilmalar turlicha rivojlantirish darajasida bo'lsa-da, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir munosabatlari mavjuddir. Ushbu o'zaro aloqadorlik va ta'sir etish darajasi turlicha bo'lishiga asosiy sabab eng kamida ikkita: *birinchisi* – alohida milliy huquqiy tizimlar bir qator o'zaro umumiy xususiyat, belgi va o'xshashliklarga ega; *ikkinchisi* – har biri aniq milliy huquqiy tizim bo'lib, aksincha, qolgan boshqa huquqiy tizimlarga nisbatan ustuvorlik qiluvchi xususiyatlarga, o'ziga xos belgilarga ega holatda namoyon bo'ladi.

Qiyosiy huquqshunoslik bo'yicha mutaxassis M. Bogdan shunday deydi: «hozirgi dunyoda mavjud yuzlab huquqiy tizimlar ustuvor o'xshash belgilarga ega. Bu o'xshashliklar, odatda, *aynan bir* yoki «o'zaro juda yaqin jamiyat tiplari bilan», *umumiy* yoxud «jamiyat taraqqiyotining juda yaqin (o'xshash) tarixiy shart-sharoitlari bilan», *umumiy* yo «juda o'xshash dinlar bilan», shuningdek boshqa shunga o'xshash holatlar bilan belgilanadi»¹. O'xshash belgilar milliy huquqiy tizimlarni integratsiyalashga asos bo'ladi. Farqli xususiyatlar esa ularni alohida, mustaqil tizim sifatida talqin etish imkonini beradi.

Jahon huquqiy tizimlarini tavsiflashda «tizim» tushunchasi markaziy kategoriya hisoblanadi. «Tizim», («sistema») tushunchasi avval ta'kidlanganidek, «qismlardan tashkil topgan majmua» degan ma'noni anglatadi².

Falsafiy qomusiy lug'atda: «tizim, sistema (qismlardan iborat butun) – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar (elementlar) majmui», – deb ta'rif berilgan³. Yana shu manbada qu-

¹ Qarang: Bogdan M. Comparative Law. Kluwer, 1994. – 82-bet; Проблемы теории государства и права. Учебное пособие. – М., 1999. – 375-bet.

² Falsafa: qomusiy lug'at // Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – T., 2004. – 398-bet.

³ O'sha joyda.

yidagi izohlarni uchratish mumkin. «Sistema» – yaxlit bir butunlik sifatida tashkil topgan obyektning ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya. Odatda, sistemani eng umumiy tarzda elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar birligi sifatida ta'riflaydilar. «Sistema» tushunchasi o'z ma'nosiga ko'ra «aloqa», «element», «butun», «birlik», «struktura», (elementlar o'rtasidagi aloqalar sxemasi) tushunchalari bilan bog'liq. Ushbu o'rinda sistemali tadqiq etishning asosiy vazifalari: sistema elementlari, aloqalari va strukturasi, elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni ajratishdir. Sistemani mohiyatini metodologik tushunishga ko'ra sistemalilik obyekt va hodisalarning o'z xossasi deb emas, balki faoliyatning aniq bir maqsadga yo'naltirilishi, tafakkurni tashkil etish sifatida ta'riflanadi¹.

Shunday qilib, sistema atrof-muhitdan, ijtimoiy hayotdan ajratib olingan o'zaro ichki munosabat va aloqalar asosida birlashgan bir qancha elementlar va ular tarkibiy tuzilmalarining yaxlit bir butunligidir².

Yuridik adabiyotda yer yuzasida mavjud milliy huquqiy tizimlarni umumiy tarzda ifodalash uchun «*dunyoning huquqiy xaritasi*», «*dunyoning yuridik geografiyasi*», «*huquqiy tizimlarning hamjamiyati*» (uyushmasi) degan iboralar qo'llaniladi. Mazkur kategoriyalar turli-tuman yo'nalishdagi milliy huquqiy tizimlarning miqdor jihatdan katta qismini o'z qamroviga olishi – masalaning bir tomoni. Ularning bundan-da muhim ikkinchi tomoni shundaki, bu terminlar ijtimoiy va tarixiy notekis shakllangan hamda turlicha rivojlanish bosqichida bo'lgan huquqiy tizimlarni bir sinxron turkumga birlashtirib o'rganish imkonini beradi. Shu narsaga e'tibor qaratish joizki, turli mamlakatlarning huquqiy tizimi, ayniqsa, qonunchiligi turfa tillarda, turli yuridik texnika qoidalari asosida va ma'naviyati, e'tiqodi, tarkibiy tuzilishi har xil bo'lgan jamiyatlar uchun yaratiladi³. Bular ularni differensiyalashga, farqlashga asos bo'luvchi jihatlardir.

Afsuski, «huquqiy tizim» kategoriyasini tahlil etganda ba'zan olimlar «huquq tizimi» ning tor doirasida fikr yuritadilar. Ammo, huquq tizimi o'z tarkibiga huquq sohalari, huquq institutlari, huquq normalarini qamrab olgani holda huquqiy tizimning birgina elementini tashkil etadi. Ma'lumki, faqat huquqiy normalarning yig'indisi huquqiy tizimni to'la aks ettira olmaydi. Huquqiy tizim «huquq tizimi»ga nisbatan ancha keng, serqirra, murakkab ijtimoiy hodisadir.

Chexiyalik olim, akademik Imre Saboning talqiniga ko'ra, «huquqiy tizim tushunchasi muayyan huquq tiliga tegishli bo'lgan alohida tizimlarni ifodalashga xizmat qiladi», bunda gap «huquq normalarining oddiy yig'indisi emas,

¹ Falsafa: qomusiy lug'at // Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – T., 2004. – 370-bet.

² Qarang: Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T., 2008. – 16–17-betlar.

³ Qarang: Давид Р., Жоффре – Спинози К. Основные правовые системы современности. – М., 1996.

balki mantiqiy jihatdan tuzilgan yagona huquqiy tizim to'g'risida boradi¹. U «huquqiy tizim» tushunchasini «huquq tizimi» kategoriyasi bilan aralashtirib yuborishdan ogohlantiradi. M.N. Marchenko ham I. Sabo kabi huquqiy tizim kategoriyasini huquq tizimi va qonunchilik tizimidan farqlaydi. Huquqiy tizim faqat huquqiy normalar yig'indisi bo'lmay, balki o'z ichiga huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy siyosat, huquqiy madaniyat, yuridik amaliyot kabi boshqa huquqiy hodisalarni qamrab oladi. Rus olimi T.V. Kuxarukning fikricha, «jamiyat huquqiy tizimi» shunday ilmiy kategoriyalar sirasiga kiradiki, uning fanda vujudga kelishini faqat ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat huquqiy hayotida ro'y berayotgan o'zaro aloqadorlik, huquqiy borliqda tizimli xususiyatning mavjudligi bilan tushuntirish mumkin emas. U voqea va hodisalarga falsafiy tizimlilik nuqtayi nazaridan yondashish mahsulidir.

Milliy huquqiy tizimni anglashda «*huquq tizimi*», «*huquqiy tizim*» tushunchalaridan tashqari «*huquq oilasi*» kategoriyasining ma'nosini bilib olish ham maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'lishicha, *huquq tizimi* huquqning ichki tarkibiy tuzilishidir. Ular: huquq normasi, huquq instituti va huquq sohasi (tarmog'i) ni o'z ichiga oladi. *Huquqiy tizim* esa, na faqat huquq normalarining yig'indisi, balki ularni harakatga keltiruvchi, o'zaro bog'liq huquqiy hodisalar yoki vositalar hamda ularning bir butun organizm sifatida harakatdagi ko'rinishidir. Huquqiy tizim tarkibiga huquq normalari tizimi bilan bir qatorda, huquq ijodkorligi jarayoni va huquqni qo'llash jarayoni, yuridik mazmundagi barcha hodisalar kiradi.

«Huquqiy tizim» tushunchasi keng ma'noda «huquqning tarixiy tipi» tushunchasiga o'xshash tushuncha sifatida qo'llaniladi. Bu tushunchalarning ikkinchisi bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadagi huquqiy tizimlarning barchasini qamrab oladi va eng muhimi, shu tizimlarga ham xosligini ifodalaydi. Biroq, «huquqning tarixiy tipi» tushunchasi hozirgi zamon huquqiy tizimlarining barcha ko'rinishlarini qamrab ololmaydi².

Turli-tuman milliy huquqiy tizimlarning umumiy va o'xshash belgilarining mavjudligi ularni guruhlashtirish, tasniflash, alohida huquqiy umumlashmalarga, huquqiy oilalarga biriktirish imkonini beradi. Qiyosiy huquqshunoslik huquqiy tizimlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan tashqari, ularni turli tiplar, guruhlar va huquq oilalari bo'yicha tasniflash imkonini beradi. Milliy huquqiy tizimlarni ularning turli jihatlari bo'yicha qiyoslash mumkin. Bunday jihatlar qatorida huquqning strukturasi (tarkibiy tuzilishi), huquqning manbalari, huquqning jamiyat va davlat hayotidagi o'rni, muayyan huquqiy

¹ Сабо Имре. Социалистическое право. – М., 1864. – 128-бет.

² Qarang: Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. O'razayev. 1-tom. – T., 1998. – 80-бет.

tizim doirasida shakllangan yuridik texnika, huquqiy tizimning prinsiplari va boshqalar qabul qilinishi mumkin¹. Qiyosiy huquqshunoslikda va maxsus yuridik adabiyotlarda shakllangan ta'rifga binoan, **huquqiy oila** deganda, turli xususiyat va belgilarning umumiyligi asosida ajraluvchi hamda farqlanuvchi milliy huquqiy tizimlarning yig'indisi tushuniladi².

Xalqaro huquq fanida ham «milliy huquqiy tizim» iborasi keng qo'llaniladi. Bunda bir mamlakat miqyosida shakllangan va amal qiladigan huquqiy tizim nazarda tutiladi. Har bir mamlakatda davlat tuzilishi, davlat boshqaruv shakli va davlat organlari majmui turlicha va ularning huquqiy mustahkamlanishi (rasmiylashuvi) o'ziga xos bo'ladi. Shunga ko'ra, mamlakat ijtimoiy-siyosiy voqeligiga mos milliy huquqiy tizim qaror topishi tabiiy. Ammo, tarixan o'zaro yaqin rivoj topgan qator jamiyatlarda (mamlakatlarda) shaklan o'xshash va mazmunan yaqin huquqiy institutlar, huquqiy an'ana, qadriyat va normalar qaror topadi. Xuddi ana shu huquqiy institutlar, voqeliklar va normalar turli milliy huquqiy tizimlarning bir huquqiy oilaga uyushishiga asos bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda istiqomat qilayotgan xalqning mentaliteti, millatning o'ziga xos xususiyatlari, qadriyatlari, urf-odati va an'analari ham huquqiy tizimni shakllantirishga, uning mazmuniga ta'sir o'tkazadi.

Demak, «**huquq oilasi**» huquq tizimi va huquqiy tizimga nisbatan keng ma'noli tushuncha bo'lib, ularni o'z tarkibiga qamrab oladi. Huquq oilasi ba'zan yuridik adabiyotlarda huquqiy tizim tushunchasi bilan aynanlashtiriladi³. Qiyosiy huquqshunoslik bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan «huquq oilasi» atamasi turlicha talqin etiladi. Jumladan, R. David «huquqiy tizimlar oilasi», K.-O. Ebert va M. Reynsteyn «huquqiy doiralar», I. Sabo «huquqiy tizimlar shakli», S.S. Alekseev «tuzilmaviy umumiylik» – deb ataydilar.

Huquq oilasi huquqiy tizimlarning paydo bo'lishi, rivojlanishiga asos bo'luvchi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, tarixan shakllangan, bir necha milliy huquqiy tizimlarning birligini ifodalovchi dunyo huquqiy voqeligining eng katta tarkibiy qismidir. Bir qator huquqiy tizimlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatni belgilab olish, ularni huquq oilalariga ajratish imkonini beradi. «Huquq oilasi» kategoriyasi yuridik belgilari o'xshash bo'lgan huquqiy tizimlar guruhini ifodalashga xizmat qiladi. Bu tushuncha o'zaro o'xshash yuridik belgilarga ega bo'lgan huquq tizimlarining nisbiy birligini anglatish uchun xizmat qiladi va aytib o'tilgan tizimlarning muayyan tarixiy rivojlanish xususiyatlarini, ya'ni tuzilishi, huquq manbalari, yetakchi huquq institutlari va sohalari,

¹ Общая Теория государства и права. Академический курс. Т.2. – М., 1998. – 99-бет.

² Qarang: Синюков В.Н. Российская правовая система. Введение в общую теорию. – Саратов, 1994. – 166-бет.

³ Qarang: Давид Р. Основные правовые системы современности. – М., 1988.

huquqiy madaniyati, an'anasi kabilarni aks ettiradi. «Huquq oilasi» instituti «huquqning tarixiy tipi» tushunchasiga nisbatan ikkilamchi, yordamchi hisoblanadi, huquq shaklining nisbatan mustaqilligini, huquqning texnik-yuridik mazmunini, o'ziga xosligini aks ettiradi.

Shunday qilib, huquq oilasi deganda, bir huquq chegarasida tarixiy shakllanishining o'xshashligi asosida birlashgan milliy huquq tizimlarining ozmi-ko'pmi keng majmui, huquqiy manbalar tuzilishi, yetakchi huquq sohalari va huquq institutlari, huquqni qo'llash, yuridik fanning umumiy jihatlari tushuniladi. Tahlillarga xulosa yasab, huquqiy tushunchalarni «obyekt doirasi» (hajmi) yoki tartibga solish jarayoni bo'yicha tartiblashtirsak, **dunyo huquqiy xaritasi**: huquq oilalari, huquqiy tizimlar va milliy huquq tizimlari kabi iyerarxik ko'rinishga ega bo'ladi.

2-§. Dunyo huquqiy tizimlarining tasniflanishi

Hozirgi zamonda ikki yuzdan ortiq mamlakatlarda alohida milliy huquqiy tizimlar amal qilmoqda. *Bir tomondan*, barcha huquqiy tizimlar o'zaro o'xshash jihatlarga ega; *ikkinchi tomondan*, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi bois milliy huquqiy tizimlar bir-biridan farq qiladi. Har bir davlatda yashovchi xalqlarning o'z urf-odatlarini, an'analari, o'ziga xos qonunchilik hujjatlari, yurisdiksiyon organlari, huquqiy mafkurasi, huquqiy ongi (mentaliteti) va huquqiy madaniyati mavjud. Mamlakatning huquqiy jihatdan alohidaligi, uning o'ziga xosligi tegishli jamiyatning alohida huquqiy tizimga (huquqiy ong, huquqiy normalar, an'analari, munosabatlar va muassasalarga) ega bo'lishini taqozo etadi. Biroq, hozirgi dunyoda turli-tuman milliy huquqiy tizimlar bo'lishiga qaramay, ularni bir necha huquqiy oilalarga birlashtirishga (taqsimlashga), guruhlashtirishga imkon beruvchi umumiy jihatlari, o'xshash belgilar mavjud.

Mazkur umumiy belgi va xususiyatlar huquqiy tizimlarni alohida huquqiy guruhlariga, huquqiy oilalarga tasniflash imkonini beradi. Tasniflash usuli deyarli barcha fanlar tomonidan qo'llaniladi, masalan, lingvistikada – roman, slavyan, ingliz, turkiy til guruhlarini; dinshunoslikda – islom, nasroniylik, buddizm, iudaizm va hokazo; tabiiy fanlarda (hayvonot va jonzorlar borasida) – o'txo'rlar va sudralib yuruvchilar; quruqlikda yashovchilar va suvda yashovchilar kabi tasniflar uchraydi. Huquqshunoslik fanida tasniflash orqali biz huquqiy tizimlarning ayrim juz'iy jihatlari berilmagan holda ularning muhim xususiyatlariga ko'ra, huquqiy oilalarga ajratib mohiyat-belgilarini tadqiq etish maqsadiga erishamiz. Ushbu tasniflashga falsafiy yondashiladigan bo'lsa, bunda *huquqiy*

oila – umumiylik, huquqiy guruh – alohidalik va milliy huquqiy tizim – xususiylik hodisasini aks ettiradi.

Hozirgi dunyo huquqiy tizimlarining tarkibiy tuzilishi jihatidan murakkab bo'lgan huquqiy oila, huquqiy guruh va alohida milliy huquqiy tizimlar tarzida tasniflash ilmiy afzallik va maqbullikka ega. Bunda huquqiy oilaning tarkibida yanada aniqroq tasniflash o'tkazib, uni alohida huquqiy guruhlarga, huquqiy tuzilmalarga ajratish mumkin. Masalan, roman-german huquqiy oilasi tarkibida fransuz huquqi guruhini va german huquqi guruhini ajratish mumkin; umumiy huquq oilasida – ingliz huquqi guruhini va amerika huquqi guruhini ajratib ko'rsatish mumkin.

Turli mamlakatlardagi huquqiy tizimlarni tasniflashning bir qancha mezonlari mavjud:

Vujudga kelish va rivojlanish genezisining umumiyligi. Ushbu tizimlar tarixan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy davlat – huquqiy ildizdan o'sib chiqqan (ular qadimgi davlatlardan o'sib chiqqan va yagona huquqiy ibtido, huquqiy prinsiplar va mezon – normalarga tayanadi).

Huquqiy normalarning mustahkamlanish va ifodalanish shakli (manbalari) ning umumiyligi. Gap huquqni ifodalashning tashqi ko'rinishi haqida bormoqda. Bunda huquq normalari qanday o'rnatiladi, qaysi manbalarda ifodalanadi (qonundami, sud qarori yoki shartnomadami?), ularning roli va ahamiyati, nisbati kabilar aniqlanadi.

Strukturasining (tarkibiy tuzilishining) yagonaligi, o'xshashligi. Dunyoning bir huquqiy oilasiga kiruvchi huquqiy tizimlar normativ-huquqiy materialni joylashtirishning (shakllantirishning) o'xshash strukturasi ega. Bu o'xshashlik, odatda, *birinchidan*, bu mikro darajada, ya'ni huquqiy normaning tarkibiy tuzilishi darajasida, *ikkinchidan*, makro darajada – normativ material yirik tuzilmalari (huquq tarmog'i, subtarmog'i, qonunchilikning kompleks tuzilmalari) ning tarkibiy tuzilishi (strukturasi) darajasida ko'rinadi.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish prinsiplarining umumiyligi. Bu prinsiplar ba'zi davlatlarda subyektlarning erkinligi, tengligi g'oyalari, odil sudlovning obyektivligida ifodalansa, boshqa davlatlarda diniy asoslarda namoyon bo'ladi, uchinchi mamlakatlarda – milliy sotsialistik g'oyalarda ifodalanadi.

Yuridik kategoriya va tushunchalarning, terminlar va yuridik texnika qoidalarining yagonaligi, huquq normalarini tizimlashtirishning birligi. Huquqiy jihatdan «qarindosh», turdosh bo'lgan mamlakatlar, odatda, o'z ahamiyati va ma'nosi bo'yicha o'xshash iboralarni, tushunchalarni ishlatadilar. Bu hol ularning kelib chiqishi umumiyligi bilan bog'liq¹. Shu sababli, bir huquqiy

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова. – М., 1997. – 509–510-бетлар.

tizimga (huquqiy oilaga) kiruvchi davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari huquqiy hujjatlarning matnini yaratishda bir xil yuridik konstruksiyalardan, normativ materialni shakllantirish usulidan, ularni tartibga solish va tizimlashtirishning o'xshash uslublaridan foydalanadilar.

Hozirgi zamonda faoliyat yuritayotgan asosiy huquqiy tizimlarni tasniflashda huquqshunos tafakkur yuritib, uncha ko'p bo'lmagan huquqiy tizimlar tahlili bilan cheklanishi lozim. Chunki, kimki tasniflash chog'ida sayyoramizdagi barcha huquqiy tizimlarni qamrab olishga intilsa, u juda katta empirik material ummoniga g'arq bo'lib ketadi. Bugungacha mavjud biron – bir xalqaro ensiklopediyada dunyodagi barcha huquqiy tizimlar ro'yxati to'la aks ettirilmagan.

Huquqiy tizimlar tahlili bilan shug'ullanadigan huquqshunos, eng avvalo, tarixan tarkib topgan asosiy (shajarani boshlab beruvchi) huquqiy tizimni aniqlab olishi, so'ngra uning geografik yoyilishini, ya'ni resepsiya qilinganligini kuzatishi (o'rganishi) lozim. Agar dunyo huquqiy xaritasiga e'tibor bilan razm solinsa, davlatlarning uchdan ikki qismi ikki asosiy huquq tizimiga (huquqiy oilaga): roman-german va ingliz huquqiy tizimlariga daxldor hisoblanadi.

Tasniflash mezoni sifatida quyidagi asoslar olinadi: *birinchidan*, huquqiy tizimning geografik jihatdan qanchalik keng yoki tor yoyilganligi, *ikkinchidan*, huquqiy tizimning tarixiy ildizlari va rivojlanish yo'llari; *uchinchidan*, tizim tarkibidagi yuridik institutlar va huquqiy tarmoqlar hisobga olinadi. Ushbu mezonlardan foydalanishda madaniy, etnik, milliy, geografik, diniy, huquqiy-texnikaviy, huquqiy-uslubiy va hokazo omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy tizimlarni tasniflashning mazmuni buning uchun tanlab olinadigan mezonga bog'liq bo'ladi. Bunday mezonlar yana formal – yuridik, ma'rifiy (sivilizatsiyali), ma'naviy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy (formatsiyaviy) bo'lishi mumkin. Bu mezonlarning turli kombinatsiyalarda qo'llanilishi zamonaviy qiyosiy huquqshunoslikda tasniflashning o'ziga xos jihatidir. Chunki, bitta mezon dunyoning yuridik xaritasi haqida mufassal bilim hosil qilishi mushkul. Masalan, hozirgi Xitoyning huquqiy tizimi *formal – yuridik mezon*ga ko'ra, roman-german huquqiy oilasiga taalluqli bo'lsa, *ma'rifiy va ma'naviy mezon*ga muvofiq – an'anaviy (odat huquqi tizimiga) tizimga, *ijtimoiy-siyosiy mezon*ga binoan – sotsialistik huquqiy oilaga mansubdir. Ba'zi mamlakatlarning huquqiy tizimi o'z tarixiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra hech bir huquqiy oilaga mos kelmaydi. Masalan, Shotlandiyaning huquqiy tizimi umumiy (anglo-sakson) huquq bilan kontinental (roman-german) huquq tizimlarining uyg'unlashgan ko'rinishi sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, anglo-sakson va roman-german tizimlarining uyg'unlashgan ko'rinishi AQSh ning Luiziana shtati, Kananing Kvebek provinsiyasida kuzatiladi. Hozirgi Isroilning huquqiy tizimi uch

huquqiy oilaning, ya'ni musulmon, roman-german va anglo-sakson huquq oilalarining ta'sirida shakllangan¹. Tahlil jarayonida ta'kidlangan mezonlar va omillarga tayanib huquqiy tizimlar tasniflanadigan bo'lsa, ularni ikki asosiy yo'nalishga ajratish mumkin. Tabiiyki, mazkur yo'nalishlardan har biri muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bir qancha turlarga bo'linadi.

Birinchi yo'nalish fransuz olimi R. Davidning asarlarida o'z aksini topgan. Uning uch tomlik asarida uchta (roman-german, anglo-sakson, sotsialistik) «huquq oilalari» ajratib ko'rsatiladi va ularga dunyo xaritasining beshdan to'rt qismini o'z ichiga oladigan hamda «diniy va an'anaviy tizimlar» deb nomlangan butun yuridik dunyo tutashadi². R. Davidning tasnifi mashhur bo'lib, Fransiya universitetlarida «Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari» fanining o'qitilishi xuddi shu tasniflash asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakili buyuk nemis yuristi K. Svaygert hisoblanadi. U tasniflashga besh omilni, ya'ni: 1) huquqiy tizimning paydo bo'lishi va taraqqiyoti; 2) yuridik fikrlashning o'ziga xosligi; 3) o'ziga xos huquqiy institutlar; 4) huquq manbalari va ularni sharhlash usullari; 5) mafkuraviy omillarni nazarda tutuvchi «huquqiy uslub» («huquq uslubi»)ni mezon qilib oladi.

Shu asosda K. Svaygert sakkizta «huquqiy doira»ni, huquq oilasini, ya'ni roman-german, anglo-sakson, skandinaviya, sotsialistik, musulmon huquqi, odat huquqi, hind huquqi, Uzoq Sharq mamlakatlari huquqi, Afrika va Lotin Amerikasi huquqiy oilalarini ajratadi.

3-§. Hozirgi zamon huquq oilalarining umumiy tavsifi

Roman-german huquq oilasi.

Roman-german huquq oilasiga Yevropa qit'asida rim huquqi va mahalliy an'analar asosida yuzaga kelgan huquq tizimlari kiritiladi. U rim huquqini italyan, fransuz va nemis universitetlarida o'qitish yo'li bilan XII–XVI asrlarda Yustinian qonunlari to'plami asosida shakllangan, ko'pgina Yevropa davlatlari uchun umumiy bo'lgan yuridik fan sifatida yuzaga kelgan³.

Roman-german huquq oilasi uchun yozma huquqning mavjudligi, huquq asoslarining yagona iyerarxik tizimi, uning ommaviy va xususiy huquq sohalariga bo'linishi, shuningdek, huquq tizimining sohalariga bo'linishiga xosdir. Roman-german huquq oilasidagi barcha mamlakatlar huquqi uchun kodekslashtirilgan qonunchilik xosdir. Bu mamlakatlarning barchasida yozma konsti-

¹ Qarang: Российская юридическая энциклопедия. – М., 1999. – 756-bet.

² Qarang: Давид Р. Основные правовые системы современности. – М., 1988. – 39–48-betlar.

³ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В.К. Бабаева. – М., 2006. – 593-bet.

tutsiyalar mavjud bo'lib, ulardagi normalar oliy yuridik kuchga ega deb hisoblanadi. Mazkur huquq yuridik doktrinasi va qonunchilik amaliyoti odatdagi qonunning uch turini farqlaydi: kodekslar, maxsus qonunlar va normalarning to'plangan matnlari.

Kontinental huquq tizimiga oid aksariyat mamlakatlarda fuqarolik, jinoyat, mehnat, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual va boshqa kodekslar qabul qilingan va amal qiladi. Joriy qonunchilik tizimi ham serqirra va ko'p tarmoqlidir. Ushbu qonunlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turlarini tartibga soladi (masalan, bank faoliyatiga, tadbirkorlikka oid qonunlar). Roman-german huquq oilasi manbalari orasida qonun ijrosi yo'lida qabul qilinadigan hujjatlarning: ma'muriy sirkulyarlar, reglamentlar, farmoyishlar, dekretlar alohida o'rin tutadi va ularning hissasi ortib bormoqda. Odatlar ham roman-german huquq oilasida huquq manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U ba'zida qonunga qo'shimcha, qonundan tashqari hollarda ham qo'llaniladi, masalan, Italiya dengiz huquqida dengiz odatlari katta o'rin egallaydi. Umuman, bugungi kunda odatlar bu huquq oilasida mustaqil manba mavqeini yo'qotmoqda.

Sud amaliyotining roman-german huquq oilasi manbalari tizimidagi ahamiyatiga kelsak, bu yerda doktrinaning yondashuvi anchagina qarama-qarshi mazmunga ega. So'nggi yillar tendensiyasiga muvofiq, sud amaliyoti ushbu huquqiy tizimning yordamchi manbayi sifatida e'tirof etilmoqda. Avvalo, bu «kassatsiya presedenti» bilan bog'liq. Zero, kassatsiya sudi – yuqori instansiya sudidir. Bunda sudning «oddiy» qarori (masalan, o'xshash ishlar bo'yicha umumiy analogiya yoki umumiy prinsiplarga asoslangan ishlar) kassatsiya bosqichidan o'tib, o'xshash ishlarni hal etishda boshqa sudlar faoliyatida faktik prezident sifatida qabul qilinishi mumkin.

Roman-german huquq oilasida uning asosiy tamoyillarini, nazariy masalalarini ishlab chiqqan *doktrina* alohida o'rin egallaydi. Doktrina qonun loyihalarini tayyorlash faoliyatida ancha muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, undan huquqni qo'llash faoliyatida (qonunlarni sharxlashda ham) keng foydalaniladi¹.

Yevropadagi qator davlatlar huquqining roman-german huquq oilasiga mansubligi milliy huquqiy tizimlar o'rtasidagi ma'lum farqlarni istisno qilmaydi. Shuni eslatib o'tish lozimki, *bir tomondan*, fransuz huquqi, *ikkinchi tomondan*, german huquqi shu modelga xizmat qilishdiki, buning asosida roman-german huquq oilasi ichida ikkita huquq guruhi ajratiladi: 1) *roman huquqi guruhi*, bunga Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Italiya, Portugaliya, Ispaniya kiradi; 2) *german huquq guruhi*, unga Avstriya, Shveysariya va boshqa

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В.К. Бабаева. – М., 2006. – 594-бет.

davlatlar tegishli. Roman-german huquqi oilasida fransuz huquqida eng kuchli deb tanilgan «rim (roman) huquqi» «german huquqi» guruhidan farq qiladi, «german huquqi»ga german huquqi fani ancha ta'sir ko'rsatgan¹.

Anglo-sakson huquq oilasi. Roman-german huquqiy tizimi davlatlaridan farq qilib, anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda sudyalardan shakllantirilgan va sud presedentlarida ifodalangan normalar huquqning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Ingliz-amerika umumiy huquqi (common law), rim huquqi kabi «himoya bor joyda huquq bor» prinsipiga asosan rivojlangan «adolat huquqi» nizomlari bilan to'ldirilgan va takomillashtirilgan ingliz umumiy huquqini kodifikatsiya qilishning barcha urinishlariga qaramasdan (I. Bentam), u sudlar tomonidan tuzilgan presedent huquqidir. Bu statut (qonunchilik) huquqi rolining o'sishini istisno qilmaydi. Shunday qilib, ingliz huquqi uch tarkibiy qismdan iborat tuzilishga ega bo'ldi: umumiy huquq – asosiy manba; ushbu asosiy manbani tuzatuvchi va to'ldiruvchi adolat huquqi; statut huquqi – parlament tomonidan chiqarilgan yozma huquq.

Ingliz – amerika huquq oilasida ingliz huquqi guruhini va shakllanish nuqtayi nazaridan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari huquqini farqlash lozim. Ingliz huquqi guruhiga mansub mamlakatlarga Angliyadan tashqari Shimoliy Irlandiya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya hamda Britaniya ittifoqining sobiq koloniyalari (hozirgi paytda 36 ta davlat Hamdo'stlik a'zosi hisoblanadi) kiradi. Ma'lumki, Angliya ko'p yillar mobaynida yirik mustamlakachi davlat bo'lgan, mana shu qaram davlatlarning hududida ingliz umumiy huquqi tarqalgan. Shu bois bugungi kunda dunyo aholisining uchdan bir qismi ingliz huquqi normalari asosida yashamoqda.

Ingliz-amerika huquq oilasida Angliya huquqi guruhini va kelib chiqishi jihatidan u bilan bog'liq AQSh huquqini farqlash kerak. AQSh huquqi ingliz umumiy huquqiga asoslangan bo'lsa-da, hozirgi paytda to'la mustaqildir. Fransuz huquqi sezilarli rol o'ynaydigan Luiziana shtati hududida ispan huquqi keng tarqalgan.

AQShda huquq tizimi Angliyaga nisbatan biroz farqliroq. AQSh tarkibidagi shtatlar keng vakolatlariga ega bo'lib, bu vakolat doirasida ular o'z qonunlarini va presedent huquqi tizimini yaratadi. Har bir shtat sudlari o'z yurisdiksiyasini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Shuning uchun shtat sudi qaroriga shtatdagilar rioya qilishga majbur emas. AQSh statut huquqida ingliz huquqida bo'lmagan kodekslar ham uchraydi. Bir qancha shtatlarda Fuqarolik kodeksi amal qiladi, shtatlarning 25 tasida Fuqarolik protsessual kodeksi, hamma shtatlarda esa, Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodekslari mavjud.

¹ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Mas'ul muharrirlar: prof. X.B. Boboyev va prof. X.T. Odilqoriyev. – T., 2000. – 395–396-betlar.

Anglo-sakson huquq oilasida *yuridik presedent* asosiy huquq manbayi vazifasini o'taydi.

Yuridik presedent – ma'muriy yoki sud organining yozma yoki og'zaki qarori bo'lib, kelajakda xuddi shunday ishlarni ko'rib chiqishda namuna, etalon bo'lib xizmat kiladi. Yuridik presedent sud va ma'muriy presedentdan iborat bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Albatta, huquqiy presedent shakli sifatida sud yoki ma'muriy organlar yangi huquqiy normalar yaratish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda huquq o'zining murakkabligi va chalkashliklari bilan farq qiladi. Bundan tashqari, bunda mansabdor shaxs tomonidan suiiste'mollik qilish ehtimoli bor. Shunday qilib, xususiy ishga taalluqli bo'lgan sud qarorlari ikki yoqlama ahamiyatga ega bo'lishi mumkin: *birinchidan*, sud faoliyati natijasida ma'lum bir hodisani hal qilishi mumkin; *ikkinchidan*, bu sud qarorini kelgusida bo'ladigan hodisalarga ham qo'llash mumkin bo'ladi. Ikkinchi holda esa, sud qarori huquq normasi bo'lib xizmat qiladi, chunki u oldingi qabul qilingan qarorga (presedentga) asoslanadi.

Sud qarorlari presedent sifatida quydagicha bo'ladi: *birinchisi*, ushbu nor-maning ma'nosini tushuntirib beradi, buni inglizlar declaratory precedent deb nomlaydi; *ikkinchisi*, qonun va odat normalari to'g'ri kelmay qolganda yangi normalar yaratadi, buni inglizlar oriqinal precedent deb nomlaydi. Ikkinchi holda ko'rinib turibdiki, yangi norma haqida so'z yuritilmoqda. Nima uchun sud qarori presedent sifatidagi normaga aylanishi mumkin? Chunki, hayotda huquqdan tashqari presedent ham katta rol o'ynaydi. Haqiqatdan ham, kishilar doimo bo'lib o'tgan hodisaga asoslanadi, hatto u bir marta sodir bo'lsa ham keyingi harakatlar uchun namuna bo'lib qoladi.

Konstitutsiyaviy va ma'muriy huquq sohasida ham yuqorida aytib o'tilgan hodisalarga, ya'ni oldin bo'lib o'tgan hodisalar asosida masalalarning hal qilinganini ko'rish mumkin. Aksariyat xalqaro huquq qoidalari ham presedent ta'siri ostida vujudga keladi. Agar sud qarorlari asosida majburiy normalar ahamiyati tan olinsa, buning uchun tegishli asoslar bo'lishi kerak. Bunda sudning aholi orasida hurmatga sazovor bo'lishi, ya'ni, bitta ish yuzasidan qabul qilingan qarorni ikkinchi bir ishga ham ta'sirini o'tkazish uchun emas, balki boshqa bir muhim asoslari bo'lishi kerak, chunki sud qarorlari alohida ishonch yaratishi kerakki, bu sudga bo'lgan hurmatni bildiradi. Bu shundan guvohlik beradiki, sud qarorining obro'si uning faqat axloqiy asosga tayan-ganligidan emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham o'z faoliyatida asoslanganidan dalolat beradi. Muhimi, sudning qarori davlat hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va uning nuqtayi nazariga moslashishi zarur, agar uni qo'llash oqibatida noqulay holat kelib chiqmasa, sud qaroriga itoat etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shu narsaga amin bo'lish mumkinki, sud qarorlariga har doim ham huquq shakli sifatida qarash kerak emas. Haqiqatdan ham, qabul qilingan qarorga ko'ra sud o'zining xizmat vazifasini buzmaganda xuddi shunday ikkinchi ish bo'yicha boshqacha qaror qabul qilishi yoki o'sha birinchi qabul qilingan qarorga qarama-qarshi qaror qabul qilishi ham mumkin. Demak, presedentdan voz kechiladigan bo'lsa, unda huquq normasiga xos bo'lgan majburiylik yo'q, deb hisoblash lozim va yana bir holatga e'tibor qaratish mumkin, agar presedentning mohiyati oldin bo'lib o'tgan holatga asoslanadigan bo'lsa, unda sud presedenti odat huquqiga o'xshab ketadi, masalan, inqilobgacha knyaz Trubesskoy shunday yozgan edi: «*Odat o'z mohiyatiga ko'ra presedentga o'xshab ketadi*», ya'ni, odat bu ko'p marta qaytariladigan presedentdir, yoki boshqacha aytganda, presedent ko'p marta takrorlanadigan odatdir. Masalan, Odat huquqiga ko'ra odam o'ldirgan shaxs xun to'lagan, bundan keyin xuddi shunday holatni takrorlagan shaxsga nisbatan ham shu jazo qo'llanilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, sud amaliyoti, ya'ni sud presedenti huquq shakli bo'lib hisoblanadigan mamlakat – Angliyadir, shuning uchun ham huquq presedenti ko'p hollarda *ingliz odat huquqi* deb ham ataladi.

Hozirda huquqiy presedentga Angliya va uning sobiq mustamlakalari, Shimoliy Irlandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyadan iborat Britaniya hamdo'stligi a'zolari amal qiladi. Shu bilan birga presedentga alohida guruh – AQSh davlati ham mansubdir, faqatgina Luiziana va Kaliforniya shtatlari bundan mustasno. XX asrda ingliz huquqi manbalari qatorida berilgan vakolat asosidagi qonunchilikning (delegirovannoye zakonodatelstvo) ahamiyati va hissasi keskin ortdi. Bunda parlament bir qator ustuvor sohalarda (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va sug'urta sohasida) hukumatga qonunchilik hujjati qabul qilish vakolatini beradi. Ba'zan shunday vakolat vazirliklarga ham beriladi. Statut huquqi bilan berilgan vakolat asosidagi qonunchilikning rivoj topishi mamlakatning ichki ehtiyojlari sababli emas, balki xalqaro iqtisodiy va boshqa toifadagi hamkorlik sababli yuz beradi. Bu borada Buyuk Britaniyaning Hamdo'stlik mamlakatlari bilan, shuningdek Yevropa iqtisodiy hamjamiyati bilan aloqalarining rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi¹.

Ingliz huquqi bilan AQSh huquqi bir huquqiy oilaga kirsa-da, ular o'rtasida muayyan farqlar bor. Ingliz huquqida statutlarning roli yuqori bo'lsa, AQShda qonunchilik hujjatlariga katta e'tibor qaratiladi; amerika huquqida kodifikatsiyaga moyillik ustuvor; AQSh huquqiy tizimida ingliz huquqiga nisbatan sud

¹ Ma'lumot uchun: 2016-yil 23-iyunda Buyuk Britaniya sobiq Bosh Vaziri D. Kameronning tashabbusi bilan Angliyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi to'g'risida umummilliy referendum o'tkazildi. Unda mamlakat aholisining 72, 15 foizi (46 mln. 501 ming 241 kishi) ishtirok etdi. Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan ajralib chiqishi (Breksit)ni yoqlab referendumda ishtirok etganlarning 51, 89 foizi ovoz berdi. Buni Yevropa Ittifoqi parchalanishining dastlabki qadami deyish mumkin.

presedentiga kamroq suyaniladi, lekin bu presedentlarning nufuzi pasayishini anglatmaydi.

Musulmon huquq oilasi. Musulmon huquqi VIII asrlarda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan bo'lib, hozirda Saudiya Arabistoni, Sudan, Livan, Misr, Eron, Arabiston yarim oroli va fors ko'rfazlari mamlakatlarida amalda qo'llanilmoqda. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, islom dini o'z mazmuniga ko'ra, *birinchidan*, musulmon kishi nimalarga e'tiqod qilishi va nimalardan o'zini tiyishi lozimligini belgilovchi ilohiy aqidadan iborat; *ikkinchidan*, musulmon qanday amallarni bajarishi va qanday xatti-harakatlardan tiyilishi lozimligi haqidagi qoidalardan iborat. Islom dinida bunday ko'rsatmalarning yig'indisi «shariat» («haq yo'l» ma'nosini anglatadi) deb nomlanib, u aslida musulmon huquqidir.

Shariat ikki qismdan – diniy, ya'ni e'tiqod qoidalari (aqida)dan va huquq (fiqh)dan iborat.

Fiqh, ya'ni musulmon huquqi ikki qismga bo'linadi: birinchisi (muomalat) musulmonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, ikkinchisi esa, (ibodat) musulmonning Alloh oldidagi majburiyatini belgilaydi. Bu ikkala qism huquqiy maktablar tomonidan qanday belgilangan va o'rganilgan bo'lsa, xuddi shunday ko'rinishda yuridik fanlar predmetini tashkil qiladi. Fiqhning asosiy vazifasi musulmon davlati qonunchiligi bilan uning birlamchi manbalari orasidagi uzviy bog'liqlikni saqlab qolishdir. Musulmon huquqi fanlari bilan dunyoviy yuridik fanlar o'rtasidagi farq shundaki, musulmon huquqiy tizimi Qur'ondan boshlanib, huquqni insoniyat aql-idroki va ijtimoiy shart-sharoitning mahsuli deb emas, balki Alloh tomonidan berilgan tuhfa, marhamat deb hisoblaydi.

Islom dunyoviy dinlar ichida eng yoshi bo'lsa-da, juda keng tarqalgan. Turli hisob-kitoblarga qaraganda, dunyoda 750 milliondan 1 milliardgacha kishi Islom diniga e'tiqod qilar ekan. Ular 51 davlatda ko'pchilikni yoki aholining katta qismini tashkil qiladi. Biroq, musulmon huquqining amal qilish doirasi musulmon aholisi bor mamlakatlarning jo'g'rofiy chegaralariga mos tushmaydi. Islomga din sifatida e'tiqod qiluvchi, lekin musulmon huquqini qabul qilmagan millatlar va etnik guruhlar ham mavjud¹.

Musulmon huquqiy fanlari asosini kazuistik uslub tashkil qiladi. U «ilm-al-furu» yoki ishlarni hal qilish (masa'il) nomi bilan tanilgan. Sunniylar va shialar hamma maktablari tarmoqlarining boshida ta'limotlari tan olingan – Madina maktabi va Iroq maktablari turadi. Ushbu qadimgi maktablar o'z nazoratidagi hududlarda ildiz otib, oddiy huquqdan foydalanib, uni yangi dinlarning ehti-

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В.К. Бабаева. – М., 2006. – 606-бет.

yojlariga moslashtirganlar. Tarixiy sabablarga ko'ra bugunga kelib musulmon huquqining to'rtta sunniylar (xanafiylar, molikiylar, shofiiylar, hanbaliylar) maktabi, shuningdek, uchta shialar (ja'fariylar, ismoiliylar, zaydiylar) maktabi bor. Har bir maktab o'zining yuridik uslubi va qarashlari tizimiga ega, shuning uchun ularning har biri musulmon huquqining alohida tizimi bo'lib hisoblanish uchun da'vogarlik qiladi.

Musulmon huquqi mustahkam tizimga ega bo'lgan, rad qilish mumkin bo'lmagan dalillarga asoslanadi. Musulmon huquqshunoslari muayyan darajada tasodifiy yoki noaniq bo'lgan hamma narsalarni qoralaydilar. Musulmon huquqshunoslari tomonidan shakllantirilgan huquqiy normalar o'z tuzilishlariga ko'ra doimo tashqi dalillarga asoslanadi¹.

Islom aqidalariga muvofiq, musulmon huquqi Alloh kalomi asosida shakllangan qoidalar mujmuidir. Islom diniy doktrinasida Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning shaxsi muhim o'rin tutadi. Uning hayoti va faoliyati musulmon huquqining ma'no-mazmunini tushuntirishda belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

Islomshunos olimlarning fikricha, musulmon huquqi tarkibida ikkita o'zaro bog'liq me'yorlar guruhi Qur'on va Sunnaning yuridik yo'l-yo'riqlari mavjud.

Musulmon huquqining asosiy manbayi sifatida Allohning o'z payg'ambarlari va elchilaridan oxirgisi Muhammad alayhissalomga yo'llagan vahiylerden nozil bo'lgan *Qur'on* e'tirof etiladi. Qur'on huquq kodeksi emas. Qur'ondagi yuridik xarakterdagi qoidalar, *bir tomondan*, kodeks tuzishga kamlik qiladi, *ikkinchi tomondan*, bu me'yorlar orasida mavhum diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlar shaklidagi umumiy qoidalar ko'pchilikni tashkil etadi. Uning ta'sir ko'rsatish choralari ham talaygina bo'lib, ular tilga olinsa-da, ayrim hollardagina jazolaydigan darajaga keltiriladi.

Musulmon huquqining ikkinchi manbayi Muhammad alayhissalom mulo hazalaridagi ilohiylashtirilgan hodisalar ta'sirida kelib chiqqan og'zaki rivoyatlar majmui – *sunnadir*.

Musulmonlar Qur'on va sunna yuridik me'yorlarining kelib chiqishi ilohiy bo'lib, aslo o'zgarmasdir, deb hisoblaydilar. Lekin, hayotda ijtimoiy munosabatlarning barchasi ham Qur'on va sunnaga bog'liq emas. Qur'ondagi 6200 dan ortiq oyatning aksariyati diniy-axloqiy masalalarga taalluqli bo'lib, ayrim ma'lumotlarga ko'ra esa 250 tasi huquqiy xususiyatga egadir. Bu no-mutanosiblikni to'ldirish ham musulmon huquqiy ta'limotining davomchilari bo'lgan musulmon ilohiyotchi-fiqhlariga ishonib topshirilgan edi. Ular Qur'on

¹ Qarang: Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. O'razayev. 1-tom. – T., 1998. – 98–99-betlar.

va sunnaning mohiyatini o'zgartirmagan holda, Qur'onning talqini (tavsir)ni berib, huquq sohasida paydo bo'ladigan bahslar natijasida kelishilgan fikrlar (**ijmo**)ni bera boshladilar. Tavsir va ijmo ham musulmon huquqi manbalariga taalluqlidir. Musulmon huquqshunoslarining fikricha, ijmo musulmon huquqiga moslashtiriladigan mavzulardan bahs etadi, u yangidan paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi.

Musulmon huquqining to'rtinchi manbayi bo'lgan **qiyosga** yoki taqqoslash bo'yicha xulosa chiqarishga yanada katta ahamiyat beriladi. Bu usul ma'lum me'yorni, agar taqqoslashning maqsadi va asosi mazkur me'yor maqsadi va asosiga mos bo'lib tushsa, o'zi bevosita nazarda tutgan hodisaga nisbatan qo'llash imkonini beradi. IX-X asrlarda mazhablar musulmon huquqi nazariy yo'nalishlari asosini tuzgan eng nufuzli huquqshunos olimlarning asarlari musulmon huquqining asosiy manbayi bo'lib qoldi. Qur'on bugungi kunda musulmon huquqining g'oyaviy, diniy asosi, uning mafkuraviy manbayi sifatida e'tirof etiladi. R. Sharlning ta'kidlashicha, musulmon huquqi tarixan bevosita Qur'ondan boshlanmaydi. U ko'pincha muqaddas kitobdan alohida shakllangan amaliyot asosida rivojlangan. I. Shaxdning fikricha esa, «musulmon huquqi» fiqh huquqining ajoyib namunasi. Bu huquq xususiy mutaxassislar tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan edi. Musulmon huquqi me'yorlarining kattagina qismi – uning nazariy ishlanishi yakunidir. Buning ustiga, agar ta'limot avval boshida muayyan hodisalar bo'yicha yechimlar bergan bo'lsa, keyinchalik u har qanday muayyan huquqiy normani qo'llashda boshlang'ich nuqta sifatida tan olinadigan umumiy, mavhum qoidalarni shakllantira boshladi.

Qur'on, musulmon huquqshunos ilohiyotchilar ijodi bo'lgan sunna, ijmo, qiyos – musulmon huquqining shubhasiz, asosiy manbalaridir. Ayrim tadqiqotchilar bu huquq manbalariga musulmon huquqshunoslari ishlab chiqqan shariat (hidoya), urf-odat, yurisprudensiya (amal), qonun normalarini qo'llash bo'yicha qo'llanmani ham kiritadilar.

Lotin Amerikasi davlatlari huquqiy tizimi. Bu davlatlarning huquqi o'z asosiga ko'ra kodekslashtirilgan. Hozirda Yevropanikiga o'xshash kodekslar mavjudligi uchun Lotin Amerikasi davlatlari huquqiy tizimlarini romangerman huquqiy tizimiga yaqin, deb hisoblanadi. Boshqa o'xshash tomonlari yo'q. Masalan, ularda huquq normalari yo'q. Odat huquqining Lotin Amerikasi huquqining manbayi sifatidagi roli davlatdan-davlatga o'tgan sayin o'zgarib borgan. Argentinada u ancha ko'p, Urugvayda, aksincha, oz. Lekin umuman bu yordamchi huquq manbayidir. Yevropa qit'asida u qonunda ko'rsatilgan hollarda ishlatiladi. Lotin Amerikasining to'rtta davlati: Argentina, Braziliya, Venesuela va Meksika federativ davlatlar hisoblanadi. Ularning huquq tizimida federativ qonunchilikning tarkibi amal qiladi. Lotin Amerikasi davlatlarining konstitutsi-

yalari amerikacha boshqaruv shakli, prezidentlik respublikasi va boshqa holatlarni o'zlashtirgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, AQShdan farq qilib, Lotin Amerikasi davlatlari uchun konstitutsiyaviy barqarorlik to'la xos emas. Masalan, Venesuelada 168 yil ichida, ya'ni birinchi Konstitutsiya qabul qilingan vaqt ichida 20 ta, Boliviya esa, 152 yil ichida 21 ta Konstitutsiya qabul qilingan. Lotin Amerikasi davlatlari sud tizimini AQSh tajribasidan olib shakllantirgan, lekin AQShdan farqli ravishda ularda sud amaliyoti huquq hisoblanadi.

Skandinaviya xalqlarining huquq tizimi. Skandinaviyaning Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlandiya davlatlari mazkur huquq tizimiga rioya qiladilar. Rim huquqi boshqa huquq tizimiga nisbatan Skandinaviya huquq tizimida kam o'rin tutadi. Skandinaviya davlatlarida Fransiyaning fuqarolik kodeksi yoki german fuqarolik tuzuklari kabi kodekslar mavjud emas va bo'lmagan ham. Ularda sud amaliyoti Yevropa qit'asi mamlakatlariga nisbatan muhim o'rin tutgan. 1683-yilda Daniya qabul qilingan «qirol Kristian V kodeksi» (u 1687-yilda Norvegiya qabul qilingan «Norvegiya huquqi» nomi bilan amal qilgan) va 1734-yilgi «Shved davlatlari qonunlari kodeksi» kabi ikki qonunchilik hujjati, ikki kodeks Skandinaviya huquqining shakllanishida boshlang'ich nuqta bo'lgan.

Kodifikatsiyalangan qonunchilik Skandinaviya huquqining katta qismi bo'lmagan. Masalan, Norvegiya va Daniya sud amaliyotining huquq manbai sifatidagi katta ahamiyatini ko'rsatuvchi aniq yondashuv kuzatiladi. Shvetsiyada ham sud amaliyoti katta o'rin tutgan. Bu bevosita roman-german huquqidan umumiy huquqqa yondashuvni olib keladi. Bu mintaqa davlatlari bir-biriga ijtimoiy, madaniy jihatdan birlashib ketgan.

Hind huquqiy tizimi. Ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan bu huquq tizimi hozir ham o'zining tartibga soluvchi ta'sir kuchiga ega. Hind huquqining bunday uzoq muddat davomida saqlanib qolishining asosiy sababi, uning jamoa va varnaviy-kastaviy tabaqalanishi hamda din bilan birikib ketganligidir. Ikki ming yillik tarixda yaratilgan qadimiy vedalar – hind diniy qo'shiqlar to'plami, ibodatlar, madhiyalarda, alohida misralarda yurish-turish va axloq qoidalari ifodalangan. Bular huquq manbai sifatida kamroq ta'sir ko'rsatadi.

Musulmon dunyosida bo'lgani kabi XI–XII asrda asta-sekinlik bilan shakllangan hind huquqiy maktablari uch muhim masala: meros huquqi, yagona oiladagi alohida a'zolar mulkining huquqiy tartibi, oila mulkining taqsimlanishini hal qilishga turlichi yondashuvlari bilan farq qiladi.

Hind huquqida ham musulmon huquqi kabi maktablar ikkiga *dayabaa* va *mitaksharaga* bo'linadi. Bundan tashqari, hind huquqida ayrim mintaqa, kasta, urug' yoki oilada qadimdan saqlanib kelayotgan odat huquqining manbai sifatida qaralishi mumkinligi tan olingan. Ularda kohin yuristlari mavjud. 1955-yilda «Nikoh huquqi to'g'risida»gi, 1956-yilda uchta «Voyaga yet-

maganlar va vasiylik to'g'risida»gi, «Meros haqida»gi va «Farzandlikka olish va oila a'zolarini boqqanlik uchun to'lov to'g'risida» gi qonunlar kuchga kirdi.

«Hind huquqi» bo'yicha yuridik ma'lumotnomalarda, qoida tariqasida, «shaxsiy huquqqa» taalluqli bo'lmaganligi uchun tabaqalanish masalasi yoritilmaydi. Mamlakatda «tabaqa institutlari» va «tabaqa avtonomiyasi» haqida gapirish qabul qilingan. Bular Hindiston Konstitutsiyasining 26-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra: «har qanday diniy oqim, mazhab, agar u jamoat tartibiga, axloqqa, sog'liqni saqlashga xilof bo'lmasa: a) diniy yoki xayr-ehson maqsadida muassasalar tuzish va saqlash; b) diniy masalalarda boshqaruvni amalga oshirish huquqiga ega». Bunda shunday ma'no borki, kasta diniy aqidalarni buzgan a'zolariga jazo belgilashi mumkin. Agar kelishmovchilik diniy xususiyatga ega bo'lsa, unda tartibbuzar bo'ysunishdan voz kechganligi uchun jamoadan haydalishi mumkin.

Binobarin, kasta ibodat qilish, ovqatlanish, nikoh va sig'inishning boshqa masalalariga taalluqli ichki tartibni saqlashi mumkin. Sud kasta qoidalarini qayta ko'rishi mumkin emas, u ushbu qoidalarga rioya qilinishi va to'g'ri qo'llanilishini kuzatish huquqigagina ega. Agar kastalar qarori mazmunan milliy sudlov tartibiga qarshi chiqsa, sud uni belgilasa, bekor qilishi mumkin. Shunday qilib, «hind huquqi» deganda, hindlarning qonunlarida va (masalan, Birma, Malayziya, Singapurda hali amalda bo'lgan) odatlarida shaklan, o'zgargan shaxsiy huquqlari tushuniladi. Hind huquqi huquq tarmog'i sifatida Hindistonda, shuningdek, yuqorida eslatib o'tilgan mamlakatlarda, bundan tashqari, qonunlarda o'zgargan shaklda Sharqiy Afrika mamlakatlari (Keniya, Uganda)da ham bevosita yoki bilvosita qo'llanilmoqda¹.

Afrika mamlakatlarning huquqiy tizimi. Afrika xalqlari orasidagi katta farqlarga, ularning odatlari va odat huquqining turli-tumanligiga qaramay, Afrika huquqiga yagona bir huquq sifatida qarashga yetarli asoslar bor. Afrika odat huquqi individlar – (yakka shaxs) emas, balki guruh yoki uyushmalarning huquqi hisoblanadi. Masalan, odat huquqida nikoh shartnomasi o'zida ikki shaxsning emas, balki ikki oila, ikki qabilaning roziligi olinib amalga oshiriladi. Ularda arbitraj va sud tuzilishidagi ishlar ko'rilgan. Sud tartibida bu holatni aniqlash uchun u «qasam ichishga» majbur qilish va «xudo sudi» tomonidan sinov o'tkazishda namoyon bo'ladi.

Odat huquqida ikkita holat mavjud va u ikki yoqlama namoyon bo'ladi:

1) urug'dagi bir shaxs uchun butun urug' javobgardir (o'zganing aybini yuvishi);

¹ Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В.К. Бабаева. – М., 2006. – 610–611-betlar.

2) shaxsning sodir etgan nojo'ya harakati, uning guruh a'zosi sifatidagi huquq va majburiyatlari bilan bog'lanadi.

Har bir hukmdor mustamlakachi o'z huquqiy talablarini qo'l ostidagilarga o'tkazadi. Fransuz huquqi – fransuz afrikasi va Madagaskarga, Belgiya huquqi – Kongoga, roman-golland huquqi esa, Janubiy Afrikaga kiritilgan.

Mustamlakachilar o'z huquqiy institutlarini tatbiq etish bilan birga fikran o'z manfaatlariga zid kelmaydigan odat huquqi va Afrika sudlovining ayrim qismlarini saqlab qolish siyosatini yurgizdilar. Shunday qilib, mustamlaka boshqaruvi natijasida huquqning aralash tizimi paydo bo'ldi. U metropolitlar tomonidan kiritilgan huquq bilan odat huquqini o'zida jamladi. Birinchisi imtiyozli ravishda ma'muriy huquq, savdo, jinoyat huquqini qamrab oldi. An'anaviy soha – yerga egalik, oila va meros huquqi (shaxs hayotligida mulkni, ba'zi fuqarolik majburiyatlarini taqsimlash) – odat huquqining harakat doirasida qoldirildi.

Mustamlaka davrida odat huquqida yuz bergan to'rtta asosiy o'zgarishni qayd etish mumkin: 1) nizolarni tartibga solishning an'anaviy usullaridan voz kechish, ya'ni asta-sekinlik bilan sud tizimini tatbiq qilib, qabilada o'rnatilgan tartibdan sud qurilishi namunasiga o'tish; 2) mahalliy sudlarda ishlarni odat huquqi bo'yicha hal qilgan sudlarning Yevropa normalarini qabul qilishi; 3) odat huquqini bekor qilmay, afrikaliklarga o'z huquqiy munosabatlarini huquq asosida tartibga solish imkoniyatini beruvchi qonunlarning joriy etilishi; 4) varvarlik deb tan olingan, masalan, qullik va jarohat yetkazish kabi ba'zi odatlarning to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanishi.

An'anaviy Afrika (huquqiy) odat huquqi, shubhasiz boshlang'ich ahamiyatini yo'qotmoqda, ba'zi hollarda ko'p qismini yo'qotgan ham. U o'zining sezilarli qismida tizimlashtirish va majmualashtirish obyekti bo'ldi. Odat huquqiga keng ma'noda davlat organlari, shuningdek, sudlar tomonidan rivojlantirilgan huquq sifatida qaralmoqda¹.

¹ Qarang: Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – T., 1998. – 107–108-betlar.

XX bob. HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI

1-§. Huquqiy tartibga solish tushunchasi

Hozirgi zamonda davlat va huquq nazariyasi ikki asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda: *birinchi* – qonunchilikni takomillashtirish, yuridik normalarni jamiyat erishgan yangi darajaga muvofiq holga keltirish; *ikkinchisi* – amal qilib turgan huquq normalarining samarali harakatlanishini ta'minlashdan iborat. Keyingi ta'kidlangan vazifa huquqiy tartibga solish mexanizmini mufassal o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat boshlig'i Sh. Mirziyoev «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma'ruzasida shunday dedi: «Hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda»¹. Yana bir ma'ruzada, – «Qonun talablarini bajarmaslik bilan bog'liq har bir holat yuzasidan aniq huquqiy ta'sir choralari ko'rish kerak», – dedi². Ushbu rahbariy ko'rsatma mamlakat miqyosida qonunlar samarasini oshirish, ularning ijrosini ta'minlashning ta'sirchan choralari ko'rish, ayniqsa, barcha sohalarida huquqiy tartibga solish mexanizmlarini jiddiy takomillashtirish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Davlatchilikni demokratik isloh qilish va modernizatsiyalash sharoitida namoyon bo'layotgan yangi tendensiyalarni inobatga olgan holda jamiyat huquqiy ustqurmasini muttasil takomillashtirib borish lozim. Ma'lumki, kishilik jamiyati o'zining muayyan darajada batartibligi va uyushganligi bilan tavsiflanadi. Jamiyat o'z rivojlanishi mobaynida kishilar xulq-atvorini tartibga soluvchi, me'yorlovchi usul va vositalar tizimini shakllantiradi. Ijtimoiy tartibga soluvchi vositalar orasida, avvalo, ijtimoiy normalar muhim o'rin tutadi. *Ijtimoiy normalar* – axloq normalari, odat normalari, huquq normalari, an'analar, jamoat birlashmalarining normalari, diniy normalar kabi turlarga ajraladi. Ular turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar hamda qatlamlar tomonidan vujudga keltiriladi. Xu-

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 8-bet.

² Qarang: Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 25-bet.

susan, davlat o'z funksiyalarini bajarish va maqsadlariga erishish uchun huquq normalarini yaratadi. Davlat huquq normalari yordamida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Huquqiy tartibga solish ehtiyoji obyektiv ijtimoiy zaruriyatdir. Zero, muntazam maromlilik va batartiblik har qanday ishlab chiqarish usulining talabi bo'lib, u shu tufayli ijtimoiy barqarorlik hamda mustaqillikka ega bo'ladi. Qat'iy tartib iqtisodiy rivojlanishni tasodiflardan va beboshliklardan saqlab turadi. Bunday tartibni davlatning majburlov kuchiga tayanuvchi huquqqa ta'minlay oladi. Huquqiy normalarda ijtimoiy munosabat ishtirokchilari faoliyatining andozasi (modeli), kishilar yurish-turishi, xatti-harakatining algoritmi, taraflarning huquq va majburiyatlari me'yori aks ettiriladi. Huquq insonlar xatti-harakatini subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar shaklida me'yorlash (modellastirish) orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Huquq normalari jamiyat hayotining asosiy jabhalarini normativ tarzda tartibga solib turadi. Huquqiy normalarning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri, ularni tartibga solishi huquqni amalga oshirish jarayonining bevosita natijasi-dir. Mazkur qoidani tushunib olish uchun *«huquqiy ta'sir etish»* va *«huquqiy tartibga solish»* iboralarining ma'nosini tahlil qilish lozim. Bunda eng avvalo, «ta'sir etish» va «tartibga solish» tushunchalarini aniqlash talab etiladi, chunki ular aynan bir ma'noli so'zlar emas. «Tartibga solish» iborasi lotincha *«regulo»* so'zidan olingan bo'lib, qoida, batartiblash, yo'lga qo'yish, bir narsani ikkinchisiga muvofiqlashtirish ma'nosini anglatadi. «Ta'sir etish» iborasi esa, biror narsaga xatti-harakatlar tizimi vositasida yondashib, uni o'zgartirishga erishishdir. «Ta'sir etish» tushunchasi o'z hajmiga ko'ra «tartibga solish» kategoriyasidan keng. Ta'sir etish ham huquqiy normalar yordamida xulq-atvorni tartibga solishi, ham boshqa huquqiy vositalar va usullar orqali kishilar xulq-atvorini o'zgartirishga erishishi mumkin.

Yuridik adabiyotda ba'zi tadqiqotchilar huquqiy tartibga solish tushunchasiga inson ongi va xulq-atvoriga huquq ta'sir etishining barcha turlarini kiritadilar, boshqa olimlar esa, mafkura va tarbiyani huquqiy tartibga solish mazmunidan tashqariga chiqaradilar. Ikkinchi yondashuv tarafdorlarining fikri ancha jo'yali ko'rinadi. Unga muvofiq, huquqiy tartibga solish – huquqning ijtimoiy munosabatlarga maxsus yuridik vositalar tizimi yordamida ta'sir etishdir. Chunki, hamma huquqiy hodisalar ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qodir emas. Demak, «ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish» iborasi nisbatan keng tushuncha bo'lib, o'z mazmuniga jamiyat hayotiga huquq ta'sirining barcha yo'nalishlari va shakllarini qamrab oladi. Huquqning bunday ta'siri – normativ (umummajburiy) regulyatorlik, mafkuraviy va tarbiyaviy shakllarda namoyon bo'ladi. Huquq ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabat-

lariga va ularga asoslangan boshqa munosabatlarga ta'sir etib, ularni mustahkamlaydi, qo'riqlaydi va rivojlantiradi. Huquqiy ta'sir etish natijasida ilg'or va ijobiy ijtimoiy munosabatlar huquqiy himoya qilinadi hamda takomillashtiriladi. Jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan yoxud eskirgan munosabatlar esa ijtimoiy turmushdan siqib chiqariladi.

Shuni nazarda tutish joizki, huquqning o'zi bevosita ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratishi, o'zgartirishi hamda rivojlantirishi mumkin emas. Huquq ushbu munosabatlar ishtirokchilarining ongiga ta'sir etish orqali, shuningdek qat'iy harakat qoidalarini o'rnatib, ularni tartibga soladi. Ijtimoiy munosabat (shu jumladan, huquqiy munosabat) qatnashchilari ongli va irodaviy harakatlarni sodir etadilar. Shu bois mazkur munosabatlarga huquqiy ta'sir etish, ularni yo'lga solib turish mumkin bo'ladi. Huquqiy tartibga solish huquqiy ta'sir etishning ancha mustaqil va faol ko'rinishlaridan biridir. U maxsus amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi.

Huquqiy tartibga solish – ijtimoiy munosabatlarga huquq yordamida ularni umummajburiy, normativ tarzda tartibga solish maqsadida ta'sir etish jarayonidir. Huquqiy tartibga solishning muhim xususiyati shundaki, u ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining yuridik huquq va majburiyatlarini belgilaydi, huquqlar ro'yobga chiqarilishini va majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi.

Demokratik jamiyatda huquqiy tartibga solish ijtimoiy tartibga solishning maxsus turi bo'lib, o'zining demokratik qadriyatlarga tayanganligi, maqsadga yo'naltirilganligi va samaraliligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, huquqiy tartibga solish o'ziga xos ta'sir etish vositalari (mexanizmi) orqali amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi idoraning yuridik normalar yaratishdan ko'zlagan maqsadi xuddi ana shu huquqiy ta'sir etish vositalari yordamida ro'yobga chiqariladi.

Huquqning ijtimoiy munosabatlar regulyatori ekanligi huquqshunoslik fanida uzil-kesil tan olingan. Huquqning asosiy vazifasi ham uning regulyatorlik (ya'ni, tartibga soluvchilik) tabiatidan kelib chiqadi. Huquq (qonun) hayotiy munosabatlarni tartibga solar ekan, ularning amal qilishi va rivojlanishi uchun aniq me'yor o'rnatadi. Shu yo'l bilan ularni jamiyat va davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan tartibga soladi, me'yorlaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgach, jamiyatni tubdan yangilash, modernizatsiyalash, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'naviy sohada keng qamrovli islohotlar yo'lini tutdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – ijtimoiy adolatni ta'minlovchi demokratik davlatni qaror toptirishdir.

Ana shu ustuvor maqsad mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratik islohotlar va huquqiy davlatchilik barpo etishning hozirgi bosqichida davlat hamda jamiyat hayotining qonuniy zaminini mustahkamlash, yangi tuzumga xos ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomil-

lashtirish – strategik yo‘nalishdir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan huquqiy tartibga solishning holatiga bog‘liqdir. Islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlari rivojlanib va chuqurlashib borgani sari, ularning huquqiy negizi takomillashtirilib boriladi, qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartishlar kiritiladi. Bu hol qonunlarning ta‘sirchanligi va samarasini oshirish imkonini beradi.

Davlat qonun, farmon va hukumat qarorlarini qabul qilish yo‘li bilan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarning borishini huquqiy jihatdan jadal va qat‘iy tartibga solish, iqtisodiyotning hamda siyosiy tizimning muhim bo‘g‘inlari barcha jabhalarini takomillashtirishni amalga oshiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlari infratuzilmasini shakllantirishning huquqiy poydevori yaratildi. Xususan, «O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risida», «Tadbirkorlik to‘g‘risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida», «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida», «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida», «Bankrotlik to‘g‘risida», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida», «Lizing to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi qonunlar, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona, Budjet kodeksi va boshqa normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yuridik adabiyotda huquqning regulatorlik funksiyasi turlicha talqin etiladi. Ba‘zan yuridik shaklga ortiqcha o‘rin berilib, huquqiy tartibga solish mexanizmi tarkibiga huquq ijodkorlik jarayoni ham qo‘shib yuboriladi. Bu mantiqqa muvofiq emas. Chunki gap ikkita mustaqil huquqiy hodisa (institut) haqida bormoqda. Demak, xuddi «huquq normasi» ni «huquqiy tartibot» tushunchasiga qo‘shib bo‘lmaganidek, huquq yaratish jarayonini huquqiy tartibga solish mexanizmiga qo‘shish mumkin emas. Xulosa shuki, huquqning imkoniyatlarini, yuridik shaklning ahamiyatini haddan oshirib, obyektiv ijtimoiy munosabatlarning ustuvor belgilovchi rolini, ta‘sischi xarakterini nazardan qochirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Huquqiy tartibga solish ko‘lamini ta‘riflashda olimlar ikki guruhga ajraladilar. Ba‘zi olimlar huquqiy tartibga solishda yuridik normalar faqat huquqiy munosabatlar (shakli, modeli) orqali ta‘sir etadi, deb hisoblaydilar. Bu fikr tarafdorlari subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarning mavjudligini mutlaq va nisbiy huquqiy munosabatlar mavjudligi bilan bog‘laydilar. Professorlar S.S. Alekseev va N.I. Matuzovlar huquqiy tartibga solish huquqiy munosabatlar orqali amalga oshadi, degan fikrni quvvatlab, ayni paytda, absolyut va nisbiy huquqiy munosabatlarga «umumiy huquqiy munosabatlar» ni ham qo‘shadilar. Biroq, huquqiy tartibga solish faqat huquqiy munosabatlar bilan chegaralab qo‘yilsa, uning tartibga solish doirasi toraytirib yuborilishi mumkin.

Ikkinchi guruh olimlar fikricha, huquqiy tartibga solish huquqiy munosabatlar doirasidan tashqariga chiqadi, ancha kengroq ko'lamda harakatlanadi. Bunday yondashuv so'nggi yillarda yuridik ilmiy jamoatchilik tomonidan ustuvor nuqtayi nazar sifatida tan olinmoqda. Masalan, akademik Sh.Z. O'razayev, professorlar Z.M. Islomov, M.M. Fayziyev, U. Tojixonov, S.N. Bratus, A.V. Mitskevich va boshqalar subyektiv huquq huquqiy munosabatdan tashqarida ham mavjudligini ishonarli tarzda isbot qiladilar.

Mazkur xulosa ilmiy jihatdan nihoyatda muhimdir. Birinchidan, bu xulosa barcha subyektiv huquqlarning (ayniqsa, konstitutsiyaviy huquqlarning) nafaqat huquqiy munosabat orqali, balki undan tashqari ham amalga oshishi va ulardan foydalanish mumkinligini himoya qiladi. Ikkinchidan, u huquq-tartibot huquqiy munosabatlar tizimidangina iborat emasligini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar huquqiy maqomini ham qamrab olishini ko'rsatadi. Uchinchidan, masalaga bunday yondashish obyektiv va subyektiv huquqlarni amalga oshirishning hamma shakliga e'tiborni qaratadi, huquqiy tartibga solish mexanizmini to'la izohlaydi¹.

Shunday qilib, huquqiy tartibga solish ikki shaklda amalga oshadi:

- *huquqiy munosabat orqali;*
- *huquqiy munosabatdan tashqarida.*

Huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning maxsus turi hamda huquqiy tartibga solishning alohida shaklidir.

Huquqiy tartibga solishning ushbu ikki shakli uchun umumiy jihat shundaki, ular faoliyatining asosiy predmeti – hamisha subyektiv huquq bo'lishidir. Huquqiy tartibga solish faqat kishilarning harakatlariga (faoliyatiga), munosabatlariga qaratiladi. Huquqiy tartibga solish natijasida hamisha real munosabatlar muayyan tarzda me'yoranadi, «qolip»ga solinadi, barqarorlik kasb etadi. Muhimi, bu munosabatlar davlat tomonidan muhofazalanadi.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish aniq usullar yordamida amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish usuli ***huquqiy tartibga solish predmetiga*** bevosita bog'liq bo'ladi. Yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning yo'llari yig'indisi ***huquqiy tartibga solish metodi (usuli)*** deb ataladi. Huquqiy tartibga solish metodining ikki turi, ya'ni: *avtonomiya metodi va avtoritar (geteronomiya) metodlari* mavjud.

Avtonomiya metodi asosida tartibga solinuvchi munosabatlarda taraf-lar teng huquqli bo'ladilar hamda ular qonunda belgilangan vakolatlar doirasida mustaqil faoliyat yuritadilar. Misol uchun, fuqarolik huquqiy munosabatlarini

¹ Явич Л.С. Сущность права. – Л: ЛГУ, 1985. – 206-бет.

olaylik, ularda ishtirok etuvchi subyektlar qonun belgilagan me'yor ko'lamida o'z xatti-harakatlarini mustaqil kelishuv, shartnoma asosida erkin belgilaydilar.

Avtoritar metod deganda, ijtimoiy munosabatlarga hukmronlik, buyruq (imperativ) tarzida qat'iy ta'sir o'tkazish tushuniladi. Masalan, ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy munosabatlarni olaylik. Bu munosabatlarda bir tomonda davlat (davlat idorasi yoki vakolatli mansabdor shaxs) namoyon bo'ladi, ikkinchi tomondan esa, fuqaro maydonga chiqadi. Ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni qo'llovchi vakolatli subyekt davlat hokimiyati nomidan ish ko'radi, ya'ni avtoritar metodga tayanib huquqiy tartibga solishni amalga oshiradi.

Demokratik jamiyatda huquqiy tartibga solish quyidagi xususiyatlarga ega:

- huquqiy tartibga solishning barqarorligi;
- konstitutsiyaviy-tartibga solish ahamiyatining oshishi va ko'lamining kengayib borishi;
- iqtisodiy, siyosiy, madaniy va mafkuraviy hayot sohalarida huquqiy tartibga solish rolining o'sib borishi;
- huquqiy tartibga solish jarayonida ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy munosabatlarga jamoat ta'sirining o'sishi;
- ijtimoiy xulq-atvorni oldindan belgilash modellashtirish imkoniyatlarining oshib borishi;
- huquqiy tartibga solishning xalqchilligi va samaraliligi;
- huquqiy tartibga solishning faol, ijtimoiy xarakterga egaligi.

2-§. Huquqiy tartibga solish mexanizmi va uning tarkibiy qismlari

Huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarga muntazam ravishda va muayyan ketma-ketlikda ta'sir etish jarayonidir. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni hamda huquqiy nor-

malar ruhi mamlakat intilayotgan maqsad va vazifalar, ya'ni: bozor iqtisodiyotiga o'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish manfaatlarini bilan uzviy bog'liq.

Huquqiy tartibga solish jarayoni – ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish, ularni amalga oshirish, rivojlantirish va takomillashtirishning qat'iy belgilangan tartibidir. Huquqiy tartibga solish har qanday ijtimoiy jarayon singari o'z boshlanish va nihoyalanish nuqtalariga ega. Bu jarayon davlat tomonidan huquqiy normalar yaratishdan boshlanadi. Huquqiy norma xalqning davlat idorasini o'zida ifodalovchi, uni huquqiy munosabat ishtirokchilariga yetkazuvchi vosita sifatida vujudga keladi va amal qiladi.

Huquqiy tartibga solish jarayonini ***uch asosiy bosqichga*** ajratish mumkin:

- 1) ijtimoiy munosabatlarni me'yorga soluvchi yuridik normaning yaratilish bosqichi;
- 2) huquqiy normaning amal qilish bosqichi;
- 3) yuridik normada nazarda tutilgan holatlar, huquq va majburiyatlar vujudga kelganda subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarning amalga oshirilish bosqichi.

Ko'rsatilgan uch bosqichdan tashqari yana bir bog'lovchi qo'shimcha (fakultativ) bosqich haqida gapirish lozim. Bu fakultativ bosqich *huquqni qo'llashdir*.

Huquqiy tartibga solish jarayonining uch bosqichiga uchta muhim element (huquqiy hodisa) muvofiq keladi:

- a) huquqiy normalar;
- b) huquqiy munosabatlar;
- d) subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari.

Yuqorida zikr etilgan qo'shimcha bosqichga muvofiq tarzda huquqiy tartibga solish mexanizmidagi qo'shimcha (fakultativ) element – *huquqni qo'llash hujjatlari* maydonga chiqadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining har bir elementi, o'z navbatida, o'ziga xos kichik tizimni tashkil etadi. Chunonchi:

– yuridik normalarning yaratilish bosqichiga muvofiq keladigan tizimga – huquqiy ong, huquq ijodkorligi hujjatlari, normativ yuridik hujjatlar, huquqiy normalar, me'yorlar, hujjatlarni tizimlashtirish, yuridik texnika va boshqalar kiradi;

– yuridik normalarning amal qilish bosqichidagi huquqiy munosabatlar tizimiga – huquq subyeksi, yuridik faktlar, umumiy va konkret huquqiy munosabatlar kiradi;

– huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tizimiga – huquqiy munosabat qatnashchilarining muayyan xatti-harakatlari, huquqni qo'llash hujjatlari kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan tizimlarni huquqiy tartibga solish jarayonining bo'g'inlari deb atash mumkin. Ushbu jarayonda amal qiladigan elementlarning bir butunligi huquqiy tartibga solish mexanizmini tashkil etadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmi – ijtimoiy munosabatlarga jamiyat va davlat oldida turgan maqsad hamda vazifalarga mos ravishda samarali huquqiy ta'sir etishni ta'minlovchi yuridik vositalarning bir butun tizimidir. Huquqiy tartibga solish jarayonidagi barcha huquqiy vositalarning «mexanizm» iborasi bilan izohlanishi bejiz emas. «Mexanizm» – bir qancha mustaqil hodisalar,

qismlarning o'zaro aloqadorlik asosida, bir butun agregat sifatida harakat qilishidir. Bunda har bir element uyg'un va barqaror birlashib, biri ikkinchisini harakatlantiradi. Mexanizmga aniq, qat'iy va bir maromda ishlash xosdir. «Mexanizm» unsurlarning oddiy yig'indisi sifatida mavjud bo'lmaydi. U tarkibiy qismlarning o'zaro aloqadorlik asosidagi jipsligi bilan, biri ikkinchisining mavjudligini taqozo etishi bilan, aynan mana shu o'zaro munosabatlar negizida harakatlanishi, rivojlanishi va takomillashishi bilan tavsiflanadi. Huquqiy tartibga solish jarayonida namoyon bo'luvchi qismlar yagona bir butun mexanizmni tashkil etadi.

«*Huquqiy tartibga solish mexanizmi*» tushunchasi «huquqiy ustqurma» (yoki ustqurmaning huquqiy qismi) tushunchasiga yaqin turadi. Har ikki tushuncha tarkibiga huquq normalari, huquqiy munosabatlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va boshqa huquqiy voqeliklar kiradi. Biroq, bu unsurlar yagona mexanizmning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilinganda e'tiborni huquqiy ustqurmaning dinamik tomonga, huquqiy ta'sir etish jarayonidagi yuridik vositalarning bir butun tizimdagi o'zaro harakatiga qaratish lozim.

«*Huquqiy tartibga solish mexanizmi*» tushunchasi yordamida har bir huquqiy institut(voqelik)ning huquqiy tartibga solish tizimidagi o'rni va rolini aniqlab olish mumkin. Shuningdek, ta'kidlash joizki, mexanizm tarkibiga kiruvchi huquqiy institut butunning tarkibiy qismi sifatida yangi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining dastlabki elementini – **huquqiy normalar** tashkil etadi. Huquqiy normalarda davlat-hokimiyat irodasi bayon etiladi, ushbu norma orqali o'rnatilayotgan huquqiy talab tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga yetkaziladi. Huquqiy normada huquqiy munosabat subyektlarining huquq va burchlari, vakolatlari doirasi, shuningdek, ularni amalga oshirish vositalari ko'rsatiladi.

Huquqiy normaning maxsus funksiyasi shundaki, u normativ tarzda huquqiy munosabat chegaralarini o'rnatadi. Unda xulq-atvor va yurish-turishning andozasi (modeli) belgilanadi. Aynan ana shu yurish-turish qoidalari huquqiy tartibga solish asosi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi mustahkamlangan. Bu – umumiy konstitutsiyaviy – huquqiy qoida. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 57, 72-moddalarida ishga joylashish va qabul qilish bilan bog'liq mehnat-huquqiy munosabatlar nazarda tutilgan. Ishga qabul qilish yozma tarzda tuziladigan mehnat shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Bu yerda yuqoridagi konstitutsiyaviy qoida aniqlashtirilayotganini ko'ramiz. Biroq, u hali hayotga tatbiq etilayotgani yo'q.

Mehnat kodeksining yuqoridagi moddalari ishga joylashish va qabul qilish bilan bog'liq mehnat-huquqiy munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur normaning mavjudligi hali yuqoridagi mehnat-huquqiy munosabatlar hal etilganligini anglatmaydi, albatta. Bu masalaning huquqiy yechimiga erishish uchun muayyan fuqaroni ishga qabul qilish to'g'risida ish beruvchining (korxonaga ma'muriyatining) aniq individual hujjati (buyrug'i, farmoyishi) chiqarilishi lozim (MK ning 82-moddasi). Ushbu misolimizda MK 57 va 72-moddalaridagi huquqiy normalar tegishli mehnat-huquqiy munosabatlarini tartibga solish uchun asos vazifasini o'taydi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining ikkinchi elementi – **huquqiy munosabatlardir**. Huquq normasi aynan huquqiy munosabat orqali hayotga joriy etiladi, subyektiv huquq va burchlarga rioya etiladi, ulardan foydalaniladi va tegishli talablar bajariladi. Muayyan subyektiv huquq va burchlarning xususiyatlari huquqiy normaning tartibga solishdagi ta'sir etish xarakteriga bog'liq. Huquqiy normalarning vakolat beruvchi, majbur etuvchi va man qiluvchi turlariga mos ravishda tartibga soluvchi va qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar turlari namoyon bo'ladi. Tartibga soluvchi huquqiy munosabatlar majbur etuvchi, vakolat beruvchi va man etuvchi munosabatlarga bo'linadi.

Huquqiy tartibga solish mexanizmining uchinchi elementi – **subyektiv huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari(harakatlari)dir**. Bu yerda so'z huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq normalariga rioya etish, bajarish va foydalanish shaklidagi real amaliy xatti-harakatlari, xulq-atvori haqida bormoqda. Mazkur harakatlar sodir etilishi bilan qonun chiqaruvchi idora rejalashtirgan maqsad amalga oshadi hamda huquqiy tartibga solish mexanizmi faoliyati yakun topadi.

Huquqni qo'llash hujjatlari vakolatli davlat idorasining, mansabdor shaxsning davlat-hokimiyat xarakteridagi hujjatidir. Bu hujjatlar huquqiy norma talablarini huquqiy munosabat orqali bevosita hayotga joriy etadi. Lozim bo'lgan hollarda huquqni qo'llash hujjatlarining bajarilishi davlatning majburlash kuchi bilan ta'minlanadi. Huquqni qo'llash hujjatlari – qaror, farmoyish, buyruq, hukm va boshqa shakllardan iborat. Bu hujjatlarda huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlari aniq ko'rsatib beriladi.

3-§. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish

Huquqiy tartibga solishning eng oliy shakli – **konstitutsiyaviy tartibga solishdir**. Zero, Konstitutsiya mamlakatning Asosiy qonuni bo'lib, yuksak maqomli, o'ta nufuzli siyosiy-yuridik hujjat sanaladi. U mo'tabar ijtimoiy-huquqiy qadriyat

sifatida jamiyat va davlat hayotining bosh mezoni, ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi, ravon tartibga soluvchi ta'sirchan vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, «...biz mamlakatimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini eng oliy va ustivor qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o'tgan davr mobaynida qonunchilik sohasida va amaliy siyosatimizda qanday natija va yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsak, ularning barchasi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan talab va tamoyillar bilan uzviy bog'liqdir»¹.

Huquqiy tartibga solish mexanizmida Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash nihoyatda muhim ahamiyatga molik masaladir. Konstitutsiya – mamlakat huquqiy tizimining o'zagi, uning mustahkam poydevori. Konstitutsiya normalari birlamchi, ta'sis etuvchi xarakterga ega bo'lib, ular bevosita amal qiladi. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas (16-modda, 2-qism).

Konstitutsiya Asosiy qonun sifatida mamlakat normativ-huquqiy hujjatlar tizimida ustuvorlik qiladi, «hukmron» mavqeni egallaydi. Uning normalari boshqa qonunlarning qoidalaridan ham yuqoriroq yuridik kuchga ega. Qolgan barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida, unga muvofiq tarzda va uning ijrosi uchun chiqariladi. Basharti, qonunlar Konstitutsiyaga zid kelib qolsa, yoki unda belgilangan tartiblarni buzib ishlab chiqilgan va qabul qilingan bo'lsa, ular o'z kuchini yo'qotishi shart.

Konstitutsiya butun huquqiy tizimning uyushtiruvchi, hamjihatlashtiruvchi markazi, «tizim» hosil qiluvchi o'zagi bo'lib, barcha huquq tarmoqlari va qonunchilik sohalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi yuridik asosdir. Qonunchilikning hamma sohalari bevosita Konstitutsiya qoidalari va prinsiplariga tayanadi. Binobarin, Konstitutsiya qonunchilik tarmoqlari vujudga kelishi va amal qilishi uchun sarchashma – manba bo'lib hisoblanadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, konstitutsiyaviy normalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotning eng muhim tomonlarini huquqiy tartibga soladi. Ana shu ma'noda **konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish** huquqiy tartibga solishning boshqa turlaridan farq qiladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish murakkab ichki tuzilish (struktura)ga va ijtimoiy hayotning alohida sohalariga ta'sir etishning o'ziga

¹ Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: «O'zbekiston», 2007. – 96-bet.

xos xususiyatlariga ega. U huquqiy tartibga solish yagona tizimining maxsus qismi sifatida bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ya'ni:

- mamlakat miqyosida yagona konstitutsiyaviy tartibga solishning muayyan tizimini tashkil etadi;
- u umumiy-majburiy, normativ xarakterga ega;
- huquqiy tartibga solishning umumiy siyosiy yo'nalishini, ustuvor prinsiplarini belgilaydi;
- ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish davlat tomonidan eng yuksak darajada kafolatlanadi va ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning mushtarak tizimlilik xususiyati konstitutsiyaviy qonunchilik normalarining ichki mutanosibligi, bahamjihatligi, o'zaro mantiqiy muvofiqligi va batartibligida ko'rinadi. Mamlakat konstitutsiyaviy qonunchiligi tizimiga – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va barcha konstitutsiyaviy qonunlar (masalan, «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlar) kiradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning normativlik darajasi hamda siyosiy-yuridik ahamiyati konstitutsiyaviy qonunchilikni o'rnatish xarakteri va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi bilan belgilanadi. Konstitutsiyada mustahkamlangan prinsiplarning hammasi normativ tabiatga ega bo'lib, ular mavjud huquqiy tizim uchun, davlat idoralarining huquq ijodkorlik va huquqni qo'llash faoliyati uchun, fuqarolar, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalari faoliyati uchun ustuvor, rahbariy ahamiyatga egadir. Konstitutsiyaviy tartibga solishning umumiy-majburiy tabiatiga kelganda shuni aytish kerakki, u eng oliy darajadagi majburiylikka ega va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning barchasi subyektlari uchun bajarilishi shart bo'lgan qat'iy talabdir.

Mamlakatimizda Konstitutsiyaga amal qilish majburiyati konstitutsiyaviy qonunchilik darajasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (Konstitutsiyaning 15-moddasi).

Konstitutsiyaviy qonunchilik normalarining amalga oshirilishi iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va yuridik *kafolatlar tizimi* bilan ta'minlanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarish rivoj topgani hamda xususiy mulkchilik munosabatlari qaror topgani sayin konstitutsiyaviy normalar amal qilishining iqtisodiy zaminlari, kafolatlari mustahkamlana boradi. Shuningdek, mam-

lakatimizning siyosiy tizimi demokratik tarzda takomillashib borgani sayin konstitutsiyaviy tartibga solishning *siyosiy kafolatlari* kuchayib boradi. Jamiyatning g'oyaviy asoslari va ma'rifiy-ma'naviy kamoloti ta'minlanib, tobora yuksalib borgani sayin konstitutsiyaviy tartibotning *g'oyaviy-ma'naviy kafolatlari* rivoj topadi. Konstitutsiyaviy tartibga solishning yuridik mexanizmi esa, Konstitutsiya amal qilishining barcha huquqiy vositalari hamda usullari yig'indisini qamrab oladi. Konstitutsiya normalari qonuniylik prinsipiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Xuddi shu narsa konstitutsiyaviy tartibga solishning *yuridik kafolatini* tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustuvorligini ta'minlashning, unga rioya qilishning alohida muhofaza mexanizmi vujudga keltirilgan. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'g'inini *Konstitutsiyaviy sud* tashkil etadi. U qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar hujjatlarining konstitutsiyaviyligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib, hal etadi. O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sud to'g'risida»gi (1995-yil 30-avgust) qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazoratning oliy sudlov organi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud barcha davlat organlari tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlarning, O'zbekistonning xalqaro shartnomalari va boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga to'la mos bo'lishini kuzatib turadi; Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi, qonunlari va huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas (Konstitutsiyaning 109-moddasi).

Konstitutsiyaviy tartibga solish jamiyatda yetakchi hamda nufuzli o'rnini egallaydi. U oliy darajadagi huquqiy tartibga solishdir. Konstitutsiya normalari o'z yuridik kuchi jihatidan boshqa oddiy huquqiy normalardan so'zsiz ustuvor bo'lganligi uchun konstitutsiyaviy tartibga solish yuksak yuridik maqomga, shuningdek, muhim ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega.

Xo'sh, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish qanday ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi? Bunday tartibga solishning predmetini jamiyat va davlat hayot faoliyatining eng muhim jihatlari, shunga oid asosiy ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bu ijtimoiy munosabatlar – jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, sotsial va madaniy rivojlanishini, O'zbekiston davlat ichki va tashqi siyosati asoslarini, respublikada inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarini ustuvor ta'minlashni aks ettiruvchi, xususiy mulkchilikka asoslangan barqaror bozor iqtisodiyotining qaror topishi bilan bog'liq munosabatlardir. Ushbu munosabatlar jamiyat va davlatimizning mohiyatini hamda asosiy xususiyatlarini ifoda etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tarzda tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarni bir necha yirik majmualarga ajratish mumkin:

– jamiyatning iqtisodiy tizimi, xususiy va boshqa shakldagi mulkchilik hamda tadbirkorlik asoslarini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar;

– mamlakat siyosiy tizimi va davlat tuzumi asoslarini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar;

– shaxsning huquqiy maqomi asoslarini belgilovchi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimiga oid ijtimoiy munosabatlar;

– mamlakatimizning davlat tuzilishi shakli, ma'muriy-hududiy tuzilishi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi asoslarini belgilashga oid ijtimoiy munosabatlar;

– saylov tizimi, Parlament, Prezident, Hukumat, sud hokimiyati, mahalliy davlat vakillik va ijroiya idoralarining huquqiy maqomi, vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va hokazo.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmini (avvalgi paragrafda ta'kidlanganidek) uch element: konstitutsiyaviy normalar; konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar; konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarni amalga oshirish hujjatlari tashkil etadi. Ushbu mexanizmning normativ asosini tashkil etuvchi yuridik normalar o'zining eng oliy siyosiy-yuridik kuchi, yuksak barqarorligi va jamiyat hamda davlat tomonidan qat'iy ta'minlanishi bilan ajralib turadi.

Konstitutsiyaviy normalar asosida tarkib topgan huquqiy munosabatlar umumiy mazmun kasb etadi va tarmoq huquqiy munosabatlari (ya'ni, konkret munosabatlar) uchun asos vazifasini o'taydi. Ular o'zining doimiy barqarorligi, uzoq muddatga mo'ljallanganligi va subyektlarning yuqori umumiy huquqiy holatini ifodalashi bilan tavsiflanadi. Bunday munosabatlarning subyektlari: davlat, xalq, millatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, davlat idoralari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar va fuqarolar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunchilik normalarini amalga oshirish har qanday huquqiy normalarni amalga oshirish singari **rioya qilish, bajarish, foydalanish va qo'llash** shaklida bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmining xususiyatlaridan biri Konstitutsiya normalarining joriy qonunlar tomonidan konkretlashtirilishi hamda bevosita amalga oshirilishidir. Qonun normalari, o'z navbatida, Prezident farmoni, Hukumat qarori, davlat boshqaruv idoralari va huquqni qo'llovchi organlar hujjatlari orqali hayotga joriy etiladi.

Shunday qilib, jamiyat va davlat hayotini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish, uning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash mamlakatimizning yanada ildam qadamlar bilan mustaqillik yo'lidan olg'a qarab rivojlanishining ishonchli garovidir.

4-§. **Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy va ruhiy mexanizmi**

hodisadir. Huquqiy tartibga solish yuridik mexanizmdan tashqari, ijtimoiy (sotsial) va ruhiy (psixologik) mexanizmlarga ham ega.

Ayonki, huquq ijtimoiy muhitda amal qiladi. Uning harakatlanishiga turli ijtimoiy omillar, hayotiy vaziyat hamda hodisalar ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqning kundalik real hayotda amal qilish hodisasi *huquq harakatlanishining ijtimoiy (sotsial) mexanizmi* deb yuritiladi.

Huquq harakatlanishining yoki huquqiy tartibga solishning ijtimoiy mexanizmi deganda, huquqiy prinsiplar va normalarning talablarini huquq subyektlari xulq-atvori hamda yurish-turishiga aylantirish (singdirish) bilan bog'liq jarayonga ta'sir etuvchi ijtimoiy va boshqa hayotiy omillarning yalpi umumiy tizimi tushuniladi. Mazkur jarayonning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi: huquq prinsiplari va normalari mazmunini barchaning e'tiboriga yetkazish; huquqiy aktlarda ijtimoiy foydali maqsadni ifodalash orqali huquqqa muvofiq xulq-atvorni yo'naltirib turish; huquqiy ko'rsatmalar yordamida ijtimoiy foydali huquqqa muvofiq xulq-atvorni shakllantirish; ijtimoiy-huquqiy nazoratni amalga oshirish.

Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy mexanizmini tavsiflashda uning ushbu jihatlari alohida o'rin tutadi:

a) huquqiy axborotning darajasi va xarakteri. Huquqning samarali amal qilishi ko'p jihatdan hukuq subyektlari tomonidan amaldagi yuridik normalarni bilish hamda anglab yetish darajasiga bog'liq. Tabiiyki, bunda huquqiy qoidalarning barchaning e'tiboriga qay yo'sinda va qay me'yorda yetkazilishi muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aholi tomonidan huquqiy prinsiplar va aniq yuridik normalarni bilish darajasi bir xil emas. Aholining turli qatlamlariga huquqiy axborot har xil yo'l va vositalar orqali borib yetadi. Huquqiy axborotning yetkazilishida ommaviy axborot vositalar-radio, televideniye va matbuotning o'rni alohidadir;

b) ijtimoiy munosabat qatnashchilarining huquqiy e'tiqodi va yo'naltirilganligi. Huquqning ijtimoiy hayotdagi harakatlanishi shaxsning huquqiy e'tiqodi, o'y-fikrlarining yo'naltirilganligi bilan bog'liq. Zero, huquqning amal qilishi huquq sohiblarining nafaqat axborotlanganlik darajasi bilan, balki huquqiy norma talablariga rioya etish va uni bajarishga bo'lgan shaxsiy ichki qat'iyatning shakllanganlik darajasi bilan ham bog'liq. Yanada aniqroq ifoda etadigan bo'lsak, shaxs huquqiy maqsad, vazifa ham-

da ideallarni bajarish va egallashga qanchalik yo'naltirilganligi nazarda tutilmoqda;

d) huquq amal qilishining ijtimoiy oqibatlari. Yuridik normalar amal qilishining oqibati – huquqiy talabni amalga oshirishning yakuniy natijasigina emas, balki huquq harakati keyingi bosqichlarining boshlang'ich nuqtasi hamdir. Huquqning ijtimoiy harakati «qayta bog'lanish» mexanizmi (huquqiy ong, yuridik va sud amaliyoti, davriy huquq ijodkorligi) orqali huquqiy tartibga solish jarayoniga, uni yo'naltirishga va tuzatishga ta'sir ko'rsatadi;

e) ijtimoiy muhit. Huquqning, shuningdek butun yuridik vositalar tizimining harakatlanishi muayyan ijtimoiy muhitda ro'y beradi. Bunda jamiyat, davlat, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari hamda fuqarolar tomonida huquqqa, qonuniylikka munosabat namoyon bo'ladi. Mazkur muhitda mavjud muayyan shart-sharoit, huquqiy madaniyat, huquqiy ong va tartibiy holati maydonga chiqadi. Huquq harakatlanadigan ijtimoiy muhitning muhim jihatlaridan biri jamiyatdagi qonuniylik va huquqiy tartibot rejimini qamrab oluvchi umumiy holat – «huquqiy iqlim»dir.

Tahlil etilayotgan mexanizmida huquqning harakatlanishiga turli ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy omillar huquqiy tartibga solish ehtiyojlarini aniqlashga, huquqiy munosabat ishtirokchilarining xulq-atvoriga, yuridik norma qo'llanayotgan masalaning mazmuniga u yoki bu shaklda ta'sir o'tkazuvchi ijtimoiy hayot hodisalaridir. Ijtimoiy omillar iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini o'zida namoyon etadi. Ijtimoiy omillarni quyidagicha turkumlash mumkin: iqtisodiy, demografik, ekologik, jo'g'rofiy, siyosiy-huquqiy, g'oyaviy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy, milliy, baynalmilal, ilmiy, tashkiliy-texnikaviy va boshqa omillar.

Huquqiy tartibga solish jarayonining ruhiy mexanizmi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning irodasi, aqliy salohiyati (intellekti), motivi, maqsadi, e'tiqodi kabi fazilatlar huquq harakatlanishining ruhiy mexanizmi zamirida yotadi. Qonun chiqaruvchi idora ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda insonlarning ruhiy xulq-atvori xususiyatlarini inobatga oladi. Chunki huquqiy tartibga solish-bu ongga, irodaga, ehtirosiga, murakkab motivli xulq-atvorga ega bo'lgan insonlarni boshqarishdir. Huquq vositasida inson xulq-atvorining motivlari («ichki istak – intilish») shakllantiriladi. Yuridik normada o'rnatilayotgan taqiq, man etish yoki ijozat berish, rag'batlantirish usullari bilan, avvalo, inson ruhiyatiga ta'sir etiladi. Shu tariqa inson ruhiyatining tashqi ifodasi bo'lmish yurish-turishi, xulq-atvorining o'zgarishiga erishiladi.

Ijobiy xatti-harakatlarni sodir etishga sabab bo'luvchi faol xulq-atvorni rag'batlantiruvchi *undovchi motiylarni* shakllantirish huquqiy tartibga solishning bosh maqsadidir. Undovchi motiylarni shakllantirish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

birinchisi – faol xatti-harakat sodir etish majburiyatini yuklash;

ikkinchisi – ijobiy xatti-harakatni sodir etish huquqini berish (ijozat berish).

Shunday qilib, huquqiy tartibga solishning yuridik, ijtimoiy, ruhiy mexanizmlari jamuljam inobatga olingan taqdirdagina ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

XXI bob. QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT. INTIZOM

1-§. Qonuniylik tushunchasi, mohiyati va vazifalari

Adolatli, demokratik jamiyat va huquqiy davlat barpo etish jarayonida qonun ustuvorligi va qonuniylik muhitini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, mustahkam qonuniylik, qat'iy huquqiy tartibot huquqiy dav-

latchilikning mohiyatini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida mustahkamlangan qoidaga muvofiq «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari amalga oshiradi».

Mazkur konstitutsiyaviy norma nihoyatda insonparvar va ezgulik bilan yo'g'rilgan qoidadir. Unda adolat bilan qonuniylik g'oyalari yonma-yon, uyg'un holda e'tirof etiladi. Darhaqiqat, jamiyatda ustuvorlik qiladigan qonuniylik talabi adolat mezonlari doirasida bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda mamlakat Prezidenti Sh. Mirziyoevning quyidagi fikrlari iboratlidir: «Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat tuyg'usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz»¹.

Qonuniylik talabi Konstitutsiyamizda o'zining quyidagi talqinini topgan: «Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda)». «Qonuniylik prinsipi»ni barcha tomonidan mavjud qonunlarga og'ishmay amal qilinishi va ularni qat'iy bajarilishi, deb talqin etish sobiq Ittifoq davrida ham mavjud edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng biz demokratik, insonparvar, adolatli jamiyat barpo etish sari yo'l tutganimiz bois «qonuniylik prinsipi»ga yangicha «insoniy qiyofa» baxsh etish, uni inson manfaatlari nuqtayi nazaridan tushunish va talqin qilish tendensiyasi namoyon bo'la boshladi. Avvalgi davrda «qonuniylik» faqat qonun normalariga qat'iy rioya etish, ularga bo'ysunish sifatida tushunilar edi. Endilikda qaror topayotgan yangi tendensiya, yangicha yondashuvga muvofiq, avvalo, rioya etilishi talab qilinadigan qonunlarning mazmuni adolat

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 10-bet.

mezonlariga to'la mos bo'lishi, insonparvarlik g'oyasi va ruhi bilan sug'orilgan, demokratik hamda xalqchil bo'lishi lozim.

«Demokratik tarzda uyushtirilgan jamiyatda qonun adolat va tafakkur ifodasi bo'lmog'i lozim. Insoniyat asrlar mobaynida adolatli qonunlar haqida orzu qilib, ularga muqaddas haqiqat ramzi sifatida e'tiqod qilib kelgan»¹. Davlat qonun ijodkorligi sohasida ham oqilona siyosat yuritishi lozim. «O'zbekiston mustaqil davlat sifatida hech kimga tobe bo'lmagan qonunchilik siyosatini yuritadi. Yuksak nufuzli insonparvar, adolatli hamda demokratik qonunlar yaratish, qonunni inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash vositasiga aylantirish, jamiyat uchun umumiy manfaatli barcha munosabatlarni qonun yordamida muhofaza etish kabilar siyosatning asosini tashkil etadi»². Ushbu siyosat asosida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotning muhim yo'nalishlaridan biri «ijtimoiy hayotning hamma sohalarida qonunning oliyligini ta'minlash, uning mazmuni xalqchil, insonparvar va adolatli bo'lishiga erishish, qonunning sifatini yaxshilash»³ dan iborat.

Qonuniylik prinsipi «qonun ustuvorligi» prinsipidan kengroq tushuncha bo'lib, u qonun ustuvorligini ta'minlash masalalarini ham o'z ichiga oladi. Qonuniylik deganda, nafaqat qonunlarga muvofiq ish tutish, balki barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish, ularni bajarish tushuniladi. Qonuniylikni zamonaviy talqinda kengroq tushunish uni huquqqa muvofiqlik tarzida tushunishni ifodalaydi. Huquq – haqiqat va adolat ifodasi degan konsepsiyadan kelib chiqilganda, huquqqa muvofiqlik ayni qonuniylik demakdir.

Qonuniylikni talqin etishdagi yangi tendensiyaning yana bir jihati – qonunning huquqiy bo'lishi⁴. Tabiiyki, huquqiy davlat barpo etish, nafaqat davlat organlari faoliyatining huquq doirasida bo'lishini, balki qonunlarning mazmuni ham tom ma'noda huquqiy bo'lishini taqozo etadi. Chamasi, mamlakatimizdagi hozirgi islohotlar chog'ida demokratik, adolatli huquqiy qonunning konsepsiyasini ishlab chiqish, qonunning umumiy nazariy maketini vujudga keltirish lozim.

Qonunning ustuvorligi g'oyasi bu hali huquqning to'la tantanasi degani emas. Huquq – normalar tizimi ekanligidan tashqari, jamiyatning ijtimoiy ongida shakllangan, uning ma'naviy mulkiga aylangan adolat, erkinlik va tenglikni ifodalovchi ideal mezonlardir. Tabiiy huquq, uning asosida yaratilgan pozi-

¹ Odilqoriyev X.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995. – 28-bet.

² O'sha joyda, 33–34-betlar.

³ O'sha joyda, 35-bet.

⁴ I. Kantning falsafiy ta'limotida qonunning aql muvofiqligi va huquqiyiligi masalasi batafsil asoslantirilgan (Qarang.: Кант И. Основы метафизики нравственности. Критика практического разума. Метафизика нравов. – СПб., 1995, – 283–286-betlar)

tiv huquq davlat qonunlaridan ustun turadi. Shu bois Yevropaning ko'pchilik davlatlari konstitutsiyalarida **huquqning ustunligi prinsipi** mustahkamlangan. *Huquq ustunligi* – bu ijtimoiy munosabatlarni insonning tabiiy huquqlari nuqtayi nazaridan, haqiqat va adolat mezonlari asosida tartibga solinishining yuksak darajasidir. Mamlakatimiz huquqshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biri «huquq ustunligi» va «qonun ustunligi» prinsiplarining nisbatini metodologiya jihatidan chuqur ilmiy-nazariy isbotlashdan iborat. Bunday ilmiy-ijodiy izlanish, shubhasiz, huquqiy tafakkurimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradi.

Milliy huquqshunosligimizda huquq ustunligi prinsipining tushunchasi, mohiyati va ahamiyatini izohlashga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar paydo bo'layotganligi yuqorida biz asoslayotgan tendensiyaning isbotidir¹.

Demokratik jamiyat barpo etayotgan huquqiy davlat qurish yo'lidan borayotgan va shu maqsadda tub islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatimiz uchun bugungi sharoitda (o'tish davrida) qonun ustuvorligiga erishish vaziyatining ayni taqozosidir.

Huquq ustuvorligi (ustunligi) prinsipi biz kelgusida erishishga intilayotgan ideal tamoyil sifatida o'z dolzarbligini saqlab qoladi. Istiqbolda, albatta, ijtimoiy hayotimizda huquq ustuvorligi tamoyili rahbariy mavqega ega bo'ladi.

Ta'kidlash muhimki, qonunning ustunligini ta'minlash nihoyatda demokratik mazmundagi ishdir. Qonunga og'ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi.

Qonunning oliyligi xususida gap borganda, avvalo, davlatning shoh qonuni hisoblangan Konstitutsiyaning oliyligini, ustuvorligini ta'minlash muhimligini e'tirof etish lozim. Konstitutsiya mamlakat huquqiy tizimining poydevoridir. U – xalqimizning davlat donishmandligi va siyosiy-huquqiy tajribasi samarasi tarzida yaratilgan.

Konstitutsiya normalari ibtido – asos sifatida ta'sis etuvchi xarakterga ega bo'lib, ular bevosita amal qiladi. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas. Konstitutsiyaning qoidalari joriy qonunlar yoki boshqa huquqiy hujjatlar vositasida muayyanlashtirilmaganligi tufayli ularni bajarmaslik va ularga rioya etmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiya va qonunlar har bir fuqaro uchun, har bir huquq sohibi uchun eng oliy qadriyat, mo'tabar va muqaddas bo'lmog'i lozim. Biroq buning uchun Konstitutsiya va qonunlarning o'zi nihoyatda adolatli, insonparvar, demokratik va oqilona bo'lishi, jamiyatning yetilgan ehtiyojlariga hamda davr talablariga mos kelishi lozim.

¹ Islomov Z.M. Konstitutsiya – huquq ustunligining asosi. – T., 2012.

Konstitutsiya Asosiy qonun sifatida mamlakatdagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimida ustunlik qiladi, «hukmron» mavqeni egallaydi. Uning normalari boshqa qonunlarning qoidalaridan yuqori oliy yuridik kuchga ega. Qolgan barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar konstitutsiya asosida, unga muvofiq va uning ijrosi uchun chiqarilgan. Bu madaniyati yuksak taraqqiy etgan mamlakatning qat'iy qoidasidir.

Qonun – jamiyat huquqiy tizimining eng muhim tarkibiy qismi, huquqni ifoda etishning oliy shaklidir. Qonun vositasi xalq (jamiyat) irodasining davlat amri darajasiga ko'tarilishi, rasmiylashuvi, umummajburiy qoidaga aylanishi hamda mustahkamlanishi amalga oshadi.

O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari tizimida qonunlar asosiy o'rinni egallaydi. Qonun davlat oliy vakillik organining eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan aktidir. Qonunlar bevosita konstitutsiya qoidalarini va prinsiplarini asosida, ularni hayotga joriy etish maqsadida chiqariladi.

Qonun oliy yuridik kuchga ega. Qonunning ushbu xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o'rnata olmaydi;

ikkinchidan, boshqa barcha normativ-huquqiy hujjatlar qonunga qat'iy muvofiq holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi;

uchinchidan, biron-bir qonunosti normativ-huquqiy hujjat qonunga zid bo'lsa, u qonunga muvofiq holga keltiriladi yoki bekor qilinadi;

to'rtinchidan, qonun oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat bo'lganligi sababli uni qabul qilgan organdan boshqa hech kim qo'shimcha tasdiqlashi va bekor qilishi mumkin emas.

Qonun davlat nuqtayi nazaridan eng muhim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasidir. Unda mazkur munosabatlardagi qonuniyatlarning normativ majburiy xarakteri va siyosiy-huquqiy me'yorini o'z ifodasini topadi. Qonunlar faqat siyosatning ifodasi, siyosiy chora bo'lib qolmasdan, beqiyos ijodiy va tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta ma'naviy boylik hamdir.

Respublika qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzumimizning, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari, rivojlanishimizning yo'nalishlari va dasturiy vazifalari o'z aksini topadi. Bunday muhim prinsiplar, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: davlat suvereniteti prinsipi; xalq hokimiyatchiligi prinsipi; inson huquqlarining ustunligi prinsipi; qonuniylik prinsipi; demokratiya prinsipi; davlat bilan shaxsning o'zaro burchdorligi prinsipi; konstitutsiya va qonunning oliyligi prinsipi; hokimiyatlar taqsim-

lanishi prinsipi; ijtimoiy adolat prinsipi; qonun va sud oldida barchaning tengligi prinsipi; aybsizlik prezumpsiyasi; fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish prinsipi va boshqalar¹.

Shuningdek mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashning *yuridik, ijtimoiy, g'oyaviy va ruhiy mexanizmini* atroflicha tahlil etish lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, *qonuniylik* – davlatning qonunlarida, qonun ijodkorligi hamda qonunosti huquq ijodkorligida huquqni aniq ifodalanishi g'oyasi, talabi va tizimi (rejimi)ni anglatadi². Qonunlarda va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda adolatni, huquqni ifodalash va uni huquqni qo'llash jarayoniga singdirish, bunda inson huquq va manfaatlarini ta'minlash qonuniylikning mazmunini tashkil etadi. Z.M. Islomovning fikricha, «qonuniylik – ijtimoiy hayotda huquq va qonun hukmronligidan, ijtimoiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari tomonidan huquqiy normalar ko'rsatmalarini og'ishmay amalga oshirish, jamiyatda tartib va uyushqoqlikni ta'minlashdan iborat ijtimoiy-siyosiy rejimdir»³.

Qonuniylik – murakkab, serqirra hodisa bo'lib, u turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Uning tabiatini quyidagi talablar yig'indisi ifodalaydi: a) qonunlarning ular yo'naltirilgan subyektlar tomonidan aniq va bekamu-ko'st bajarilishi; b) qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasiga rioya etilishi; d) qonuniylik o'zida qonunning qat'iyligini, ya'ni qonunni qabul qilgan organdan tashqari, uni hech kim bekor qila olmasligi talabini mujassam etadi⁴.

Jamiyatda qonuniylik turli shakllarda namoyon bo'ladi: *avvalo*, Konstitutsiya va qonunlarni o'tmish va hozirgi davrning ilg'or g'oyalari bilan sug'orilganligi, inson huquq va erkinliklari ustuvorligining ta'minlanganligi, qonunlarning adolatliligi va xalq manfaatiga xizmat qilishga asoslanganligida; *ikkinchidan*, qonunning ustuvorligi, ya'ni qonunlarning konstitutsiyaga, qonun osti normativ hujjatlarning qonunlarga mos kelishida; *uchinchidan*, davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga og'ishmay, so'zsiz rioya qilishida.

Adabiyotlarda qonuniylikni tor va keng ma'noda tushunish mavjud. *Tor ma'noda qonuniylik* – barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor va yuridik shaxslar hamda fuqarolar tomonidan amaldagi qonunlarga aniq va og'ishmay rioya qilish. *Keng ma'noda qonuniylik* davlatning qonun

¹ Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T., 2012. – 340–342-betlar.

² Qarang: Общая теория государства и права. Академический курс. Том 2. – М., 2000. – 507-bet.

³ Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2007. – 855-bet.

⁴ Qarang: Проблемы общей теории права и государства. Учебник для вузов / Под общ. ред. проф. В.С. Нерсесянца. – М., 2008. – 465-bet.

yaratuvchilik va uni hayotga tatbiq etish faoliyatini ham qamrab oladi. Qonun normalarining yuqori saviyada ijod etish ishini tashkil etmay, qonunlarni jamiyat taraqqiyoti darajasiga moslashtirib borishga yo'naltirilgan faoliyatni yo'lga qo'ymay turib ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun hayot talablariga javob beradigan yangi qonunlar qabul qilish, yangi shart-sharoit va talablarga javob berolmaydigan eski qonunlarni bekor qilish zaruriyati tug'iladi. Qonun ijodkorligini takomillashtirish qonuniylikni mustahkamlashdagi eng muhim shartdir.

Qonuniylik huquqning mavjudligi, jamiyatda chinakam adolatli va demokratik muhit va huquqiy tartibning o'rnatilganligidan dalolat beradi. Demokratik davlatda qonuniylik barchaning qonun oldida tengligini anglatadi. Barcha teng majburiyat oladi va qonuniylik buzilganda teng javobgarlikka tortiladi. Jamiyatda qonuniylikning buzilishi quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

- davlat hokimiyati organlari konstitutsiya va qonunlarga to'la rioya qilmaganda;
- davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunlar, qonun osti hujjatlari hamda inson huquq va erkinliklariga rioya etmaganida;
- davlat organlarining konstitutsiya va qonunlarga zid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilib, ular asosida faoliyat yuritganida;
- vakolatli davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning amaldagi huquq normalarini noto'g'ri qo'llaganida va hokazo.

Qonuniylikning oliy ko'rinishi ***konstitutsiyaviy qonuniylikdir***. Mazkur hodisa (rejim) konstitutsiyaviy qonunchilikka qat'iy va og'ishmay amal qilinishining natijasidir. Mamlakatda vujudga keltirilgan konstitutsiyaviy qonunchilik tizimi konstitutsiyaviy qonuniylikning yuridik asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning normativlik darajasi hamda siyosiy-yuridik ahamiyati ***konstitutsiyaviy qonunchilikni o'rnatish*** xarakteri va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi bilan belgilanadi. Konstitutsiyada mustahkamlangan prinsiplarning hammasi normativ tabiatga ega bo'lib, ular mavjud huquqiy tizim uchun, davlat idoralarining huquq ijodkorlik va huquqni qo'llash faoliyati uchun, fuqarolar, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalari faoliyati uchun ustuvor, rahbariy ahamiyatga egadir. Konstitutsiyaviy tartibga solishning umumiy-majburiy tabiatiga kelganda shuni aytish kerakki, u eng oliy darajadagi majburiylikka ega va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari uchun bajarilishi shart bo'lgan qat'iy talabdir.

Mamlakatimizda Konstitutsiyaga amal qilish majburiyati ***konstitutsiyaviy qonunchilik*** darajasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasida

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi soʻzsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish koʻradilar.

Konstitutsiyaviy qonunchilik normalarining amalga oshirilishi iqtisodiy, siyosiy, gʻoyaviy va yuridik **kafolatlar tizimi** bilan taʼminlanadi. Buzor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarish rivoj topgani hamda xususiy mulkchilik munosabatlari qaror topgani sayin konstitutsiyaviy normalar amal qilishining iqtisodiy zaminlari, kafolatlari mustahkamlana boradi. Shuningdek, mamlakatimizning siyosiy tizimi demokratik tarzda takomillashib borgani sayin konstitutsiyaviy tartibga solishning siyosiy kafolatlari kuchayib boradi. Jamiyatning gʻoyaviy asoslari va maʼrifiy-maʼnaviy kamolati taʼminlanib, tobora yuksalib borgani sayin **konstitutsiyaviy tartibotning** gʻoyaviy-maʼnaviy kafolatlari rivoj topadi. Konstitutsiyaviy tartibga solishning yuridik mexanizmi esa, Konstitutsiya amal qilishining barcha huquqiy vositalari hamda usullari yigʻindisini qamrab oladi. Konstitutsiya normalari qonuniylik prinsipiga qatʼiy rioya qilingan holda amalga oshiriladi¹.

Konstitutsiyaviy qonuniylik deganda mamlakat Konstitutsiyasi va konstitutsiyaviy qonunlariga barcha subyektlar tomonidan soʻzsiz va ogʻishmay rioya etilishi, ularning talabi qatʼiy hamda aniq bajarilishi tushuniladi. Konstitutsiyaviy qonuniylik kategoriyasi doirasida, shuningdek Konstitutsiyaning ustunligini taʼminlash ham idrok etiladi. Bu yerda gap Konstitutsiyaning butun huquqiy tizimda, barcha qonunlar orasidagi ustuvorligi xususida bormoqda. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar butun mamlakat hududida, uning har bir qismida ustuvor amal qilishi konstitutsiyaviy qonuniylikning muhim talabidir. Bunday qonuniylikni taʼminlashda Konstitutsiyaviy sud alohida oʻrin tutadi.

Jamiyatda qonuniylikning taʼminlanishiga erishish, qabul qilinayotgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq kelishi va ularga zid boʻlmasligi hamda huquqiy normalarning qonunlarga muvofiq qabul qilinishini taqozo etadi. Qonunlar qanchalik takomillashsa, ularda ijtimoiy hayot talablari qanchalik toʻla aks ettirilsa, ular kishilar ongiga shunchalik kuchli taʼsir etadi hamda fuqarolarning huquqiy normalarni oʻz ixtiyorlari bilan amalga oshirishlariga erishish taʼminlanadi.

Shunday qilib, **qonuniylik** puxta oʻylangan, adolatli, insonparvar, demokratik, sifatli qonunlar hamda qonunchilik hujjatlari tizimi va barchaning ularga qatʼiy rioya etishi, huquqiy talablarning ogʻishmay bajarilishidir.

¹ Qarang: Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T., 2012. – 283-bet.

2-§. Qonuniylik prinsiplari va kafolatlari

Mamlakatimiz huquqiy tizimi muayyan huquqiy prinsiplar asosida amal qiladi. Jamiyat hayotida qonuniylikni ta'minlashga bir qancha muhim prinsiplarga rioya qilish orqali erishiladi. Qonuniylikning o'ziga xos xususiyatlari uning quyidagi prinsiplarida ifodalanadi:

1) *Qonuniylikning yagonaligi*. Qonunlar mamlakat hududida bir xilda qo'llaniladi. Qonuniylik barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatning butun hududida yagona ma'no kasb etishi, bir xilda qo'llanishi, hammaning qonun oldida tengligi, aholining biron-bir guruhi uchun imtiyoz va cheklashlar yo'qligini bildiradi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar».

Respublikamizda qonunning yagonaligi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, *birinchidan*, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarini uning butun hududida amal qilishini va barcha normativ-huquqiy hujjatlar qonun asosida qabul qilinib, ularga zid bo'lmasligini anglatadi. *Ikkinchidan*, O'zbekiston qonunlari uning ijtimoiy va davlat tuzumini, barcha millat va elatlarning manfaatlarini qo'riqlaydi. *Uchinchidan*, mamlakatning butun hududida qonunlar bir xilda qo'llaniladi.

2) *Qonunning ustuvorligi va hamma uchun majburiyligi*. Jamiyatda qonunlar oliy yuridik kuchga ega, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning hammasi qonun asosida qabul qilinadi. Biror-bir huquqiy norma qonunga zid bo'la olmaydi, agar qonun bilan boshqa huquqiy norma o'rtasida shunday nomuvofiqlik paydo bo'lsa, bunday holda qonun amal qiladi. Bu prinsip Konstitutsiyamizning 15-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unda shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

3) *Qonuniylik va maqsadga muvofiqlik prinsipi*. Mamlakat hududida amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni aniq bajarish har qaysi davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun shartdir. Ammo, barcha fuqarolar ham amaldagi qonunlarga bir xilda ixtiyoriy va vijdonan rioya qilavermaydilar. Ayrim fuqarolar qonun talablarini bajar olmaydi va amaldagi ba'zi qonunlarning eskirib qolganligi hamda ularni hozirgi davr talablariga javob bermasligini ro'kach qiladilar. Mamlakatda o'rnatilgan

qonunchilik tartibiga ko'ra vakolatli organ tomonidan amaldagi qonunlar rasmiy ravishda bekor qilinguniga qadar u yuridik kuchga ega bo'ladi va unga rioya qilish hamma uchun majburiydir. Jamiyatda o'zining yuridik ahamiyatini yo'qotgan biror-bir qonun yo'q. Agar qonunlarning birortasi jamiyat manfaatlariga zid yoki uning talablariga to'g'ri kelmaydigan bo'lsa, bunday holda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar mazkur qonunlarni bekor qilish to'g'risidagi tashabbus bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga murojaat etadilar. Qonun o'rnatilgan tartibda bekor qilingandagina, o'zining yuridik kuchi va ahamiyatini yo'qotgan hisoblanadi.

4) *Qonuniylikning aholi madaniy darajasi bilan bog'liqligi.* Qonuniylik madaniyatni oshirishga, o'z navbatida, madaniyatning rivojlanishi esa, qonuniylikni mustahkamlashga yordam beradi. Qonuniylik aholining huquqiy madaniyat darajasi bilan bevosita bog'liq. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qonunlarga rioya qilish va ularning bajarilishi shunchalik samarali bo'ladi. Aholining huquqiy ongi va madaniyat darajasi yuqori bo'lmasa, bunda qonuniylikka erishish amri mahol. Basharti, fuqarolar qonun chiqaruvchi organning qonunlarda mustahkamlangan erki-irodasi, unda qo'yilgan talablarni bilmas ekan, bundan ijobiy natija kutib bo'lmaydi. Asosiysi, fuqarolar qonunlarda qanday imtiyozlar berilganligi yoki qanday harakatlar taqiqlanganligidan bexabar qoladi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 29-avgustda «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» qabul qilingan bo'lib, u huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur va ma'rifatni shakllantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatda qonuniylikni ta'minlashda ularni kafolatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunlar orqali kishilar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinar ekan, ularni hayotda to'g'ri tatbiq etish uchun qonuniylik tegishli usullar vositasida amalga oshiriladi. Bunday usullar davlat tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniylik kafolatlari deb ataladi.

Qonuniylik kafolatlari deganda huquqlardan foydalanish va yuridik majburiyatni amalga oshirishga imkon beruvchi ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv shart-sharoitlari va davlat hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan maxsus ishlab chiqilgan turli-tuman usul va vositalar tushuniladi. Qonuniylikni kafolatlash jamiyatda qabul qilingan qonunlarni ijtimoiy hayotga tatbiq etishning garovi hisoblanib, davlat ularni qo'riqlash va mustahkamlashni ta'minlovchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, yuridik, ma'naviy va boshqa omillarga tayanadi. Agar qonunlar davlat tomonidan kafolatlanmasa, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda yuridik ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Qonuniylikni amalga oshirishning *iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, jamoatchilik, huquqiy* kabi kafolatlari mavjud.

Iqtisodiy kafolatlari – jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, samarali soliq tizimi, yuqori darajadagi ishlab chiqarish, moddiy ne'matlarning adolatli taqsimoti tizimining mavjudligi, iqtisodiyotning mustahkam huquqiy bazasi yaratilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, qonuniylikning iqtisodiy kafolati xilma-xil mulk shakllarining mavjudligi, monopoliyaning cheklanganligi, ijtimoiy inqirozning yo'qligi, fuqarolarning yuqori darajada ijtimoiy va moddiy ta'minlanganligi bilan ham tavsiflanadi.

Jamiyatda qabul qilingan har bir qonun o'zining iqtisodiy negiziga ega bo'lishi lozim, chunki huquqiy normalarning amaliyotga tatbiq etilishi uchun muayyan sarf-xarajatlar talab qilinadi. Agar qonun qabul qilinsa-yu, lekin u iqtisodiy jihatdan ta'minlanmasa, amaliyotga tatbiq etila olmaydi. Ayonki, qonun normalarini amalga oshirish bevosita iqtisodiy manbalarga tayanadi.

Siyosiy kafolatlari – davlat va uning faoliyatini yuqori darajada tashkil qilinganligi, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining joriy etilganligi, davlat organlarining Konstitutsiya asosida tuzilganligi, demokratik siyosiy tartibning mavjudligi va boshqalarda namoyon bo'ladi. Siyosiy kafolatlari mazmunini demokratiyaning mustahkamlanishi, davlat va jamiyat qurilishi, oshkoralik tarzida jamoatchilik tomonidan ma'muriy organlar faoliyatini nazorat qilishning kengayishi, adolatli siyosiy tizimning shakllanishi va rivojlanishiga erishish tashkil etadi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan siyosiy normalarni amalga oshirish uchun fuqarolarning erkin fikrlashiga sharoit yaratilishi, shuningdek, ommaviy axborot vositalariga nisbatan senzuraning bekor qilinishi kabi talablar qo'yiladi va ular bajarilishi lozim.

Mafkuraviy kafolatlari – jamiyatda hurfikrlilik, so'z va fikr, ma'naviy rivojlanish erkinligi, diniy bag'rikenglikning amal qilishi va insonlarning yuqori ma'naviyatga egaligida namoyon bo'ladi. Aholi qonunlarni muqaddas bilib, uni hurmat qilishi hamda unga so'zsiz bo'ysunishiga huquqiy savodxonlik va huquqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ommaning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali erishish mumkin.

Ijtimoiy kafolatlari – bunda qonunlar qabul qilishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining manfaatlari ustuvor inobatga olinishi lozim. Zero, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar oldida mamlakat barcha fuqarolari teng bo'lib, qonun talablarini jamiyatning barcha a'zolari birday qabul qilishi shart. Shu bois qonun qabul qilish jarayonida uning normalarida jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari manfaatlarning inobatga olinishi qonuniylikka erishishning garovidir. Shuningdek, qonuniylikka erishishda

mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosatni, ya'ni aholining bandlik darajasi yuqoriligi, ishsizlikdan himoyalanganligi, aholi kam ta'minlangan qismining davlat tomonidan ijtimoiy himoyalanganligi katta ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik kafolati – qonunlarni amalga oshirishda faqatgina davlatning tashabbusi yetarli emas. Qonunlarning ijrosini ta'minlashda davlat organlaridan tashqari, mansabdor shaxslar, ayniqsa, keng jamoatchilik – mahalla, maktab va boshqa ta'lim muassasalari, xotin-qizlar kengashi, yoshlar ijtimoiy harakati, nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari muhim o'rin tutadi. Shuning uchun mazkur jamoat birlashmalari qonunlarning amalga oshirilishi hamda ular buzilishining oldini olishda faol ishtirok etishlari lozim. Fuqarolik jamiyati institutlari qanchalik faol va kuchli bo'lsa, qonuniylikning jamoatchilik tomonidan kafolatlanishi shunchalik ta'sirchan bo'ladi.

Yuridik kafolatlar – qonunchilik faoliyati va huquqiy tizimning mukammalligi, jamiyat, davlat va fuqarolarning yuqori darajada huquqiy ong va madaniyatga egaligi, yuridik amaliyot va yuridik fan (ta'lim) ning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Yuridik kafolat qonuniylikni ta'minlovchi kafolatlarning boshqa turlaridan keskin farq qiladi hamda samaraliroqdir. Chunki, yuridik kafolat qonunlar amal qilishi uchun asosiy garov hisoblanadi. Bunda huquqiy normalarning takomillashuvi, ularning bekamu-ko'st tatbiq etilishi, shuningdek huquqiy normalar buzilishining oldini olishda mansabdor shaxslarning faoliyati va mas'uliyati katta o'rin egallaydi.

Jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash va qo'riqlashda huquqiy kafolat ikki usulga, ya'ni: ishontirish va majburlash usullariga tayanadi. *Ishontirish usuli* keng xalq ommasiga qonunlar va huquqiy normalar mazmunini tushuntirish orqali, ular ongiga singdirish va boshqa tarbiyaviy choralar ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda qonunlarga ixtiyoriy rioya qilinishiga erishiladi. *Majburlash usulida* qonunlar va boshqa huquqiy normalar buzilgan taqdirda, davlat organlari tomonidan majburiy choralar qo'llash amalga oshiriladi. Shu tariqa qonunning bajarilishiga erishiladi. Umuman qonuniylikni ta'minlash va rivojlantirishda, avvalambor majburlash emas, balki ishontirish usuli asosiy o'rin tutadi. Qachonki ishontirish ko'zlangan natijani bermasa, huquqbuzar shaxs amaldagi huquqiy va ijtimoiy tartibotga qarshi o'z harakatini davom ettirsa, shu vaqtdagina majburlash usuli qo'llanilishi mumkin. Majburlash hamma vaqt ishontirishga asoslanadi. Ishontirish usuli huquqda mustahkamlangan yurish-turish qoidalarini ta'minlash maqsadida jamiyat a'zolari ongiga davlat va jamoat tashkilotlarining faol ta'sir qilishidir. Qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashda jamoatchilikka tayanish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ustuvor talabidir.

3-§. Qonuniylikni ta'minlashda Konstitutsiyaning ahamiyati

Konstitutsiyamiz – Asosiy qonun sifatida, barcha qonunlarning, huquqiy tizimning o'zagidir. U xalq manfaatini ifoda qiladi, xalq hokimiyatchiligini ta'minlaydi. Unda xalqning asosiy irodasi va intilishi har tomonlama o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan va ushbu maqsad yo'lida jadallik bilan odimlamoqda. Huquqiy davlatning asosiy belgilari sifatida: huquq hukmronligining tan olinganligi, inson huquq va erkinliklari ta'minlanganligi, hokimiyatlarning taqsimlanganligi, sud hokimiyatining mustaqilligi, rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligi va boshqalarni e'tirof etish lozim.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va ijtimoiy hayotni tashkil etishning asosiy prinsiplardan biri sifatida mustahkamlangan. Bu huquqiy davlat bosh mezonining amaldagi ifodasidir. Ushbu rahbariy g'oyaning faol harakatini, ijrosini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 25 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida shunday dedi: «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so'zsiz ta'minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir... Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish ma'naviy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart»¹.

Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari to'liq mustahkamlab qo'yilgan. Huquq va erkinliklar faqat qog'ozda emas, balki, amalda ham o'z ifodasini topmoqda. Har bir fuqaro konstitutsiyaviy huquqlarini to'la anglab, ularidan amaliy hayotda ravon foydalanish imkoniyatiga ega. Jamiyat a'zolarining o'z huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va fuqarolik majburiyatlarini chuqur anglab yetishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» (1997-yil 29-avgust), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi (2001-yil 4-yanvar) va shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Huquqni bilish va anglash huquqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishni talab qiladi. Huquqiy savodxonlik dastlab konstitutsiyaviy qoidalarni o'rganishdan boshlanadi. Mamlaktimizda Konstitutsiyani o'rganish, unda mujassamlangan

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 8-dekabr.

g'oya va talablarni aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish faoliyati muntazam tus oldi. Ommaviy axborot vositalarida Konstitutsiyaning mazmuni, mohiyati, jamiyat hayotida tutgan o'rni, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyatini yoritish keng o'rin egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-bobida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi mustahkamlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalariga va qoidalariga zid kelishi mumkin emas (15–16-moddalar).

Qonuniylikning belgilaridan biri bo'lgan barcha huquq subyektlari uchun qonun talablarining istisnosiz majburiyligini jamiyatdagi demokratik teng huquqlilik prinsipidan ajratib bo'lmaydi. Qonun hamma uchun joriy qilinadi. Qonun oldida hamma teng. Qonunni bajarmaganlik yoki buzganlik uchun kim bo'lishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortiladi va buning uchun u asos hisoblanadi. Jamiyatda davlat organlari va jamoa tashkilotlari, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun qonun (huquq) talablariga rioya etish majburiyati tengdir.

Shunday qilib, Konstitutsiya jamiyat hayotida qonuniylikka rioya etilishining negizi hisoblanadi. Fuqarolarning umumiy madaniy saviyasi, davlat apparati xizmatchilarining huquqiy bilim darajasining yuksakligi qonuniylikni ta'minlashning muhim omilidir.

4-§. Huquqiy tartibot va jamoat tartiboti. Intizom Huquqni amalga oshirish va huquqiy norma talablarini bajarish qonuniylikning asosiy talabidir. Bu talabning amalga oshirishi, erkin ijtimoiy munosabatlarda shunday tartibni o'rnatishga olib kelishi kerakki, bunda subyektiv huquq qarshiliksiz amalga oshirilishi, yuridik majburiyatlar esa, og'ishmay bajarilishi lozim. Qonuniylik asosida o'rnatilgan bunday tartibot huquqiy tartibot deyiladi. Demak, huquqiy tartibot qonuniylik talablarini amalga oshirish asosida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarning muayyan holatidir. Qonuniylik bilan huquqiy tartibot bir-biridan farq qiladi: qonuniylikning mazmuni huquqiy normalarga qat'iy va og'ishmay rioya etishda ifodalansa, huquqiy tartibot esa, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvori, ularning subyektiv huquq va majburiyatlariga

muvofiq kelishida ifodalanadi. Davlat jamiyatda o'rnatilgan huquqiy tartibotning bosh kafolatidir. Shunday qilib, huquqiy tartibot – huquqiy munosabatlar doirasida, mazkur munosabatlarning ishtirokchilari o'z subyektiv huquqlarini amalga oshirishlari va yuridik majburiyatlarini bajarishlari natijasida vujudga keladi.

Qonuniylikni amalga oshirish huquqiy tartibotni ta'minlash vositalaridan biri bo'lsa, huquqiy tartibotni mustahkamlash esa, o'z navbatida qonuniylikni mustahkamlashga yordam beradi.

Huquqiy tartibot – huquqiy normalarni qo'llash natijasida ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinganligini o'zida ifodalaydi. Ushbu tartibot qonunlarning aniq amalga oshirilishi vositasida o'rnatiladi. Bunda fuqarolar va tashkilotlarning huquqiy maqomi saqlanadi va ularning huquqiy layoqati qarshiliksiz amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Qonunlarsiz qonuniylik bo'lmaganidek, huquqiy munosabatlarsiz huquqiy tartibot ham bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, huquqiy tartibot bilan huquqiy munosabatlarning yig'indisini tenglashtirib bo'lmaydi. Ma'lum guruhdagi ijtimoiy munosabatlarning huquq bilan tartibga solinishi huquqiy munosabatlar yig'indisini tashkil qiladi, ya'ni shu munosabat ishtirokchilari uchun qonunda aniq huquq va majburiyatlar ko'rsatilgan bo'ladi.

Ammo huquqiy tartibot uchun bu yetarli emas, shu bois subyektiv huquqlarning amalga oshirilishi, yuridik majburiyatlarning qat'iy bajarilishini ta'minlovchi kafolatlar bo'lishi zarur. Huquqiy tartibot huquq bo'lgan joyda, huquq normalarining amalga oshirilishi ta'minlangan joyda mavjuddir.

Jamoat tartibi – huquqiy normalarni amalga oshirishni va jamiyat turmush qoidalarini (shu jumladan, axloq, odob va boshqa huquqiy bo'lmagan ijtimoiy yurish-turish qoidalarini) hurmat qilishni talab etadi. Jamoat tartibini buzish faqat huquqiy normalarni emas, balki turmush qoidalarini hurmat qilmaslik natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Jamoat tartibi huquqiy tartibotga nisbatan keng ma'noni anglatadi.

Jamiyatda huquqiy tartibotning o'rnatilishi va amalga oshirilishi muayyan rahbariy g'oyalar, prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot prinsiplari *qonuniylik, huquqiy tartibotning yagonaligi, iyerarxiyaga asoslanganlik, adolatlilik, huquqiy tartibotning kafolatlanganligi, normativligi* kabilardan iborat.

Qonuniylik – davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga og'ishmay amal qilishini anglatadi.

Qonuniylik – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi va amal qilishi uchun zarur bo'lgan prinsip, mezon, rejim bo'lib, uning asosida barchaning qonun va sud oldida tengligi bo'lib, barcha davlat va mahalliy or-

ganlar, ijtimoiy birliklar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunlarga bir xilda rioya etishlari va ularni aniq bajarishlari majburiyati yotadi¹.

Qonuniylik prinsipi xususida olimlarning qarashlari turlicha bo'lsa-da, ular bildirgan fikrlar aslida bir xilligi ko'rinib turibdi. Shundan kelib chiqqan holda, qonuniylik prinsipini quyidagicha ta'riflash mumkin: *Qonuniylik* – huquq subyektlarining amaldagi qonunlarga aniq va bir xilda rioya qilishlarini anglatuvchi, huquqiy demokratik davlatning mohiyatiga xos rahbariy g'oyadir. Qonuniylik amalda o'z ifodasini topgandagina, huquqiy qadriyat darajasiga ko'tariladi. O'z navbatida, huquqning qadriyat tarzida e'tirof etilishida qonuniylik prinsipi muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy tartibotning yagonaligi prinsipiga ko'ra mamlakatning butun hududida yagona huquqiy muhit, huquqiy tartib o'rnatiladi, mazkur huquqiy tartibotga to'g'ri kelmaydigan boshqa tarzdagi tartib o'rnatish qat'iyan man etiladi.

Ierarxiyaga asoslanganligi – huquqiy tartibotni amalga oshirishda ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari normativ-huquqiy hujjatlarning pog'onama-pog'ona joylashganligi prinsipiga rioya etishini anglatadi.

Adolatlilik – huquqiy tartibotning asosiy prinsipi hisoblanadi. Jamiyatda o'rnatilgan huquqiy tartibot adolat g'oyasi bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim, shundagina jamiyat a'zolari bunday huquqiy tartibotga ixtiyoriy rioya qilishlari mumkin. Huquqiy tartibotning jamiyat barcha a'zolari uchun maqbul bo'lishi talab etiladi.

Huquqiy tartibotning kafolatlanganligi – jamiyatda o'rnatilgan har qanday huquqiy tartib davlatning tashkilotchilik faoliyati va majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. Huquqiy tartibotni ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yetakchi o'rinni egallaydi. Sud, prokuratura va ichki ishlar organlari o'zlarining kundalik faoliyatida jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vazifalarini amalga oshiradilar va shu yo'l bilan jamiyatda huquqiy tartibot o'rnatadilar.

Huquqiy tartibotning normativligi – jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning amalga oshishi hammaga birdek majburiy bo'lgan huquqiy normalar orqali tartibga solinadi; huquqiy munosabat subyektlari va ularning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlari doirasi hamda huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi yuridik faktlar qonun bilan belgilanadi; huquqiy munosabat ishtirokchilarining harakatlari aniqlashtiriladi.

¹ Qarang: Байтин М.И. Принцип всеобщего равенства перед законом и судом в свете концепции единства естественного и позитивного права // Государство и право. – 2005. – № 8. – 101-бет.

Nazoratga olinganligi. Huquqiy tartibot davlat va jamiyat tomonidan o'rnatiladi va nazoratga olinadi. Huquqiy tartibot o'rnatilgan jamiyatda inson huquq va erkinliklariga rioya etiladi, fuqarolar o'z majburiyatlarini ixtiyoriy bajaradilar. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy xulq-atvorini amalga oshirishga, qonun va qonun osti hujjatlarini sifatli tarzda yaratishga hamda huquqni to'g'ri tatbiq etishga erishiladi. Yuqorida qayd etilgan prinsiplarga tayangan holda jamiyatda huquqiy tartibot o'rnatiladi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy tartibotni turlarga ajratish, ya'ni tasniflash mavjud va u bir necha shakllarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, hududiy miqyosiga ko'ra mamlakat, viloyat va tuman miqyosida o'rnatilgan huquqiy tartibot;

ikkinchidan, huquq sohasiga ko'ra: konstitutsiyaviy, moliyaviy, ma'muriy, jinoiy-huquqiy va boshqa huquq sohalari doirasida o'rnatilgan huquqiy tartibot;

uchinchidan, huquqiy ta'siriga ko'ra umumhuquqiy, sohaviy va alohida normalar bilan o'rnatiladigan huquqiy tartibot.

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish muayyan tartibni joriy qilish, kishilarning o'zaro munosabatlarida mustahkam intizomni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Jamiyatda qonuniylik, jamoat va huquqiy tartibotning ta'minlanishiga kuchli intizom orqali erishiladi.

Intizom – davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek korxonalar va muassasalarda o'rnatilgan, amal qilinishi lozim bo'lgan ichki kun tartibi qoidalardir. Huquqshunoslikda intizomni tasniflashning ko'p turlari bo'lib, ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Bular *davlat intizomi, harbiy intizom va mehnat intizomi* kabi turlardan iborat.

Davlat intizomi – davlat tomonidan o'rnatilgan va shu hududda yashovchi barcha fuqarolar uchun majburiy ahamiyatga ega tartib-qoidalarga rioya etishdir. Davlat intizomi muayyan davlat hududida o'rnatiladi, mazkur davlat fuqarolari uchun taalluqli bo'ladi. Intizomni buzish yuridik oqibatlarini keltirib chiqaradi, o'rnatilgan intizom davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Harbiy intizom deganda barcha harbiy xizmatchilarning harbiy nizomlar, komandirlar(boshliqlar)ning buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy va aniq rioya etishi tushuniladi. Harbiy intizomga harbiy burch, shaxsiy mas'uliyat va mislsiz sadoqat kabi omillar orqali erishiladi.

Yuksak harbiy intizomga erishishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda ifodalanadi:

- harbiy xizmatchilarda yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarini tarbiyalash, komandirlarning buyruqlariga ongli tarzda bo'ysunish;

- har bir harbiy xizmatchining o'z majburiyatlari va harbiy nizomlar talablarini bajarish mas'uliyati;

– harbiy qismda ichki tartibga bo‘ysunish, barcha harbiy xizmatchilar tomonidan kun tartibiga qat’iy rioya qilish;

– jangovar tayyorgarlikni puxta tashkil etish va u barcha shaxsiy tarkibni qamrab olishi.

Harbiy intizom qo‘mondonlarning o‘z qo‘l ostidagilarga kundalik talabchanligi, xizmatchilarning ijro intizomini nazorat qilish, harbiy xizmatchilarning sha’nini hurmat qilish va bu haqda doimo g‘amxo‘rlik, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta’sirini oqilona uyg‘unlashtirish va o‘rinli qo‘llash kabi omillarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Mehnat intizomi deganda, mehnat jamoalarining, har bir xodimning mehnatga munosabati, xatti-harakatlarining belgilangan tartibi tushuniladi.

Mehnat intizomi korxonada (muassasa, tashkilot) rahbariyati tomonidan o‘rnatiladi va unga barcha xodimlarning rioya etishi majburiydir. O‘rnatilgan intizomning buzilishi xodimlarni *tanbeh, hayfsan hamda mehnat shartnomasini bekor qilish* kabi intizomiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

Demak, intizom qonuniylik, huquqiy tartibot va jamoat tartibining uzviy, tarkibiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Jamiyat a‘zolarining alohida guruhlarida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilot, korxonada, harbiy qismlar va boshqalarda intizomning o‘rnatilishi, butun jamiyatda qonuniylik, huquqiy tartibot va jamoat tartibining o‘rnatilishiga ko‘maklashadi.

Shunday qilib, muayyan davlat va jamiyat taraqqiyoti inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ta‘minlanishi, qonuniylik talablarining qat’iy ravishda bajarilishi, jamiyatda huquqiy tartibot va jamoat tartibining qaror topishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

XXII bob. YURIDIK IXTILOF (KOLLIZIYA)

1-§. Yuridik ixtiloflarning tushunchasi, sabablari va oqibatlari

Mustahkam qonuniylik va barqaror huquqiy tartibotni ta'minlash har qanday jamiyat va davlatning diqqat-e'tibori markazida turgan masaladir. Yangi jamiyat barpo etishga yo'naltirilgan jo'shqin islohotlar va modernizatsiyalash sharoitida keng ko'lamli huquq ijodkorligi, shu jumladan qonun chiqarish faoliyati amalga oshirilmogda. Buning natijasida huquqning barcha tarmoqlari bo'yicha nihoyatda katta hajmdagi normativ-huquqiy hujjatlar majmui vujudga keladi. Boshqacha aytganda, o'ta murakkab, ko'p tarmoqli qonunchilik tizimi qaror topadi. Shiddat bilan rivojlanib, tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ehtiyojlariga javob tarzida yaratilayotgan normativ hujjatlar va ularda mustahkamlangan huquqiy qoidalar o'rtasida ba'zan nomutanosibliklar, noaniqliklar, kelishmovchiliklar, hatto qarama-qarshiliklar (ixtilof, ziddiyat, kolliziyalar) uchrashi tabiiy.

Qolaversa, so'nggi yillarda huquqni talqin etishda sotsiologik yo'nalish ustuvor mavqega ega bo'lib bormogda. Sotsiologik yondashuv nafaqat huquqning kelib chiqish sabablarini, jamiyat hayotida adolat va tenglikni ta'minlashda o'ynaydigan ijobiy rolini, balki uning kamchiliklarini, salbiy jihatlarini salmoqli empirik asosga tayangan holda xolisona ochish imkonini beradi. Ijtimoiy hodisalar-ni sotsiologik tahlil etish vositasida ularning barcha jihatlarini kompleks tarzda aniqlash mumkin. Sotsiologiyaning maqsadi barcha ijtimoiy hodisalar kabi huquqning jamiyat hayotidagi ahamiyatini, unga batartiblik, barqarorlik, uyushqoqlik baxsh etuvchi qadriyat ekanligini ko'rsatishdan iborat. Ogyust Kontning e'tiroficha, tartib va barqarorlik jamiyat borlig'ining namoyon bo'lishidir. Dyurkgeym esa, sotsiologiyaning asosiy xizmatini jamiyatning qadriyatli normativ sistemalarini tahlil qilish va tadqiq etishning metodlarini ishlab chiqishda, deb bildi¹. Sotsiologiya jamiyat va huquq amal qilishidagi ziddiyatlar, kamchiliklar va salbiy hodisalar-ni aniqlashga yordam beradi.

Yuridik ziddiyatlar, o'z yechimini topmay qolayotgan muammolar hamda kamchiliklarning ko'lamli «*yuridik kolliziya*» va «*yuridik konflikt*» kategori-

¹ Qarang: Falsafa: qomusiy lug'at. – T., 2004. – 374-bet.

yalari ma'no-mazmunini ilmiy tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Boz ustiga, qonunchilik hujjatlarida «kollizion normalar», «kelishmovchiliklarni bartaraf etish protseduralari» kabi huquqiy institutlarning paydo bo'layotganligi ham mazkur voqealar xususida ilmiy tadqiqotlar olib borish lozimligini dolzarb qilib qo'ymoqda. Yuridik adabiyotda esa, huquqning alohida tarmog'i – *kollizion huquq* vujudga kelayotganligi haqida nazariy mulohazalar bildirilmoqda. Bu hol mazkur huquq tarmog'ida asosiy, sistema hosil qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan tushunchalar: yuridik ixtilof va yuridik nizoning mazmuni hamda ta'rifini aniqlash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Yuridik ensiklopedik lug'atda tavsif berilishicha, kollizion normalar (fransuzcha «conflits de lois», inglizcha «conflits of laws» so'zlaridan olingan bo'lib nizo, to'qnashuv degan ma'noni anglatadi) xalqaro xususiy huquq sohasida uchraydigan bir necha normalar bo'lib, ular ma'lum bir masalani tartibga solish jarayonida to'qnashadi¹.

Professor Yu.A. Tixomirovning fikriga ko'ra, *yuridik ixtilof (kolliziya)* deganda, amaldagi huquqiy hujjatlar bilan huquqiy tartibot va talablar, ularni o'zgartirish, e'tirof etish yoki rad etish bo'yicha harakatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik (ziddiyat) tushuniladi. *Yuridik nizo (konflikt)* esa, siyosiy, ijtimoiy kuchlar bilan davlat, jamoat tuzilmalari o'rtasidagi g'ayrikonstitutsiyaviy qarama-qarshi kurashdir².

Ayni vaqtda, ijtimoiy hayotdagi nizolarni hal etish va yuridik amaliyotdagi ziddiyatlar, kamchiliklar, nomutanosibliklarni hal etish asnosida yangi ilmiy yo'nalish – *yuridik konfliktologiya* shakllanmoqda. Uning asosida yuridik konflikt(nizo)ning huquqiy belgilanishi, huquqiy shaklga ega bo'lishi yotadi. Bunda har qanday nizoga xos elementlar (ishtirokchilar, motiv-maqсад, sabab, obyekt, jarayon va hokazolar) mavjud bo'ladi. Yuridik konfliktda nizo (bahs) tomonlarning huquqiy munosabati bilan bog'liq, bunda subyektlar va ular xatti-harakatining motiv-maqсадlari, obyektlari huquqiy xususiyatlarga, nizoning o'zi esa, yuridik oqibatlariga ega bo'ladi.

Davlat va huquq umumiy nazariyasi bo'yicha akademik kurs mualliflari talqiniga binoan, *yuridik ixtilof* deganda, ayni bir yoki o'xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi nomutanosiblik yoki qarama-qarshilik, shuningdek huquqni qo'llash bilan mutasaddi davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida kelib chiquvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi³.

¹ Российская юридическая энциклопедия. Глав. ред. А.Я. Сухарев. – М., 1999. – 437–438-бетлар.

² Qarang: Теория государства и права / Под ред. проф. В.К. Бабаева. – М., 2006. – 503–504-бетлар.

³ Qarang: Общая теория государства и права. Академический курс / Под ред. проф. М.Н. Марченко.

Ma'lumki, qonunchilik murakkab, ko'p tarmoqli tuzilma bo'lib, unda turli nomutanosiblik, nomuvofiqlik, har xillik, o'zaro zid qoidalar, raqobatlashuvchi normalar va institutlar mavjud. So'nggi yillarda mamlakatimiz qonunchiligi bozor munosabatlarini qaror toptirish yo'nalishida rivojlanib, miqdor jihatdan o'sib bormoqda. Bunda ijobiy siljishlar bilan bir qatorda islohot talablari-dan, ijtimoiy jarayonlardan ortda qolish tendensiyalari ham kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi qonunlarimizda bir-biriga zid o'rinlar ham yo'q emas»¹. Yana bir chiqishda davlat rahbari: «Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarini bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda»² – dedi. Qonunlarimiz o'tish davri ruhini aks ettirib, muayyan nobarqarorlik kasb etmoqda, ya'ni ular tez-tez o'zgartirilib, to'ldirilib, yangi tahrirda qayta qabul qilinib kelmoqda. Davr talablaridan kelib chiqqan holda yuridik normalarning kattagina qismini tuzatish, yangi hayotiy voqeliklarga muvofiqlashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, samaradorligini oshirish, batartiblashtirish lozimligi ayondir. Bundan tashqari, qonunchilikning umumiy tizimida turli darajadagi va har xil ahamiyatli, turli yuridik kuchga hamda ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan hujjatlar amal qiladi, shuningdek *unifikatsiya* (bir xillashtirish) va *differensiatsiya* (turkumlashtirish), *birlashtirish* va *alohidalash* jarayonlari kechmoqda, vertikal va gorizontaal aloqa va tendensiyalar birikib ketishi yuz bermoqda. Shu nuqtayi nazardan xulosa qilganda, qonunchilik jo'shqin, tig'iz rivojlanuvchi, ayni vaqtda, ziddiyatli va asimmetrik (nomutanosib) tizim sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Ijtimoiy hayotda ba'zan shunday vaziyatlar bo'ladiki, ularni hal etish tartibi bir vaqtning o'zida bir necha normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan bo'ladi. Masalan, boquvchining vafot etganligi munosabati bilan zararni to'lash tartibi ayni vaqtda ham O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 192-moddasida, ham O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1009-moddasida nazarda tutilgan. Ammo, ushbu moddalar masalani hal etishga bir xilda yondashmagan. Fuqarolik kodeksining 1009-moddasining III qismiga muvofiq boquvchining o'limi munosabati bilan zarar: voyaga yetmaganlarga – o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar; o'n sakkiz yoshdan oshgan o'quvchilarga – o'quvning kunduzgi shaklida o'qishni tugatgunga qadar, biroq yigirma uch yoshdan oshmaguncha to'lanadi. Biroq, Mehnat kodeksining 192-moddasi V qismida

¹ Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak // Xalq so'zi, 2017-yil 13-iyul.

² Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 8-bet.

o'n olti yoshdagi va undan katta o'quvchilar o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida o'qishni tugatgunlaricha, lekin o'n sakkiz yoshga qadar bo'lgan davrda, zararni undirish huquqiga egadirlar, deb belgilangan.

Bu ikki yuridik norma o'rtasida ziddiyat mavjud: 1009-modda zarar undirish yoshi chegarasini yigirma uch yoshgacha, 192-modda – 18 yoshgacha, deb belgilagan. Ushbu nomuvofiqlik (kolliziya) ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ko'rib chiqib, 2008-yil 21-oktabrda matbuotda o'z xulosasini e'lon qilgan. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi boquvchining o'limi munosabati bilan zararni to'lash tartibini belgilovchi normalaridagi mazkur farq ushbu normalarning amaliyotda qo'llanilishida jiddiy qiyinchiliklarga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi mazkur ixtilofli ishni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 192-moddasining normalarini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1009-moddasining normalariga muvofiqlashtirish lozim, degan xulosaga keldi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga asoslangan holda Mehnat kodeksining 192-moddasiga o'quvning kunduzgi shaklida ta'lim olayotgan shaxslarning ular 23 yoshga yetgunga qadar boquvchining o'limi munosabati bilan zararni undirish huquqini belgilovchi o'zgartish kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyahasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi tartibda kiritish to'g'risida qaror qabul qildi¹.

Bunda huquqiy tartibga solish mavzesining bir nuqtasida bir necha normalar to'qnashuvi yuz beradi. Ba'zan esa, buning aksi bo'ladi, ya'ni muayyan muammoli munosabatni bevosita tartibga soladigan yuridik norma mavjud bo'lmaydi. Har qanday ixtilofni bartaraf etish uchun huquqni sharhlovchi yoki huquqni qo'llovchi shaxsdan yuksak kasb malakasi, ish holatini aniq tahlil etish, eng maqsadga muvofiq qaror variantini tanlab olish talab etiladi. Qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda, odatda, yangi normalar – ya'ni, kollizion normalarni qabul qilish yordam beradi. Masalan, 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 71-bobi «Kollizion normalar» deb atalib, unda fuqarolik huquqining asosiy institutlari bo'yicha kodeksdagi moddalarni qo'llashda ziddiyat kelib chiqqanda qaysi qonunlarni qo'llash belgilangan.

Yuridik ixtiloflar, shubhasiz, huquqiy tizimning barqaror va batartib faoliyat yuritishiga xalaqit beradi, aksariyat hollarda fuqarolarning huquqlari buzilishiga olib keladi, huquqiy tartibga solishning samarasiga, qonuniylik va huquqiy tartibotga, jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir

¹ Xalq so'zi, 2008-yil 21-oktabr.

ko'rsatadi. Ular huquqni qo'llash amaliyotida noqulayliklar keltirib chiqaradi, oddiy fuqarolarning qonunchilikdan foydalanishini qiyinlashtiradi, huquqiy nihilizm ildiz otishiga yo'l ochadi. Basharti, bitta holatni tartibga soluvchi ikki, uch yoki undan ko'p o'zaro qarama-qarshi hujjatlar bo'lsa, ijro etuvchi subyektlar ularning hech biriga rioya etmaslik imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois bunday ixtiloflarning oldini olish, yumshatish yoki bartaraf etish yuridik fan va amaliyot oldida turgan muhim vazifadir.

Huquqiy normalarning ixtiloflashuvidan ularning raqobatlashuvini farqlash lozim. **Raqobatlashuvchi normalar** deganda, o'zaro qarama-qarshi bo'lmagan, faqat turlicha aniqlik darajasi va hajmi jihatdan farqlanuvchi ikki, uch va undan ortiq normalarning bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi tushuniladi. Bular, odatda, turli yuridik kuchga ega bo'lgan, har xil darajadagi huquq ijodkorligi organlari tomonidan qabul qilingan normalardir. Yuridik normalarning raqobatlashuvi aslida normal holatdir. Biroq, bundan farqli o'laroq normalar ixtilofi salbiy holat bo'lib, ko'pincha noxush oqibatlariga olib keladi. Ixtiloflashuvchi normalar o'zaro kelisha olmaydilar, bir-birini istisno etadilar.

Yuridik ixtiloflarning sabablari ham obyektiv, ham subyektiv xususiyatga ega. **Obyektiv sabablar** qatoriga huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ichki ziddiyati, jo'shqinligi va o'zgaruvchanligi, ularning to'lqinsimon notekis rivojlanishi kiradi. Bunda huquq ijtimoiy munosabatlarning, umuman hayotning rivojlanish darajasidan ortda qoladi (konservativ bo'lib, ma'naviy eskiradi). Shu bois huquq doimiy ravishda «tuzatilib», takomillashtirilib, yangi hayotiy vaziyatlarga moslashtirilib boriladi. Buning natijasida ayrim normalar bekor qilinib, o'rniga yangilari paydo bo'lib turadi. Eskirgan normalar o'z vaqtida bekor qilinmagan taqdirda, ular bilan yangi normalar o'rtasida ixtiloflar kelib chiqishi mumkin. Shu o'rinda ijtimoiy munosabatlarning mazmunan turli-tumanligiga, ularning har biri o'ziga xos tarzda huquqiy tartibga solinishiga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ijtimoiy munosabatlar doimo qonunlardan ildamroq rivojlanib borishini e'tirof etish lozim. Qolaversa, ijtimoiy munosabatlar huquqiy va nohuquqiy tartibga solish sohalari o'rtasidagi chegara ham o'zgarib turadi. Va nihoyat, har qanday milliy huquqiy tizim xalqaro standartlarga, ma'naviy-gumanistik mezonlarga, demokratiya prinsiplariga muvofiq bo'lishi kerak.

Sanab o'tilgan omillar qaysidir ma'noda yuridik ixtiloflar paydo bo'lishini tabiiy va muqarrar qiladi. Yu.A. Tixomirovning fikricha, yuridik ixtiloflarni faqat salbiy holat sifatida qabul qilish ularni xolisona baholashga halaqit qiladi. «Kolliziyalar qator hollarda ijobiy rag'bat berishi, taraqqiyotga bo'lgan ehtiyojni,

yangi huquqiy holatga o'tish talabini ifoda etishi mumkin»¹. Darhaqiqat, dialektikaning *qarama-qarshiliklar birligi va kurashi taraqqiyotga turtki beradi*, degan qoidasini hech kim inkor etmaydi.

Yuridik ixtiloflar taraqqiyotga ijobiy turtki berishi quyidagilarda ko'rinadi: *birinchidan*, yuridik ixtilof huquqiy tizim yoki uning ayrim elementlaridagi, davlat institutlari, xo'jalik yuritish shaklidagi deformatsiya (buzilish) ni aks ettiradi; *ikkinchidan*, yuridik ixtilof davlat-huquqiy institutlar ijobiy faoliyati va rivojlanishidagi tabiiy qarama-qarshiliklarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi; *uchinchidan*, yuridik ixtilof yangi huquqiy tartibotga o'tish yoki konstitutsiyaviy tuzumni himoya etishga oid adolatli talablarni ifodalashi va shu tariqa beboshlik, g'ayriqonuniy harakatlar va hujjatlardan norozilikni bayon etadi.

O'z davrida G. Gegel shunday degan edi: «... qonunlarni qo'llashda ixtiloflarning kelib chiqishi tamomila zarur holatdir, aks holda ishlarni yuritish mexanik xususiyatga ega bo'lib qoladi. Agar yuristlar masalalarni hal etishni sudyalari ixtiyoriga berish bilan ixtiloflardan qutilish mumkin degan xulosaga kelgan bo'lsalar, buni ma'qullab bo'lmaydi, zero qarorlarni faqat sudyalari qabul qilishining oqibati beboshlik bo'lishi mumkin»².

Huquqiy hayotdagi ixtiloflarning *subyektiv sabablari* siyosatchilar, qonun yaratuvchilar va hokimiyat vakillarining, bir so'z bilan aytganda, insonlarning irodasi va ongi bilan bog'liqdir. Bular, masalan, qonun sifatining pastligi, huquq sohasida tartibga solinmagan bo'shliqlarning mavjudligi, norma yaratish faoliyatining muvofiqlashtirilmaganligi, huquqiy materialning tizimlashtirilmaganligi, huquqiy madaniyatning sayozligi, yuridik nigilizm mavjudligi, ijtimoiy tanglik holatlarining paydo bo'lishi va hokazolalar.

Huquqshunoslikka oid adabiyotlarda huquqning yangi tarmog'i – *kollizion huquqni* shakllantirish vaqti yetdi, degan mulohazalar mavjud. Ta'kidlanishicha, kollizion huquqning o'z predmeti, prinsiplari va huquqiy tartibga solish tizimi qaror topib bormoqda. Chamasi, bu huquq tarmog'i yuridik ixtilof va nizolarning barcha turlarini hal etishni, ularning sabablarini, vujudga kelish va namoyon bo'lish dinamikasini, rivojlanish bosqichlarini o'z qamroviga olishi lozim.

Yuridik ixtiloflar aksariyat hollarda ijtimoiy hayotda va yuridik amaliyotda jiddiy salbiy oqibatlariga olib keladi. Yuridik qarama-qarshilik, nomutanosiblik va ixtiloflar huquqiy tizimning bir maromda, bahamjihat faoliyat yuritishiga halal beradi, qator hollarda esa fuqarolarning huquqlari buzilishiga, huquqiy tartibga solishning samaradorligi pasayishiga sabab bo'ladi. Eng xavotirlisi

¹ Qarang: Тихомиров Ю.А. Юридическая коллизия: власть и правопорядок // «Государство и право», 1994. № 1. – 4-бет.

² Qarang: Гегель Г. Философия права. – М., 1990. – 249-бет.

shundaki, huquq sohasidagi ixtiloflar jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot rejimiga putur yetkazadi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ixtiloflar huquqni qo'llash amaliyotida noqulayliklar keltirib chiqaradi, fuqarolar tomonidan qonunchilik normalaridan foydalanishni qiyinlashtiradi, aholi orasida huquqiy nigilizm kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Yuridik ixtiloflarning salbiy oqibatlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1) ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar; 2) ijtimoiy-siyosiy oqibatlar; 3) ma'naviy-ruhiy oqibatlar; 4) huquqiy oqibatlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar subyektlar o'rtasida mulkiy nizolarning kelib chiqishiga, ularning moddiy zarar ko'rishiga, moliyaviy va soliq munosabatlarida nomutanosibliklar yuz berishi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy oqibatlar davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini to'la va lozim darajada ado etishlariga halal berishiga, mansab lavozimlarining suiiste'mol qilinishiga, fuqarolarning siyosiy huquqlari buzilishiga, siyosiy tizimda ziddiyatli holatlar vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

Ma'naviy-ruhiy oqibatlar jamiyatda qaror topgan madaniy, ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlar amal qilishiga putur yetkazishi, shuningdek huquq subyektlariga ma'naviy zarar yetkazilishi bilan ifodalanishi mumkin. Huquqiy oqibatlar ham jiddiy zarar bilan ifodalanishi tabiiy. Bunda huquqiy ongda deformatsiya (buzilish) holatlari namoyon bo'ladi, huquqiy nigilizm ildiz otadi, huquqiy madaniyat zavol topadi, qonun ustuvorligi yetarli ta'minlanmaydi, qonunchilik hujjatlarining samaradorligi pasayadi va hokazo.

Demak, yuridik ixtiloflarning oqibatlari jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy zarar keltirishi mumkin. Shu bois, bunday ixtiloflarning oldini olishning samarali mexanizmlarini qaror toptirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2-§. Yuridik ixtiloflarning turlari

Yuridik ixtiloflar nafaqat ko'p sonli, balki o'z mazmuni, xususiyatlari, keskinligi, sohaviy mansubligi, ijtimoiy-siyosiy yo'nalishi, shakli va hal etilish usuliga ko'ra nihoyatda turli-tumandir.

Ilmiy tahlil yo'nalishini belgilash ma'nosida, avvalo, yuridik ixtiloflarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) normativ-huquqiy hujjatlar yoki alohida yuridik normalar o'rtasidagi ixtiloflar; 2) huquq ijodkorligidagi ixtiloflar (tizimning yo'qligi yoki sustligi, muvoziylik, o'zaro bir-birini inkor qiluvchi hujjatlarining chiqarilishi); 3) huquqni qo'llash jarayonidagi ixtiloflar (ayni bir toifa munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan bir necha hujjatlar yoki normalarni qo'llash); 4) davlat organlari, mansabdor shaxslar, boshqa hokimiyat

tuzilmalari vakolatlari va maqomidagi ixtiloflar; 5) maqsadlar o'rtasidagi ixtiloflar (turli darajadagi yoki turli idoralar qabul qilgan normativ hujjatlarda mustahkamlangan maqsadlarning bir-biriga qarama-qarshiligi, ba'zan esa o'zaro istisno etishi); 6) milliy va xalqaro huquq normalari o'rtasidagi ixtilof.

Yuridik ixtiloflarning tasnifini ikki yo'nalishda tahlil etish mumkin: *birinchisi* – huquqiy normalar, prinsiplar, ko'rsatma (qoida) lar o'rtasida vujudga keladigan ixtiloflar; *ikkinchisi* – huquqiy faoliyat doirasida (huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va shu kabi boshqa faoliyatda) vujudga keladigan ixtiloflar. Birinchi jihatni shartli ravishda *institutsiyaviy*, ya'ni qonunchilik tizimi elementlari o'rtasidagi ixtiloflar, deb atash mumkin. Ikkinchi jihatga huquqiy tartibga solish jarayonida, huquq subyektlarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'luvchi, ya'ni *protsessual-protseduraga* oid ixtiloflarni kiritish mumkin. Protsessual tartib-taomillar darajasidagi ixtiloflar huquq subyektlarining manfaatlarini o'rtasidagi masalan, sud jarayoni ishtirokchilari, yo'l harakati tasodiflari ishtirokchilari o'rtasidagi nizolar tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Yuridik ixtiloflarning quyidagi turlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. *Qonunlar va qonun osti hujjatlar o'rtasidagi ixtiloflar.* Basharti, mazkur turdagi ixtiloflar yuzaga kelsa, masala qonun foydasiga hal etiladi. Chunki, qonun yuqori yuridik kuchga ega va uning ustunligi ta'minlanishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 va 16-moddalari). Kodeks bilan qonun o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan taqdirda, masala kodeks foydasiga hal etiladi. Bir mavzuga oid bir necha qonun (yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat) mavjud bo'lsa hamda ular bir-biriga zid bo'lib qolsa, muddati bo'yicha keyinroq qabul qilingan qonun (hujjat) qoidalari amal qiladi¹.

2. *Konstitutsiya bilan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ixtiloflar.* Bunday yuridik ixtiloflar Konstitutsiya foydasiga hal etiladi, chunki Konstitutsiya barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasi ikkinchi qismida mustahkamlanganidek, «birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalarga zid keliishi mumkin emas».

3. *O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ixtiloflar.* Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas (74-modda). O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir. Shunday qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston

¹ Qarang: Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T., 2008. – 111-bet.

Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga to‘la mos bo‘lishi shart.

4. *Mamlakatning milliy qonunchiligi normalari bilan xalqaro huquq normalari o‘rtasidagi ixtiloflar.* O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mustahkamlanganidek, O‘zbekistonda xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 3-moddasida xalqaro huquqning ustuvorligi belgilangan. Mazkur normaning mazmuni quyidagicha: «Basharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi». O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida esa, «Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq qilish» degan bo‘lim mavjud. Unda, xususan, quyidagi qoida mustahkamlangan:

- chet el fuqarolari yoki chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi yoxud chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquq ushbu Kodeks, boshqa qonunlar, xalqaro shartnomalar va e‘tirof etilgan xalqaro taomillar asosida, shuningdek, taraflarning kelishuvi asosida belgilanadi;

- taraflarning huquqni tanlashga doir kelishuvi ochiq ifodalangan bo‘lishi yoki bevosita shartnoma talablaridan va ishning ko‘rib chiqilayotgan barcha holatlaridan kelib chiqishi lozim;

- agar ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquqni aniqlashning imkoni bo‘lmasa, chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan eng uzviy bog‘langan huquq qo‘llanadi;

- chet el huquq normasi ommaviy-huquqiy xususiyatga ega bo‘lganligiga asoslanibgina uni qo‘llashni cheklash mumkin emas.

Xalqaro huquq normalarini mamlakatimizda qo‘llashda yoki ularni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilishda, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlaridan kelib chiqib ish tutiladi.

Kundalik hayotda yuridik sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ixtilof va ziddiyatlarning oldini olish uchun barcha davlat organlari bunday nomutanosiblik hamda nizolarning kelib chiqishi sabablarini va mazmunini o‘z vaqtida aniqlab borishlari lozim. Buning uchun ular o‘z faoliyat yo‘nalishlari va vakolatlari doirasida tegishli axborotlarni to‘plab, tahlil etib borishlari zarur:

- a) turli davlat organlari va mansabdor shaxslarning vakolatlari borasidagi kelishmovchiliklar haqida;

b) ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va nodavlat jamoat birlashmalari manfaatlarining qarama-qarshiligi va ta'siri haqida;

d) davlat organlarining o'zaro nomuvofiq faoliyati (harakatlari) to'g'risida;

e) davlat organlari o'z vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda qaror qabul qilganligi, boshqa organning vakolati sohasiga aralashganligi haqida;

f) davlat organlari faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan holatlar haqida;

g) siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy keskinlik hamda nizolar haqida ma'lumotlarni aniqlab, kuzatib va tahlil etib borish talab etiladi.

Davlat organlari ixtilof va nizolarning oldini olish maqsadida qonuniylikning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar yuzasidan tegishli idoralarga (sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari va boshqalarga) murojaat etish huquqiga egadirlar. Shu bilan birga o'z imkoniyatlari doirasida ziddiyatli vaziyatni yumshatish hamda murosai madoraga kelishning boshqa choralari izlashlari lozim.

Tegishli davlat organlari ixtilofli vaziyat avj olishiga chek qo'yish maqsadida bunday holatlarning sabablarini, ishtirokchilarini, ularning niyatlari va xatti-harakatlarini sinchiklab o'rganishlari darkor. Manfaatdor davlat idoralarining rahbarlari nizoli masalalar yuzasidan muzokaralar olib borishi yoki o'zlarining vakolatli vakillarini ajratib muhokama qilishi va kelishuvga erishish choralari ko'rishlari lozim. O'zaro kelishuv asosida qabul qilingan qaror ularning keyingi faoliyatida dasturilamal bo'lishi lozim. Shunday yo'l tutilganda huquqiy munosabatlar sohasida ixtiloflarning oldi olinadi yoki ularning ancha kamayishiga erishiladi.

3-§. Yuridik ixtiloflarni hal etish tartibi va usullari

Ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan har qanday nizo huquqiy o'zanga solinishi lozim. Zero, mojaro yoki muammoli vaziyatga huquq vositasida yechim izlash doimo oshkora tartib-taomillardan foydalanish va eng oqilona qarorga kelish imkonini beradi. Bunday tartib-taomillarni ijtimoiy vazifasi va foydalanish o'rniga ko'ra ikki katta guruhga bo'lish mumkin: – **kelishuv tartib-taomillari** va **sud tartib-taomillari** (protseduralari). Birinchi guruh tartiblar kelishmovchiliklarni avtonom, mustaqil tarzda bartaraf etish, ikkinchi guruh tartiblar esa, tomonlar o'rtasidagi nizoni vakolatli organ ishtirokida ko'rib chiqish va hal etish uchun qo'llaniladi. Dastlab kelishuv protseduralari ko'rib chiqamiz. Turmushda vujudga keluvchi ziddiyatlarni, mojarolarni bartaraf etishdagi birinchi qadam – tomonlar (shariklar) o'rtasida bitimga, kelishuvga erishish. Buning uchun turli kelishuv protseduralaridan foydalaniladi.

Kelishuv protsedurasi deganda, davlat hokimiyati organlari, boshqa subyektlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning ixtiyoriy e'tirof etilgan huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan tartibi tushuniladi. Kelishuv protseduralarining quyidagi turlari mavjud.

Birinchidan, yuridik ixtiloflarni ko'rib chiqish va bartaraf etish uchun davlat organlari tenglik (paritet) asosida kelishtiruv komissiyalarini tuzadilar. Kelishuv komissiyalarining ishlash tartibi va ular tomonidan kelishuv qarorlarini qabul qilish shartlari tomonlarning (tegishli davlat organlarining) imzosi bilan mustahkamlangan bayonnomada yoki ikki tomonlama shartnoma (bitim) da belgilanadi.

Ikkinchidan, parlament palatalari o'rtasida ixtilof yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelganida kelishuv komissiyasini tuzish qonunchilikda nazarda tutilgan institutdir. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarda, shuningdek palatalarning Reglamentlari to'g'risidagi qonunlarda kelishuv komissiyasiga bag'ishlangan qoidalar mavjud. Masalan, quyi palata to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunda quyidagi qoida mustahkamlangan:

«Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Kelishuv komissiyasining har bir palatada ko'rsatilgan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning hamraisini saylaydi.

Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi qonunning Senat e'tiroz bildirmagan ayrim moddalarini tahririni o'zgartirish to'g'risida, agar bunday o'zgartirishni Senatning takliflari asosida ishlab chiqilgan qonun moddalarining tahriri taqozo etadigan bo'lsa, qaror qabul qilishga haqli. Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasini tuzish tartibi, komissiyaning tarkibi va ishi Reglamentda belgilanadi».

Uchinchidan, tashkilotlar o'rtasida nizo kelib chiqqanda hakamlik surishtiruvlari o'tkazish ham mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni 2006-yil 8-fevralda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, shu yil 25-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan. Mazkur qonunga binoan, hakamlik sudi fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi xo'jalik nizolarini hal etuvchi nodavlat organdir.

O'zbekiston Respublikasida *doimiy* faoliyat ko'rsatuvchi va *muvaqqat* hakamlik sudlari tashkil etilishi mumkin. Doimiy hakamlik sudi yuridik shaxs tomonidan tashkil etilib, uning huzurida faoliyat ko'rsatadi. Muvaqqat hakamlik sudi hakamlik bitimi taraflari o'rtasida kelib chiqqan muayyan nizoni hal etish uchun ular tomonidan tashkil etilib, nizo ko'rib chiqilganidan keyin o'z faoliyatini tugatadi.

Hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi. Hakamlik sudining tarkibini shakllantirish tartibi, hakamlik sudyasiga qo'yiladigan talablar, doimiy va muvaqqat hakamlik sudlari faoliyatini tugatish asoslari, hakamlik tartibida nizolarni hal etish tartib-taomillari qonunda mufassal belgilangan¹.

Yuridik ixtiloflar, nizo va kelishmovchiliklarni hal etishda *sud protseduralari* ham muhim o'rin tutadi. Xususan, umumiy yurisdiksiya sudlari Fuqarolik protsessual kodeksi asosida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasiga oid ishlarni ko'rib, hal etadilar. Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartib-taomillar nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlariga oid nizolarni, balki mehnat-huquqiy, oilaviy-huquqiy, ba'zi yer-huquqiy munosabatlarda, shuningdek xususiy huquq sohasiga oid boshqa munosabatlarda kelib chiqadigan nizolarni ko'rib, hal etish uchun qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas. Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buyruq tartibidagi ishlarni, da'vo tartibidagi ishlarni, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarni hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan

¹ «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2006-yil, 10-son, 541-modda.

manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdan iboratdir (FPKning 4-m, I-q.).

Shu o'rinda alohida e'tiborga molik yana bir institutga to'xtalish lozim. Ya'ni, ishlarni sudda ko'rish jarayonida kelishuv bitimiga erishish. Horijiy mamlakatlar amaliyotida sulhparvar sudlar («miroviye sudi») va ikki tomonning kelishuvi bilan bitimga erishish instituti mavjud. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ham kelishuv bitimi instituti mustahkamlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 100-moddasining 4-bandiga binoan taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo'lsalar va u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa ish yuritishni tugatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksida ham ish yuritishni tugatish asoslari to'g'risidagi moddada nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra «kelishuv bitimi tuzilib, u xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa», sud ishni ko'rib chiqishni tugatadi (86-modda). O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasida yarashilganligi munosabati bilan ish yuritishni to'xtatish tartibi belgilangan.

Ommaviy huquq sohasida kelib chiqadigan nizolarni sud tartibida hal etish mexanizmida Konstitutsiyaviy sud muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108, 109-moddalarida, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunning 1 va 2-moddalarida konstitutsiyaviy sud ko'rib, hal etish huquqiga ega bo'lgan ishlar ko'lami belgilangan. Konstitutsiyaviy sud: O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi.

Yuridik nizolarni hal etishda iqtisodiy sudlarning ham ahamiyati katta. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksiga (1997-yil 30-avgust) muvofiq iqtisodiy sudda sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

2) iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish.

Iqtisodiy sud nizolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qiladi. Iqtisodiy sud ishni ko'rish chog'ida davlat organi yoki boshqa organning hujjati qonunga to'g'ri kelmasligini, shu jumladan, u vakolat doirasidan chetga chiqqan holda chiqarilganini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi.

Nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari bo'lmagan taqdirda, iqtisodiy sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini tatbiq etadi, bordi-yu, bunday normalar ham bo'lmasa, qonunlarning umumiy asoslari va mazmuniga tayanib, nizoni hal qiladi. Iqtisodiy sud qonunga yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatlarning huquq normalarini qo'llaydi.

Yuridik ixtiloflar xalqaro munosabatlarda va xorijiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ham yuzaga kelishi mumkin. Davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari orqali yechim topishi yagona huquqiy usul hisoblanadi. Bunday usullar ro'yxati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 33-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, xalqaro nizolarni hal etishning sudlov tizimida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro sudi, Yevropa sudi, Yevropa Kengashining inson huquqlari bo'yicha sudi faoliyat yuritadi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasida arbitraj jarayonlari qo'llaniladi. Bulardan tashqari, xalqaro kuzatuvchilar, tinchlikparvar kuchlar ham huquqiy makondagi nizolarni hal etishga hissa qo'shadi.

Xalqaro xususiy huquq normalari, shartnomalar va bitimlar doirasida kelib chiquvchi iqtisodiy nizolar maxsus organlar tomonidan ko'rib, hal etiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida «Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi haqidagi Kelishuv» imzolangan, shuningdek Iqtisodiy sud faoliyat yuritadi. Huquqiy sohadagi muayyan nizolarni hal etish ishiga xalqaro savdo arbitrajlar ham muhim hissa qo'shadi.

Yuqorida bayon etilganlarga xulosa qilib, aytish lozimki, yuridik ixtiloflarni hal etish, odatda, quyidagi to'rt turdagi qarorlarni qabul qilish bilan yakunlanadi: a) qonun buzilishini bartaraf etish va aybdorlarni tegishli javobgarlikka tortish; b) avvalgi yuridik holatni va huquq subyekting maqomini

tiklash; d) yuridik rejimni, tuzilmani o'zgartirish; e) yangi yuridik holatni va huquq subyekting maqomini o'rnatish.

Yuridik ixtiloflarni hal etish usuli ham alohida ahamiyatga molik masaladir. ***Yuridik ixtiloflarni hal etish usuli*** deganda, nizo, ziddiyat va kelishmovchiliklarni bartaraf etishning muayyan vositalari, uslublari, mexanizmlari, taomil(protsedura)lari tushuniladi. Ixtilofning xususiyatlaridan kelib chiqib, ziddiyatni bartaraf etishning, boshi berk ko'chadan chiqishning u yoki bu usuli, u yoki bu shakli, vositasi qo'llanadi.

Yuridik ixtiloflarni hal etishning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardan iborat: 1) sharhlash; 2) yangi huquqiy hujjatni qabul qilish; 3) eski hujjatni bekor qilish; 4) amaldagi huquqiy hujjatga o'zgartirish yoki aniqliklar kiritish; 5) ishlarni sud tartibida, ma'muriy protsedura vositasida ko'rish; 6) qonunchilikni tizimlashtirish, yuridik normalarni o'zaro muvofiqlashtirish; 7) muzokaralar olib borish, kelishuv komissiyalarini tuzish; 8) konstitutsiyaviy odil sudlov; 9) nazariya bilan amaliyotning oqilona aloqadorligini tashkil etish (ta'minlash); 10) xalqaro protseduralar.

Huquqni qo'llash amaliyotida tegishli organlar va mansabdor shaxslar ixtilof, ziddiyatlarni aniqlagan taqdirda, odatda, quyidagi qoidalarga rioya qiladilar:

a) basharti, bir organning turli vaqtlarda qabul qilgan bir necha hujjatlari o'rtasida qarama-qarshilik mavjud bo'lsa, keyingi qabul qilingan hujjatga amal qilinadi;

b) agar ixtilofli hujjatlar bir paytda bir necha organlar tomonidan chiqarilgan bo'lsa, yuridik kuchi yuqori bo'lgan hujjat qo'llaniladi; bu yerda normativ hujjatlarning iyerarxiyasi prinsipi amal qiladi;

d) bir darajadagi (gorizontal) umumiy va maxsus hujjatlar o'rtasida ixtilof chiqsa, maxsus hujjat qo'llaniladi; turli darajadagi (vertikal) hujjatlar ziddiyatli bo'lib qolsa – umumiy hujjat qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 93-moddasi 13-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti respublika boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan (Konstitutsiya va qonunlarga xilof bo'lgan) hujjatlarini to'xtatadi va bekor qiladi.

Yuridik ixtiloflarni bartaraf etishda sharhlashning o'rniga alohida to'xtalish lozim. Sharhlash rasmiy va malakali amalga oshirilgan taqdirda yaxshi samara beradi. Ammo, ba'zan sharhlash oqibatida yangi ixtiloflar paydo bo'lishi mumkin. Chunki, sharhlash tegishli subyektlar tomonidan amalga oshirilib, bunda turli rasmiy va norasmiy tuzilmalar aynan bir hujjatni, hodisani, fakti turlicha talqin etishlari mumkin.

Shunday qilib, yuridik ixtiloflar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nomutanosibliklar jamiyatdagi barqarorlik va huquqiy tartibotga putur yetkazadi, huquqiy

ong buzilishiga olib keladi. Shu bois avvalo ularga yo'l qo'ymaslik, doimo ixtiloflarning oldini olish (profilaktika) choralarini ko'rish lozim. Bordi-yu, ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramay, yuridik ixtiloflar yuz bersa, mavjud mexanizmlar va tartib-taomillar yordamida darhol ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish zarur. Aks holda jamiyatda huquqiy loqaydlik, nigilizm, madaniyatsizlik holatlari avj oladi.

Yuridik ixtiloflar nisbatan kengroq muammo hisoblanmish konfliktologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda ijtimoiy fanlarda, xususan, siyosatshunoslikda jamiyatdagi ziddiyat va kelishmovchiliklarni yechishga xizmat qiluvchi «mojarolar nazariyasi» degan ilmiy yo'nalish shakllanmoqda. Xuddi shunga o'xshash huquqshunoslik sohasida ***yuridik konfliktologiya*** fani yoki ilmiy yo'nalishini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. U, shubhasiz, jamiyatda huquqiy barqarorlikni, huquqiy tartibotni mustahkamlashga, huquqiy madaniyat va ma'rifiylikni yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shadi.

XXIII bob. HUQUQIY XULQ-ATVOR, HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

1-§. **Huquqiy xulq-atvor tushunchasi, belgilari va tasnifi**

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida kishilarning irodasiga, xulq-atvoriga ta'sir etadi va shu tariqa ularning xatti-harakatini huquqiy xulq-atvoriga aylantiradi.

Ta'kidlash joizki, shu choqqacha yuridik adabiyotda asosiy diqqat-e'tibor kishilar xulq-atvorining huquqqa zid jihatiga, ya'ni huquqbuzarlikka qaratilib, huquqiy harakatlar xususida kamroq fikr bildiriladi. Aslida, jamiyatdagi aksariyat faoliyat va xatti-harakatlar huquqqa muvofiq, ya'ni huquqiydir.

Huquqiy xatti-harakatlar – shaxs xatti-harakatining yuridik normalarga muvofiq bo'lishidir. Bu qonunga mos, yuridik shaklda ifodalangan ijtimoiy xatti-harakat bo'lib, u tufayli huquq amalga oshadi. Huquqiy xatti-harakat doirasi va chegarasi huquqiy normalarning dispozitsiyasi bilan belgilanadi. Aynan u huquqiy tartibotning mohiyati hisoblanadi.

Huquqiy xatti-harakat yo'li bilan jamiyat boshqariladi, uning me'yoriy hayot – faoliyati tartibga solinadi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari amalga oshiriladi. Jamiyatda vujudga keladigan va amalda bo'ladigan huquqiy munosabatlarning asosiy qismi o'z mazmuniga ko'ra huquqiy xatti-harakatlardir.

Huquqiy xatti-harakat deganda, huquq subyektlarining qonunga, boshqa huquqiy normalarga mos ijtimoiy – foydali harakati yoki harakatsizligi tushuniladi. Bunday xulq-atvor jamiyat va davlat tomonidan ijobiy baholanadi. Huquqiy xulq-atvor jamoalar va yakka shaxslarning, umuman, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarining huquq normalari asosidagi faoliyati bo'lib, bunda huquqiy taqiqlarga rioya etiladi, yuridik majburiyatlar bajariladi, subyektiv huquqlardan foydalaniladi, shuningdek, vakolatli subyektlar tomonidan huquq o'rnatiladi va u amalga oshiriladi.

Keng ma'noda fikr yuritiladigan bo'lsa, huquqiy xulq-atvor doirasiga ham huquq ijodkorligi, ham huquqni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan butun «huquqiy makon» kiradi. Individ (shaxs) faoliyatining irodaviy xususiyati va ijtimoiy belgilanganligini inobatga olgan holda, uning huquqiy xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Shaxsning huquqiy xulq-atvori** deganda, inson faoliyatining irodaviy faol va normativ-huquqiy jihati tushunilib, bunda

subyektning huquqiy prinsiplar va normalarga ijobiy munosabati namoyon bo'ladi va u ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda kishilarning xulq-atvori turli shakllarda namoyon bo'lib, ularning ifodalanishi, samarasi, motivlari, maqsadlari va oqibatlariga qarab turlarga ajratish mumkin. Huquqqa muvofiq xulq-atvor huquqiy norma bilan ushbu norma ta'minlashi kutilayotgan ijtimoiy samara (natija) o'rtasini bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Mazkur xulq-atvor turmushda qonuniylik rejimi talablarini amalga oshirish natijasidir, barcha huquqiy xulq-atvorlar yig'indisi esa, mohiyat-e'tiboriga ko'ra jamiyatda huquqiy tartibotning tantana qilishidir.

Huquqiy xulq-atvorning o'ziga xos belgilari:

Ijtimoiy foydaliligi – bunda huquqiy xatti-harakatlar jamiyat, shaxs va davlat uchun foydali bo'ladi va biror-bir shaxsga zarar keltirmaydi;

Ixtiyoriyligi va ongliligi – bunda jamiyat a'zolarining asosiy qismi huquqiy harakatlarni jazo choralaridan qo'rqanidan emas, balki o'z ixtiyorlari bilan, huquqni hurmat qilish asosida amalga oshiradi;

Huquq normalariga muvofiqligi – shaxslarning xatti-harakatlari amaldagi huquq normalariga mos kelishi va o'rnatilgan talablarga javob berishi, shuningdek, huquq normalari bilan ruxsat etilgan chegaralarda bo'lishi talab qilinadi.

Huquq qoidalariga amal qilish, yuridik majburiyatlarni bajarish, berilgan huquqlardan foydalanish, maxsus subyektlar tomonidan huquqni qo'llash – bularning barchasi birgalikda huquqiy xulqning mohiyatini ifodalaydi.

Huquq nazariyasida qaror topgan talqinga ko'ra, xulq-atvor – *huquqqa muvofiq, yuridik betaraf va huquqqa zid keluvchi xulq-atvor* bo'lishi mumkin.

Huquqiy xulq-atvor tuzilishiga ko'ra quyidagi to'rt elementning birligidan iborat: subyekt, obyekt, subyektiv tomon va obyektiv tomon.

Subyektlar sifatida qonunda belgilangan tartibda tan olingan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Obyektlar bo'lib moddiy dunyoning ne'matlari, ijodiy faoliyat natijasi va subyektlarning xulqi hisoblanadi.

Obyektiv tomon huquqiy xulqning harakat yoki harakatsizlik shakllarida namoyon bo'lishidir.

Subyektiv tomon huquqiy xulq-atvorning ichki tomonlarini ifodalab, u huquq subyektlarining harakatlari motivlari, ruhiy holati, ichki kechinmalari hamda mas'uliyatlilik darajasi bilan tavsiflanadi.

Huquqiy xatti-harakat juda keng ma'noga ega. U o'z xususiyatiga ko'ra bir xil emas. Shaxsning huquqiy tartibga solish jarayoniga jalb etilish darajasiga ko'ra huquqiy xatti-harakat quyidagi to'rt turga ajratiladi:

Faol huquqiy xatti-harakat. Bu fuqarolar va yuridik shaxslarning tashabbusi, aqliy salohiyati va moddiy imkoniyatlariga tayangan holda huquqiy normalarni amalga oshirishga qaratilgan faol huquqiy faoliyatidir. Shaxsning huquqiy faolligi – davr talabi. Huquqiy faollikning namoyon bo'lish shakllari turlicha. Bu jamiyatga sidqidildan faol xizmat qilish, siyosiy va ijtimoiy hayotda qatnashish, qonun loyihalari muhokamasida bevosita ishtirok qilish, davlatning har xil tuzilmalari bilan hamkorlik qilish va hokazo.

Odatdagi huquqiy xatti-harakat. U faollikdan farq qilgan holda, ortiqcha xarajat va harakat bilan bog'liq bo'lmaydi. Bu kishining doimiy xizmat va boshqa hayotiy faoliyatidan kelib chiqadi va u, odatda, huquqiy normalar talabiga mos keladi. Fuqarolar ushbu xatti-harakat doirasida o'zlarining yuridik ahamiyatga molik u yoki bu harakatlarini amalga oshiradilar. Lekin bu ularning faolligini huquqiy talab darajasidan oshirishga olib kelmaydi. Shaxsning amaliy hayotdagi faoliyati oddiy va zaruriy hol hisoblanadi. Aynan shunga muvofiq shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qanoatlantiriladi.

Konformistik (sust) huquqiy xatti-harakat. Fuqarolar o'rnatilgan huquq normalariga ijtimoiy muhit ta'sirida, ya'ni o'z safdoshlarining, kasbdoshlari, rahbarlarining ko'z o'ngida rioya qiladilar. Bunda fuqaro o'zining tashabbusi va mustaqil fikri bilan emas, balki hamma shu harakatni amalga oshirganligi uchun ham shunday qilishga majbur bo'ladi. Konformistik xulq-atvor ijtimoiy foydali xulq-atvorning eng quyi darajasidir. Shuningdek, fuqaro o'ziga tegishli huquq va erkinliklardan kerakli maqsadda foydalanmasligi namoyon bo'ladi. Masalan, fuqaro nikohdan o'tishda, mulkka egalik qilishda, saylovlarda ishtirok etishda sustkashlikka yo'l qo'yishi mumkin. Bunday paytda shaxs o'z manfaatini qanoatlantirish imkoniyatidan foydalanmaganligi natijasida salbiy oqibatlar kelib chiqadi. Fuqaroning sustligi sababli siyosiy va huquqiy sohada loqaydlik yuzaga keladi. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati pasayadi va hokazo.


Marginal huquqiy xatti-harakat. Marginallik lotincha «marginalis» so'zidan olingan bo'lib, chekkada, chegarada turish ma'nosini anglatadi. Bunda shaxs davlat tomonidan o'rnatilgan jazo tizimidan qo'rqishi oqibatida huquq talabiga bo'ysunadi. Bu toifa shaxslar ijtimoiy faol yoki odatiy huquqiy xatti-harakatni amalga oshirmaydilar. Marginallik xulq-atvorning shunday shakliki, bunda individ g'ayriijtimoiy kayfiyatda, o'rnatilgan huquqiy tartibotni buzish chegarasida bo'ladi, ammo muayyan hadik va qo'rquv ta'sirida salbiy oqibat yuz bermaydi. Ushbu vaqt oralig'ida shaxsning xatti-harakatlarining motiviga jazoga tortilishdan xavotirlanish, huquqqa rioya qilishdan manfaat qidirish, yaqinlari va jamoaning dashnomlaridan, noroziliklaridan cho'chish kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, marginal xulq-atvor huquqqa muvofiq

xulq-atvor hisoblanadi. Chunki, shaxs o'z e'tiqodi jihatdan huquqiy talablarga xayrixoh bo'lmasa-da, biroq ularga rioya etadi.

Huquqqa muvofiq xatti-harakatlar bir qancha turlarga bo'linadi. Ularni turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. Masalan, huquqqa mos xatti-harakatlarning tashqi namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra *faol harakat* yoki aksincha, *passiv xulq-atvor – harakatsizlik* turlariga ajratiladi.

Ma'lumki, huquqqa muvofiq xatti-harakat muayyan huquq sohalariga tegishli bo'lgan normalar asosida amalga oshadi. Shunga ko'ra, huquqiy xatti-harakatlarni *fuqaroviy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, mehnat-huquqiy, oilaviy-huquqiy* kabi turga ajratiladi. Huquqiy qoidalarni amalga oshirish shakliga ko'ra, huquqqa muvofiq xatti-harakatlarni huquqqa *rioya etish, bajarish, foydalanish* yoki uni *qo'llash* bilan bog'liq xulq-atvor sifatida guruhlashtirish mumkin.

Huquqiy faoliyat va xatti-harakatlarni amalga oshirish sohasiga qarab – *siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy* va boshqa turlarga tasniflash mumkin. Harakat yoki faoliyatni amalga oshiruvchi subyektga qarab – fuqaro, yuridik shaxs, mansabdor shaxs, davlat yoki jamoat tashkilotini farqlash mumkin. Shunday qilib huquq muvofiq xatti-harakatlarni turlarga ajratib o'rganish, ularning tabiatini, xususiyatlarini, ahamiyatini, siyosiy va huquqiy hayotdagi rolini teranroq tushunish imkonini beradi.



2-§. **Huquqbuzarlik tushunchasi va mohiyati**

Huquqiy xatti-harakatning teskarisi (antipodi) huquq buzilishi, ya'ni g'ayriqonuniy xatti-harakat hisoblanadi. Huquq buzilishi shaxsga, mulkka, davlatga yoki umuman jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli, qonunga xilof harakatdir.

Huquqbuzarlik – huquq subyekting aybli, huquqqa zid, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga zarar keltiruvchi, yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi qilmishidir.

Huquqqa zid xatti-harakat – o'rnatilgan huquqiy qoidalarni fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan bajarmaslik yoki ularga rioya qilmaslik yoxud ularning talablarini buzishga yo'naltirilgan faoliyat va harakat (harakatsizlik). Subyektlarning huquqqa zid harakatlarni sodir etishi ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasidagi salbiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Chunki, huquqqa rioya qilmaslik ayrim shaxslarning qabul qilingan qonunlardan xabardor emasligi yoki sodir etilgan xatti-harakatini huquqqa zid ekanligini bilmasligi, ya'ni huquqiy jihatdan savodsizligi yoxud huquqni mensimasligi natijasida yuzaga keladi. Chunonchi, ayrim fuqarolar mavjud qonunlarning qabul qilinganligi va ularni buzish mumkin emasligini bilsa-da, unga rioya qilmaydilar. Bunday shaxslarning xatti-harakatida ularning huquqiy madaniyatsizligi va huquqiy nigilizmi ko'zga tashlanadi.

Huquqni buzish – o'z xatti-harakati oqibatini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid aybli xatti-harakati (harakatsizligi) natijasida kelib chiquvchi zararli oqibat. Boshqacha aytganda, shaxsning huquqqa qarshi aybli qilmishidir. «*Huquqni buzish*» iborasi kundalik hayotda, yuridik amaliyot va ilmiy adabiyotlarda ko'p uchrab turadi. Lekin ta'kidlash joizki, aslida huquq norma sifatida buzilmaydi, ya'ni huquqiy norma yuridik institut tarzida saqlanib qoladi va amal qilishini davom ettiraveradi. Huquqni buzish – qonunga tajovuz emas, balki qonun vositasida o'rnatilgan qoidalarga (huquqiy normaga) bo'ysunmaslik, qonun talablarini bajarmaslik va qonun tomonidan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga (mulk, manfaat, qadr-qimmat va hokazolarga) tajovuz qilishdir. Huquqqa xiloflik huquqbuzarlikning ijtimoiy zararliligi, uning salbiy (noxush) oqibati bilan tavsiflanadi. Ushbu tushuncha huquq buzilishining quyidagi to'rt muhim belgisini o'z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy xavflilik huquqbuzarning jamiyat qadriyatlariga tajovuz qilishini, xususiyl va ijtimoiy manfaatlarini poymol etishini anglatadi. Huquqbuzarlikning zararliligi yoki xavfliligi shundaki, u jamiyat hayotining maromiga, huquqiy tartibotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Huquqbuzarlik ijtimoiy xavfli xususiyatga ega, ya'ni muayyan zarar keltiradi yoki shaxs, mulk, davlat, jamiyat uchun xavf tug'diradi. Huquqiy adabiyotlarda nojo'ya xatti-harakat ijtimoiy

xavfli ekanligi yoki qonun buzilishining juda og'ir turi ekanligi haqida munozaralar mavjud. Fikrimizcha, qonun buzilishining har qanday shakli ijtimoiy xavfli hodisadir.

2. Huquqqa xiloflik – huquqbuzarlikning ikkinchi belgisi. Bu o'rinda so'z qilmish oqibatida qonun, muayyan huquqiy norma talabining buzilishi to'g'risida bormoqda. Boshqacha aytganda, huquqbuzar qonunda yoki huquq normasida belgilab qo'yilgan taqiqni buzishi sodir bo'ladi. Agar bunday taqiq bo'lmasa va unga zid xatti-harakat amalga oshirilmasa, huquqbuzarlik ham bo'lmaydi. Qonun kengaytirilgan holda yoki analogiya bo'yicha sharhlanishi mumkin emas. Huquqqa xiloflik – ijtimoiy xavfli qilmishning yuridik ifodasidir. Huquq buzilishi huquqqa xilof xatti-harakatdir.

3. Huquqbuzarlik faqat kishilar tomonidan sodir etiladi. Huquqbuzarlikning subyekti sifatida faqat jismoniy shaxslar, odamlar tan olinadi; jonivor, hayvon va parrandalar g'ayrihuquqiy harakatlari uchun yuridik javobgarlikka tortilmaydi. Huquq tarixidan ma'lumki, hayvonlar ham ba'zi vaqtlarda qonun buzilishining subyekti bo'lib hisoblangan. O'rta asrlarda ba'zi mamlakatlarda to'ng'izlar, sichqonlar, kalamushlar, itlar va hokazo jinoyat sodir qilganlar, shunga ko'ra barcha yuridik qoidalarga muvofiq, ularni sud qilishgan: bu haqda tergov olib borilgan, ular sudga chaqirib varaqasi orqali chaqirilgan, prokuror va himoyachi sudda nutq so'zlagan, sud hukmi chiqarilgan va ijro qilingan. Faqat o'z g'ayrihuquqiy xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashga qobiliyatli va unga javob bera oladigan (delikt layoqatli) shaxslarning huquqqa xilof qilmishlari huquqbuzarlik deb tan olinadi. Shu bois, aqli noraso, muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar va yosh bolalar huquqbuzarlikning subyekti hisoblanmaydilar. Huquqbuzarlik shaxsning fikrlash tarzi emas, balki *uning qilmishi, xulq-atvoridir*. Bunday xulq-atvor esa, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik shaklida namoyon bo'ladi. Huquqbuzarning ijtimoiy xavfli niyati faqat uning xulq-atvorida, harakati(harakatsizligi)da o'z ifodasini topadi. Gegel o'zining «Huquq falsafasi» asarida kishilar e'tiqodlari, niyatlari uchun emas, balki faqat qilmishlari uchun javob berishlari lozimligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan¹.

4. Ayblilik – huquqbuzarlikning uchinchi belgisi. Huquq normasini buzishda ayblanayotgan shaxs yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lishi va o'z harakatlarni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqali sodir etgan bo'lishi lozim.

Huquqbuzarlik – aybli qilmishdir. Agar shaxsning harakatida ayb bo'lmasa, uning harakati garchi shaxsning holati chetdan qaraganda huquqiy

¹ Qarang: Гегель Г. Философия права. – М., 1990. – 141, 144, 145, 192-betlar.

tartibotga qarshidek ko'rinisa ham huquqbuzarlik hisoblanishi mumkin emas. Masalan, zaruriy mudofaa holatida odam o'ldirish.

Ayb – shaxsning o'zi sodir etgan huquqqa xilof harakatga va uning zararli oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati. Inson oldida qariyb har doim huquqqa mos yoki unga zid harakat qilishni tanlash imkoni bo'ladi. Agar u ikkinchi yo'lni tanlasa, huquqqa xilof qilmishni aybli tarzda sodir etgan, deb hisoblanadi.

5. Qilmishning jazoga sazovorligi ma'lum huquqbuzarlik uchun uni sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishini anglatadi. Ushbu javobgarlik chorasi va chegarasi huquqiy normaning sanksiyasida ifodalanadi.

Huquqbuzarlik tarkibi: Huquqbuzarlik yuridik fakt bo'lib hisoblanadi, u o'z navbatida, qo'riqlovchi xarakterga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarni ham yuzaga keltiradi. Huquqbuzarlikning tarkibi muayyan huquq normasini sharhlash, uning mazmunini ochish hamda dunyoqarash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Huquqbuzarlik tarkibi to'rtta elementni o'z ichiga oladi: huquqbuzarlikning *obyekti, subyekti, obyektiv tomoni va subyektiv tomoni*.

Huquqbuzarlikning obyekti deganda huquq bilan tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik natijasida zarar yetkaziladigan ijtimoiy munosabatlarga tushuniladi. Obyekt huquqiy normada aniq ifodalangan bo'ladi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs nafaqat jamiyatda qaror topgan huquqiy tartibotga, balki fuqarolarning huquqiy ongiga hamda ularning subyektiv huquqlariga zarar yetkazadi.

Huquqbuzarlik obyekti va predmeti alohida tushunchalar bo'lib, ular birbiridan farq qiladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatining obyekti, o'zgalar mulki, ya'ni mulkiy mazmundagi ijtimoiy munosabat hisoblanadi, uning predmeti esa, pul, buyum, videotexnika, mebel, transport vositalari va boshqa shu kabi turli xil moddiy ashyolar bo'lishi mumkin.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni huquq buzilishining tashqi tavsifi bo'lib, bunda shaxsning harakati va harakatsizligi oqibatida huquqning buzilishi hamda uning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Mazkur jihatga qarab, huquqbuzarlik to'g'risida, uning qanday sodir bo'lganligi va qay darajada zarar keltirganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishning asosiy belgilari yig'indisidir. Shu bois qonun chiqaruvchi organ, birinchi navbatda, huquqbuzarlik tarkibining obyektiv tomoni belgilarini qonunda to'liq ta'riflashga harakat qiladi. Qilmishning obyektiv tomonini tahlil qilmay turib, shaxsning qilmishida huquqbuzarlik alomati bor yoki yo'qligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin emas.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni elementlari quyidagilar hisoblanadi: a) huquqqa zid qilmish (harakat yoki harakatsizlik); b) harakat yoki harakatsizlik natijasida ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan zarar (oqibat); d) huquqqa zid qilmish bilan zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish; e) huquqqa zid qilmishning sodir etilgan joyi, vaqti va muhiti; f) huquqbuzarlikni amalga oshirish usuli va vositalari.

Ijtimoiy xavfli qilmish harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi.

Harakat shaxsning qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishga qaratilgan ijtimoiy xavfli, irodaviy va faol xulq-atvoridir. Masalan, odam o'ldirish, o'g'rilik, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, transport vositasini olib qochish kabi jinoyatlar harakat orqali sodir etiladi.

Harakatsizlik deganda, shaxsning normativ-huquqiy hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmasligida ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvorini tushunish lozim. Masalan, xavf ostida qoldirish, voyaga yetmagan farzandni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, hokimiyat vakilining harakatsizligi, sud qarorini bajarmaslik kabi jinoyatlar harakatsizlik oqibatida sodir etiladi.

Huquqbuzarlikning subyeksi huquqbuzarlikni sodir qilgan o'z qilmishlarining oqibati uchun yuridik javobgarlik o'tay oladigan (delikt layoqatiga ega) yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Subyektlarning xususiyatlari huquqbuzarlikning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jismoniy shaxslar jinoiy va ma'muriy huquqning subyektlari hisoblanadi. Huquqni buzishning subyektlari ikki turga ajratiladi: jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar. Yuridik shaxslarga – davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar kiradi. Yuridik shaxslar deb o'zlariga xos mulkka ega bo'lgan, o'z nomlaridan mulkiy va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqlarga ega bo'la oladigan va majburiyatlarni o'tay oladigan, sudda yoki hakamlar sudida da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar taniladi (O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 39-moddasi).

Jinoyat subyektining umumiy belgilari: 1) jismoniy shaxs; 2) aqli rasolik; 3) jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetganlik.

Jismoniy shaxs bo'lib, O'zbekiston fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el fuqarolari hisoblanadilar. O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar jinoyat subyeksi hisoblanmaydi.

Aqli raso shaxs deganda, huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda o'z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxs tushuniladi. Mast holatida yoki giyovandlik vositalari, psixotrop yoki odamning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'sirida jinoyat

sodir etilsa, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi va shaxs javobgarlikdan ozod qilinmaydi (JKning 19-moddasi).

Aqli noraso shaxs deganda, huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglay olmagan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan, oqibatlari uchun javob bera olmaydigan shaxs tushuniladi (masalan, shizofreniya, epilepsiya, oligefreniya va boshq.)

Shaxs sud tomonidan aqli noraso deb topilsa, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilishi mumkin (JKning 18-moddasi).

Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni shaxsning (jismoniy va yuridik) huquqqa qarshi qaratilgan harakati yoki harakatsizligi oqibatiga, ulardan kelib chiqadigan ijtimoiy zararga nisbatan ruhiy-ongli munosabatidir. Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi *aybdir*. Ayb – huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va ularning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi munosabatidir.

Qasd – shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatini sodir qilayotgan paytida, shu harakatning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning oqibatini anglashi yoki tushunishidir va bu xatti-harakatning natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishini bilgani holda ularning kelib chiqishini istab harakat qilishi (to'g'ri qasd) yoki ularning kelib chiqishiga yo'l qo'yishidir (egri qasd).

Ehtiyotsizlik – shaxsning xatti-harakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan o'ziga ishonib harakat qilishidir.

Huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

1. Jinoyat – sodir etilishi Jinoyat kodeksida jazo qo'llash tahdidi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Jinoyat natijasida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga jiddiy zarar yetkaziladi.

Har qanday jinoyat-huquqbuzarlik jinoyatdir. Jinoyat kodeksi va boshqa jinoyat qonunchiligida nazarda tutilmagan xatti-harakatlar jinoyat hisoblanmaydi.

2. Nojo'ya xatti-harakat – *nojo'ya ish* huquqbuzarlikning ko'p tarqalgan ko'rinishi bo'lib, ijtimoiy xavfning kamligi bilan tavsiflanadi va jazo choralari qo'llanishiga qarab jinoyatdan farq qiladi.

Jinoyat – huquqbuzarlikning eng og'ir turidir. Nojo'ya xatti-harakat bu huquqbuzarlik hisoblanib, boshqaruv, mehnat, mulkiy va boshqa munosabatlariga putur yetkazuvchi, lekin ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat hisoblanmaydigan huquq buzilishidir. Jinoyat va nojo'ya xatti-harakatni aniq chegaralash lozim. Chunki u jazoning ijtimoiy-huquqiy chora sifatidagi turi va miqdori bilan bog'liqdir. Ular ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra farqlanadi. Nojo'ya xatti-harakatga nisbatan jinoyat og'ir, ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Ijtimoiy havflilik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, qonunga hilof ravishda tajovuzkorlik obyekti bo'lgan munosabatlarni huquqiy tartibga solishning ahamiyati. Jinoiy tajovuz obyekti, odatda, eng muhim ijtimoiy munosabatlar, manfaatlar, moddiy ne'matlar hisoblanadi. Bu, eng avvalo, shaxsning hayoti va sihat-salomatligi, uning sha'ni va qadr-qimmati, mulki, davlat xavfsizligi, unda o'rnatilgan boshqaruv tartibi va boshqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning mehnat, tabiatni muhofaza qilish, transport, uy-joy, kommunal xo'jaligi hamda boshqa sohalarini bunchalik ahamiyatga molik emas, chunki ulardagi tajovuzkorlik qonunda jinoyat emas, balki nojo'ya xatti-harakat deb e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, keltirilgan zarar hajmi. Agar keltirilgan zarar katta bo'lsa, odatda, xatti-harakatni jinoyat deb hisoblanadi. Juda kichik bo'lsa, u nojo'ya xatti-harakat deb aytiladi. Masalan, o'zboshimchalik ma'muriy nojo'ya xatti-harakat sohalarini (qonunda belgilangan tartib-qoidani o'zboshimchalik bilan buzish) fuqaro, davlat yoki jamoat tashkilotlariga jiddiy zarar keltirmasa, nojo'ya xatti-harakat hisoblanadi. Agar u shaxs, davlat yoki jamoat tashkilotlariga zarar keltirgan bo'lsa, bunday xatti-harakat jinoyat qonunlariga muvofiq jinoyat deb hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqqa zid qilmishning usuli, vaqti va sodir qilish joyi. Masalan, harbiy xizmatchi tomonidan tinchlik vaqtida buyruqni bajarmaslik intizomiy nojo'ya xatti-harakat deb topilsa, urush vaqtida bu og'ir jinoyat hisoblanadi.

Nojo'ya xatti-harakatlar ba'zi turlarining kengayib borishi ular ijtimoiy xavfining keskin ortishiga olib keladi va qonunchilikda nazarda tutilmagan jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'ladi. Bunday paytda Jinoyat kodeksi yangi moddalar bilan to'ldiriladi.

To'rtinchidan, huquqbuzarning shaxsi. Nojo'ya xatti-harakatlar jinoyatlardan farqli o'laroq, shaxs tomonidan ijtimoiy xavf tug'dirmaydi yoki kam xavfli bo'ladi. Agar shaxs huquqiy normalarni bir necha marta buzsa, ijtimoiy xavf tug'diradi va uning keyingi xatti-harakati nojo'ya harakat tarzida emas, balki jinoyat tarzida baholanadi. Mast holatida transport vositasini boshqargani va yana shunga o'xshash xatti-harakatlar sodir etgani uchun (bunda uning transport vositasini boshqarishga huquqi bo'lmasa) ma'muriy tarzda haydovchilik guvohnomasidan mahrum etilgan shaxs o'sha nojo'ya harakatlari qayta takrorlasa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Nojo'ya xatti-harakat quyidagi turlarga bo'linadi:

Fuqaroviy huquqbuzarlik, bunda fuqarolik huquq va majburiyatlarining buzilishi, ya'ni majburiyatlar bajarmaganligi bois, mol-mulkka, kishining sha'niga yoki sog'lig'iga ziyon yetkazilishi tushuniladi. Mazkur turdagi huquqbuzarlik mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi

huquqiy normalar talabini buzish oqibatida kelib chiqadi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar buzilganida javobgarlik choralari quyidagicha bo'lishi mumkin, masalan, da'vogarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma'lumotlarga nisbatan javobgar tomonidan raddiya bildirish. Mulkiy huquqbuzarlik sodir etilganda yetkazilgan zararni undirish, neustoyka to'lash, qarzdordan mulkni olib qo'yish, bitimni haqiqiy emas deb topish kabi javobgarlik choralari qo'llaniladi. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralari sud, iqtisodiy sud, hakamlik sudi tomonidan qo'llaniladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik deb jamoat yoki davlat tartibiga, davlatning yoki shaxsning mulkiga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan hamda sodir etilgani uchun qonunda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan g'ayriqonuniy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan) harakat yoki harakatsizlikka aytiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik, xuddi jinoyat kabi, jamiyat uchun xavfli bo'lib, undan faqat ushbu xavfning darajisi bilan farq qiladi. Ma'muriy huquqbuzarlik ma'muriy qonunchilik tomonidan belgilangan umummajburiy talablarni fuqarolar, xizmat mavqeyi va itoat etish tartibidan qat'i nazar, mansabdor shaxslar tomonidan buzilishidir.

Intizomiy huquqbuzarlik – korxonalar, tashkilot yoki muassasalarning rahbariyati tomonidan o'rnatilgan yurish – turish va ichki mehnat tartib-qoidalari, xizmat intizomining xodimlar tomonidan buzilishi hamda xizmat vazifalarini bajarilmasligidir. Mazkur huquqbuzarlik intizomiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Intizomiy jazo choralari yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxs (rahbar) tomonidan qo'llaniladi.

Ba'zi yuridik adabiyotlarda huquqbuzarlikning alohida turi sifatida protsessual nojo'ya xatti-harakatlar (huquqbuzarliklar) ajratib ko'rsatiladi. *Protsessual huquqbuzarlik* – qonun bilan belgilangan odil sudlovni amalga oshirish, yuridik ishlarni huquqni qo'llash organlarida o'tishi, huquqni qo'llash hujjatini chiqarish tartib-taomilining buzilishidir. Masalan, guvohning sud majlisiga kelmasligi. Bunday holda guvoh sudga majburan olib kelinishi mumkin. Sudlanuvchining chaqiriq qog'oziga binoan sudga kelmay qolishi ham protsessual huquqbuzarlik hisoblanadi. Bunda sudya sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirishi mumkin.

3-§. Yuridik javobgarlik tushunchasi, belgilari va turlari

Huquqshunoslik fanida yuridik javobgarlik masalasida turlicha fikrlar mavjud. Ko'pchilik mualliflar yuridik javobgarlikni davlatning o'z huquqiy talablarini bajarishga qaratilgan majburlov choralari qo'llashi deb tushunsalar, boshqa ba'zi olim-

lar unga amaldagi yuridik kategoriyalar doirasida yondashib, uni qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar, maxsus yuridik majburiyatlar yoki huquq normalari sanksiyalari ko'rinishida talqin etishga intiladilar.

Yuridik javobgarlik – huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan protsessual tartibda qonunchilikda belgilangan davlat majburlov choralari qo'llashdir.

Yuridik javobgarlikning tabiati va mazmunini aniq belgilash uchun, avvalo, javobgarlikning o'zi nima degan savolga javob berish zarur. Javobgarlikni ikki ma'noda: aktiv javobgarlik va retrospektiv javobgarlik¹ ma'nosida tushunish mumkin.

Ijoby ma'nodagi javobgarlik – mas'uliyatlilikdir, ya'ni shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini, ijtimoiy taraqqiyotdagi rolini va jamiyat ishlaridagi o'zining ishtirokini chuqur anglab harakat qilishidir. Huquq normalari va qonunchilik talablariga nisbatan mas'uliyatlilik kishilar harakatining axloqiy va siyosiy regulyatori sifatida maydonga chiqadi. Ijoby ma'nodagi, aktiv javobgarlik huquq normalari talablarini buzmaslik uchun javobgarlikdir.

Retrospektiv ma'nodagi javobgarlik – shaxs o'z harakatlarining salbiy natijalari uchun, huquqni buzganligi uchun ma'lum huquq va burchlardan mahrum bo'lish shaklida o'taladigan javobgarlikdir. Bu ma'nodagi javobgarlik huquqqa zid keluvchi va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi xatti-harakatni sodir etganlik uchun yuklanadigan javobgarlikdir.

Javobgarlikning bu ikki turi o'zaro uzviy bog'liqdir. Ijoby javobgarlik (mas'uliyat) qancha yuqori bo'lsa, turmush qoidalari shuncha yaxshi bajariladi hamda retrospektiv javobgarlikka tortilish holatlari shuncha kam bo'ladi.

Ijoby va retrospektiv javobgarlik faqat yuridik javobgarlik uchungina xos elementlar bo'lib qolmasdan, balki umuman sotsial javobgarlik uchun ham xosdir. Sotsial javobgarlik ancha keng tushuncha bo'lib, barcha sotsial normalarni buzganlik (yoki buzmaslik) uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Sotsial javobgarlik siyosiy javobgarlik, yuridik javobgarlik, axloqiy va boshqa xil javobgarliklarni o'z ichiga oladi.

Yuridik javobgarlik – bir tomondan, fuqarolar va mansabdor shaxslarning davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy norma talablariga to'liq amal qilish mas'uliyati va, ikkinchi tomondan, davlat bilan huquqni buzgan shaxs o'rtasida huquqiy munosabat bo'lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan mahrum etilib, o'zi uchun noxush oqibatlar kelib chiqishidan jabrlanishidir. Bunda huquq normasi sanksiyalarini realizatsiya qilish momenti yuridik javobgarlikni belgilash momentiga mos keladi deyish mumkin.

¹ Retrospektiv – o'tmish, o'tmishga qaytish demakdir. Yuridik ma'noda huquqiy normani buzgandan keyingi javobgarlik, ya'ni o'tgan ish uchun javobgarlik.

Yuridik javobgarlikda huquqqa xilof xatti-harakatni sodir etgan shaxsga nisbatan uning erki va istagidan qat'iy nazar davlat majburlov chorasi qo'llaniladi. Davlatning majburlash kuchi faqat huquq normalari talablarini buzgan shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi.

Yuridik javobgarlik – huquqbuzarga nisbatan huquq normalari-da ko'zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralari qo'llashi bo'lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, mulkiy, tashkiliy va hokazo) mahrum etiladi.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

- 1) yuridik javobgarlik davlat majburlov choralari bilan bog'liq;
- 2) yuridik javobgarlik huquqbuzarlik bilan bog'liq;
- 3) yuridik javobgarlik huquqbuzar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (ozodlikdan, ota-onalikdan mahrum bo'lish yoki sodir etilgan qilmishi uchun jarima to'lash va hokazo);
- 4) huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan choralarning xarakteri va hajmi huquq normalarning sanksiyasida o'rnatilgan bo'ladi;
- 5) davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov choralari huquqni qo'llash faoliyati davomida tegishli vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va protsessual shakllarga amal qilgan holda olib boriladi.

Yuqoridagi xususiyatlari bilan yuridik javobgarlik siyosiy, axloqiy va boshqa javobgarliklardan farq qiladi.

Yuridik javobgarlikka tortish uchun asosi – huquqbuzarlikdir, ya'ni, huquq normalari talabini buzuvchi muayyan harakat yoki harakatsizlikdir.

Tabiiyki, yuridik javobgarlik muayyan maqsadlarni ko'zlaydi. Bu yerda «maqsad» deganda yuridik javobgarlikning jamiyatda bajaradigan vazifasi nazarda tutilmoqda. Yuridik javobgarlikning ikki muhim maqsadi mavjud: huquqiy tartibotni muhofaza qilish va fuqarolarni tarbiyalash. Bu maqsadlarga erishish uchun yuridik javobgarlik quyidagi ***funksiyalarni*** bajaradi: *jazolash* (jarima solish); *buzilgan huquqni tiklash* (masalan, mulkiy javobgarlik, yetkazilgan zararni undirish); *ogohlantirish*. Mazkur funksiyalar vositasida yuridik majburiyatlarning bajarilishi ta'minlanadi.

Yuridik javobgarlikning belgilari. Yuridik javobgarlik quyidagi o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, u davlat majburlovi bilan chambarchas bog'liq. Yuridik javobgarlik davlat tomonidan o'rnatiladi va yuridik normalarda ifoda etilganidek, huquqning talablaridan chetga chiqqan aybdor shaxslarga nisbatan majburiy ta'sirning o'ziga xos usuli bo'lib hisoblanadi. Yuridik javobgarlik ayrim nojo'ya xatti-harakatga nisbatan javob sifatida alohida hollarda qo'llaniladi. Shuning uchun, qoidaga ko'ra, u huquqbuzarlar uchun qo'llanadigan qat'iy cheklovlar tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, yuridik javobgarlikning amaldagi asosi shunday huquqbuzarlik, ya'ni shaxsning ichki (ongi yoki irodasi) va tashqi harakatlarining birligini mujassamlashtirgan xatti-harakati sifatidagi akt bo'lishi mumkin. Bu huquqiy ko'rsatmalarni buzishda aybdor bo'lgan shaxsgina huquqiy javobgarlikning subyekti bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Uchinchidan, yuridik javobgarlik davlat tomonidan ayblash, huquqbuzarning xulq-atvori uchun tanbeh berish bilan bog'liq. Davlat tomonidan ayblash – bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan tushuncha hisoblanadi: a) bunday qoralash xulq-atvori uchun tanbeh beriladigan subyektlarga nisbatan hokimiyat ta'sirini qo'llash bilan bog'liq; b) davlat tomonidan ayblash huquqbuzarni aybdor deb topish, unga nisbatan aniq javobgarlik choralari belgilash va ularni amalga oshirishda namoyon bo'ladi; v) bu retrospektiv xususiyatga ega. Bunda fuqarolar, mansabdor shaxslar, tashkilotlarning ilgari sodir etilgan huquqqa xilof faoliyati va harakatlari salbiy bahoga sazovor bo'ladi.

To'rtinchidan, yuridik javobgarlik hamma vaqt huquqbuzarga nisbatan ma'lum salbiy (noxush) oqibatlarining kelib chiqishi bilan bog'liq. Yuridik javobgarlikni huquqbuzarlik sodir qilgan shaxs uchun qonunda belgilangan qiyinchiliklar va cheklashlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yuridik javobgarlikning quyidagi turlari mavjud:

Jinoiy javobgarlik fuqarolar tomonidan jamiyat va davlat tuzumiga, turli shakldagi mulkka, xo'jalik tizimiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari va hokazolarga qarshi tajovuz qilinganida kelib chiqadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan talablarni buzish jinoyat hisoblanadi va shu jinoiy harakat yoki harakatsizlikka nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi. Jinoiy javobgarlikka davlat majburlov choralari eng qattiq turlari kiradi. Uni amalga oshirish Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya kodekslari bilan tartibga solingan.

Jinoiy javobgarlikda jazo asosiy va qo'shimcha turlarga bo'linadi. Hozirgi kunga kelib jazo tizimini erkinlashtirish (liberallashtirish) bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident famoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi 2008-yil 1-yanvardan boshlab bekor qilindi. Shu bilan bir qatorda, mol-mulkni musodara qilish jazosi qo'shimcha jazo tizimidan chiqarib tashlandi.

«Ma'lumki, O'zbekistonda 2008-yilning yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi. Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgani, albatta, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan

boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas»¹.

Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy-huquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, ularga – jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarni bajar-maslik, masalan yo'l harakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muhofaza etishga qarshi harakatlar va boshqalar kiradi. Ma'muriy-huquqiy javobgarlik bo'yicha quyidagi jazo choralari ko'rsatish mumkin: ogohlantirish; jarima solish; huquqbuzarlik quroli yoki obyekt bo'lgan narsani musodara qilish; maxsus huquqlardan mahrum etish (ov qilish, transport vositalaridan foydalanish va hokazo); ma'muriy qamoq; axloq tuzatish ishlari va boshqalar.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik – fuqarolik qonunchiligi qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash bilan bog'liq majburiy ta'sir chorasi qo'llaniladi.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik shartnoma talablarini lozim darajada yoki umuman bajarmaganlik uchun kelib chiqadi va odatda, mulkiy (moddiy) maz-mundagi ta'sir choralari qo'llanishi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka sabab bo'luvchi huquqbuzarlik (majburiyatni bajarmaslik) ikki xil bo'ladi: a) fuqaroviy qonunchilikda nazarda tutilgan mulkiy majburiyatlarni bajarmaslik; b) fuqarolarning sog'ligi, hayoti, sha'ni va qadr-qimmatiga daxldor nomulkiy majburiyatlarni bajarmaslik. Mazkur javobgarlik Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Yer kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa xususiy huquq sohasiga oid qonunlar normasini buzish natijasida kelib chiqadi.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralariga tegishli majburiyatni majburiy bajartirish, zararni undirish, neustoyka, jarima, penya va boshqalar kiradi.

Intizomiy javobgarlik – korxonalar va tashkilotlarda belgilangan tartib-qoidalarni buzish oqibatida kelib chiqadi. Intizomiy-huquqiy javobgarlikning belgilanish holatlari Mehnat kodeksi, korxonalar va tashkilotlarning ichki mehnat

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 21-bet.

tartib-qoidalari hamda maxsus nizomlarda nazarda tutiladi. Intizomiy javobgarlik mehnat va xizmat intizomini, harbiy va boshqa intizomni buzish bilan bog'liq bo'lib, ularga idoraning ichki tartib-qoidalarini buzish, ishga kech kelish yoki ishdan barvaqt ketish va hokazo hollarda kelib chiqadi. Intizomiy-huquqiy jazo chorasini qo'llash ichki ishlar organlari, mansabdor shaxslar va tegishli vakolatga ega bo'lgan rahbarlar (ma'muriyat) tomonidan amalga oshiriladi. Mehnat intizomini buzgan xodimlar korxonalar, tashkilot va muassasa ma'muriyati tomonidan javobgarlikka tortiladilar. Fuqaro aviatsiyasi, temir yo'l transporti xodimlari, sudyalalar va boshqa ayrim toifa xodimlarning intizomiy javobgarligi to'g'risidagi masala maxsus intizomiy komissiyalar tomonidan tegishli nizomlar asosida ko'rib chiqib, hal etiladi. 2017-yil 29-martda «O'zbekiston Respublikasining Sudyalalar oliy kengashi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunga muvofiq, Kengash sudya kadrlar zahirasi shakllantiradi, sudyalarni davlat mukofotlariga taqdim etish, rag'batlantirish, sudyalarni intizomiy, jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish vakolatiga ega¹. Jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilash faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Ma'muriy va intizomiy-huquqiy javobgarlik ichki ishlar organlari, mansabdor shaxslar va tegishli vakolatga ega rahbar shaxslar (ma'muriyat) tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlikni belgilashning asosiy maqsadi jazolash emas, balki huquq umumiy maqsadlarining muayyan ifodasiga qaratilgan bo'lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o'zining ifodasini topadi. Bu maqsadlar, o'z navbatida, huquqning tartibga soluvchi (regulyativ) va qo'riqlovchi funksiyalari amalda bo'lishini belgilaydi. Yuridik javobgarlikning asosiy funksiyasi qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilishdan iborat. Muayyan huquqbuzarga nisbatan javobgarlikning qo'llanishi birmuncha tor maqsadni, ya'ni aybdorni jazolashni ko'zlaydi. Bu bilan davlat o'zining majburlov choralarini amalga oshira turib, yana boshqa bir maqsadni ko'zda tutadi – bu maqsad kelajakda huquqbuzarlikni sodir etishning oldini olishga yoki bu haqda ogohlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Bu maqsadlar, o'z navbatida, javobgarlikning ijtimoiy vazifalarini belgilab beradi. Ko'p yillar mobaynida olimlar yuridik javobgarlikning maqsadi va prinsiplar xususida fikr-mulohaza yuritib, umumiy to'xtamga kelganlar, deyish mumkin. Bu nuqtayi nazarni Ch. Bekkaria shunday bayon etgan: «... Hech bir jazo alohida fuqaro yoki ko'pchilikning bir kishi ustidan zo'ravonlik ishlatishi ifodasi bo'lmasligi uchun u oshkora, tezkor, muqarrar, qonunda ko'rsatilgan barcha qo'llanishi mumkin bo'lgan choralar ichida eng yengili, sodir etilgan

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 30-mart.

jinoyatga mutanosib bo'lishi lozim»¹. Yuridik javobgarlikni belgilashda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

Adolatlilik – aybdor bo'lmagan shaxslarning javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'ymaslik yoki sodir etilgan qilmishning isbotlanishi zarurligini talab etadi, shuningdek qo'llanilayotgan jazo sodir etilgan jinoyatga mutanosib bo'lishi lozim.

Qonuniylik – huquq qoidalari talablarini qat'iy va aniq joriy etishdan iborat bo'lib, yuridik javobgarlikka nisbatan bu talab faqat vakolatli davlat organlari tomonidan qonunda belgilangan asoslarda hamda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Bunda muomalaga layoqatli shaxsga nisbatan u huquqqa zid xatti-harakat qilgan taqdirdagina jazo qo'llanilishi lozim.

Gumanizm (insonparvarlik) – yuridik javobgarlikka tortish jarayonida qonunda nazarda tutilmagan usullar, ya'ni qiynoqqa solish, jismoniy azob berish kabi insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi holatlarga yo'l qo'ymaslikni talab etadi, ayniqsa, jazo tayinlanayotgan vaqtda inson huquqlarining oliy qadriyat ekanligi e'tiborga olinishi lozim.

Jazoning asoslanganligi – bunda jazo tayinlash vaqtida sud ishni har tomonlama chuqur o'rganib, tahlil qilib, aybini isbotlab, keyin jazo tayinlashi lozim.

Maqsadga muvofiqlik prinsipi sodir etilgan qilmishga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini anglatadi, chunki belgilangan jazo yuridik javobgarlikning maqsadiga muvofiq bo'lishi lozim.

Javobgarlikning muqarrarligi – yuridik javobgarlik faqat huquqbuzarlik asosida kelib chiqadi, u bilan bevosita bog'liq. Sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik (jazo) albatta qo'llanilishi shart, u muqarrar bo'lmog'i lozim. Hech bir huquqbuzarlik jazosiz qolmasligi shart.

Individuallik prinsipiga binoan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun faqat aybdor shaxsning o'ziga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi, jumladan, ota yoki onaning huquqbuzarligi uchun farzand yoki farzand uchun ota-ona javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Jamiyatda har bir shaxs sodir etgan huquqbuzarligi uchun o'zi javob beradi.

Yuridik javobgarlik funksiyalari. Shaxsning sodir qilgan huquqbuzarligi uchun davlat muayyan yuridik javobgarlikni amalga oshiradi. Huquqbuzarlik uchun qo'llanilayotgan har bir yuridik javobgarlikning o'ziga xos vazifasi mavjud. Yuridik javobgarlikka tortishning asosiy maqsadi, huquqbuzar shaxsni jazolash yoki unga biror-bir jazo berish bilan kifoyalaniq qolmay, balki undan boshqa yuridik oqibatlar ham kutiladi. *Jumladan:*

¹ Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. – М., 1995. – 247-бет.

– *jazolash funksiyasi* bu aybdor shaxsning huquqbuzarlik sodir etganligi uchun unga shaxsiy (ozodlikdan mahrum qilish), *mulkiy* (jarima to‘latish), *tashkiliy* (ishdan bo‘shatish, muayyan faoliyatni cheklash) jihatdan salbiy ta‘sir etishdir;

– *huquqni tiklash funksiyasi* – bunda huquqbuzar shaxs tomonidan buzilgan huquqlarni tiklash, yetkazilgan zararni qoplash nazarda tutiladi;

– *maxsus ogohlantirish funksiyasi*. Uning mohiyati shundaki, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni kelajakda bu kabi salbiy oqibatlarini keltirib chiqaruvchi, davlat, jamiyat va shaxsga muayyan zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarni sodir etmaslik haqida ogohlantiriladi;

– *umumiy ogohlantirish* nafaqat huquqbuzar shaxsni, balki jamiyatning birga a‘zolarini huquqbuzarlik sodir etishning yomon oqibatlarga olib kelishi haqida ogohlantirish va bu kabi salbiy harakatlarni sodir etishdan o‘zlarini tiyishga, ya‘ni huquqiy harakat qilishga chaqirishdir;

– *tarbiyaviy funksiya* ikki xil mohiyat kasb etadi, *birinchidan*, jamiyat barcha a‘zolarini huquqbuzarlik sodir etmaslik, huquqqa hurmat ruhida tarbiyalasa, *ikkinchidan*, bevosita huquqbuzar shaxslarni qayta tarbiyalash, kelajakda huquqqa rioya etish va uni hurmat qilishga safarbar etadi.

4-§. **Aybsizlik prezumpsiyasi. Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar**

Aybsizlik prezumpsiyasi – yuridik javobgarlikka tortish jarayoniga jalb etilgan shaxsning aybsizligi ehtimolidir. Bu prinsipga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar ular aybsiz hisoblanadilar.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Ya‘ni, u bunga majbur emas. Mazkur vazifa sud va huquqni muhofaza etuvchi organlar zimmasiga yuklanadi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi mutasaddi organlar shaxsni yuridik javobgarlikka tortish bo‘yicha yakuniy xulosa chiqarishdan oldin uning aybdorligini isbotlovchi ishonchli dalillarni to‘plashi lozim. Agar buning uddasidan chiqilmasa, ushbu prezumpsiyaga muvofiq shaxs aybsiz hisoblanadi va javobgarlikdan ozod etiladi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti, ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo‘llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar

ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi – shaxs huquq va erkinliklarining mustahkam kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (26-modda) aybsizlik prezumpsiyasi o‘zining ifodasini topgan bo‘lib, unda jumladan, shunday deyiladi: «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi...»

Bu masala O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 23-moddasida ham o‘zining aniq ifodasini topgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat ishi yuzasidan haqiqatni aniqlash kafolati hisoblanadi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 4-moddasining ikkinchi qismida hech kim sudning hukmi chiqarilmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emasligi aniq belgilab qo‘yilgan. Ushbu qoidada aybsizlik prezumpsiyasi mohiyatining ikki jihati ochib berilgan. Ya‘ni: birinchisi – jinoyatning muayyan tarkibini belgilash va shaxsning jinoyat sodir etganlikda iqror bo‘lishini qonunga aniq rioya qilgan holda amalga oshirish; ikkinchisi – shaxs faqat sudning ayblov xulosasiga, qaroriga binoan aybdor deb topilishi va qonunda ko‘zda tutilgan huquqiy chora yoki jazoga tortilishi mumkin. Demak, shaxsning aybdorligini belgilash uchun faqat isbotlash tartib-qoidalariga rioya qilishning o‘zi kamlik qiladi, shu sababli jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari yetarlicha mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Shaxsning harakatlarida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010-yil 12-noyabrda gi qo‘shma majlisida ta‘kidlaganidek, «Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Bu borada «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya‘ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazilishi prinsipial qadam bo‘ldi. Ushbu qarorning o‘z vaqtida va puxta o‘ylab qabul qilingani bugungi kunda ko‘pgina amaliy misollarda o‘z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda»¹.

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2010. – 22-bet.

Yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar mavjud va ularga quyidagilar kiradi: *aqli norasolik, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavflilik darajasi bo'lmagan huquqbuzarliklar sodir etish* va hokazolar.

Yuridik javobgarlik va davlat majburlovining boshqa turlarini farqlash katta nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. U shaxs va jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun ta'sir o'tkazishning maqsadga muvofiq va qonuniy vositasini tanlash imkonini beradi.

Shunday qilib, fuqaroning aybsizligi prezumpsiyasi o'zboshimchalik, zo'ravonlik, g'ayriqonuniy bosim o'tkazish va qonuniylik buzilishining oldini oluvchi muhim kafolatdir.

XXIV bob. FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT

1-§. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va mohiyati

Fuqarolik jamiyati insoniyat tarixiy taraqqiyotining alohida yetuklik davri sifatida uning ma'rifiy shakllanish, komillikka erishish va ravnaq topish bosqichlarini o'z qamroviga oladi. Bunday ideal jamiyat haqidagi g'oyaning paydo bo'lishidan uning hayotiy voqelikka aylanishigacha bo'lgan amaliyotni ilmiy jihatdan tahlil etish hozirgi kunning dolzarb mavzusidir. Bashariyat o'z tamaddunida ulkan taraqqiyot darajasiga erishganligiga qaramay, bugunga qadar fuqarolik jamiyati g'oyasining tub ma'nosi, mohiyati bo'yicha yagona nuqtayi nazar shakllanmadi, uning yagona ilmiy ta'rifini yaratishga erishilmadi. Xo'sh, «fuqarolik jamiyati» kategoriyasining ma'no-mazmuni, ilmiy talqini, mohiyatiga oid xususiyat-belgilari qanday? Bu borada adabiyotlarda, jumladan, huquqshunoslik sohasidagi adabiyotlarda qanday fikr-mulohazalar mavjud, degan savollar o'zining ilmiy yechimini kutmoqda.

Fuqarolik jamiyati qadimdan alloma – mutafakkirlar nazdida jamiyat va davlat siyosiy tuzumining adolat, erkinlik, tafakkur zamiriga qurilgan ideal namunasi tarzida ifodalanib kelgan. Masalan, Aristotel jamiyatni davlatdan alohida tasavvur etmagan; davlatni fuqarolarning umumiy jamoasi deb ta'riflagan. «Davlat fuqarolar yig'indisining o'z ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish qobiliyatiga ega bo'lib yashashidir». Mark Tulliy Sitseron jamiyatda fuqarolarning huquqiy jihatdan tengligini isbotlashga uringan: «... qonun fuqarolik jamiyatini bog'lovchi bo'g'ini, huquq esa, qonun bilan o'rnatilib, barcha uchun bir xil bo'ladi». Taraqqiyotning bu bosqichida fuqarolik jamiyati davlat bilan aynan bir deb e'tirof etilgan.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi tarixan insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida yashagan mutafakkirlarning adolatli ijtimoiy tuzum modelini yaratish yo'lidagi intilishlari bilan tavsiflanadigan alohida bir davrni aks ettiradi.

Hozirgi sharoitda fuqarolik jamiyatini barpo etish dunyodagi aksariyat davlatlarning siyosiy dasturlarida, konstitutsiyalarida mustahkamlangan maqsadga aylangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgach, o'z oldiga adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etish vazifasini strategik maqsad qilib belgiladi. Zotan, mamlakatimizda

shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat prinsiplariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo‘lmog‘i lozim.

Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatidan shu narsa qat‘iy ayonki, mam-lakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat – demokratiya va adolat prinsiplariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: «Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma‘nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgani sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya‘ni o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir»¹. U yana quyidagilarga e‘tiborni qaratgan edi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya‘ni, erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi»².

Xo‘sh, fuqarolik jamiyatining mohiyatini nima tashkil qiladi, u qanday jamiyat?

Eng umumiy tarzda lo‘nda ta‘rif beriladigan bo‘lsa, **fuqarolik jamiyati** – ijtimoiy hayotning davlat ta‘siri va aralashuvidan, ma‘muriy tazyiqlardan holi bo‘lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Hozirgi davrda falsafiy, siyosiy va yuridik adabiyotlarda fuqarolik jamiyatini ta‘rif va tavsif etishga faol harakat qilinmoqda. Bu ta‘riflardan ba‘zilarini talqin etaylik.

Fuqarolik jamiyati – davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo‘lib, u shaxs hamda jamoalarning ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayot sohasidagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta‘riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko‘pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro‘yobga chiqariladi. Biroq, bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligini, begonalashtirilishini anglatmaydi.

Fuqarolik jamiyati – shaxslarning oddiy yig‘indisi emas, balki ular o‘rtasidagi turli aloqalar, hamkorlik, hamjihatlikning ifodasidir. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy-institutsiyaviy ko‘rinishga ega bo‘lib, u

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O‘zbekiston», 1995. – 14-bet.

² Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O‘zbekiston», 1997. – 173-bet.

turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik jamiyati nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois uni uch asosiy jihat, uchta yo'nalish bo'yicha:

1) iqtisodiy jihat; 2) siyosiy jihat; 3) ma'naviy-axloqiy jihat asosida ta'riflash mumkin.

Birinchi jihat. Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yo'l beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyatga zamin yaratuvchi shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi ta'minlanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim. Davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamситmasligi lozim. Bu talab, avvalo, iqtisodiy ishlab chiqarish, xususiy tadbirkorlik sohasiga taalluqlidir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ta'kidlanganidek, «Birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkning daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta'minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor, avvalo, shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, ***davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir***»¹.

Mamlakatimiz parlamenti tomonidan 2012-yil 24-sentabrda «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi². U xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash uchun qonuniy – huquqiy maydon yaratdi.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qo'shgan nemis faylasufi G. Gegel, bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U ikki asosiy prinsipni ajratib ko'rsatgan:

birinchidan, shaxslar o'z xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar;

ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bog'liq bo'ladi.

Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy struktura bo'lmish fuqarolar jamiyati bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimidan iboratdir. Bunday munosabat-

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 48-bet.

² Xalq so'zi, 2012-yil 25-sentabr.

larga ishlab chiqarishdagi raqobat va unda hokimiyatning ma'muriy aralashuvini cheklash orqali erishiladi. Fuqarolar jamiyati insonning ijodiy faolligini namoyon etishga yo'l ochuvchi munosabatlar shakllangan taqdirda zohir bo'ladi.

Buyuk fransuz inqilobining manifesti – 1791-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida ham xususiy mulk muqaddas va dahlsiz deb e'lon qilingan. Feodalizmning ashaddiy dushmani bo'lgan yakobinchilar esa, xususiy mulkni yangi jamiyatning, ya'ni fuqarolik jamiyatining birdan-bir asosi deb bilganlar. Tarix saboqlaridan ma'lumki, xususiy mulk nafaqat jamiyatni turli qatlamlarga ajratgan, balki, ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan tashabbusni rag'batlantirgan, hokimiyatga nisbatan mustaqil (avtonom) tuzilmalarni vujudga keltirgan.

O'zbekistonda ham xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topmoqda, tadbirkorlikka, kichik va xususiy biznesga keng yo'l ochilib, uning tegishli tashkiliy va huquqiy mezanizmlari vujudga keltirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng ko'lamda xususiylashtirish (aksiyalashtirish) jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Xo'sh, nima sababdan islohotchi – davlat O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini jadal shakllantirib borishdan manfaatdor?

*Birinchi*dan, shu asnodamamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari olg'a siljish yo'llari va usullari xususida fuqarolar kelishuviga erishish to'g'risida norasmiy ijtimoiy shartnoma tuzish va uni ro'yobga chiqarishda islohotchi-davlat uchun sherik vujudga keltiriladi.

*Ikkinchi*dan, fuqarolik jamiyati o'z institutlari orqali shaxsning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlagan holda, davlatda vakillik demokratiyasining va mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tizimning asosi hisoblanadi.

*Uchinchi*dan, O'zbekiston xalqi *fuqarolik institutlari* va mexanizmlari, avvalo saylov tizimi orqali o'zining siyosiy yuksalishi va hayotiy muhim milliy manfaatlarini ifodalashi uchun barqaror shart-sharoitlar yaratmoqda.

*To'rtinchi*dan, fuqarolik jamiyati shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat, etnik va konfessional jamoalar, ijtimoiy-demografik guruhlarining hayotiy muhim manfaatlarining o'zaro maqbul muvozanatidan kelib chiqqan holda quriladi.

*Beshinchi*dan, demokratik jamiyat fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligiga asoslangan. O'z navbatida, uning o'zi turmushning barcha sohalaridagi islohotlar jarayonida bunday faollikning o'sib borishini izchil rag'batlantirib boradi va davlatning byurokratlashuvi, uning institutlari fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlaridan uzilib qolishi xavfiga qarshi turadi.

O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo'nalishini belgilagan Harakatlar strategiyasida quyidagilar ta'kidlangan: «Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettiriladi. Bundan maqsad:

– xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi», degan tamoyilni amalga oshirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuv-larning qat'iy oldini olish;

– davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtiril-gan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solish-da davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirish-dan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish»¹.

Ikkinchi jihati. Siyosiy nuqtayi nazardan baholaganda fuqarolik jamiyatidagi siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvning mazmun-mohiyatini huquqiy davlatchilik ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Bu ikki hodisaning o'zaro munosabati shakl bilan mazmunning o'zaro aloqadorligini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati to'la ma'noda mavjud bo'lishining shak-shubhasiz sharti huquqiy davlatning mavjudligidir. Va aksin-cha, huquqiy davlat faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makonda qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o'zaro nisbatini iqtisod bilan siyosatning nisbati tarzida izohlash o'rinli bo'ladi. Buni O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Zero, iqtisodiy islohotlar tegishli demokratik siyosiy tuzilmalar, institutlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr / – T.: «Adolat», 2017. – 19–20-betlar.

Mamlakatimizda mulk shaklini o'zgartirish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat tuzilmalari vujudga keltirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi tashkil etilib (1992-yil), u mamlakatda xususiylashtirishni amalga oshirish bilan shug'ullanib kelmoqda. Prezidentning 1992-1993-yillarda qabul qilingan o'ttizdan ortiq farmonlari bilan davlat mulkchiligiga asoslangan o'nlab vazirlik va davlat qo'mitalari boshqa mulk shaklidagi konsern, assotsiatsiya, uyushma va jamg'armalarga aylantirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi paxtachilik vazirligi zamirida O'zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish davlat aksiyadorlik assotsiatsiyasi tashkil etildi (1992-yil 7-noyabr), Mahalliy sanoat vazirligi isloh etilib, uning o'rnida Prezidentning 1992-yil 3-sentabrdagi farmoni bilan «Mahalliy sanoat» davlat korporatsiyasi tashkil etildi. Shuningdek, «O'zbeksavdo» assotsiatsiyasi (1992-yil 5-maydagi farmoni) «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi (1992-yil 28-yanvardagi farmoni) tashkil topdi va hokazo.

1997-yil 20-mayda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qilindi. Bu qarorning asosiy maqsadi Hukumat apparatini iqtisodiyotni boshqarishning bozor usullariga o'tkazishdan iborat edi. Vazirlar Mahkamasi apparati bevosita sohaviy ma'muriy boshqaruvdan qaytib, boshqaruvning funksional tizimiga o'tdi. Buni ma'nosi shuki, Vazirlar Mahkamasi apparati xo'jalik yurituvchilar faoliyatiga aralashmaydi, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan boshqarmaydi. Buning o'rniga u iqtisodiyotni bozor yo'liga o'tkazishning umumiy strategiyasini ishlab chiqadi, iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy komplekslar faoliyatini uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, tarkibiy va institutsional qayta o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, tadbirkorlik va raqobatchilikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsiflanishi faqat davlat tuzilmalarini rivojlantirishdan iborat emas. Demokratiya ravnaq topishi uchun fuqarolik jamiyatida xurfikrlilik, siyosiy plyuralizm ham qaror topishi zarur. Buning uchun jamiyatda tom ma'nodagi ko'ppartiyaviylik, jamoat va nodavlat tashkilotlarining keng ko'lamli tizimi, tadbirkorlarning ittifoqlari, uyushmalari, mehnatkashlar mustaqil birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi vujudga keltirilishi lozim, toki bu tuzilmalar davlat organlari bilan teng huquqli munosabatlarga kirisha olsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 25 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidladi: «fuqarolarning fikr, so'z va e'tiqod erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash –

rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir.

Biz bugun, demokratik o'zgarishlar davrida mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy hayotida bevosita va faol ishtirok etish istagida bo'lgan fuqarolarimizning salohiyati to'la namoyon bo'lishini ta'minlashimiz lozim. Bu borada ko'ppartiyaviylik tizimi, partiyalararo bahs-munozara, fikrlar va dasturlar o'rtasidagi raqobatni jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga ega¹.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tizimida ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi. Tahlil yuritilayotgan jabhada huquqiy davlatning asosiy vazifasi inson va fuqaroning yuksak huquqiy maqomini ta'minlab berishdan iborat. Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, deb yozilgan. Buning ma'nosi shuki, davlat, uning organlari avvalo fuqarolarning huquqlarini hurmat qilishlari lozim. Qonunda belgilangan fuqaroviy huquq va erkinliklar davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun muqaddas bo'lmog'i lozim. O'z fuqarolarining haq-huquqlarini ta'minlab bera olmagan davlat demokratik huquqiy davlat deb atalishi mumkin emas. Fuqarolar qonun oldida teng, huquqning teng subyekti sifatida e'tirof etilishi lozim.

Fuqarolar va ularning uyushmalari davlat organlari bilan huquqning teng subyektlari sifatida munosabatga kirishadilar. Basharti, bu teng huquqiy munosabatlarda tomonlardan birining huquqiga, manfaatiga putur yetkazilsa, u sudga murojaat etishi va qonuniy asoslarda sud tartibida o'z huquqini tiklashga erishishi lozim. Huquqiy davlatchilikning muhim prinsiplaridan biri ana shunday. Shunday qilib, huquqiy davlat nafaqat fuqarolik jamiyatini boshqaruvchi tizim, balki o'zini o'zi boshqaruvchi fuqarolik jamiyatiga bog'liq, uning manfaat va ehtiyojlariga bo'ysunuvchi tizim sifatida maydonga chiqadi.

Uchinchi jihati. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya ulug'lanadi, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr-qimmat, mehr-oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarning belgilovchi mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Demokratik islohotlar davrida ma'naviyatni yuksaltirishga asosiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ma'naviyat – insoniyat ichki dunyosining ko'zgusi, tafakkuri, ongi va fikr yuritish tarzining mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi yuksak ijtimoiy qadriyatdir. Insoniyat hamisha ezgulikka, ma'naviy

¹ Xalq so'zi, 2017-yil 8-dekabr.

barkamollikka intilib yashaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning yaqin kelajakdagi istiqboli hamyurtlarimiz qanday mavqeni egallashiga, qanaqa madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Fuqarolik jamiyati huquq va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Huquq jamiyatning o'ziga xos «gumanistik imperativi» (insonparvarlik talabi), ya'ni insoniy-axloqiy qoidasi, ma'naviy mayog'i hisoblanadi. Fuqarolarning o'zaro huquqiy munosabatidagi mavqei quyidagi prinsiplar asosida belgilanadi:

- 1) jamiyatning har bir a'zosi inson sifatida erkin va ozod bo'lishi;
- 2) har bir fuqaroning boshqa fuqaro bilan tengligi;
- 3) jamiyat har bir a'zosining fuqaro maqomidagi mustaqilligi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, suveren davlatchilikni shakllantirishda madaniyatimiz sarchashmalariga, teran va ulkan ma'naviy merosimizga murojaat qilish, boqiy tarixiy o'tmishimizda mavjud bo'lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish borasida beqiyos imkoniyatlar ochildi. O'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligi chuqur mushohada etilib, ijtimoiy ongimizga singdirilmoqda, shu orqali biz barpo etayotgan yangi fuqarolik jamiyati manfaatlariga xizmat qilmoqda. Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki odil demokratik jamiyat barpo etmoqdamiz. Davlatchiligimiz adolat prinsiplariga tayanadi. «Adolatga intilish – xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak»¹. Ma'naviy-madaniy saviya past bo'lgan jamiyatda adolat tantanasi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyatida adolat, haqiqat va insonparvarlik g'oyalari ustuvorlik qilishi lozim. Adolat bor joyda inson haq-huquqlari va erkinliklari to'la ta'minlanishiga umid bog'lash mumkin.

Shunday qilib, ***fuqarolik jamiyatining*** quyidagi asosiy belgilari va xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

- 1) jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmuniga ega bo'lishi; mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi;
- 2) jamiyat mazmunini, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatini xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998. – 399-bet.

3) xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida rol yo'nashi;

4) fuqarolarning yuridik jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi, jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi;

5) shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi; huquqiy davlatchilikning mavjud bo'lishi;

6) shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;

7) davlat, davlat organlari va fuqarolar huquqning teng subyekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ular sudda teng taraflar sifatida ishtirok eta olishi; fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta'minlash mexanizmlarining yaratilganligi;

8) fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi;

9) jamiyatning yuksak ma'naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi; insonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e'zozlash asosiga qurilganligi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquq va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatini samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyatdir.

2-§. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy tuzilishi va asosiy prinsiplari

Fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir. Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini

aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalari, birlashmalari, nodavlat tashkilotlari va organlari mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida aktiv faoliyat ko'rsatadi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, hayotiy orzu-niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbayi ekanligini, uning layoqati va

harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilotlar va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga:

- 1) ko'ppartiyaviylik;
- 2) siyosiy hayot va siyosiy institutlarning, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi;
- 3) o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeining balandligi;
- 4) jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining kattaligi kiradi. Fuqarolik jamiyatida ma'naviy hayot umumbashariy qadriyatlar asosida amalga oshirilganligi, insonning muqaddasligi, erkinligi, qonun oldida tengligi, ijtimoiy adolatning to'liq qaror topganligi bilan belgilanadi.

Demak, ***fuqarolik jamiyati*** – teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini amalga oshirishga ko'maklashadigan jamoat va nodavlat institutlarining tizimidir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidangina iborat bo'lmay, balki ular faoliyati natijasida paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini milliy va diniy an'analarsiz, odatlar, odob-axloq normalari va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy, madaniy, diniy va boshqa manfaatlarini shakllantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan. Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko'rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona, huquqiy hal etilishini siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, ularning inson manfaatlarini himoya qilishga va ijtimoiy munosabatlarni maqbul holga keltirishga yo'naltirilganligi fuqarolik jamiyati asoslarini qaror toptirishning asosiy omillaridir.

Fuqarolik jamiyatida huquq va qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'liq ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, bu barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham bildiradi.

O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanib, davlatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etmoqdalar. «O'tmish davri sharoitida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyaviy tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan olganda, davlatning roli siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlarining vujudga kelishi, qaror topishi va rivojlaniishi sekinlashtirib qo'yadigan har qanday g'ov va to'siqlarni bartaraf etishdan iboratdir»¹.

Fuqarolik jamiyatidagi mavjud manfaatlarni qanoatlantirish, ro'yobga chiqarish uchun tegishli tashkiliy tuzilmalar va institutlar shakllanadi.

Fuqarolik jamiyatining ichki tizimini quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchidan, iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar:

a) xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlar;

b) shirkat xo'jaliklari va ularning uyushmalari;

d) ijara asosida ishlovchi jamoalar;

e) hissadorlik jamiyatlari;

f) moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar;

g) ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari;

h) tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va hokazo.

Ikkinchidan, ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar:

a) oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar;

b) ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalari);

d) jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar;

e) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;

f) mustaqil ommaviy axborot vositalari;

g) diniy tashkilotlar;

h) milliy-madaniy markazlar;

i) ko'ngilli jamiyatlar;

j) jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari;

k) turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va hokazo.

Uchinchidan, siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar:

a) huquqiy davlatning mavjudligi;

b) siyosiy partiyalar;

d) ijtimoiy-siyosiy harakatlar;

e) siyosiy muholifatning mavjudligi;

f) inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va hokazo.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997. – 174-bet.

Yuqorida keltirilgan tasnif umumiy bo'lib, u eng asosiy tarkibiy tuzilmalarni ifodalaydi. Albatta, fuqarolik jamiyati o'zining rang-barangligi, turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Unda turfa ko'rinishdagi ma'rifiy, madaniy va boshqa mazmundagi tashkilotlar faoliyat ko'rsatishi mumkin.

3-§. Davlat va fuqarolik jamiyati

Davlat – har qanday jamiyatda siyosiy hokimiyatning eng muhim institutidir.

Davlat jamiyatning umumiy ishlarini boshqaruvchi alohida organ sifatida faoliyat yuritadi. Davlat – jamiyatning siyosiy tashkilotlari tizimida muhim, ammo yakka-yu yagona bo'g'in emas: ushbu tizimga partiyalar va boshqa tashkilotlar ham kiradi. Biroq, jamiyat miqyosida faqat davlat suveren hokimiyatga ega bo'ladi. Davlat hokimiyatining ustunligi muayyan tarzda uning universalligi (davlat hokimiyatining yurisdiksiyasi mamlakatning butun hududi, barcha aholisi va jamoat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etiladi), vakolatlarida (davlat hokimiyati unga da'vo qiluvchi boshqa har qanday g'ayri konstitutsiyaviy va muvoziy tuzilmalarni bekor qilishi mumkin), shuningdek, boshqa ta'sir ko'rsatish vositalarining mavjudligida (masalan, qonunchilik, odil sudlov) ifodalanadi.

Fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishi, shaxs va davlat o'zaro munosabatlarining madaniylashuvi jamiyatdagi munosabatlarni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Siyosiy munosabatlar sohasida davlat haqli ravishda yetakchi o'rin egallaydi, bunda u fuqarolik jamiyatiga bog'liq bo'ladi, ya'ni uning faoliyati jamiyat manfaatlariga taalluqli har qanday umumiy ishlarni bajarishi bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyati odamlarning ijtimoiy va shaxsiy manfaat hamda huquqlarini ifodalash va himoya qilishga safarbar etilgan ixtiyoriy uyushmalari (jamoat birlashmalari, partiyalar, kasaba uyushmalari, shirkatlar, diniy tashkilotlar va hokazo) timsolida davlat bilan alohida siyosiy munosabatlarga kirishadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, davlatning demokratik faoliyati uchun asoslar shuncha ko'p bo'ladi. Va aksincha, fuqarolik jamiyati yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, avtoritar va totalitar hokimiyat tuzumlari mavjudligi uchun asoslar ko'proq bo'ladi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi aholi qatlamlarining qamrab olinganlik darajasi bilan emas, balki bu jamiyatda tan olinadigan shaxs erkinligining ta'minlanishi holati bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat barcha mulkdorlarning huquqiy jihatdan teng himoya qilinishini ta'minlaydi, xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qiladi, ijtimoiy zarurat tufayli mulk olib qo'yilgan holda unga tovon to'lanishi kafolatlanadi.

Bunday jamiyatda mehnat erkin bo'lib, davlat tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham rag'batlantiriladi, majburiy mehnat taqiqlanadi, individual va jamoaviy mehnat erkinligi kafolatlanadi. Davlat aholini ish bilan to'la ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi, kasb-hunar ta'limi va yangi ixtisos olish dasturlarini joriy etadi mehnatga tayyorlash va ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lanishini amalga oshiradi.

Jamiyatni davlatning yalpi «homiyligi»dan ozod qilishda uni «tungi qorovul» darajasiga tushirib qo'yish yaramaydi. Barcha ijtimoiy tuzilmalarda tub o'zgarishlar yuz berayotgan sharoitda aynan davlat yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiradigan birlashtiruvchi kuchga aylanishi lozim. Jamiyatni davlat ta'sirisiz o'zgartirish, isloh qilish mumkin emas. Uning inson huquqlarini himoya qilish sohasida bozor islohotlarining salbiy oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyati, ayniqsa, muhimdir. Davlatning ijtimoiy vazifasi daromadlarni jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida soliq tizimi, davlat budjeti va maxsus ijtimoiy dasturlar yordamida qayta taqsimlashdan iborat.

Uzoq muddatli, istiqbolli maqsad sifatida davlat fuqarolarning moddiy holatini tenglashtirishga harakat qilishi lozim. Nafaqat yuridik, balki haqiqiy tenglikka erishish – tarixan qisqa fursatda erishib bo'lmaydigan vazifa. Biroq, bu ulkan ma'naviy imkoniyatni o'zida mujassamlashtirgan tenglik g'oyasi rad etilishini anglatmaydi. Jamiyatimizning rivojlanish yo'llarini aniqlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga davlatning aralashuvi chegaralarini, mulkni taqsimlashda uning tartibga soluvchi rolini, davlat ijtimoiy funksiyasining o'sishini va uning o'z fuqarolariga munosib turmush sharoitini yaratish uchun mas'ulligini kuchaytirish muhim vazifadir.

O'zbekistonda tenglik, adolat va yuksak ma'naviyatga asta-sekin erishishni ta'minlovchi huquqiy davlatni shakllantirish yangi demokratik jamiyat modelining muhim jihatidir.

4-§. Huquqiy davlat haqidagi ta'limot

Insoniyat davlat paydo bo'lgan qadimgi davrdan buyon adolatli hokimiyat (adolatli hukmdor) haqida orzu qilib keladi. Xuddi mana shu istak huquqiy davlat haqidagi ta'limotning vujudga kelishiga turtki bergan.

Huquqiy davlat – fuqarolik jamiyatining siyosiy shakli bo'lib, u jamiyat hayotida demokratik institutlarning rivoj topishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi mavjudligi bilan tavsiflanadigan, inson huquq va manfaatlarini ustuvor ta'minlaydigan davlatdir. Shuningdek, huquqiy davlat huquq va

qonunning ustunligi, qonun va sud oldida barchaning tengligi ta'minlanadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati vakolatlari demokratik taqsimlash asosida tashkil etiladigan adolatli davlat sifatida ta'riflanadi.

Hozirgi zamon huquqiy davlati – avvalo, inson huquq va erkinliklari, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillar orqali) xalqning ishtiroki ta'minlanuvchi demokratik davlat. U yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va e'tiqodlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati ta'minlanadi. Bu, xususan, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining shakllanishi va faoliyat olib borishi, siyosiy plyuralizm, so'z va matbuot erkinligi hamda shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Huquqiy davlatning quyidagi belgilarini alohida e'tirof etish lozim:

- 1) jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunning ustunligi;
- 2) huquqiy davlat organlarining faoliyati hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi prinsipiga asoslanadi;
- 3) shaxs va davlatning o'zaro mas'ulligi;
- 4) fuqarolarning huquq va erkinliklari amalda ta'minlanishi, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyalanganligi;
- 5) konstitutsiya doirasida ish olib boruvchi turli partiyalar, tashkilotlar va birlashmalarning erkin faoliyati, turli mafkuraviy qarashlarning mavjudligiga asoslangan siyosiy va mafkuraviy plyuralizmning qaror topganligi;
- 6) jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotning barqarorligi.

Huquqiy davlat shakllanishining qo'shimcha omillari va shartlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy ongda huquqiy nigilizmga barham berish;
- yuksak darajadagi siyosiy-huquqiy savodxonlikka erishish;
- partiyalar bilan davlat organlari funksiyalarini ajratish;
- davlat boshqaruvini demokratlashtirish;
- huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
- yangi huquqiy tafakkur va huquqiy qadriyatlarning vujudga keltirilishi.

Huquqiy davlatda tabiiy-tarixiy huquq va erkinliklar, davlat bilan munosabatlarda fuqarolar manfaatining ustunligi, huquqda umuminsoniy asoslar, insonning oliy qadri ta'minlanadi. «Huquqiy davlat» tushunchasi – demokratiya, insonparvarlik, inson huquqlari, siyosiy va iqtisodiy erkinliklar, liberalizm kabi muhim umuminsoniy qadriyatlardan biri. *Huquqiy davlatning mohiyati* – ijtimoiy va siyosiy hayotda huquqning ustunligi, suveren huquqiy hokimiyatning mavjudligida ifodalanadi. Hokimiyatning bo'linishi prinsip yordamida davlat huquqiy usulda tashkil topadi va faoliyat ko'rsatadi, bu siyosiy hayotning de-

mokratiyalashuvi mezonidir. Huquqiy davlatning oddiy davlatdan farqi nimada? Oddiy davlat butun hokimiyatni o'z qo'lida jamlaganligi, huquq bilan chegaralanmaganligi, davlatning jamiyatdan ustunligi, fuqaroning davlat organlari va mansabdor shaxslar o'zboshimchaligidan himoya qilinmaganligi bilan tavsiflanadi. Undan farqli o'laroq, huquqiy davlat huquq bilan bog'langan bo'ladi, qonunning ustunligidan kelib chiqadi, jamiyat tomonidan belgilangan mezonlar doirasida ish ko'radi, jamiyatga bo'ysunadi, fuqarolar oldida mas'ul bo'ladi, fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta'minlaydi. Ayni vaqtda, boshqa har qanday davlat singari, huquqiy davlat ham umumiy jihatlarga ega bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat:

1) ommaviy-siyosiy hokimiyat ichki va tashqi siyosat olib borish vositasi sifatida huquqiy davlatga xosdir;

2) huquqiy davlat jamiyatning tegishli ijtimoiy-iqtisodiy negiziga asoslangan siyosiy tashkilotidir;

3) demokratik davlat mexanizmiga ega bo'ladi;

4) soliqlar va boshqa yig'img'lar hisobidan ta'minlanadi;

5) davlat suverenitetini xalq suverenitetiga muvofiq amalga oshiradi.

Huquqiy davlatning mohiyatini huquqning oliyligi, hukmronligi, qonunning ustunligi tashkil etadi. Qonunning ustunligini ta'kidlaganda shu narsa muhimki, har qanday qonunning ustunligini ta'minlash bu hali huquqiy davlatchilik vujudga keldi degani emas. Chunki, qonunlar o'z mazmuniga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, mustabid, totalitar, avtoritar, fashistik davlatlarda nohaqlik, zo'ravonlik va johillikni ifodalovchi qonunlar amal qilishi mumkin. Bunday qonunlarning ustunligini ta'minlash huquqiy davlatchilik bilan hech qanday aloqasi yo'q. Huquqiy davlatda tom ma'noda xalq irodasini ifodalovchi adolatli, demokratik, insonparvar qonunlarning ustuvorligi ta'minlanishi nazarda tutiladi. Xuddi shu ma'noda haqqoniy, huquqiy qonun haqida gapiriladi.

Huquqiy davlatda hokimiyatning diqqat markazida turadigan asosiy narsa – bu fuqarolarning, shaxsning huquq va erkinliklarining kafolatlanganligidir. Huquq, qonun erkinlik va adolat me'yori sifatida maydonga chiqadi. Qonun yordamida shaxs erkinliklarining ta'minlanishi – huquqiy davlatning muhim funksiyasidir.

Huquqiy davlat huquq va qonunning ustunligi, qonun va sud oldida barchaning tengligi ta'minlanadigan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati vakolatlari demokratik taqsimlash asosida tashkil etiladigan adolatli davlat sifatida maydonga chiqadi. Zamonaviy huquqiy davlat – avvalo, inson huquq va erkinliklari, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillari orqali) xalqning ishtiroki ta'minlanadigan demokra-

tik davlat. U yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va e'tiqodlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati ta'minlanadi. Bu, xususan, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining shakllanishi va faoliyat olib borishi, siyosiy plyuralizm, so'z va matbuot erkinligi hamda shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Huquqiy davlat uchun fuqarolarning davlat oldida va davlatning fuqarolar oldida o'zaro mas'ulligi xosdir. Davlat har bir insonga tug'ilishidan boshlab tegishli ajralmas huquq va erkinliklarni nafaqat tan oladi, balki ularni hayotga real tatbiq etish va tajovuzlardan himoyalashni ham kafolatlaydi. O'z navbatida, fuqarolar o'z huquq va manfaatlaridan davlat, boshqa fuqarolar, ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga zarar yetkazmagan holda foydalanishlari mumkin, ya'ni ular o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni qat'iy bajarishlari lozim¹.

Huquqiy davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat. Uning barcha tarkibiy qismlari va elementlari hokimiyatning bo'linishi prinsipi asosida, o'z ijtimoiy vazifalariga muvofiq ravishda ish olib boradi. Huquqiy davlatning hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan organlari o'z faoliyatida jamiyat xohish-irodasini ro'yobga chiqaradi. Huquqiy davlatning tarkibiy qismlari va elementlari o'z faoliyatini amaldagi qonunlarga muvofiq tashkil etadi va amalga oshiradi. Mansabdor shaxslar fuqarolarning konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan kafolatlangan huquqlari va erkinliklariga tajovuz qilganlik uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari huquqiy davlat organlari tomonidan ta'minlanadi. Huquqiy davlat funksiyalari uning apparati yordamida amalga oshiriladi. Shunday qilib, huquqiy davlat mexanizmining demokratik xususiyati uning o'zi xizmat qiladigan jamiyat oldida javobgarligi bilan belgilanadi. Huquqiy davlatning rivojlanish bosqichlari fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlariga mutanosib bo'ladi.

Huquqiy davlatda davlat hokimiyati mutlaq bo'lmaydi. Bu nafaqat huquqning ustunligi, davlat hokimiyatining huquq bilan bog'liqligi, balki davlat hokimiyatining tuzilishi, uni amalga oshirish shakllari bilan ham belgilanadi. Bu yerda hokimiyatning bo'linishi nazariyasiga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Bu nazariyaga binoan, hokimiyatlar(qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari)ning birikib ketishi, bir organda, bir shaxs qo'lida jamlanishi shaxs erkinligini yo'qqa chiqaradi. Shu bois, huquq bilan bog'liq bo'lmagan avtoritar mutlaq hokimiyat vujudga kelishining oldini olish uchun hokimiyatning ko'rsatilgan tarmoqlarga bo'linishi amalga oshadi.

¹ Odilqoriyev X.T., Chiniboyev X.J. Davlat hokimiyati: mohiyati, funksiyasi va zamonaviy talqini. – T., 2015. – 31–36-betlar.

Hokimiyatning bo'linishi yordamida davlat huquqiy usulda tashkil topadi va faoliyat ko'rsatadi: davlat organlari bir-birining o'rnini bosmay o'z vakolatlari doirasida ish olib boradilar; qonunchilik, ijro va sud hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining o'zaro munosabatlarida muvozanat, mutanosiblik, o'zaro nazorat o'rnatiladi.

Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi prinsipi ularning har biri mustaqil ish ko'rish va boshqa tarmoqlar ishiga aralashmasligini anglatadi. Bu prinsip izchil amalga oshirilgan taqdirda u yoki bu hokimiyat tarmog'ining boshqa tarmoq vakolatini o'zlashtirish imkoniyatiga chek qo'yiladi. Hokimiyat tarmoqlarining «o'zaro muvozanat va cheklovlar» tizimi yaratilsa, hokimiyatning bo'linishi prinsipi yashovchan xususiyat kasb etadi. Mazkur tizim bir hokimiyat tarmog'i boshqa tarmoq vakolatlarini qonunga xilof ravishda tortib olish imkoniyatini cheklaydi va davlat organlarining normal faoliyatini ta'minlaydi.

Hozirgi ilg'or demokratik davlatlarda davlat hokimiyatining klassik «uch tarmoq»ga bo'linishi bilan bir qatorda, uning federativ tuzilishi ham hokimiyatni taqsimlash va nomarkazlashtirish usuli hisoblanishiga e'tibor berish lozim.

Demokratik jamiyat uchun hokimiyatning bo'linishi prinsipi ayniqsa muhimdir. U nafaqat davlat organlari o'rtasida mehnat taqsimotini, balki davlat hokimiyatining bir qo'lda jamlanishi, avtoritar yoki totalitar hokimiyatga aylanishining oldini oluvchi barqarorlik, «taqsimlanganlik»ni ifodalaydi. Bu prinsip demokratik jamiyatda har uch hokimiyatning ham bir xil, teng kuchga ega ekanligi, bir-birini muvozanatga solish va cheklash vositasi bo'lib xizmat qilishi, biri boshqalaridan ustun bo'lishiga, masalan, boshqaruv hokimiyati avtoritar hokimiyatga, qonunchilik hokimiyati esa – boshqaruvni ham, odil sudlovni ham bo'ysundirgan totalitar hokimiyatga aylanishiga yo'l qo'ymasligini nazarda tutadi. Biroq, hatto hokimiyatning bo'linishi talabi bajarilgan, «o'zaro muvozanat va cheklovlar» tizimi yaratilgan bo'lsa ham davlat albatta, huquqiy bo'lavermaydi. Shu bois huquqiy davlatning navbatdagi belgisi – qonun ustuvorligi belgisi alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy davlatda biron-bir davlat organi, mansabdor shaxs, jamoa yoki jamoat tashkiloti, biron-bir odam qonunni buzishi mumkin emas. Qonunni buzganlik uchun ular qat'iy yuridik javobgarlikka tortiladi. Qonunning ustunligi to'g'risida so'z yuritilar ekan, bu barcha qonun osti hujjatlari qonunga muvofiq bo'lishi lozimligi, mansabdor shaxslar uni bajarishdan bo'yin tovlamasligi yoki uni buzmasligi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, barcha oddiy fuqarolar ham o'z faoliyatida qonunga rioya qilishlari lozim. Buning uchun ular qonun mazmunidan xabardor bo'lishlari kerak.

Huquqiy davlat Konstitutsiyaning barqarorligini ham nazarda tutadi. Uni tez-tez o'zgartirish, to'ldirish va yangilash maqsadga muvofiq emas. Zero, bu holda u davlatning barqaror, uzoq muddatli xususiyatga ega Asosiy qonuni bo'lmay qoladi. Agar konstitutsiya jamiyatning davlat darajasidagi xohish-irodasini ifodalasa, uni o'zgartirish, yangilash xususiy xohish-irodaga emas, balki konstitutsiyaga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Qonuniylikni mustahkamlash – huquqiy davlatning bosh mezon. O'zbekiston Respublikasida qabul qilinuvchi barcha normativ – huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga mos bo'lgan va O'zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy sanalgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Hukumatini qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi, ularning ijrosini ta'minlaydi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlariga asoslanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etish uchun majburiydir. Qonuniylik va huquqiy davlat – ko'p jihatdan uzviy kategoriyalardir, biroq ular o'rtasida farq bor. Qonuniylik huquq sohasidagi barcha subyektlarning qonunlarga so'zsiz rioya etishlarini talab qiladi, huquqiy davlat esa, xuddi shunday talabni xalq hokimiyati funksiyalarini bajaruvchi davlat tuzilmalariga nisbatan ham qo'yadi. Shu sababli huquqiy davlatchilik, eng avvalo, hokimiyat tuzilmalari, chunonchi, davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va prokuratura organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonun ustuvorligini anglatadi.

Huquqiy davlatda inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Boz ustiga, huquqiy davlat bu huquqlarni amalga oshirishni qat'iy va izchil ta'minlashi va ularni himoya qilishi lozim. Shu munosabat bilan jamiyat va davlat hayotining turli jabhalarida huquqiy tenglik muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning yechimi davlat bunday tenglikni ta'minlovchi ishonchli kafolatlarni yaratishini nazarda tutadi.

Huquqiy davlatga xos bo'lgan inson va fuqaro huquq va erkinliklari ro'yxati xalqaro hujjatlarda ifodalangan. Bu, eng avvalo, BMT Bosh Assambleyasi 1948-yil 10-dekabrda qabul qilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yil 16-dekabrda qabul qilgan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» hamda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» va boshqalardir.

Ko'rsatilgan hujjatlarda e'lon qilingan huquq va erkinliklar ro'yxati huquqiy davlatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlab qo'yilgan va kafolatlangan. Ularda shaxsni yuridik himoya qilishga alohida e'tibor beriladi. Ma'lumki, aybsizlik prezumpsiyasiz shaxsni yuridik himoya qilishni ta'minlash mumkin

emas. Aybsizlik prezumpsiyasi haqiqiy demokratik davlatda fuqarolarning u yoki bu jinoyatni sodir etishda aybdorligi yoki aybsizligi bilan bog‘liq barcha masalalarni faqat sud hal qilishini anglatadi.

5-§. O‘zbekiston – huquqiy ijtimoiy davlat

Mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan chorak asr mobaynida mamlakatimiz ilmiy hamjamiyati, shu jumladan, huquqshunoslar, asosiy e‘tiborni istiqbolda barpo etilishi mo‘ljallanayotgan huquqiy davlatni ta‘rif va tavsif etishga, uning turli xususiyat hamda fazilatlarini ochishga, izohlashga qaratib keldilar. Ayni vaqtda, davlatimizning *ijtimoiy tabiatini*, *ijtimoiy vazifasi* va faoliyatini (funktsiyasini) tahlil etish olimlar va mutaxassislarining diqqat-markazidan chetda qolayotir. Shu bois, **«huquqiy davlat»** kategoriyasi bilan bir qatorda **«ijtimoiy davlat»** fenomeni (hodisasi)ni ilmiy tadqiq va tahlil mavzusiga aylantirish muhim ilmiy, amaliy hamda metodologik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy davlatchilik tushunchasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi. Bu davrda neoliberal nazariyotchilar «erkinlik»ning yangi «pozitiv» talqinini ilgari surib, davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni ta‘minlash majburiyati g‘oyasini ilgari surdilar. Bunga ko‘ra, davlat «ijtimoiy tengsizlik»ni bartaraf etishi, ya‘ni boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi nisbatni muvozanatlashi lozim edi. Shu tariqa davlatning «ikkinchi avlod» inson huquqlarini (ya‘ni, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar) ta‘minlash bilan bog‘liq faoliyatini nazarda tutuvchi **«ijtimoiy davlat»** g‘oyasi, ta‘limoti paydo bo‘ldi. U XX asrning ikkinchi yarmida keng rivoj topdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bir qator G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining (GFR, Fransiya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Daniya, Shvetsiya va boshq.). Konstitutsiyalarida «ijtimoiy davlat» («sotsial davlat») formulasi o‘z ifodasini topdi.

Keng tarqalgan talqinga binoan, ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, o‘z fuqarolarining farovonligi, ularning ijtimoiy himoyalanganligi xususida g‘amxo‘rlik qiladigan davlatdir. Bunday davlat erkinlikni ta‘minlash vazifasini aholining ijtimoiy nochor qatlamlari(ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlar, boquvchisidan ajralganlar, nogironlar va h.k.)ni ijtimoiy himoyalash bilan qo‘shib olib boradi.

«Ijtimoiylik»ning asosiy sharti – inson shaxsiga, uning sha‘ni, qadr-qimmatini, erkiga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishdan iborat. Davlatning mohiyati uning faoliyat yo‘nalishlarida mujassamlashadi. Davlat faoliyatining muayyan qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Ana shunday vazifalar faoliyatining aksariyatini tashkil etgan demokratik davlatlar – ijtimoiy davlat sanalishi mumkin.

Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya'ni ko'pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi ifodasidir. Shunga ko'ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib ijtimoiydir.

Yuridik adabiyotlarda ijtimoiy davlatning tabiatiga, belgi va xususiyatlarga oid turli talqinlar beriladi. Bir qator tadqiqotchilar ijtimoiy davlatni fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini (ya'ni, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi va boshq.) e'lon qiluvchi yoki pensiya va boshqa nafaqalarni ta'minlovchi davlat deb baholaydilar¹. Ammo bu yondashuv ijtimoiy davlatning o'ta boy ma'nosini yetarlicha ocha olmaydi. U ancha teran mazmun-mohiyat kasb etadi. «Sotsial (ijtimoiy) davlat, – V.M. Baglayning fikricha, – fuqarolarni ish bilan ta'minlanishiga sharoit yaratadigan, umumiy daromadlarni budjet vositasida qayta taqsimlaydigan, odamlarga turmush kechirishning eng quyi chegarasini (minimumni) ta'minlaydigan, kichik va o'rta mulkdorlar hissasi ko'payishiga ko'maklashadigan, yollanma mehnatni muhofaza qiladigan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash va oila xususida g'amxo'rlik qiladigan, ijtimoiy ta'minotni muntazam yaxshilaydigan davlatdir»².

Konstitutsiya davlat uchun aniq ijtimoiy dasturni belgilab bermaydi, balki unda davlat siyosatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari belgilanadi. Davlat siyosatining ikki muhim jihatini nazarda tutish lozim. *Birinchisi* – fuqarolarga munosib hayot kechirish uchun va insonning erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratishda ifodalanadi. Bu – mehnatni va insonlar sog'lig'ini muhofazalash, ish haqining minimal hajmini belgilash, ishsizlikning oldini olish va h.k. *Ikkinchisi* – aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, oilani, onalik, otalik va bolalikni muhofazalash, nogironlarga va qariyalarga g'amxo'rlik qilish va boshqalar. Ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish, davlat pensiyalarini, nafaqalar va boshqa ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilash ko'zda tutiladi³. Professor O.E. Leyst ta'biricha, «sotsial davlat» nafaqat huquqiy tartibotni muhofazalashi, shuningdek kam ta'minlanganlar va butun jamiyat manfaati uchun ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi (qonun vositasida ish kuni davomiyligini, bolalar va ayollar mehnatini cheklash hamda taqiqlashni, mehnatga qobiliyatsizlarni, ijtimoiy himoya bilan, ishsizlarni ish bilan ta'minlashni, davlat hisobidan umumiy o'rta ta'limni, bepul meditsina xizmatidan foydalanish kabilarni huquqiy tartibga solishi) lozim⁴. Ijtimoiy davlatni tavsiflovchi ijtimoiy siyosat-

¹ Qarang: Иваненко В.А., Иваненко В.С. Социальные права человека и социальные обязанности государства: международные и конституционные правовые аспекты. – СПб., 2003. – 62–63-betlar.

² Qarang: Баглай В.М. Конституционное право Российской Федерации. – М., 2007. – 137-bet.

³ Qarang: Конституция Российской Федерации: комментарий / Под общ. ред. Б. Топорнина и др. – М., 1994. – 21-bet.

⁴ Qarang: Лейст О.Э. Гражданское общество, государство и право / Общая теория государства и права. Академический курс. Отв. ред. М.Н. Марченко, Том 1. – М., 1998. – 346-bet.

ning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan tarkib topadi: mehnatni va odamlar sog'lig'ini muhofazalash, mehnatga haq to'lashning eng minimal miqdorini kafolatlash, oilani, onalik, otalik va bolalikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, nogironlar va keksalarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish, davlat pensiyalarini, boshqa to'lov va nafaqalarni belgilash, ijtimoiy himoyani kafolatlash va h.k. Demak, biz nazarda tutayotgan ma'nodagi davlat ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat yuritishi, ijtimoiy (shu jumladan, mulkiy) tengsizlikni ijtimoiy adolat talablari asosida muvozanatlashtirishi, ijtimoiy rivojlanishda mo'tadillik va barqarorlikni ta'minlashi lozim. Biroq, ijtimoiy davlatni paternalistik davlat¹ bilan aynanlashtirish o'rinsiz bo'lar edi, davlat jamiyat va insonlarning barcha ehtiyojlarini to'la ta'minlab beradi, deb umid qilish to'g'ri emas. Davlat hamma narsani muhayyo qiladi, muruvvat manbayi deb, boqimandalikka berilish ham ma'qul emas.

Professorlar E.I. Kozlova va O.E. Kutafin ijtimoiy davlatni ijtimoiy tenglik, umumiy hamjihatlik va o'zaro mas'ullik prinsiplarining huquq vositasi mustahkamlanganligiga tayanib, yuksak ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashni bosh vazifasi deb biluvchi davlat deb ta'riflaydilar. Ijtimoiy davlat zaif insonlarga ko'maklashadi, iqtisodiy (moddiy) boyliklarni ijtimoiy adolat prinsipi ruhida taqsimlab, har bir insonga munosib hayot kechirishni ta'minlashga intiladi².

Inson o'z ehtiyojlarini qondirishi, munosib hayot kechirishi uchun mablag'ga ega bo'lishi, buning uchun esa, ish bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Shu bois ijtimoiy davlat shaxsning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, ishsizlikning oldini oladi, ish o'rinlari yaratadi, ijtimoiy muhtojlarni, nogironlarni pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Konstitutsiya demokratik mamlakat sharoitida huquqiy ijtimoiy davlat mumkin qadar hamma fuqarolarning ravnaqiga teng sharoitlar yaratishga ko'maklashishini va hayot mashaqqatlarini imkon qadar teng taqsimlashini nazarda tutadi.

Ijtimoiy davlatning funksiyalari ancha keng. Bular aholi bandligini ta'minlash, jamiyat miqyosida moddiy boyliklarni budjet yo'li bilan muvozanatlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va muhofaza etish, ta'lim-tarbiya borasida g'amxo'rlik qilish, odamlarga tirikchilik uchun eng kam chegarani belgilash, oilani himoyalash, ijtimoiy ta'minot tizimini yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash va sportni rivojlantirish kabi funksiyalar. Mazkur yo'nalishlardagi ijtimoiy faoliyat iqtisodiyotga davlat aralashuvini kengaytirmaydi, balki bozor iqtisodiyotini hamda shaxsiy tashabbuskorlik(tadbirkorlik)ni rivojlantirishni nazarda tutadi.

¹ Paternalizm – lot. «paternus» – otaga taalluqlilik. Paternalistik davlat – o'z fuqarolariga «otalarga» g'amxo'rlik ko'rsatadigan davlat ma'nosida. Davlat hamma shart-sharoitlarni yaratib beradi, deb ishonish.

² Козлова Е.И., Кутафин О.Е. Конституционное право России. – М., 1999. – 131-бет.

Ijtimoiy davlatning maqsadlariga erishish ijtimoiy siyosat uslublaridan tashqari tegishli qonunchilik va ma'muriy tashkiliy-tuzilmalar vujudga keltirilishini ham taqozo etadi. Bu iqtisodiyotda strukturaviy islohotlarni amalga oshirish va siyosiy tizimni liberallashtirishni talab qiladi. Jamiyatdagi siyosiy kuchlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida murosai-madoraga erishish, ijtimoiy hamkorlik (sheriklik) ni yo'lga qo'yish har qanday hukumat sharoitida ijtimoiy siyosatni ravon yuritish imkonini beradi. Shuningdek, ijtimoiy zo'riqishlar (inqirozlar) ni bartaraf etishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalariga muvofiq, davlatimizni ijtimoiy yo'naltirilgan, insonparvar – ijtimoiy tabiat va mohiyatga ega ekanligini e'tirof etish mumkin. Avvalo, Asosiy qonunimizning muqaddimasida davlatning maqsadi – respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, deb belgilangan. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-modda). Ushbu konstitutsiyaviy talab davlatning jamiyat va fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini to'la-to'kis bajarish sohasiga ham taalluqlidir.

Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, milati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. Ijtimoiy adolat prinsipiga urg'u berilishi, davlatga, uning barcha organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, «Adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya etish qoidasi yangilangan ijtimoiy siyosat qurilishiga asos qilib olindi»¹. Shaxsni hurmat qilish, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish – davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarning majburiyatlari bo'lib hisoblanadi (Konstitutsiyaning 30-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlaganidek, «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur»².

Asosiy qonunimizda huquqiy ijtimoiy davlatga xos quyidagi normalar mustahkamlangan: har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir (37-modda). Ushbu konstitutsiyaviy talabni amalga oshirish maqsadida 1998-yil 1-mayda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, bir qator farmonlar va hukumat qarorlari qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, hukumatning ijtimoiy dasturlariga muvofiq, har

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995. – 129-bet.

² Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 16-bet.

yili o'rta hisobda 1 millionga yaqin ish o'rinlari yaratiladi. «Aholi bandligini ta'minlash... ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi... Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rinlari tashkil etildi»¹. 2015-yilda aholi turmush sifati va darajasini yanada oshirish yo'li davom ettirildi. Bu yil mobaynida 970 mingta yangi ish o'rinlari, shu jumladan, qishloq joylarida 451, 6 mingta yangi ish o'rni tashkil etildi².

Harakatlar strategiyasining (2017-yil, fevral) «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash choralari nazarda tutiladi. Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda³.

Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadir. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi (38-modda). O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 115-moddasiga binoan, xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa, sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim. Ish vaqtining muddati 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 36 soatdan, 15-16 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa – 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi (242-modda). Uch yoshga to'lmagan bolalari bor, budjet hisobidan ta'minlanadigan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga, ayollarga, homila-

¹ Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari. – T., 2015. – 51-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to'g'risida axborot.// Xalq so'zi, 2015-yil 20-oktabr.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. – T.: «Adolat», 2017. – 34–35-betlar.

dor ayollarga, nogiron farzandni tarbiya va parvarish qilayotgan ota-onalar bir qator imtiyoz va yengilliklar nazarda tutilgan.

Ijtimoiy tabiatga ega davlatimiz har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda belgilangan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini kafolatli ta'minlaydi. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdoridan oz bo'lishi mumkin emas (Asosiy qonunning 39-moddasi).

Ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishlaridan biri aholi sog'lig'ini saqlashdir. Hukumat har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishdek konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash uchun izchil siyosat olib bormoqda. Bu siyosat 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonun»¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning davlat dasturi to'g'risida»gi (1998-yil 10-noyabr) Farmoni, «Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2003-yil 26-fevral) Farmoni² va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 16-yanvardagi majlisida quyidagi fikrlarni bildirdi: «Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish... doimo e'tiborimiz markazida bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlash, ... ijtimoiy infrastruktura obyektlarini jadal rivojlantirish, aholini sifatli ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya tozalash tizimlari bilan ta'minlash biz uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjeti jami harajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltiriladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 4 trln. 100 mln. so'm yoki 22,5 foiz ko'p demakdir. Jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz, sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflanadi»³.

2016-yilga mo'ljallangan Davlat budjetida ta'lim va tibbiyot muassasalarini qayta qurishga 1,5 trln. so'm ajratish ko'zda tutildi. 339 ta o'quv muassasalari rekonstruksiya qilindi⁴.

Prezident Sh. Mirziyoev o'z ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidladi: «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi doirasida amalga oshirgan ishlarimiz haqida

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 9-son, 128-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, 20-son, 148-modda.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 2-son, 16-modda, 2013-yil, 36-son, 477-modda.

³ Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning nutq va ma'ruzalari). – T.: «O'zbekiston», 2015. – 61-bet.

⁴ Xalq so'zi, 2015-yil 12-noyabr.

yana uzoq gapirish mumkin... Ana shu maqsadlar uchun barcha mablag'lar hisobidan 7 trln. 480 mlrd. so'm va 190 million dollardan ziyod mablag' sarflandi»¹. Mazkur choralar inson manfaatlari himoyasiga yo'naltirilgan, chuqur o'ylab, mulohaza qilingan ijtimoiy siyosatning natijasidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat miqyosida daromadlarni budjet vositasida muvozanatlashdek muhim ijtimoiy funksiyani bajaradi. O'zbekiston davlati bu funksiyaga alohida e'tibor qaratishiga quyidagi satrlar misol bo'ladi. «Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi (MDHdagi eng yuqori ko'rsatkich)... eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000-yildagi 53,3 baravardan bugungi kunda 7,8 baravarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezonini hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 baravar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim»².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasiga ko'ra, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir. Yurtimizda katta yoshdagi avlodga, keksalarga hurmat ko'rsatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2015-yil «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinganligi alohida e'tiborga molikdir. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktabrda o'tkazilgan majlisida ta'kidlanganidek, «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturi doirasida keksalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish tadbirlarini amalga oshirish davom ettirilmogda, ushbu tadbirlarni moliyalashtirishga barcha manbalardan 2,0 trillion so'mdan ko'proq mablag' yo'naltiriladi³. Bu yo'nalishda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 29-martda qabul qilingan «O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish to'g'risida»gi qarorining⁴ ijrosini izchil ta'minlash ham o'z ijobiy samarasini bermoqda.

Asosiy qonunimizning 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Keyingi moddada mustahkamlanganidek, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 14-bet.

² Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning nutq va ma'ruzalari). – T.: «O'zbekiston», 2015. – 46-bet.

³ Xalq so'zi, 2015-yil 20-oktabr.

⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2002-yil, 5–6-son, 46-modda.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohaga oid qonunchilik ham izchil rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalishda yuqoridagi konstitutsiyaviy qoidalar realizatsiyasiga oid ba'zi normativ hujjatlarni keltiramiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi-ning «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuni (1991-yil 18-noyabr), «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida» gi qonun (2008-yil 8-yanvar), «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida»gi qonun (2010-yil 29-sentabr), «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» gi qonun (1993-yil 3-sentabr), «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi qonun (2014-yil 2-yanvar), «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida»gi Prezident farmoni (1996-yil 10-dekabr), Vazirlar Mahkamasining «O'zgarlar parvarishiga muhtoj keksalar, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishni kuchaytirish to'g'risida»gi qarori (2002-yil 29-mart)¹, «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qiyotgan hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qarovsiz qolgan bolalarni moddiy ta'minlash normalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (2007-yil 29-noyabr)².

Yuqoridagi yo'qlama tarzidagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya salmoqli ijtimoiy va insonparvar mazmundagi moddalarni o'z mazmuniga jo etgan. Konstitutsiyamiz o'rnatgan prinsip va normalar davlatimizning mohiyatini, siyosiy-ijtimoiy tabiatini ham belgilab beradi. U amal qilayotgan yillar mobaynida davlatimizning ijtimoiy yo'naltirilganlik funksiyalari, insonparvar tabiati ham tobora yaqqolroq namoyon bo'lib bormoqda. Konstitutsiya va uning negizida yaratilgan ijtimoiy qonunchilik tizimi hamda ushbu qonunchilik bazasini hayotga joriy etish bilan bog'liq davlat funksiyalari yo'nalishlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, davlatimiz o'z faoliyati mazmuniga ko'ra, demokratik huquqiy ijtimoiy davlat martabasiga tobora ko'proq ega bo'lib bormoqda.

6-§. Huquqiy davlat ta'limotining tarixiy-nazariy manbalari

Endilikda jahonda huquqiy davlatlarning soni etatik davlatlar sonining kamayishi hisobiga o'sadi deb e'tirof etish mumkin. Biroq bu taraqqiyotning umumiy yo'nalishi bo'lib, uni oddiy so'z bilan izohlab bo'lmaydi.

Zero, turli mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning real nisbatidan kelib chiqqan holda bashorat qilinishi qiyin bo'lgan hamda taraqqiyotning umumiy yo'nalishiga mos kelmaydigan burilishlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan,

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2002-yil, 5–6-son, 46-modda.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007-yil, 48–49-son, 485-modda.

alohida davlatlar huquqiy davlat marrasiga yetganidan so'ng, ularda keyinchalik totalitar va avtoritar tuzumlar qaror topishi mumkin va hokazo. Biroq, shunday bo'lsa-da, umumiy taraqqiyot muqarrardir.

Darhaqiqat, huquqiy davlatning nazariy manbalari o'z ildizlari bilan o'tmishga borib taqalganini ta'kidlash joiz. Qadim zamonlarda yashab o'tgan buyuk allomalar (Platon, Arastu) davlat huquqining ulkan ijobiy ahamiyatini hisobga olmagan holda mustahkam, barqaror va ishonchli bo'la olmasligi haqida fikr bildirganlar. Huquq davlat hukmdorlarining zo'ravonligiga qarshi posangi sifatida baholangan. Ya'ni, qonun hech kimning hukmronligi ostida bo'lmasligi kerak, zero, barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning harakatlarini yo'naltirishga xizmat qiladi.

Dastlab tarqoq bo'lgan, ba'zida esa, alohida farazlar sifatida namoyon bo'lgan g'oyalar zamirida keyinchalik huquqiy davlatning izchil va yaxlit konsepsiyasi vujudga keldi. Uning asoschilari Dj. Lokk, I. Kant, V. Gumbold, G. Ellinek, K. Shmidt hisoblanadi. Mazkur allomalarning qarashlarida ayrim tafovutlar bo'lsa-da, umuman olganda, ular bir narsada haqlar, u ham bo'lsa, davlatning o'zi huquqiy qonun-qoidalarga amal qilishi va buni ijtimoiy munosabatlarning boshqa ishtirokchilaridan talab qilishi kerakligidan iborat. Huquqiy davlat nazariy konsepsiyasi qoidalarining bir qator davlatlarning amaliy faoliyatiga tatbiq etilishi konservativ kuchlarning qarshiligiga uchragan va uni yenggan holda davlat va jamoat faoliyatining barcha jabhalarida chuqur o'zgarishlar bilan iz qoldirgan. Chunonchi, butun davlat tizimini barpo etish va amal qilish prinsiplari demokratlashtirilgan, shaxs maqomi real mazmun bilan to'ldirilgan, huquqiy qadriyatlar birlamchi ahamiyatga ega bo'la boshlagan, mansabdor shaxslar zo'ravonligiga barham berilgan, ularning faoliyati asta-sekin tartibga solingan va yo'lga qo'yilgan.

Huquqiy davlatlar «oilasi»ning paydo bo'lishi va ortib borishi jamiyatning siyosiy taraqqiyotida yuzaga keladigan yangi bosqichni qayd etadi. Davlat-huquqiy nazariyasi va amaliyotining ushbu mislsiz yutug'i hozirgi zamon sivilizatsiyasining ulkan muvaffaqiyatga erishganidan dalolat beradi. Huquqiy davlatlarning mavjudligi hayotning barcha tarmoqlarida erishayotgan kundalik yutuqlari, boshqa mamlakatlar uchun mayoq vazifasini o'taydi hamda ularga adolatli insonparvar davlat qurish yo'llarini ko'rsatadi.

Huquqiy davlat etatik davlatdan qat'iy ravishda ajralib turadi. Mazkur tafovut davlat hokimiyatini tashkil qilish va amalga oshirishning barcha taraflari, shuningdek oldida turgan vazifalarni hal etish shakl va usullari, jamiyat, millat va elatlar, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Ulardan eng muhimlari haqida to'xtalamiz:

1. Huquqiy davlatda hokimiyatning butun mexanizmi – har bir organ, mansabdor shaxs o‘z faoliyati davomida huquqiy prinsiplar va qoidalarga tayanadi, o‘z faoliyatini ular bilan bog‘laydi. Huquqiy normalar nafaqat aholi, balki davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun ham majburiydir. Ularning huquq doirasidan chiqishiga umuman yo‘l qo‘yilmaydi yoki bunga imkon berilmaydi. Agar etatik davlatda rasmiy organlar va mansabdor shaxslar huquqni o‘zlari uchun ikkinchi darajali va majburiy emas deb tushunsalar, aksincha huquqiy davlat sharoitida bunday holat umuman nomaqbul va nojoiz hisoblanadi va shu sababdan u sekin-asta yengib o‘tiladi.

2. Huquqiy davlatda etatik davlat uchun xos bo‘lgan huquq va qonun o‘rtasidagi masofaning uzayib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Undagi davlat organlarining barcha normativ hujjatlari o‘zining mazmun-mohiyati va yo‘nalishi, qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi, qonuniy kuchga kiritish, qo‘llash, amalga oshirish va buzilishlardan muhofaza qilish xususiyatlariga ko‘ra huquqning yuqori talablariga javob beradi. Qonunchilik muntazam ravishda huquqiy prinsiplarga asoslanadi, ularni o‘ziga singdiradi, ulardan aslo chekinmaydi. Davlat organlarining huquqiy bo‘lmagan normativ hujjatlarni qabul qilish va amalga kiritishiga umuman yo‘l qo‘yilmaydi, aksincha, etatik davlatlarda ko‘pincha buning shohidi bo‘lish mumkin.

3. Huquqiy davlat normativ qonunlarni qabul qilish va e‘tirof etish bilan cheklanib qolmaydi. U mazkur qonunlar zaruriy ravishda hayotga tatbiq etilishi, barcha jismoniy va yuridik shaxslar, davlat va jamoat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar faoliyatini kerakli yo‘nalishga solishga katta ahamiyat beradi. Davlatning huquqni amalga oshirish bo‘yicha faoliyati ustuvor vazifa hisoblanadi, shu bois, unda «qog‘ozda qolgan», amal qilmaydigan qonunlar umuman yo‘q, aksincha etatik davlatda keraksiz qonunlarning «uyumlari»ni hech kim tozalashga urinmaydi ham. Huquqiy davlatda ijtimoiy munosabatlarning har bir subyekti davlat organlarining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini albatta bajarish kerakligiga astoydil ishonadi (boshqacha bo‘lishi mumkin emas), zero bu huquqiy tartibotning barqarorligi muhitini yaratadi va jamiyatda yuridik nigilizm tarqalishining oldini oladi hamda odamlarning huquqqa mensimay munosabatda bo‘lishini bartaraf etadi.

4. Huquqiy davlatda davlat normativ hujjatlarining amal qilishida subordnatsiyaga rioya qilinishiga katta ahamiyat beriladi. Unda huquq manbalari, ya‘ni normativ hujjatlarning qat‘iy bo‘ysundirilgan tizimi shakllanadi, amal qiladi va rivojlanadi. Bu tizimda har bir aktning o‘rni uning yuridik kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur tizim, ifodali qilib aytganda, huquqiy manbalar «ehromi»ning cho‘qqisi – yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan konstitutsiya hisoblanadi. Hech qanday huquqiy manba konstitutsiya normalari va prinsiplariga to‘g‘ridan to‘g‘ri

yoki bilvosita zid bo'lishi mumkin emas. Aksincha, davlat organlarining barcha normativ hujjatlari va huquqning boshqa manbalari konstitutsiyaga asoslaniishi, uni aniqlashtirishi, to'ldirishi va mazmunini rivojlantirishi lozim. Shunga muvofiq ravishda konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar tuziladi, yuridik pillapoya (piramida)ning quyi «qavatlar» davlat rahbarining hujjatlari, hukumat farmonlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari va ko'rsatmalari, mahalliy vakolatli va ijro etuvchi organlar hujjatlari, huquqiy odatlar, sud va ma'muriy presedentlar¹ yaratiladi. Kamroq yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlarga yuqoriroq yuridik hujjatlarga nisbatan ustuvor ahamiyat berilishi to'g'ri va avtoritar davlatlarga xos bo'lib, huquqiy manbalar subordinatsiyasi va iyerarxiyasini buzadi va shu bois huquqiy davlat uchun zid hisoblanadi.

5. Shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining maqomi *birinchidan*, huquqiy davlatda huquq va erkinliklarning keng miqyosda qamrab olinganligi, normal hayot faoliyati ta'minlanganligi hamda oldinda turgan vazifalarni hal etish uchun yetariligi bilan ajralib turadi. *Ikkinchidan*, huquqlar bilan uyg'unlikda majburiyatlarning mutanosib va muvofiq tizimini o'z ichiga oladi. *Uchinchidan*, huquqni albatta hayotga tatbiq etish real yuridik kafolatlar bilan mustahkamlangan. Bunda ijtimoiy munosabatlarning bir turdagi subyektlari orasida tenglikni ta'minlash, sinfiy, milliy, urug'-aymoqchilik imtiyozlarini belgilash va bu orqali ulardan biriga imtiyoz berib, ikkinchisini imtiyozlardan mahrum etishga yo'l qo'ymaslikka intilish mavjuddir. Subyektlar orasida mazkur tenglikning yo'qligi etatik jamiyatning huquqiy amaliyoti uchun xosdir. Bir vaqtning o'zida huquqiy davlat shaxs va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining maqomini qo'llab-quvvatlash, normativ mustahkamlash va takomillashtirish haqida g'amxo'rlik qiladi, o'zidagi yashirin imkoniyatlarni huquq subyektlari oldida namoyon qilishga intiladi.

6. Barcha davlat va ijtimoiy institutlar hamda tuzilmalarning legitimligi – huquqiy davlatning alohida belgilaridan biridir. Bu yerda yetarli yuridik asosga ega bo'lmagan institutlar va tuzilmalarni kam uchratish mumkin. Basharti, ular mavjud bo'lsa ham, uzoq muddatga yashash va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish istiqbollari ega bo'lmaydilar, pirovardida yengib bo'lmas qiyinchiliklarga uchrab, tezda sahnadan tushib ketadilar. Davlat institutlari va tuzilmalarining ko'pchiligi qonun asosida, belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilgan holda, ularning maqsadi, vazifasi, amal qilish shakli va usullari rasmiy belgilangan holda yaratiladi. Xususan, bu qonuniylashtirishni ro'yxatga olish, ijozat berish va litsenziya berish usullari, shuningdek, tegishli davlat organ-

¹ Precedent huquqi huquqning anglo-sakson tizimi amal qiladigan mamlakatlarda keng qo'llaniladi va amal qiladi (bular: AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada v.b.). Endilikda boshqa qator mamlakatlarda qo'llanila boshladi.

lari tomonidan nazorat-taftish vakolatlarining qo'llanilishi bilan ta'minlanadi. Huquqiy davlatdagi muhitning o'zi yuridik munosabatda shubhali institut va tuzilmalarning qisqarishi uchun kurashadi va aksincha, qonuniyligi tasdiqlanadigan institutlar uchun esa keng imkoniyatlar yaratib beradi.

7. Huquqiy davlatda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi e'tirof etiladi va amalga oshiriladi. Shunga muvofiq yagona davlat hokimiyati doirasida uning uchta mustaqil tarmoqqa bo'linishi ta'minlanadi. Bular yuqorida ta'kidlanganidek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bo'lib, ular o'zaro uzviy munosabatda bo'ladilar. Ko'rib chiqilayotgan prinsipning ahamiyati shundaki, u hokimiyatning faqat bitta organ yoki mansabdor shaxs qo'lida jamlanishining oldini oladi, natijada ichki davlat apparatida hokimiyat vakolatlarining teng taqsimlanishini ta'minlaydi.

8. Huquqiy davlatda ichki qonunlar hamda umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalari o'rtasida oqilona muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha choratadbirlar amalga oshiriladi. Bu muvofiqlik hozirgi zamon huquqiy sivilizatsiyasi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur yutuqlar u yoki bu darajada huquqiy davlatlarga ham tegishli bo'lib, ularda odatda, ichki qonunlar oldida xalqaro shartnomalar (faqat ratifikatsiya qilinganlari) ning ustuvorligi belgilanadi va bu shartnomalarning bevosita qo'llanilishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar yuridik tizimlarining tashqi dunyodan alohidaligi va cheklanganligi bartaraf etiladi, ya'ni ular jahon hamjamiyatining huquqiy tizimiga integratsiyalashadilar va ko'pgina asosiy prinsip hamda normalariga rioya etib, ularni o'z normativ-huquqiy hujjatlari darajasida mustahkamlaydilar.

9. Huquqiy tartibot buzilgan hollarda (ayniqsa fuqarolar huquq va erkinliklarining buzilishi) huquqiy ta'sir qilish va huquqiy himoya mexanizmi amal qiladi, unda sud birinchi darajali rol o'ynaydi. Mazkur mexanizm boshlangan jinoyatning oldini olish, buzilgan huquqni tiklash, yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash, aybdorlarni jazolash, yangi huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar va ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga davlatning barcha huquqiy talablari to'liq ravishda bajarilishi lozimligi haqida uqtirish vazifalarini hal qiladi. Agar huquqiy tartibot, fuqarolar huquq va erkinliklarining har qanday buzilishi tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning e'tiboridan chetda qolmasa, tartibbuzarlar har gal munosib jazo olsa, bunday yondashuvning o'zi qonunni buzishning samarali umumiy preventiv, ya'ni oldini oluvchi omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, bu davlatda qonuniylikka rioya etish sharoitiga ta'sir etadi. Huquqiy davlatning yurisdiksiya, huquqiy tartibotni muhofaza qilish va oldini olish faoliyatida huquqiy talablarga qat'iy

rioya etishi zarur. Shu sababdan jamiyat hayotining huquqiy «kayfiyati» etatik davlatdagiga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.

10. Huquqiy jamiyat uchun fuqarolarning davlat oldida va davlatning fuqarolar oldida o'zaro mas'ulligi xosdir. Davlat har bir odamga tug'ilishidan boshlab berilgan tabiiy ajralmas huquq va erkinliklarni tan olish bilan birga ularni hayotga real tatbiq etish va tajovuzlardan himoyalashni ham kafolatlaydi. O'z navbatida, fuqarolar o'z huquq va manfaatlaridan davlat, boshqa fuqarolar, ijtimoiy munosabatlarning boshqa subyektlariga zarar yetkazmagan holda foydalanishlari mumkin, ya'ni ular o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni qat'iy bajarishlari lozim. Boshqacha aytganda, davlatning fuqarolar bilan aloqasi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular o'rtasida muayyan huquqlarning vujudga kelishi hamda muayyan majburiyatlarning bajarilishini taqozo etadi.

7-§. Huquqiy davlat va uning belgilari

Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Huquqiy davlatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Huquqning hukmronligi. Davlat hududida bo'lgan barcha kishilar; ushbu davlat fuqarolari, xorijliklar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, yuridik shaxslar, mansabdor shaxslar, davlat hokimiyati organlari – barchasi huquqqa bo'ysunadilar.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi. Konstitutsiya va qonunlar huquqiy normalar tizimida oliy yuridik quchga egadir. Turli xil davlat idoralari chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar qonunlarga zid bo'lmasligi kerak.

Inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash. Inson huquq va erkinliklari unga tug'ilganidanoq tegishli bo'lib, ular insondan ajralmasdir. Gap, eng avvalo, insonning yashash, erkinlikka, daxlsizlikka, xavfsizlikka ega bo'lish huquqlari hamda boshqa huquq va erkinliklari to'g'risida bormoqda. Barcha fuqarolar qonun va mustaqil sud oldida tengdirlar.

Davlat va fuqaroning o'zaro mas'uliyati. Davlat qonunlarda shaxs erkinligining me'yorini belgilab qo'yar ekan, xuddi shu chegaralarda o'zini ham qaror qabul qilishda cheklab qo'yadi.

Jamiyatda hokimiyatning qonuniyligi (legitimligi). Hokimiyatni qonuniy e'tirof etish uchun quyidagi talablarga javob berilishi shart: hokimiyat

demokratik saylovlar yo'li bilan shakllantirilgan bo'lishi; hokimiyat samarali faoliyat yuritib, jamiyatda barqarorlik va qat'iy tartibni ta'minlash; u ham mamlakat ichkarisida, ham xalqaro miqyosda tan olingan bo'lishi lozim.

Hokimiyat vakolatlarining bo'linishi. Davlat hokimiyati bir qo'lda to'planib qolmasligi uchun, hokimiyatning uchta tarmog'ini – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini ajratib qo'yish kerak. Ushbu hokimiyat tarmoqlarining har biri o'z vakolati doirasida amal qiladi.

Sudning mustaqilligi. Sud, davlat hokimiyatining boshqa ikki tarmog'i kabi mustaqildir. Boshqacha aytganda, sud faoliyatiga hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali ishlashi. Agar inson huquq va erkinliklari poymol etilsa yoki bunga tahdid mavjud bo'lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar unga yordam berishlari lozim. Ular bu huquq va erkinliklarni himoya qilishlari kerak.

Huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi. Huquqiy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichi jamiyatdagi huquqiy ong darajasidir. Huquqiy ong – huquqqa munosabat, qonun talablarini bajarish zarurligini anglash darajasini ifodalaydigan huquqiy qarashlar yig'indisi. Huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarni bilish, huquqni hurmat qilish, huquqiy qoidalarga rioya etishda namoyon bo'ladi.

Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi. Siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanishi, xalq davlat boshqaruvida doimo ishtirok etishi, rivojlangan fuqarolik jamiyati shakllanishi va ma'lum bir muxolifat bo'lishi zarur.

Yuqorida keltirilgan belgilarning birgalikda amal qilishi jamiyat va davlatda huquqning hukmronligi, umume'tirof etilganligi va ustunligiga olib keladi. Bu ijobiy natija hisoblanadi. Zero, huquq – insoniyat taraqqiyotining buyuk ne'mati, huquqiy tartibga solish, boshqarish va ta'sir etish borasida to'plangan ijtimoiy tajribaning asosiy mohiyati, umuminsoniy qadriyatlar va adolat, demokratiya va tartib-intizom kabi yuksak g'oyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Huquqning jamiyat hayotidagi ulkan ahamiyati va vazifasini anglab yetgan davlatni huquqiy davlatlar qatoriga qo'shish mumkin.

Demak, huquqiy qadriyatlarning ustunligi, ularning ham aholi, ham davlat xizmatchilari orasidagi nufuziga e'tibor beradigan, o'z faoliyati davomida huquq bilan bog'liq bo'lgan hamda qonun talablari doirasida amal qilgan holda inson huquq va erkinliklarining buzilishiga yo'l qo'ymaydigan davlat chinakam huquqiy davlat hisoblanadi.

Huquqiy davlat – bizning kelajagimiz, biroq unga erishish murakkab vazifa bo'lib, rivojlanishning bir qator bosqichlarini qamrab oladi hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoatchilik va fuqarolardan jiddiy faol-

likni talab etadi. Davlat va jamiyat hayotini faollashtirish, ularning yuridik va ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish, huquqni yangilash, uni qo'llash va muhofazalashni takomillashtirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini shakllantirish, ijtimoiy hayotga demokratik huquqiy qadriyatlar va yuridik mexanizmlarni joriy etish zarur. Oldimizda turgan ustuvor vazifa huquqiy davlatga mos huquqiy tafakkurni, yuksak huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishdan iborat. Bunday kompleks yondashuv huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi sa'y-harakatlarimiz muvaffaqiyatining garovidir.

XXV bob. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA MILLIY HUQUQSHUNOSLIKNING USTUVOR VAZIFALARI

1-§. Davlat va huquq nazariyasining zamonaviy holati tahlili

Mustaqil davlat sifatidagi taraqqiyotimiz mobaynida milliy huquqshunoslik fani shakllandi va tadrijiy rivoj topmoqda. Huquqshunoslik fani ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyat hayotining huquqiy qiyofasi,

ichki mantig'i, rivojlanish qonuniyatlarining in'ikosi. Boshqacha aytganda, davlat-huquqiy voqelikning, yuridik hayotning ilmiy ifodalanishi, nazariy talqinidir. U *yangi huquqiy doktrina* asosida qaror topdi.

Zamonaviy huquqiy doktrina – yangicha demokratik huquqiy tafakkur mahsuli, ilg'or huquqiy qarashlar, nazariy umumlashma hamda qoidalar tizimi. *Huquqiy doktrina* – muayyan tizimga keltirilgan ta'limot, tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan konsepsiya, tamoyillar yig'indisi¹. Hozirgi O'zbekiston huquqiy tizimining o'zagini tashkil etayotgan huquqiy doktrina tabiiy huquq ta'limoti, umuminsoniy, umumbashariy huquqiy qadriyatlar bilan xalqimizning bir necha ming yillardan beri sayqallanib kelayotgan tarixiy, milliy, huquqiy va ma'naviy qadriyatlarining hamohangligi asosida yaratildi.

Milliy huquqshunoslik huquqiy ong va huquqiy tafakkurning qaror topishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U o'z nufuzi va maqomiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hayotni chetdan kuzatuvchi, shunchaki o'rganuvchi, hisobini yurituvchi «betaraf nozir» emas, balki islohotlar jarayonini ilmiy baholovchi, izohlovchi va o'z tavsiyalarini ishlab chiquvchi huquqiy tizimning uzviy bo'g'ini tarzida maydonga chiqmoqda.

Huquqshunoslik fani – davlat va huquqning barcha jihatlarini o'rganish asosida hosil qilinadigan ilmiy bilimlar tizimidir. Yanada mufassalroq tavsiflansa, huquqshunoslik o'ta murakkab ijtimoiy hodisalar bo'lmish davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi istiqboli, mohiyati, vazifasi va funksiyalarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini, huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza etish jarayonlarini, yuridik qonunlarni yaratish, nizolarni huquqiy hal etish tizimi hamda tartib-taomillarini o'rganuvchi, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi fandir. Zamonaviy huquqshunoslikning tahlil

¹ Qarang: Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., 2004. – 144-bet.

doirasiga, shuningdek, davlat hokimiyatini oqilona tashkil etish, demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash, huquqiy tizimni liberallashtirish, qonunchilik va yuridik amaliyotni takomillashtirish, huquqiy madaniyat va tarbiyani yuksaltirish kabi muammolarini tadqiq etish kiradi.

Huquqshunoslik predmeti hajmdor, anchagina murakkab va serqirra. Uning mazmunini yuridik bilimlar (huquqiy xususiyatga ega masalalar majmui talqini) yuridik voqeliklar mushohadasi nuqtayi nazaridan quyidagi ***uch elementdan*** iborat tarzda tavsiflash mumkin:

- davlat va huquqning qonuniyatlari;
- davlat hokimiyati hamda huquq tizimini tashkil etuvchi tarmoqlarning normativ-yuridik mazmuni;
- yurisprudensiyaning texnologiyalari, ya'ni: yuridik texnika, huquq yaratish, uni qo'llash, sharhlash, muhofaza qilish amaliyotidagi vosita va usullar.

Huquqshunoslik nafaqat nazariy bilimlar tizimi, balki davlat-huquqiy amaliyotni tahlil etuvchi fan sifatida salmoqli *amaliy salohiyatga* hamda hayotiy ahamiyatga ega. Yuridik amaliyotda faoliyat yurituvchi xodimlar (sudya, prokuror, tergovchi, yuristkonsultant) yuksak huquqiy tafakkur qobiliyatiga va tegishli bilimga (qonunchilikni mukammal bilish), yuqori huquqiy madaniyatga, yuridik texnikani qo'llash ko'nikmalariga hamda amaliy tajribaga ega bo'lishi lozim. Amaliyotchi yuristlar har qanday masalani hal etishda yuridik qadriyatlardan, adolat tamoyillari va huquq prinsiplaridan kelib chiqishi; huquqiy tartibga solishning sinalgan mexanizmlaridan foydalana olishi; real fakt (muammoli vaziyat)larni yuridik tushuncha va nazariy konstruksiyalar orqali talqin eta olishi lozim.

So'nggi yillarda huquqshunoslikning holatiga oid o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, fanning ildam rivojlanishiga halal berayotgan omillar va muayyan kamchiliklar mavjud. Bular qatorida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1. Huquqshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning gnoseologik va metodologik asoslari bo'sh, dissertatsiyalarning *ilmiy apparati* hamda *tahlil saviyasi ancha sayoz*.

2. Tadqiqotlarda *ilmiy bahs va munozara deyarli yo'q*, borlari ham nisbatan yuzaki. Ko'pincha muallifning mustaqil pozitsiyasi, nuqtayi nazari aniq ko'rinmaydi.

3. Ilmiy izlanish va ishlanmalarimiz mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardan, modernizatsiyalash jarayonlaridan *ortda qolmoqda*. Ba'zi kvaziilmiy taklif va tavsiyalarimiz *amaliyot uchun ahamiyatsiz* yoki kam ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

4. Dissertatsiya *tadqiqotlari* bilan yuridik (ijtimoiy) amaliyot *o'rtasida muayyan uzilish mavjud*, ya'ni ilmiy ishlarning *empirik bazasi* bo'sh, ularning aksariyati sotsiologik tadqiqotlarga asoslanmaydi. Ilmiy tavsiyalarning *amaliyotga joriy etilish mexanizmlari takomillashmagan*.

5. Yuridik ta'lim jarayonini huquqshunoslik ilmining so'nggi yutuqlariga asoslanib, davlat ta'lim standartlariga muvofiq tayyorlangan maxsus adabiyotlar bilan ta'minlash borasida ham *jiddiy oqsash mavjud*.

Davlatchiligimiz va huquqiy tizimimizda jo'shqin islohotlar amalga oshayotgan, jamiyatimiz demokratik tarzda yangilanayotgan hozirgi pallada ro'y berayotgan barcha voqea va jarayonlarni huquqiy mushohada etish, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish ehtiyojini aniqlash va ularni yuridik tilda ifodalash o'zbek huquqshunoslik fanining muhim vazifasidir.

Huquqshunoslik fanining bugungi kundagi asosiy vazifasi, avvalo, O'zbekistonda qaror topayotgan yangi demokratik davlatchilikning mohiyatini, uning kelgusida huquqiy davlatga aylanishi qonuniyatlarini, mazkur maqsad yo'lidagi islohotlar mazmuni va asosiy yo'nalishlarini chuqur ilmiy tahlil hamda talqin etishdan iborat. Shu bilan birga, milliy huquqiy ta'limotni shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarning qonuniyatlarini va huquqiy voqeliklarni o'rganish, ularga ilmiy baho berishda yangi jamiyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish va amaliyot uchun mukammal asoslangan nazariy xulosalar, takliflar berish hisoblanadi. Bu esa, yuridik fan sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va tashkil qilishda jiddiy o'zgarishlar yasashni, yangi shakl va usullarini o'zlashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «fanning vazifasi – kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat».

Mazkur o'rinda davlat va huquq nazariyasining dolzarb muammolari tahliliga, shuningdek konstitutsiyaviy huquq va davlat qurilishining ba'zi e'tiborli masalalariga to'xtalamiz.

E'tirof etish joizki, *davlat va huquq nazariyasi* huquqshunoslikning (yurisprudensiyaning) ilmiy-nazariy poydevorini, fundamental yo'nalishi sifatida uning metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur fan ijtimoiy-huquqiy hayot ilgari surayotgan qator yangi hodisalar, yuridik kategoriyalarning ilmiy ta'riflarini yaratadi, xossa-xususiyatlarini ochadi, funksional tedensiyalari va harakatlanish mexanizmlarini izohlaydi.

Bugungi kunda davlat va huquq nazariyasi zamonaviy demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillari, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati hodisalari, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi kabi umum-

bashariy g'oya va ta'limotlarni yangicha huquqiy tafakkur asosida qayta mushohada etmoqda.

Fanimiz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati hodisalarining mohiyati, mazmuni, muhim belgilari hamda xususiyatlarini keng tadqiq etish bilan shug'ullanmoqda. Biroq, «huquqiy davlat» bilan «fuqarolik jamiyati»ni diallektik juft kategoriyalar sifatida, ya'ni «mazmun» bilan «shakl»ning nisbati tarzida talqin qilish hanuzgacha dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Huquqiy davlat hokimiyatni oqilona demokratik tashkil etish mahsuli sifatida fuqarolik jamiyatining *siyosiy shaklini*, siyosiy mohiyatini ifoda etadi. Huquqiy davlat faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makondagina qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin. Ayni vaqtda, fuqarolik jamiyati to'la ma'noda qaror topishining shak-shubhasiz sharti huquqiy davlat mavjud bo'lishidir. Bu hodisalarning birini ikkinchisidan ajratib tasavvur etish mumkin emas.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o'zaro nisbatini, *bir tomondan*, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi, *ikkinchi tomondan*, siyosiy munosabatlar majmuining nisbati tarzida izohlab, tadqiq etish ham dolzarbdir. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari tegishli boshqaruv tizimi, demokratik siyosiy tuzilmalar, huquqiy norma va institutlar mavjud bo'lishini taqozo etayotganligini anglash lozim.

Huquqshunoslikka oid izlanishlar faol olib borilayotganligiga qaramasdan, tadqiqotchilarning aksariyati hali «*hokimiyat*» fenomenini teran anglab yeta olganlari yo'q. Masalan, hokimiyatning bo'linmas, yagona voqelik ekanligi bilan uning «bo'linishi» o'rtasidagi farqni, hokimiyat hodisasi bilan hokimiyat vakolatlari o'rtasidagi nisbatni aniqlash muammolari hanuz ilmiy yechimini topgani yo'q. Hokimiyatning yagonaligi va taqsimlanishi davlat hokimiyati tarmoqlarining dialektik holatidir. Yagonalikka dialektik muvozanat orqali, hokimiyat idoralarini oqilona uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish yordamida erishiladi.

Hokimiyat shunday ijtimoiy-irodaviy munosabatki, bunda hukmron irodaning ustunligi hamda belgilovchi, yo'naltiruvchi roli namoyon bo'ladi. Davlat irodasi tufayli davlat hokimiyati namoyon bo'ladi, va natijada, jamiyatni boshqarish amalga oshadi. Davlat boshqaruvi *vertikal* hokimiyat munosabatlari bo'lsa, fuqarolik jamiyatining mohiyatini ochish uchun undagi *gorizontal* munosabatlar tizimi va mantig'ini anglab yetish lozim bo'ladi.

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolik jamiyati tuzilmalarining hamkorligi hamda ijtimoiy sherikligini ta'minlash ham o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari, subyektlari va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish mazmuni tubdan o'zgarib borayotganligini ham e'tiborga olish lozim. *Huquqiy tartibga solish mexanizmini*

tadqiq etish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish xususida gap borganida, bu jarayonni erkinlashtirish, modernizatsiyalash xususiyatlarini chuqur mushohada etish muhimdir. Nafaqat huquqiy tartibga solish sohasida, balki mamlakatimizning butun huquqiy tizimida ro'y berayotgan liberallashtirishning asosiy mazmuni – barcha huquqiy mezonlarni, taqiq va cheklovlarni adolat tamoyillari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish, ularni oqilona mo'tadillashtirish, inson manfaatlarini ta'minlaydigan huquqiy standartlarni joriy etishdan iborat.

Huquqiy tizimimizda ustuvorlik mavqeyini egallab borayotgan liberalashtirish tendensiyasini yanada chuqurlashtira borib, qonunchiligimizda sobiq sovet tuzumidan meros qolgan «*man etuvchi*», «*taqiqlovchi*», «*majburlovchi*» mazmundagi normalar bosqichma-bosqich bartaraf etilishiga erishish lozim. Bunday huquqiy normalar o'rniga *tavsiya beruvchi*, *imtiyoz beruvchi*, *rag'batlantiruvchi normalarni* qonunchiligimizga qat'iyat bilan kiritish maqbuldir. Ushbu yo'nalishni **imperativ** (buyruq asosida) tartibga solishdan **dispozitiv** (erkin ixtiyoriy asosda) huquqiy tartibga solishga o'tish **tendensiyasi** deb atash mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlardan tashqari, huquqiy tizim va qonunchilik tizimi rivojlanishida namoyon bo'layotgan bevosita yuridik mazmundagi *tendensiya va xususiyatlarni* ham e'tirof etish mumkin:

1) *Konstitutsiya va qonunning ustunligi* tamoyili mustahkamlanib, normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunning nufuzi tobora yuksalib bormoqda. Bu boradagi navbatdagi vazifa: inson huquqlari va manfaatlariga oid barcha masalalar qonunosti hujjatlarda emas, balki faqat **qonun** darajasida mustahkamlanishiga erishishdan iborat;

2) qonunchilikda *ixtisoslashish* tendensiyasi ancha kuchli sezilib bormoqda, unda kodekslashtirishga alohida e'tibor qaratilib, ko'pgina qonunchilik sohalari bo'yicha *shox qonun – kodekslar* qabul qilindi;

3) qonunchilikning intensiv (jadal) rivojlanishi kuzatilmoqda, ayni vaqtda, uni *unifikatsiyalash* jarayonlari avj olmoqda;

4) qonunchilikning moddiy tarmoqlariga hamohang tarzda uning *protsessual sohalari* ham rivoj topib bormoqda. Ayni vaqtda, fuqarolar huquqlarini ta'minlashning protsessual mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim;

5) qonunchilik hujjatlarida yuridik texnikaga oid normalar salmog'i ortib bormoqda, ayni vaqtda, qonun chiqarish jarayonida ham *yuridik texnika* va *yangi qonunchilik texnologiyalarini yanada rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda*.

Qonunchiligimiz rivojlanishidagi muhim tendensiyalaridan yana biri uning tobora *xalqaro huquqiy standartlarga moslashib* borayotganligidir.

Jamiyat rivojlanib borgan sayin davlat va huquq ham takomillashib boradi. Shunday ekan, tabiiy ravishda davlat, huquq, demokratiya, hokimiyat, qonun va boshqa huquqiy hodisalar (institutlar) haqidagi fundamental bilimlar ham tadrijiy tarzda o'zgarib boradi. Hozirgi globallashuv va jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida boshqa yuridik fanlar qatori davlat va huquq nazariyasi fani doirasida ham davlat-huquqiy materiya xususida yangi bilimlarni to'plash va izohlash jarayoni kechmoqda.

Tahlil etilayotgan mavzu doirasida davlat va huquq nazariyasining talaygina dolzarb muammolariga to'xtalib o'tish muhimdir. Fan nihoyatda keng qamroqli, fundamental bo'lganligi bois mavjud muammolarni anglash va tasavvur etish qulay bo'lishi uchun ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) fundamental, metodologik muammolar;
- 2) umumnazariy muammolar;
- 3) xususiy-nazariy muammolar.

Davlat va huquq nazariyasining dolzarb muammolarini mazkur tasnifiy guruhlashtirishga mos ketma-ketlikda bayon etamiz.

2-§. Davlat va huquq nazariyasining metodologik muammolari

1. Mustaqillik yillarida davlat va huquq nazariyasining predmetiga yangi mavzular bilan qo'shildi, xususan: «huquqiy davlat», «fuqarolik jamiyati», «inson huquqlari», «davlat va huquqning sotsiologik hamda aksiologik talqini», «huquqiy siyosat», «yuridik konfliktologiya», «huquqiy jarayonlar va protseduralar», «sud presedentini huquqning manbayi» deb qabul qilish, «huquqiy nigilizm va idealizm», «huquqiy qadriyatlar va huquqda shaxs qadri-qimmatini», «huquqda imtiyoz va rag'bat», «yuridik antropologiya» va boshqalar. Tabiiyki, mazkur mavzularni ilmiy tadqiq etish, «o'zlashtirish» vazifasi dolzarb bo'lib turibdi.

2. Davlat va huquqni ijtimoiy institutlar sifatida, siyosiy tizim elementi, yuridik hayotning markaziy voqeligi tarzida, demokratik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shaklida talqin etishga bag'ishlangan sa'y-harakatlar, ilmiy izlanishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Biroq, fikrimizcha, ularning jamiyat hayotidagi roli va mavqeini yanada chuqurroq anglashning kaliti ***davlat va huquqni falsafiy kategoriyalar va dialektika qonunlari*** vositasida tahlil etishdan iborat. Shubhasiz, davlat va huquq hodisalarining har birini, ya'ni davlatning mohiyati, davlat funksiyasi, davlat apparati, davlat siyosati, davlat hokimiyati, shuningdek huquqning mazmun-mohiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy norma, huquqiy prinsiplar, huquqning funksiyalari, huquq

ijodkorligi, huquqni qo'llash, huquq buzilishi, qonuniylik, yuridik javobgarlik kabi va boshqa ko'plab institutlar (kategoriyalar)ni falsafiy metodologik usul va vositalar yordamida talqin qilish, ilmiy tadqiq etish yanada keng ko'lamli hamda boy bilimlar tizimini yaratishga ko'maklashishi shubhasiz.

Masalan, davlat va huquq mohiyatini falsafaning «mohiyat» xususidagi yondashuv va ilmiy arsenalidan holi tarzda to'la anglash mushkul. Yoki huquqda «mazmun» va «shakl» masalalari, huquqda «zaruriyat va tasodif» nisbati, normativ-huquqiy hujjatlar tizimida «inkorni inkor qonuni» qanday amal qilayotganligini, huquqiy munosabatlarning samarali amalga oshirilishida «voqelik va imkoniyat» ifodasi, huquq buzilishi va yuridik javobgarlikni talqin etishda «qarama-qarshiliklar birligi va kurashi» kabi falsafiy kategoriya hamda qonunlar qanday nomoyon bo'lishini tadqiq etish nihoyatda dolzarb masaladir.

3. Davlat va huquq nazariyasi fanining markaziy masalalaridan bo'lmish ***huquq normalarini yaratish, qonun ijodkorligi metodologiyasini*** tahlil etish ham muhim nazariy va amaliy samara beradi. Huquq ijodkorligini, uning asosiy shakli bo'lgan qonun ijodkorligini dialektik dunyoqarash, jumladan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishiga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlari, shuningdek, yakkalik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, sistema (tuzilma) va qism, mazmun va shakl nisbati, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalari orqali talqin etish mazkur murakkab ijtimoiy hodisalar xususida teran va boy ilmiy bilim hosil qilish imkonini beradi. Xususan, huquq ijodkorligi sohasidagi *ziddiyatlar* huquq yaratuvchi organ bilan real voqelik o'rtasida, siyosiy tizim demokratlashuvi bilan bozor iqtisodi munosabatlari shakllanishi o'rtasida, yangicha iqtisodiy rivojlanish talablari bilan amaldagi huquqiy normalar o'rtasida, davlat qurilishini modernizatsiyalash bilan yangi texnologiyalar sust joriy etilganligi o'rtasida, huquqiy normalarning barqarorligi bilan huquq vositasida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning dinamikasi (o'zgaruvchanligi) o'rtasida, huquq normasida modellashtirilgan xulq-atvor qoidasi bilan fuqarolarning eski, nosog'lom odatlari, yurish-turish stereotiplari o'rtasida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

4. Hozirgi zamonda ijtimoiy voqealar jo'shqin rivojlanayotganligi, siyosiy va huquqiy jarayonlar esa, muttasil murakkablashib borayotganligi bois davlat va huquq hodisalarining ilmiy tahliliga ***tizimli (sistemali) yondashish*** alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tizimlilik, sistemalilik namoyon bo'lishi jamiyatning tabiiy holati va mavjudligining zaruriy shartidir. Ijtimoiy tizimlarni tadqiq etganda ulardagi ichki ziddiyat va dialektik qarama-qarshilik xususiyatlarini inobatga olib ish tutish lozim¹. Tizimli yondashuv ijtimoiy (huquqiy) tadqiqot-

¹ Qarang: Афанасьев В.Г. Системность и общество. – М., 1980. – 17-бет.

lar metodologiyasini yaratishning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Voqea va hodisalarni tizimli o'rganish ilmiy haqiqatga erishish yo'lini osonlashtiradi.

Davlat-huquqiy munosabatlar va barcha huquqiy voqeliklarni sistemali o'rganish ularni yaxlit tizim sifatida tasavvur etish imkoniyatini beradi. Davlat va huquqni siyosiy tizim yoki huquqiy tizimning tarkibiy qismi, shuningdek, huquqiy tartibga solish mexanizmi (tizimi)ning tarkibiy bo'g'ini sifatida tahlil etish ularning ilgari anglab yetilmagan yangi, boy va serjilo qirralarini ochishga ko'maklashadi. Masalan, davlat siyosiy tizimning bir elementi bo'lib, bu tizimning boshqa elementlari bilan institutsional, iyerarxik, funksional va boshqa o'zaro ta'sir hamda aloqadorlik munosabatlarida bo'ladi. Ayni vaqtda, davlatning o'zi ham turli organlar, muassasa va tashkilotlarning majmui sifatidagi yagona bir butun tizim (sistema) sifatida yagona va yaxlit holda harakatlanadi. Ushbu yondashuv huquqqa ham to'la taalluqlidir. Tizimli tahlil vositasida davlat va huquq hodisalarini *statik* hamda *dinamik* holatlarda keng tavsiflash mumkin bo'ladi.

5. Davlat va huquq nazariyasining metodologik muammolari qatorida davlat va huquq voqeliklarini *modellash* hamda zaruriyat tug'ilganda siyosiy va *huquqiy eksperimentlar* o'tkazish ham muhim o'rin tutadi. Tabiiyki, qonun chiqaruvchi idora, huquq ijodkorligi subyekt huquqiy normalar vositasida ko'zlanayotgan huquqiy xulq-atvorning modelini yaratadi, jumladan, huquqiy munosabatlar huquqiy xulq-atvorning modeli asosida kechadi, deb e'tirof etilishi mumkin. Shuningdek, huquqni qo'llash jarayonida ham tegishli xulq-atvor va *huquqiy tartibga solish mexanizmi modellashtiriladi*. Ana shunday huquqiy modellashtirishning ilmiy va sotsiologik jihatlarini tadqiq etish va hayotga joriy etish amaliyotda salmoqli samaralar keltirishi mumkin. Keyingi yillarda huquqiy eksperiment o'tkazishga e'tibor berilayotgani tahsinga loyiq¹.

6. Davlat va huquqning talqiniga *funksional yondashuv* hanuz o'zbek huquqshunosligining e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. *An'anaviy* yondashuvga ko'ra, davlatning ichki funksiyalari ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga bog'liq holda iqtisodiy funksiya, ijtimoiy funksiya, siyosiy funksiya, madaniy-tarbiyaviy funksiya, ekologiya funksiyasi kabilarga ajratiladi. Mustaqillik yillarida hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi konstitutsiyaviy darajada joriy etilganligi munosabati bilan davlatning qonun chiqarish funksiyasi, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etish funksiyasi, odil sudlovni amalga oshirish funksiyasi tarzida tasniflash muayyan mantiq kasb etmoqda. Demak,

¹ 2013-yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi sinovi bo'yicha huquqiy eksperiment o'tkazish haqida»gi farmoyishi qabul qilingan.

fanimiz oldida davlat funksiyalarini tasniflash mezonlarini yanada chuqurroq tadqiq etish va aniqlash vazifasi turibdi.

Guvohi bo'lganimizdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davlat va huquq funksiyalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini kun tartibiga qo'ydi. Zero, davlatning bank, kredit, pul tizimi ustidan nazorat funksiyasini amalga oshirishning oqilona me'yorlarini aniqlash zarurati kelib chiqdi. Davlatning bu boradagi funksiyasini xususiy sektor ixtiyoriga o'tkazishda ham muayyan chegara bo'lishi lozim ekan. Shuningdek so'nggi yillarda davlatning ta'lim funksiyasi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash funksiyasi, jamiyatni axborotlashtirish yoki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish funksiyasi, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishni tashkil etish funksiyasi kabi yangi funksiyalari namoyon bo'lmoqda.

Huquqning funksiyasi ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning asosiy yo'nalishi (uslub) sifatida tushuniladi. Unga ko'ra, huquqning dinamik, statik va qo'riqlovchi funksiyalari farqlanadi. Ammo, *huquqiy tizimning funksiyasi, huquqiy siyosatning funksiyasi, huquqiy madaniyatning funksiyasi, huquqiy tartibga solish mexanizmining funksiyasi* tarzida tasniflanganda yuqoridagi metodologik mezon o'zgarib ketishi kuzatilmoqda. Huquqiy tizimning funksional jihatlari tahlil etilganda uning tarkibiy qismlarining ham funksional namoyon bo'lish xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Har bir huquqiy hodisa(institut)ning funksional namoyon bo'lishi keng sotsiologik tadqiqotlar natijalari (ma'lumotlari) bilan asoslantirilishi ularning ilmiylikini ta'minlaydi.

3-§. Davlat va huquq nazariyasining umumnazariy muammolari

1. So'nggi yillarda davlat va huquq nazariyasi fanining umumnazariy arsenali yangi kategoriyalar hisobiga boyimoqda. Jumladan, «huquqiy makon», «huquqiy muhit», «huquqiy maydon», «huquqiy siyosat», «huquqiy strategiya», «yuridik jarayon», «yuridik prognozlash», «yuridik amaliyot» kabi tushunchalar fanimiz tahlil doirasiga kirib, uning ilmiy apparatini yanada rivojlantirmoqda.

2. Mamlakatimiz *huquqiy tizimida ro'y berayotgan liberallashtirish jarayonlari tendensiyalarini*, uning qonuniyatlari va ustuvor yo'nalishlarini ilmiy tahlil qilish, shuningdek, huquq va qonunchilikning barcha sohalarini yanada liberallashtirish, insonparvarlashtirish sohasida hali foydalanilmagan salohiyat va yangi imkoniyatlarni izlab topish borasida tadqiqotlar olib borish lozim. Huquqiy islohotlar va huquqiy siyosatning ilmiy konsepsiyasini (Davlat dasturi) yaratish maqsadga muvofiq.

3. Ijtimoiy hayotimizda huquqiy g'oyalar va ideallar normativ tarzda rasmiylashtirilgan **huquqiy prinsiplar** sifatida namoyon bo'ladi. *Huquqiy prinsiplarning* qaror topishi va hayotiy munosabatlar mazmuniga joriy etilishi, singdirilishi hamisha dolzarblik kasb etadi. Barcha huquqiy prinsiplarni tizimli, kompleks tadqiq etish bilan bir qatorda, biz uchun o'ta muhim bo'lgan **«huquq ustuvorligi»** va **«qonunning ustunligi»** prinsiplarining nisbatini ilmiy-nazariy isbotlash huquqiy tafakkurimizni yangi bosqichga ko'taradi. Shu bilan birga, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashning yuridik, ijtimoiy, g'oyaviy mexanizmlarini tahlil etish nihoyatda dolzarb bo'lib, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik.

4. Puxta o'ylangan, oqilona, barqaror *huquqiy siyosat* hamisha ilmiy asoslangan izchil **yuridik prognozlashga** asoslanadi. Mamlakatimizda yuritilayotgan huquqiy siyosatni tavsiflashda quyidagi muhim jihatlarni qayd etish mumkin. Qonun loyihalarini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchi subyektlarning huquqiy siyosat izchilligiga oid ilmiy tavsiyalarga e'tiborini kuchaytirish va huquqiy siyosatni amalga oshirishda yuridik prognozlashdan samarali foydalanish zarur. Yuridik prognozlash (ayniqsa, huquq ijodkorligi sohasidagi prognoz) jarayonining tashkiliy-huquqiy negizi, huquqiy hodisalarga bashorat tarzida baho berish usullari va metodlarini takomillashtirish dolzarb vazifadir.

5. Davlat qurilishi sohasini erkinlashtirish, *siyosiy va huquqiy tizimlarni modernizatsiya qilish*, shu jumladan *sud-huquqiy tizimni liberallashtirishning* ilmiy asoslangan oqilona mexanizmlarini, hayotiy shakl, usul va yo'llarini izlash, tegishli ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish o'ta ahamiyatli vazifadir. Shu bilan birga, davlat boshqaruvini yanada optimallashtirishga yo'naltirilgan **ma'muriy islohotlarning** mohiyatini anglash, bunday islohotning ilmiy asoslangan istiqbolli dasturini yaratish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi" tasdiqlandi. Konsepsiyaga asosan, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, ijro etuvchi hokimiyat organlarini isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi: *birinchi yo'nalish* – ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; *ikkinchi yo'nalish* – ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari(funksiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohasini aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish; *uchinchi yo'nalish* – iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish; *to'rtinchi yo'nalish* – vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari

hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish; *beshinchi yoʻnalish* – davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish; *oltinchi yoʻnalish* – professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning taʼsirchan mexanizmlarini joriy etish.

Mazkur yoʻnalishlardagi vazifalarni amalga oshirish natijasida ijroiya hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish va isloh qilishning aniq zamonaviy mezonlari joriy etiladi; barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimi joriy etiladi; davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish amalga oshiriladi; iqtisodiyot tarmoqlariga maʼmuriy taʼsirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirishga erishiladi; aholiga davlat xizmatlarini koʻrsatish tartib-taomillari optimallashtiriladi; ijroiya hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi taʼminlanadi.

Shubhasiz, maʼmuriy islohotlar konsepsiyasida nazarda tutilgan cho-ra-tadbirlarning amalga oshirilishi, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va jahon standartlarini hisobga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga yangi kuch bagʻishlaydi.

6. Milliy huquqshunosligimizda *yangi huquq sohalari paydo boʻlayotganligi davrning muhim tendensiyasidir*. Jumladan, soʻnggi vaqtlarda ekologiya huquqi, soliq huquqi, bojxona huquqi, tadbirkorlik huquqi, bank huquqi, korporativ huquq kabi qator yangi huquq sohalari «shakllantirilmogda». Bunda baʼzan subyektivizm ustunlik qilib, har bir huquq sohasini ajratish va alohida rasmiylashtirishda zamindor mezon hisoblanmish «*huquqiy tartibga solish predmeti*» va «*huquqiy tartibga solish usuli*»ni «*ajralib chiqayotgan*» yangi huquq sohasiga tatbiqan aniqlashga yetarli eʼtibor berilmayapti yoki tegishli nazariy malaka yetishmayapti.

Shuningdek, huquqshunosligimizda «huquq» bilan «qonun»ni bir-biridan farqlamaslik holatlari mavjud. Undan kelib chiqib koʻpchilik tadqiqotchilar «*huquq sohasi*» va «*qonunchilik sohasi*» hodisalarini yetarlicha farqlamaydilar. Bu nazariy uquvsizlik oqibatida baʼzi olimlarimiz «huquqning kompleks sohasi» bor, deb daʼvo qilmoqdalar. Aslida esa, kompleks sohalar faqat qonunchilikda mavjud boʻlishi mumkin (masalan, transport qonunchiligi, kapital qurilish qonunchiligi va boshqalar).

7. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida davlat va huquq hodisalariga *aksiologik yondashuv*, yaʼni *qadriyatlar tizimi* mezonlari asosida baho berish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Qadriyatli talqin tufayli davlat va huquqning yangi qirralarini, jamiyatni uyushtiruvchi, rivojlantiruvchi jihat-

lari, bunyodkorlik salohiyati ochiladi. Shu yo'nalishda izlanishlar olib borib, ***fuqarolik jamiyatiga mos huquqiy qadriyatlar tizimini*** shakllantirish, huquqning (qonunning) yuksak nufuzli ijtimoiy qadriyat ekanligini ilmiy jihatdan isbotlash, shuningdek davlat va huquqqa *qadriyat* tarzida yondashuvchi *yuridik aksiologiya* ilmiy yo'nalishini rivojlantirish lozim. Huquqni (qonunni) o'rganishning ma'naviy-axloqiy jihatlarini teran tahlil etish, aholi turli qatlamlari huquqiy madaniyatini yuksaltirishning sotsiologik negizlarini mustahkamlash yo'llarini izlash, siyosiy faollik, siyosiy madaniyat bilan huquqiy madaniyatning o'zaro nisbatini aniqlovchi tadqiqotlarni amalga oshirish ham muhimdir.

8. Horijiy mamlakatlar yurisprudensiyasida huquq hodisasining *sotsiologik talqiniga* katta e'tibor qaratib kelinayotganligi ma'lum. Afsuski, mamlakatimiz yurisprudensiyasida ***huquq amal qilishining sotsial mexanizmi*** tahliliga, huquq ijodkorligi (shu jumladan, qonun ijodkorligi)ni sotsiologik ta'minlash masalalariga, huquqni qo'llashning ijtimoiy omillariga lozim darajada e'tibor qaratilmayapti. Vaholanki, ijtimoiy hayot bilan bog'lamasdan turib davlat hodisalari va huquqiy institutlarning harakati hamda rivojlanishini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, «huquqiy siyosat sotsiologiyasi», «qonunchilik sotsiologiyasi», «huquqiy ongning sotsiologik tahlili», «huquqiy munosabatlar sotsiologiyasi», «huquqiy tarbiyaning sotsial jihatlarini», huquqbuzar shaxsning sotsial portretini yaratish (profayling usuliga e'tibor qaratish), «qonunni qo'llashning sotsial mexanizmi» kabi dolzarb mavzular ustida ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish lozim.

4-§. Davlat va huquq nazariyasining xususiy-nazariy muammolari

1. Zamonaviy ***davlat hokimiyatining huquqiy qiyofasini tavsiflash***, davlat hokimiyatini modernizatsiya qilish, optimallashtirish, hokimiyatni amalga oshirishning oqilona mexanizmlarini yaratish

fanimiz doimiy diqqat markazidagi jiddiy masalalardir. Shu o'rinda «ijtimoiy davlat» konsepsiyasiga ham e'tibor qaratish lozim.

2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasida jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlariga hamohang tarzda «mamlakat aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy-huquqiy ongi darajasi o'sib borishi... yuzaga kelmoqda... Bir so'z bilan aytganda, huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda»¹, deb ta'kidlandi. Kishilarning

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 16-bet.

huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishga yo'naltirilgan islohotlar shunchalik samarali bo'ladi. Shu bois, aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda uni muttasil yuksaltirish, yangi huquqiy doktrinani, huquqiy mafkurani ijtimoiy ongga singdirish shakl va usullarini ilmiy-nazariy tadqiq etish fanimizning muhim vazifasi hisoblanadi. Mazkur vazifalarni hal etish orqali aholimizning, har bir **shaxsning huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvida** erishish mumkin.

Ma'lumki, jamiyat a'zolarining, har bir shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi masalalarini ilmiy tadqiq etish davlat va huquq nazariyasi oldida turgan yangi dolzarb muammolardan biridir. **Huquqiy ijtimoiylashuv** – shaxs (fuqaro) ning huquqiy tizim faoliyatiga, huquqiy muhitga, huquqiy munosabatlarga faol jalb etilishi bo'lib, uning jamiyatda shakllangan huquqiy qadriyatlar va madaniyat me'yorlarini, namunalarini va huquqqa muvofiq xulq-atvor stereotiplarini (andozalarini) o'zlashtirishi, huquqiy talablar, qoidalar hamda prinsiplarni keng anglashi va ularni o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishi jarayonidir.

3. Huquqiy tartibga solishning yuridik, sotsial va ma'naviy-ruhiy mexanizmlarini chuqur tatqiq etish alohida dolzarb masaladir. Bu borada, shuningdek, huquqiy tartibga solish yoki huquqni (qonunni) qo'llash algoritmini o'rganish yangi nazariy bilim va amaliy natijalar berishi mumkin.

4. Qonunni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2015-yil 23-yanvardagi qo'shma majlisidagi ma'ruzada shunday ta'kidlandi: «Huquqni qo'llash va amalga oshirish samaradorligini albatta o'rganishni va shu asosda parlament palatalarining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil ishlari dasturlariga zudlik bilan tuzatishlar kiritishni ko'zda tutadigan me'yoriy huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash – bugungi kunda dolzarb vazifaga aylanishi darkor.»¹.

Chamasi, qonunni amalga oshirishda samaraga erishish uchun «qonunning ichki mexanizmi» va «qonunni amalga oshirishning tashqi mexanizmi» uyg'unligini ta'minlash juda zarur. Qonunning ichki mexanizmi mukammal bo'lishi uchun undagi norma (modda) va qoidalar matnida huquq subyektlari huquq va majburiyatlarining o'zaro mutanosibligiga erishish lozim. Uning tashqi mexanizmi esa, qonunning ijrosini ta'minlash uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, institutsional-tashkiliy chora va protsessual mexanizmlar yaratilishi talab etiladi. Bunda, shuningdek siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy (jamoatchilik nazorati) va yuridik kafolatlarga, huquqiy madaniyat omillariga tayaniladi.

¹ Xalq so'zi, 2015-yil 24-yanvar.

5. **Huquqiy prezumpsiyalar** fanimiz diqqat-e'tiboridan chetda qolayotgan muhim mavzulardan biridir. Masalan, aybsizlik prezumpsiyasi mavzusi nisbatan tadqiq etilgan bo'lsa, fuqarolarning huquqni bilish prezumpsiyasi va normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasi (shuningdek, qonunlarga mosligi prezumpsiyasi), shartnomaga ixtiyoriy amal qilish yoki majburiyatni ixtiyoriy bajarish prezumpsiyasi kabi masalalar hali yetarli o'rganilmagan. Prezumpsiya huquqni qo'llash jarayonida yuridik ahamiyatli holat(hodisa)larning mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi ehtimolini anglatadi.

6. Huquqiy hayotda, yuridik amaliyotda uchrayotgan *yuridik ziddiyatlar*, o'z huquqiy yechimini topmay qolayotgan muammolar hamda kamchilik (qarama-qarshilik)larning ko'lami davlat va huquq nazariyasi tomonidan **«yuridik kolliziya»** va **«yuridik konflikt»** kategoriyalari ma'no-mazmunini ilmiy tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Yuridik ixtiloflar (kolliziyalar) o'xshash (analogik) munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi nomutanosiblik yoki huquqni qo'llash jarayonida subyektlarning vakolatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik tarzida namoyon bo'ladi.

7. Huquqni amalga oshirish (huquqning harakatlanishi) yoki **huquqni qo'llash samaradorligini oshirish** ham dolzarb muammo sanaladi. Bu borada *«huquqiy normaning samaradorligi»*, *«huquqni qo'llash faoliyatining samaradorligi»* tushunchalari ta'rifini oydinlashtirish, samaradorlikni ta'minlash omillari, vositalari va usullarini ilmiy tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

8. **Huquq normasining strukturasi bilan qonunning moddasi (normasi)ning strukturasi** o'rtasidagi nisbatni tahlil etish ham davlat va huquq nazariyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan huquq normasi uch elementdan: gepotiza, dispozitsiya va sanksiyadan iborat deb e'tirof etiladi. Qonunning normasida esa, bu uch element hamma vaqt ham jamuljam holda uchrayvermaydi. Masalan, Konstitutsiyaning deyarli barcha normalari prinsip yoki dispozitiv norma bo'lib, ularning aksariyatida gepotiza uchramaydi, konstitutsiyaviy moddalarda aniq sanksiya ham nazarda tutilmagan. Shu bois, huquq normasi bilan qonun normasi o'rtasidagi dialektik nisbatni ilmiy tadqiq etish katta qiziqish uyg'otadi.

Ta'kidlash joizki, davlat va huquq nazariyasining metodologik, falsafiy talqin etilishiga e'tibor qaratish mazkur voqeliklarning yangi qirralarini, hali ilmiy tahlil obyektiga aylanmagan jihatlarini ochish va ular xususida mukammal ilg'or bilimlar hosil qilish, ular bilan tafakkurimizni yanada boyitish imkoniyatini beradi.

Yuqorida davlat va huquq nazariyasining ba'zi dolzarb muammolariga e'tibor qaratildi, xolos. Ammo, bu bilan fanda mavjud barcha ilmiy va amaliy

muammolar qamrab olingani yo'q. Fanimizning tahlil mavzusi va muammolari nihoyatda keng. Bu esa, fan fidoyilaridan katta safarbarlikni, tunganmas kuch-g'ayrat va tashabbusni talab etadi.

Shunday qilib, hozirgi sharoitda jamiyatda ro'y berayotgan tub islohiy o'zgarishlar tufayli huquqshunoslik fanimiz oldida yangi ufqlar ochilmoqda. Ilmiy muammolarning hal etilishi esa, o'z navbatida, ijtimoiy hayot sohasida jo'shqin rivojlanish imkoniyatlari kengayishiga olib keladi. Yuridik amaliyot bilan huquqshunoslik fanining uzviy aloqadorlik diallektikasi ana shunday. Demak, olimlarimiz oldidagi asosiy vazifa: huquqshunoslik fanining ijtimoiy nufuzi yuksak bo'lishiga, uning jamiyat taraqqiyoti va mamlakatimiz ravnaqiga samarali xizmat qilishiga erishishdan iborat. Huquqshunoslik fani ijtimoiy hayot qonuniyatlarini aniq anglashga asoslangan va istiqbolga yo'naltirilgan xulosa hamda tavsiyalarni shakllantirib bera olsagina o'zining yuksak ijtimoiy vazifasini ado etgan hisoblanadi.

Odilqoriyev X.T.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

Darslik

O'zbek tilida

Muharrirlar: A. Omonov,
G. Ortiqxo'jayeva
Texnik muharrir: A. Ahmedov
Sahifalovchi: Sh. Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
«Adolat» nashriyoti. Nashr. lis. AI № 228, 16.11.2012.
100192, Toshkent shahri, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 69-uy.
Telefonlar: 0(371) 268-28-56, 268-28-57.
Fakslar: 0(371) 268-28-43, 268-28-41.
Veb sayt: www.adolatnashr.uz
e-mail: info@adolatnashr.uz

Bosishga ruxsat etildi: 10.01.2018-y.
Qog'oz bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$. «Antiqua» garniturasida.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 33,0.
Nashriyot hisob tabog'i 29,75. Adadi 2000 nusxa.
18-8-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.